

# Ёшлар хулқ-атвори ва дунёқарашининг шаклланишида ижтимоий-психологик таъсирларнинг тутган ўрни

ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАР ИТТИФОҚИ

ЁШЛАРГА ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ МАРКАЗИ

# «ЁШЛАР ХУЛҚ-АТВОРИ ВА ДУНЁҚАРАШИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ТАЪСИРЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ» МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ

Мақолалар тўплами

Тошкент-2020

Ёшлар хулқ-атвори ва дунёқарашининг шаклланишида ижтимоий-психологик таъсирларнинг тутган ўрни / Мақолалар тўплами. – Тошкент, 2020. – 315 бет.

Мазкур тўплам “Ёшлар хулқ-атвори ва дунёқарашининг шаклланишида ижтимоий-психологик таъсирларнинг тутган ўрни” мавзусида Ўзбекистонда психологияга бағишлаб ўтказилган Республика илмий-амалий конференцияси материаллари асосида тайёрланган. Ушбу тўпламда психологиянинг назарий, методологик ҳамда умумпсихологик масалалари, ёшларнинг ижтимоий-психологик муаммолари, унинг сабаб ва ечимлари, ёшларнинг хулқ-атвори ва дунёқарашида кузатилаётган ўзгаришлар, ижтимоий-психологик таъсирлар, ижтимоий-психологик муаммоларнинг ёшлар руҳиятида намоён бўлиш хусусиятларини илмий тадқиқ этиш бўйича олиб борилаётган изланишларнинг долзарб йўналишлари, бу борада йиғилган маълумотлар ва улардан амалиётда фойдаланиш имкониятлари юзасидан амалий билимлар тақдим этилади.

Мақолалар тўплами соҳа мутахассислари, маънавий-маърифий ишларни ташкил этишга масъул ходимлар, амалиётчи психологлар, психология таълим йўналиши талабалари, психология бўйича илмий изланишлар олиб борувчи тадқиқотчилар, психологияга қизиқувчи турдош йўналишлар вакилларига мўлжалланган.

**Таҳрир кенгаши аъзолари:** Марказ директори
Д.О.ШОДИЕВА,

стажёр-тадқиқотчи, психолог
С.ҚАХХОРОВ,

психолог
М.КУБАЕВ

«Ёшлар хулқ-атвори ва дунёқарашининг шаклланишида ижтимоий-психологик таъсирларнинг тутган ўрни» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференциясини ўтказиш Ўзбекистон ёшлар иттифоқи муассислигидаги Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази Илмий-психологик Кенгашининг 2020 йил 29 сентябрдаги 01-04/14 сонли мажлис баёни билан мақулланган.

Тўпламда келтирилган маълумотларнинг холислиги ва ишончлилигига муаллифлар масъулдирлар.

# ИЖТИМОИЙ МЕЪЁРЛАР ВА ХУЛҚДАН ОҒИШ МУАММОСИНИ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХИ ВА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР

*Кубаев Маъруф Қосим ўғли*

Инсон хулқида жамиятда қабул қилинган меъёр ва мезонлар ижтимоий тараққиёт жараёнида шаклланган, ижтимоий тараққиёт омилларидан бирига айлангандир. Ушбу меъёр ва мезонлар нафақат ижтимоий барқарорликка балки индивиднинг ўзини ҳам руҳий барқарорлик ва тараққиёти учун зарурдир. Жамиятда ахлоқий маънавий маданий хулқ кўриншлари шаклланиш, ушбу талабалар даражасидан оғиш масалалари қадимдан алломаларимиз томон

Ахлоқий меъёрлардан оғиш муаммолари, Абу Наср Ал Форобийнинг «Бахтга эришув йўлини кўрсатувчи китоб», «Бахтга эришув ҳақида», «Давлат арбобининг ҳикматлари», «Фозил одамлар шаҳри» сингари асарларида кўтарилган. Аллома ўз қарашларида фазилатга жуда катта ўрин беради. Арастуга ўхшаб, у ҳам фазилатларни икки қисмга: фозоил нутқия [ақл идрокка асосланган фазилатлар] ва фазоил хулқия (хулқий фазилатлар)га ажрағ тади ҳамда уларнинг ўрталик хусусиятларини таъкидлаб ўтади. Буюк **Деструктив** ватандошимизнинг фикрича, инсонга уни гўзал амаллар қилиш учун йўналтирадиган одат маҳсули бўлмиш етук хулқ лозим. Хулқнинг яхшилиги хатти-ҳаракатларда меъёр қай даражада сақлангани билан боғланади.

Яна бир шарқ алломаси Абу Райҳон Беруний ўз асарларида инсонлар ва халқларнинг ижобий ёки салбий урф-одатлари, хулқғатворининг шаклланишида табиий муҳитнинг ҳамда жуғрофий омилларнинг аҳамиятини кўрсатиб берди. Ибн Синонинг ахлоқий қарашлари асосан «Ахлоқ илмига доир рисола», «Бурч тўғрисида рисола», «Нафсни поқиза тўтиш тўғрисида рисола», «Адолат ҳақида киғ тоб», “Турар жойлардаги тадбирлар”сингари асарларида ва ўз замондошлари билан олиб борган мунозарағёзишмаларида ўз аксини топган Юсуф Хос Ҳожиб томонидан инсон хулқ атворига нисбатан ўзига хос ёндашувдаяхши хулқ ҳам, ёмон хулқ ҳам, икки хил бўлиши мумкин: туғма ва ижтимоий муҳит натижасида шаклланган хулқ. Юсуф Хос Ҳожиб ахлоқий-фалсафий қарашлари бугунги кунда ҳам ўз қадрини йўқотмаган, чунки у умуминсоний,маънавий негизларни ўргатади. Алломанинг ўгитларига таянган ҳолда биз ҳам ёш авлодни шундай руҳда тарбиялашимиз лозим. Зеро, жамиятда ахлоқ одоб йўқолса жамиятда маънавий жиҳатдан камбағал инсонлар оммаси вужудга келади Хитой файласуфи Сюньзақ ва қадимги юнон файласуфи Афлотун инсонда бўзғунчилик сари ундовчи хусусиятлар мавжуд эканлиги таъкидлаганлар.

Инсондаги деструктив хулқ табиати хозирга қадар психология фанида хали яхши ўрганилмаган муаммолардан бири саналади Бу муаммо 20 асрнинг ўрталарида шаклланган.

*Деструктив хулқ-жамиятда қабул қилинган ижтимоий хулқ кўринишларига зид бўлган,ҳар қандай муқобил фикрларни инкор этишга йўналтирилган хулқ кўринишлари.*

Деструктив хулқ нафақат инсонда маълум бир ижтимоий муаммоларни, балки унинг жисмоний соғлигида ҳам муаммоларни келиб чиқишига сабаб бўлиши мумкин.

Болалар орасида девиант ҳулқ-атвор элементларининг намоён бўлиши, уларнинг хатти-харакатлари, шахслараро муносабатлари, антиижтимоий фаолиятларида акс этади. Кўпинча «ноқобил оилалар» гуруҳига кирувчи оила фарзандларида ҳулқ оғишга мойиллик кучли бўлади. Аммо бу билан фақат шу гуруҳга кирувчи болалар тартиббузарликлар содир этади деб баҳо бериш тўғри бўлмайди.

Кўпчилик билан доимо мулоқотда бўлган, болалаикнинг шўхлиги, одобсизлигини бошдан кечирган болалар хаёт қадриятлари, кўпчилик билан мулоқот усулларини эгаллашади, ҳаётнинг турли қалтис вазиятларига ҳам тайёр бўлишади.

Болаларнинг қизиқишлари, майл ва эхтиёжларининг эътибордан четда қолиши вақт ўтиши билан уларда балоғат ёшига келиб невротик ҳолатлар, унинг оқибатида соматик касалликлар, онгсиз норозилик, ички низолар, қондирилмаган болалик майлларининг ўрнини қоплашга интилиш мойиллигини ошишини башорат қилиш мумкин. Ўсмирлик даврининг асосий ўзига хослиги боликдан катталикка ўтишидадир .Бу давр физиологик ривожланиш ва жинсий етилишнинг кескин жадаллашуви давридир. Бу даврга ўсмирлар томонидан шахс салбий хусусиятларининг намоён бўлиши ва уларнинг алмашиниб туриши: гоҳ мулокотга киришувчан, гоҳ акси, гоҳ қўвноқ, гоҳо эса ғамгин ва х.к. лар характерлидир. Ўсмирнинг асосий мақсади - ўз-ўзини англаш ва ухшашликни шакллантириш (тенгдошларидек бўлиш).

Боликдан катталикка ўтиш ҳаммада ҳам тёкис кечавермайди. Шунга кура ўсмирликда шахс шаклланиши 3 турга булинади (Э. Шпрангер). Биринчи тур учун даврнинг иккинчи марта дунёга келишдек жушкин, кризисли кечиши хосдир. Унинг якуни - янги «Мен»нинг юзага келиши. Иккинчи тип учун даврнинг силлик, кучли асабийлашишларсиз шахс шаклланиши хосдир. Шахс шаклланишининг учинчи турига эса онгли ва фаол равишда ўз-ўзини тарбиялаш, хавотир ва инкирозларни мустақил енгиш хосдир. Ш. Бюлер жисмоний пубертат билан бир каторда психик пубертатни ҳамда унинг ичидаги 3 та фазани ажратди.

Биринчиси - бу психик пубертатликнинг арафаси бўлиб, 11-12 ёшли ўсмирда куйидаги алохида белгилар пайдо бўлади: бебошлик, урушкоклик, болалар ўйинлари унга қизик кўринмайди, ундан каттарок ўсмирларнинг ўйинлари эса тушунарсиз бўлади.

«Арафа» ундан кейинги 11-13 ёшдаги қизлар ва 14-16 ёшдаги ўғил болаларни ўз ичига олган салбий (негатив) фаза билан алмашинади. Атроф муҳитга ўтувчи тез кўзгалувчанлик ва безовта ҳолат, нозиктабиатлилик, жисмоний ва рўҳий дармонсизлик, ўзидан норозилик, кабилар бу даврга хос асосий белгилардир. Шунинг учун кўпчилик ўсмирларда ўзига ва атрофидагиларга бўлган нафратни ва унинг натижаси бўлган ўзини ёлгиз, бегона ва бошкалар томонидан тушунилмаган сезиш каби ҳолатларни учратишимиз мумкин. Бу вақтда бола асосан, қарама- қаршиликларга, салбий таъсирларга ута

сезгир бўлиб қолади, бундай вазиятлар болада ёки агрессив ўз-ўзини химоя килишни ёки пассив меланхолияни келтириб чикаради. Салбий фаза якуни - жисмоний етилишнинг якунланиш вақтига тўғри келади.

Ижобий (позитив) фаза ўсмирнинг муҳитнинг ижобий тарафларига (аспектларига) таъсирчан бўлиб колиши билан бошланади. Унинг олдида хурсандчиликнинг манбалари пайдо бўлади, уларнинг ичидан Ш. Бюлер биринчи ўринга «табиатнинг ҳаяжонланиши» - гўзалликни онгли ҳаяжонла-нишини куяди. Ривожланиш учун қулай шароитда хурсандчиликнинг манбалари санъат ва илм бўлиши мумкин. Буларга «энг кучли тангликлардан ҳам чиқариб юборувчи» мухаббат ҳам қўшилади (В. А. Аварин Психология детей и подростков. СПб., 1998. С. 308-309).

Бу ешда жинсий етилиш натижасида бола организмида ва рухиятида сезиларли ўзгаришлар рўй беради. Бу боланинг қизиқишлар сохасини анчагина ўзгартиради. Бунда қизиқишлар ривожининг икки хусусиятини куришимиз мумкин: бир томондан янги қизиқишлар ва майлларнинг пайдо бўлиши (ижтимоий ҳаётга, техникага, қаҳрамонлик ва саргўзаштларга бой китобларни ўқишга; кўпчиликда спортга қизиқиш кучаяди), иккинчи томондан - аввал ўрнатилган қизиқишлар тизимининг йуколиши (ундаги негативизм, қарама-қарши характер шундандир). Л.С. Виготскийнинг езишича айнан шу икки хусусиятнинг уйгунлашуви бир карашда ғалати фактни - қизиқишлар камайиши ёки базан умуман йуколишини характерлайди. Бу вайрон этувчи фаза давомида ўсмир ўз болалигига барҳам беради, шунинг учун ҳам Л. Н. Толстой бу босқични «ўсмирлик сахроси» деб атайди.

Бу фазага пессимистлик, жамоа билан алокаларнинг бузилиши, болалар орасидаги олдинги ўрнатилган муносабатларнинг ўзилиши, шу билан бирга дустона муносабатлар ҳам, ёлғизликка интилиш, бошка инсонларга бўлган муносабатларнинг кескин ўзгариши, жамият хулқ-атвор коидаларига бўйсунмаслик кабилар хосдир.

Натижада кўпчилик ўсмирлар индивидуал йўналишда намоён бўлади. Шу билан биргаликда индивидуалликнинг чуккиси урта ешдаги ўсмирларга тўғри келади, катта ешдаги ўсмирларга келганда эса унинг нисбати камая боради; ўзининг манфаатларига дахлдор бўлган шахсларнинг ҳаёти билангина қизикадилар. Инсонпарварлик рухидаги қизлар сони ўғил болалардан ортиқроқ, шу билан биргаликда ўз манфаатини устун қўювчи - эгоист болалар сони кўпроқ бўлади. Бу тафовутлар жамиятнинг аеллар ва эркаклар учун яратган роллари билан богликдир. Жамият аел кишидан кўпроқ интизомлиликни ҳамда мустақилликка нисбатан итоаткорликни, ўзгалар дардига ҳамдард бўлишини, бошкаларни фикрини ўз фикрига нисбатан устун куйишни кутади. Аел киши куп жихатдан итоаткор, сабрли, кечиримли ва кунувчан бўлиши керак. Бу хислатлар куп жихатдан шахснинг инсонпарвар йўналишига хосдир. Эркак кишига мардлик, фаоллик, мустақиллик, агрессив хатти-ҳаракат ва кўпроқ мустақил фикрлаш ва фаолият курсатиш хосдир. Шунинг учун унинг хатти-ҳаракатларига индивидуаллик хос бўлади.

Ўғил болаларда салбий хислатлар қизларга нисбатан кечрок намоён була бошлайди (бу уларни физиологик жихатдан кечрок етилиши билан боглик), лёкин улар жушкин ва ўзок давом этади.

Ўсмирларнинг мотивацион сохасида жуда мухим ўзгаришлар юз беради, бунда улар ўз олдиларига қўйиган мақсад ва вазифаларига ҳамда ўзларига қўйиган талабларига ахлокий хатти-ҳаракатларини сезиларли даражада бошкартира оладиган бўлиб колишади. Шундай килиб ташки муҳит талабига реактив эргашишдан, ўзининг хулқини ўзининг шахсий идеалларига фаол мувофиклаштиришга ўтиш юз беради.

Ўсмирларда мақсадлардаги муқимлик, етарли даражада ривожланган бурч, маъсулият хислари олдингига нисбатан кўпроқ кўзга ташланади. Эндиликда қизиқишлар бирор вокеа туфайли эмас, билимларни аста-сёкин туплаш натижасида юзага келади. Катор мотивларнинг мукимлиги, қизиқишлар ва укувчилар томонидан куйилган мақсадларга асосланади. Купинча у-бу нарсага бўлган қизиқиш хоббини келтириб чикаради. Қизиқишсиз ўсмирлик ўйинсиз болаликка киесланади. Ўсмирнинг қизиқиши кучли ва купинча бир-бирига алмашинувчан бўлади, лёкин баъзан доимий тусга ҳам эга бўлади; одатда улар ўқиш жараени билан боглик бўлмайди. Бу қизиқишларнинг айримлари ўсмирни шахс сифатида етишишини таъминлайди, чунки улар ўсмирнинг билимга бўлган эхтиежларини кондиради ва унда фойдали куникмалар шаклланишига олиб келади. Аммо маълум бир шахсга хос хусусиятларда улар шахсни эгри ривожланишига, вақтни бехуда ўтказишга, жамоат коидаларини бўзиш кабиларга олиб келади. Азарт ўйинлар уйнаш, маст килувчи ичимликлар ичиш, наркотик хакида гапиришнинг хожати булмаса керак.

Идеалларнинг, ўзига бахо беришнинг, жамиятда ўзини тўтишнинг ўзлаштирилган меер ва коидаларининг мавжудлиги ўсмир шахсининг сезиларли даражада ривожланганлигидан, мотивациясида ва ўзининг хатти -ҳаракатларини ташкил этишда жиддий омил булувчи «ички режанинг» шаклланишидан далолат беради. Аммо бу «ички режа» ягона тизимга айланмаган, етарли даражада умумлашмаган ва муким бўлмайди. Мавжуд идеал муким бўлмайди ва тез-тез ўзгариб туради (ўсмирга бугун бита қаҳрамон екса эртага бошкаси екади). Ўсмирнинг ўзига бўлган талаблари доимий ташкаридан куллаб-кувватлашларга мухтож бўлади. Катор мотивларнинг муким эмаслиги, гаплари ва хатти-ҳаракатларининг ўзгарувчанлиги ҳам шу ердандир. Бундан ташкари ушбу ешдагиларга уйланган масалаларни омадсизликка учрашига сабаб булувчи юкори талабларнинг куйилишидан далолат берувчи, мақсадларнинг имкониятлар билан мос эмаслиги характерлидир.

Катта ёшдаги ўсмирларни атрофидагиларнинг фикрига нисбатан кўпроқ ўз фикрида колиши, уларнинг мотивлари аввламбор ўзининг шахсий фикрини хисобга олган ҳолда шаклланишига олиб келади ва охир окибат уларнинг кайсарликларида намоён бўлади.

Кичик ешдаги ўсмирларда мактаб чегараларидан ташкарига чикиш, катталар ҳаётига қўшилиш, шунингдек ижтимоий муҳитда ўз урнини топиб уни химоя килиш каби янги эхтиежлар вужудга келади. Юкоридаги эхтиежлар факат

етакчи фаолият (ўқиш) ўзгартирилгандагина қондирилади. Мулокот шундай бўлиб қолади.

Тарбия ўсмирнинг тўғри психологик ривожланишига асос бўлиб қолади. Ота-она (ўқитувчи, тарбиячи ва ҳоказо) шуни унутмаслик керак, ўсмирнинг ривожланиши у учун энг оғир ҳаётий жараён. ўсмирни ўсиши натижасида, уни ҳотираси, нутқи, ҳис-туйғулари ўсади. Ҳар бир одамнинг бу даври атроф муҳит билан, ижтимоий ривожланиш билан, қобилияти ва қолаверса боланинг темпераменти ва унинг яқинлари билан боғлиқ. Бу сабаблар шахсни тубдан ўзгартириши мумкин.

Ўсмирни тарбиялашда камчиликлар катта муаммоларга олиб келади. Ўсмирни нотўғри йўлда туриши, бу жамият билан алоқада бўлмаслиги ёки етарли даражада алоқа қилмасликда. Яна ўсмирлик ҳусусиятлари, бу ёшликдан етукликка ўтишлик даври билан боғлиқ.

Ўсмирни фикри бўйича, атрофдагилар, яъни синфдошлари ва тенгдошлари унга қараганда, яхши шароитдаги уйларда яшайдилар. Тарбиячилар ва ўқитувчилар тил топиша олмай, болани уй шароити билан танишмай, унинг муаммоларига эътибор бермай, кўпинча унинг руҳиятига салбий таъсир кўрсатадилар. Ўсмирлик даври энг криминоген даври.

Скиннер фикри бўйича, ёмон ишларни келиб чиқишини олдини олиш, бу ижобий ва фойдалий услубларни топиш демакдир.

Ўсмирни турмуш шароити. (жисмоний ва руҳий камчиликлари, етимлик ва ҳоказо) Кўпчилик ҳолатларда ўсмир ўз “шахс” структурасини бошқа муҳитда топмоқчи бўлади. Атрофдагиларни насиҳатлари уни баттар жаҳлини чиқаради, ўзларини ўта “билимли” қилиб кўрсатиб, эътиборини жалб қилади. Озғин, паст бўйлик ўғил болалар, ривожланишида орқада қолган болалалр, атрофдагиларга кичкина, мослашмаган бўлиб кўринади. Ва шу мухтожликни сезган ҳолда, ҳимояда агрессивликни намоён қилади. Бундай ҳулқ ўз-ўзига ишонмаслик, атрофдагиларга шафқатсизларча муомала қилишга олиб келади.

Бундай муаммолар болани ривожланишига салбий таъсир қилади. Ўсиб келаётган организм ташқи тушунмовчиликлар билан атроф муҳитни ҳар ҳил ҳис этади.

## КРЕАТИВ ТАФАККУРЛИ ЎСПИРИНЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Юсупова Гулбаҳор*

Ўзбекистонда кадрлар тайёрлашнинг сифат даражасини ошириш, халқаро стандартлар асосида олий малакали мутахассислар тайёрлаш учун зарур шарт-шароитларни яратиш, ҳар бир олий таълим муассасасини жаҳоннинг етакчи илмий-таълим муассасалари билан яқин ҳамкорлик алоқалари ўрнатиши, ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услубий материалларини кенг жорий

қилиш, талабалар, илмий-педагог кадрларни замонавий касбий билимлари ва креативлик қобилиятларини ривожлантириш, ёшлар аудиторияси билан иш олиб боришда интерфаол усуллардан самарали фойдаланиш масалалари Ҳаракатлар стратегиясининг устувор йўналишларига мувофиқ олий таълим даражасини сифат жиҳатидан ошириш ва тубдан такомиллаштиришнинг асосий вазифалари сифатида белгиланди.[1]

Ўспиринлик даврида ўқув фаолиятининг мураккаблашиши, уларнинг янги жамоада тутган ўрни улардан кўп нарса талаб қилади. Ўспиринларнинг мактаб ҳаётида, оилада тутган мавқеи ўзгаради, яъни ўзидан кичикларга нисбатан бошлиқ, ташкилотчи ва тарбиячи бўлиш талаб қилинади. Бу даврда фикрлашнингторигиналлиги, ижодий тафаккур сингари жиҳатлар улар учун бирламчи рол ўйнайди.

Креатив – инглизча “ижод”, “яратиш”, “янги ижод” маъноларини англатиб, тафаккурнинг бундай тури фикрлаш тезлиги, ақлнинг пешқадамлиги, онг, тафаккур, ақлнинг барча йўналишида истиқболни кўриш ва англашга ўрнатиш сингари хусусиятлар билан боғлиқ жараён ҳисобланади. Шунга кўра ўспириндаги креатив тафаккур ҳамда унинг ижтимоий-психологик хусусиятлари даврнинг зарурияти, педагоги- психологиянинг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади. Ўспиринлик даврида ўқув фаолиятининг мураккаблашуви, оилада ва таълим муассасасида тутган ўрни ўзгариб боради яъни, ўзидан кичикларга нисбатан бошлиқ, тарбиячи, ташкилотчи вазифасини эгаллашади. Шунингдек, бу даврда ўқувчи-ёшларда ўзликни англашга интилиш, эгаллаган назарий билимларини амалиётда қўллаш ва келажакда касб танлашга бўлган қизиқишнинг ортиши кузатилганлиги боис уларда ижодий тафаккурнинг ривожланиши муҳим рол ўйнайди. Ижодий қобилиятлар ўз-ўзидан ижодий ютуққа айланиб қолмайди. Ижодий натижага эришиш учун хоҳиш ва ирода зарур. Инсон психикаси ижтимоий-тарихий тараққиёт билан боғлиқ. Бу ижтимоий эҳтиёжлардан пайдо бўлувчи ижодий фаолият – инсоннинг юксак руҳиятига боғлиқ.

Илк ўспиринлик ёшидаги ўзгаришлар мактаб, оила, шахслараро муносабатлардаги мавқени янада мустаҳкамлашнинг муҳим омили ҳисобланади. Лекин етакчи омил янгича таълим муассаса ўқувчиси фаолиятининг хусусияти, моҳияти ва мазмунидаги туб бурилишдир. Илк ўспиринларда аввало ўзини англашдаги силжиш яққол кўзга ташланади. Бу ҳол шунчаки ўсишни билдирмайди, балки ўз шахсиятининг маънавий-психологик фазилатларини, фаол ижтимоий турмуш тарзининг мақсад ва вазифаларини англашни, оқилона баҳолашни акс эттиради. Илк ўспиринда ўзининг руҳий дунёсини, шахсий фазилатларини, ақл-заковатини, қобилияти ҳамда имкониятини аниқлашга интилиш кучаяди. Ўз хулқ-атворини жиловлаш, ҳис-туйғулари ҳамда ички кечинмаларини тушуниш иштиёқи вужудга кела бошлайди.

Креатив тафаккур креатив хаёл билан узвий алоқада бўлади. Шунинг учун инсон амалий фаолиятида бир талай саволларга жавобларни хаёл ёрдами билан

[1]Ўзбекистон Реесpубликаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017 . – Б.39.

топади. Жумладан, ҳар хил тахминлар, фаразлар, илмий гипотезалар, кашфиётлар, техника соҳасидаги ихтиролар ҳам ана шу йўсинда амалга ошади, яъни хаёл ёрдами билан зарур натижаларга эришилади. Шунингдек, креатив тафаккур жараёни баъзи бир вазифаларни ҳал қилиш, бажариш, муҳокама юритиш, мулоҳаза қилиш, фикрлаш, фараз қилиш сингари жараёнлар мантиқий фикр юритиш усуллари ва воситаларини қўллаш йўли билан ниҳоясига етказилади. Масалан, математика, физика каби фан асосларини ўзлаштиришда худди шундай ҳолат рўй беради.

Креатив тафаккур жараёни мавжуд билимларга, боғлиқдир. Шу нарсани алоҳида қайд қилиб ўтиш керакки, ўзаро алоқа қилишда тафаккур муҳимроқ, мавқелироқ ўрин тутади. Ҳозирги замон таълими олдида турган асосий мақсад, ўқувчи ёки талаба шахсини билимлар билан қуроллантириш эмас, балки уларни фикр юритиш фаолиятига ўргатишдан иборатдир.

Хулоса қилиб айтганда, инсоннинг ижодий тафаккуридаги ғоявий, мафкуравий, маърифий, маданий, диний ва ахлоқий қадриятлар, дунёқараш, урф-одатлар, анъаналар ва муносабатлар келажак авлоднинг маънавий меросини белгилайди.

Юқоридаги фикр ва мулоҳазаларни умумлаштириб шуни айтиш мумкинки, илк ўспиринлик даврига келиб ўқувчиларнинг билиш (креатив-ижодий) фаолиятидаги ижобий ўзгаришлар, касб-ҳунар мотивлари, интилиш, мойиллик, табиат ва жамиятга нисбатан ижтимоий ва ижтимоий-психологик муносабат улар шахсининг таркиб топишида (ижтимоийлашувида) муҳим роль ўйнайди. [2]

## Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:


1. Ғозиев Эргаш. Онтогенез психологияси. Назарий-экспримент таҳлил. Монография. "Ношир". Тошкент: 2010.
2. Ғозиев Э., “Умумий психология” ЎзМУ Ўкув методик Кенгаши нинг 2002 йил. Мажлис билан нашрга тавсия этилган. «Университет» нашриёти, 2002.
3. Ғозиев Э. “Ёш психологияси ва педагогик психология нимани ўрганди?”. Ўзбекистон Халқ таълими вазирлиги. 2017.
4. Жабборов Б.Г., Зокирова Н.Д., “Педагогларда Креатив тафаккурни ривожлантириш технологиялари”. Наманган, Ўзбекистон.
5. Райгородский Д.Я. “Практическая психодиагностика. Методики и тесты. Самаара: Издательский Дом “Бахрах-М”.
6. Степанюк Ирина Викторовна, “Формирование креативного мышления на уроках” СТ, Молодой учёный.
7. Гаврилова Елена Дмитриевна, “Дидактические игры как средство развития креативного мышлениия учащихся”, ДД, Санкт-Петербург педагогик маҳорат университети.


[2]Ғозиев Эргаш. Онтогенез психологияси. Назарий-эксперимент таҳлил. "Ношир". Тошкент: 2010, 181-бет

# PSYCHOLOGICAL AND ORGANIZATIONAL FEATURES OF MANAGEMENT DECISION-MAKING

*Nazarov Azamat Sottarovich*
*teacher International Islamic Academy of Uzbekistan*

**Annotation:** *This article analyzes the levels of managerial decision-making, the factors that influence it, as well as the role of temporary and informational factors in making managerial decisions.*

**Keywords:** *personality, personnel, manager, individual personality characteristics, management, decision making, management decisions.*

One of the important issues in the psychology of management is the analysis of levels of managerial decision-making and the study of factors influencing it. In the management process, there are four levels of decision-making, within each of which certain skills are required to work. The first level of decision making is the ordinary, everyday level. In this case, the instructions and rules are strictly followed, the situation is assessed properly and control is established. The emerging problem is compared with a set of existing solutions, from which the best option is adopted and implemented. Usually this is done according to the principle «In such situations, you need to do this». Difficulties in such situations may arise due to the incompetence of the decision maker, ignorance of existing guidelines, incorrect assessment of the situation or lack of courage. At this level of decision-making, a creative approach is not required because the decisions of the situation are already predetermined.

The second level of decision-making is the level based on selection, at which the goals are studied, planned and analyzed data. He compares a number of possibilities on an existing problem and focuses on the most effective and economical, which is most suitable for solving this problem.

The third level of decision-making is called the flexible level at which a problem is identified that is solved in a systematic way. Working groups are created, existing risks are analyzed. Making decisions on a flexible level is a little more complicated, and the manager has to abandon the old-fashioned approach to a familiar problem and come up with a creative solution. In this context, the success of the decision maker is based on his personal initiative, his ability to take a bold step into the unknown. The fourth level of decision-making is called the innovation level, where decisions related to the introduction of innovations are more complex. In an uncertain situation, a person should be able to use a new approach, creative ideas of other specialists.

When a decision maker faces a problem situation and needs to make a specific decision, he or she must compare the situation and the expected decision with the group of solutions listed above and determine which category it belongs to. Such an action allows him in any case to imagine what the solution of the problem will be and in what form it will appear. Tis, together with information about how correctly or not the chosen

path, creates the basis for changing the style of movement if necessary. In any case, a deliberate decision is to include it in some category and compare it with the requested sample, even if only partially predict the result.

In the process of making managerial decisions, the principle of multifactor comes into force. One such factor is the factor of personal competence.

To show the role of this factor in the decision-making process, the «Rings» method can be used. The «Rings» method is widely used in Japanese business. According to this method, a decision is made with consent upon request, and not at meetings, and is carried out in several stages:

1. The first stage. At this stage, the leadership of the Organization, together with the experts involved, will provide a general opinion on the problem (for example, the production of a new type of product), on which the problem should be solved.

2. The second stage. The problem is transferred «down», ie to the stage at which work on the project will be organized.

3. Third stage. At this stage, all aspects of the project will be discussed in detail with the executors. In fact, this is the stage of overcoming contradictions, conflicting views.

4. The fourth stage. Special councils and conferences will be held to resolve the issue.

5. Fifth stage. At this stage, the executors sign the document, everyone puts their stamps, and the document is approved by the leadership of the Organization.

In Japan, it is customary to consider the «Ringy» method as one of the manifestations of a management philosophy that encourages caution, frugality, and social responsibility. Although this method has been criticized in the Japanese press for its excessive bulkiness, nothing is said about the refusal to use it.

For strategic and tactical management, rational decisions are made based on economic analysis and optimization. The management process always has to solve a certain problem. Due to deviations from the set parameters for various reasons, there is a need for new processes, which leads to the need to know, analyze and solve problems that arise before production.

After determining the necessity of making a decision and a specific situation on the analyzed object, the goal of the decision is formed, which can be achieved in various ways, and tasks for its solution are determined. The purpose of the decision may be indicated by a higher authority. For example, the goal was to dramatically increase grain production and achieve grain independence. Based on a number of considerations, areas that are best suited for growing crops will be identified. The ministry decides to change their specialization, and for this it is developing a plan for the transfer of districts to grain farming. As soon as the district leaders receive the assignment, they carefully prepare for the implementation of the solution in production.

The main goal and task here is to grow the grain necessary for the republic. Tus, the identification of the problem begins with the determination of the situation and the causes of the problem. Identifying a situation means analyzing the causes of the problem. Also, when deciding in such a situation, the analysis of the time factor is the primary task.

The time factor in the decision-making process is explained from two different points of view: firstly, is the time limited when making a decision, and secondly, the time required to complete the decision. In both cases, the time factor affects the quality of the decision. We use the time factor in the first sense below.

It is known that the passage of time can make a difference. If a decision made on time becomes obsolete, the decision made may also lose its force. Of course, making decisions in a limited time can be a daunting task for a person. There are people who can lose themselves when time is limited. As a result, a poor or incorrect decision is made. The choice of a limited period of time, especially in uncertain situations, further complicates the situation. Therefore, the manager must consider the time factor when making a decision.

It is also necessary to take into account the unit of time allocated for the implementation of the decision when making the decision. Long-term decision making and short-term execution are also important aspects of decision making.

**References:**


1. Анфилатов В. С. Системный анализ в управлении М.: Финансы и статистика, 2002.
2. Воробьев С. Н. Управленческие решения Текст. / С. Н. Воробьев, В. Б. Уткин, К. В. Балдин. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. — 317 с.
3. Назаров А. Принятие управленческих решений как психологическая проблема // Вестник интегративной психологии. – Международный научный журнал. г. Ярославль, 2019., №19.
4. Назаров А. Принятие управленческих решений как основная функция современного менеджера // Вопросы экономики и управления. - Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №2.
5. Nazarov A. Psychological analysis of levels of administration of management decisions. // Вопросы экономики и управления.-Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №3.
6. Nazarov A. Adoption of management decisions as the main function of the modern manager // Проблемы современной экономики: материалы IX Междунар. науч.конф. г. Казань, апрель, 2020 г.


## ЎСМИРЛИК ДАВРИДАГИ ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРНИ ПСИХОЛОГИК ТАШХИС ҚИЛИШ


*А.А.Солиев, М.Ё.Мирвалиева*
*Ўзбекистон Миллий университети магистрантлари*


Тарбия узлуксиз жараён бўлиб, инсон дунёга келишидан бошлаб, то умрининг охиригача давом этиб боради. Бу жараён давомида атроф-муҳитдаги воқеа-ҳодисаларнинг шахсга салбий ёки ижобий акс таъсир этиши унинг инсоний

фазилатлари қай даражада шаклланганлигини белгилайди. Бугунги кунда таълим соҳаси олдида турган энг долзарб муаммолардан бири ҳам айнан, шу мақсадга қаратилган бўлиб, келажак авлодни комил шахс сифатида шаклланишини таъминлашдан иборатдир.

Инсоннинг хулқ-атвори ўзгарувчан ва ранг-баранг бўлиб, унинг индивидуал хусусиятлари, ўзига хос «услублари»нинг мавжудлиги ҳеч қачон ва ҳеч кимда, ҳеч қандай шубҳа туғдирмайди. Бироқ бу хулқ-атворнинг хилма-хиллиги унинг чексиз дегани эмас, зеро инсонларнинг ўзаро мулоқоти, ўзаро муносабати, уларни турли ижтимоий гуруҳларга бирикуви, яшаши учун илиқ психологик муҳитнинг сақланиши заруратдир. Маълумки, ҳар бир жамият ўзининг қатъий белгиланган ижтимоий хулқ-атвор дастурлари тизимига ва жамоатчилик фикри, одатлар, ахлоқий тамойиллар, анъаналар кучига таянувчи хулқ-атвор қоидаларига эга. Қабул қилинган меъёрлар хулқ-атворнинг тарихан шаклланган қоидалари сифатида талқин қилинади, шу билан бирга у баҳоловчи вазифага ҳам эга. Республикамизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар жараёнида жамиятда турли ижтимоий ўзгаришлар, янгиланишлар юз бермоқда. Мазкур янгиланишлар жараёни жамиятнинг қадриятлар тизимига ҳамда у орқали шахсларнинг хатти-ҳаракатлари ва ҳулқ-атворига турлича, айрим ҳолларда салбий таъсир кўрсатмоқда. Бу ҳолатга айниқса, рухий-физиологик жиҳатдан ҳам мураккаб ўзгаришлар даврини бошидан кечираётган 14-17 ёшлардаги ўсмирларда яққолроқ намоён бўлмоқда. Ушбу муаммоланинг назарий асосларини тадқиқ этиш ҳамда ижтимой-иқтисодий ўзгаришларнинг ўсмир-ёшлар хулқ атворига салбий таъсир қилиш мумкин бўлган жиҳатларини, айниқса уларда кузатиладиган ижтимоий девиантлик ҳолатларининг психологик хусусиятларини ўрганиш диссертациянинг мақсадини ташкил этади. Ривожланиб бораётган жамиятимизда соғлом авлодни, комил инсонларни вояга етказиш масаласига катта эътибор берилмоқда. Инсоннинг хулқ-атвори ўзгарувчан ва ранг-баранг бўлиб, унинг индивидуал хусусиятлари, ўзига хос «услублари»нинг мавжудлиги ҳеч қачон ва ҳеч кимда, ҳеч қандай шубҳа туғдирмайди. Бироқ бу хулқ-атворнинг хилма-хиллиги унинг чексиз дегани эмас, зеро инсонларнинг ўзаро мулоқоти, ўзаро муносабати, уларни турли ижтимоий гуруҳларга бирикуви, яшаши учун илиқ психологик муҳитнинг сақланиши заруратдир. Маълумки, ҳар бир жамият ўзининг қатъий белгиланган ижтимоий хулқ-атвор дастурлари тизимига ва жамоатчилик фикри, одатлар, ахлоқий тамойиллар, анъаналар кучига таянувчи хулқ-атвор қоидаларига эга. Қабул қилинган меъёрлар хулқ-атворнинг тарихан шаклланган қоидалари сифатида талқин қилинади, шу билан бирга у баҳоловчи вазифага ҳам эга. Унга мувофиқ равишда ҳар қандай ҳаракат «тўғри» ёки «нотўғри» «яхши» ёки «ёмон» деб тавсифланади. Бундай тушунишда меъёрнинг табиий бўғланиши, яъни унга алоқадор тушунча «бузилиш» атамаси бўлиб ҳисобланади.

Одатда «бузилиш» атамаси ҳар қандай «касал» ва «касаллик» хусусида мулоҳаза юритилганда ҳам ишлатилади. Чунки бузилиш аниқ термин бўлмасдан, балки бу тушунча орқали хулқ-атвор ёки унинг симптомлари билан боғлиқ белгилар тушунилади. Лекин психик бузилишлар гуруҳига алоҳида ижтимоий

оғишлар ёки шахсиятсиз вазифалар кирмайди. Ҳар бир шахс ўз ёш даврига хос муайян ижтимоий муносабатлар эгаси ҳамда унга жамият томонидан кўрсатиладиган кўплаб иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий таъсирларнинг объекти ҳисобланади. Шахснинг характери, темпераменти, қобилияти руҳий жараёнларни бошдан кечирганда, меҳнат фаолиятида, турмушда ўзини намоён этади. Демак, психик жараёнлар, психик ҳолатлар ва психик хусусиятларнинг ўртасидаги ўзаро боғлиқлик ҳамда алоқадорлик шахснинг психологик тузилишини ташкил этади. Афсуски, биз баъзан инсон ҳақида фикр юритганимизда соғлиқ, касаллик ва учинчиси соғлиққа ҳам, касаллика ҳам қўшилмайдиган бир ҳолат ҳақида фикр юритишимизга тўғри келади.

Жаҳон фани, хусусан табобат илми тараққиётига улкан ҳисса қўшган Абу Али ибн Сино ўзининг «Тиб қонунлари» китобида сабаблар тўрт хил бўлади: моддий, фаол (таъсир қилувчи), шаклий ва тугалловчи сабабларни кўрсатиб ўтади. Моддий сабаблар соғлиқ ва касаллик негизларида пайдо бўлади. Энг яқин негиз аъзо руҳдир. Таъсир қилувчи сабаблар одам гавдасининг ҳолатларини ўзгартирувчи ёки ўзгармаган ҳолда сақловчи сабаблардир. Жумладан уйқу ва уйғоқлик ҳам сабаблардан биридир. Бир ёшдан бошқа бир ёшга ўтиш, ёш, жинс эътибор билан фарқлаш ҳам таъсир қилувчи сабаблардандир. Шаклий сабаблар — мижозлар улардан кейин пайдо бўладиган қувватлар ва тарбиялардир. Тугалловчи сабаблар фаолият (ишлар)дир. Ўсмирлик даврига хос девиант хулқ-атвор ва уларни ижтимоий мослаша олмаслик (дезадаптатсия) муаммоси кучайиб бориш хусусиятига эга эканлиги боис ҳам жуда долзарбдир. Бундай ўсмирларнинг умум қабул қилинган ижтимоий ва маънавий-ахлоқий меъёрларни тан олмаслиги, таълим-тарбия билан шуғулланувчи оила, мактаб, маҳалла ва бошқа ижтимоий институтлар олдига муҳим вазифаларни юклайди. Мазкур муаммонинг тадқиқи билан шуғулланган бир қатор олимларнинг фикрича, содир этилган ҳар ўнта жиноятдан олти-саккизтасини ижтимоий дезадаптатсияни бартараф қилиш орқали самарали амалга ошириш мумкин. Ҳозирги замонда турли ёш даврларига хос девиант хулқининг психологик коррексияси ва уни бартараф қилишга оид янги технологиялар яратиш хусусидаги масалага ойдинлик киритишга эътибор ҳаддан зиёд ортган. Замонавийпсихология фанларида ушбу муаммога бағишланган психоаналитик, фрустратцион, ҳамда бихевиористик тадқиқотларнинг ўрни ҳамсалмоқлидир. Аммо, бизнингча, тарбияси «қийин» ўсмирларнинг патологик хулқмеханизмлари, мазкур «қийин»лик таснифига асосланган типологиянинг моделинияратиш долзарб муаммолигича қолмоқда.

Девиант хулқнинг феноменологияси, яъни девиант хулқнинг турлари, девиант хулқ типларининг ўзароалоқадорлиги, девиант хулқнинг таснифи, бу ўзгаришлар нафақат ўсмир учун,балки ижтимоий гуруҳ ва жамият учун ҳам салбий оқибатларга олиб келиши мумкин. Инсоннинг девиант ахлоқини жамиятда қабул қилинган меъёрларга зидлиги ва руҳий жараёнларининг мувозанатсизлиги, мослашувчан эмаслиги кўринишида ёки унинг шахсий ахлоқи устидан ахлоқий ва эстетик назоратдан бўйин товлаш кўринишидаги ўзини фаоллаштириш жараёнининг бузилишида намоён бўлувчи алоҳида қилмишлар ёки қилмишлар тизими сифатида белгилаш мумкин. Оғувчи хулқ (девиант, лот. девиатио – оғиш)

деб, кишининг қилмишлари, фаолияти тури одатий, умум эътироф этилган меъёрлардан фарқ қиладиган ёки у ўзи аъзоси бўлган жамият томонидан қабул қилинган меъёрларга мос келмай, барқарор равишда уларнинг ижтимоий меъёрларидан оғишида намоён бўладиган ахлоққа айтилади. Демак, девиант хулқли шахс деб,биринчи навбатда,ахлоқий жиҳатдан қариндош-уруғлари ва дўстларининг кўнглини оғрита- диган ва атрофдагиларнинг ҳаёти учун хавф туғдирадиган шахсларга (индивидларга) айтилади. Катта ёшдаги индивид аввал бошданоқ ички мақсадга интилиш кучига эга бўлиб, шунга кўра, фаоллигининг барча кўринишлари юзага чиқади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1.Давлетшин М.Г. Ёш психологияси ва педагогик психология Т.2002й 105-б.
2.Камилова Н.Г. Хулқи оғишган болалар психологияси Т.2012. 244-б.
3.Э.Ғозиев. Хулқ-атвор мотивацияси ва фаолият 1994й.178-б.

## КОПИНГ-ПОВЕДЕНИЕ СТУДЕНТОВ

*Тойирова Л.И. Преподователь*
*Абдуганиева Д.А. Студентка*
*Международная исламская академия*

В повседневной жизни мы постоянно сталкиваемся с разного рода трудностями и предпринимаем различные действия для их преодоления. Трудности могут превышать ресурсы индивида и приводить к стрессу, сопровождающемуся уменьшением психологического и физического благополучия и ухудшениями в успешности выполнения деятельности; по данным ряда авторов, несмотря на значительное улучшение качества и продолжительности жизни, распространенность стресса в современных обществах продолжает возрастать [1]. С практической точки зрения, исследование проблемы совладания с трудностями (копинга) напрямую связано с важностью поддержания психологического благополучия у людей, переживающих тяжелые жизненные события, и поддержанием успешности продуктивных видов деятельности (учебной, профессиональной, спортивной), невзирая на неудачи.

Совладание как отдельная психологическая проблема и область исследований сложилась достаточно недавно, к началу 60-х г. XX в. В последние десятилетия в психологии существенно усилился интерес к проблеме изучения человека, находящегося в трудной жизненной ситуации, особое внимание при этом уделяется анализу способов преодоления негативных психологических последствий этой ситуации. Это привело к возникновению целого направления исследований, связанных с изучением так называемого «совладающего поведения». Проблема совладающего поведения (coping) как индивидуального способа взаимодействия личности с трудной, кризисной ситуацией является одной из наиболее широко разрабатываемых в психологии. Совладание включает

все попытки справиться с возникшей ситуацией: как успешные, так и неэффективные, а длительность копинг-процесса может быть различной: месяцы и годы – со стрессорами большой силы (например, разрыв близких отношений), значительно быстрее – со слабыми стрессорами. «Копинг – когнитивные и поведенческие усилия, направленные на овладение, ослабление или противостояние внутренним и внешним требованиям, созданным посредством стрессогенного воздействия» [2]. Это «целенаправленное социальное поведение, позволяющее субъекту справиться с трудной жизненной ситуацией способами, адекватными личностным особенностям и ситуации, – через осознанные стратегии действий» [3]. Психологическое предназначение «копинга» состоит в том, чтобы как можно лучше адаптировать человека к требованиям ситуации, позволяя ему овладеть ею, ослабить или смягчить эти требования, постараться избежать или привыкнуть к ним, и таким образом, погасить стрессовое действие ситуации. Его механизмы можно считать конструктивными в том случае, если состояние личности стабилизируется, изменяется отношение к проблеме, не возникает чувство дискомфорта.

Особое положение студенческого периода в возрастной периодизации связано с рядом причин и обстоятельств. Во-первых, давно считается, что это особая пора в жизни человека, а годы студенчества- один из лучших периодов, воспоминания о котором хранятся на протяжении всей жизни. Во-вторых, как отмечает Б. Г. Ананьев [4], именно это время принято рассматривать как сенситивный период для развития основных социогенных потенций человека. В-третьих, именно перед студентами открыты все жизненные перспективы и дороги. В-четвертых, обучение в вузе, формирование профессиональных компетенций оказывает влияние как на развитие психики, так и на формирование личности молодых людей и девушек. Обучение в вузе настолько положительно и благоприятно влияет на студентов (при условии наличия мотивации, правильного выбора профессии, учебного заведения, адаптации, благоприятного психологического климата в студенческой группе и т. п), что именно в период студенчества отмечено достаточно интенсивное развитие всех уровней психики; формирование профессионального мышления, оформление ценностно-смысловой сферы личности.

Уровень вузовской подготовки студентов к профессиональной деятельности часто зависит от особенностей их эмоциональной сферы, от умения во время экзаменационной сессии достигать успеха и демонстрировать хорошие результаты. Экзамен как стресс-фактор занимает одно из первых мест среди различных причин, вызывающих психическое напряжение у студентов. Последствия экзаменационного стресса выходят за рамки ситуации сдачи экзамена и могут оказать негативное воздействие на переживание студента в постэкзаменационный период [5].

Необходимо отметить, что академическая успешность определяется не только уровнем знаний, но и степенью психического напряжения в период сессии. Поскольку экзаменационный период для большинства студентов является весьма напряженным, совладание со стрессом превращается в важную проблему.

Повышенный уровень стресса в экзаменационный период оказывает сильное влияние на психическое и соматическое здоровье, работоспособность, показатели познавательных, эмоциональных и физиологических процессов. Несмотря на важность изучения проблемы, следует констатировать, что обобщающие работы по этой теме фактически отсутствуют [6].

Применительно к конкретной ситуации люди могут использовать разные стратегии, при этом один и тот же человек в различных ситуациях может применять либо разные стратегии, либо наиболее типичные для него стратегии. Совладающее поведение человека включает множество способов, стратегий и реакций, направленных на преодоление сложных жизненных ситуаций. Целостный стиль совладания представляет собой синтез всех способов и стратегий в индивидуальную для каждого человека структуру, которая определяется как спецификой ситуации, так и личностными особенностями. До настоящего времени в психологической литературе отсутствует единая концепция и классификация способов и стратегий совладания, поскольку многие ситуации достаточно специфичны.

Т.Л. Крюкова [7] подчеркивает, что совладающее поведение запускается определенной ситуацией, задающей его особенности, – «ситуационным фактором». В ситуации экзамена, в частности, происходит оценка степени еѐстрессогенности, что оказывает влияние на выбор стратегий и стилей совладания. Так, в работе З.Б. Кучиной [8] обнаружены различия в использовании стратегий совладающего поведения студентов на экзаменах разного типа: академическом (устном) и интернет –тестировании. Однако значимое влияние на выбор копинга оказывает и личностный фактор [9,10], включающий личностные особенности и психологические качества, проявляющиеся в ситуации экзамена. Очевидно, что ситуация экзамена, предусматривающая умственные нагрузки в ограниченный промежуток времени, требует от студента мобилизации всех психофизиологических и психоэмоциональных ресурсов, включая весь спектр стратегий совладания.

По результатам исследования М.В.Оленниковой можно сделать следующие выводы:

1. Отсутствуют значимые половые различия и различия между студентами разных специальностей в уровне переживания стресса на экзамене.

2. Студенты используют позитивные копинг- стратегии чаще, чем негативные. В ситуации экзаменационного стресса их усилия направлены на снижение напряжения с помощью действий по контролю над трудной ситуацией и собственными реакциями. Для студентов характерно также преувеличение своих способностей, касающихся эффективного преодоления стрессовой ситуации.

3. Существуют различия между мужчинами и женщинами в способах, к которым они прибегают, чтобы справиться со своими негативными переживаниями. Мужчины чаще прибегают к копинг- стратегиям, связанным с поведенческими и когнитивными реакциями на стресс, активными попытками разрешить проблему. Женщины чаще используют эмоциональные стратегии,

проявляющиеся в отвлечении от проблем, в избегании сильных переживаний и поиске социальной поддержки.

4. Студенты-гуманитарии, независимо от пола, чаще, чем студенты технических специальностей прибегают к стратегии поиска социальной поддержки, замещению и отвлечению в поиске положительных эмоций.

5. Повышение уровня эмоционального напряжения на экзамене связано с нарастанием чувства беспомощности и жалости к себе, попыткой уйти от стрессовой ситуации, неумением мысленного отвлечения от проблемы и ростом самообвинения. Снижение уровня гибкости поведения влечет за собой использование преимущественно эмоционально-ориентированных стратегий. С ростом способности к осознанию и пониманию своих чувств растет и активность, направленная на обращение к позитивным жизненным проявлениям для преодоления стресса.

Подводя итог следует отметить, что комплексное изучение поведения студентов в ситуации экзамена, включающее определение его личностных особенностей и стратегий совладания, помогут управлять психическим состоянием, приобрести навыки и умения, связанные со снижением неприятных эмоциональных переживаний во время экзаменов. Этой цели могут служить также индивидуальная диагностика студентов и тренинговые занятия.

## Литература

1. Брайт Дж., Джонс Ф. Стресс. Теории, исследования, мифы. СПб.: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2003.

2. Николаева Е.И. Психофизиология. Психологическая физиология с основами физиологической психологии. – М., 2003. – 544 с.

3. Крюкова Т.Л. Возрастные и кросскультурные различия в стратегиях совладающего поведения //Психологич. журнал, 2005, т. 26, № 2, с. 5-15.

4. Ананьев Б. Г. О проблемах современного человекознания. — СПб.: Питер, 2001. — 272 с.

5. Жуйкова М. В. К вопросу о необходимости формирования навыков совладающего поведения // Современная психология: актуальные проблемы и тенденции развития: материалы междунар. науч.-практ. конф. – Новосибирск: Изд-во «ЭНСКЕ», 2010. С.37-45.

6. Нартова-Бочавер С.К. «Coping behavior» в системе понятий психологии личности //Психологический журнал. 1997. Т. 18. № 5.- С. 20-30.

7. Крюкова Т.Л. Человек как субъект совладающего поведения //Совладающее поведение: Современное состояние и перспективы: сб. науч.статей. М., 2008.-С. 138-152.

8. Кучина З.Б. 2. Совладание с экзаменационным стрессом у студентов вуза (на примере Интернет-экзамена) // Вестник Костромского государственного университета им. Н.А. Некрасова. Серия: Педагогика. Психология. Социальная работа. Ювенология. Социокинетика. 2009. Т. 15. № 4. -С. 225-232.

9. Крюкова Т.Л. Психология совладающего поведения.: моногр./ Т.Л.Крюкова. - Кострома: КГУ им. Н.А. Некрасова – студия оперативной полиграфии «Авантитул», 2004.-267с.

10. Церковский А.Л. Современные взгляды на копинг-проблему// Вестник ВГМУ. 2006. Т. 5. - №3. – С. 112-121.

## OILADA-SUITSIDAL HARAKATLARNI BARTARAF ETISH

*Mahmudova Sevara Ismoilovna*
*Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumani*
*15-sonli sanatoriya tipidagi maktab-internati amaliyotchi psixologi*

Oila inson tarbiyasi va shakllanishida alohida ijtimoiy psixologik ahamiyatga ega bo’lgan jamiyat bo’g’inidir. Suitsidal harakatda, oiladagi muhit katta ahamiyat kasb etadi, masalan ona ishlaydi ota esa vaqtincha ishsiz bunday jarayon farzandlarga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Ayollar oilaviy hayotidagi ona va uy bekasi faoliyatini, oilani moddiy ta’minoti, kasb sohasidagi faoliyati bilan mutanosiblikda olib bormoqdalar. Bu esa onaning farzandlari bilan o’zaro muloqot qilishi vaqtini chegaralanishiga olib keladi. Siz o’z farzandingizni bugun nimalarga qiziqishini,nima ishlar bilan band bo’lganini bilasiz-mi, ertangi kun rejalari haqida qiziqdingizmi?

O’qishdagi o’zlashtirishi qay ahvolda degan savollarimizga javob topish qiyin. Shuningdek, oilada ota-onalarning boshqa nikohlaridan tug’ulgan farzandlar va ota-ona o’rtasida ham nizoli vaziyatlar o’smir ruhiyatiga inqiroz holatlarini chuqurlashuviga olib kelishi mumkinligi aniqlanadi. Noto’liq oilalardagi ota-onalar farzandlari sodir etgan suitsidal urinishlar sabablarini go’yoki eshitmaydilar. Ota-onalar o’zlaricha farzandlari uchun erta tongdan to kechga qadar tinmay ishlashlari yoki farzandlari hamma narsaga ega ekanliklarini ba’zi hollarda ko’zlarida yosh bilan ta’kidlaydilar. Bu bilan ota-onalarning o’zlariga ham psixologik yordam kerak ekanligini tushunish mumkin. Albatta nizolar eng baxtli oilalarda kattalar o’z noroziliklarini “konstruktiv”tarzda bildirib, har birlarini tushunishga harakat qilmagan holda, munosabatlarni buzadilar, oiladagi tinchlik, emotsional yaqinlik yuqoladi. Ba’zan esa o’z janjallariga farzandlarini ham jalb etishadi, eng yomon holatlarda o’smirda ruhiy shkastlanish holatlarini kelib chiqishiga asab buzilishiga, emotsional tanglik, o’zini ayblash va oxirgi chora sifatida o’z joniga qasd qilishga olib keladi.

Farzandlar o’z joniga qasd qilishlarining oldini olishda ota-onalar ularning psixologik hususiyatlaridan xabardor bo’lishlari lozim. O’spirinlik va o’smirlik davri oddiy yosh davrlari emas, aynan shu yoshda farzandlarda psixologik, biologik va ma’naviy o’zgarishlar, qarama-qarshiliklarga limmo-lim bo’lganligi bois ulardagi hatti-harakatlarga ota-onalarga tashvish tug’diradi. Ota-onalar farzandlarining bu davrdagi o’zgarishlarini tushunishlari lozim. Buni o’tish davri deyilishiga sabab shundaki, bunda o’spirin o’zini shaxs sifatida, oilada, guruhda, jamiyatda teng huquqli sifatida anglashni boshlaydi. Albatta bu rejalar hali aniq va mukammal bo’lmaydi, lekin o’spirin uchun

ular juda katta ahamiyatga ega. Xayolot olamida yashayotgan o’spirin, uning rejalarini kattalar bilib qolmasligi uchun jon jahdi bilan harakat qiladi. Shunday ekan ota-ona farzandini har bir harakatini nazorat qilishi lozim. Farzandlarida chuqur dunyoviy bilim berish ularni ma’rifat va madaniyati yuksak kishilar bo’lib yetishishlarini ta’minlash har bir ota-onaning burchidir. Oilada suisidal harakatlarni bartaraf qilish o’zimizga bog’liq masalan oilani bir dasturxon atrofida o’tirishi, aka-uka, opa-singillar bir-biriga mehrli, oqibatli, shirinso’zli bo’lishi maqsadga muvofiqdir. Buyuk pedagok A.Avloniyning fikriga ko’ra “Farzandni bir oltin deb oladigan bo’lsak,ota-ona zargardir, shunday ekan oltinga qanday ishlov berish bu zargarga bog’liqdur” degan fikrlari juda o’rinlidir.

Oilada kattalar har bir farzandni yon atrofidagi do’stlari haqida ma’lumotga ega bo’lishi, hatto ularni ota-onalari bilan ham aloqada bo’lib turishi kerak. O’zbek xalqida bir yaxshi naql bor “Do’stingni kimligini aytsang,men sening kimligingni aytaman”. Shunday ekan biz ota-onalar farzandlarimizni kelajakda barkamol shaxs qilib yetishishi uchun bor kuch qudratimizni safarbar etishimiz lozim.

Samimiy yaxshi munosabat o’rnatish, farzandning rivojlanish jarayonida, bolalar ota-onalari bilan o’zaro ishonch aloqasini o’rnatgan bo’lishadi, oila ular uchun eng havsiz, tinch va ishonchli joy bo’lib hisoblanadi. Ularning samimiy munosabatlari o’spirinlik davriga kirib borguniga qadar davom etadi. So’ng ularning rivojlanishida keskin, jismoniy va aqliy o’zgarishlar sodir bo’la boshlaydi va oqibatda oilada tengqurlar orasida, dunyo qarashlar turli bo’lganligi bois mojarolar chiqa boshlaydi. Natijada bola yengilishi qiyin bo’lgan katta bosim ostida qoladi. Lekin bu xolatda vaziyatni to’g’ri baholashni bilsa u deyarli qiyinchiliklarsiz kattalar hayotiga qadam qo’yadi. Ota-ona va farzand o’rtasidagi samimiy munosabatlar muammoli vaziyatlar va tushkunlikkka tushgan o’spirinlarga yaxshigina himoya qobig’i bo’lib xizmat qiladi. Oilada jismoniy va ruhiy holatning xavsizligi va doimiyligini ta’minlash lozim. Bu haqida hammada shunday-ku, deb aytishingiz mumkin,lekin afsus, tarbiyalashda goho chegaradan chiqib ketamiz, farzandimiz katta bo’lib qolganiga qaramasdan, uning o’rniga qaror qabul qilamiz, har bir qadmini qattiq nazorat qilamiz, fikrini inobatga olmaymiz.

Keling farzandlarimizga hadeb atrofida Nima bo’ldi? Nima qilyapsan? Nega unday” Nega bunday” deyavermang chunki bu ko’proq suroqqa o’xshab qoladi. Bolalar ota-onalari ularni tenglashga va haqqoniy qaror qabul qilishga tayyor bo’lganlaridagina o’z muammolari bilan o’rtoqlashishi mumkin. Kattalar farzandlari mustaqil fikr bildira olishi va qaror qabul qilishga qodirligini hurmat qilishlari lozim.

Voyaga yetmaganlar o’rtasida sodir etilayotgan suisid holatlarning 62 foizi oiladagi nizolar va nosog’lom psixologik muhit, kattalar tomonidan sodir etilgan tazyiq, ayrim pedagoglarning loqaydliklari sabab bo’lib qolmoqda. Insonning hayvondan farqi insonning ongli zotligi; o’z o’ziga buyruq berib, o’z harakter-xususiyatlarini o’zgartira oladi,iroda tarbiyasi bilan shug’ullana oladi. Jamoa orasida MEN ligini unutmaydi.

Suitsidning oldini olishga ko’maklashuviga omillar bu hayotiy qadriyatlar, maqsadlar,shaxsiy ko’nikmalar, shaxsning individual psixologik hususiyatlari,shu bilan birga, suisidga qarshilik ko’rsatuvchi ijobiy kechinmalar uyg’unligidir. Masalan, O’z yaqinlariga emotsional bo’g’liqlik, ma’suliyat va burch hissi,o’z salomatligi haqida qayg’urish, o’ziga va o’zgalarga jabr qilishdan qo’rqish.

Ijtimoiy fikr bilan kelishish, atrofdagilarning gap so'zidan o'zini tortish,o'z joniga qasd qilish sharmandaligidan chekinish, hayotning barcha imkoniyatlaridan foydalanishga intilish, hayotiy, ijodiy, oilaviy va boshqa rejalarning mavjudligi, ma'naviy-ma'rifiy, odob-axloq normalarning ustunligidir.

Psixologik moslashuvchanlik, salbiy kechinmalarni bartaraf etib, ruhiy turg'unlikka erishish yo'llarini bilish:

-dolzarb hayotiy qadriyatlarga,maqsadlarga ega bo'lish.

-hayotni sevish.

-qarindosh urug'larga,yaqinlarga hayrihohlik qilish.

-diniy-ma'naviy tushunchalar,o'z joniga qasd qilish gunohligini tan olish.

-o'z kelajagini rejalashtira olishidir.

Yuqoridagi fikrlarga amal qilish ularni yosh avlod ongiga singdirish biz psixologlarning asosiy maqsadimizdir.

## СТРАХИ У ДЕТЕЙ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЕ

*Камолиддинова Жасмина*
*Студентка 2 курса Ташкентского Государственного Педагогического Университета им. Низами*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются виды страхов, возрастные периоды проявления страхов у ребенка. Ставиться задача рассмотреть причины детских страхов и пути их преодоления.

**Ключевые понятия:** ночные ужасы, лого-фобия, дисморфофобия, рисования страха, песочница.

Страх — это некий сигнал, который предупреждает нас об угрозе. Страх бывает полезным и вредным.

Жизнь без такой эмоции, как страх, невозможна представить. Когда мы видим проезжающую мимо нас машину с огромной скоростью, нам становится страшно, и это чувство останавливает нас от того, чтобы выйти на дорогу. Но у страха есть и обратная сторона, которая разрушает нас: бывает, что мы не можем проявить себя на работе, потому что боимся начальника. Или не можем водить машину, так как боимся аварий на дорогах.

Именно с этой негативной стороной страха нужно бороться. Но сначала давайте выясним: что такой детский страх? Какие виды страхов существуют? Что может стать причиной детского страха?

Детский страх - это эмоциональная реакция ребенка на ситуацию угрозы (реальная или воображаемая). Маленькие дети испытывают больше страхов чем взрослые. Однако взрослому человеку легче с этим справиться, чем ребенку-детские страхи протекают на много сложнее. Страхи появляются и исчезают. Однако иногда они задерживаются в психике ребенка и полностью завладевают его вниманием, тем самым мешает развитию, общению со сверстниками, и даже влияет на учебу ребенка.

Виды страхов и фобий:

**Страх темноты** – наиболее распространенный страх среди детей школьного возраста. Слух ребенка принимает милейшие шорохи и звуки, которые ребенок мигом «перерабатывает» в своем воображении и тут же возникает страх. Никогда нельзя оставлять или заставлять ребенка находится в темной комнате.

**Страх боли** является самым распространенным страхов среди детей. Все дети боятся уколов, но с возрастом учатся терпеть боль.

**Школьная фобия** представляет собой особую форму разлуки. Родители пытаются отправит ребенка в школу насильно, при этом у него могут возникнут паническая атака и серьезные конфликты с родителями.

**Лого-фобия** страх публичной речи – нарушение речи, которое особенно сильно проявляется при общении, может проявляться заиканием. Заикание возникает обычно после испуга.

**Дисморфофобия** проявляется незначительными недостатками своей внешности (рост, вес и т.д) или запахом тела,

**Ночные ужасы** чаще наблюдаются у мальчиков. В 3 часа ночи ребенок внезапно просыпается с криком, с сильным сердцебиением, учащенным дыханием. Этот эпизод длится 10 минут и завершается.

Возрастные периоды проявления страхов:

***От 0-1 года***: страх разлуки с мамой, шума (резких и неожиданных звуков).
***В 1 год***: дети бояться уколов, врачей и незнакомых взрослых людей.
***В 2-3*** года: преобладают страх наказания, страх боли, а также движущего транспорта.
***В 4-5 лет:*** страх сказочных персонажей или страх при засыпании.
***В 6-7 лет:*** страх темноты, страшных снов, также привидений.
***В 8-10:*** преобладают школьные страхи (страх опознания в школу, страх ответить у доски, перед учителями, страх перед контрольной работой).
***В 11-16:*** страх смерти, войны, нападения кого- либо, боязнь проявить себя.
Теперь мы знаем, какие страхи преобладают в определенный возрастной период в детском сознании, теперь время разобраться в причинах.

**Причины детских страхов**

- *Психологическая травма* – испуг шок;
- *Внушенные страхи*: «Не будешь спать, тебя собака заберет»;
- *Тревожные родители*: слишком часто ребенок слышит: «не выходи на улицу один – тебя там украдут»;
- *Разногласия со сверстниками*- неприятие ими ребенка
- *Невротические расстройства:* агрессивность ребенка, нарушение сна, заикание. В этом случае может помочь только психолог.

К развитию детских страхов ведут следующие ошибки родителей:

- Запугивание ребенка с целью управления его поведения;
- Отсутствие постоянного друга у ребенка;
- Слишком требовательное отношение к ребенка;
- Конфликтные отношения между родителями;
- Отсутствие условий для игр и двигательной активности;

Теперь разберем методы преодоления страхов:

1.Проявите понимание. Важно показывать ребенку, что мы понимаем его переживания и готовы всегда прийти на помощь.

2. Поделитесь своим опытом. Расскажите малышу, что вы когда-то сами были маленьким ребенком и сталкивались со страхами, которые в итоге преодолели и стали храбрыми.

3. Нарисуйте страх вместе с малышом. На бумаге отображаются все те пугающие образы, которые малыш зачастую не может осознать и сформулировать словами.

4. Придумывайте сказки. Представьте с ребенком ситуацию, в которой его страх стал реальностью и найдите способы выхода из нее.

Главным героем сказки может стать сам малыш, который смело преодолевает препятствия, сражается со злобными монстрами, побеждает их и вступает с ними в диалог. А иногда даже становится их другом!

5. Включайте правильные мультфильмы. Просмотр мультиков также поможет в борьбе со страхами, ведь сказочные герои пробираются через темные леса и преодолевают разные страшные препятствия.

Главное — подобрать мультфильмы в соответствии с возрастом ребенка.

6. Песочница, песок. Игры с песком очень успокаивают детей. Если у вас есть песочный стол, то обязательно предложите ребёнку порисовать на нём — любые сюжеты или просто героев. Такие занятия укрепляют нервную систему.

7. Специалист. Мы живём в XXI веке, и найти подходящего специалиста не составляет труда. Главное — желание. Детские психологи, всегда готовы помочь ребёнку и поддержать его родителей.

Детские страхи, если к ним правильно относиться, понимать причины их появления чаще всего исчезают бесследно.

**Литература:**


1. Psixomed.ru
2. Psylogik.ru
3. Энциклопедия начинающего семейного психолога 2019 (стр 420), Геннадий Страшенбаум.
4. Детская психология 2018. Сатья Дас.


## ЁШЛАРНИНГ ДУНЁҚАРАШИ ВА ХУЛҚ-АТВОРИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР


*Собитов Отабекхўжа Йўлдош ўғли*

*Тошкент давлат педагогика университети “Педагогика ва психология” факультети 1-босқич талабаси*



**Аннотация:** Ушбу мақолада ёшларни дунёқараши ва хулқ атворига таъсир этувчи оммиллар сирасига глобаллашув шароитида ахборот хуружлари, турли салбий таъсир қилувчи ижтимоий тармоқлар, ён атрофидаги “салбий” дўстлар,

ота-онанинг фарзандга салбий таъсир доираси, “оилавий муҳит”, “оилавий ажримлар” кабиларнинг ёшлар дунёқараши ва хулқ-атворига таъсири ҳақида фикрлар билдириб ўтилган.

**Таянч сўз ва тушунчалар:** ёшлар, интернет, ахборот хуружи, ахборот босими, оила, маҳалла, жамият, таълим, маърифат, маданият, шакллантириш, ҳимоя, бузғунчи таҳдидлар, дунёқараш, хулқ-атвор, психология.

Шарқ мамлакатларида оилага жуда катта эътибор қаратилган. Оилада авалло шахс деб аталмиш ижтимоий мавжудот бўлган фарзанднинг дунёга келиши, фарзанд тарбияси, фарзанднинг келакжакда комил инсон бўлиб вояга етишда бот-бот “оила”га бориб мавзулар тақалмоқда. Жамият шу тариқа барпо бўлади, ривож топади, ижтимоий тараққиёт вужудга келади. “Бола туғилган кунидан бошлаб оила муҳитида яшайди. Оилага хос анъаналар, қадриятлар, урф-одатлар бола зуваласини шакллантиради. Энг муҳими, фарзандлар оилавий ҳаёт мактаби орқали жамият талабларини англайди, ҳис этади[3]” Шунингдек, Ислом диннинг муқаддас манбааси бўлган Қуръони Каримда ҳам “оила”, “фарзанд”, “тарбия” сўзларининг мазмун-моҳиятига алоҳида урғу берилган бўлиб, жумладан “Эр ўзлари ва оиласига тааллуқли барча нарсалар тўғрисида доимо хотини билан бамаслаҳат иш қилиши лозим, чунки улар сўзсиз равишда тенг шерикдирлар (3-сура, 159-оят)”[4]. “Аллоҳ сизларни оналарингиз қорнидан бирон нарса билмаган ҳолингизда чиқарди ва шукур қилишингиз учун сизларга қулоқ, кўзлар ва дилларни берди (16-сура, 78-оят)”[5]. “Эркаклар хотинлари устида раҳбардурлар. Бунга сабаб Аллоҳ уларнинг бировларини бировларидан (яъни, эркакларни аёллардан) ортиқ қилгани ва эркаклар (хотинлари ва оилалари учун) ўз мол-мулкларидан сарфхаражат қилганларидир. Бас, ибодат-итоатли ва эрлари йўқлигида Аллоҳнинг ҳифзу ҳимояти билан (эрларининг мол-мулкларини ва ўз иффатларини) сақловчи хотинлар яхши хотинлардир[6]”. Дархақиқат аёл зотига берилган таъриф ўлароқ оиланинг боши, раҳбар деб эркак киши назарда тутилишида ҳам ўзаро боғлиқлик мавжуд бўлиб, оиладаги барча моддиётнинг келиб чиқишини олдини олиш, фарзандларининг тарбияси билан шуғулланиши, аёл киши эса фарзандларининг таълимига кучли эътибор қаратиш, кийим бошини озода сақлашда шарқ мамлакатларида аёлни ўрни катта. Оиладаги ижтимий носоғлом муҳит орқали фарзанд ё жамиятда “фойдали” ёки “фойдасиз” инсон бўлиб вояга етиши табиий ҳолатдир. Кўплаб тадқиқотлар шуни кўрсатадики жамиятдаги кўплаб “носоғлом” оилаларнинг яъни “ота”сиз ёки “она”сиз вояга етиши, ёҳуд отанинг “моддият” билан узлуксиз таъминлаш оқибатида фарзанд дунёқарашига салбий таъсир ўтказади. Бу ҳолат эса бора бора фарзанднинг хулқ-атворига салбий таъсир ўтказиб, кибр-ҳаволи, манмасираган, бошқаларнинг ўзидан паст санаш каби иллатлар ёш авлоднинг келажагига “болта” урмоқда.

Таниқли АҚШ психологи Г.Оллпортнинг фикрича, шахс “ички тизим”, “динамик қурилма”, “Мен”, “қандайдир метапсихологик Мен” ўзида олдиндан

[3] Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ 1998, 4-б.
[4] Қуръони карим. (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Т.: «Чўлпон». 49-б.
[5] Шу нашр. «Наҳл» сураси, 190-б
[6] «Нисо» сураси, 34-оят, 59-б.

мақсад ва диспозицияни акс эттирувчи, инсон тафаккури ва хулқ-атворида мутаносиб равишда қарор топтирувчи жонзотдир”. Худди шу боисдан шахснинг синфий-тарихий жиҳатдан яққол баҳоланиши очилмай қолади, ижтимоий таҳлил ўрнини психологик талқин эгаллайди”, дейди.[7] Дарҳақиқат ёшларда “Мен” тушунчаси нотўғри шаклланиши оқибатида эса хулқ-атворига салбий таъсир кўрсатади. Ёшлар дунёқараши эса ҳар бир мамлакатнинг эртанги ҳал қилувчи кучи бўлиб шаклланади.

Жаҳон ахборот тармоғига кираётган ёшлар сони соат сайин ортмоқда. Масалан, Ўзбекистонда интернетдан фойдаланувчилар сони 2008 йилда 2 миллион бўлса, 2015 йилда 10,2 миллиондан[8], 2020 йилда эса 22,5 миллиондан[9] ошгани, уларнинг аксарияти ёшлар эканини алоҳида қайд этиш лозим. Асосий масала интернетдан ким қандай фойдаланишида. Ҳозир ёш бола ҳам компьютерни бемалол ишлата олади. Бир қарашда, бунинг ёмон жойи йўқдай. Аммо ҳаддан ошилса, назорат бўшашса, оқибати аянчли бўлади.

Айниқса, глобал тармоққа қўл телефони орқали кириш имконияти пайдо бўлгандан кейин кўпчилик унинг асирига айланмоқда. Ҳозир кўп инсонлар, айниқса ёшлар уйида ҳам, йўлда ҳам ва ҳатто иш ва ўқишда ҳам бутун фикри зикрини телефонга қаратган. Бу ҳозирги кунда инсониятга хавф солаётган глобал муаммога айланди. Халқаро муносабатларда “ахборот уруши”, “ахборот хуружи”, “ахборот босими” каби хатти-ҳаракатлар кучаяётгани сабабли, ёшларни бундай таҳдидлардан ҳимоялаш бўйича аниқ мақсадли ишлар қилишни даврнинг ўзи талаб этмоқда.

Инсон кундалик ҳаётида турли нарсалардан фойдаланади. Инсон уларни истеъмол қилар экан ҳар гал муайян тартиб-қоидалар, содда қилиб айтганда, маданиятга риоя қилади. Айтайлик, кийим-бош кийиш ёки озиқ-овқат истеъмол қилишнинг ўзига хос маданияти бор. Бугунги кунда ахборот ҳам истеъмол қилинадиган товарга айланган экан, ҳар бир инсон ёки алоҳида олинган жамият ўзида уни истеъмол қилиш маданиятини тарбиялаши лозим.

Хулоса ўрнида шуни қайд этиш жоизки, фан-техника ривожланиши ахборот технологияларининг беқиёс даражада тараққий этишини тезлаштириб юборди. Ҳаётга шиддат билан кириб келган глобаллашув ўз ортидан баъзи салбий оқибатларни келтириб чиқармоқда. Мураккаб бир даврда “ахборот хуружи” ўзининг салбий оқибатларини намоён этмоқда. Бугунги глобаллашув даврида ёшлар маънавиятини асраш, ёш авлоднинг қалби ва онгини турли зарарли ғоялар таъсиридан сақлаш ҳамда мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратиш долзарб вазифадир. Албатта, ёшларни бузғунчи ғоялар таъсирига олишни истайдиган кучлар жуда кўп. Афсуски, хорижда бундай ҳаракатларни молиялаштираётган, “чироғига мой қуяётган”лар ҳам оз эмас. Шу боис ёшларни ёмон кўзлардан асраш, уларнинг бузуқ ғоялар билан заҳарланишини олдини олиш доимий эътиборда бўлиш лозим. Буюк маърифатпарварлар бўлган Жалолиддин Румий ҳазратлари “..кумушнинг ташқи

[7] Ш.Баратова ва бошқалар / Психология назарияси ва тарихи / 2019 й. 121-б.
[8] Муҳаммад Амин Яҳё // Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя // Тошкент / Моварооуннаҳр нашриёт // 2016 й. / 5-б.
[9] https://mitc.uz/uz/stat/4

кўриниши оппоқ бўлса ҳам, қўлда ва чўнтакда кўп ушланса, қора юқтиради. Шунга ўхшаш баъзи одамларнинг сўзлари зоҳирида кумуш каби порлоқ ва тоза кўринса ҳам, лекин қайғу ва зарар келтиради" деган эдилар. Ҳар бир ахборотни ажрата олиш эса фақат илму-маърифат билан ҳосил бўлади. Шундай экан, интернетдан эзгулик, илм-фан, тараққиёт йўлида фойдалансак, мақсадга мувофиқ бўлади. Ёшлар – ҳал қилувчи куч ва она Ватан келажаги эканини, аввало, ўзлари юракларидан ҳис қилиб, илм-маърифат олишлари керак. Ҳар бир фарзанд эътиқоди софлиги учун ақл-идрокини ишлатиши зарур. Бунинг учун ёшлар оқни қорадан, ҳидоятни залолатдан ажрата олиши лозим.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ 1998, 4-б.
2. Қуръони карим. (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Т.: «Чўлпон». 49-б. "Наҳл" сураси, 190-б "Нисо" сураси, 34-оят, 59-б.
3. Ш.Баратова ва бошқалар / Психология назарияси ва тарихи / 2019 й. 121-б.
4. Муҳаммад Амин Яҳё // Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя // Тошкент / Мовароуннаҳр нашриёт // 2016 й. / 5-б.
5. https://mitc.uz/uz/stat/4

## O`SMIRDA SHAXSIYATNING SHAKLLANISHI

*Usmonova Dilnoza Ibragimovna*
*Andijon viloyati Oltinko'l tumani 8-maktab psixologi*

Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan islohotlar, ijtimoiy sohadagi o`zgarishlar, qabul qilingan yoshlarga oid davlat dasturlari yosh avlodni yanada kuchli, bilimli, va ailbatta, ertanggi porloq kelajak uchun munosib inson bo`lishi yo`lida xizmat qilmoqda.

Yoshlar tomonidan bu imkoniyatlarni anglab yetish va foydalanish davri 11-12, 14-15 yosh, ya`ni 5-8 - sinf oralig`ida shakllanadi. Shu yosh oralig`ida o`smir o`z kelajagi uchun qayg`uradi, kasb tanlaydi va kasbni egallash uchun tayyorgarlikni boshlaydi. To`g`ri tashkil etilmagan hayot sharoiti, ya`ni ota-ona va pedagoglarning o`smir rivojlanish qonuniyatlarini bilmasligi o`smir shaxsi shakllanishida krizisni keltirib chiqaradi, o`smirlik davrida bola kattalik va kichiklik orasida qoladi va kattalar tomonidan uni katta inson sifatida tan olinishini kutadi. Ota-ona va o`qituvchilar uni katta inson sifatida tan olishlari, ayrim masalalarni u bilan maslahatlashishlari o`smirda kuzatilayotgan krizisni hech qanday psixik zo`riqishlarsiz o`tishiga sabab bo`ladi [4.25-26].

Buning uchun har bir ota-ona va pedagog o`smirlik davri va bu davrda o`smirga qanday munosabatda bo`lishni bilishlari juda zarur. O`smirda inson rivojining barcha yo`nalishlari, ya`ni jismoniy, psixik, aqliy, axloqiy sohalarida katta miqdor va sifat

o`zgarishlari kuzatiladi. Organizmning o`sishi tezlashadi, ichki sekretsiya bezlari faollashadi, ayniqsa, gipofiz bezining faollashuvi bo`y o`sishining tezlashuviga sabab bo`ladi. Ovoz apparati yiriklashadi, ovozi yo‘g‘onroq, pastroq bo‘lib boradi. Shuningdek, ovoz buzilishlari ham shu davrga xosdir. Bu yoshda ovoz apparatining haddan ortiq tessiturasidan qochib, vokal repertuari tanloviga ehtiyotkorona yondashish lozim.

Organizm o‘sishidagi sakrashlar, endokrin tizimidagi o‘zgarishlar, gipofiz faoliyatidagi faollik, jinsiy voyaga etish, yurak, mushak, butun organizmning mustahkamlanishi insonning psixik, aqliy va ruhiy o‘sishida muhim o‘zgarishlarga olib keladi. Shunga qaramay, o‘smirlik davridagi «tanglik»ni tushuntirishdagi nazariy fikrlar taraqqiyoti shunday umumlashmani yuzaga keltiradiki, unga ko‘ra, o‘smirlik davrining namoyon bo‘lishi va o‘tishi hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlar, o‘smirning rivojlanishi, uning kattalar olamidagi mavqe`iga bog‘liq [1.90-95].

O‘smirlar va kattalarning o‘zaro munosabatlari o`zgaradi. O‘smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko‘rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo‘naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, ja`zolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u xafa bo‘ladi va norozilik bildiradi. O‘smirda o‘z qadrini bilish hissi paydo bo‘ladi va u o‘zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo‘lmagan inson deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan munosabat turi o‘zgaradi, uning o‘z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o‘zinikini esa kengaytiradi. Ishonch va mustaqillik namoyon etishga da’vo qiladi, ya’ni kattalar bilan ma’lum tenghuquqlilikka va ularning shu narsani tan olishiga erishishga harakat qiladi [3.24-25].

Tengdosh bolalarning prinsipial tenglik holati mazkur munosabatlar muhitiga nisbatan o‘smirda alohida qiziqish uyg‘otadi, bu hol o‘smirda yuzaga keladigan shaxsiy kattalik hissining etik mazmuniga mos keladi. O‘smirda kattalarga nisbatan tengdoshlariga ko‘proq tushunarliroq va yaqinroq bo‘lgan qadriyatlar shakllanadi. Kattalar bilan muloqot tengdoshlar bilan muloqotning o‘rnini bosa olmaydi. O‘smir uchun tengdoshlar bilan muloqot u mustaqil harakat qilgan o‘zining shaxsiy munosabatlari muhitiga ajraladi. U bunga haqqim bor deb o‘ylaydi, o‘z huquqlarini himoya qiladi, va aynan, shuning uchun ham kattalarning o‘rinsiz, qo‘pol aralashuvi xafagarchilik va norozilikka olib keladi.

O‘smirda bir tomondan tengdoshlar bilan muloqot qilish va hamkorlikdagi faoliyatga intilish yaqqol namoyon bo‘ladi. Jamoa hayoti bilan yashash, yaqin o‘rtoqlar, do‘stga ega bo‘lish xohishi do‘stlar tomonidan qabul qilingan, tan olingan, hurmat qilingan bo‘lishdek kuchli xohishdir. Bu muhim talabga aylanib boradi [2.33-35].

O‘smir uchun eng yoqimsiz vaziyat – jamoa va o‘rtoqlarining noroziligi, muloqot qilishni istamaslik, eng og‘ir jazo esa – ochiq yoki nooshkor aloqa uzish, gaplashmaslikdir.

O‘smirlar do‘stlik kodeksining muhim me’yorlari – sha’nini hurmat qilish, tenglik, sodiqlik, do‘stga yordam, to‘g‘riso‘zlik.

O‘smirning o‘quv faoliyatida o‘rta maktabga o‘tish kuzatiladi. Bu bilan o‘smirlarning o‘qishi sezilarli darajada murakkablashadi: bitta o‘qituvchi o‘rniga besh–

oltita yangisi paydo bo‘ladi, ularning tushuntirish va so‘rash usuli ham, o‘quvchilarga talab va munosabati ham har xil. Buning ustiga o‘qituvchilar ularni avvaliga yaxshi bilmaydilar, natijada «sevimli» va «sevimli bo‘lmagan» o‘qituvchilar paydo bo‘ladi [4.25-26].

O‘smirlar bilimdon va talabchan, lekin materialni qiziqarli va aniq tushuntirib beradigan, darsni bir me’yorda tashkil eta oladigan, unga jalb qila oladigan, darsni har bir o‘quvchi uchun maksimal darajada unumli eta oladigan adolatli, oqko‘ngil va madaniyatli o‘qituvchilarni yoqtiradilar.

O‘rta sinflarda o‘quvchilar fanlar asosini o‘rganish va o‘zlashtirishga kirishadilar. Bolalar katta hajmdagi bilimlarni egallashi kerak bo‘ladi. O‘smirlik yoshining oxiriga kelib esa, ular o‘zlarining bo‘lg‘usi kasbi va, umuman, kelajaklari haqida o‘ylay boshlaydilar [5].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir ota-ona va pedagogik jamoa o`smir rivojlanish qonuniyatlarini bilishi, o`smirga nisbatan tog`ri munosabatni yo`lga qo`yishi, farzandi xulq atvorini iloji boricha tushunishi, unga mustaqil inson sifatida munosabatda bo`lishi, undagi yetakchi faoliyat muloqot ekanini tushungan holda uning yaqin do`stlari davrasidan xabardor bo`lib, uning uchun hurmatli va ishongan do`stlari davrasida ko`proq bo`lishiga imkon berishi, qo`llab - quvvatlab turishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. T. O`zbekiston. 1998. B. 90-95.
2. G`oziev E. Ontogenez psixologiyasi. T. Sharq. 2008 . B. 33-35.
3. Shoumarov G. Oila psixologiyasi . T. Sharq. 2001. B. 24-25.
4. Nishonova Z. O`smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. O`quv qo`llanma. T., Sharq. 2003. B. 25-26.

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA KITOB MUTOLASINING YOSHLAR RUHIYATIGA TA’SIRI

*Ergasheva Zebiniso Xasanxonova*
*Farg’ona shahar 42-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ma’lumki, shaxs ijtimoiy o’zligini anglashning mukammallik darajasiga erishish uchun ma’naviy boylik kerak. Ma’naviy boy bo’lishi uchun axloqan yuksak, aqlan yetuk, jismonan baquvvat, sog’lom fikrlashi uchun albatta manba kerak. Bu manbalar makoni kitobdir. Bu manbalardan xabardor har bir inson ijtimoiy muhitda shakllanadi va o’zligini anglashning eng yuqori darajaga yetishi komillik belgisi hisoblanagan o’zligini anglashning nukammallik darajasiga erishgan ashxsgina elim, yurtimdeb yashashi bilan bir qatorda, shu el-yurti baxt-saodati, tinchligi yo’lida jonini ham qurbon qiladigan fidoyi shaxs bo’ladi. Yoshlarning ijtimoiy hayotga mos, mutanosib, ijtimoiy faol shaxs sifatida o’zligini namoyon etishning eng to’g’ri va mukammal yo’li – bu kitob mutolasidir. Kitobxonlik – bu shaxs o’zini ilm-u ma’rifat, yuksak ma’naviyat va madaaniyat bilan o’rab, bu hayotdan o’z o’rnini topib, uni

yomonlikka boshlovchi nafsi v ahoy-u havaslarini jilovlab olib, o'z shaxsini tabiyalab, komillik sari intilib yashashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv, shaxs, kitobxonlik, xotira, yosh avlod, diqqat, tafakkur.

Yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy yuksalishida kitobxonlik asosiy mezon sifatida. Barchamizga ayonki, kitobxonlik –ijtimoiy-ma'naviy yksalish mezonidir. Kitob aql qayrog'i, insonning dunyodagi eng katta boyligi. Kitob ana shu aqlni, fikr-tafakkurni ifodalash vositasi. Bugungi tobora globallashib borayotgan zamonimizda kitob yoshlarimiz aqlini yanada charxlab, mulohazaga undaydi, ezgulikka chorlaydi, mustaqil fikrlashga undayydi. Ota-bobolarimiz ham azal-azaldan kitobxonlikni suyganlar. Tariximizda o'chmas meros qoldirgan buyuk ajdodlarimizni ham eng avvalo kitobga bo'lgan oshnoligi, cheksiz hurmati ko'zga yaqqol namoyon etadi. Kitob mutolasi yoshlarni tarbiyalaydi, ulg'aytiradi va dunyoga tanitadi. Xalqimizning yuksak ma'naviyati va ma'rifatliligi ham kitobxonlikdir.

Bu borada fransuz faylasufi Deni Didroning "Odamllar o'qishdan to'xtashlari bilan fikrlashdan ham to'xtaydilar" degan fikridan kelib chiqib yoshlarning yuksak darajada fikrining tiniqligi, tafakkurning shakllanishi uchun kitob o'qish va kitobxonlikni tobora targ'ib qilish maqsadga muvofiq desak to'g'ri bo'ladi.

Axborotning globallashuvida kitob mutolasining kamligi va yoshlarning ruhiy holatiga ta'siri. Bugungi kunga kelib, axborotning globallashuvi to'g'ri tushunilmaganligi tufayli ayrim yoshlarimiz ongiga turli mafkuraviy ta'sirlar, g'arazli kuchlar singdirilishi ko'zga tashlanmoqda. Chunki aynan shu maqsadlar bilan o'zlarininng buzg'unchi yot g'oyalarni, buzuq niyatlarini yosh yigit-qizlarga ma'lim ijtimoiy tarmoqlar orqali ularning ruhiyatiga ta'sir o'tkazishmoqchi bo'lishadi. Ayrim yoshlar kompyuter, telefon va internet tarmoqlariga qattiq bog'lanib qolishlari oqibatida esa ularda kitobga bo'lgan munosabati susayib ketishiga olib keladi. natijada ular orasida ijtimoiy o'z o'rni va milliy mintalitetimizning unutilishi, o'qishga va kelajakda aniq bir kasb tanlashga bo'lgan qiziqishning yo'qolishi, mehr-muhabbatning yo'qolishi; kashandalik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, daydilik, jinoyatchilik kabi illatlarga ruju qo'yishiga sabab bo'lmoqda. Ijtimoy so'rov natijalariga qaraganda, 30 yoshgacha bo'lgan republikamiz yoshlarining 90 foizini birlamchi axborotni internetdan olishi aniqlangan. Bu esa bugun yoshlarning yabgi axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiyuqori darajada o'sganini ko'rsatadi. Bu raqam yoshlarni kitobga, gazeta va jurnallarga, umuman, bosma nashrlarga muhabbat uyg'otish har birimiz uchun dolzarb masala bo'lishi kerakligini uqtiradi.

O'quvchi-yoshlarning bilish jarayonlari yaxshilanishida kitob mutolasining foydalari. Har bir kitobxon kitob mutolaa qilar ekan, eng avvalo o'zining dunyoqarashiga va asar orqali oladigan taassurotlari vatanparvarlik, ulug'vorlik insoniylik, asar qahramonlarining iztirobli sahnalari, quvonch, qayg'u dardkashlik, mehr-muhabbat va go'zallik kabi fazilat va his-tuyg'ular orqali o'z ruhiy olamini to'ldirib boradi. Aqlan esa idrok qillib tafakkur olami kengayadi. Ko'pchilik yoshlar bo'sh vaqtlarida yoki asabiylashganida musiqa tinglashga odatlanishgan. Bu bir tarafdan olganda to'g'ri-yu, ammo ko'pchilik olimlar esa kitob o'qish bo'sh vaqtni

besamar ketmasligiga, asabni tinchlantirishdagi eng samarali usul ham aynan mutolaa ekanligini aytishgan. Bundan tashqari har safar kitob o’qilganida, miya yanada faol ishlaydi. U olinayotgan ma’lumotlarni saqlab qolish uchun yangi tolalarni yaratadi. Aniqlanishicha, har bir yosh muntazam kitob mutolaa qiladigan bo’lsa, xotira va fikrlash qobiliyati keksayganda nisbatan sekinroq pasayar ekan.

Xulosa shuki, hozirgi kunda yoshlarning ilm olishlari uchun qator sharoitlar yaratilgan va kitobxonlikni aholi orasida targ’ib qilish bo’yicha qator yangiliklar bo’layotgani evaziga yoshlarni fan va texnalogiya tizimida innovatsiyalar yaratilayotganligi bunga misol bo’la oladi. Yuqoridagi taxlillardan kelib chiqqan holda, shunday xulosaga kelish joizki, ma’naviyatimizning qadimiyligi, mazmun-mohiyati, o’ziga xos xususiyatlari, asosiy tamoyillari, uning jamiyatimiz taraqqiyotidagi roli va ahamiyati, ong va til, aql-iqrok, muruvvat va sahovat, mehr-oqibat, iymon-e’tiqod, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, poklik, ilm-fanni , adabiyotni sevib ardoqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, o’zi va o’zga millat kishilarini qadriyatlarini hurmat qilishi kabi bir qator hislatlarni tarbiyalash, ruhiyatiga ta’sir etish bugungi globallashib borayotgan davrda yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishning asosida esa albatta, kitob mutolasi yotadi.

# TA’LIM TIZIMIDA NIZOLAR VA ULARNI SAMARALI HAL ETISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK YO’LLARI

*Imomova Nigora Paziljonovna*
*Andijon viloyati Izboskan tuman 27-maktab psixologi*

O‘qituvchi-tarbiyachi yoshlarning yetakchisi sifatida ta’lim tizimida tom ma’noda o‘zining ijodiy vazifalarini to‘liq bajarishni ta’minlashi va pedagogik yo‘naltirilganligini shakllantirishi kerak.

Pedagogik jarayondagi muhim hodisalardan biri - nizo sanaladi.
Nizo - qarama-qarshi, bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan kuchlar to‘qnashuvi, ikki yoki undan ko‘p taraflar orasida o‘zaro kelishuvning yo‘qligini, manfaatlar to‘qnashuvini ifodalovchi ziddiyat.

Pedagogik nizo bu - pedagog va talaba, ota-ona, hamkasblar yoki rahbariyat o‘rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to‘qnashuvi, o‘zaro qarama-qarshilik o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi kelishmovchilik, tortishuv va mojarodir.

O’qituvchi har tomonlama tarbiyalangan, aqliy, ahloqiy, ma’naviy bo‘lib, bilim doirasi keng, nutqi ravon, pedagogik bilim mahorat egasi bo‘lishi lozim. O‘qituvchining pedagogik bilim mahorati asosan sinf, auditoriya mashg‘ulotlarida yaqqol ko‘rinadi. O‘qituvchi bilan o‘quvchi, talabalar o‘rtasida o‘zaro jonli til, fikr olishuv, samimiy munosabat, hurmat izzat, asosiy maqsadga erishishga hamkorlik lozim. Pedagog o‘z guruhida nechta bola bo‘lsa, ularning har birining xarakterini, oilaviy muhitini, psixikasini, xulqi-atvorini, bilim saviyasini yutug‘i va kamchiliklarini o‘rganib, keyin shunga qarab har bir bolaga qanday yondashishi lozimligini bilishi kerak. Guruhlarda har-xil toifali bolalar uchraydi. Ularning har – biri o‘z xarakteriga ega bo‘ladi. Pedagog

har bir bolani oʻrganib chiqishi, ular bilan yakka (induvial) holda yondashib tanishib chiqishi kerak. Ayrim bolalar qobiliyatli, har tomonlama etuk faol boʻlishiga, ayrimlarining qobiliyati sust, layoqatsiz, ayrimlari serjahil boʻladilar. Guruh rahbarining asosiy vazifasi oʻziga biriktirilgan guruhdagi bolalarga tarbiyaviy ta’sirini tashkil etishi lozim. Sinf rahbari oʻquvchilarga kompleks yondashishi lozim. Sinf rahbari ota-onalar bilan hamkorlikda boʻlib, bolalarning bilim darajasi qay darajada ekanini, ularning axloq-odobi, yutuqlari va kamchiliklari ularning tarbiyasi bilan shugʻullanadi. Oʻqituvchi tomonidan shularga e’tibor berilsa, pedagog bilan oʻquvchi oʻrtasida nizo paydo boʻlishni bartaraf etadi. Oʻquvchi-bilan oʻqituvchi oʻrtasida kontakt ya’ni masofa boʻlishi lozim. Oʻquvchi oʻqituvchisiga nisbatan hurmat, ehtiromli boʻlishi, kerak. Oʻqituvchi avvolo oʻziga nisbatan talabchan boʻlmogʻi kerak, shundagina uning bolaga nisbatan qoʻyayotgan talablari oʻrinli, samarali boʻladi. Pedagogning talabchanligi adolatlilik bilan uzviy bogʻliq boʻlmogʻi lozim. Shu bilan birgalikda oʻqituvchi adolatli boʻlishi, oʻqituvchining axloqiy fazilati hisoblansa, ikkinchi tomondan oʻquvchilarga tarbiyaviy ta’sirini baholashning mezoni hisoblanadi. Oʻquvchining bilim saviyasini hamda xulqini baholashda ham oʻqituvchidan adolatli boʻlish talab etiladi. Oʻqituvchi ma’suliyatli boʻlishi va uning zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash ma’suliyati yuklanadi. Pedagog mana shu yuqoridagilarga rioya qilib ish olib borgandagina oʻqituvchi bilan oʻquvchilar orasida nizo paydo boʻlmaydi.

Pedagogik nizo tushunchasi:

Pedagogik nizo bu oʻqituvchi bilan oʻquvchi oʻrtasida muammolar tortishuvlar, kelishmovchiliklar boʻlib oʻqituvchi shu muammolarni oldini olishi, unga yoʻl qoʻymasligi, va shu muammolarni echimini topishi kerak.

Pedagogik nizo bir qator belgilarga ega. Unga xos boʻlgan asosiy belgilar quyidagilardir: inqiroz; anglashilmovchilik; kutilmagan hodisa; zoʻriqish; noqulaylik; ichki yoki tashqi xavotir; bartaraf etish qiyin boʻlgan qoʻrquv. Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar: axborot omili; munosabat omili; hulq omili.

Pedagogika nizoning echimi va uni boshqarish texnalogiyasi:

Muloqot pedagogik nizolarning echish va boshqarish usullari. Muloqotdagi ziddiyat shakllari turlichadir. Masalan yuzma-yuz yoki texnik vositalar (telefon telegraf va shunga oʻxshash vositalar) bilan amalga oshiriliadi. Oilada nizo muloqot ayrim a’zolari oʻrtasida boʻlishi mumkin.

Oʻzaro munosabatlarga kirishilganda nizoni yuzaga kelmasligini asosiy sabablari, oʻzaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak boʻlsa, oʻzaro til topishishi bir-birini tushuna olish lozim. Har qanday faoliyatdan zerikish, garchan mumkin, faqat odam muloqotdan ayniqsa, uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma’naviy jihatdan ragʻbatlantiriladilar. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy, qiyofasi, fazilatlari, hattoki nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Har qanday muloqotlarning elemintar funksiyasi suhbatdoshilarning oʻzaro bir-birini tushunishlarini ta’minlashdir. Pedagogik nizolarni oldini olishda gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tenglaydi, eshitadi.

Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik oʻzaro mosligi, bir-birini toʻldirishga bogʻliq ekan notoʻgʻri tasavvurlardan bir shuki, odamni muomola

yoki muloqatga oʻrgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan soʻzlardan foydalanib ta’sirchan gapirishcha oʻrgatishadi. Uning ikkinchi tomoni-tinglash qobiliyatiga deyarli e’tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnechi “yaxshi suhbatdan - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi gapirishni biladigan esas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir” deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan boʻlishini nazarda tutgan edi. Pedagogik muloqot-Oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi oʻzaro munosabatiga aytiladi. Pedagoglik jarayondagi aloqalar tizimida oʻqituvchi bilan oʻquvchi oʻrtasidagi muomola - munosabatlar katta oʻrin egallaydi.Oʻqituvchi hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar-yosh bolalar bilan muloqotda boʻladi. Oʻqituvchining biror tasodifiy xatti-harakati natijasida oʻquvchilarda u haqda sodir boʻlgan fikr ham ta’lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir etishi, oʻqituvchining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va oʻqituvchi foydasiga hal etiladi. Oʻqituvchi obroʻsini saqlayman deb, kattalar ba’zan oʻquvchining qadr-qimmatini erga uradilar, oʻquvchidan kechirim surashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga oʻqituvchining notoʻgʻri hatti-harakati sabab boʻlgan. Oʻqituvchining ishi axloqiy tarbiya talablariga toʻgʻri kelmaydi. Bolalar bilan muomola va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashishish lozim. Agar oʻqituvchi va oʻquvchi bir-birini tinglasa, oʻz-oʻzini ham tarbiyalaydi. Demak, tinglash jarayoni koʻpchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas. Tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar gʻoyalarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. SHuning uchun ma’ruzachi professorning har bir chiqishi va ma’ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglasa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Pedagogik nizolarda adolatsizliklarga, ijtimoiy munosabatlardagi yakkahokimlikka yoʻl qoʻyib boʻlmaydi.

Pedagogik nizolarni hal etishda bir qator yoʻl tutiladi.

Ular orasida eng samarali yoʻllar quyidagilar sanaladi:

1. Nizoning ta’sir doirasini kengaytirmaslik.
2. Qulay echimlarni taklif qilish.
3. Man etilgan usullarni qoʻllamaslik, shakllardan foydalanmaslik.
4. Shikoyatlar sonini qisqartirish.
5. Ikkinchi darajali masalalarni ham uzviy ravishda hal qilib borish.
6. Nizoga kirishgan sub’ektlar shaxsini kamsitadigan soʻzlardan foydalanmaslik.

Pedagogik nizo sub’ektlariga koʻrsatiladigan pedagogik-psixologik yordam turlari:

- Maslahat berish;
- Axborotli yordam koʻrsatish;
- Tashxislash;
- Amaliy treninglar uyushtirish.

Axloqiy nizo-axloq ijtimoiy ong shakllaridan biridir, u muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi-shaxslarning bir-biriga, jamiyatga, xalq mulkiga, oilaga ishlab chiqarish vositalariga, muayyan tartibga solinadigan hatti harakatlarda tizimida koʻrishimiz mumkin.

Guruhlararo ziddiyatlar - odamning oʻrtasidagi yoki shaxslararo munosabatlar asosan guruh sharoitida shaxs maʼlum insonlar davrasida, guruhda jamoada boʻlgan taqdirdagina roʻy beradi. Guruhlararo ziddiyatlar guruh aʼzolarida liderlarni koʻrishimiz mumkin. Lederlar: rasmiy va norasmiy boʻladilar, rasmiy lider oʻqituvchi tomonidan tanlangan guruh staristasidir, norasmiy lider boshqa guruhdagi shaxslarni oʻziga jalb qila oladigan boshqalarni oʻziga tortadigan shaxsdir. Bunday holatlarda rasmiy va norasmiy rasmiy lider oʻrtasida nizo yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda har bir shaxs muommila madaniyatiga ega bo'lmog'i lozim. Shaxs muloqotda boʻlgani sari ular oʻrtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari umumiylik va oʻxshashalik va uygʻunlik kabi sifatlar paydo boʻladiki, ular bir-birini bir qarashda tushunadilar yoki yarmiga jumladan fikr ayon boʻlib qoladigan boʻlib qoladi. Ammo shunday muloqot tizimidagi teskari reaksiyalarni bir-biridan charchab gapiradigan gapining qolmasligi kabi vaziyatni ya'ni, shaxslar va shaxslararo ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

# ХУЛҚИ ОҒИШГАН БОЛАЛАР ПСИХОЛОГИЯСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Аллаберганова Зебо Аллабергановна*
*Хоразм вилояти Урганч тумани 11-мактаб ўқитувчиси,*
*Атаджанова Қувонж*
*Хоразм вилояти Урганч тумани 11-мактаб ўқитувчиси*

Бугунги кунда хулқи оғишган болаларни “Хатар гуруҳига” киритамиз. “Хатар гуруҳидаги болалар” тушунчаси алоҳида умумқабул қилинган ижтимоий ва ҳуқуқий меъёрлардан салбий тарзда оғишишнинг юзага келишидаги юқори эҳтимоллиликни англатади. Бундай болалар объектив тарзда реал ёки потенциал хатар доирасида турадилар, ижтимоий мослашмаганликнинг асосан педагогик қаровсизлик ва ижтимоийлашув жараёнининг бузилиши оқибатидаги тарбияси оғирликда ифодаланувчи ҳар хил шаклларини намоён қиладилар[10].

Психологик нуқтаи назардан хатар гуруҳидаги болалар уюшмаган бўш вақт, ҳиссий-иродавий назоратнинг паст даражаси, ўзини тута билмаслик ва ўзига ишонмаслик, ўз-ўзини баҳолашнинг ва билишга оид фаолликнинг пастлиги, ўқишни истамаслик, кучли таассуротлар олишга интилиш билан характерланадилар, шунингдек, улар хавотирли, интизомсиз, носоғлом турмуш тарзини олиб борадилар, психофаол моддаларни истеъмол қиладилар.

Шундай қилиб, “хатар гуруҳидаги болалар”га қуйидаги тоифа болалари тааллуқли:

[1] Маслова М.Е. Социально-педагогическая адаптация детей группы риска: Автореферат дис.канд.пед.наук. – Ставрополь, 2001. – С. 8.

- гиперфаол, тажовузкор, феъл-атворнинг типик акцентуацияси, психопатик кўринишлари бўлган болалар;

- девиант (ижтимоий меъёрлардан оғишган) ва аддиктив (психофаол моддалар, интернет ва бошқаларга тобе) хулқли болалар;

- жисмоний ва психик саломатлигида муаммолари бўлган, умумий ривожланишида ортда қолган болалар;

- етим ва ота-она қарамоғисиз қолган болалар (бунда асосан ота-она қарамоғисиз қолган болалар учун муассасалардан ташқаридаги, қаровсиз ва назоратсиз қолган болалар назарда тутилмоқда);

- нотинч, асоциал оилалардан чиққан болалар;

- тарбияси оғир, педагогик жиҳатдан қаровсиз, мактабга ва ижтимоий мослашмаган болалар;

- яшаш, тарбия, таълимнинг алоҳида шароитларига муҳтож болалар;

- Вояга етмаганлар орасида ҳуқуқбузарликни олдини олиш бўлимлари ҳисобида турувчи; судланганлар (шартли равишда, жазо муддатини узайтириш билан озодликдан маҳрум қилинганлар, ҳуқуқбузарлик ёки жиноят содир этган), жазони ижро этиш муассасаларида турган болалар.

Умуман олганда, хатар гуруҳидаги болалар маънавий, ахлоқий-иродавий, қатор ҳолларда эса жисмоний ва интеллектуал ривожланишида оғишлари билан характерланади.

*Ахлоқдаги оғиш яна қуйидаги шаклларда намоён бўлиши мумкин:*

- Асоциал ахлоқ - умуминсоний қадриятларни инкор этиш, ижтимоий лоқайдлик, реалликни идрок этиш ва ўзини назорат қилиш даражаларининг пастлиги.
- Деликвет ахлоқ – бунга аксарият ҳолларда жиноий ҳатти-ҳаракатлар киради;
- Аутодеструктив (ўзини ўзи бузувчи) – бундай ахлоқ намоён бўлишини ўзига нисбатан жисмоний, психологик салбий (бузғунчи) таъсир қилувчиларга нисбатан қўлланилади.
- Аддиктив (тобеланган) ахлоқ - психотроп, гиёҳванд моддаларга тобелик, видоо ёки компютер ўйинлари, ижтимоий тармоқлар, интернетга тобелик айни шундай ахлоқ кўринишларидир.

Тарихий-маданий, биогенетик, социогенетик каби бир қатор назарияларда таъкидланадики, инсон ахлоқидаги оғшиларнинг асосий сабаблари қуйидагилардир:

- Жамиятнинг меъёрларига ҳаёт томонидан илгари суриладиган талабларнинг тўғри келмаслиги;
- Аниқ бир шахснинг қизиқишларига ҳаётнинг тўғри келмаслиги;

Девиант хулқ-атворни юзага келтириши мумкин бўлган таъсирлар:

- Ирсият орқали ўтган хусусиятлари;
- Тарбиядаги хатолар;
- Оилавий муаммолар;
- Характер ўзгариши;
- Шахсий эҳтиёжлар;
- Психик касалликлар;
- Психик ва физиологик ривожланишдан орқада қолиш;
- ОАВ, интернет, ижтимоий тармоқларнинг салбий таъсири;
- Нотоғри педагогик ёки психологик коррексион таъсир;

Айни ушбу жараёнларда тарбияланувчидаги ўзгаришлар тенденцияси аниқланади ҳамда шахсда шаклланиб бошлаган инсайт(муаммоларни рационал идрок этиш орқали, мослашувчанлик билан мустақил ҳал эта олиш кўникмаси)га олиб борувчи установкалар ҳамда рационал ғоялар тизимини мустаҳкамлашга эътибор қаратилади.

Хулқи оғишган болалар девиант хулқ-атвордаги болалар деб ҳам аталади ҳамда улар хатар гуруҳига киритилади. Хулқи оғишликни олдини олиш чора-тадбирлар кичик бола ёшидан олиб борилиши мақсадга мувофиқдир.

Хулқи оғишган болалар билан ишлашда эътибор бериш керак бўлган энг муҳим жиҳатлар: болага унинг ёмон, тарбияси оғир эканлигини айтмаслик ва унга ёмон тамғасини босмаслик керак, гуманистик ёндошув асосида бола билан ишлаш лозим. Доимо ёдда тутиш жоизки ёмон болалар бўлмайди… ёмон тарбиячилар, ёмон ота-оналар, ёмон ижтимоий муҳит ёки ўзини шунчаки ёмон ҳис этаётган болалар бўлади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1.Маслова М.Е. Социально-педагогическая адаптация детей группы риска: Автореферат дис.канд.пед.наук. – Ставрополь, 2001. – С. 8.

2. Умаров Б.М. Болалар ва ўсмирларда хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг олдини олиш бўйича психологик маслаҳатлар: Услубий қўлланма.-Т., 2019

3. Хакимова И.М. Девиант хулқ-атвор психологияси: Ўқув қўлланма. -Т., 2014

4. Комилова Н.Ғ. Хулқи оғишган болалар психологияси: Услубий қўлланма.-Т., 2008

# ДИНИЙ МУТААССИБЛИКНИ ТАВСИФЛОВЧИ ОМИЛЛАР

*Қаххоров Сарвар*
*Ўзбекистон халқаро ислом академияси стажёр тадқиқотчиси*

“Ўзининг шак-шубҳасиз хақлигига, ҳақиқатни фақат ўзи билишга ишонч ҳисси сўнгги чораларга-зўравонлик ҳаракатларига мойиллиги билан ажралиб турадиган диний экстремизмнинг пайдо бўлишига замин яратади”[11].

Диний мутаассибликни шакллантирувчи, унга таъсир этувчи қатор омиллар мавжудки, уларни илмий асосда таҳлил этмай туриб, диний мутаассиблик фаолияти ва айнан диний мутаассиб шахс психологиясини ўрганиб бўлмайди. Бу ўринда диний мутаассиб шахсига оид ва шахсни диний фанат (мутаассиб) бўлишига таъсир этувчи қатор омиилларни таҳлил этамиз.

1) Шу муаммони ўрганган профессор Д.В.Олшанскийнинг фикрича, “террорчилик бу ёки жисмоний, ёки моддий,ёки маънавий ожизларнинг қуролидир”[12] деган қарашини таҳлил этар эканмиз, демак, мутаассиб-террорчи ёки жисмоний, ёки моддий ёки руҳий камчиликлардан холи бўлмайди. Маълумки, психологияда бундай шахслар психопатлар деб номланади. Айнан мана шу юқоридаги камчилкни биз диний мутаассиб шахсини тавсифловчи омиллардан бири деб баҳоласак бўлади. Шахсга оид назариялардан бири бўлган А.Адлернинг “Тўлиқсизлик” назарияси моҳияти ҳам айнан юқоридаги фикримизни тасдиқлайди. Яъни Адлер ўз қарашларида ҳар бир шахсда маълум камчиликлар бўлишини айтиб, шахс ўз камчиликларини тўғри англаб, уни бошқа хусусиятлари билан компенсация (тўлдириш) қилишга ҳаракат қилади. У шу орқали ўз “мен”лигини намойиш этади, дейди олим. Демак, хулоса қилшимиз мумкинки, маълум камчиликка эга бўлган диний мутаассиб шахси ўз “мен”лигини намойиш қилиш, ижтимоий статусини кўрсатиш мақсадида бирор ғоя, қараш, гуруҳга кириб қолади.

2) Шахсининг тўлиқ шаклланмаганлиги. Шахснинг энг муҳим хусусиятли жиҳатларидан бири - бу унинг индивидуаллигидир, яъни яккахоллигидир. Индивидуаллик деганда, инсоннинг шахсий психологик хусусиятларинииг бетакрор бирикмаси тушунилади. Индивидуаллик таркибига характер, темперамент, психик жараёнлар, ҳолатлар, ҳодисалар, ҳукмрон хусусиятлар йиғиндиси, ирода, фаолиятлар мотивлари, инсон маслаги, дунёқараши, иқтидори,

[11] Каримов И.А. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”. – Тошкент: Ўзбекистон,1997. – Б. 38-39.
[12] Душанов Р.Х. “Жиноятчи шахс психологияси”. – Тошкент-2011. ИИВ Академия. – Б. 34

ҳар хил шаклдаги реакциялар, қобилиятлари ва шу кабилар киради. Қолаверса, шахснинг ижтимоий фаоллиги ҳам ғоят аҳамиятлидир[13].

Бунга кўра, диний мутаассиб шахсида, ўз “мен”лигини англашда камчиликлар бор. Оқибатида эса диний фанат ўзини ёки паст баҳолайди ёки жуда юқори баҳолайди. Одатда, улар адекват (холис) баҳолай олмайдилар.

3) Айзенк сўровномаси натижаларига кўра асосан холерик типли темпераментдагилар. Уларга: суст сензитивлик хусусиятига эга. Жуда фаол ва реактив. Кўпинча реактивлиги фаолликдан устун келади. Бетоқат, серзарда, тинимсиз. Сангвиникка қараганда силлиқрок, лекин кўпроқ қотиб колган. Қизиқишлари, интилишлари барқарор, хатти-ҳаракатларида қатъийлик мавжуд. Бироқ диққатни бир жойга тўплашда қийналади. Шу хусусиятлар яққол кўринади. Айзенк тести мутаассиб террорчиларда ўтказилганда жаъми синалувчилардан 46% ини айнан холериклар ташкил этган. Аммо бу дегани хамма холериклар диний мутаассиблар бўлиши мумкин дегани эмас. Характер хусусиятлари ҳам катта аҳамиятга эгадир.

4) Тажовузкорлик ва қаттиққўллик; Унга кўра, диний мутаассиб шахси ёшлигиданоқ бошқа болалардан қайсарлиги, тундлиги, агрессивлиги билан ажралиб туради. Вақт ўтиши билан турли тўсиқлар, моддий бойлигини йўқотиши, ўқиш-ишидан ажралиши, яқин кишисидан ажралиб қолиши каби ҳолатлар шахсдаги тажовузкорликни ривожлантириб юборади.

5) Ўз-ўзини оқлашда кучли артистлик қобилиятларига эга бўлиш; Диний мутаассиб шахси ўз қарашларини шу қадар тарғиб этадики, инсон руҳиятига самарали таъсир этувчи қатор усуллардан фойдаланади. Агар унинг ғоясини қатъий рад этадиган фикр билдирилганда улар усталик билан бу вазиятдан чиқиб кетадилар. Шу сабаб қатор мутаассиб оқимлар ўз аъзоларига: “агар бирор олим ёки уламо билан ноқулай вазиятга тушиб қолсанглар, у даврани тезда тарк этинг” деб уқтирадилар.

6**)** Етарли даражада ақлий ривожланмаганлик (ИҚ нинг жуда пастлиги), қизиқишларнинг тўлиқ англанмаганлиги ва билим даражасининг пастлиги; манбаларнинг деярли барчасида мутаассибликнинг асосий илдизи бу- ақли пастлик деб белгиланган.

7) Доимо ўз “мен”лиги ва ғоясини химоя килшга қаттиқ берилиш; мутаассиб шахсида ёшликдан тахқир ва руҳий эзилишларга нисбатан чидамсиз бўлиб қоладилар ва натижада улар хар қандай ўзларига қарши фикрни тажовузкорлик билан химоя қиладилар;

8**)** ўз “мен”ини маълум гуруҳ таркибидагина эркин хис қилиши; Яъни диний мутаассиб шахси кочада, жамоат жойларида, бошқа инсонлар ичида ўзларини,

[13] Холжигитова Н. “Умумий психология” – Тошкент. 2009. – Б. 29.

имкониятларини намоён этишмайди. Улар фақат мутаассиб шахслар ичидагина ўзларини эркин хис этадилар.

9) Фрустрация (маълум фаолиятни амалга оширишда тўсиқларга учраш оқибатида шахсда пайдо бўлувчи руҳий тушкунлик ҳолати)га осон берилиши; Диний мутаассиб шахси бирор фаолиятни амалга оширар экан, муваффақияцизликларни асосан ташқи сабаблар билан изоҳлайди. Яъни “мен яхши, улар ёмон” каби.

10) Маълум компенсацияга мойиллик; диний мутаассиб шахси доим атрофдаги маълум ғоя, қарашни хеч қандай танқидсиз қабул қилаверади. Диний мутаассиб шахсида тафаккурда ригидлик кузатилади.

11**)** Мулоқотга киришишда қийналишлик; Мутаассиб шахсининг асосий белгиларидан бири бу-аутизм яъни ўз қобиғига ўралиб қолишлигидир. У ўз ғояларига қўшилувчилар билангина муомала қилишга харакат қиладилар.

12**)** Эмоционал беқарорлик; Мутаассиб шахсининг хохишлари, кайфиятлари, мотивлари ҳам уларни тобе қилган ғояга муносабатдан келиб чиқади, яъни муносабат яхши бўлса хаммаси яхши бўлади.

Айнан юқоридаги қатор омиллар диний мутаассиб шахсини тавсифлашда ёрдам беради. Қолаверса, диний мутаассиб шахсини ўзига тобе этган ақида шу қадар шахс психологиясига кириб борадики, натижада энди диний мутаассиблик шахснинг бутун бир эҳтиёжлари, майллари ва қизиқишларини бошқара бошлайди. Мутаассиб қилган ғоя шахсни шахслилигини емиради ва уни “ўзи” бошқара бошлайди. Энди шахснинг ўз фикри, қизиқишлари, эҳтиёжлари, майллари, қарашлари ва кайфияти ҳам мутаассиб қараш томонидан бошқарилади. Энди ўз ғоясига қарши хар қандай фикр, қараш ва ғоя ёки фаолиятга нисбатан тоқацизлик намоён бўлади. Мутаассибликни энг қадимий кўриниши бу “севиш”дир. Яъни севган инсон ўз обектига шу қадар хиссий боғланадики, хаётдаги хар қандай бошқа ходиса ва жараёнларни инкор этади[14].

Диний мутаассиб шахси ҳам айнан обект сифатида маълум ақидани танлайди ва уни юқоридаги каби “севиб” қолади. Натижада эса ўз обектига қарши ёки алоқадор бўлмаган хар қандай таъсир,маълумотни инкор этаверади. Бу борада Э.Фромм айтганидек: “ҳар қандай юқори даражадаги қизиқиш (боғланиш) “ҳақиқатдан ва эркинликдан қочиш”га олиб келади”. Энди ўша диний ақида субектнинг шахс йўналганлик (ориентация) асосини эгаллайди. Мутаассиб шахси эса ўз ақидаси йўлида хар қандай тўсиқларга парво қилмайди. Ўз ўрнида мутаассиб шахслар ўзларига ўхшаш маслакдошлари билан маълум

[14] Менделевич В.Д. Клиническая и медицинская психология: Учебное пособие// В.Д. Менделевич.– 5-е изд.– М., 2005. С. 296.

жамоага,одатда, бирлашадилар. Бу жамоадаги суҳбатлар диний мутаассибларга ўз “бир хиллик”ларини йўқотмаслик, ўзларини, ғояларини ва ҳатто душманларини “стереотиплаштириш” вазифасини бажаради[15]. Демак, диний мутаассиб шахслар ўзларини мутаассиб жамоа ёрдамида “текшириб”, “тўғрилабъ борар эканлар. Қолаверса, экзалтация (обектга доир хар қандай нарсадан юқори даражада таъсирланиш) ҳам мутаассибни ўз шахсийлигини йўқотишига ёрдам беради. Унга кўра, мутаассиб шахси соч турмагию, кийимларини ҳам кумири (мутаассиб ақида)дан ўрганади[16]. Яъни кўр-кўрона тақлид қилади. Тақлид эса шахснинг ўз шахслилигини ўз қўллари билан бўғишидир. Бу ҳақда Г.В.Старшенбаум ўзининг “Диний мутаассиблик: Таҳлил, терапия” номли мақоласида диний мутаассиб жамоа шахсни дастлаб деиндивидуаллаштириш, турли психофизиологик хусусиятларни тўхтатиш эвазига уни шахслилигини йўқотади, деб таъкидлайди. У рок консертини мисол қилиб, унда алфа-ритмдаги мусиқалар жаранглайди. Тингловчилар бир хил ҳаракатланиб, индивидуаллик йўқолиб, ўрнига ҳонанда (ақида)га бутунлай бўйсуниш рўй беради, беб айтади. Чиндан ҳам, биз диний мутаассиб гуруҳлар фаолиятини таҳлил этар эканмиз, уларда шаклланган жамоага содиқлик, бир-бирини сотмаслик ва зарур бўлганда бир-биридан жонини ҳам аямаслик каби ҳуссусиятларни кўришимиз мумкин.

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHDA DASTLABKI PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

*Nodirova Zulfira Hakimovna*
*Samarqand viloyati Urgut tumani 20-maktab psixologi*

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning samarasi, yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo, ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog‘liqdir.

Olib borilayotgan islohatlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish boyicha ustuvor yo’nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” ustuvor yo’nalishda ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va

[15] Эриксон Э. “Идентичность: юность и кризис”// Э.Эриксон: Пер. с англ.; общ. ред. и предисл. А.В. Толстых.– М., 1996.с. 289.
[16] Паульсен С. “Дождь длиною в жизнь”// С.Паульсен. Geo. – 2003. – №2. с.98.

sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ka’bi vazifalar belgilangan [1].

Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo‘yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida o‘qituvchi va murabbiylarimizning hissasi beqiyos ekanini ta’kidlash lozim.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi nafaqat o‘quvchilarga ilm-fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiradi. O‘quvchi bolaligidan biror bir kasbga mehr qo‘yadi, uni orzu qiladi, o‘sha kasb egasi sifatida o‘zini tasavvur qiladi.

Mazkur tasavvurning realligini ta’minlashda o‘qituvchining katta o‘rni bor. Negaki, o‘qituvchi hali mukammal shakllanmagan bola tasavvurida go‘yoki bir “sehrgar”, tengsiz murabbiydir.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o‘rtasida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo‘lishi kerakki, yuqori sinflardagi o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlari, o‘y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo‘lsin.

Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo‘lgan shaxs xislatlari bor, bular:

— Mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom;
— mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash;
— o‘z ishini rejelashtira va nazorat qila bilish;
— ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo‘lish;
— toqatlik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish;
— materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarning hammasini o‘quvchilarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim [2, b. 6].

O‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko‘rsatuvchi mezonlar:

— kognitiv (axborotga ega ekanligi);
— kasbga qiziqish mezoni;
— amaliy mezon [3, b. 46].

Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir o‘sib kelayotgan avlodning obektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sog‘ligini, o‘zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘prok o‘z ifodasini topadi va namoyon bo‘ladi.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o‘z xususiyatlariga qarab kasbni to‘g‘ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o‘zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Ko‘pgina olimlar o‘tkazgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang‘ich sinflardayoq shakllanar ekan.

O‘qituvchining vazifasi — o‘quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan,

inson shaxsini har tomonlama uyg‘un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat [2, b. 9].

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo‘naltirish ishida o‘quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko‘rsatib o‘tish mumkin [2, b. 12-14].

Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o‘quvchilari bilan ishlash — moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat bo‘lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o‘quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo‘lishni, eng muhimi — jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo‘lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo‘lidan keladigan o‘z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag‘ishlashga va bundan ma’naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to‘g‘risida qishloq maktablarining o‘quvchilari uchun jamoa xo‘jaligida, shahar maktablarining o‘quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko‘zda tutiladi.

Ekskursiyalar chog‘ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e’tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli o‘qtirib o‘tiladi.

Ikkinchi bosqich (V-VII) sinflarning o‘quvchilari bilan ishlash — biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan qiziqish, odatda, kasbga bo‘lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichida kasbga yo‘naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o‘quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat obyektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish muhimdir.

Kasbga yo‘naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo‘jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, viktorinalar, o‘yinlar katta rol o‘ynashi lozim. Bu bosqichda o‘quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo‘naltirish ham boshlanadi.

Uchinchi bosqich (asosan VIII-XI) sinflarning o‘quvchilarini qamrab oladi — bu bosqichida o‘quvchilar o‘z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko‘radilar, o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O‘quvchilar bu bosqichdao‘z kasbiy niyatlarining birmuncha umumiy kasblar bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o‘zlashtirish yo‘llarini belgilash bilan tugaydi. O‘quvchilarni qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo‘yicha to‘garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish jarayonini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

— kasbga yo‘naltirishda yakka tartibda ishlashga e’tibor qaratish;

— mavzu yuzasidan davra suhbatlarini tashkil etish;

— turli kasblarga oid audio-video materiallar bilan tanishtirish;

— sinfdan tashqari ishlarni kasb tanlashga yo‘naltirish;
— turli soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
— madaniy tadbirlar tashkil etish;
— kasblar burchagini tashkil etish va shu mavzuda ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil etish.

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, o‘quvchilarni o‘z vaqtida to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha, harakatlar strategiyasi to’g’risida» gi PF-4947-son Farmon. www.lex.uz.
2. Jumaboyeva M. Umumiy o‘rta ta’limda kasbga yo‘naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo‘jaligi instituti, 2014. — 21 b.
3. Mardanov D. Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b.

## O’QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO’NALTIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Yuldasheva Xosiyat*
*Samarqand viloyati Oqdaryo tumani 20-maktab psixologi*

Har bir inson o’z hayotida hurmat va shuhrat qozonishni, atrofdagilarning e’tibori va e’tirofida bo’lishni, ularning qo’llab-quvvatlashini, barchaning sevgisiga, muhabbatiga yerishishni, shu bilan birga mustaqil hayot kechirishni xohlaydi. Sanab o’tilganlarning barchasiga birvarakayiga yerishishning yo’li bor, u ham bo’lsa-qiziqishingiz va qobiliyatingizga mos bo’lgan “qadrdon” kasbni tanlashdir. Kasbni tanlash, ayniqsa, qiziqish va qobiliyatga mos kasbni tanlash atrofdagilar ko’zi o’ngida o’zini ifoda etishni va hayotda o’z o’rni, qadr-qimmatini topishni xohlagan, imkoniyatlarini yuqori baholashga moyil bo’lgan o’quvchilarga xos jihatdir.

Kimki baliq tutish bilan shug’ullangan bo’lsa, bunday faoliyat uchun baliqchining o’zi ham ma’lum talablarga javob berishi zarurligi to’g’risida xabari bo’ladi. Bu talablarga: baliq va uning fe’l-atvori haqidagi bilimlar; zarur uskuna va yarog’lar; ob-havo va muhitning holati haqidagi joriy axborotlar; paydo bo’lishi mumkin bo’lgan tasodiflarga tayyorgarlik; amaliy tajriba va boshqalar kiradi. Birgina baliq tutishga shuncha talab!

Kasb bizning yagona tiriklik manbaimiz yekan, unga qo’yadigan talablarimizni qondirish uchun, biz ham qandaydir talablarga javob berishimiz zarur.

Bugungi kunda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida asosiy bo’g’in hisoblangan umumiy o’rta ta’lim maktablari faoliyatida o’quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo’naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kasbga yo’naltirishdan asosiy maqsad o’sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo’lib, bu jarayon shaxsning bo’lg’usi kasbiy

faoliyat subekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko'maklashadi.

Respublikamizda ta'lim islohatlari bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan va islohotning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, kasb-hunarga yo'naltirish sohasida mavjud bo'lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, xususan ulkan ummon bo'lgan kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Zero, umumta'lim muassasalari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, ularning kasb-hunarni ongli ravishda va to'g'ri tanlashiga ko'maklashish masalasi ta'lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Uzluksiz ta'lim tizimi rivojlanishining xozirgi sharoitida o'quvchilar bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish, ularni ongli kasb tanlashga, kelgusidagi kasbini o'zi belgilashga tayyorlash umumta'lim maktablarining muhim vazifalaridan sanaladi.

Bugungi kunda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Jumladan "Aqliy xujum", "Bumerang", "Tarozi","Yelpig'ich", "Kichik guruhlarda ishlash", "Venn diagrammasi", "Sinkven" kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya yetiladi.

Skarabey texnologiyasi interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi va har qanday muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va yerkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu texnologiya o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi va reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash hamda fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga yega bo'ladi.

"Tarozi" texnologiyasini munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'llash mumkin. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizasiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bulib o'quvchini dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, muxoliflarni ishontirish va munozara madaniyatiga o'rgatadi.

"Yelpig'ich" texnologiyasi murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli turidagi mavzularni o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama yetiladi. Bu interaktiv texnoloiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklini ixcham bayon yetish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu texnologiya umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir.

Bunday hamkorlik o’sib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o’z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo’shish imkonini yaratadi.

## O‘QUVCHILARDA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Oqilova Kamola Sa’dulloyevna*
*Samarqand viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish hududiy markazi o’qituvchisi*

**Kalit so’zlar:** шахс, одам, қобилият, индивид, темперамент, қизиқиш, характер, иқтидор, ривожланиш, коррекция, эмоция, ирода, ривожланиш, аниқлаш.

**Ключевые слова:** человек, личность, способность, индивид, темперамент, интерес, характер, способность, развитие, коррекция, эмоция, воля, развитие, решительность.

**Annotasiya:** Mustaqil O’zbekiston taraqqiyotining muhim yo’nalishlaridan biri xalqimizning boy merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida barkamol avlodni tarbiyalashdir. Chunki, shaxsning har tomonlama kamol topishi va farovon yashashini ta’minlash, uning manfaatlarini ro’yobga chiqarishning sharoitlarini yaratish va yangi sharoitga moslashtirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir.

Shaxs-qaytarilmas, u o’z sifatlari va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual psixologik xususiyatlari majmui yotadi. Shu o’rinda biz yuqorida ta’rif bergan shaxs tushunchasi bilan yonma-yon ishlatiladigan yana ikki tushunchaga izoh berish o’rinli deb hisoblaymiz. Bu — «individ» va «individuallik» tushunchalaridir. ***«Individ»*** tushunchasi umuman «odam» degan tushunchani to’ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatida mavjudligini tasdiqlaydi va uni bir tomondan, boshqa odamlardan farqlovchi belgi va xususiyatlarini o’z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, o’ziga va o’ziga o’xshashlarga xos bo’lgan umumiy va xarakterli xususiyatlarni qamrab oladi. Demak, individ — insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir.

***«Individuallik»*** — yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo’lib, u konkret odamni boshqa bir konkret odamdan farqlovchi barcha o’ziga xos xususiyatlar majmuini o’z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo’lsak, shaxsning individualligiga uning qobiliyatlari, temperamenti, xarakteri, irodaviy sifatlari, emosiyalari, xulqiga xos motivasiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Aynan shu qayd etib o’tilgan kategoriyalar shaxsdagi individuallilikni ta’minlovchi kategoriyalardir. Uning ma’nosi shundaki, bo’yi, eni, yoshi, sochining rangi, ko’z qarashlari, barmoq xarakatlari va shunga o’xshash sifatlari bir xil bo’lgan insonlarni topish mumkin, lekin xarakteri, qobiliyatlari, temperamenti,

faoliyat motivasiyasi va boshqalarga aloqador sifatlari majmui bir xil bo'lgan odamni topib bo'lmaydi.

*Qobiliyatlar* — shaxsdagi shunday individual, turg'un sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko'rsatgichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.

*Temperament* — insonning turli vaziyatlarda narsa, hodisa, xolatlar va insonlarning xatti-xarakatlariga nisbatan reaksiyasini tushuntirib beruvchi xususiyatlari majmuidir.(10.128)

*Xarakter* — shaxsning alohida insonlar va insonlar guruhi, o'z-o'ziga, vaziyatlar, narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlaridan orttiradigan sifatlarini o'z ichiga oladi.

*Irodaviy sifatlar* — har birimizning o'z oldimizga maqsad qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishimizni ta'minlovchi ma'lum sifatlarimiz majmuini o'z ichiga oladi.

*Emosiyalar va motivasiya e*sa atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalar, bizni o'rab turgan odamlar va ularning xatti-harakatlarini ruhan qanday qabul qilib, ularga bildiradigan hissiy munosabatlarimizni bildiruvchi sifatlarimiz bo'lib, ular ayni vaziyatlardagi real xolatlarimizdan va ularning ongimizda aks etishidan kelib chiqadi.

**Iqtidor -** bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib**,** insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Psixologik lug'atda "iqtidor" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi

1) iqtidor bu - faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;

2) iqtidor bu - insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

3) iqtidor bu - aqliy potensial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi;

4) iqtidor bu - tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o'ziga xosligi va ularning namoyon bo'lishi darajalari;

5) iqtidor bu - iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

***Umumiy qobiliyat egalari*** yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi.

***Maxsus qobiliyat egalari esa***-biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o'ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo'lgan va mana shu faoliyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar.

Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi;
- doimo turli savollarga javob axtarishligi;
- nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
-erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o'qish, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o'quv faoliyati;
- masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik;
-tafakkurning unumdorliligi ;

Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog'liq. Erta yosh davrlar - maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko'rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu "umumiy qobiliyat" o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ma'lum bir yo'nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo'layotganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Aniq namoyon bo'lgan, ya'ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e'tibor berilgan qobiliyat "aktual", atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat "potensial"qobiliyat deyiladi. Ko'pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A.Mosart, F.Galton, I.Mechnikov, K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnis, V.Gyugo) erta yoshdayoq o'zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Va aksincha ko'p hollarda bolalikda hyech qanday iqtidorga ega bo'lmagan bolalar yetuklik davrda muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potensialga ko'pincha atrofdagilar e'tibor bermasliklari mumkin. Tabiiyki, har bir holatda iqtidorni payqamaslikning sabablari turlidir. Potensial qobiliyat haqiqatdan ham ma'lum bir vaqtgacha namoyon bo'lmagandir. Balki, ota-onalar pedagoglar va kattalar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o'zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagandir, intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki bilimlari yetmagandir. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potensial imkoniyatlarni sezmaganlar, va hattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar. Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblaganlar, ya'ni, hammamizga shaxsiy tajribamizdan ma'lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom-sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo'yadigan ota-onalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o'rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potensial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim deb hisoblaydi. Shaxsning qanday sifatlari va xarakter xususiyatlari, fe'l-atvoridagi va faoliyatidagi fazilatlari kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bu savolga javob topish birmuncha mushkuldir. Psixologlar bolaning kelajagini "bashorat" qilish imkonini beradigan qator qonuniyatlarni belgilab berganlar, lekin asoslangan prognozlar berishga hali erishilgani yo'q. Shu bilan birga jahon pedagogika va psixologiyasi sohasidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, bolaning imkoniyatlariga ishonchning pedagoglar va ota-onalarning mahoratiga yo'g'rilganligi mo'jizalar sodir etishga qodir. Ba'zi hollarda

hayotda insonga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatdan ham ko'ra u ana shu xususiyatni qanday rivojlantira olgani muhimdir.

Iqtidorli bola deb kimni aytish mumkin?

**Iqtidorli bola** – u yoki bu faoliyat turida boshqalardan o'zining yorqin, ochiq-oydin, ba'zida mislsiz yutuqlari bilan ajralib turadigan boladir. Tabiiyki, qanday yutuqlar haqida gap yuritilayotganligi haqida savol tug'ilishi mumkin. Maxsus adabiyotlarda iqtidorli bolalar bir nechta kategoriyalarga ajratiladi:

- maxsus intellekt testlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan bolalar (intellektual iqtidor);
- ijodiy qobiliyatlari yuqori bo'lgan bolalar (ijodiy iqtidor);
- biror bir sohada, faoliyat turida yutuqlarga erishgan bolalar (yosh musiqachilar, rassomlar, matematiklar, shaxmatistlar va boshq..), bu kategoriyadagi bolalarni ko'pincha talantli deyishadi;
- maktabda fanlarni yaxshi o'zlashtiradigan bolalar (akademik qobiliyat).

Intellektual iqtidor odatda maxsus testlar yordamida intellektual koeffisiyent (IQ) ko'rinishda aniqlanadi. Zehn-zakovat saviyasi yuqori darajada rivojlangan kishilar faoliyatni o'ta nozik did, donolik bilan bajaradilar, fanda qilingan yangiliklari bilan nom qozonadilar.

Ijodiy qobiliyatlarga nisbatan esa ikki xil, bir-birini inkor etmaydigan yondashuvlar bor. Birinchi yondashuvda ijodiylik qobiliyat deb tasavvur qilinsa, ikkinchi bir yondashuvda ijodiylik shaxs xislati sifatida qaraladi va shu sababli har qanday yoshda, har qanday kasb-korda namoyon bo'ladi.

Akademik qobiliyatga ega bo'lganlar esa ta'limda ko'proq natijalarga erisha oladilar. Ular nazariy bilimlarni keng doirada, yengil o'zlashtira oladilar, o'ziga xos tafakkur va mustahkam xotiraga ega bo'ladilar. Akademik qobiliyatlarni aniqlash uchun odatda, maxsus standartlashtirilgan bilim testlaridan foydalaniladi.

Iqtidorli bolalarni aniqlash davomiy jarayon bo'lib, shaxsning rivojlanishini chuqur tahlil qilish bilan bog'liq. Bunda qator psixologik-pedagogik talablar mavjud:

– bolaning o'zini tutishi va faoliyatini kompleks baholash, bunda imkon qadar ko'proq bolaning qobiliyatlari va turli axborot manbalaridan foydalanish;

– identifikasiyalash (o'xshatish) jarayonining davomiyligi (turli vaziyatlarda bolaning o'zini tutishini kuzatish);

– bolaning qiziqish va layoqatlariga mos keladigan faoliyat doirasida o'zini tutishini tahlil etish (maxsus tashkil etilgan o'yin-mashg'ulotlarga jalb etish);

– bolaning faoliyatiga ekspert baho berish (rasmlari, yozgan she'rlari, texnik modellari, matematik masalalarni yechish usullari.), bunda yuqori malakali sohaga oid ekspert-mutaxassislarni ( matematiklar, filologlar, shaxmatist va muhandislar)taklif etish.

– har bir bolaning individualligini hisobga olgan va turli psixodiagnostik metodikalarni qo'llagan holda tashxis qilishning ko'p bosqichli va takroriy usullaridan foydalanish;

– tashxis ishlarini real hayot va faoliyat doirasida (kuzatish, suhbat, o'qituvchilar va ota-onalarning ekspert bahosi )amalga oshirish.

Iqtidorli bolalarni aniqlashda shu yosh davrdagi iqtidorning rivojlanishi darajasini, iqtidorning turli faoliyat doirasida amalga oshirish xususiyatlarini, bola rivojlanishining potensial imkoniyatlarini differensiasiya (tabaqalashtirish) qilish talab etiladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**


1. S.N.Alimxodjayeva, F.I.Haydarov, T.B.Samandarova, R.X.Valiyev “Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi”, Toshkent.; 2010 yil, 4-7 betlar
2. Гуревич К.М., Горбачева Е.И. Умственное развитие школьников: Критерии и нормативы. Знание, 1989.
3. Школьный тест умственного развития (ШТУР). Практикум по психодиагностике.-М.: МГУ, 1990.
4. Рогов Е.И. Исследование познавательной сферы подростка. Настольная книга практического психолога в образовании.- М.: 1996.


## BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK MEZONLAR


*Azimova Nafisa Sunnatovna*
*Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 2-maktab psixologi*


Insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun nasl-irsiyat (inson – biologik mavjudot sifatida), ijtimoiy muhit (ijtimoiy-iqtisodiy hayot) hamda maqsadga muvofiq tashkil etilgan tarbiya va uning faoliyati kabilar ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagogik ta'lim jarayonida talaba-yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishi, ularning har tomonlama kamolga yetishi qonuniyatlari, shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Oliy pedagogik-psixologik ta'limning asosiy maqsadi ham shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi, talabalar yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama ro'yobga chiqarish, insonparvarlik munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir [1.33-34].

Tarbiya qonuniyatiga ko'ra shaxsning kamolga yetishi jamiyat rivojlanishidan orqada qolsa, ijtimoiy maqsadni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan bo'lsa, uni amalga oshirish qiyin. Sh.Majitova o'qituvchi kadrlar tayyorlashda bir butun, yaxlit shaxsni rivojlantirish muammosini tadqiq etar ekan, shaxsni ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat sub'ekti sifatida talqin etadi.

Shuningdek, shaxsning yaxlitligi atrof-olamni anglash hamda ijtimoiy muhit sharoitida aniqlanadi. O'qituvchining shaxs sifatida o'z-o'zini anglashi hamda faolligi, maqsadga intilishi talabaning ijtimoiy-pedagogik muhitga moslashishi va o'z-o'zini baholashiga yordam beradi, degan g'oyani ilgari suradi. Muallif B.G.Ananev, A.N.Leontev, L.S.Vigotskiylarning fikrlariga tayangan holda o'qituvchi shaxsi tarbiya va ijtimoiylashuv sharoitida shakllanadi, degan xulosaga keladi. Tadqiqotda bo'lajak

o'qituvchini yaxlit shaxs sifatida rivojlantirishning pedagogik asoslari ishlab chiqilib, ular quyidagilardan iborat deb koʻrsatiladi:[2.24-25].

- ragʻbatlantirish (motivatsiya);
- yaxlit shaxsni shakllantirish mezonlarini aniqlash;
- pedagogik tizimga ega boʻlish;
- shaxsni shakllantirish mazmuni, bosqichlari, jihatlari, unga qoʻyiladigan talablar;
- pedagogik jarayon;
- talabalarning shaxslik-kasbiy yoʻnalishi;
- talabalarga qoʻyiladigan talablar;
- kommunikativ vositalar va ularga qoʻyiladigan talablar.

Tadqiqotchilarning fikrlariga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, talabalarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda quyidagi talablarga rioya etish muhimdir:

- yoshlarning bilimlarni oʻzlashtirishga boʻlgan qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ta'lim jarayonida talabalar faoliyatini pedagogik jihatdan toʻgʻri tashkil etish;
- talaba-yoshlarning har biriga individual yoshdashish;
- pedagogik nazokatni shakllantirish;
- kasb-hunarga tayyorlash;
- noqulay vaziyatlardan toʻgʻri yoʻl topib chiqib keta olish qobiliyatiga ega boʻlishlariga erishish;
- ijtimoiy faollik, fuqarolik rolini shakllantirish va hokazolar.

Yuqoridagi talablarni amalga oshirishda barkamol shahsni shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi mezonlar asos boʻlib xizmat qiladi.

Barkamol shaxsni shakllantirish mezonlari:

- shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, hissiy-estetik, jismoniy rivojlantirish;
- ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishga yoʻllash;
- insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish;
- yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsning individual oʻziga xosligini namoyon etishga sharoit yaratish;
- fuqarolik nuqtai nazarining tarkib topishiga erishish;
- hayotga, mehnatga, ijtimoiy ijodkorlikka tayyorlash;
- oʻz-oʻzini boshqarish, demokratik tamoyillarni anglash, Vatani va xalqi oldida oʻz mas'uliyati va burchini his etish.

Barkamol shaxsni axloqiy tarbiyalashda, avvalo, jamiyat talabiga mos holda axloqiy tushunchalar, qoidalar, his-tuygʻular, e'tiqod va xulqiga doir koʻnikmalar va malakalarni shakllantirish muhim vazifa sanaladi. Ma'naviyatli inson bilimli, kasb-hunar egasi, Vatanning sodiq fuqarosidir. U oʻz davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, oʻz yurtidan gʻururlana oladigan, oʻz Vatani boyliklarini saqlash bilan birga uni yanada boyitadigan, goʻzalliklaridan bahramand boʻladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadi, xalq boyligini avaylab asraydi. Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida oʻziga xos oʻrin tutadi. U jamiyat tomonidan tan

olingan tartib-qoidalar bo‘lib, kishilarning xatti-harakatlarini tartibga soladigan tamoyil sanaladi.

Axloq – ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs rivojlanishining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloqsiz, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy, jismoniy va ma’naviy yetukligi shakllanmaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi [3.25-26].

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari:

1) ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish;

2) ma’naviy-axloqiy xulq-atvor, ko‘nikma va odatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko‘ra insonning jamiyat oldida burchliligi, o‘z xulq-atvorining jamiyat taraqqiyoti darajasi bilan uyg‘unligi, shuningdek, ma’naviy-axloqiy xulq-atvorning insonning kishilarga bo‘lgan hurmat-e’tiborini namoyon etuvchi mezonlardan ekanligini tushunishi, axloqiy ideallarining to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarining e’tiqodga aylanishi va e’tiqodning tizimli bo‘lishini ta’minlash va ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Estetik (nafosat) tarbiya talabalar tomonidan estetik bilimlarning egallanishi, ularda estetik madaniyatni tarkib toptirish, voqelikka estetik munosabatlarni shakllantirish, estetik his-tuyg‘uni rivojlantirish, hayot go‘zalliklari, tabiat va mehnatga muhabbatni tarbiyalash; estetik idealni shakllantirish hamda hayotiy faoliyatni tashkil etishda estetik qonuniyatlariga rioya etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shaxsda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda uning jismonan to‘g‘ri rivojlanishi, o‘z salomatligini mustahkamlashi; aqliy va jismoniy faoliyatning yuqori darajada bo‘lishiga erishish; gigienik malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishi; turmush tarzini mavjud axloqiy talablarga muvofiq tashkil etish; jismonan sog‘lom bo‘lib, o‘ziga va o‘zgalarga quvonch baxsh etish, zararli odatlardan saqlanish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar o‘rtasida mehnat tarbiyasini tashkil etishda milliy va umumbashariy an’analariga tayanish, ustoz-shogird, oilaviy mehnat va hunarmandchilikning eng samarali metod va usullaridan foydalanish, zamonaviy kasb-hunarlar asoslarini o‘zlashtirish, ular tomonidan mehnatning shaxs rivojlanishida asosiy omillaridan ekanligini anglanishiga erishish muhim sanaladi. Shuningdek, barkamol shaxsning shakllanishida ekologik, iqtisodiy, huquqiy tarbiyalar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega [4.90-95].

Xulosa qilib aytganda, barkamol shaxs individ – shaxs – inson tizimida o‘z dunyoqarashi, nuqtai nazariga ega bo‘lish, o‘z haq-huquqini hurmat qilishga o‘rganish, shaxslik xislatlarini tushunish, shuningdek, o‘z bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarini namoyon etib, o‘z “Men”ini qaror toptirish asosida shakllanadi. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi uning qiziqishlari, xarakteri, qobiliyati, aqliy rivojlanganligi, ehtiyojlari, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Insonda yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlar rivojlanib, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo‘lgan munosabati muayyan bosqichga yetgandagina u barkamol shaxs darajasiga ko‘tariladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**
1. G`oziev E. Ontogenez psixologiyasi. T. Sharq. 2008 . B. 33-34.
2. Shoumarov G. Oila psixologiyasi. T.Sharq. 2001. B. 24-25.
3. Nishonova Z. O`smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. O`quv qo`llanma. – T., Sharq. 2003. B. 25 -26.
4. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. T. O`zbekiston. 1998. B. 90-95.
5. Google.uz.

## ЁШЛИК ДАВРИДА ШАХС ШАКЛЛАНИШИГА ТАЬСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР, ПСИХОЛОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАР

*Жураев Хайдаржон Одилбойивич*
*Наманган шахар 39-мактаб психологи*

Бугунги кунда жамиятимизда ёшларга қаратилаётган эътибор давлат сиёсати даражасига етди десак муболаға бўлмайди, чунки ёшларга барча имконият ешиглари очиқ фақатгина ундан оқилона билим ва тафаккурини ишлатган холда фойдаланиш даркордур. Ёшлик даврига назар соладиган бўлсак 23-28 ёшлардан иборат бўлиб бу давирда ўзига хос турли хил ижтимоий психологик омиллар рол ўйнайди. Шахс шаклланишида у яшаётган муҳит, кишилар , жамиятнинг роли жуда каттадир. Масалан, бирор маҳаллада инсон шахсининг таркиб топишига актив таъсир кўрсатувчи беш юзта ўзига хос ижтимоий муҳит бор деган маънони билдиради. Бу ерда шундай бир савол туғилади: "Ташқи муҳит инсон шахсининг таркиб топишига қандай таъсир қилади". Биринчидан, ижтимоий муҳитдаги турли ҳодисалар одамнинг онгига бевосита таъсир қилиб, унда чуқур из қолдиради. Иккинчидан, ташқи ижтимоий мухит таъсирининг чуқурроқ ва мустаҳкамроқ бўлишига одамнинг ўзи ёрдам беради. Маълумки, болалар ўз табиатларига кўра, илк ёшлик чоғларидан бошлаб, ниҳоят даражада тақлидчан бўладилар. Болалар катта одамларнинг барча хатти-ҳаракатарига бевосига тақлид қилиш орқали бу хатти-ҳаракатларни, яхши-ёмон фазилатларни ўзларига сингдириб борадилар. Болалар оилада, кўча-кўйда, катта одамларнинг ҳар бир ҳаракатларини, ўзаро муносабатларини зимдан кузатиб турадилар. Инсон шахсининг таркиб топишида ташқи ижтимоий муҳитнинг роли ҳақида гап борар экан, шуни ҳам таъкидлаб ўтиш зарурки, айрим ғайри табиий ҳодисалар инсон шахсининг таркиб топишида ташқи муҳит таъсирининг ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканлигини тўла тасдиқлайди. Биз айрим тасодифий ҳолларда одам болаларининг ёввойи ҳайвонлар муҳитига тушиб қолиш ҳодисасини назарда тутаяпмиз. Ҳаётда бундай ҳодисалар жуда сийрак бўлса ҳам ҳар ҳолда учраб туради. Масалан, Ҳиндистонлик доктор Синг Калькутта яқинидаги ўрмонзорда бўри болалари билан бирга иккита одам боласининг ҳам тўрт оёқлаб югуриб юрганини кўриб қолади. Кейин уларни пойлаб, қароргоҳларини топиб, болаларни олиб кетади. Улардан бирига Амала, иккинчисига Камала деб ном қўяди; Шу нарса характерлики, болалар ёшликдан бўри муҳитига тушиб қолганликлари туфайли, феъл-атворлари, хатти-ҳаракатлари жиҳатидан бўрилардан фарқ қилмас эдилар. Нутқ йўқ, демак

тафаккур ҳам ниҳоят даражада чекланган эди. Жуда катта қийинчиликлар билан қайта тарбияланилаётган бўри муҳитидаги болалар шамоллаш натижасида ўлиб қоладилар. Бу ҳодиса одамнинг шахс сифатида ривожланиши учун энг аввал инсоний муҳит, яъни ижтимоий муҳит бўлиши кераклигини тўла тасдиқлайди.

Шахс ва унинг, психологиясига таъсир этувчи иккинчи омил таълим-тарбиянинг таъсиридир. Маълумки, таълим-тарбия инсон онгини шакллантиради, унинг дунёқараши, эътиқоди, ҳаётга бўлган муносабатани таркиб топтиради. Агар болаларнинг руҳий тараққиётлари ва шахсий хусусиятларининг таркиб топиши фақат ташқи ижтимоий муҳит билан, таълим-тарбиянинг ўзигагина боғлиқ бўлганда эди, ундай пайтда биз бир хилда сунъий ва айнан бир хил таълим-тарбия системасини таълуқли қилиб, ҳар томондан баб-баравар тараққий этган ва деярли бир хил шахсий хусусиятларга эга кишиларни етиштириб чиқарар эдик. Ваҳоланки, бундай бўлиши мумкин эмас. Шуни айтиб ўтиш керакки, бола шахсининг таркиб топишига таълим-тарбиянннг таъсири деганда, албатта, биринчи навбатда тарбия муассасаларида, яъни боғча, мактаб, интернат, лицей ва коллежларда бериладиган таълим-тарбия тушунилади Бироқ, бундан оилада болага бериладиган таълим-тарбия мутлақо мустасно эмас! Оиладаги умумий ижтимоий муҳитдан ташқари оилада бериладиган таълим-тарбиянинг роли каттадир. Бола тарбияси билан системали шуғулланадиган ва умуман шуғулланмайдиган оилаларга мисоллар келтириш мумкин.

Юқорида айтиб ўтилган иккита омилдан ташқари учинчи омил ҳам мавжуд - бу наслий хусусиятлардир. Одамга нималар наслий берилади? Одамга наслий йўл билан айрим анатомик ва биологик хусусиятлари берилади. Масалан, тана тузилиши, сочи ва кўзларининг ранги овози, гапириш услублари, айрим ҳаракатлари туғма берилиши мумкин. Лекин шуни хеч қачон эсдан чиқармаслик керакки, одамда хеч вакт унинг психик хусусиятлари, яъни унинг ақлий томонлари билан боғлиқ бўлган сифатлари наслий йўл билан, яъни туғма равишда берилмайди. Ниҳоятда нодир ҳолларда айрим қобилиятлар, масалан, мусиқа, математик қобилиятларига наслий йул билан берилиши мумкин. Тарбияланганлик ижтимоийлашувни ўрганиш жараёни сифатида қараладиган ёш психологиясида олинган натижаларга асосланади: бола ўзини эгоцентрик эмас, балки тарбияли тутиши учун тарбияланганлик қандай рағбатлантирилиши керак? Бугунги кунда ёшларимиз тарбия ўз моҳиятига кўра ижтимоий жиҳатдан ижобий эҳтиёжларни ҳосил қилишидир. Агар таълим шахснинг онгини шакллантириш бўлса, тарбия унинг онгсизлик сферасига таъсир этишдир. Болаларга уларни тарбиялайдиганларга ҳиссий яқинлик хос. Одатда 6 ойлик болалар унга ғамхўрлик қиладиган ота-онасига боғланиб қоладилар. Ота-онанинг олдида бўлиш, улар билан мулоқотда бўлиш болаларга жуда ёқади, уларнинг йўқлиги болага ёқмайди. Ота-онанинг ғамхўрлигини билдирадиган сўзлар, хатти-ҳаракатлар бола учун жуда катта аҳамиятга эга, уни эркаламаслик, суймаслик салбий аҳамиятга эга бўлади. Хулқ-атворнинг дастлабки ижтимоийлашуви худди шу ўрганиш жараёни орқали содир бўлиши мумкин: хулқ-атворнинг исталган шакллари ғамхўрлик ва эътибор билан тақдирланади, кутилмаган шакллари эса қўллаб-қувватланмайди. Лекин, яхши хулқ-атворни рағбатлантириш ва ёмон хулқ-атвор учун жазолаш ахлоқий ижтимоийлашувнинг кичик бир қисмидир. Шундай экан бугунги кунда ўсиб келаётган ёш авлоднинг унинг психологиясига тўғри ёндашган холда улар билан тўғри мулоқот

ўрнатиш кераклиги ва мустақил хаёти давомида уларнинг кўлаб-кувватлаб туришимиз кераклиги муҳимдир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. Шербаков А.И. Ёш психологияси ва педагогика психологиядан практикум. Тошкент, 1991
2. Ғозиев Э.Г. Психология. Тошкент, 1994.
3. Ё. Жуманазаров Ёш ва педагагик психология. Наманган -2009.
4. Ғаффаров А.З., Югай А.Х. Педагогика амалиёти. Тошкент-2002.


# O`QUVCHI YOSHLARNI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

*Shoyqulov Shohijahon Shomilovich*
*Qarshi davlat universiteti 1-kurs magistranti*

Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda uzluksiz ta’lim jarayoni muhim o`rin egallaydi. Shu jihatdan e’tibor berilsa, ta’lim-tarbiya ishlarining samarali natijasi sifatida yoshlarning islohotlardagi ishtirokining faollashuvini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham ularning tarbiyasiga, shaxs sifatida shakllanishiga, ijtimoiy hayotga tayyorgarliklarida uzluksiz ta’limning o`rniga alohida e’tibor berilmoqda. Ma’lum oilada tarbiyalanayotgan bolada ajdodlariga xos iste’dod nishonasi aks etganda, aynan shu iste’dodning shakllanishida muhim rol o`ynagan, uning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratgan oila muhitini nazoratdan chetda qoldirmaslik lozim. Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko`rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishi yoki yo`q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma’naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog`liq.

Mikromuhit o`zida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Mikromuhit - bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo`lib, oila, maktab, do`stlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni o`z ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy rivojlantiruvchi va inqirozga eltuvchi hodisalar mavjud. Mavjud ijtimoiy muhit insonning o`sib borayotgan ongiga ta’sir etadi. Ijtimoiy tuzum darajasi qanchalik yuqori bo`lsa, uning shaxsga nisbatan ongli ta’siri ham shunchalik yuqori bo`ladi. Ushbu ta’sir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta’sirlarning barchasi bilan bog`liq holda shaxs rivojlanishiga ta’sir etadi. O`quvchilardagi asosiy psixologik o’zgarish. O’quvchi o’zini asta-sekin katta odam deb his qila boshlaydi, lekin ko’p odat va xususiyatlari bolalarcha bo’lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va o’smirlikdagi asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o’smirda o’ziga, atrof muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyani yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta orientatsiya qila boshlaydi. O`quvchi o’z huquqlari doirasini kengaytiradi, kattalarni esa cheklashni xohlaydi. Kattalar va o’smirlar

orasidagi zididyatlarning sababi – kattalarda ularga nisbatan bolalarcha munosabatning saqlanib qolishidir. O'quvchining mustaqillik darajasi haqidagi tasavvurlar kattalar va o'smirlarda turlicha. Kattalar bu yoshda o'smirlarga o'z yonidan joy berishni o'rganishlari lozim. Shu sababli o'smirning tengqurlari bilan munosabati yangi specifik funkciyani bajara boshlaydi, ya`ni bu munosabatlarda o'smir amalda kattalar axloq normalarini o'zlashtira boshlaydi. O'quvchilar uchun tengdoshlari bilan ijtimoiy muloqot etakchi faoliyat bo'lib qoladi.

Ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo`lgan o`quvchilarni bir necha shartli guruhlarga ajratish mumkin:

- orsiz, subutsiz o'quvchilar;
- mustaqil fikrga ega bo'lmaganlar;
- shaxsiy talab va ehtiyojlarini qondirish uchun qonunbuzarlik yo'liga kirgan o'quvchilar;
- injiq tabiatli o'quvchilar.

Ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo`lgan o`quvchilarni yuzaga keltiruvchi sabablar quyidagilar:

- shaxsning biologik kamchiliklari;
- psixik rivojlanishdagi kamchiliklar;
- shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar;
- bilish faoliyatidagi kamchiliklar;
- maktab ta`limi va tarbiyasidagi kamchiliklar;
- maktabdan tashqari muhitdagi kamchiliklar

Savol tug'iladi: nima uchun yoshlar o'z joniga qasd qilmoqda? Nahotki o'lim barcha muammolardan xalos bo'lishning yagona chorasi sifatida ko'rinadigan bo'lib qolgan?

O'z joniga qasd qilishga irodasizlik, bilimsizlik, mo'rt tarbiya, noto'g'ri yoki butunlay olib borilmayotgan targ'ibot, turli kino va seriallardagi shu kabi sahnalar va hokazolar undayotgandek. So'nggi vaqtlarda nafaqat xorij o'lkalarida, balki O'zbekistonda ham o'zini osib qo'ygani, yoqib yuborgani xususida xabarlar elas-elas qulog'imizga chalinmoqda. Xususan, Xorazm viloyatida, Qoraqalpog'iston Respublikasida, Farg'ona vodiysida shunday holatlar qayd etildi. jamiyatdagi o'z joniga qasd qilishdek muammoning bir qancha sabablari va ularning yechimiga doir fikrlar keltirilgan.

**Sabablar:**

-dinsizlik;

-ma`rifatsizlik;

-to'qchilik;

-yo'qchilik;

-shahvoniy, nafsoniy sevgi;

-o'z joniga qasd qilishni muammoning yechimi sifatida ko'rish;

-o'limning haqiqati, qabr azobi, oxirat, qayta tirilish, qiyomat va do'zaxdagi azob-uqubatlardan bexabarlik;

- ruhiy hastalik.

Ojizlik va irodaning zaifligi muammolarni hal etishda oʻlimdan boshqa yoʻllar borligi haqida oʻylashdan cheklab qoʻyadi. Oʻzini qiynayotgan savolga kimdan javob olishi, yaqinlari, tanigan-bilganlaridan qaysi biri unga yordam qoʻlini choʻzishi mumkinligini bilmaydi. Goʻyoki uni hech kim tushunmaydi, tuygʻulari bilan hisoblashmaydi ham, oʻzini yolgʻiz va keraksiz, qoʻlidan hech nima kelmaydigan ojiz insondek his etadi. Oʻlim haqidagi tinimsiz xayollar ongini butunlay mavh etib, shu yoʻl bilangina barcha iztiroblaridan xalos boʻlishiga qattiq ishona boshlaydi. Inson mutlaqo dinsiz bo'lishi ham mumkin yoki o'zini dindor hisoblasa-da, aslida dinning mohiyatini tushunmasligi ham mumkin. Chunki dindorlik nafaqat o'z joniga qasd qilish, balki boshqaning joniga qasd qilish, hattoki oddiy hayvonlarning joniga ham noo'rin qasd qilishni man etadi. Ya`ni ularni besabab o'ldirishni qattiq qoralaydi va bunday jinoyatlarni qilganlarga alohida jazolar belgilaydi. Qolaversa, din insonni yumshoq ko'ngilli, mehribon, rahmdil, shafqatli, kamtar, hokisor va beozor qilib qo'yadi. Shuning uchun ham haqiqiy dindor jinoyat sodir etmaydi. Aksincha, ayrim dinsizlar o'z joniga qasd qilishni oddiy ermak yoki jasorat deb o'ylaydi. Keyingi paytlarda internet sahifalarida paydo bo'lgan “Ko'k kit” degan o'yin aynan shuning dalilidir. Birgina shu o'yin sababli dunyoda qanchadan-qancha yoshlar o'z joniga qasd qildi. Afsuski, bizning yurtimizda ham mazkur o'yin domiga tushib o'z joniga qasd qilganlar yo'q emas. Shuning uchun ham odob-axloqqa oid ma`lumotlarni ko'proq tarqatish, yoshlar ongiga singdirish kerak. Eng asosiysi, mazkur vazifani o'z ishining ustasi bo'lmish haqiqiy mutaxassislarga topshirish kerak. Toki gapi bilan qiladigan ishi bir xil bo'lsin, tirik namuna bo'la olsin. Aks holda kutilgan natijaga erishish emas, balki mutlaqo teskari natija berishi mumkin. Hozirgi yoshlar anoyi emas, ular tezda haqiqiy murabbiy, muallim va ustozni soxtasidan ajrata biladilar.Ularga eng ogʻir lahzalarda ham tushkunlikka tushmasdan, kurashgan va oxir-oqibat maqsadiga erishgan qahramonlarning hayotini ibrat qilib koʻrsataylik, oʻzimiz ham ularga namuna boʻlaylik!

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: oʻquv metodik qoʻllanma. T., 2004.
2. Nishonova E.T. Bolalar psixik taraqqiyoti muammolari boʻyicha psixologik maslahatlar berish. T., 1997.
3. Yodgorova G.T. Tarbiyasi qiyin guruhga mansub bolalar bilan ishlash. T.. 2007.
4. Gʻoziev E.Gʻ. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T., 1994.
5. Gʻoziev E.Gʻ. Umumiy psixologiya: darslik. I, II kitob. T., 2002.

## БОЛАЛАРДА ЖАҲЛИ ТЕЗЛИК ВА УНИ ЙЎҚОТИШ ЙЎЛЛАРИ

*Жўраева Наргиза*
*Бухоро вилояти Ғиждувон тумани 24-мактаби психологи*

Жаҳл бошқа эмоциялар сингари инсоннинг атроф муҳитга мослашиш вазифасини бажаради. Жаҳл одамларда ҳам, ҳайвонларда ҳам маълум мақсадга

етишиш йўлида пайдо бўладиган тўсиқларни енгиш учун керак бўлади. Шунинг учун жаҳлни ҳамиша ҳам касаллик деб қараш нотўғри. Жаҳл – маълум вазият тақозоси билан пайдо бўладиган ҳаракат ва шунинг учун ўша вазиятдан инсон чиқмас экан, унда жаҳл сақланиб қолаверади. Агар жаҳл маълум вазиятда эмас, доимий сақланиб қолса, буни энди соғломлик деб бўлмайди. Бу маълум маънода ўз-ўзини бошқариш механизмининг бузилганлигидан далолат беради.

Б.Спокнинг фикрича, қуйидагилар нормал ҳолат ҳисобланади: бир ёшга кирган бола онаси қилган нохуш ҳаракатга қаршилик кўрсатса; - икки яшар боланинг ўзга болани уриши; агар унинг бирор нарсасини тортиб олишсалар ва ҳ.к. Мазкур жаҳлдор ҳаракатлар маълум вазиятлардан келиб чиқаяпти. Бироқ улар касаллик чегарасига ҳам ўтиб қолиши мумкин. Ҳар қандай бузилиш ўз ибтидосини маълум вазиятдан олиши мумкин.

Нормал жаҳл ҳолатининг касаллик ҳолатига ўтиб қолиш шартлари қуйидагилар:

Ота-оналарнинг доимий жаҳлли ҳатти-ҳаракатлари. Бундай хулққа болалар тақлид қиладилар, беихтиёр ўша жаҳлни ўзларига юқтирадилар. Бу ҳодисанинг психологик механизми қуйидагича: боланинг эмоционал ўз-ўзини бошқариш типига мослашади;

- болага ота-она муҳаббатининг берилмаслиги. Бу нарса болада ҳимоясизлик туйғусини шакллантиради, атрофдагиларга нисбатан шафқатсизликни пайдо қилади;

- ота-она томонидан боланинг ҳақорат қилинишини ва камситилиши. Бу тарбиядаги хусусий ҳол бўлиши мумкин, бироқ бола шахси ривожида бу нарса ўта муҳим аҳамият касб этади;

- икки йўлдан бирини танлаш ҳолатини болада тез-тез пайдо қилиш. Бола қай томонни танлашга қийналади. Агар нотўғри қуйилган қадам учун жазо оладиган бўлса, жаҳл касалликка айланиб кетиши мумкин.

Бундай ота-оналар билан ишлаш жуда мураккаб, чунки жаҳлдор боласи бор ота-она одатда унга нисбатан ўзларида адоват туйғусини ҳис қилади ва улар психолог-консультантга ёрдам учун эмас, балки уни тинчлантириб қўйиш учун мурожаат қилишади. Уларга қолса болани тинчлантирувчи битта дори беришсаларда, бола бирданига жаҳлидан тушиб қолса. Улар билишмайдиларки, боладаги жаҳлнинг илдизлари уларнинг турмуш тарзларига бориб тақалади. Аксарият ҳолларда ўша ота-оналарнинг ўзлари ёшлигида сержаҳл бўлган бўлишадилар. Улар ўзларидаги психологик ҳолатларини ўз фарзандларига узатишади. Шунинг учун психолог одатда илк ишини жаҳли тез боланинг ота-оналаридан бошламоғи керак.

Биринчидан, улар билан ишлаганда уларнинг ўз-ўзини баҳолашига салбий таъсир кўрсатиб қўйишдан эхтиёт бўлиш керак. (Сиз ўз болангизни яхши билмайсиз, мен сизга ўргатиб қўяман қабилидаги гаплар уларнинг шахсиятига тегиши мумкин). Аксинча, уларни ўз фарзандларини янада билишликка чорлаш лозим.

Иккинчидан, ота-онанинг болага бўлган муносабатини ўзгартириш зарур. Улар сержаҳл боласини ношукурликда айблашадилар. Улар болани тергаганларида,

уришганларида болалари кечирим сўрашларини, айбдор эканлигини айтишини кутишади. Бола бу ишни қилмаганлигини кўргач, уларнинг жаҳли чиқади ва болани беодобликда бузилиб кетганликда айблашади. Иложи борича, ота-оналарда ўз болаларига нисбатан раҳм-шафқат туйғусини уйғотиш керак. Сержаҳл бола-бу аввалом бор бахтсиз бола эканлигини уларга укдириш керак. Ота-оналарга жаҳлнинг пайдо бўлиш механизмини, жаҳлитезлик боланинг эмоционал жиҳатдан касалланиши эканлигини тушунтириш лозим.

Учинчидан, ота-оналарнинг ўз болаликлари ҳақидаги хотираларини тиклаш керак. Ўзларининг ҳам қилган жаҳлли хулқ-атворининг сабабларини биргаликда муҳокама қилиш зарур. Эҳтимол, бу нарса бола билан ота-оналар ўртасидаги муомаланинг шахсий сабабларини очишга ёрдам берар ва шу йўл билан психологик ёрдам олар.

Тўртинчидан, ота-онанинг болага туғилгунча ва туғилгандан кейинги биринчи ойлардаги муносабатини аниқлаб олиш зарур. Агар бола бошиданоқ исталмаган бўлса (балки бола тасодифан ёки мажбурликдан туғилгандир), ота-она билан ҳамкорликда аниқ бир қарорга келиш зарур. Масалан, бола исталмаган бўлса-да, ҳар қалай унга ғамхўрлик кўрсатиш зарурлиги уқтирилиши даркор. Эҳтимол, болага нисбатан салбий муносабатнинг пайдо бўлиши сабабини аниқлангач ота-она ўзгариб қолар. Агар бола исталган бўлса, унда улардаги бу муносабат бола сержаҳл бўлганидан сўнг пайдо бўлган бўлади. Бундай ҳолда ота-оналарнинг шахсиятига тегмасдан бола уларнинг хатти-ҳаракатларига мос жавоб қайтараётганлигини тушунтириш зарур.

Сержаҳл хатти-ҳаркатни ёмон деб бўлмайди. Кутилмаган вазиятларда у ҳимоя вазифасини бажаради, баъзида маълум вазиятдан чиқишга хизмат қилади. Жаҳлитезлик болаларда аксарият ҳолларда кузатилади. Ўтиш босқичлари – бу ижтимоий муаммолар билан пайдо бўладиган кризислар бўлиб, инсон ҳаётининг турли босқичларида кузатилади. Америкалик психолог Э.Эриксон инсон ҳаётида 8 та кризисни фарқлайди. Булар қуйидагилар:

1) Биринчи кризисни бола умрининг биринчи йилида бошидан кечиради. Бу бола физиологик эхтиёжларнинг қондирилиши билан боғлиқ. Агар яхши қондирилмаса, болада атрофдагиларга ишончсизлик пайдо бўлади.

2) Иккинчи кризис боланинг тозаликка ўргатиш пайтига тўғри келади. Агар болага қатъий ташқи назорат ўрнатилса, унда уят ва шубҳа пайдо бўлади.

3) Учинчи кризис иккинчи болалик даврига тўғри келади. Бунда бола мустақил фаолият кўрсата бошлайди. Агар унинг омадсизлигини ҳадеб рўкач қилинса, унда айбдорлик туйғуси шаклланади.

4) Тўртинчи кризис мактаб ёшида содир бўлади. Мактабдаги муҳитга мослаша олмаган ўқувчида ўзига ишончсизлик туйғуси пайдо бўлади.

5) Бешинчи кризис ўсмирларда кузатилади. Ундаги биологик етилиш билан социал жиҳатдан етилмаганлик ўртасидаги зиддият бу кризисни келтириб чиқаради.

6) Олтинчи кризис ёш йигит-қизларда кузатилади. Бунда айрим ёшларда изоляция яъни ўз-ўзи билан бўлиш кузатилади.

7) Еттинчи кризис 40 ёшда кузатилади. Унда ҳам оилавий муносабатларда турғунлик кузатилади.

8) Саккизинчи кризис қариликда содир бўлади. У ўлимдан қўрқиш ва янгидан ҳаёт бошлай олмаслигидан надомат туйғуси билан характерланади.

Шу 8 та кризиснинг ҳар биридаги салбий ҳолатлар одамда жаҳлни чиқаради ва у хулқ-атворига таъсир қилади. Жаҳлитезликни таҳлил қилганда албатта бу психосоциал кризисларни ҳисобга олмоқ лозим.

Бола хулқ-атворидаги сержаҳллик улар билан муносабатни қийинлаштирса ҳам жаҳлни мутлақо салбий сифат деб баҳолаш нотўғри. Унутмаслик керакки, боладаги фаолликнинг ошиши унинг бўлиши мумкин. Агар махсус тузатиш ишларини олиб борилса, унда атрофдагилар билан нормал муомала пайдо бўлади.

Боладаги жаҳлни тузатиш ишлари уни келтириб чиқарган сабабларни аниқлашдан бошланади. Агар жаҳл боланинг эмоционал – мотивацион оламидаги бузилиш бўлмаса, унда ишлар жаҳлни олиб ташлаш йўлидан эмас, балки бола хулқ-атворидаги жаҳлни юмшатиш, болага яхши томондан таъсир қилиш ишларини олиб бориш талаб қилинади. Бундан ташқари, ота-оналарни боладаги ўзгаришларга тайёрлаш керак.

Ўзга ҳолатда, агар жаҳлитезлик бола шахсининг эмоционал – мотивацион соҳасидаги бузилиш бўлса уни бола хулқ-атворидан йўқотиш йўлидан бормоқ лозим.

Жаҳли тезликни йўқотиш йўлида қўлланиладиган психокоррекцион усуллар уни келтириб чиқарган сабабларнинг характерига боғлиқ. Коррекцион методларни танлашда конкрет ҳодисадан ва конкрет боладан келиб чиққан ҳолда танлаш керак бўлади.

Биз жаҳлитезликка таъсир қилишнинг қуйидаги бир қанча йўлларига тўхталиб ўтамиз:

1. Жаҳлитезликни инкор қилиш ва атрофдагиларга унга эътибор қилмасликларини таъкидлаш.

2. Жаҳлдор ҳаракатни ўйин кўринишига кўчириш ва унга янги ижтимоий эмоционал маъно сингдириш. Унда биз боланинг атрофдагилар билан бўладиган муомаласига зарар етказмасдан мақсадимизга эришишимиз мумкин. (масалан, қароқчилар ўйинида сержаҳл болага қароқчи роли берилади ва ҳ.к.)

3. Жаҳл билан қилинаётган ҳаракатларни таъқиқлаш керак. (жаҳл қилмасликка болани ўргатиш).

4. Тарбиячи ёки психолог ўйин кўринишида қўрқув замирида ётадиган жаҳлни боланинг ўзига англатиш зарур.

5. Психодрамма. Ихтиёрий кўринишда жаҳлни чиқариш ва ўйин сўнгида жаҳлни сўндириш. Бунда бола ўзидаги пайдо бўладиган жаҳлга эътиборни қаратади ва уни йўқотиш малакасини шакллантиради.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Е.И.Рогов. Настольная книга практического в образовании. М.“Владос” 1996.

2. Ж.Годфруа. Что такое психология. Том 2. М. “Мир” 1992

# ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА МОЙИЛЛИГИ БОР ВОЯГА ЕТМАГАН ЎСМИРЛАРНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБЛАРИ ВА ЧОРАЛАРИ

*Муратова Кумуш Юнус қизи*
*Сирдарё вилояти Гулистон тумани 25-мактаб психологи*

Инсон умрининг ўсмирлик босқичида, асосан иккита хатарли жиҳат пайдо бўлади. Унинг биттаси - катталарга тақлид қилиш, иккинчиси - ўсмирнинг оилада ва мактабда назоратдан четда қолиши. Бу икки жиҳат катта ёшдаги одамлар эътиборидан ташқари, ўз оқимида мақсадга мувофиқ тарзда кечадиган бўлса оқибат "тарбияси қийин" деб аталувчи ўсмирлар пайдо бўлишига олиб келади. Биринчи жиҳатни бир таҳлил қилиб кўрайлик, чунончи, ўсмирлик боскичидаги ўғил болаларда илк бор "катталик" ҳисси юзага келади. Бу ёшдаги ўсмир энди ўз тенгқурлари билан катта ёшдагилар билан муносабат услубини ўзгартиради, ахлок мазмуни ҳам кескин ўзгаради. Катталарни ташки қиёфаси, юриш туриши, кўзга ташланадиган айрим томонлари ўсмирларда шу даврга тезрок етиш истагини уйғотади. Ўз тасаввурида нимани оммабоп деб хисобласа, худди шу нарсани намуна тарзида қабул қилади. Ўсмирда ўз-ўзини ва ўзгаларни бахолаш мезони ана шу тарика юзага келади.

Юқорида таъкидлаганимиздек, ўсмирда дастлаб катталарга тақлид одати кучли бўлади. Шунинг учун, ота-она ва якин кишилар бу жихатни ўсмир хузурида доим эсда тутишлари, ўзаро муносабатларида, юриш туришларида, хатти-ҳаракатларида унга намуна бўларли мақомда туришлари зарур.

Ўқитувчи мактаб жамоат ташкилотлари раҳбарлари ҳақида ҳам айни шу мулохазани билдиргани маъқул.

Шуни айтиш жоизки, бўш вақтини назоратсиз ўтказишга ўрганган ўсмир кўча-кўйда бевакт ва беҳуда юрадиган бўлиб қолади. Бундай шароитда, айникса, пулга ружу қўйган ўсмир турли хил қонунбузар ишларни амалга оширишга кириб кетиши эҳтимолдан холи эмас. Шунга кўра ҳар бир ота-она ўз ўғил ва қизининг бўш вақтини мақсадга мувофиқ ўтказишни таъминлаши зарур. Ўсмирларни бўш вақтларида назоратсиз қолдириш нохуш кечинмалари сари етаклайди.

Болалари мактабдан келиб, қаёқда юради, кимлар билан учрашади ўртоқлари ким, буни ота-она албатта билиши доим кузатиб туриши керак.

Ҳуқуқбузар ўсмирларнинг шаклланишининг сабабларидан яна бири-ўқувчининг ўқишга нисбатан салбий муносабатидир. Бу ҳолнинг пайдо бўлишига ўсмирнинг ақлий заифлиги, жисмоний ногиронлиги ёки қобилиятсизлиги сабаб қилиб кўрсатилиши мутлақо нотўғри. Бунинг сабаби, бизнингча, ўсмирда ўқув фаолияти усуллари, ўқув кўникмалари ва малакаларининг етарли даражада таркиб топмаганлиги, фикрлаш қобилиятининг нисбатан бўшлиги ҳамда таълимда унинг ана шу хусусиятлари ўқитувчи томонидан инобатга олинмаслигидир. Бундай ўсмирнинг билим ва хулқ даражаси, одатда ўқитувчилар томонидан нотўғри баҳоланади, дарсларнинг ўзи ҳам паст савияда ўтказилади. Бу нарса ҳеч шубҳасиз, ўсмирни мактабдан бездириб қўйиши турган гап.

Шуниси ҳам борки, ўсмирнинг синф жамоаси билан бир хил фикрда бўлмаслиги, улар орасида англашилмовчилик ғовини вужудга келтиради. Бунинг натижасида мазкур ўсмир жамоа ўртасида ўз ўрнини, позитсиясини йўқота боради. Жамоа уни қўллаб-қувватламаганлиги ёки бепарволиги сабабли ўсмир борган сари дағал, ўжарлик қилаверади, оқибатда жамоа фаолиятига қўшилмасдан, ўзича иш тутиш режасини тузади. Шу тариқа у Ўқишдан ва синф жамоасидан юз ўгириб, янги улфатлар билан алоқа қилиш йўлига киради.

Ҳуқуқбузар ўсмирни қайта тарбиялашда унинг ўзигагина хос бўлган хусусиятларни эътиборга олиш ҳар қайси ўсмирга индивидуал ёндашиш, унинг нималарга қизиқиши ва майлини аниқлаш, тарбияда мос келадиган алоҳида усул ва чораларни танлай билиш катта аҳамиятга эгадир.

Ота-она ҳам, ўқитувчилар ҳам, жамоатчилик вакиллари ҳам бу қоидаларга амал қилсалар, муваффақиятга эришиш мумкин.

Одатда ҳуқуқбузар болалар жинсий ва ахлоқий қонунбузарлар гуруҳига ажратиб ўрганилади.

**Биринчи гуруҳга** – балоғатга етмаган, андишасиз, қайсар ўсмирлар киради. Бундай ўсмирлар шахсий қараши ўзгаларга баҳо бериши ахлок қоидаларига зид бўлгани сабабли қонун бузади, ўз эхтиёжини, мактаб, оила ва жамоатчилик фикрича қарама-қарши қўйишга уринадилар. Шунингдек, булар ўз қилмишларини яхши англаган ҳолда иш тутадилар, катталарнинг иззат нафсига тегиш орқали роҳатланадилар. Уларда синф жамоаси, ҳатто мактаб бўйича ўзини кўрсатиш иштиёки кучли бўлади.

**Иккинчи гуруҳга** - беқарор ёки субутсиз, яъни мустақил фикрга эга бўлмаган ўқувчилар киритилади. Бундай ўсмирлар барқарор ахлокий эътиқод, маънавий ҳис-туйгу, шахсий қараши шаклланиб бўлмаганлиги сабабли иккиланиб турадилар. Улар кўпинча бировга берган ваъдасининг устидан чиқа олмайдилар, ўз килмишларидан пушаймон ейдилар. Психик хусусиятлар, кечинмаларга бой ўсмирлар **учинчи гуруҳга** мансуб ўқувчилардир. Улар худбинлиги шахсий эхтиёж ва истагини кучлилиги сабабли қонун бўзадилар. Ўз истаги туфайли ҳар қандай хавф олдида ўзини йўқотмайди, эхтиёжларини кўпинча ман қилинган йўл билан қондиради. Ҳаммага яхшилик қилишни хоҳлайди, лекин худбинлиги барча нарсалардан устун келади.

Эффектив кечинмали ўсмирлар **тўртинчи гуруҳ**ни ташкил этиб, улар жамоа ёки оилада ўз ўрнини топа олмай ўзларини кўрсатиш қобилиятига эга бўлмай, руҳан изтироб чекадилар.

Биринчи гуруҳга кирувчи ўсмирларни уялтириш билан уларга таъсир этиши мумкин эмас, лекин уларнинг "ўзини кўрсатиш" иштиёқидан унумли фойдаланиш зарур. Индивидуал иш олиб борилганда, уларни спортга жалб қилиш, милитция болалар хонасида навбатчиликка белгилаш, ижтимоий меҳнатда маъсулиятли топшириқни топшириш, ҳар қандай камчилигини таъна қилмаслик, дарсдан ташқари ишларда раҳбар қилиб тайинлаш самарали натижа беради.

Айниқса, харбий - ватанпарварликка доир машгулотларда уларнинг жасурлигини хисобга олиб, командирлик лавозимини топшириш муҳим аҳамиятга эга. Киска фурсат ичида эришган айрим юмушдаги муваффакияти учун

жамоа олдида рағбатлантириш, ўқишга нисбатан қизиқишини орттириш, қийинчиликларни бартараф қилишда унга ёрдамлашиш, нозик психологик хусусиятларига тўғри йўл топиш, мусабақаларга жалб этиш, халк мулкини қўриқлашга тортиш, ўқув малакаларини шакллантириш мақсадга мувофиқдир.

Иккинчи гуруҳдаги ўсмирлар билан индивидуал ишлашда уларни мустақил фикр юритишга ўргатиш, танқид ва ўз-ўзини танқидга одатлантириш, ирода кучини устириш учун махсус машғулотлар ўтказиш, фавкулоддаги ҳолатга бефарк караш хусусиятини қайта тарбиялаш, уларга йўл-йўриқ кўрсатиш керак.

Учинчи тоифага кирувчи ўсмирлар билан ишлаш жараёнида уларнинг худбинлигини йўқотиш учун махсус машғулотлар қийинлаштирилган. Муаммоли вазиятлар яратиш, икки юзламачиликдек салбий иллатларига барҳам бериш учун уларга таъсир ўтказиш, уларда дўстлик, инсонпарварлик самимийлик хисларини таркиб топтириш зарур. Бундай ўсмирларни рахбарлик ишларига тортиш маъсулият хиссини вужудга келтиради. Мустақил фаолиятини шакллантириш учун эсда олиб қолиш ва мулохаза юритиш усуллари билан таништириш лозим. Мустақиллик, ижодий фикр юритиш, ўз-ўзини танқид сингари шахс сифатларини шакллантиришга эътибор бериш зарур. Йўл қўйган камчиликларини далиллар асосида кўрсатиб бериш қайта тарбиялашда муҳим аҳамият касб этади.

Тўртинчи гуруҳга мансуб ўсмирларнинг эффектив кечинмалари ўқитувчи томонидан оқилона кўрсатиб берилиши, ирода сифатини шакллантиришга доир ишлар кўпроқ олиб борилиши маъқул.

Унинг прототипи бор асарни ўқиб бериш, биргалашиб муҳокама қилиш ўқишга нисбатан қизиқишини орттириш керак. Бунинг учун қийинчиликларни енгишга ўргатиш ўз имкониятини хисобга олиш ўқувчанлигини вужудга келтириш, таълим тарбия жараёнининг у ёки бу жабхасида дадиллик куникмасини вужудга келтириш керак.

Шахсий фаолиятини уюштириш ва режалаштиришга ёрдам бериш, фикр юритиш усулларини даражаси ва хулқ-атвор оқибатини баҳолаш ҳамда объектив рағбатлантириб туриш улар билан индивидуал ишлашнинг муҳим томонидир. Энг аввало, ўқувчиларнинг бўш вақтини тўғри тақсим этиш, уларнинг бемаъни "кўнгил очиш" ва маданий "хордик чикаришга" кўча-куйда мақсадсиз юришга йўл қўймаслик учун мактаб оила ва жамоатчилик ҳамкорлигини мустахкамлаш, уларни иложи борича мактабдан ташкари муассасаларга кенгрок жалб этиш чораларини қўллаш жоиз.

Уларнинг хулқи ва ўзлаштиришини объектив бахолаш ёш хусусияти, интелектуал имкониятларини хисобга олиш, дарсларни юкори савияда, қизиқарли олиб бориш, оилада кулай шароит яратиш оркали шахслараро оқилона муносабатни вужудга келтириш лозим.

Ҳар бир ўсмир ўқувчига индивидуал муносабатда бўлиш, жамоада ҳуқуқбузар болаларга муносабатни яхшилаш ва тўғри йўлга қўйиш, мактаб педагогик жамоаси томонидан микромухитга алоҳида назорат уюштириш зарур.

Бундай болаларга савол варақасини тўлдиришга ўргатиш, уларни ўзлуксиз равишда кўзатиб бориш, ёзган баён ёки иншоларини тахлил қилиш, шахсий хужжатларини изчил ўрганиш, синф рахбари ёки тарбиячилик кундалик

дафтарини юритиш, муаммоли ёки "конфликтли" вазиятни вужудга келтириш асосида тажриба ўтказиш индивидуал шахсда ёки жамоада қандай ўзгаришлар рўй беришни мутассил қайд қилиб бориш, уларни қайта тарбиялаш учун муҳим имкониятлар яратади. Ҳуқуқбузар ўқувчиларни аниқлашда кинолавхалар, ҳуқуққа оид савол-жавоблар, таъсир этиш, рағбатлантириш, матндан ва сюжетли расмлардан, улар билан индивидуал сухбат методларидан ҳам фойдаланиш мумкин.

Ўсмирларни тадқиқот қилиш, ўрганиш текшириш ва қайта тарбиялаш жараёнида ижтимоий мухитдан ташқари, педагогик-психологик қонуниятларга мурожаат қилиш тарбиянинг самарадорлигини оширишда шахслараро муносабатларни тўғри йўлга қўйишда ва жамоада соғлом мухитни вужудга келтиришда жуда катта ёрдам беради.

## TA`LIMNI O`RTA BOSHQICHIDAN BOSHLAB PSIXOLOGIYA FANI O‘TILISHI QANCHALAR ZARUR? HAYOTIY MUAMMOLARNI ANGLASHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O‘RNI

*Xumora Mamadaliyeva*
*Andijon viloyati Qo`rg`ontepa tumani 5-IDUM psixologi*

Maktab psixologining hamma o‘quvchi bilan ishlashga vaqti yetmasligi, asosan, muammosi og‘ir o‘quvchilar bilangina ishlashini hisobga olsak, psixologiya fani o‘tilishi boshqa o‘quvchilarning psixologik bilimlarga bo‘lgan chanqog‘ini qondiradi.

Maktabda o‘tiladigan fanlar bilimni oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Psixologiya fanining joriy etilishi nafaqat o‘smirning psixika haqidagi bilimlarini kengaytirishi, balki o‘z-o‘ziga yordam vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Qo‘rqinchli statistikasiz ham o‘smirlarga oson emasligini bilamiz — axir hammamiz bu bosqichdan ma’lum bir qiyinchiliklar bilan o‘tganmiz.

Psixologik muammolarga duch kelgan katta yoshli odamning psixologga murojaat qilishi bir muncha osonroq: puli va vaqti bo‘lsa yetarli. Ammo maktab o‘quvchisiga to‘sqinlik qiluvchi bir necha omillar bor:

Psixolog faoliyati bilan tanish emasligi,maktab psixologi sir saqlashiga ishonmaslik, muammolaridan o‘qituvchi va ota-onasi xabar topishidan xavotir olish va hokazo.

Kimdir tashqi ko‘rinishidan norozilik hissini tuygan, kimdir tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatishda qiynalgan, kimgadir ba’zi fanlar og‘irlik qilgan. Na katta odam sifatida butkul tan olinish, na boladay erkalanish mumkin bo‘lgan bu davrdagi muammolarni sanab tugatish qiyin.

Muammolardan qiynalgan va psixolog yordamini ololmagan o‘smir yo konstruktiv (bunyodkor) yo‘ldan borishi, yo destruktiv (vayronkor) yo‘lga kirishi mumkin. Konstruktiv yo‘lni tanlaydigan o‘smirlar o‘zini tahlil qilishga moyil bo‘ladi, kitoblardan, filmlardan yechim izlaydi, fan yoki sportga o‘zini baxshida qiladi. Ammo barcha muammolariga har doim ham ijobiy yechim topolmaydi. Destruktiv yo‘ldagi

oʻsmir zararli odatlarga beriladi, ichki kurashini tashqariga koʻchiradi — yaqinlari bilan ziddiyatlarga boradi, ba’zi hollarda suiqasdga qoʻl urishi ham mumkin.

Psixologiya fanining oʻtilishi zarurligini belgilovchi sabablar:

**Tashqi koʻrinishini qabul qilishga yordam beradi.**

Oʻsmirlik davrida tanada yuz beradigan oʻzgarishlar oʻziga nisbatan bahoga toʻgʻridan toʻgʻri ta’sir qiladi. Odatda, qizlarning qomatini qabul qilolmasligi,qadi qomatini buzilishiga va ba`zi kasalliklarga olib keladi,Har bir odam oʻz holicha jozibali boʻlishi mumkinligi, tanasini qabul qilolmaslik qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini tushuntirish darslari zamon ta`labiga aylanmoqda .

**Qaramliklar, zararli odatlardan oldini olish.**

Psixik salomatlik uchun qanday turmush tarzi kechirish, qaramliklar qanday paydo boʻlishi, oqibatlari, ulardan chiqish yoʻllari haqidagi darslar yuqoridagi muammolarning oldini olishga yordam beradi.Oilaviy muammolar, kuchli koʻrinish istagi tufayli oʻsmir alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishni boshlashi mumkin. Bundan qoʻrqqanlari esa “zararsizroq” tuyulgan — kompyuter oʻyinlari va internetga qaramlikni boshdan kechiradi.bola o`zida shu kabi muammolar erta aniqlashgava bartaraf etishga imkon paydo bo`ladi.

**Stress, depressiya holatlari bilan kurashishni oʻrganadi**

Stress o`zi nima? Stressning qanday paydo boʻlishidan, xissotlaridagi o`zgarishli stress hamda ma`lumtlar chalkashligidan charchoqdan yuzaga keluvchi stress,uzoq vaqt kechuvchi stress,qisqa vaqtli stressni farqlay olish, qiyin vaziyatlardan chiqish yoʻllari bilan tanishish darslari oʻsmirga asqotishi amin bo`lib boryapmiz.

**Oʻzini “Men”ni anglayash.**

Xarakterlar , temperamentlar haqidagi mavzular oʻsmir uchun qiziq boʻlib, oʻzi va boshqalarni anglashiga yordam beradi. Xulq-atvoriga nisbatan jamiyatning noroziliklar, tengdoshlari bilan munosabatlardagi qiyinchiliklar oʻzini oʻrganishga undaydi.Bilish jarayonlari bilan tanishib borar ekan oʻzini qobiliyatsizlikda ayblashga yakun yasaydi, qanday faoliyat bilan shugʻullanish uning oʻzini namoyon etishiga yordam berishini tushunadi. Temperamenti, xarakteri, qobiliyatlarini bilib oladi

**Adrenalin yani quvvatini kerakli mashg`ulotga sariflashni o`rganadi.**

Ba’zida dunyoni ishgʻol qilishga yoki vayron qilishga yetadigan kuchi borligini his qiladi. Dam olish turlari, ichki energiyani san’at, fan, sportga yoʻnaltirish haqidagi darslar oʻsmirga hayotini tashkillashtirishda yordam beradi. Energiyani toʻgʻri boshqarish — hayotni toʻgʻri tashkillashtirish demakdir. Fiziologik hamda emotsional oʻzgarishlar tufayli oʻsmir qanday yoʻl tutishni bilmay qolishi mumkin

**Bilim olish koʻrsatkichlariga ijobiy ta’sir qiladi**.

Oʻquvchi fanlarni oʻzlashtirishda shaxsiy — oʻzi uchun mos usullar qoʻllashni boshlaydi. Imkoniyatlarini aniqlashga, keyingi oʻquv faoliyatini shu asosda tashkil qilishiga yordam beradi. “Nega men darslarni sinfdoshlarimdan koʻra yomon oʻzlashtiryapman? Menga nima qilgan?” singari savollar boʻlmaydi. Darslarda oʻqituvchi bilan birga diqqat va xotirani rivojlantiruvchi metodikalar bilan ishlash qoʻshimcha yordam boʻladi.

# BUGUNGI KUNDA YOSHLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI SABAB VA YECHIMLAR

*Muxlisa Ergashova*
*O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi Psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi kundagi barcha yoshlarning muammolarini batafsil o'rganish, ularni oldini olish va yordam berish, jamiyat hayotida faolligini oshirish, qobiliyat va liderlik mahoratini oshirishga intilish, bu muammolarini yechimini topishga harakat qilish, ular hayotida psixologik muhitni yaratish va jamiyatda faoliyat olib borishga yordam berish kabilarni òz ichiga oladi.

**Kalit sòzlar:** muammo, qobiliyat, imkoniyatlar, liderlik, xulq-atvor, xatti-harakat, shaxs, psixologik xususiyatlar.

Hayotiy muammolar, ayniqsa yoshlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotga kirib kelishi, jamiyat hayotiga kirib kelishi pedagog yoki psixologlarni emas, faylasuf va sotsiologlarni ham befarq qoldirmadi. Buning asosida albatta sotsiologik muhit va xulq atvor tarbiya yotadi. Yoshlar aynan shu davrdagi faoliyati uni keyingi faoliyatini belgilab beradi. Bu davrda yoshlarning har biri òziga xos qobiliyat va malakasi yashirin bòladi. Buni yuzaga chiqarish uchun esa albatta ozgina xatti- harakat bòlsa kifoya. Zigmund Freyd aytganidek, novatorlik, dinamika va energetik omillar harakat uyg'unligi ya'ni yangilikka intilish, insonni tadrijiy kamoloti, yetuklik evolyutsiyasi xatti- harakatlar faollashuvi insonni uyg'onish jarayonida ekanligini anglatadi. Bundan nimani anglab yetish mumkin, yoshlarning yetuklik davrida bòladigan òzgarishlar hammasi pozitiv natijaga olib boradi. Lekin afsuski,hozirgi jamiyatda yoshlar bunday òylamaydi. Bunga sabab ģarb madaniyati kirib kelishi desak mubolaġa bòlmaydi. Eng avvalo, yoshlarda fanatiklik holati juda avj olgan. Ular òzlariga bitta avliyo darajasidagi insonni topib olib shunga òxshashga harakat qilishadi. Bu esa nimadan darak yoshlarni ongi ma'lumotlarini o`ylab òtirmasdan qabul qilishida, u yaxshi yoki yomonmi ahamyati yòq va ular yoshlar psixikasiga ta'sir qilishni uddalashyapti. Hattoki, fikrimni tastiġi sifatida Birinchi pezidentimiz Islom Karimov òz asarlarida: "Ta'lim tarbiya ongning mahsuli. Lekin ayni vaqtda ong va uning darajasini belgilaydigan omildir. Binobaran ta'lim tarbiya tizimini òzgartirmasdan turib ongni òzgartirib bòlmaydi". Demak, bundan kelib chiqyaptiki yoshlarning muammolarini hal qilish uchun ularning onglarini emas birinchi navbatda ta'lim tarbiyasini tòg'rilash kerak.

Ijtimoiy jamiyatda yashar ekanmiz yoshlarning ijtimoiy - psixologik muammolar kelib chiqishiga yana bir sabab bu ota onalar befarqligi va bolasiga vaqt ajratmaganligi. Shunday ota-onalar borki aynan farzandi yetuklik davridan òtayotgan paytida unga e'tiborsiz bòladi. Nimaga qiziqishini ham sòramaydi. Mana nimadan kelib chiqadi yoshlarda psixologik muammolari .

- òzining sòzini tòġri deb hisoblash
- yolġiz qolishga moyilli
- e'tibor istashdan kelib chiqadi va kòpchilik yoshlar internet vertual olamdan òziga najot topadi. Bundan tashqari kòplab sanash mumkin ular psixikasiga ta'sir

etadigan òyinlar, videolar turli tarmoqlar, ularni hammadan jamiyatdan oiladan uzoqlashtiradi. Natijada yoshlar jamiyatga qòshilgisi kelmaydi.Jamiyatda shaxslarning yoshlarning xulqi òzini tutish sabablarini òrganish tarbiyaviy ahami yatga ega bòlib masalaning ikki jihati farqlanadi.

A) ichki sababar -xatti harakat egasining subyektiv psixologik xususiyatlari (motivlar ehtiyoj maqsad mòljal istaklar)

B) tashqi sabablar-faolyatning tashqi shart sharoitlari va holatlari, ya'ni tashqi stimullar hisoblanadi. Ya'ni yoshlarda qachon psixologik ijtimoiy muammolar paydo bòladi qachonki bu ikkita sabablar yòqolsa yoki umuman bòlmasa. Yoshlar bunday muammolarga kirib qolmaslik uchun ularda doimo stimull bòlishi kerak. Hayotning har qanday zarbasiga tayyor turishi kerak. Qachonki insonda maqsad bòlmasa, uni hayotini mazmuni qolmaydi.

Ayniqsa yetuklik davrida shaxsiy dispozitsiyalar kuchli bòladi. Yoshlar òzlari nima deganini yoki nima uchun bunaqa qilganini yoki qilayotganini anglab yetmaydi. Uni ichki sabablar anglanmagan dispozitsiyalar boshqaradi. Ba'zi paytlarda esa anglangan dispozitsiyalar boshqaradi. Misol uchun ongli ravishda nimanidir òqishga yoki ishlashga harakat qilsa, demak u nima qilayotganini anglaydi. Bundan tashqari hozirgi kundagi yoshlar muammoasi muloqot psixologiyasi hisoblanadi. Ya'ni yoshlar kòp muloqot olib bormaganliklari sabablari pand yeyishadi. Kimdir hayotda boshqaruvchanlik liderlik qobiliyati bòladi. Òzining nutqlari bilan butun bir jamoani ham jalb etadi oladi.Biz bu muammoni hal qilish uchun kòproq mashq qilish gapirishni rivojlantirish kerak. Ba'zi yoshlardan shunday ajoyib fikrlar bòladiki, lekin shuni bayon eta olishmaydi. Bu ham bir kamchilik. Bunga bir sabab oilaviy muhit ham hisoblanadi. Oilada farzandni fikri ham albatta inobatga olinishi eshitilib kòrilishi kerak. Ota- ona bolani bir marta qaytargandan sòng, uni hech kim gapirtira olmaydi. Yoshlar yetuklik davrida òzligini anglash ham muhimdir. Har bir shaxs yoki individ bir biridan meni bilan farq qiladi. Hattoki Maslou quyidagi fikrni bildiradi. "Òzligini faollashtirish òzini va faqat òzini ròyobga chiqarish uchun intilishdirki, bu ijodiy faollik va xususiy menni tòlaqonli namoyon qilish uchun kabi fazilatlarga ega bòlgan òzini faollashtiruvchi shaxslarning òtandividualligidan dalolat beradi" deya fikr bildirgan. Buning ma'nosi shuki har bir individ mana shu xususiyatlarga ega bòlsa tòlaqonli yetuk shaxs bòla oladi desak bòladi. Mana shunday yoshlar bizning jamiyatga qanot bòladi. Xulosa òrnida shuni ta'kidlash joizki ,yoshlarning ijtimoiy psixologik muammolarini keltitib chiqaruvchi ularning òzlari. Yoshlar òz qobilyat istak maqsad bilan xarakat qilsa hech narsa tòsiq bòlmaydi. Ğoziyev va Azizovalar fikricha "yoshlar faolligini oshirish va ularni ijtimoiy munosabatlar tizimida faolligini rivojlantirishga psixologik xizmatning maqsadi-shaxsnning har tomonlama mukammal psixologik taraqqiyotni ta'minlovchi oqilona zarur shart sharoitlar oqilona muhit yaratishdan iborat. Ya'ni har bir yosh òziga soǵlom psixologik muhitni oilasida kòchada jamiyatda yarata olsa bu muammolarga oqilona yechim bòladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. I. Karimov " Barkamol avlod - Òzbekiston poydevori" Toshkent -1996.
2. Yoshlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Abduraxmonova Robiya.

3.V.M.Karimova. “Ijtimoiy psixologiya”. Toshkent-2007.
4. Shoumarov.Sh. “Muhabbat va oilaviy hayot” - T:. Ibn Sino nashriyoti .-1990.

## YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY MADANIYATNING SALBIY TA`SIRI

*Ismoilova Dilnoza Shaxobiddinovna*
*Andijon viloyati Baliqchi tumani 22-maktab psixologi*

Davlatimiz gullab yashnayotgan, rivojlangan davlatlar qatorida turgan bir vaqtda hozirgi kundagi xorij davlatlaridan kirib kelayotgan turli xil rasm-rusmlar bizning milliy qadriyatlarimiz, an`ana, urf - odatlarimiz bilan tarbiyalanib kelayotgan yoshlarimizga salbiy ta`sir ko`rsatishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun bu yosh avlodni har tomonlama yetuk barkamol, ma`nan boy, aqlan sog`lom qilib tarbiyalash soxasida ish olib borayotgan o`qituvchilar oldida juda katta mas`uliyatli vazifalar turibdi. Har tomonlama yetuk dunyoqarashga ega bo`lgan yosh avlodni “ommoviy madaniyat” ta`siridan avaylab asrashimiz zarur. Dunyoqarashi keng bo`lgan yoshlar orasida kitob o`qish, uni muloxaza qilish uchun vaqt ajrata olishmayotganligi bugungi kunda sir emas.

O`sib kelayotgan yosh avlodni jahonda tanitish, ular uchun yaratilgan barcha shart - sharoitlar, imkoniyatlardan foydalanib, asl o`zbek millatini qanday ekanligini ko`rsatish. Yosh avlodni har qanday xorijdan kirib kelayotgan urf - odatlar, ta`siridan asrab, ko`proq ular bilan avlod ajdodlarimiz, bobokalonlarimiz ma`naviyatini ular ongiga singdirishimiz darkor.

Ochiq – sochiq kiyim kiyish, sigareta chekish, kechqurungi bar, kafelarda o`tirgan yoshlarimiz ota – onalari qaerga qarayapti. Nega ularni bu holatlar tashvishga solmaydi.

Bola – aziz, odobi undan aziz deyiladi dono xalqimizda. Farzandlarimiz bizning kelajagimiz, yurtimiz ravnaqi, uning taraqqiy etishi, ular jaxonda yagona davlat ekanligi ko`rsatish uchun qilinayotgan barcha sayi xarakatlarga hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib, mas`ulyat bilan yondashimiz kerak.

O`tgan asrning ikkinchi yarmidan keyingi o`n yilliklar mobaynida ko`zga yaqqol tashlanayotgan va bugungi kunga qadar davom etayotgan jarayonlardan biri ommaviy madaniyat mahsulotlarining tezkor ravishda yoshlar turmush tarziga kirib kelayotganligi bo`lmoqda. Bunda ommaviy madaniyat mahsulotlari dastlab ommaviy axborot vositalari yordamida ijtimoiy hayotga faol kirib kelgan bo`lsa, oxirgi paytda axborot almashinuv vositalarining o`ta rivojlanishi va takomillashib borishi natijasida ro`y berayotgan globallashuv ushbu jarayonni shiddat bilan tezlashtirmoqda. Shuni alohida ta`kidlash joizki, g`arbdan turib targ`ib qilinayotgan yoki tarqatilayotgan deyarli barcha turdagi madaniyat mahsulotlari bizning turmush tarzimiz uchun yot bo`lgan qadriyatlardan iborat bo`lib, ularning aksariyati muayyan mafkuraviy maqsadlarni ko`zlagan holda tayyorlanadi. Xususan, bugungi kunda barcha bozorlarda keng sotilayotgan jangari mavzulardagi fil’mlar yoshlarning diydasini qotirish, urush va qon to`kilishi kabi dahshatlardan seskanmaydigan ruhdagi yoshlarni tarbiyalash bo`lsa,

fahsh va behayo muhabbat mavzularidagi fil’m va seriallar esa qadim-qadimdan muqaddas qadriyatlar sifatida qaror topgan oilaviy munosabatlarimizga zavol yetkazishdan iborat bo`lmoqda. Shuningdek, xorij yurtlarda tayyorlangan oddiygina bolalar o`yinchoqlari, qizlar qo`g`irchoqdari ham xuddi shu ruh bilan yo`g`rilganligini ham ta`kidlash o`rinlidir. Ulardagi turli ma`nosiz yozuvlar va suratlarning mazmunini anglab yetmagan holda kiyib yurgan ayrim xorijparast yoshlarimiz esa o`zlari tushunmagan holda turmushimiz uchun xavfli bo`lgan g`oya va qarashlarning targ`ibotchilari bo`lib qolishayotganliklarini fahmlashmayaptilar. Tabiiyki, bunday mahsulotlar muayyan xorijiy mamlakatning turmush tarzini, qadriyatlar tizimini ulug`lovchi vosita bo`lishi bilan birga, ular yordamida tarqalayotgan axborotlar jamiyatimizda ma`lum ijtimoiy fikrni shakllantirish uchun xizmat qilmoqda.

Ma`lumki, yoshlar odatda yangilikka o`ch, orzu-havaslari cheksiz, modaparast bo`lishadi. Ko`p hollarda xorij standartlari ularni ko`proq qiziqtiradi. Shuning uchun yoshlar ongidagi ana shu ijtimoiy-psixologik o`ziga xoslik bizning turmush tarzimizga yot bo`lgan ayrim qadriyatlarga nisbatan tanqidiy yondashuv o`rniga osongina qabul qilish uchun zamin yaratmoqda. Xorijiy fil’mlar yoki musiqiy dasturlarning mazmun yoki mohiyatidan ko`ra san`atkorlarning kiyinishi, turli taqinchoqlari yoki shovqin-suronlarga berilgan holda jazavaga tushib raqsga tushishlari ko`pchilik yoshlar tomonidan qadriyatlar namunasi sifatida qabul qilinayotganligining sababi ham shunda. Oqibatda milliy mentalitetimizga mos kelmaydigan madaniy-mafkuraviy mahsulotlar yoshlarimiz turmush tarzidan keng o`rin egallamoqda. SHu ma`noda ommaviy madaniyat tashqi ko`rinishi bilan yoshlarning qiziqishini tez uyg`otadigan, osongina taqlid qilish qolipiga mos keladigan, tez o`zlashtiriladigan bir narsa bo`lib qolmoqda. Xorijiy fil`mlardagi aktyorlarning kiyim-boshlari, taqinchoqlari va ramzlari, soch turmaklashlari va bezanib-bo`yanishlari, taniqli san`atkorlarning xatti-harakatlari ko`pgina yoshlarimiz tomonidan oson o`zlashtirilayotgan ommaviy madaniyat namunalariga aylanmoqda.

Natijada ommaviy tus olayotgan bu ta`sirlar milliy kiyinish, urf-odatlar, munosabatlar tizimiga ham putur yetkazmoqda. Jamoat joylarida kishining ensasini qotiradigan ko`rinishdagi kiyimlarda yurish, muomala madaniyatimizga xos bo`lmagan urf-odatlarni hayotiy deya qabul qilish, jamiyat manfaatlariga zid bo`lgan qadriyatlarning farqiga bormaslik, ko`pchilikning nafratini uyg`otadigan hodisalardan huzurlanish kabi illatlarning ildiz otishiga olib kelmoqda.

Shunday ekan, ommaviy madaniyat mahsulotlarining tarqalishini oldini olish, yoshlarimizga ularning ta`sir qilish darajasini kamaytirish maqsadida ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarning ta`sirchanlik darajasini, ularni o`tkazish uchun jalb etilayotgan shaxslarning salohiyatini ko`tarish choralarini ko`rish, ommaviy madaniyat targ`iboti manbalariga aylanib qolgan internet kafelar, audio-videotasmalar savdosi bilan shug`ullanayotgan do`konlar faoliyati doimiy nazorat ostiga olish, televidenie orqali namoyish qilinayotgan hamda katta ekranlarga chiqarilayotgan milliy badiiy fil’mlar, videokliplar, kontsert dasturlari singari ko`ngilochar ko`rsatuvlarning tomoshabin hukmiga havola etilishi maqsadga muvofiqdir. Ayni paytda yoshlarimizda uyali telefon aloqa vositalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish to`g`risida jiddiy bosh qotirish, tashkillanayotgan ko`pgina ma`rifiy tadbirlar chog`ida ota-onalar,

pedagog-o`qituvchilar va jamoatchilik vakillarining keng ishtiroki va ular tomonidan bildiriladigan fikr-mulohazalarni atroflicha o`rganish, bunda ota-onalarning, ta`lim muassasalari xodimlarining mas`uliyatini yanada oshirish, joylarda "Yoshlar ittifoqi" faollarining mazkur yo`nalishdagi faoliyatini yanada jonlantirishga jiddiy e`tibor qaratish lozim.

"Ommaviy madaniyat" va uning yoshlar ongiga ta`siri.

XXI asr boshlarida ilmiy va ma`naviy jihatdan bashorat qilinganidek, "Ommaviy madaniyat" davrning eng muhim muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Bugun chegara bilmas kuchga ega bo`lgan "Axborot xurujlari", "Axborot urushlari", "Ijtimoiy tarmoqlarning" havfi va undan himoyalanish usullari hamda yo`llari haqida yoshlar nechog`li malakaga ega degan savollar har bir uyg`oq ziyolini o`yga toldirishi tabiiy.

So`ngi paytda "ommaviy madaniyat"ning keng miqyosda urchishiga xizmat qilayotgan internet maydonida inson ongini shakllantirishga xizmat qilishga qaraganda uni ko`ngilochar o`yinlarga jalb etishga qaratilgan ijtimoiy tarmoqlar ommalashmoqda. Birgina misol, "Facebook" tarmog`ining bir oylik abonenti yetti yuz million, shundan O`zbekistonda 128 ming, "Odnaklassniki"dan ro`yxatdan o`tganlar soni 2,5 millionga yetdi. O`quvchi yoshlar orasida ommalashgan "Odnaklassniki", "Moy mir","Facebook","Twitter" kabi ommalashgan ijtimoiy tarmoqlarda, vaxshiylik, boshqa destruktiv g`oyalar targ`ib qilinmoqda. Hech shubhasiz, ijtimoiy tarmoq millionlab odamlarni programmalashtirayotgan ulkan mashinaga aylandi.

Yurtimizning turli hududlarida "Geymklub"larda tongdan tungacha, tundan tonggacha kompyuter monitoriga mukkasidan ketgan yoshlarimizning qanday mashg`ulot va ko`ngilochar o`yinlar bilan bandligini e`tibordan chetda qoldirmaslik;

Vertual olamda hayot kechirish muammolardan qochishga, uning asiriga aylanib qolishga olib kelmoqda. Mazkur global tarmoqdan foydalanuvchilar sonining 78% foizini yoshlar tashkil etganini, "Omma ichida yolg`izlik" deb ataluvchi bu kasallik kelgusida tuzalishi qiyin bo`lgan depressiyalarni keltirib chiqarishini inobatga olib bu boradagi ishlarni monitoring qilish;

O`quv muassasalari ichki imkoniyatidan kelib chiqib o`quvchi va talabalarni bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan tadbirlarning realligi va bajarilishiga erishish;

O`quv yurtlarida joylardagi mutaxassis va tashkilotchilarning didi, ma`rifati va salohiyatidan kelib chiqib darslar, to`garaklar, uchrashuv, muloqotlar va ilmiy anjumanlarda Vatan va millatni tanitishni ko`zda tutuvchi turli tadbirlar uyushtirish;

Yoshlar ongiga milliy g`ururni, milliy madaniyatni tarbiyalashda adabiyot va san`atni o`rni benihoya ekanligini yetkazish lozim.

Xulosa o`rnida dunyo jadidlari otasi Ismoil Gaspirinskiyning quyidagi bemisl so`zlari barchamizning bu boradagi kurashlarimizda katta ahamiyat kasb etadi deb o`ylayman. U o`z asarlarining birida "Ovrupo keksa bir choldir, tajribasi ko`pdir. Ulug` yoshiga hurmatimiz bor. Tajribasini o`rganamiz, lekin xatolarini takrorlamaymiz. Maktablarini, universitetlarini, bizlar ham quramiz. Ammo aqllarmizni qancha yoritsak, yuraklarimizni shuncha haqqoniyat bilan to`ldirmoqqa harakat qilamiz. Ovrupoda nimani ko`rsak, yosh boladek ko`tarib yugurmaymiz Esli, hushli insonlardek "Bu nimadir?", "Oqibati nima bo`ladi?", "Vijdon va haqqoniyatga uyg`unmi?"deya aql

torozisiga tortib olamiz. Yevropa madaniyati mulohazasiz qabul qilaverish mumkin bo`lgan bir narsa bo`lsa, bu madaniyatga Yevropaning o`z vorisi dushman bo`lmas edi. Yana bir bor takrorlayman: yangi fanlarini, kashfiyotlarini va ijodlarini, foydali xizmatlarini inkor etmayman lekin, hech bir mulohaza qilib ko`rmasdan Yevropaga taqlid etishni aqldan hisoblamayman”.- degan edi. Uning fikricha dunyo binosi turfa fikr va qarashlarni oqilona birlashtiruvchi murosa ustiga qurilmog`i lozim. Murosa uchun esa, bilim kamlik qiladi. Uning uchun yuksak ma`rifat, madaniyat lozim. Shuningdek, u insoniyat Yevropaning zamonaviy ilmu fani bilan Islom ahloqini uyg`unlashtirgandagina barkamol va baxtli bo`lishini har tamonlama isbotlab berdi. Zero, ajdodlarimiz yoqqan sham-chiroq yog`dusi bilan maydonga kelgan Yevropaning bugungi ziyosi, endilikda o`zgacha ko`rinishlar asosida madaniyat va ma`naviyatimizning yashil o`rmonlariga yashin kabi urilishiga yo`l qo`ymaslikka barchamiz birdek mas`ulmiz.

# ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛГИК АСОСЛАРИНИ ЯРАТИШ

*Расулова Муқаддам Алимжоновна*
*Андижон вилояти Олтинкўл тумани 30-мактаб психологи*

Давлат тараққиёти ва жамият равнақи кўп жиҳатдан унинг интеллектуал потенциали билан белгиланади. Чунки, илмий потенциали юқори даражада ривожланган мамлакат барча соҳаларда доимо илғор бўлади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Фарзандларимизни мустақил фикрлайдиган, замонавий билим ва касб-ҳунарларни эгаллаган, соғлом ҳаётий позицияга эга, чинакам ватанпарвар инсонлар сифатида тарбиялаш биз учун ҳеч қачон долзарблигини йўқотмайдиган масала хисобланади”.

Кадрлар тайёрлаш соҳасидаги давлат сиёсати инсонни интеллектуал ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш билан узвий боғлиқ бўлган узлуксиз таълим тизими орқали ҳар томонлама баркамол шахс- фуқарони шакллантиришни назарда тутади. Шу тарзда фуқаронинг энг асосий конституциявий ҳуқуқларидан бири билим олиш, ижодий қобилиятни намоён этиш, интеллектуал жиҳатдан ривожланиш, касби бўйича меҳнат қилиш ҳуқуқи руёбга чиқарилади.

***Интеллектуал*** – сўзининг луғавий маъноси ақлий жиҳатдан етуклик, фаҳм-фаросат, ақл-идрок, заковат, зукко яъни заковатли инсон, зукко бўлиш демакдир.

***Механизм*** - сўзи муайян бир мақсадни амалга оширувчи омиллар, факрторлар , тизимга, бир тартибли қолипга солиш, кетма-кетликни тўғри танлай билиш демакдир.

Маълумки, таълимни ислоҳ қилишда, миллий мустақиллик принциплари ва халқнинг бой интеллектуал мероси, умумбашарий қадриятларнинг устиворлиги асосида таълимнинг барча даражалари ва бўғинларида таълим олувчиларнинг

маънавий ва ахлоқий фазилатларини ривожлантириш; таълим олишда, шунингдек болалар ва ёшларни маънавий ахлоқий интеллектуал ва жисмоний жиҳатдан тарбиялашда жамоат ташкилотлари маҳаллалар, хайрия ва халқаро фондларнинг ролини кучайтириш юзасидан чора тадбирлар ишлаб чиқиш ҳамда уларни амалга ошириш ишлари жадал суратлар билан олиб борилди.

Ҳар бир фан ўқитувчиси таълим бериш жараёнида ўқувчиларнинг фанни ўзлаштириш жараёни билан қизиқишлари табиий ҳол албатта. Ёшларнинг фанни мукаммал ўзлаштириши, қўшимча саволлар билан мурожаат қилиши, янада чуқурроқ билим олишга ҳаракат қилиши ҳар қандай устозни қувонтириши ҳам табиий ҳолдир. Лекин бу ҳол ҳар бир гуруҳдан икки ёки уч ўқувчи бўлиши мумкинлиги ҳеч кимга сир эмас. Чунки тўлақонли ўз онги, ақл-заковати, зукколиги билан билим олишга ва ижод қилишга қизиқувчи ўқувчи-ёшларнинг интеллектуал ижодий салоҳиятини ривожлантирувчи мақсад ва вазифаларни ишлаб чиқиш ва дарс жараёнида унга амал қилиш бугунги куннинг муҳим вазифаларидан биридир. Бугунги кунда иқтидорли, истеъдодли ёшларимиз ҳам кам эмас. Фақатгина биз уларни дарс жараёнида аниқлаб олишимиз ва уларни қизиқишларини инобатга олишимиз, ижодий салоҳиятга эришиши учун тўғри йўл-йўриқларни кўрсата олишимиз керак.

Бунинг учун ҳар бир ўқувчининг кундалик иш фаолиятини кузатишимиз ва ундан психологик-педагогик хулосаларни чиқариб ҳар бир ўқувчи билан индивидуал иш олиб бориш учун уларнинг иш фаолиятининг турларини ўрганиб чиқиш ва ҳар бир ўқувчининг психологик дунёқараши бўйича маълум хулосаларга эга бўлишни мақсад қилиб қўймоғимиз лозим:




Ўқувчиларнинг умумий фаолият турларини бирма-бир ўрганмасдан туриб уларнинг ижодий салоҳиятига баҳо бера олмаймиз. Чунки, ўқувчилар ўрганилаётган фанни “аъло” ва “яхши” ўзлаштиришига қараб унинг истеъдодини баҳолашимиз ҳам нотўғри услубдир. Маълумки, бир йўналишни чуқур ўзлаштириб тор мутахассислик доирасида  “аъло” бўлиб ихтисослиги бўйича ўқитилаётган фанларни яхши ўзлаштира олмаслиги мумкин.
Бунинг учун барча таълим масканларида таҳсил бераётган устозларимиз ўз шогирдларининг ижодий салоҳияти ва маҳоратини ривожлантириш учун ўқувчининг интеллектуал сифатларини ўрганиши зарур бўлади:




Ёшларнинг интеллектуал сифатларини ўрганган ҳолда улар билан мунтазам иш олиб бориш учун таълим жараёнида қуйидаги усуллардан фойдаланишни назарда тутиш муҳим аҳамият касб этади. Бундан ташқари ҳар бир таълим масканида ўтказиладиган таълимий тадбирлар, танлов ва мусобақалар ҳам ёшларнинг илмий ва ижодий интеллектуал салоҳиятини оширишга жуда катта ёрдам беради. Бунинг учун ҳар бир устоз ўзи танлаган шогирдининг маҳоратини ошириб бориш учун барча усулларни қўллай олиши,ўқув маскани маъмурияти томонидан ташкил этилаётган тадбирларни ўз вақтида мунтазам ўтказилишини ўрганиб бориши лозим. Кўрик-танлов, мусобақа, олимпиадалар ўтказишдаги демократик эркинлик, одилона ва оқилона боҳолаш, ёшларнинг ижодий интеллектуал салоҳиятини ривожлантирувчи омилларни илгари суриш барчамизнинг муҳим вазифаларимиздан бири эканлигини унутмаслигимиз керак.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1.Мирзиёев Ш.. “Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан қурамиз” Т. Ўзбекистон, 2017.296-бет.

2.Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Қобилият ва унинг диагностикаси. -Т.:Ўқитувчи, 1997. -134 б.

3. З.Т.Нишонова. Мустақил ижодий фикрлаш. – Т.: Фан.- 2003.-114 б.

# OILADAGI SOG`LOM RUHIY MUHIT VA UNING FARZANDLAR TARBIYASIGA TA`SIRI

*Arifjonova Nodira Abdupattoyevna*
*Andijon viloyati Baliqchi tumani 27-maktab psixologi*

Sog'lom avlod tarbiyasi - hozirgi kundagi eng ustuvor va muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki sog'lom avlodni tarbiyalash - sog'lom turmush tarzini yaratishni va shakillantirishning muhim bo'lagi hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini yaratish borasida juda ahamiyatga molik bo'lgan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan qilinayotgan ko'pgina hayrli ishlar, yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, sog'liqni saqlash borasida qilinayotgan ko'zga ko'rinadigan ishlarning ko'pchiligi shular jumlasidandir.

Shu bilan birga sog'lom turmush tarzini yaratishda boy madaniy an'analarimizning roli ham beqiyosdir. Jumladan biz uchun muqaddas bo'lgan mo''tabar islom dinimizda ham sog'lom avlod tarbiyasigi katta e'tibor berilgan.

Ma'lumki islom dini avvalo inson faravonligiga, uning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi va ayni paytda, jamiyat taraqqiyotiga, ilm ma'rifatga, halollik, rostgo'ylik va ezgulikka chorlaydi. Yana ahamiyatli jihati shundaki, islom dinida sog'lom turmush tarzining tayanchi bo'lgan - oila muqaddas hisoblanadi va e'zozlanadi.

Bilamizki, oila naslni davom ettiradigan muhim muassasadir. Oila har tamonlama mustahkam bo'lishi uchun ota- onalarning o'rinlari beqiyos ahamiyatga egadir.

Farzandga ilm, xunar o'rgatish farz. Ilmli kishilar doimo el orasida xurmatga loyiq bo'lib, alohida e'zozlanadilar. Xalqimizda «yoshlikda olingan bilim go'yo toshga o'yilgan naqsh kabidir» degan naql bor. Shunday ekan ilm olishga yoshlikdan harakat qilish kerak. Har bir kishi yoshlik davrini g'animat bilib, beparvo bo'lmay, kelajakda o'zi va xalq manfaati, baxt-saodati yo'lida foyda beradigan bilim olishga harakat qilishi muhimdir. Bu borada buyuk donishmandlar o`z qarashlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi. "Ilm-sahroda do'st, hayot chorrahalarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh, bahtiyor daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu – ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir», deganlar. Ha, darhaqiqat sog'lom hayot va sog'lom turmush tarzini yaratish - oiladan, ya'ni farzand tarbiyasidan boshlanadi.

«Mol davlat va farzandlar dunyo hayotining ziynatidir». Ha farzand qalb rayhonidir. Yoshlik chog'laridan ularni ko'rib ko'zimiz quvonsa, katta bo'lganlarida yordamlaridan bahramand bo'lib, dilimiz yayraydi. Farzandlar insonlarga brilgan aziz ne`matlardan biridir. Bu ne'matning munosib farzand bo'lib yetishishida ota onaning xizmati beqiyosdir. Shunday ekan farzand tarbiyasida otaning ham, onaning ham o'ziga yarasha vazifalari mavjuddir. Otaning vazifalari quydagilardan iborat.

-ota farzandlariga , o'zining otasiga yaxshilik qilishi bilan o'rnak bo`lishi, ularni jonidan ham ortiq ko`rishi muxim xisoblanadi. Shundagina farzand otasinining tutgan yo'lidan yuradi, undan ta'sirlanadi, shu xolatda unib o'sadi va voyaga yetadi.

- er o'ziga bilimli, ma`naviyatli, aql-farosatli umr yo'ldoshi tanlashi kerak-ki, bu ayol kelajakda farzandlarining onasi, ularning tarbiyachisi bo'ladi.

- ota farzandining tariyasiga, bilim olishiga, shuningdek, odob-ahloq qoidalarini singdirib borishi muhimdir.

- yomon do’st va yomon bolalar ta’siridan farzandini asrashi kerak. Chunki, buzuq ahloqli bolalar bilan do’stlashib qolsa, farzandining ham tarbiyasi buzulishi tayn. Shuning uchun farzandlarini faoliyatini nazoratga olishi, ular bilan ko`proq hamsuhbat bo`lishi, qilayotgan ishlarini to`g`ri-yoki noto`g`ri ekanligini tushuntirrib borishi va oilada otaning o`rni borligini xis qildira olishi muhim ahamiyatga egadir.

Farzand tarbiyasida onaning vazifalari quydagilardan iborat.

Ona - uy bekasi sifatida oilaning barcha yumushlariga mas'uldir. Xonadonning oroyishi va osoyishtaligi, ro'zg'ordagi tartib-intizom, oila an'analarining umrboqiyligi, tinch-totuvli, fayzli hayot ayol kishiga bog'liq. Uddaburron rejali, tadbirkor ayol - oilada to'kin-sochinlik garovidir. Uning aksi bo'lsa, oiladan qut-baraka ketadi, oila jamg'armasi tanazzulga yuz tutadi. Oiladagi barcha masalalar yuzasidan erga ma'lumot beruvchi, ularni o'zaro maslahatlashib, echimini topuvchi, ota bilan farzand o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yib boruvchi ham onadir. Ayol - oila tinchligining tarozisidir. Jismi-jonidan tirik bir jonni ne azobda dunyoga keltiruvchi ham ayoldir. Turmush o'rtog'ini ertalab tabassum bilan ishga kuzatgan, qaytganda xursandchilik bilan kutib olgan ayol jannatidir. Bu toifadagi ayollar er urug'ini o'z urug'idek, qaynona-qaynotasini esa o'z ota-onasidek hurmat-izzat qiladi.

Oilada ayolnnng sadoqati, ozodaligi, shirin muomalasi, ishbilarmonligi qizlar uchun namunadir. Onaning mehmon kutish, taom tayyorlash, muomala va kiyinish madaniyatiga rioya etish, bola tarbiyalash, ma'naviy-madaniy savodxonlig'i qiz bola uchun oila maktabidir.

Ota-ona farzand oldida o'z aql-zakovati, muomalasi, kiyinishi, shirin so'zligi, qat'iyatliligi, yolg'on gapirmasligi, mehnatsevarligi, oila yuritishda adolatparvarligi, ilmparvarligi bilan namuna bo'lishi kerak. Bolaning ruhiyatiga ota-onaning o'zaro janjallari, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitga salbiy munosabati, yolg'on so'zlashi, qatiyatsizligi, kiyinishida, ro'zg'or yuritishdagi, pala-partishligi, mehnatni sevmasligi, tezda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ota-onaning bir-biriga nisbatan yuksak axloqiy munosabatini ko'rgan, bilgan bola kelgusida oila qurganda ham o'z turmush o'rtog'i bilan shunday yashashga tayyor bo'lib boradi.

Ba'zi ota-onalar farzandining keiajagini faqatgina moddiy ta'minlashdan iborat deb biladi. Shuning uchun ham turli yo'Ilar bilan uzoq avlod-ajdodlariga yetadigan molu-dunyo to'plashga harakat qiladi. Ochko'zlikkasaligamubtalo bo'Iadi. Insonjismi-jonidagi kasalliklarni davolash mumkin, lekin bu kasallikni davolash juda murakkab. U insonni insoniylikdan mahrum etadi. Turli jinoyatlargi noaxloqiy hatti-harakatlar sodir etishga yetaklaydi. El-yurt ichida obro'sizlantiradi. Bunday boylik farzandga baxt emas, baxtsizlik keltiradi.

Ota-onadan behisob molu-dunyo emas, ilmu-ma'rifatga intilish, insof-u diyonatga sadoqat, mehru shafqat, hayotga muhabbat, xalq. Millat, vatan uchun jon-fidolik sifatlari meros bo’lib qolmog’i zarur. Bola uchun o’z millati, madaniyati, san’ati, dini, axloqiy-ma’naviy qadiiyatlari, oila an’analari, urf-odatlarini chuqur bilish va ulardan rna’naviy ozuqa olish, g’ururlanish, tarbiyaviy xarakter kasb etadi.

Oilada farzandni tejamkorlikka, tadbirkorlikka, tashabbuskorlix^: o'rgatish, dunyoviy ilmlar va hayot ilmidan voqif etish, kasb-huna;-sirlarini qunt bilan egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berish, ularning hayot so'qmoqlarida adashib qolmasligi va ravon yo'ldan borishda yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, xalqimizda shunday ibratli urf odatlar mavjudki, bu odatlarga har bir inson rioya etsa albatta u inson kelajakda hamma uchun namuna bo'ladigan va ibratli komil inson bo'lib yetishadi. Bu esa sog'lom hayotning va sog'lom tumush tarzini yaratishda muhim ahamiyatga egadir. Shunday urf odat va an'analari bilan har bir xalq faxirlansa arziydi.

# O'QUVCHILARNI KASB TANLASHLARIGA PSIXOLOGIK KO'MAKLASHISH

*Oyshaxon Ma'rufjanova*
*Namangan shahar 2-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning kasb tanlash muammolari va ularga psixologik yordam ko'rsatish haqida ma'lumot berilgan.

"O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son qaror bilan respublikamizda uch bosqichli professional ta'lim joriy etilishi talablarida belgilangan talablariga kompleks yondashish kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samaradorligini ta'minlaydi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kasb-hunarni to'g'ri tanlash va egallash dolzarb masala hisoblanadi.Bugungi globallashuv davrida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish, kasblar olami va ularning tasniflari, jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida yetarli bilim va ko'nikmalar berish zarur.

Shaxsning kasbiy shakllanishi va mutahassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo'lidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib uning yoshiga hamda shaxsning taraqqiyotiga mos holda boradi.Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mutahasissining mahorat darajasiga erishish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan o'zaro aloqadordir. Kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb nafaqat daromad manbayi, balki inson umrining asosiy qismini sarflaydigan faoliyat hamdir. Kasb tanlayotgan shaxs undan talab qilinadigan bir qator jihatlarga ham alohida e'tibor qaratishi lozim:

-umumta'lim maktablarida beriladigan ta'lim darajalaridagi bilimga ega bo'lish;

-kasb tushunchasining ta'rifini, tabiatini, xususiyatlarini, kasblar sonini va turlarini bilishi;

-kasbni inson hayotida qanchalik muhim ekanini tushunishi, u haqda ma'lum bir tasavvurlarga ega bo'lishi;

-kasb tanlashga kerak bo'lgan idrok va xohishning bo'lishi;

-o'z maqsadi va manfaatini to'g'ri anglab olishi;

-kelajagi haqida tasavvurga ega bo'lishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi kasb-hunarga yo'naltirish yakuniy ideal natijasi- bu har bir o'quvchida mustaqil va ongli ravishda kasbiy o'zlikni anglashning shakllanganligidir.Shaxsda kasbiy o'zligini anglash shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy me'zonlardan biri sifatida quyidagi bir nechta bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Kasblar olami haqidagi aniq ko'rgazmali tasavvurlarning paydo bo'lish davri. Bu Davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turli-tuman tasavvurlar shakllanib boradi. Boshlang'ich ta'limda esa yetakchi o'quv-biluv faoliyatida o'quvchining kasblar haqidagi tasavvuri yanada kengayib boradi.

2. O'zini kasbiy bilish davri. Ko'plab kasblar haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirib olgach, o'quvchi ularni u yoki bu shaklda qo'llay olishi kerak. Kasblar haqida yetarli bilim, ko'nikma va tayyorgarlikka ega bo'lmaganliklari sababli ba'zi o'quvchilar o'zlarini biror kasbiy sohada namoyon eta olmaydilar.Biroq, ularda yangi yetakchi faoliyat tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchli namoyon bo'ladi.

3. O'zini kasbiy aniqlash davri. Ushbu bosqichda kasbiy o'zligini anglash yakunlanadi. Bu davr maktabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. O'quvchida kasbni o'rganishning aniq yo'nalishi, barqaror qiziqishlar, kasbning talablariga mos bo'lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi kuzatiladi.

Yoshlar o'z kelajagini anglagandagina, qiziqish va manfaatlarini anglab olgandagina, hayotidagi ehtiyojlarini tushungandagina kasb tanlashi oson kechadi.Kasb insonni boquvchi asosiy omil va hayotini tashkil etuvchi asos hisoblanadi. Bu asosni tanlashda beriladigan quyidagi tavsiyalar va bir qator jihatlar foydadan holi bo'lmaydi.

O’quvchilar uchun tavsiyalar:

-o’zingizda qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali birlamchi bosqichda aniqlab oling (bunda maktab psixologi sizga yaqindan yordam beradi);

-turli kasbiy yo’nalishlar istiqbolli soha va mutahassislik to’g’risida bilimlaringizni mustahkamlab boring;

-9-sinfdan boshlab asta-sekin o’zingiz tanlagan yo’nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlarda o’tkaziladigan “ochiq eshiklar kuni”da ishtirok eting;

-adabiyotlar,onlayn platformalardan yangi kasb sohalari haqida ko’proq ma’lumot oling;

-istaklaringiz, qiziqish va qobiliyatlaringiz, salomatligingiz va maqsadlaringizni muvofiqlashtiring;

-imkoniyat bo’lsa kasb tanlash bo’yicha malakali mutahassis bilan maslahatlashing;

-tanlayotgan kasbingizdan sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo’lgan ma’naviy ozuqani ham hisobga oling.

Ota-onalar uchun tavsiyalar:

-qanday kasb tanlashni farzandingizni o’ziga qo’yib bering;

-siz tomoningizdan berilayotgan maslahatlar zarur va foydali, lekin ular yakuniy qaror bo’lmasligi yordamchi ta’sir bo’lishiga e’tibor qarating;

-farzandingizni qiziqish, qobiliyat va layoqatini yoshligidan kuzatib, rivojlantirib boring;

-farzandingizni istak va maqsadlari bilan o’rtoqlashing;

-farzand otasi yoki onasining kasbini davom ettirmoqchi bo’lsa bu juda yaxshi, lekin bunga uni siz majburlamang;

-farzandingizni kasb tanlashi va kasbiy yetuklikka erishishi uchun iloji boricha yetarli sharoit yaratib bering;

-farzandingiz kasb tanlashida o'z imkoniyatlari va shaxsiy sifatlaridan kelib chiqishi to'g'risida maslahatlar bering.

Bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan kasbiy yo'nalishi yoshlarda hozirgi iqtisodni, menejment boshqarish nazariyasini, bozor muhitidagi marketing faoliyati va mo'ljalni, patent olishga kirishni, ma'lumotlarni bilishi va ularni mohiyatini tushunish- buning uchun informatika va informatsiyalar asoslarini egallagan bo'lishlari kerak bo'ladi.

O'smirni kasb tanlashida o'zini aniqa maqsadlarini anglab olishi va kasbga ega bo'lishga intilishi- bu ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bunda 3 ta asosiy omillar birlashishi va ularga moslashishi kerak bo'ladi. Bular:

Men xohlayman, Men eplay olaman, Men qila olaman omillaridir.

"Xohlayman" -bu shaxsning intilishi, qiziqishi, xohlashi.

"Eplay olaman" - bu insoniy imkoniyatlar (fiziologik va psixologik, shuningdek shaxsning ta'lim resurslari).

"Qila olaman"-mehnat bozorining ehtiyojlari, insonni jamiyat, odamlar, oilasi va shu kabilar oldidagi majburiyatlari.

Asosiysi tarbiyachi bo'lgan ota-onalar o'z bolalariga kasb tanlashida yordamchi hisoblanadilar. Ular bilan ochiq suhbat bolalar qaysi kasbga qiziqishlarini bilib olishlari va ularga yordam berishlari zarur. Agar bola tanlagan kasb ota-onaga yoqmasa uni ra'yini qaytarmagan holda nima uchun bu kasbni tanlagani va buning asosida nimalar yotganini bilib olishlari zarur.Asosiy omilni bilib olgach, o'z maslahatlarini berishlari mumkin bo'ladi. Shining uchun ham ota-onalar bu borada albatta yetarli darajada bilimga ega bõlishlari kerak. Ba'zi ota-onalar farzandlari tanlagani kasb haqida hattoki qiziqib kõrmaydilar ham. Agarda bola biror kasb tõg'risida gapirsa "o'qib shaharni olib berarmiding" deb qo'ya qoladilar. Bu esa boladagi qiziqishni, ishtiyoqni, o'ziga bo'lgan ishonchni so'ndiradi. Bolani avvalombor kelajakda juda katta orzu-umidlari, intilishlari bo'ladi. Ota-onalarning vazifasi esa ularni qo'llab -quvvatlash, ishonch bildirish va o'z maslahatlarini berishdan iborat.

O'qituvchi va o'quvchi faoliyatining natijasi bu kasbga yo'natirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'qituvchi faoliyatining natijasi o'quvchilardagi psixologik ko'rinishda o'z aksini topadi, ya'ni ularning bilimlarida, uddalay olishlarida, malakalarida, shaxsga xos tomonlarini ko'rinishida, dunyoqarashlarida, ma'naviy ehtiyojlarida o'z aksini topadi.

O'quvchilar faoliyatining natijasi- bu aniq bir kasbni tanlab olishlarida, uni bajarishni uddalay olishlarida, shu sohani olib borish imkoniyatlarida ko'rinadi.

Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: “ Hayotda siz uchun eng sevimli kasbni tanlang va siz bir umr ishga bormaysiz”. Agar kishi o’z sevgan kasbida faoliyat yuritsa o’zini hech qachon ishga ketayapman deb hisoblamaydi. O’z sevgan kasbi bilan shug’ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag’bat hamda ma’naviy ozuqa beradi. Eng muhimi u o’z kasbidan baxt topadi.

Unutmang, inson kasbida jon saqlashi emas, balki shu kasbda yashashi kerak. Shundagina qilayotgan ishi haqiqiy sevimli kasbi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. E.G'.G'oziyev. K.K.Mamedov "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2003.
2. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2018.
3. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to'plami. Toshkent. 2020.

## MAKTAB PSIXOLOGINING O’QUVCHILAR BILAN O’TKAZADIGAN INDIVIDUAL SUHBAT USULLARI

*Abdusamatova Xurshida*
*Farg’ona viloyati Beshariq tumani 36-maktab psixologi,*
*Nosirova Barchinoy*
*Farg’ona viloyati Beshariq tumani 19-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab psixologining o’quvchilar bilan o’tkazadigan individual suhbat usullari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so’zlar:** individual, hissiy holat, xulq-atvor, aloqa o’rnatish, tinglash, pozitsiya, o’smir, tajovuzkorlik, liderlik.

Bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari ish faoliyatida uchrab turadigan eng katta kamchiliklardan biri o`quvchilar bilan individual ishlashda nimalarga e’tibor berish lozimligi haqida to`liq bilimga ega emasliklaridir. Individual suhbatda amaliyotchi psixolog eng avvalo suhbatni qanday o`tkazishni bilishi kerak, o`quvchi suhbat jarayonida o`zini qiynab turgan muammoni bemalol ayta olishi, psixologga ishonishi, uni yordam bera olishi, muammoni bartaraf etish yo`llarini topib berishiga ishonch hosil qilishi kerak. O`quvchi bilan individual suhbat jarayonida u bilan faqatgina tabiiy, ishonchli munosabatlarni o`rnatish zarur.

Avvalo suhbat olib borilayotgan bolaning hissiy holatini his qila bilish kerak. Masalan, bolaga jarohat yetkazishi mumkin bo`lgan savollarni bermaslik, xulq-atvorini his qila bilish, o`zining bolalikdagi tajribasiga tayangan holda, uni o`zidek qabul qila olish qobiliyati, bolaning rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlarini bilish, xulq-atvorning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olish kerak.

Agar bolaning jamiyat bilan aloqalari buzilgan bo`lsa, u bilan aloqa o`rnatishning birgina usuli – u yashayotgan muhitni o`rganish. O`quvchiga sezdirmagan holda uning

ota-onasi bilan suhbatlashish, oilaviy sharoitini o`rganish, shundan keyingina o`quvchi bilan individual suhbat o`tkazish kerak.

Suhbatni o`tkazishda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

Nima? Qayerda? Qachon? kabi savollarini berib ma'lumot olishga harakat qilish lozim. Birinchi suhbatlashganda Nima uchun? tarzidagi savollarni bermaslik kerak. Bola balki bu haqida o`ylab ham ko`rmagandir va bu tariqa savol uni o`zini noqulay his qilishiga olib kelishi mumkin. Balki javobni bilar va u o`zida ichki qarshiliklarni his etib, bu haqida gapirishni istamas. Bola o`zi hohlamagan ma'lumotlarni berishi, hamda bunday savol uni keyingi uchrashuvga kelishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin. Birinchi suhbatda bola bera olishi mumkin bo`lgan ma'lumotlarnigina so`rang - uning his-tuyg`ulari va nafsoniyati bilan ehtiyotkorona munosabatda bo`lish lozim.

Individual suhbat o`z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

*1. Aloqa o`rnatish.* Aloqa o`rnatish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilinishi zarur: Faol tinglash, pozitsiya, pozani suhbatdoshga nisbatan moslashtirish, samimiylik, suhbatdoshga, uning noverbal reaksiyalariga yo`naltirilgan diqqatlilik, suhbatga yo`naltirilgan e'tibor.

*2. Tinglash* – bolaga shunchaki o`z e'tiborini qaratish emas, balki o`zini haqiqatan ham uni tinglab, to`g`ri tushunayotganligingizga ishonch hosil qilishi uchun harakat qilish lozim.

Tinglayotgan bolaning ro`parasiga o`tirish. Bolani haqiqatan ham to`liq tinglash uchun, uni albatta ko`rib turish kerak. Bundan tashqari, u ham bizni ko`rib turishi lozim. Shuning uchun hamsuhbatni tinglab turib, uning yonida emas, balki ro`parasida o`tirish maqsadga muvofiqdir.

Ochiq bo`lish. Chalishtirib turilgan oyoq va qo`llar o`z o`rnida himoyalanuvchi pozitsiyadan dalolatdir. Yaxshisi, qulayroq o`tirib olib, qo`l va oyoqlarni chalishtirmay, o`zii erkin tutib o`tirgan ma'qul.

Tinglayotgan bola tomoniga biroz og`ib o`tirgan ma'qul. Bunday harakat, odatda, suhbatdoshda bizning unga, uning muammolariga nisbatan chin dildan munosabatda bo`layotganimizdan hamda bu masalaga nisbatan qiziqishimiz darajasidan dalolat beradi.

*3. Oila haqida suhbat*. Oila haqida suhbatlashayotganda bola o`z oilasi deb bilgan yoki bir uyda yashovchi insonlar haqidagi gapirib bergan kerakli ma'lumotlarni yozib olishdan boshlash mumkin. So`ng oila a'zolari o`rtasidagi o`zaro munosabatlarga shoshmasdan ohista o`tilsa maqsadga muvofiq bo`ladi: kim uni qo`llab-quvvatlaydi, kim esa teskarisi, ko`mak bermasdan ruhini tushirib yuboradi.

*3. Munosabatlar haqida suhbat.* O`smir bilan muloqot o`rnatishda bunday so`zlashuv juda muhimdir. Ushbu suhbatda o`smirning harakteri, o`zaro munosabatlari, liderlik fazilatlarining mavjudligi, tajovvuzkorlik qay darajadaligi, spirtli ichimliklarga va chekishga bo`lgan munosabati, vaqtini o`tkazish uslubi, norasmiy guruhlardagi me'yorlar va unga bo`lgan munosabatlari haqida bilib olish mumkin.

*4. Maktab haqida suhbat.* O`smir bilan maktab haqida suhbatlashish juda muhimdir. Maktabdagi ta'limi haqida savollar berish mumkin: agar maktabni o`zgartirgan bo`lsa qachon va nima sababdan, barcha fanlar bo`yicha o`zlashtirishi qay

darajada, maktabdan so`ng qayerda o`qimoqchi, qaysi fanlar yoqadi,shular haqida so’rashi mumkin.

*5. Qiziqishlari xaqida suxbat.* Suhbatning aynan ushbu bosqichida, ayniqsa o`smirlar bilan aloqa o`rnatish osonroq bo`ladi. Hayotda unga haqiqatdan ham o`z tanlovi bo`yicha sodir bo`layotgan qiziqarli narsalar haqida gapiradi. U o`zida hamohang bo`lmaganlikni topishga va u haqida ozgina gapirib berishga qodir bo`ladi.

*6. Huquqbuzarlik haqida suhbat.* Ushbu mavzu bo`yicha suhbatni oxirgi bosqichda bundan oldingi mavzulardan so`ng olib borgan yaxshi. Birinchidan, o`smir tashqaridan o`zini qanchalik hotirjam ko`rsatmasin vaziyat u uchun yetarlicha jarohatli bo`lishi mumkin. Ikkinchidan, bizni unga munosabatimiz emas, o`z qilmishiga bo`lgan shaxsiy fikri, munosabati qiziqtiradi. Uchinchidan, odatda ushbu bosqichda aloqa deyarli o`rnatilgan bo`ladi. Suhbatdoshingizni mana shularga ishontirib, unga yordam bera olishingizga ishontirsangizgina u o`zining muammolarini siz bilan o`rtoqlashadi va maslahatlaringizga amal qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
2. L.Beknazarova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
3. E.G’.G’oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.

## BOLALAR TARBIYASIDA OILA VA OILADA BOLALARNI TO’G’RI TARBIYALASHNING ASOSIY SHARTLARI

*Yo’ldoshev Tojiddin Abdukarimovich*
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim kafedrasi o’qituvchisi*

Inson bolasi uchun oila asosiy go’sha, hayotga tayyor bo’lib chiqadigan qutlug’ va mo’tabar dargoh. Uning xosiyat – u fazilatlarini, odam jismonan va ruhan quvvat –u tarbiya olishini oila bilan bog’lasak, turmush kechirishdagi hissasi g’oyat ulug’ ekanini his etamiz. Bizda oila – jamiyatning bir bo’lagi, binobarin, u qancha mustahkam va har tomonlama barkamol bo’lar ekan, demak, jamiyat ham shuncha tez rivojlanadi.

“Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini,avlodlar davomiyligini ta`minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo`lib yetishishiga bevosita ta`sir ko`rsatadigan tarbiya o`chog`i ekanligini tan olmog`imiz darkor” – deb ta`kidlagan edilar Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 1997-yil “Oila faravonligi – millat faravonligi”nomli ma`ruzalarida[17].

Inson bolasining ruhiyatida shunday bir xislat borki, u oilada olganlarini bir umr unutmaydi va har qachon o’shanga taqlid qilib yashaydi. Shuning uchun xalqda “Qush uyasida ko’rganini qiladi” degan maqol bor. Shunday ekan, bolaga juda katta e’tibor kerak.

[17] I.Karimov ”Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”. Toshkent. 2008.

Ma’lumki, millatimiz bolajon bo’lib, ko’p bolalik har bir o’zbek oilasining alohida belgisidir. Bizda ko’p bolali oilalar soni boshqa mintaqalardagiga nisbatan ancha ziyod, jami oilalarning o’n ikki foizdan ko’prog’i besh va undan ortiq bolilidir. Qishloq joylarida esa bu yigirma foizni tashkil etadi. Bizning mamlakatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o’zaro hurmat va tartib bo’lmasa, oilaning barcha a’zolari o’z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko’rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o’zining ko’p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo’ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab – ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O’zbekiston Respublikasining asosiy Qonunida davlatning oilaga munosabatini aniq va lo’nda ifodasini topgan. Xususan, Asosiy Qonunning 63-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasidan bo’lish huquqiga ega”, degan qoida bor[18]. Binobarin, oila to’g’risida g’amxo’rlik insonparvar huquqiy demokratik davlatning muhim xususiyatlaridandir.

Sir emaski, oilaviy hayot inson uchun eng maqbul turmush tarzidir. Buni qadimgi va hozirgi ba’zi holatlar tasdiqlaydi. Qadim sharqda yolg’iz kishini darvesh, g’arib, bechorahol odam hisoblashgan. Buni qarangki, italiyalik mutaxassislarning hisob-kitobicha, har besh nafar yevropalikdan bittasi uyqusizlikdan azob chekar ekan. Sababi – yolg’izlik!

Mana shularni insoniy tuyg’u bilan mushohada qilsak, baxt degan tushunchaning zamini – oiladir. Donolardan biri aytganidek, o’z uyida baxtli bo’lgan odamgina baxtlidir.

Oila farzandning dastlabki tarbiya maktabidir. Shuni nazarda tutgan oilaning ikki sarkori – ota bilan onaning ma’naviy – ruhiy odobi, o’zlarining namunali xulq-atvorlari, yaxshi tarbiya ko’rganliklari, bolalarga tarbiya berishdagi tarbiya va mahoratlari, qunt-sabotlari, sezgirlik va talabchanliklari bolalarni yoshlikdanoq boadab bo’lib o’sishida aks ettiruvchi ko’zgudek o’rin tutadi. Bunda odamlarning: “Siz kimning farzandisiz?” deb so’rashlarida, u inson qanday tarbiya ko’rganligini bilish maqsadi yotadi.

Xalqimizda “Qush uyasida ko’rganini qiladi”, “Bolani yoshdan, niholni boshdan asra”, “Erkalasa onasi, taltayadi bolasi”, “Bola aziz – odobi undan aziz” kabi naqllar borki, ularning mag’izini chaqadigan bo’lsak: farzandlarning qay tariqa tarbiya ko’rib, o’sib, voyaga yetishi, fe’l-atvorining qanday bo’lib shakllanishi, birinchi galda ota-onaning farzandlarini qanday usul bilan tarbiyalashiga, o’zlarini qanday tutishiga, ibrat ko’rsatishiga ijobiy yo salbiy ta’sir etishiga bevosita bog’liqdir, degan ma’no-maqsad kelib chiqadi.

Ota-ona bolaga yoshligidan hayotga yashash nima ekanini, mashaqqat chekmay, bir burda non topib bo’lmasligini, biror kasb-hunar egasi bo’lmasa, hayotda ko’p qiyinchiliklar ko’rishini uqtirmas ekan, bola voyaga yetgan sari yurar yo’lini bilmay qoqiladi, garangsib, nima yumush qilishini bilmay, bekor qoladi, bekorchilikdan esa bemazagarchiliklar kelib chiqadi, xunuk ishlarga qo’l uradi, odobi, tarbiyasi buziladi. Shuning uchun ham ota-ona bolani kichikligidanoq axloq-odobga o’rgatishi, ilm-hunarli qilishi, dastyorchilikda ko’zini pishitib borishi ham qarz, ham farzdir. Har bir oilada bolaga tarbiya berishning o’ziga xos va mos bir qator qonun-qoidalari borki, unga qat’iy

[18] O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, bu qonun-qoidalarni nisbiy ravishda umumiy deyish mumkin, chunki har bir bola – bir olam, ular birining o'ziga xos shaxsiyati, ahamiyati, ruhiyati, va xulq-atvori bor, shu bois shunga qarab muomala qilish darkor. Shuning uchun tarbiyada ota-onaning mas'uliyati, mahorati, ziyrakligi, obro'-e'tibori muhimdir. Ota-ona qat'iy ravishda bola tarbiyasini maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borishi, hamma bolalarini teng ko'rishi, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishi, bolaning yoshi, o'sish va rivojdanish xususiyatlarini hisobga olishi va ayni paytda bola shaxsini hurmat qilishi, unga nisbatan talabchan bo'lishi mumkindirki, bu yo'l-yo'riqlar, qonun-qoidalar oilada tabiiy ravishda, muntazam qo'llanma, juda yaxshi natijalar beradi, albatta. Shuningdek, bolalarda chiroyli xulq-atvor ko'nikmasini, malakalarini tarbiyalashning o'ziga xos ko'pgina usul va vositalari borki, ota-ona kundalik hayotda ularni yaxshi bilishi, bevosita har qaysisidan o'z o'rnida me'yorida, maqsadga, muvofiq foydalanishi g'oyat zarur. Bular jumlasiga: ibrat – namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, yaxshilikka odatlantirish, o'rnikelganda nasihat qilish, qat'iy tanbeh berish, bola bilan vaqtincha gaplashmaslik, ularga nisbatan munosabatni o'zgartirish, ishontirish, jamoatchilikning ta'siri, rag'batlantirish va qoralash kabi vositalar shunday uslublar hisoblanadi. Har bir ota-ona bola tarbiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishiga e'tibor berib, bu kabi nazariy hamda amaliy qonun – qoidalarni o'zgartirib, unga amal qilsa, ayni mudda bo'ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala bo'lib, bu ota-onadan katta odob bilimini, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi. Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyadagi birlikdir. Bunda ota-ona, oiladagi katta-yu kichik, hamma bir yoqadan bosh chiqarishi, harakat qilishi kerak. Hamma narsada: bolalarga muomalada, ularni rag'batlantirish va jazolashda, tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning boshqa vositalarini qo'llashda hammada yakdillik bo'lishi lozim. Odatda, ko'pincha bolaning onasi yoki buvini ruxsat bergan narsani otasi taqiqlab qo'yadi yoki otasi bergan jazoni onasi rad etib buzadi, bolaning bir qilig'ini buvisi maqtasa, shu qilig'i uchun otasi uni koyiydi va hokazo. Bunday telba-teskarilik, avvalo, bola tarbiyasini buzadi. Bunday vaziyatda bola talabchan otasi bilan rahmdil onasi va ko'ngli bo'sh buvisi o'rtasida yo'l topishga odatlanadi. Kattalar orasidagi beparvolik va kelishmovchilikni sezgan bola mug'ambirlik, aldamchilik, tilyog'lamalik, xushomadgo'ylikka o'rganadi.

Bolani aql bilan sevganda, uning qiziqishlariga diqqat-e'tibor berganla, mazkur yoshidagi talab va ehtiyojlarni bilganda, bu harakat ota-onaga ruhan va jismonana barkamol insonni tarbiyalab yetishtirish imkonini beradi. Bunday farzad o'z navbatida ota-onasini mehr bilan sevadi, ular to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Bu ajablanali hol emas. Chunki biz bolalarni qay tarzda yaxshi ko'rsak, ularning ruhiyati, ichki dunyosi, atrof-muhitga munosabati ham shu tarzda tarkib topa boradi.

Ota-ona hamma bolalariga bir xilda munosabatda bo'lishi tarbiyaning muhim shartidir. Bu omil oilada aka-ukalarning ahil, bir-biriga mehribon, oqibatli bo'lishiga olib keladi, bola oldida ota-onaning obro'si, hurmatini oshiradi, o'z tengqurlari va boshqa odamlarga yaxshi munosabatda bo'lishiga, ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishga o'rgatadi.

Bola tarbiyasi g'oyat nozik, bu narsa vaqtni qo'ldan boy bermay, doimo, muntazam shug'ullanishni talab etadi.

Ota-onalar bolalar uchun eng mo'tabar, aziz-u mukarram kishilardirlar, shu bois bolalar ota-onalariga o'xshash uchun doimo havas bilan taqlid qilib yashaydilar. Shu tufayli ota-onalar hamma vaqt, har jihatdan bolalarga ibrat bo'lishlari shart. Oilada bolalar bilan ota-onalarning o'zaro munosabatlari, ularning bir-birlarini hurmatlashlari va bir-birlariga ishonishlariga asosiga quriladi. Odatda, bolalar o'zlarining hamma ishlariga ota-onalarini o'zlariga eng yaqin maslahatchilar deb biladilar. Qiyinchiliklarga duch kelganlarida ham, eng og'ir muammoni hal etishda ham eng birinchi yordamchi ulardir. Bola uchun ehaqiqiy do'st ham, shodliklari va tashvishlarini ham baham ko'ruvchi aziz inson ota-onadir.

Ota-onalar bolaning o'qishi bilan, odob-axloqi bilan qiziqishlari, maktab va o'qituvchining o'quvchiga talablarini, maslahat va topshiriqlarini jiddiy kuzatib borsalar, ayni muddao bo'ladi. Bu esa bolaning yaxshi o'qishi va intizomli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, ya'ni bolaning dars tayyorlashi va yurish-turishi o'z ixtiyoriga tashlab qo'yilsa, u vaqtda bola dars tayyorlamay, kunni bekor o'tkazib, kech qoladi. Shuning uchun bolaning o'z vaqtida dars tayyorlashini nazorat qilish ota-ona, qolaversa har bir oila a'zosining burchidir.

Bolalarning qanaqa tarbiya olishlari u tarbiyalanayotgan muhitga bog'liq. Shunday ekan, yoshlik – beboshlik bo'lishi ham, yoshlik – nodonlikning boshlanishi bo'lishi ham bolalarga berilayotgan tarbiyaga va bolalarning tarbiya topishiga bog'liq. Yangi inson – ona O'zbekistonning chinakam sohibi, chinakam ishbilarmoni, chinakam fuqarosi, bir so'z bilan aytganda, komil inson bo'lishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch". Toshkent. 2008.
2. Mavlonova, K.Xoliqberdiyev, O.To`rayeva. Pedagogika. - T.: O`qituvchi, 2006.
3. A.Munavvarov . Pedagogika. - T.: O`qituvchi, 1996.
4. N.Saydahmedov , S. Abdurahimov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Toshkent, 2010
5. Karimova V. M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T. - 2006.


## MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI


*Tojiddin Yo'ldoshev Abdukarimovich*
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi,*
*Kodirova Muyassar Eshmamat qizi*
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 4-kurs talabasi*


Bilamizki nutq inson uchun tabiat ato etgan eng ajoyib mo'jizadir. Inson nutqi bilangina atrofdagi barcha mavjudotlardan ajalib turadi. Insonlar bilan muloqatga kirishganimizda narsalar haqida tasavvurga ega bo'lamiz va fikr yuritamiz. Nutq bola tug'ilganidan so'ng 6-7 oy o'tib sodda va eng oddiy narsalarning nomi va atrofidagi

kishilarning ijtimoiy mavqeyi orqali shakllana boshlaydi. Bola asta-sekin ushbu so’zlarni o’z nutqida qo’llay boshlaydi. Bu esa bola nutqining to’g’iri shakllanishida asosiy o’rin tutadi. Dastlab bola nutqi shakllanish vaqtida ularda eng ko’p uchraydigan holatlar; so’zlarni to’g’iri talaffuz qila ololmaslik, harflarni tushurib qoldirishi, ba’zi harflarni to’g’iri aytolmasligi kabi holatlar uchraydi. Bola nutqidagi kamchilliklarni bartaraf etish uning atrofidagi kishilar va sog’lom ijtimoiy muhitga bog’liq hisoblanadi. Bolaning nutqini shakllantirayotganimizda adabiy nutq me’yorlariga qat’iy amal qilgan holda o’rgatish maqsadga muvofiq. Rivojlanayotgan yosh organizm ilk go’daklik vaqtidayoq atrofidagi barcha narsalarga qiziquvchan bo’ladi. U dastlab atrofidagi barcha narsa va predmetlarning shakli, rangi,hajmi va xususiyatlari haqida boshlang’ich bilimga ega bo’lish uchun atrofidagi kishilarga savol berish orqali o’z nutqini boyita boradi. Bolani ravon nutqqa o’rgatishda nafaqat atrofidagi kishilar balki ommaviy axborot vositalarining ham o’rni benihoya katta hisoblanadi. Agar bola biror-bir so’zni aytishga qiynalsa, talaffuzida kamchilliklar uchrasa, kattalar u bilan alohida shug’illanib aytishga qiyin bo’lgan so’zni qayta-qayta talaffuz qildirishi lozim. Shunda ham bolaning nutqida kamchillik uchrasa uni maxsus mutaxassislarga, tibbiyot xodimlariga ko’rsatish kerak. Bola nutqining rivojlanish jarayoni o’z vaqtida to’g’iri kechishi uchun maxsus sharoitlar lozim bo’ladi, chunonchi: bola psixik va somatik jihatdan sog’ bo’lishi, normal aqliy qobiliyatga ega bo’lishi, normal eshitishi va ko’rishi kerak, yetarli darajada psixik faollika ega bo’lishi, gaplashishga ehtiyoj sezish va to’g’iri nutq muhiti sharoitida bo’lishi lozim.

Demak, nutqning to’g’iri tarkib topishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to’g’ri muhiti ta’lim-tarbiyaga bog’liq. Lekin, ba’zi sabablar tufayli bola nutqi rivojlanmaydi va orqada qoladi. Bu holatda nutqida nuqson paydo bo’la boshlaydi. Nutq nuqsoni deganda nima tushuniladi? Nutq nuqsoni bu muayyan tilda qabul qilingan adabiy nutq normalari me’yoridan bir oz bo’lsada buzilishdir. Nutq kamchilligi tovush talaffuzi yoki fonetik-fonematik kamchilliklarda (dislaliya, dizartriya, rinolaliya), fonetik va leksik-grammatik komponentlarda (alaliya, afaziya, yozish va o’qishda-disgrafiya, disleksiya), nutq su’rati ohangi buzilishida (tutilish) kuzatiladi.

Nutq kamchilliklari ham fiziologik,ham patologik bo’lishi mumkin. Biroq nutqdagi bu nuqsonlar o’z-o’zidan yo’qolib ketmaydi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar va o’quvchilar nutqiy nuqsonlarini mutaxassis-logoped yordamisiz bartaraf etib bo’lmaydi. Jamiyatimizda nutqi umumiy rivojlanmagan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim –tarbiya berish va tibbiy yordam ko’rsatish ishlari hozirgi kunning dolzarb muommolaridan biri bo’lib qolmoqda. Bu asnoda katta o’zgarishlar qilinmoqda. Nutqiy nuqsoni bo’lgan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning ta’lim-tarbiyasi jamiyatimizda maxsus ta’lim tarbiyasi jamiyatimizda maxsus ta’lmning ajralmas qismi sifatida amalga oshiriladi. Nutqiy kamchilligi bo’lgan bolalar uchun bolalar bog’chasi, bolalar uyi, shuningdek, ommaviy maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar muassasalarida maxsus bo’limlar mavjud bo’lib, ularning har qaysisida ta’lim-tarbiya ishlari va amaliy mashg’ulotlar o’zbek tilida olib boriladi. Bunday nuqsonga ega bo’lgan bolalarni payqash va sinchikovlik bilan o’rganishni hamda ularni tibbiy va pedogogik komissiyalarga yuborish ishlarini bolalar poliklinikalaridagi logopedlar, psixonevrologlar, bolalar shifokorlari amalga oshiradilar.

Nutqiy nuqsoni bo'lgan bolalarga turli sabablarga ko'ra bu kamchillikka (masalan, psixik rivojlanishi jihatidan orqada qolishi, ko'rish yoki eshitish qobiliyatini yo'qotishi) natijasida duchor bo'lgan bolalardan ajratgan holda ta'lim-tarbiya berish zarur. Boshqa sabablar natijasida ham nutqiy nuqson yuzaga kelishi mumkin, ammo ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Eshitish, ko'rish a'zolariga shikast yetgan va fikrlash qobiliyati zaiflashgan bolalar maktabgacha yoshda bo'lgan maxsus nutq o'stirish muassasalariga qabul qilinmaydilar.

Bulardan tashqari ,nutqiy nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ulardagi nuqson qay darajada ekanligi ham albatta hisobga olinadi.

Hozirda jamiyatimizda nutqiy nuqsoni bo'lgan bolalarni avval psixologik-pedogogik jihatdan tasniflanadi va ularni guruhlarga bo'lib o'qitiladi. Bola nutqining rivojlanishi jarayonida ko'rish, eshitish va boshqa analizatorlar o'rtasida shartli aloqalar tizimi yuzaga keladi va takrorlanib turuvchi aloqalar bilan doimo rivojlanib, mustahkamlanib boradi. Yuqoridagi keltirilgan sabablar orqali bolada nutq nuqsoni kuzatilishi mumkin. Ushbu nuqsonlarni oldindan sezish va uni bartaraf etish yo'llarini tezda izlab topish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki bola shaxsining har tomonlama rivojida nutq benuqsonligining ahamiyati katta. Shuning uchun nutq kishilararo aloqa quroli va barcha sohalarda qudratli muomala vositasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishi, o'z fikrini mustaqil ravishda ravon, chiroyli bayon etishi, shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois bolaning maktabgacha davrida nutqni me'yorida rivojlanishiga ahamiyat berish alohida o'rin tutadi.

Ma'lumki nutq – bu so'zlashuv bu o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham diologik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi. Nutqida nuqsoni bor bola esa ko'pgina hollarda shu nuqsonini yashirishi natijasida muloqatga kirishishni istamaydi, kirishsa ham tor doiradagi insonlar (oila a'zolari va bog'cha opasi va bir necha yaqin do'stlari) bilan muloqatga kirishadi. Shu sabab ularning so'zlar zaxirasi kam, davragirlik xislatlari sust bo'ladi. Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun esa nuqsoni bor bo'lgan bola bilan uning ota-onasi va tarbiyachi individual shug'illanishi talab etiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga nutqi to'g'iri rivojlanishi uchun ertak kitoblari,rasmli kitoblar va she'rni ko'p yodlatish ham ancha yordam beradi.

Bugungi kunda rivojlanayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish va ularni yetuk shaxs qilib shakllanishi uchun juda ko'p ishlar va islohatlar amalga oshirilmoqda. Nutqida nuqsoni bor bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil qilinmoqda va ular bilan shug'illanuchi maxsus logoped mutaxassislar tayyorlanmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. "Tanqidiy tahlil, qa'tiy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Sh. Mirziyoyev. 2017-yil 31-yanvar T:-2017.

2. "Nutq o'tirish uslubiyati". - T: O'qituvchi, 2008.

3. F.R. Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi.T-Istiqlol, 2006.

4. D.R.Babayeva “Nutq o’tirish nazariyasi va metodikasi”. O’quv qo’llanma. TDPU, 2016.

# O‘SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR GURUHLARI

*Shaymardanova Nargiz Maxmanazarovna*
*Denov tadbirkorlik va pedagogika istituti “Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim” kafedrasi Pedagogika va psixologiya fani o`qituvchisi*

Komil inson deganda biz: "ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan, bilimli, hozirgi davrda o‘smirlarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, mexanizmlari mavjud. Shuni alohida takidlash kerakki, o‘smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatlarda anglashilmovchilikni bartaraf qiladi, iliq psixologik iqlimni yaratadi. Hozirgi kunda o‘smirlar taqdiri masalasi goyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘smirlik davri taqlidchanligi, muhim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliligi, mardligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta’sirlarga beriluvchan o‘smir o‘g‘il-qizlarga alohida e’tibor berish zarur. O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko‘chish jarayoni sodir bo‘ladi. O‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, talaba bilan o‘qituvchining muloqatida, kattalar bilan o‘smirlarning muomalasida hayotiy o‘zgarishlar vujudga keladi.Bu o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tugiladi. Bular avvalo ta’lim jarayonida ro‘y beradi: yangi axborot ma’lumotlarini bayon qilish shakli, uslubi va usullari o‘smirni qoniqtirmay qo‘yadi. O‘smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning qaygurishi, koyishiga qaramay, o‘zining fikrini o‘tkazishga harakat qiladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatining ajralmas qismiga aylanadi. Ayrim pedagoglar kuyinib gapiradilar, ba’zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar, lekin mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqa olmaydilar. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotni ta’minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o‘smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo‘qotish mumkin. [1. 184-b]

Bu davr insonning kamolini yuqoriroq bosqichga ko‘tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o‘smirdan umumlashtirish, hukm va xulosalar chiqarish, mavhumlashtirish, ob’yektlar o‘rtasidagi ichki munosabatlarni o‘rnatish, muhim qonuniyat, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi, o‘zini-oozi nazorat qilish, baholash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi. Maktabdagi faoliyatda keng imkoniyatlar bo‘lsa, o‘quvchi muayyan vazifa va topshiriqlarni bajara

boshlaydi. Natijada o‘smirning ijtimoiy mavqeyi ortib, faoliyati takomillashib, psixikasi har tomonlama rivojlanib boradi. O‘smirlarda uchraydigan salbiy xulq-atvor ikki guruhga bo‘lib o‘rganiladi:

Xulq-atvor mativlarining noto‘g‘ri rivojlanishi yoki kuchli affektli his-tuyg‘ular ya’ni turli tartib intizomsizliklar, atrofdagi insonlar bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish natijasida turli konfliktlarning vujudga kelishi, turli tasodifiy guruhlarga kirish, jamoada o‘zini ko‘rsatishga intilish. [2. 132-b]

O‘quvchi o‘smirlarning maktabdagi tartib qoidalarni tushunib yetmaslik yoki o‘zlarining xulq-atvorini boshqara olmaslik, agressivlik ya’ni jismoniy kuch ishlatish, qo‘rqitish, serzardalik. Bu ikki faktor asosida vujudga keladi. Birinchidan temperament xususiyati, ikkinchidan o‘qituvchi va tengdoshlari bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish.Tarbiyasi qiyin o‘smirlar shakllanishining yana bir asosiy omili bu o‘smirlarning shaxsiy psixologik xususiyatlaridir:

**Sangvinik** temperamentdagi o‘smirlarda his-tuygular tashqi ko‘rinishda yorqin ifodalangan bo‘ladi: Ma’noli mimika, aniq imo ishora, tez harakat qilish, tez gapirish, beqarorlik, harakatchanlik, chaqqonlik. Sangvinik., o‘smirlarning kayfiyati tez o‘zgaradi. Bu tipdagi o‘smirlar boshqalar bilan tez topishib ketadi. Ularda o‘quv ishlarida, mehnatda va jamoat ishlarida faollikni tarbiyalash lozim. Ularni boshqa ishlarga berilib ketmasligi uchun doimo nazorat qilish va kuchi yetadigan ish bilan band qilish kerak.

**Flegmatik** temperamentdagi o‘smir og‘ir, vazmin, harakatlari salmoqli bo‘ladi. Ular boshlagan ishini oxiriga yetkazadi. Flegmatik tipdagi o‘smirlarda barcha psixik jarayonlar sust rivojlangan bo‘ladi. Ularning jahlini chiqarish yoki ranjitish qiyin, ba’zi hollarda bu temperamentli o‘smirlarda mehnatga, tevarak atrofga, hayotga kishilarga va o‘ziga nisbatan beparvo munosabat hollari uchraydi. Shuning uchun ulardagi sovuqqonlik, beparvolik, bo‘shanglik, faoliyatsizlikning nomoyon bo‘lishga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

**Xolerik** temperamentdagi o‘smirlar chaqqon, harakatchan, qo‘zgaluvchan bo‘ladilar. Ularda barcha jarayonlar tez sodir bo‘ladi. Bu tipdagi o‘smirlar hissiyotlari kuchli, yorqin ifodalanib tez paydo bo‘ladi, ba’zan kayfiyati keskin o‘zgaradi. Xolerik tipdagi o‘smir boshqalar bilan munosabatda qat’iylik, serjahllik va o‘zini tuta olmaslikka yo‘l qo‘yadi. Natijada kishilar xatti-harakatini ob’yektiv baholay olmaydi va ziddiyatli vaziyatlar tudiradi. Haddan ortiq dangallik, serjahllik, ko‘ngilga qattiq tegadigan so‘zlar ishlatishi tufayli bunday o‘smirlarni jamoada yoqtirmaydilar. Xolerik tipdagi o‘smirlardan doimo muloyimlik bilan, ammo qat’iyatli, shoshilmay, o‘ylab javob qaytarishlarini talab qilish, ular xatti-harakatlarida o‘rtoqlari va kattalar bilan bo‘lgan munosabatlarida o‘zini tutishlikni tarbiyalab borish lozim. Bunday o‘smirlardan mehnat faoliyatida izchillikni va ishda tartibli bo‘lishni tarbiyalash hamma topshiriqlarni ish mobaynida yaxshi bajarishlarini talab qilish lozim.

**Melanxolik** temperamentdagi o‘smirlarda psixik jarayonlarning sust o‘tishi qayd qilinadi. Ular kuchli qo‘zovchilarga qiyinchilik bilan javob qaytaradilar, diqqatlarini bir narsaga uzoq vaqt va kuchli jalb eta olmaydilar. Bunday tipdagilar ishga passiv, kam qiziquvchan bo‘ladilar, ularda hissiyot va hayajonli holatlar keskin paydo bo‘ladi va chuqur, davomli bo‘ladi. Ularni ranjitish oson, xafagarchilikka bardosh bera olmaydilar.

Melanxolik tipdagi o‘smirlar odamlar bilan aralashmaslikka va yolgizlikka moyil bo‘ladilar lekin odatlangan sharoitda o‘zlarini erkin his qiladilar va unumli ishlaydilar. Shuning uchun bunday o‘smirlarda odamga el bo‘lishlikni o‘stirish, jamoada do‘stlik va o‘rtoqlik hislarini tarbiyalash zarur, chunki ular osonlikcha yakkalanib, o‘z kechinmalariga berilib ketishi yoki jamoadan chetga chiqib, salbiy ta’sirlarga tushib qolishi mumkin. Xulq atvori oir o‘smirlar shaxsining shakllanishiga ko‘pchilik hollarda oilaviy shart sharoitlar, ota-onaning yoki qarindoshlarning ichkilikbozligi, ularning axloqqa zid xulq atvorlari salbiy ta’sir o‘tkazadi. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar uchun odatda o‘qishga nisbatan zid munosabat xos bo‘lib, oxir oqibatda bu uni sinfiga, maktabga, bilim yurti jamoasiga qarama-qarshi qilib qo‘yadi. Aksariyat hollarda xuquqbuzarlar, o‘smirlar, ichki salbiy munosabatlar natijasida maktabda o‘z o‘rnini topa olmagan o‘quvchilar bo‘lib chiqadi. [3. 146-b]

Maktab, (o‘rta-maxsus va kasb-xunar ta’limi tizimi) va ishlab chiqarishdagi ta’lim tarbiya nuqsonlari, ko‘cha, maxalla salbiy xulq atvorini "qaxramon" tarzida talqin qiluvchi ko‘chadagi guruhbozlik ta’sir etadi. O‘smirlik yoshida katta yoshdagilar, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan kelishmovchilik ro‘yobga chiqadiki, bu faqat tabiiy o‘sish jarayonidagi o‘zgarishlar bilan nomaqbul oilaviy shart-sharoitlar tarbiyasi og‘ir o‘smir shaxsining shakllanishida eng asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Ota-onalarimizning janjal to‘polonlari, o‘smirlarning jismoniy jazolanib turilishi tabiyaviy ravishda tormozlashuv me’yorlarining buzilishiga, qiziqqonlik yoki qo‘zg‘aluvchanlik, o‘zini qo‘lga ola bilmaslik kabi illatlarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Ayrim oilalarda bolalarga yaratilgan mazaxo‘raklik sharoiti, ularning faoliyatdan rivojlanmaydi. Nomaqbul tashqi shart-sharoitlar hamda o‘smir psixikasidagi muayyan muammolar va notanish idrok natijasida uning tarbiyasi og‘irlashadi. Nomaqbul shart-sharoitlarga ota-onalarning axloqqa zid xulq-atvori, oila, maktab tarbiyasidagi xatolarni kiritish mumkin. Biroq yomon ota-onaning bolasi albatta yomon bo‘ladi deb hisoblash xatodir. O‘smir nomaqbul tashqi ta’sirlarni o‘zi istaganicha rang barang tarzda idrok etadi va o‘zlashtiradi. U salbiy ta’sirlarni qabul qilmasligi, rad etishi, ularga qarshi kurashishi mumkin. Odatda dastlabki tergovda voyaga yetmagan xuquqbuzarning shaxsi quyidagi reja bo‘yicha o‘rganiladi:

1. Nasliy biologik omillar: ota-onalardan birining asab va psixik kasalliklarga moyilligi, xomiladorlik qilishning salbiy ta’siri va hokazolar.

2. O‘smirning eng yaqin ijtimoiy iqtisodiy mavqelari, oiladagi o‘zaro munosatlar, ular tanlagan qadriyatlar, o‘smirlarning tarbiyalanish xususiyatlari, maktabga, o‘qishga munosabat, o‘smirning sinfdagi tutgan o‘rni, sinfdoshlarining ma’naviy yo‘nalganligi, do‘stlar, ularning ijtimoiy mavqei, do‘stlar guruhida o‘smirning mavqei.

3. O‘smirning shaxsiy ta’rif tasnifi: xarakteri va temperamentining xususiyatlari, qadriyat motivatsiya majmui, o‘smirning qanday qadriyatlarga yo‘nalganligi, da’volarining darajasi, o‘z-o‘zini baholashi va o‘z-o‘zini baholashdagi murosasizlik ehtimollari, kasbkorga munosabati, xuquqiy ongi.

4. Voyaga yetmagan gumondor yoki ayblanuvchining turmushi va tarbiyaviy sharoitlarini bilib olish uchun boshqa sohalarning: oilasi, ish yoki o‘qish joyini ham o‘rganish lozim. O‘smir jinoyat sodir etgunga qadar darslarga qatnaganligi, maktabda nimalarga qiziqqan, jamoatchilik topshiriqlariga qanday yondashardi, boshqa

maktabdoshlari bilan muomalasi qanday edi, odamlarga kirishuvchan yoki ichimdagini top, rostgoʻy yoki saxiy, jamoa fikrini inobatga oladimi, oʻqituvchilari va ota-onalarga bevosita munosabati qanday bularning hammasini surushtirib bilish talab qilinadi.Agar oʻsmir ishlaydigan boʻlsa, qachondan beri va qanday ishni bajarishini, ishga qanday munosabatda boʻlishini, ish xaqqi miqdorini, turar joyi sharoitlarni, qiziqishini, mehnat intizomini koʻrilgan jazo choralariga qanday munosabatda boʻlganini va hokazolarni atroflicha oʻrganish zarur. Soʻroqning muvaffaqiyatli natijasi soʻroq oʻqilinadigan joyni, shart-sharoitlarini tanlashga koʻp jihatdan uni qoʻrqitadigan shart - sharoitlarga yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Voyaga yetmagan oʻsmirning yoshiga xos xususiyatlarini e’tiboriga olmay oʻtkaziladigan yuzlashtirish koʻzda tutilganiga nisbatan teskari natija berishi mumkin. Psixologiya fani faqat nazariyagina emas, amaliyotni ham qamrab oluvchi koʻp tarmoqli belgilar majmuidan iborat boʻlib, turli tuman fanlar uyunlashtirilgan holda tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi. Ana shunday tadqiqotlarning xulosalari psixologiyaning umumnazariy va metodologik konsepsiyalarini qayta mushohada etish imkonini yaratadi. [4. 178-b]

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**


1. Petrovskiy A.B. tahriri ostida: "Psixologiya". Toshkent, "Oʻqituvchi", 1979
2. Platonov K.K. "Qiziqarli psixologiya". Toshkent, "Oʻqituvchi", 1971.
3. Safoyev N., Gaffarov B. "Muomala sirlari". Toshkent, "Navroʻz", 1992
4. Xoxlova L.P. "Talabalar uchun psixologiyadan topshiriqlar". Toshkent, Oʻqituvchi", 1977.


## KASBIY YO`NALTIRUV

*Dildora Rahimova*
*Uchtepa tumani 81-maktab psixologi*

Shaxsning kasbiy rivojlanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, ular orasida kasb tanlash jarayoni muhim o'rin tutadi. Bu insonning hayot yo'lining bir qismi, uning keyingi kasbiy taqdirini belgilaydigan bir qator qarorlarni qabul qilish jarayoni. Kasb tanlash jarayoni har doim shaxs hayotidagi hal qiluvchi daqiqadir va bu qandaydir psixologik yordamni talab qiladi. Kasbiy yo'l-yo'riqlar tizimi bunday ko'makni ta'minlashga mo'ljallangan.

Kasb-hunarga yo'naltirish deganda insonni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashga, uning qiziqishlari, moyilligi va qobiliyatlariga muvofiq ravishda va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasb tanlashda yordam beradigan chora-tadbirlarning ilmiy asoslangan tizimi tushuniladi.

Kasbga yo'naltirishning asosiy vazifalari shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi: istiqbolli va tezkor.

Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadlari:

- shaxs va kasb o'rtasida maqbul yozishmalarni o'rnatish;
- ish dunyosidagi harakatlarni tartibga solish va tartibga solish.

Ushbu maqsadlarga erishish kasbiy faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirishga, odamning o'z ishidan mamnun bo'lishiga va kasbni egallashda shaxsning energiya resurslarini kamayishiga yordam beradi.

Kasb-hunarga yo'naltirishning aniq yaqin maqsadlari jonli mehnatdan oqilona foydalanish, ishchilar sifatini oshirishda ifodalanadi; tibbiy qarshi ko'rsatmalarni aniqlash va kasbiy rejalarini tuzatish orqali yoshlarning sog'lig'ini saqlashda; kelajakdagi kasbiy sohaga eng mos keladigan shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish.

Kasbiy yo'naltirish shakllari

Ilmiy asoslangan chora-tadbirlar tizimi sifatida kasbga yo'naltirish o'z mazmuni va maqsadlari bo'yicha o'ziga xos bir qator shakllarni o'z ichiga oladi.

Kasb-hunar ta'limi talabalarning kasblar dunyosi, kasbiy tanlov qilish usullari va shartlari haqidagi bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Kasbiy ta'limning ikki shakli mavjud: kasbiy ma'lumot va kasbiy targ'ibot.

Professional ma'lumot bu yoshlarga asosiy kasblar va mutaxassisliklar haqida ma'lumot. Maktab o'quvchilariga mehnatning mazmuni, moddiy va ijtimoiy muhit sharoitlari, moddiy rag'batlantirish tizimi, mehnat va dam olish tartibi, ushbu kasbni rivojlantirish istiqbollari, o'qitish shakllari va muddatlari, rasmiy va malakaviy o'sish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etiladi. Ushbu kasb inson salomatligi holatiga, uning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga, shaxsiy xususiyatlariga va umumiy ta'lim va maxsus tayyorgarlik darajasiga qo'yadigan asosiy talablarni yoritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kasbiy axborot faoliyati nafaqat passiv tanishish, balki faol ta'lim funktsiyasini ham bajaradi. Shuning uchun, ba'zi hollarda, nafaqat kasblar haqida ma'lumot almashish, balki ularning ayrimlarini targ'ib qilish ham muhim o'rin egallaydi.

Professional targ'ibot ishlab chiqarish hajmining ko'payishi yoki rekonstruksiya qilinishi sababli kadrlar etishmasligi yoki ularning tayyorgarligini kengayishi kutilayotgan kasblar bilan shug'ullanadi. Professional targ'ibot, agar to'g'ri shakllantirilgan bo'lsa, o'z vaqtida kasbni tanlash muammolariga faol munosabatni shakllantirishga, yoshlarning o'z tanlovini qilish istagini faollashtirishga yordam beradi.

Davlat va xususiy korxonalar, universitetlarning ish jarayonida turli xil bosma materiallarni nashr etish, ochiq eshiklar kunlarini tashkil qilish, ommaviy axborot vositalarida turli kasb vakillari chiqishlari, televizion filmlar va reklama roliklarini yaratish va namoyish etish kabi kasbiy ta'lim shakllari eng keng tarqalgan. Jamiyat hayotining keng kompyuterlashtirilishi Internet-resurslarni ushbu ish bilan bog'lashga imkon berdi.

Shu bilan birga, ta'lim ishlarining samaradorligi axborotni taqdim etish sifati va shakliga bog'liq. Ushbu turdagi ishlarda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun professional ma'lumotlarga qo'yiladigan bir qator talablarga rioya qilish kerak. Ma'lumot:

• keng qamrovli. Kasb haqidagi bilimlarning sarhisobida kasbiy hayotning barcha jabhalariga e'tibor berish kerak, alohida e'tibor - ushbu professional sohada o'sish istiqbollariga;

•ishonchli. Kasblar haqida ma'lumot ishonchli manbalardan olinishi kerak, ular bosma nashrlar, mutaxassislardan olingan ma'lumotlar, faoliyatni psixologik tahlil qilish ma'lumotlari va hk.;

• ob'ektiv. Kasbning barcha afzalliklari va qiyinchiliklari bilan haqiqiy rasmini berish kerak. Kasb-hunarga mavjud bo'lmagan xizmatlarni ta'kidlab, ayrim partiyalarning haddan tashqari reklamasi qabul qilinishi mumkin emas.

Kasbiy ma'lumotni tashkil qilishda, kasbning jozibadorligini har xil odamlar turlicha qabul qilishini hisobga olish kerak. Bundan tashqari, kasbning nisbatan barqaror bo'lgan va o'ziga xos ish joyiga qarab jiddiy o'zgarishlarga duch kelmaydigan xususiyatlari mavjud. Bu asosan kasbning mazmuni, uning ijtimoiy-iqtisodiy tomoni, insonning kasbiy muhim fazilatlariga qo'yiladigan talablardir. Moddiy muhit sharoitlari, rag'batlantirish tizimi, har bir aniq tashkilotdagi munosabatlarning xususiyatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ishga kelgan yoshlar orasida ma'lum bir ish joyiga ega bo'lgan kasb haqidagi g'oyalarni aniqlash mavjud. Hodimning har qanday o'ziga xos xususiyatiga bo'lgan salbiy munosabati (menejment bilan munosabatlar) butun kasbga salbiy munosabatni umuman olganda o'tishiga olib kelishi mumkin.

Kasbiy konsultatsiya insonga kasbiy faoliyat sohasini tanlashda yordam berish uchun uni psixologik tekshirish tadbirlari tizimini o'z ichiga oladi. Kasbiy maslahatlashuvning asosiy maqsadi insonning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini, uning har xil sharoitdagi xulq-atvorining xususiyatlarini o'rganishdir. Professional konsultatsiya bir qator funktsiyalarni bajaradi, ular bir tomondan uning asosiy maqsadini aks ettiradi, boshqa tomondan uning faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi.

Kasbiy maslahatning uchta asosiy vazifasi mavjud:

• o'quvchiga kasbning o'ziga xos xususiyatlari, ularning kasbiy rejalarini amalga oshirish usullari va usullari to'g'risida ma'lumot berishni o'z ichiga olgan axborot;

• diagnostika - sog'liqni saqlash holatini va insonning psixologik xususiyatlarini rivojlanish darajasini kasb talablariga muvofiq ravishda tekshirish;

• tuzatuv, bu tegishli kasbiy faoliyat sohasi va undagi aniq kasblar bo'yicha optik mutaxassisni (kasbni tanlagan kishini) tavsiya etish, shuningdek, kasb talablari va shaxsiyat xususiyatlari o'rtasida nomuvofiqlik bo'lgan taqdirda professional rejalarni tuzatishdan iborat.

Biror kishi bilan professional maslahatchining o'ziga xos ishi individual ravishda amalga oshiriladi va bir qator majburiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ bosqich optik bilan aloqa o'rnatishni, maslahat berish jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning samaradorligi, bir tomondan, maslahat berishga kelgan maktab o'quvchilarining munosabatiga, boshqa tomondan, kommunikativ mahoratga va maslahatchining psixologik taktik darajasiga bog'liq.

Kasbiy konsalting ishining psixodiagnostik bosqichi - bu sub'ektning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini ifodalash darajasini o'rganishga asosiy e'tibor beriladigan bosqich. O'quv predmetlari:

• qiziqishning xususiyatlari, qiymat yo'nalishlari va optant sifatida kasb tanlashning boshqa motivlari, ularning mazmuni, chuqurligi va barqarorligi berilgan shaxsning motivatsion sohasi;
• sub'ektning qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari. Asosiy aqliy jarayonlar (xotira, diqqat, fikrlash) xususiyatlarining namoyon bo'lish darajasi, psixomotor fazilatlar, shaxsiy xususiyatlar o'rnatiladi;
• shaxsiyatning tayyorligi. Ilm-fan va amaliyotning aniq yo'nalishlari bo'yicha bilim, qobiliyat va ko'nikmalar baholanadi. Faqatgina bilimlarni ko'paytirishga emas, balki uni muayyan muammolarni hal qilishda qo'llash qobiliyatiga ham alohida e'tibor beriladi;
• o'zini o'zi qadrlash va kasbiy rejalarni shakllantirish xususiyatlari. Bunday holda, o'z-o'zini hurmat qilish haqiqati, hayotiy rejalarning mazmuni va asosliligi, ularni qurishda mustaqillik darajasi aniqlanadi.

Tuzatish bosqichi uning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq professional sohani topish nuqtai nazaridan optant bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning asosiy nuqtasi - bu faoliyat printsipiga rioya qilishdir, unga ko'ra kasb tanlash bo'yicha qarorni optikning o'zi qabul qilishi kerak va maslahatchining vazifasi uni bunga olib borishdir. Ushbu bosqichda kasb talablarini shaxsiy xususiyatlar va optantning kasblar dunyosidagi yo'nalishi bilan yanada samarali ravishda bog'lash uchun kasb tasniflari keng qo'llaniladi.

Kasblarni tasniflash quyidagi sabablarga ko'ra kasbiy maslahat va kasbga yo'naltirish ishlarida muhim bosqich hisoblanadi:
• kasblar dunyosi haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirishga va unda yo'naltirishning asosiy usullarini belgilashga imkon beradi;
• yangi kasblar va mutaxassisliklarni barpo etish uchun zamin yaratadigan ularning rivojlanish tarixi va asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi;
• amaliyotchiga professional maslahat narxini sezilarli darajada minimallashtirishga imkon beradi. Masalan, optikning istaklari yoki imkoniyatlari bilan u tanlagan kasb o'rtasida nomuvofiqlik bo'lgan taqdirda, psixolog boshqa psixodiagnostik tekshiruv o'tkazmasdan unga tegishli kasbni tavsiya qilishi mumkin.

## TARBIYASI QIYIN BOLALAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI

*Umarova Saodat Abdurahimovna*
*Toshkent shaxar Shayxontohur tumani 276-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda jismonan va intellektual sog'lom, barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni qabul qilinib, hayotga faol tadbiq etilmoqda.

Xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtiodiyot fan, texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish bugunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Ma'lumki inson ijtimoiy munosabatlar qurshovida yashaydi. Ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarning shaxsga ta'siri masalasi ijobiy yoki salbiy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Individga ijtimoiy jarayonlarning ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi birinchidan, shaxsning induvidual-psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan ijtimoiy muhit voqea-hodisalari, xususiyatlari va shart-sharoitlari mazmuniga ko'ra namoyon bo'ladi.

Mustaqil O'zbekistonning aqlan barkamol, ma'nan sog'lom yoshlarini, bo'lajak vatanparvarlarni tarbiyalash pedagog, psixolog hamda tarbiyachilar zimmasiga tushadi. O'quvchilardagi psixologik xususiyatlar, rivojlanishida o'ziga xos tomonlar, ular o'rtasida salbiy odatlarni oldini olish va boshqa masalalar doirasida umumta'lim maktablari amaliyotchi psixologlar, pedagoglari tomonidan qator tadbirlar, ya'ni psixotrening va psixokorrektsion ishlar olib boriladi. Maktablarda bolalarga nisbatan ba'zan tarbiyasi qiyin bola jumlasi ishlatiladi.

Asosan tarbiyasi qiyin bolalar deganda ko'p holatlarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash nazoratchilar ro'yhatida hisobga olingan, giyohvandlik va spirtli ichimliklar ichishga, bezorilik va o'g'rilikka moyil o'quvchilar nazarda tutiladi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, tarbiyasi qiyin bolalar tarbiya jarayonida pedagogik ta'sirlarga qarshilik ko'rsatadi, ularning xulqida o'zini biz xohlaganday tutmaslik holatlari kuzatiladi. O'smirlik davri ayrim psixologik adabiyotlarda o'tish davri,og'ir davri inqiroz davri" kabi nomlar bilan ataladi. Bu davrning "keskinligi", "og'irligi", "murakkabligi" bilan boshqa davrlardan farqlanadi. O'smirlik davri og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida, ruhiyatida, organizmining fiziologik jarayonlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Shaxsning ma'naviy shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida gapirilganda birinchi navbatda, shaxsning o'zi ikkinchidan, kichik ijtimoiy guruhlar ya'ni oila, mahalla, maktab, uchinchidan esa, ishlab chiqarish jamoasi va to'rtinchi navbatda, jamiyat va undagi siyosiy, ideologik, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy sohalarning umumiy holati katta ta'sir o'tkazilishini ta'kidlash lozim. masalasi Inson butun umri davomida o'zgarib rivojlanib boradi. Bola mana shu yillar mobaynida jismoniy ham ruhiy jihatdan o'sishi va o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi. Bunda ular xarakteriga singdirilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlari jarayonida jamiyatda o'ziga munosib o'rin egallab boradi. Ushbu omillarga alohida-alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, insonning ma'naviy barkamolligida shaxsning o'z o'rni, uning qiziqishlari, ijtimoiy mavqei muhim va asosiy omillardan biri sifatida namoyon

bo'ladi. Chunki, inson ijtimoiy munosabatlarning passiv kuzatuvchisi emas balki uning faol ishtirokchisi ham ekan, u o'z shaxsiy intilish va qiziqishlari, aql-idroki bilan o'zini-o'zi tarbiyalashga, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga harakat qiladi. Tarbiyasi qiyinlik darajasi asosan ko'p hollarda o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Tarbiyasi qiyin bolalar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri ularda o'qishga nisbatan salbiy munosabatning paydo bo'lishidir. Odatda bunday munosabatning paydo bo'lishiga boshqa sabablar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin:

Hozirgi kunda jamiyatda rivojlanish yuz berayotgan bir vaqtda yoshlarni jamiyatga moslashishi muhim sanalib, uning ijtimoiy ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi;

-jamiyatning ertangi kunini davomchilari va harakatlantiruvchi kuchlari yoshlar bo'lib, ularni jamiyatga moslashtirish lozim;

-shaxsda moslashish jarayoni qanchalik amarali kechsa, u jamiyatning faol ishtirokchisi bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek jamiyatdagi barcha o'zgarish va rivojlanish jarayonlarini ongli idrok qilgan holda o'z munosabatini bildira oladigan ya'ni mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllanishiga turtki bo'ladi;

-yuksak bilim tafakkurga ega bo'lgan yoshlar jahon ilm-fani madaniyatiga ya'ni g'oya fikr qarashlarini berish orqali O'zbekistonning jahondagi nufuzini yanada ortishiga o'z hissasini qo'shadi. Bolaning kamol topishda va qanday shaxs bo'lib yetishishida oila, maxalla va maktabning o'rni beqiyosdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. T.2002y. 105-b 2. Ivanov P.I. Zufarova M. Umumiy psixologiya T.2014.304 b.
3. Kamilova N.G. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi T.2012 244 b.
4. E.G'oziev "Xulq-atvor motivatsiyasi va faoliyat" 1994.178b.

# ПСИХОЛОГИЯДА АРТ ТЕРАПИЯ ОРҚАЛИ КОРРЕКЦИОН ИШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Бибисора Алламбергенова*
*Қорақалпоғистон Республикаси Хўжайли тумани 11-сон МТТ психологи*

Психологияда АРТ терапия кўплаб мамлакатларда кенг қўлланиладиган самарали ва ниҳоятда осон даволаш усули булиб, мазкур усул психокоррекция сифатида бугунги кунда Республикамиздаги мактабгача таълим муассасаларида ва умумий урта таьлим мактабларида хам психологлар томонидан қўллаб келинмокда.

«Арт –терапия» сузининг маъноси, инглиз тилидан таржима қилганда, «санъат билан даволаш» деган маънони билдиради. Мазкур услуб санъат ва ижод орқали соғломлаштириш ва психокоррекцион ишларини олиб боришда қўлланилади.Эркин ижод килиш ҳиссий кувватнинг ошишига, ички туйғуларини

сўзсиз етказиб беришга ёрдам берганлиги туфайли иштирокчилар бу жараёнда бажонидил қатнашиш истагини билдиришади.

АРТ терапия ўз ичига бир қатор йўналишларни олади. Улар, жумладан: қум терапия, изотерапия, мусиқа терапия, рақс терапия, эртак терапия, лой ёки пластик жисмлар ёрдамидаги терапия, библиотерапия, кинотерапия, ўйинтерапия ва шу кабилардир.

Психолог фаолиятидаги арт-терапия услуби мутахассиснинг тарбиявий, ривожлантирувчи, коррекцион, психотерапевтик ва диагностикалаш каби малака функциялари асосида амалга оширилади. Бу усул иштирокчида мулоқотга киришишда, хамкорликда ўйинлар ўйнашда ўз ҳиссиётларини тортинмай акс эттира олишида катта ёрдам беради. Санъат ва ижод инсон ҳаёти билан узвий боглиқ, унинг ўйинларга тўла фантазиясини ва яратувчилик қобилиятини тўғри шакллантиришда Арт-терапия машғулотлари қўл келади.

Мактабгача даврдаги ва кичик мактаб ёшидаги болалар ўз фикрларини ёки ҳис-туйғуларини аниқ сўз билан ифода эта олмасликлари мумкин, лекин улар ранглар оркали, ўзлари ясаган шакллар орқали ёки тўқиган эртаклари орқали буни етказишга ҳаракат қилишади.Айнан арт-терапия услублари болага расм, рақс,эртак ёки ўйин орқали ўзларининг айтмоқчи бўлган фикрларини намоён этишга кўмаклашади.

Арт-терапия машғулотларини ўтказишдан мақсад - болага расм чизишни ёки лойдан ва хамирдан шакл ясашни ўргатиш эмас. Мақсад- шу йўл орқали болани қийнаб турган муаммоларини ҳал килиш ва ундаги негатив туйғулардан ҳоли килиш. Арт-терапиянинг вазифаларидан бири- болага шахсий ҳис-туйғуларини англашида ва уни ифода қилишда ижод орқали енгиллик яратишдир.

Хамир эгилувчан булгани учун бола узининг эмоционал холатидан келиб чикиб, турли шакллар ясаши мумкин. Бундай усул болани уз ишини режалаштиришга ургатади, жамоада ишлаш кобилиятини ривожлантиради. Хамир билан ишлашнинг яна бир кулайлиги - у пишик булади. Шу туфайли хамирдан килинган махсулотлар билан уйнаш хам мумкин.

Лой билан ишлаш жараёнида агрессив бола уз хиссиётларини жиловлашни урганади. Узига ишонмайдиган болалар эса вазиятни назорат килиш куникмасига эга булади. Тиниб-тинчимас ва тек утирмайдиган болалар лой уйнаши натижасида диккатини бир ерга жамлашга урганади.

Лойдан нарса ишлаётган пайтда, уни юлиш, бурдалаш,булаклаб ташлаб, сунгра яна бошкатдан узига ёккан шаклни ясаш имконияти мавжуд. Шунинг учун хам лой билан ишлаш терапияси болаларга хузур багишлайди.

Рангли қумлардан оқ қоғоз ёки ойна устига сепиб шакллар чизиш машғулоти боладаги майда қўл моторикасининг ривожланишида муҳим аҳамиятга эга бўлган жараёндир. Олдиндан маълум нарсани акс эттирувчи расм елим ёрдамида коғозга чизилади. Бола қўлидаги рангли қумни коғознинг устига сепади, сўнгра коғозни қоқиб ташлайди. Елим суртилган ерларга ёпишиб қолган қумдан қоғозда гўзал манзаранинг пайдо булиб колиши боланинг руҳиятига ижобий таъсир қилиши шубҳасиз.

Қум терапияси болаларнинг майда қўл моторикасини ривожлантириб, уларнинг тактил сезгисига яхши таъсир кўрсатади. Бармоқлар учида жойлашган нерв толачаларини фаоллаштиради. Логопедияда қум терапиясидан фойдаланиш яхши самара беради. Бу машғулот бола учун жуда қулай.Ўз фикрини сўз билан ифодалашга қийналган бола, қумдан ўз тасаввуридаги қаҳрамонларини ясаш имкониятига эга бўлади.

Бола қум билан ишлаш жараёнида тинчланади, ҳаяжонли қайғуришлардан, қўрқувдан, руҳий шикастланишлардан фориғ бўлади. Қисқа қилиб айтганда, қум боланинг руҳиятига ижобий таъсир ўтказади. Ўйин давомида фарзандингиз атроф-олам ҳақидаги тасаввурларини сўз билан ифодалашга нисбатан чуқурроқ акс эттира оладилар.

Кундалик ҳаётдаги негатив ахборотлардан чалғиш, оиладаги нотинч аҳволдан тушкунликка тушиш ёки болаларда тез-тез учрайдиган қўрқув даҳшатини енгиб ўтиш учун мусиқа, рақс, расм чизиш ёки қум ўйнаш каби машғулотлар катта ёрдам беради.Арт терапиянинг мақсади ҳам нафақат болаларда,балки катталарда ҳам рўй берадиган руҳий беқарорликлар даврида ёрдам беришдир. Арт-терапиянинг ёрдами болалардаги салбий ҳис-туйғуларни (агрессия, ғазаб, жахл, дилсиёҳлик, инжиқлик, жиззакилик) ижодий шаклда ифодалашда намоён бўлади.Ижодий фаолиятдан кейин бола ўзида тинчланиш, сокинлик ҳолатини ҳис килади. Ижодий меҳнат ёрдамида бола ўз имкониятларини ва қобилиятларини юзага чиқаради. Психологлар томонидан ўтказиладиган бу каби арт-сеанслар болаларда ҳар томонлама уйғун ривожланишга эришишида кўмак беради.

## PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL QILISH DOLZARB PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Abdullaeva Dilnoza Azimovna*
*Buxoro viloyat Qorovulbozor tumani Xalq ta'limi bo'limi Pedagogik psixologik tashxis faoliyatini tashkil etish sho'basi metodist psixologi*

Bugungi globallashuv sharoitida psixologiya fani taraqqiyoti har qachongidan ham muhim masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a'zolariga psixologik xizmat ko'rsatish muqarrarligini talab qiladi. Holbuki, iqtisod, xuquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o'zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim. Inson rivojlanishini yosh davrlariga bo'lib alohida o'rganish, har bir yosh davri qonuniyatlarini bilish orqali har tomonlama etuk shaxs kamoloti uchun muhimdir. Zero, 2014 – yil "Sog'lom bola yili" davlat dasturida ta'kidlab o'tilganidek, har bir shaxs va uning ijtiomiy muhit bilan bog'liq o'ziga xos psixologik imkoniyatlariga yetarlicha baho bermay turib shaxsning taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos tarbiyaviy ta'sir etish juda mushkuldir. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich ta'limda

psixologik xizmatni tashkil qilish katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda kichik maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos ijtimoiy psixologik va jismoniy imkoniyatlarini o'rganish va shu asosda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish orqali samarali faoliyat olib borish mumkin.

Shaxs tarbiyasi har qanday millat uchun juda muhim vazifa ekanligi hech kimga sir emas. Zero, taraqqiyot inson kamolotini oshirish bilan birga, uning psixik taraqqiyotida ham bir qancha o'zgarishlarini olib kelayotganligi bugungi kun psixologiyasi uchun juda ham muhim vazifalarni qo'ygan. Shaxs taraqqiyot natijasida murakkablashib rivojlanib boruvchi mavjudotdir. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa pedagogik-psixologik, ayniqsa ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar olib borishga va ularning empirik natijalariga asoslanib tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik psixologik bilimdonligini shakllantirish juda muhim hisoblanadi.

Bugungi kundagi ijtimoiy psixologik tadqiqotlar masalasi, ayniqsa uning amaliy vazifalari sosial psixologiya fanining markazida turuvchi psixologik va sotsiologik yondashuv yo'nalishlari asosida hal qilinmoqda. Masalan, Amerika va boshqa barcha g'arb davlatlarida ikki xil ijtimoiy psixologiya: "psixologik ijtimoiy psixologiya" va "sotsiologik ijtimoiy psixologiya" mavjud. Bu yo'nalishlar bir-biriga o'xshasa-da, ularning bir-biridan farqli jihatlari ham mavjud. Ya'ni, psixologik ijtimoiy psixologiya shaxs va faoliyat, muomala, shaxslararo munosabat, shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilishi, shaxsning kognitiv, konativ, xulq-atvor imkoniyatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy ustanovkalar, shaxs va jamoaning ijtimoiy-ruxiy kechinmalari kabi muammolar ustida tadqiqot olib borishni maqsad qilib olgan bo'lsa, sotsiologik ijtimoiy psixologiyada esa ko'pincha jamiyatning ijtimoiy qatlamlarini tahlil qilish xalqlar psixologiyasi, ommaviy hodisalar psixologiyasi, sinflar, guruxlar, gumanistik psixologiya kabilarga alohida urgu beriladi. Psixologik xizmat metodologiyasi esa ko'proq birinchi yo'nalish - "psixologik ijtimoiy psixologiya" asoslari zamirida tarkib toptiriladi. Gap shundaki, har bir fanning rivojlanishi yangi dalillar asosida ilmiy yunalishni ochib beruvchi metodik qurilmalarning tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, aniq metodologiya bo'lmagan sohada aniq amaliy natijalar ham bo'lmaydi. Zero, ijtimoiy psixologiya fanining yana bir muhim yangi (shakl jihatdan yangi,mazmun jihatdan esa azaliy-kursiv bizniki) vazifasi psixologik xizmat metodologiyasi bilan bog'liq nazariy, amaliy va empirik yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini belgilashning bugungi kungacha nechoglik hal qilinayotganligini tahlil qilishga to'g'ri keladi. Bu borada psixologiya olamida hanuzgacha aniq va mukammal tarzda ishlab chiqilgan va rasmiy tarzda tan olingan yagona ilmiy yo'nalish yoki konsepsiyaning qabul qilinmaganligi (balki olimlarning ilmiy-psixologik qarashlari turlicha bo'lganligi uchun buning iloji ham yo'qdir-kursiv bizniki) ayon bo'lsa-da, ilg'or g'arb psixologlari, Markaziy ham do'stlik Davlatlari psixologlari va O'zbekiston psixologlari tomonidan olib borilgan (yakunlangan) va olib borilayotgan (eksperimental izlanishlarga yo'l ochib berilayotgan) fan olami uchun o'ziga xos saloxiyatga va nufuzga ega bo'lgan tadqiqotlar mavjudki,ular qaysidir jihati bilan psixologik xizmat modeli va uning psixologik himoya vositasi sifatidagi mohiyati, ahamiyati va ijtimoiy istiqbollari haqidagi ilmiy-amaliy tasavvurlarimizni

shakllantirishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlardan bizga ma'lum bo'lishicha, ijtimoiy psixologik xizmat metodologiyasining umumiy yo'nalishlari G'arb ijtimoiy psixologiya namoyandalari tadqiqotlarini quyidagicha izoxlashmumkin: V.Vundtning 1900 yilda chop etilgan "Xalqlar psixologiyasi" nomli yirik (o'n tomlik) epik asari ijtimoiy psixologiya yo'nalishlarini yorqinlashtirishga xizmat qilib, inson ma'naviyati, madaniyati va mafkurasini o'rganishning murakkab tomonlarini ochib berdi. Binobarin, E.Fromm, J.Saliven, G.SHeparde, V.Bayon kabi olimlar tomonidan guruxlar psixologiyasi nazariyasini yaratishga asos solindi. Bunda turli xil ijtimoiy psixologik treninglar orkali guruhdagi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq psixologik iqlimni kamol toptirish yo'llarining ilk bor ko'rsatilishi mehnat jamoalaridagi ijtimoiy psixologik xizmat vazifalarini belgilash uchun ma'lum darajadagi empirik ma'lumot sifatida xizmat qilishi mumkin.

G'arbda yaratilgan kognitivizm doirasidagi nazariyalar psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. CHunonchi, L.Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi (insonning faoliyat ob'ektiga nisbatan xulq-atvori yoki munosabatini ongli ravishda o'zgartirishga asoslangan), G.Olport,A. Maslau, K.Rodjers kabi ijtimoiy psixologlarning gumanistik doiradagi qator tadqiqiy izlanishlari shular jumlasidandir. Yana shuni qayd etish kerakki, amerikalik taniqli psixolog Abraham Xarold Maslauning "Insonga bir butun yondashuv konsepsiyasi" psixologik xizmat jarayonida insonni tushunish va ijtimoiy motivasion rivojlantirish muammosi ustida tadqiqotlar olib borilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maslauning fikricha, insonning barcha tug'ma potensial imkoniyatlari faqatgina ijtimoiy shart-sharoitning yaratilishi bilan ruyobga chiqishi va kamol topishi mumkin. Albatta, mazkur fikrlarning ne chog'liq haqiqat ekanligini bugungi kunda har bir insonning o'ziga xos va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi imkoniyatlari ko'lamini o'rganish va tarbiyalashni asosiy vazifa qilib olgan psixologik xizmatning tashkil etilishini muntazam kuzatishlarimiz natijalari tasdiqlab turibdi.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, yurtimizda olib borilayotgan ta'lim islohotlarining markazida o'quvchi shaxsi va uning o'quv jarayoniga munosabatlar tizimini o'rganish va tahlil qilish masalasi muhim o'rin tutadi. Respublikamizning umum ta'lim maktablarida tahsil olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ish olib borayotgan o'qituvchilarga, maktab rahbarlariga, amaliy psixologlarga quyidagi amaliy tavsiyalarni berishni lozim topdik. Ta'limning dastlabki bosqichlarida, o'quvchilarning bu jarayonga birdaniga moslashishi qiyinligini inobatga olib, har xil o'quvchi va unga ta'sir etuvchi barcha ijtimoiy – psixologik omillarni batafsil o'rganish va shu asosda har bir o'quvchi hamda o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar rejasini tuzish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning o'quv faoliyatiga va aynan o'quv faolligiga bo'lgan munosabatlarini o'rganmay turib ularga ijtimoiy – psixologik ijobiy ta'sir etib bo'lmaydi. Mazkur holatda munosabat motivasiyasining shakllanishi bilan bog'liq omillarga jiddiy e'tibor qaratilishi lozimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. «Sog`lom bola yili» davlat dasturi. – T.: «O'zbekiston», 2013.
2. «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Oliy ta'lim

me'yoriy hujjatlari / Akademik S.S. G'ulomov tahriri ostida. – T.: «Sharq», 2001. – B. 3-18.
3. Barotov SH.R. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari -T.:O'qituvchi, 1995.-56 b.

# ЎҚУВЧИЛАР АҚЛИЙ ФАОЛИЯТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Даулетова Гўзал Муратбаевна*
*ҚДУ "Педагогика ва психология" кафедраси ассистенти*

Ўқувчилар турли ўқув вазифаларини ҳал қилиш жараёнида намоён бўладиган ақлий иш "услубларининг" нисбатан барқарорлигини, уларда ақл хусусияти ёки сифатининг маълум даражада ривожланганидан дарак беради.

Таълим жараёнида ўқувчиларнинг индивидуал фарқларига бағишланган тадқиқотларида ҳар хил тоифадаги ўқувчилар тавсифланган: уларнинг баъзилари (аъло ўзлаштирувчи ўқувчиларда) тафаккурнинг юқорида таъкидланган икки тури орасида чамбарчас боғлиқлик намоён бўлади, яъни уларда конкрет ҳолатлардан мавҳум ҳолатларга ўтиш осон кечади. Бунда мавҳумлаштириш ва конкретлаштириш улар томонидан ақлий фаолият усули сифатида фойдаланилади. Болаларнинг бошқа тоифаси тафаккур фаолиятининг бир туридан бошқасига ўтишда доимий қийинчилик ҳис қиладилар. Баъзи ўқувчилар идрокка таяниш имконини берадиган тафаккурнинг кўргазмали усулларига "ёпишиб оладилар", аксинча бошқалари бўлса, кўргазмалиликдан "воз кечиб", сўзлар, тушунчаларга таяна бошлайдилар.

Ўқувчи кўпроқ тафаккурнинг кўргазмали усулларига таянганда ақлий фаолият бу турининг юқори ривожланганидан далолат беради, деб ўйламаслик керак. Худди шундай тафаккурнинг кўргазмали ҳаракат туридан сўз мантиқ турига ўтиши мавҳум тафаккурнинг кўпроқ ривожланганидан далолат беради, деб ҳисобламаслик керак. У ёки бу тоифадаги ўқувчиларда тафаккурнинг икки тури ҳам кучсиз ривожланган бўлади.

Мана шу ўринда Призидент И.Каримовнинг Олий Мажлиснинг биринчи сессияда таъкидлаб ўтганидек «Иқтисодий ва сиёсий соҳалардаги барча ислоҳотларимизнинг пировард мақсади юртимизда яшаётган барча фуқаролар учун муносиб ҳаёт шароитларини ташкил қилиб беришдан иборатдир. Айнан шунинг учун ҳам маънавий жиҳатдан мукаммал ривожланган инсонни тарбиялаш, таълим ва маорифни юксалтириш, миллий уйғониш ғоясини рўёбга чиқарадиган янги авлодни вояга етказиш давлатимизнинг знг муҳим вазифаларидан бири бўлиб қолади».

Психологик адабиётларда ақлий тарақиётнинг юқори даражада эмаслиги мавҳум тафаккурнинг етарли ривожланмаганлиги билан боғланади. Бундай ҳолларда болаларнинг мавҳум фикрлай олмаслиги маълум бўлади. Бироқ конкрет тафаккурнинг ривожланишида ҳам баъзи камчиликлар эътиборга олинмайди. Бу

билан боғлиқ равишда худди ана шу конкрет тафаккур ривожланишида муҳим камчиликлар аниқланган.

Оммавий мактабларнинг қуйи ўзлаштирувчи ўқувчиларида ҳам худди шундай фактлар аниқланган. Арифметик масалалар ечишда уларга масалаларнинг ташқи шартли белгиларига таяниш, (алоҳида сўзлар, абсолют катталик ва белгиланган сонларнинг кетма-кетлиги ва бошқалар), масалаларнинг конкрет мазмунини етарлича англамаслик хос. Худди шунинг учун ҳам бошланғич синф ўқувчилари масалаларни ечишда катталикларнинг номларида хатоликлар содир бўлади .

Шундай қилиб, ўтказилган тадқиқотлар ўқишда қийналадиган ўқувчилар ақлий фаолиятининг баъзи хусусиятларини аниқлаш имконини берди.

Бироқ, бу секин ўзлаштирувчи ўқувчилар ўқишда доимий муваффақиятсизликларга учраганини англатмайди. Бу мустақил ақлий фаолият талаб қиладиган вақтларда ақлнинг баъзи салбий хислатлари шаклланганидан далолат беради. Бундай ўқувчилар ўзлаштиришга қийналадиган материал устида қўшимча машқлар бажариши тафаккурнинг бу хислатларини ўзлаштириши учун ҳисса қўшиши маълум бўлади.

Шунинг учун ҳам ўзлаштириш темпи, тезлигида намоён бўладиган ўқувчиларнинг турлича уқувчанлик даражасини билиш ўқувчилар учун муҳим ҳисобланади. Уқувчанликни ўқувчи иши темпидан ажратиш зарур. Ўқув ишларини секин бажариш, уқувчанликнинг пастлигидан далолат бермайди, худди шунингдек тез бажариш юқори уқувчанлик кўрсаткичи эмас.

Психологик тадқиқотларда бундай фарқлашларнинг зарурлиги таъкидланган, лекин ўқитувчиларнинг ишларида таълим жараёнларида ўқувчиларнинг индивидуал-психологик хусусиятларини характерлайдиган кўрсаткичлар орасида фақат иш тезлиги (темпи) кўрсатилади, ўзлаштириш тезлиги бўлса ҳисобга олинмайди. Ўзлаштириш тезлиги ўзлаштирмовчиликни йўқотишда ва ўқувчиларни янада ривожланишга ундашда муҳим ҳисобланади.

Шундай қилиб, уқувчанлик, ўқув фаолияти усулларини ҳамда билимларни ўзлаштира олиш қобилиятидир. Уқувчанлик, яъни ўқишга қобилиятлилик, шахснинг индивидуал, нисбатан барқарор хислати ҳисобланади. Бу тушунча мазмунига кўра “қобилият” тушунчасига нисбатан торроқ ҳисобланади. Қобилият таркибига маълум фаолият турига нисбатан юқори уқувчанлик киради. Қобилият махсус ва умумий турларга бўлинганидек, умумий ва махсус уқувчанликни ҳам ажратиш мумкин. Умумий уқувчанлик кўп нарсада намоён бўлса, махсус уқувчанлик фақат бир соҳада, бир ўқув фанини ўзлаштиришда намоён бўлади.

Уқувчанлик ақлий тараққиёт билан чамбарчас боғлиқ, лекин улар айнан бир тушунча эмас. Ақлий тараққиёт – ёш улғайиши ва инсоннинг тажриба тўплаши билан ақлий фаолиятдаги сифат ва миқдор ўзгаришларининг мажмуидир. Юқори уқувчанлик юқори ақлий тараққиёт учун замин бўлиши мумкин, лекин юқори ақлий тараққиёт билан нисбатан қуйи уқувчанлик ҳам бирикиши мумкин, бунда у кўп меҳнат қилиши билан тўлдириши мумкин.

Л.С.Виготский [1] томонидан киритилган “тараққиётнинг яқин зонаси” тушунчасида катталар ёрдамида улар билан ҳамкорликда амалга ошириладиган

ўқувчининг ақлий имкониятлари назарда тутилади. Тараққиётнинг яқин зонаси, актуал зонасидан фарқ қилади, актуал зонаси бола нимани мустақил ўзи қила олишида намоён бўлади.

Н.С.Кочарян тадқиқотларида секин фикрлайдиган бошланғич синф ўқувчиларининг психологик хусусиятлари баён этилган. Муаллиф ўтказган тадқиқотлардан маълум бўлишича, секин фикрлаш инсон индивидуаллигини характерлайдиган хусусият ҳисобланади. Секин фикрловчи бошланғич синф ўқувчиларида вақт чекланмаган пайтда тафаккур маҳсулдорлиги юқори бўлади. Одатдагидек фикрловчи синалувчига нисбатан секин фикрловчи ўқувчилар топшириқларни бажаришда мустақил, жавобгарлик ҳисси юқори, жавоб беришга шошилмайди, тушунишга ҳаракат қилади. Лекин вақт чегараланганда секин фикрловчи ўқувчида бундай афзалликлар намоён бўлмайди, улар бундай вақтда кўпинча орқада қоладилар.

В.С.Юркевич билиш эҳтиёжлари тараққиётини таҳлил қилиб, ақлий “дангасалик”ни интеллектуал пассивлик, болада қизиқишнинг йўқлиги натижаси сифатида таҳлил қилади. [3]

Қатор ишларда ёмон ўзлаштирувчи ўқувчилар интеллектуал пассив болалар сифатида таҳлил қилинади, лекин “интеллектуал пассивлик” атамаси қўлланилмайди ва бундай тадқиқотларда асосий эътибор ўзлаштирмовчилик сабабларига қаратилади .

Бунда интеллектуал пассивлик табиатини ўрганиш четда қолиб, ўқишдаги қийинчиликларни енгишга асосий эътибор берилади.

Л.В.Орлова [2] интеллектуал пассивлик сабабларини ва типларини ўрганган. У интеллектуал пассивлик ақлий фаолиятнинг қуйи даражаси, ақлий кўникмаларнинг етарлича шаклланмаганлиги, интеллектуал вазифаларни бажаришда ақлий зўриқишга салбий муносабат сифатида таърифлайди. Муаллиф интеллектуал пассивликнинг 2 турини ажратиб кўрсатади:

1) интеллектуал пассивлик ақлий фаолият операционал-техник механизмларининг бузилиш натижаси сифатида;

2) интеллектуал пассивлик шахс мотивацион-эҳтиёжлар соҳаси тараққиётида салбий муносабатларнинг кўриниши сифатида.

Л.В.Орлова кенглиги бўйича умумий ва хусусий интеллектуал пассивликни ажратиб кўрсатади. [2]

Шундай қилиб, Л.В.Орлованинг юқорида таклиф этган таснифи интеллектуал пассивлик турлари ва сабабларини аниқ тушуниш имкониятини беради.

Хулоса ўрнида шуни айтиб ўтиш лозим, ўқув жараёнида ўқувчиларнинг ақлий фаолияти хусусиятлари асосий аҳамиятга эга.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1.Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. - М. : Издательство АПН РСФСР .1960. -500 с.

2.Орлова Л.В. Интеллектуально-пассивные учащихся. // Вопросы психологии. 1991. № 6. -С. 45-49.

3.Юркевич В.С. Особенности познавательных потребностей и саморегуляций у старшых подростков. /Психологические проблемы повыше-ния качества обучении и воспитания. –М.: Педагогика. 1984. -С. 66-75.

# ФРУСТРАЦИОННАЯ ТЕОРИЯ АГРЕССИИ

*Махлиё Бахтиёровна Юлдашева*
*преподаватель кафедры Психология*
*Зарнигор Эргашова – студент направления*
*педагогика-психология Ферганский государственный университет*

Развитие взглядов З.Фрейда привело к созданию фрустрационных концепций агрессии. Представители данных исследований полагали, что агрессия всегда следует за фрустрацией. Агрессия определялась ими как акт, целью которого является вред некоторой личности или объекту, а фрустрация как таковое условие, которое возникает, когда целенаправленные реакции испытывают помехи. При этом предполагалось, что фрустрация, определяемая как блокирование или создание помех для какого-либо целенаправленного поведения, вызывает агрессию напрямую, провоцирует ее, что и поддерживает агрессивное поведение.

По мнению Д. Долларда, в отношении побуждения к агрессии решающее значение имеют три фактора: степень ожидаемого субъектом удовлетворения от будущего достижения цели, сила препятствия на пути достижения цели, количество последовательных фрустраций. Чем больше субъект предвкушает удовольствие, чем сильнее препятствие, чем больше количество ответных реакций блокируется, тем сильнее будет толчок к агрессии. Н. Миллер предложил особую модель, объясняющую появление смещенной агрессии. Автор предположил, что выбор жертвы обусловлен тремя факторами: силой побуждения к агрессии; силой факторов, тормозящих данное поведение; стимульным сходством каждой потенциальной жертвы с фрустрировавшим фактором.

Н. Миллер полагал, что барьеры, сдерживающие агрессию, исчезают быстрее, чем побуждение к подобному поведению. Описываемая им модель показывает, что смещенная агрессия наиболее вероятно будет разряжена на тех мишенях, в отношении которых сила торможения является незначительной, но у которых относительно высокое стимульное сходство с фрустратором.

Среди современных исследователей агрессии, продолжающих разрабатывать фрустрационно-агрессивную гипотезу, нельзя не отметить исследования Леонарда Берковица. Именно он внес наиболее значительные поправки и уточнения в эту теорию. Л. Берковиц утверждает, что фрустрация один из множества различных аверсивных стимулов, которые способны лишь спровоцировать агрессивные реакции, но не приводят к агрессии напрямую, а скорее создают готовность к агрессивным действи-ям. Подобное поведение возникает только при наличии соответ-ствующих посылов к агрессии.

Для уточнения смысла этой категории он производит разведение понятий «агрессия», «насилие», «агрессивность». Леонард Берковиц трактует агрессию как любую форму поведения, которая нацелена на то, чтобы причинить кому-то другому физический или психологический ущерб [1;24]. Насилие – это действия, вызывающие или способные вызвать физическое повреждение [1;293]. Агрессивность – относительно стабильная готовность к агрессивным действиям в самых разных ситуациях [1;44].

В трудах Л. Берковица обстоятельно рассмотрен вопрос о развитии склонности к агрессии. Он считает, что в подростковом возрасте на нее оказывают определяющее влияния неблагоприятные условия, создаваемые родителями (отвержение, жестокое обращение, непоследовательность в применение воспитательных воздействий и др.) Берковиц предлагает различать два вида агрессии: инструментальную и эмоциональную [1;61]. Первый вид имеет другую цель, помимо причинения ущерба, второй – вызывается эмоциональным возбуждением, и агрессор стремится причинить вред другому лицу. Берковиц считает инструментальную агрессию относительно рациональной, в то время как эмоциональная – менее сознательно контролируемая, «запускается» интенсивной внутренней стимуляцией [1;165]. Автор называет триггеры агрессивного поведения детей и подростков: недостаток любви и нежных чувств со стороны родителей, их педагогическое и психологическое невежество, ослабленный неврологический базис, низкая стрессоустойчивость ребенка, воздействие отрицательных общечеловеческих установок и моделей.

В рамках данного подхода задачу семейного воспитания можно обозначить как сотрудничество, взаимопонимание и выработка единых требований родителей к своему ребенку, минимизация негативных влияний, что не означает полное блокирование отрицательных переживаний, которые выполняют и позитивную функцию (например, учат выдерживать невзгоды и неудачи). Кроме того, необходимо ограничивать влияние деструктивных факторов, вызывающих агрессивные реакции детей и подростков.

В системе коррекции деструктивных проявлений Л. Берковиц выделяет два направления: социальный и психологический контроль. Социальный контроль предполагает осуществление процесса наказания, а психологический понимание смысла про-изошедших событий при раскрытии индивидом его эмоционального состояния перед другими. По мнению автора, самосознание человека способно ограничивать воздействие враждебных и агонистических импульсов.

В целях коррекции Берковиц предлагает использовать когнитивные программы, направленные на изменение мыслей и действий агрессивных несовершеннолетних. Одним из самых результативных методов предупреждения враждебности Берковиц считает внимательное отношение родителей к чувствам и переживаниям ребенка в процессе семейного воспитания. «Родительское тепло и любовь могут служить фактором, который смягчает стрессы и психические напряжения» [1;231].

В процессе своего развития фрустрационный подход претерпел значительные изменения и разделился на два относительно самостоятельных

течения. Сторонники первого течения остались приверженцами фрустрационно-агрессивной гипотезы и продолжают в основном исследовать условия, при которых ситуация фрустрации ведет к возникновению агрессивных действий. К таким важным, на их взгляд, условиям относятся: сходство-несходство агрессора и жертвы, оправданность-неоправданность агрессии, уровень агрессивности как личностной характеристики человека.

Сторонники второго течения создали собственную концепцию фрустрации, в основу которой положен анализ фрустрационных ситуаций, классификации и типологии реакций на фрустрацию. Так, С. Розенцвейгом выделяются три типа причин, вызывающих фрустрацию: лишения – отсутствие необходимых средств достижения цели или удовлетворения потребности; потери – утрата предметов или объектов, ранее удовлетворявших потребности; конфликт – одновременное существование двух несовместимых друг с другом побуждений.

К. Бютнер называет ряд фрустрирующих обстоятельств, способствующих развитию и подкреплению детской и подростковой агрессивности [2;44].

1. Группа обстоятельств, связанная с воспитанием в семье (эмоциональное отвержение, лишение ребенка любви и внимания родителей; конфронтация, реальная вовлеченность детей в «войну со взрослыми», которая ежедневно проявляется в обидах, запретах, наказаниях, пренебрежительном отношении к детям; амбивалентное воспитание, неразборчивое смещение осуждения и одобрения, одновременно ласкового и агрессивного обращения, в результате которого у ребенка появляется сомнение: любим он или нет; всякого рода страхи: страх физического наказания, лишения любви родителей и т.д.).

2. Обстоятельства, связанные с взаимоотношениями со сверстниками. Внутренняя агрессивность может стать следствием возрастающей агрессивности внешних реальных отношений здесь и теперь.

3. Обстоятельства, связанные с общением в детских учреждениях (неспособность многих воспитателей и педагогов создавать оптимальные условия для формирования гуманных отношений между детьми; неспособность многих воспитателей дарить любовь отверженным, озлобленным, нелюбимым детям и таким об-разом частично компенсировать душевную травму, нанесенную родителями; господствующие в школе методы воспитания, опирающиеся на осуждение, унижение и конкуренцию).

Вопрос о том, не связана ли агрессия в каждом конкретном случае с фрустрацией, закономерен, но это вовсе не означает, что между агрессией и фрустрацией необходимо имеется неразрывная связь. Прежде всего, далеко не всякая агрессия провоцируется фрустрацией. Агрессия может возникать, например, с «позиции силы» и является выражением властности, и тогда ни о какой фрустрации речи быть не может. С другой стороны, фрустрация часто агрессией не сопровождается, она имеет многообразные проявления, в том числе и толерантность, при которой всякая мысль о нападении исключается. Надо сказать, агрессивная реакция на фрустратор часто не ослабляет, а усиливает состояние фрустрации. Необходимо отметить, что наибольшее внимание сторонников фрустрационно-агрессивной гипотезы привлекает исследование

условий, при которых ситуация фрустрации ведет к возникновению агрессивных действий. К важным выявленным ими переменным, влияющим как на возникновение, так и на торможение агрессии, можно отнести оправданность-неоправданность агрессии, а также собственно агрессивность как личностную характеристику испытуемых.

Недостатком данного подхода является, в первую очередь, отсутствие четкости в понимании фрустрации, вследствие чего акцент в экспериментальных исследованиях сместился с анализа причин возникновения фрустрации, а затем и агрессии, на изучение переменных, способствующих возникновению или торможению агрессии. В процессе своего развития фрустрационный подход к объяснению агрессии претерпел значительные изменения. Исследователи стали рассматривать агрессию лишь как один из возможных выходов из фрустрационной ситуации. Некоторые из них полагали, что при фрустрации личность реагирует целым комплексом защитных реакций, одна из которых играет ведущую и структурирующую роль.

Мы так детально рассматриваем фрустрационный подход потому что, несмотря на недостаточную объяснительную и предсказательную силу, он по-прежнему выступает в качестве основного подхода к изучению агрессии.

**Литература:**


1. Берковиц Л. Агрессия: причины, последствия и контроль. – СПб.: Прайм – Еврознак, 2002. – С. 512
2. Бютнер К. Жить с агрессивными детьми: Пер. с нем. – М.: Педагогика, 1991. – 144 с.


## ERTAK TERAPIYA ORQALI BOLAGA TA’SIR ETISH USULLARI


*Abdullaeva Iroda Shavkatovna*
*Shayxontoxur tumani 27-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologi*



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida olib borilayotgan islohatlar, bolalarni o`sishi va rivojlanishi davrida uchraydigan o`zgarishlari va ularning yechimlarini, ertak terapiyasi bolalarga nechog`lik ahamiyatli ekanligini bilib olishingiz mumkin.



**Kalit so’zlar:** Bolalar, yoshlik, ertak, ertak terapiyasi, metodlar.


Atrof muhit muhofazasi nafaqat, davlat, jamiyat, balki har bir fuqaroning vazifasidir. Shunday ekan maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bolalarning bolalik davridan atrof-olamni anglash, uni muhofaza qilish, atrof-olamga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, atrof muhitni iflos qilmaslik haqida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yilgan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” Davlat o`quv dasturida belgilangan vazifalar amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilashda, atrof-olamga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, ongli idrok qilish, borliqni xis qilishda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni avvalo oiladan boshlab maktabgacha ta’lim muassasalarida davom ettirishni taqozo etmoqda.

Kengroq mushohada yuritadigan bo`lsak, millat barkamolligi, Vatan taraqqiyoti farzand tarbiyasi bilan bog`liqdir. Bolaning rivojlanishi va o`sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda u mustaqillikka o`rgatib boriladi. Endigina tetapoya qilib qadam qo`yishni, yurishni o`rgangan bola qo`lini qo`yib yuborishni xohlaydi. Tili chiqib gapirishni o`rganishi bilan “Men kattaman” deydi. Bolaning o`sishi va rivojlanishi uchun zarur bo`lgan erkinlikni chegaralanishi o`z navbatida ota-onalar uchun ham ma’lum muammolarni keltirib chiqaradi. Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko`ra o`ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o`sib, ulg‘ayishida maktabgacha bo`lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o`sish, rivojlanish va o`zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir.

Ertakterapiya bu bolani ertaklar orqali tarbiyalash va davolash metodidir.
Ertakterapiya atrof-muhit bilan o`zaro munosabatni mukammallashtirish hamda emotsional buzilishlarni to`g`rilashda foylaniladigan usuldir.

Ertaklar bolaga umid beradi. Bola qanchalik Yangi yil kechasi sovg’a olib keladigan Qorboboga ishonsa, u shunchalik hayotga optimist ko’z bilan qaraydi.Ertaklar orqali biz bolani tarbilaymiz,uningichki dunyosini boyitamiz,qalbini davolaymiz,hayot haqida bilib beramiz, xayolini o`stiramiz.

Haqiqiy ertakning asosiy belgisi bu - uning yaxshilik bilan tugashidir.Bu bolaga psixologik himoyalanganlik tuyg`usini beradi. Ertaklarda nimaiki sodir bo`lmasin,yaxshilik bilan yakun topadi, ertak qahramonlarining boshiga tushgan barcha sinovlar ularni yanada kuchli va aqlli qiladi. Boshqa tomondan, bola yomon xatti-harakatlarni amalga oshirgan qahramonlarning, albatta, qilmishlariga yarasha jazo olishlarini ko`radi. Barcha sinovlardan mufaqqiyatli o`tgan, o`zining barcha ijobiy hislatlarini namoyon qilgan qahramonlarning esa albatta mukofotlanishiga amin bo`ladi. Ana shunda hayotning asosiy qonuni yaqqol ko`rinadi: Sen hayotga qanday munosabatda bo`lsang, u ham senga shunday javob qaytaradi.

Korney Ivanovich Chikovskiy shunday yozgan edi: “Menimcha ertakning maqsadi bolada birovning g`am-tashvishi uchun qayg`urish, o`zganing shodligi uchun xursand bo`lish, begona insonning taqdirini xuddi o`ziniki kabi boshdan o`tkazish kabi insoniylikni qanday bo`lmasin tarbiyalashdan iboratdir”. E’tibor bering-a, bu yerda ikki insonning o`zaro bir-birini tushunishi, bir-biriga g`amxo`rlik qilishi haqida gap bormoqda.

Ertaklarga o`z ijodida jahon psixologlaridan E.Fromm, E.Bern, E.Gordner, I.V.Vajkov, M.Osorina, E.Lisina kabi psixologlar murojaat qilganlar. Ertaklardan

bolalar adolat va adolatsizlik haqida o`zlarining ilk tasavvuriga ega bo`ladilar. Ertak bolaning murakkab hayotiy muammolarini hal qilish usullarini ongida saqlab qolishga va qayg`urishgamajbur qiladi. Bunda hayotga qarama-qarshi kuchlarning to`qnash kelishi va ularni hal qilish borasidagi tajriba ortib boradi hamda ijodiy tasavvur rivojlanadi.

Aynan xotira bilan uyg`ulashgan tasavvur bolaga hayotda shu kabi muammolarga duch kelganda qisqa vaqt ichida to`g`ri va samarali yechimni topishga imkon beradi. Ertak esa qahramonlarning xattiharakatlarini misli ko`rilmagan holatlarda aks ettiruvchi, ammo bolaning xotirasi va ongiga eng asosiy, ba’zan esa ilojsizdek tuyulgan, qiyin holatlarning ham baribir yechimi bor, degan tushunchani singdiruvchi hayotning o`zidir. Hayotda boshi berk ko`chalar bo`lmaydi. Ko`pincha inson shunchaki, ulardan chiqib ketishga tayyor bo`lmaydi.

Ertakterapiya bolaga nima beradi?

1.Ertakterapiya yordamida xayol, ijodiy tasavvur rivojlanadi, ko`ngil xotirjamligiga erishiladi.

2.Bola o`zgalar xatti-harakatlarini tahlil qilishni va bu bilimlarini o`z xatti-harakatlarida qo`llashni o`rganadi.

3.Guruhdagi muloqot orqali ishtirokchilar o`rtasida kommunikativ aloqa o`rnatiladi.

4.Ertakterapiya kattalarga ham o`z fobiya, qo`rquvlarini yengishga yordam beradi, ulardagi agressivlik va xavotirlikni kamaytiradi.

Ertaklar orqali biz bola qalbidagi muammolarni ochishimiz va yechishimiz mumkin. Bunday ertaklar terapevtik ertaklar deb nomlanadi.

Ko`pincha ertaklar kechqurun uyquga yotishdan oldin aytiladi, sababi bola bu paytda tinch bo`lib, bu aynan unga ta’sir o`tkazish uchun qulay paytdir. Shuning uchun kechqurun yaxshilik bilan tugaydigan pozitiv mazmunli ertaklar aytib berish kerak. Shuningdek, oila davrasida, kattalarning muhokamasi bilan tinglangan ertaklar muammoni hal qilishga, korreksiyalashga zamin yaratadi. Ertaklar bolani ulg`aytiradi.

Birinchi navbatda ertakni bolaga bajonidil aytib bermoq lozim, shunda xalq ijodidan bola ko`proq narsa oladi. Ertak aytish jarayonida bola ruhan xotirjam, muhit tinch bo`lsa, samarasi yaxshi bo`ladi.

Bolaga ertak aytib berayotib unga quyidagi savollarni berishingiz mumkin:

1.Bu ertak nima haqida?

2.Ertak qahramonlari qanday sifatlarga ega? Ular kimga o`xshaydilar?

3.Nega ertak qahramonlari bunday xatti-harakatlarni amalga oshiradilar? Bu nima uchun kerak?

4.Bosh personaj qiyin vaziyatlardan qanday chiqib ketadi? Buni uning o’zi uddalaydimi yoki unga bu ishda kimdir yordam beradimi?

5.Qahramonlarning xatti-harkatlari atrofdagilarga nima beradi – quvonchmi, qayg`umi? Qahramonlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar qanday?

6.Ertak, uning ayrim qismlari qanday tuyg`ularni uyg`otadi?

Bolalar uchun ertaklar ularning xayolini, mantiqiy va obrazli tafakkurini rivojlantirib, nutqini o`stiradi. Ertaklar xavotirlikni yo`qotib, o`ziga ishonchni orttiradi. N.L.Kryajeva qizg`anchiq, egoist bolalarga – “Baliqchi va baliq” haqidagi ertakni,

qo`rqoq bolalarga – “Qo`rqoq quyonlar: haqidagi ertakni, ishonuvchanlariga , “Buratinonaning sarguzashtlari”ni, qaysar bolalarga “No`xat ustidagi malika” ertagini,tinib-tinchimas bolalarga esa “Etik kiygan mushuk” ertagini aytib berishni taklif qiladi.

Xuddi shunday mazmundagi ertaklar o`zimizning o`zbek xalq ertaklari orasida ham uchraydi.

“Zumrad va Qimmat”ertagi bolalardagi erinchoqlik va dangasalikka, “Ur to`qmoq” ertagi yolg`onchilikka, “Susambil” ertagi noahillikka qarshi kurashadi. Bunday misollarni yana ko’plab keltirish mumkin. Barcha ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lib,bola qalbiga ezgulik urug`ini sochadi.

1-1,5 yoshdagi bolalar uchun ertak mazmuni tushunarsiz bo`lishi mumkin, lekin ertakdagi “bobo”, “buvi”, “sichqoncha” kabi so`zlar biroz tanish bo`lib,bu ertakni bola uchun qiziqarli qiladi hamda uyqu oldidan aytib berish uni tinchlantiradi. 3yoshdan keyin bolada obrazli tafakkur shakllana boshlaydi, u endi tasavvur qila oladi. Ularga endi murakkabroq mazmundagi sehrli ertaklarni taklif qilish mumkin.

Ota-onalarga maslahatlar:

1.Ota-onalar farzandiga ertakni o`qib emas,balki aytib bersalar maqsadga muofiqdir.Chunki bu ota-onaga dilbandining ertakga qanday munosabat bildirganligini kuzatish imkonini beradi. Qolaversa, ota-ona farzandi bilan birgalikda ertaklar olamiga sayr qiladi, bu esa bolaning unga yolg`iz sayohatidan
ko`ra avzaldir.

2.Bolalar o`zgalar tomonidan tasvirlangan obrazlarni yaxshiroq qabul qilish qobiliyatiga ega. Shuning uchun farzandingizga ertak aytib berish chog`ida unda yozilgan barcha manzaralarni tasvirlab berishga harakat qiling.

3.Bolangizga ertakni o`zi tanlash imkonini bering. Agar u o`n martalab “Qizil qalpoqcha” haqida eshitishni xohlasa, demak bu bekorga emas. Bu ertak uning ongi shakllanishiga nimadir bermoqda, unda qandaydir jarayon sodir bo`lmoqda.

Ertak-terapiyaning maqsadi va vazifasi bolalardagi agressivlik kayfiyatini yo`qotish, o`z-o`zini emotsional boshqarish va o`zgalar bilan ijobiy munosabatni rivojlantirishdir. Buning uchun ertakterapiya soddaligi va bolalarning ertakka bo`lgan qiziqishi tufayli ular uchun tushunarli bo`lgan ertak uslubi va bolalar bilan ishlash yo`llaridan foydalaniladi.

Har bir bolabir yoki boshqa ertakni o`zicha tushunadi va qabul qiladi. Shuning uchun bir ertak unda kata ta’surot qoldiradi, boshqasi esa uning his-tuyg`ularini qo`zg`atmay, yonidan o`tib ketadi.Lekin bu “Hayotiy vaziyatlar daftarchasi yana bir katakchaga ko`paymadi” degani emas, u shunchaki bola bu kabi muammoga, masalan, kuyov va qaynona, kelin va qaynona o`rtasidagi tanlov muammosi, biror bir muhim va aziz narsasini yo`qotish yoki o`g`irlatish va hokazolarga duch kelmaguncha ta’sir kuchiga ega bo`lmaydi.

Ertak nafaqat insonning ongiga, balki ongostiga ham ta’sir qiladi, „ajdodlar xotirasi’’ga yoki genetik xotiraga tayana olar ekan, syujetning murakkabligidan qo`rqish kerak emas. Xatti-harakatdagi emotsional salbiy o`zgarishlarni to`g`rilashga qaratilgan ertaklarda syujetni chuqur anglash emas, balki insonlarning o`zaro munosabatlarini, ularning ko`rsatgan qahramonliklarini, u yoki bu tanlovning natijasini,

o`zining ma'lum bir vaziyatga shaxsiy munosabatini, o`zining shaxsiy hayoti bilan o`zaro aloqalarini voqea va qahramonliklari yordamida eshitayotgan, o`qiyotgan insonning qalbidadir. Buni hisobga olish zarur, zero ko`p holatlarda ota-onalar o`zlarining shaxsiy qo`rquvlarini bolaning qo`rquvi deb ta'kidlaydilar. Hayotiy qo`rquv kabi o`lim oldidagi qo`rquv ham nafaqat bolalarga, aksincha, bolalardan ko`ra, ko`proq ota-onalarga xos bo`ladi. Shu bilan birga bu hayotda o`z o`rnini topmaslik qo`rquvi, turmush o`rtog`ini yo`qotish oldidagi qo`rquv, oilaning buzilishidan qo`rqish, ishda obro`-e'tiborga ega bo`lmaslikdan qo`rqishdi. Bu siz bilan bizning qo`rquvimiz, ularni bolalarimizniki deb hisoblash kerak emas. Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, bola xatti-harakatidagi emotsional buzilishlarni, albatta o`yinlar, o`yinchoqlar bolaning tasviriy faoliyati, musiqa, teatr va umuman aytganda san'at yordamida ham to`g`rilasa bo`ladi. Lekin, bolalar uchun eng tushunarli va sevimli usul bu – ertakdir. To`g`ri tanlangan ertak yordamida boladagi ko'plab muammolar – qo'rquv,injiqlik kabilarni yo`qotish, bolada qat'iyat va irodani shakllantiradi. Ertaklarni faqatgina psixologik terapiyadagina qo`llamay, balki oila davrasida muntazam qo`llash bolalik davridagi eng iliq hislarni bola xotirasida muhrlashga imkon beradi. Ertaklar bolaning muammolaridan kelib chiqqan holda tuzilishi, ertak terapiyasini o`tkazish mobaynida bolaning har bir xatti-harakatiga ahamiyat berib borilishi lozim. Bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ertakni qabul qilish darajasini muntazam kuzatib borish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish (metodik majmua).
2. Стрелкова Л.П Уроки сказки. – М.: Педагогика, 1989, 53 ст.
3. Соколов Д.Ю. Сказки и сказкотерапия. – М.:Класс,1997, 94 ст.

# DUDUQLANISH — SABABLARI, ALOMATLARI, TASHXISLASH, DAVOLASH, OLDINI OLISH, ASORATLARI

*Raximova Shaxnoza Baxtiyar qizi*
*Shayxontohur tumani 229-Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi*

Duduqlanish (tutilib gapirish) - ko'pincha nutqning boshida (kam holalrda, o'rtasida) paydo bo'ladigan artikulyatsion va hiqildoq mushaklarining spazmatik (toritishishli) harakatlaridir, natijada bemor bir tovushda (yoki tovushlar guruhida) tutilib qolishga majbur bo'ladi. Duduqlanishning ushbu alomatlari klonik va tonik spazmlar bilan juda o'xshash. Klonik duduqlanishda so'z, bo'g'in va ohanglarni takroriy shakllanishi kuzatiladi. Tonik duduqlanish tovush chiqarish to'xtashi bemor boshqa tovushni artikulyatsiya qilishga o'tishiga imkon bermaydi.

O'zining rivojlanishida duduqlanish 4 bosqichdan o'tadi, vaqti-vaqti bilan yuzaga keladigan tutilishdan tortib, insonning aloqa qilish qobiliyatini cheklaydigan jiddiy shaxsiy muammoga qadar.

Duduqlanishning nevrotik va nevrozga o'xshash shakli mavjud. Nevrotik duduqlanish sog'lom bolalarda stress va nevroz natijasida paydo bo'ladi. Nevrozga o'xshash duduqlanish asab tizimi kasalliklariga chalingan bolalarga xosdir (ham tug'ma, ham orttirilgan, masalan bolalar serebral falajligi).

Boshqa manbalarda duduqlanishning yuqorida aytilgan tonik va klonik shakllari ajratiladi.

Sinonimlari: logonevroz, lalonevroz, logokloniya, battarizm, balbutsio.

Duduqlanishning ikki sababi bor: turki bo'luvchi va provokatsiyalovchi. Duduqlanish rivojlanishiga turtki bo'luvchi sabablar orasida quyidagilarni ajratish kerak:

Irsiy moyillik;

Ensefalopatik oqibatlarga olib keladigan kasalliklar;

Bachadon ichida, tug'ilish davomidagi jarohatlar;

Asab tizimining ortiqcha ishlashi va charchashi (yuqumli kasalliklar natijasida).

Duduqlanish paydo bo'lishiga yordam beradigan shart-sharoitlar:

Motorika rivojlanishi va ritm hissining buzilishi;

Emotsional rivojlanishning yetishmasligi;

Atrofdagilar bilan munosabatlarning anormalligi sababli reaktivlikning oshishi;

Yashirin ruhiy kasalliklar.

Yuqorida keltirilgan shartlarning aqalli bittasi mavjudligi asab buzilishi uchun yetarli bo'ladi va natijada duduqlanish rivojlanadi. Duduqlanish kelib chiqishini provokatsiyalovchi sabablar: bir vaqtli ruhiy travma (qo'rquv); oilada ikki yoki undan ortiq tilda so'zlashish; taxilaliya (tez gapirish).

Duduqlanishning patogenezi subkortikal dizartriya mexanizmiga o'xshaydi. Uning tarkibi - nafas olish jarayoni, artikulyatsiya va ovoz chiqarishni boshqarish koordinatsiyasining buzilishi. Shu bois, duduqlanish ko'pincha dizritmitik dizartriya deb ham ataladi. Miya po'stlog'i va subkortikal tuzilmalarning induktsion o'zaro ta'sirining buzilishi po'stloq regulyatsiyasi buzilishiga olib keladi. Shu sabab, harakat uchun»oldindan tayyorgarlik»ga mas'ul bo'lgan striopallidal tizimning faoliyatida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Harakatda ikki guruh mushaklari ishtirok etadi - biri qisqaradi, boshqalari - yoziladi. Mushak tonusining to'g'ri va izchil qayta taqsimlanishi orqali tez, aniq va qat'iy farqlanuvchi harakatlarni amalga oshirish mumkin. Mushaklar tonusini oqilona qayta taqsimlanishini boshqarish striopallidar tizimga to'g'ri keladi. Emotsional giperqo'zg'alish yoki miyaning anatomo-patologik shikastlanishlari natijasida striopallidar regulyatorini bloklanishi klonik takrorlash (tutilish) yoki tonik spazmga olib keladi.

ALOMATLARI VA BELGILARI

Nafas olish. Duduqlanishda nafas olish jarayonining buzilishlari orasida nafas olish va chiqarish vaqtida juda ko'p havo sarflanishi qayd qilinadi, bu artikulyatsiya sohasidagi qarshilikning buzilishi tufayli kelib chiqadi. Duduqlanishda nutqiy nafas olish buzilishi bemor tomonidan inspirator-unli va protorli tovushlarni hosil qilishda yotadi. Boshqacha qilib aytganda, ovoz boylamlarining harakati va protor shovqinni shakllantirish uchun bemor olingan nafas havosini qo'llaydi.

Ovoz. Tovushni talaffuz qilishga harakat qilish ovozning paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan ovoz teshigining spazmatik tarzda yopilishi bilan birga kechadi. Xuruj vaqtida hiqildoq tez va keskin yuqoriga, pastga va oldinga qarab harakatlanadi. So'zni maromida talaffuz eta olmaganligi sababli, bemorlar unlilarni qattiq tarzda gapirishga harakat qilishadi. Shivirlab gapirish va kuylashda alomatlarning yumshalishi qayd qilinadi, ba'zan nutqning to'liq normallashishiga qadar.

Artikulyatsiya. Artikluyatsiya apparatidagi funktsional buzilishlar bilan bir qatorda, duduqlanishda somatik buzilishlar ham kuzatiladi. Masalan, tanglayning chuqur bo'lishi, tilni chiqarishda uni bir tomonga og'ganligi, burun bo'shlig'ida — burun to'sig'ining qiyshayganligi, chig'anoqlarning gipertrofiyasi.

Birgalikda kechuvchi harakatlar — bu duduqlanib qolish vaqtida yuzaga keladigan harakatlardir, ular zaruriy emas, ammo ayni paytda bemor tomonidan ongli harakat sifatida amalga oshiriladi. Duduqlanish xuruji paytida bemorlar boshini orqaga tashlashi, oldinga egishi, ko'zlarini yumishi, mushtlarini qisishi, yelka qisishi, oyoq bilan yerni urishi, bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o'tishlari mumkin. Bir so'z bilan aytganda, tonik yoki klonik tortishishlar deb ataladigan harakatlar qilish.

Psixika. Duduqlanish rivojlanishi bilan ma'lum ruhiy buzilishlar yuzaga kelishi muqarrar. Eng ko'p uchraydiganlari harflar, bo'g'inlar va so'zlar oldidagi qo'rquv, ya'ni ularni talaffuzidan. Duduqlanish bilan og'rigan bemorlar, nutq davomida bunday harflar va so'zlardan qasddan qochishadi, iloji bo'lsa, ular boshqalariga almashtirishga harakat qilishadi. Xuruj davrida mutloq gunglik paydo bo'lishi mumkin. Normal so'zlasha olmaslik haqidagi fikrlar boshqalardan kamlik va butun «men»i nuqsonli ekanligini anglashgacha olib borishi mumkin.

DUDUQLANISH RIVOJLANISHI FAZALARI

1-faza. Duduqlanishning kichik epizodlari, ravon nutq davrlari qisqarishi kuzatiladi. Duduqlanishni birinchi bosqichining oxiri quyidagi belgilar bilan belgilanadi:

Talaffuzdagi qiyinchiliklar ko'pincha jumlaning dastlabki so'zlarida uchraydi;

Duduqlanish epizodlari bog'liq gaplar, ko'makchi so'zlar va nutqning boshqa qisqacha qismlarini so'zlashda paydo bo'ladi;

«Kommunikativ bosim» duduqlanishni og'irlashtiradi;

Bola so'zlashish bilan bog'liq qiyinchiliklariga munosabat bildirmaydi, u xijolat bo'lmasdan gapiradi. Hech qanday tashvish, nutqdan qo'rqish yo'q. Bir zumdagi emotsional chaqnash duduqlanishni chaqirishi mumkin.

2-faza. Aloqa qilishda muammolar, birgalikda kechiuvchi harakatlar yuzaga kela boshlaydi. So'zlashishdagi qiyin vaziyatlar soni asta-sekin oshib boradi.

Muammo surunkali tus oladi, ammo xurujlarning og'irligi farq qiladi;

Talaffuz bilan bog'liq muammolar ko'pincha qiyin so'zlardan iborat bo'lgan paglarni tez talaffuz qilishda yuzaga keladi, nutqning qisqa qismlarida esa kamroq uchraydi;

Bola nutqining buzilishidan xabardor, ammo o'zini duduq deb hisoblamaydi. Har qanday vaziyatda erkin gapiradi.

3-faza. Spazmatik sindromning mustahkamlanishi. Biroq, bemorlar nutqdan qo'rqishmaydi va noqulaylik sezishmaydi. Ular muloqot qilish uchun har bir imkoniyatdan foydalanadilar. Davolash taklifi bemor tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi yoki g'ayratga undamaydi. Ular o'zlarini xotirjam tutishadi.

Bemorlar duduqlanishlari tufayli ba'zi vaziyatlarda so'zlashish qiyin bo'lishini anglab yetadilar;

Muayyan tovushlar, so'zlar bilan bog'liq qiyinchiliklar paydo bo'ladi;

«Muammoli» so'zlarini boshqalar bilan almashtirishga urinishlar qayd qilinadi.

4-faza. Ushbu fazada duduqlanish — katta shaxsiy muammodir. Duduqlanishga yorqin emotsional reaktsiyalar paydo bo'ladi, natijada bemor gapirishdan qochishga harakat qiladi. Agar ilgari bemor vaqti-vaqti bilan «muammoli» tovushlarni (so'zlarni) boshqasiga almashtirishga harakat qilgan bo'lsa, endi bu doimiy tus oladi. Bemor o'zining duduqlanishiga boshqalarning munosabatini diqqat bilan tinglashni boshlaydi.

Duduqlanishni 4-fazasining xarakterli xususiyatlari:

Duduqlanishni kutish (antisipatsiya);

Muayyan tovushlarni (so'zlarni) talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar surunkali xarakterga ega bo'ladi;

Logofobiya (nutqdan qo'rquv);

Savollarga javob berishdan qochishga harakatlar.

ASORATLARI

Duduqlanish mavjudligi bolani so'zlashuv vaziyatlaridan qochishga majbur qiladi, natijada uning muloqot doirasi va natijada umumiy rivojlanish darajasi qisqaradi. Shubha, ehtiyotkorlik, o'zi va tengdoshlari o'rtasidagi farq mavjudligi hissi yuzaga keladi. Bola va ota-onasi (sinfdoshlar, tengdoshlar) o'rtasidagi tushunmovchilik tufayli, ajralganlik va kamsitilganlik hissi paydo bo'ladi. Ta'sirchanlik oshadi, qo'rquv paydo bo'ladi, bu ruhiyatning tushkunligiga va duduqlanishni yanada kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Duduqlanish bola o'zini noqulay his qilishi, uyatchanligi va odamoviligi tufayli maktabda o'zlashtirishning yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Muammoning rivojlanishi kasb tanlash hamda oila yaratishga xalaqit berishi mumkin.

DUDUQLANISHNI DAVOLASH YO'LLARI

Duduqlanishni davolashning barcha usullari uslubiy yondashuv va terapevtik ta'sir turlari bilan farqlanadi. Umuman olganda, ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

Logopedik; Psixologik; Psixoterapevtik; Logopsixoterapevtik; Ijtimoiy reabilitatsiya; Medikamentoz (dorilar bilan); Fizioterapevtik; Kompleks; Noan'anaviy.

Nevrotik duduqlanishni yo'qotish uchun davolash muvaffaqiyati tashxisning o'z vaqtida qo'yilishiga bog'liq. Duduqlanishni davolashning an'anaviy psixoteraptevtik usullari (xulq-atvorli, gipnotik va hokazo) samarasi past bo'lganligi sababli, zamonaviy tibbiyot o'ziga bir nechta elementlarini olgan maxsus terapevtik yondashuvlarni afzal ko'rmoqda. Tutilib gapirshni davolashning bunday kombinativ psixoterapevtik usullari ham individual, ham guruh shaklida qo'llaniladi. Nutq buzilishlarini tuzatish duduqlanishni va tez gapirishni tuzatishga qaratilgan logopedik mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi.

Yosh bolalarda duduqlanishning nevrotik shakli logopedik bolalar bog'chalari va guruhlarida yaxshi davolanadi. Bu yerda kollektiv o'yinli psixoterapiya, logopedik ritmga e'tibor qaratiladi. Oilaviy psixoterapiyaga ham diqqatni qaratish kerak, bunda bolani ishontirish, qo'llab-quvvatlash, hayolini chalg'itish, relaksatsiya muhimdir. Bolalarga barmoqlarning ritmik harakatlari bilan bir taktda gapirish yoki kuylash o'rgatiladi. O'z-o'zini boshqarish usulining asosi shundaki, duduqlanish — o'zgartirsa bo'ladigan ma'lum xulq ekanligini o'rnatishdir. Uning tarkibi — desensibilizatsiya, autogen mashg'ulotlar.

Yordamchi dori vositalarining maqsadi — qo'rquv, xavotir va depressiya belgilarini bartaraf qilishdir. Sedativ (jumladan, fitoterapevtik) va umumiy mustahkamlovchi vositalarni tayinlash tavsiya etiladi.

Bosh miyaning organik shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan spazmolitiklar (tolperizon, benaktizin), ehtiyotkorlik bilan trankvilizatorlar (minimal dozalarda) qo'llaniladi. Suvsizlanish kursi o'tkazish samaradorligi isbotlangan. Klonik duduqlanish holatida gopanten kislotasining bir necha kursini (1 oydan 3 oygacha) belgilash tavsiya etiladi. Bundan tashqari duduqlanishni kompleks davolashga fizioterapiya, shuningdek, massajni (umumiy va logopedik) kiritish tavsiya etiladi.

# MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA BOLA PSIXOLOGIYASIDA O`YIN FAOLIYATINING ROLI YOXUD "ZAMONAVIY O`YINCHOQLAR"

*Расулова Нилуфар Шерзодовна*
*Шайхонтохур тумани 229-Давлат мактабгача таълим ташкилоти психологи*

**Annotatsiya:** Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o`yin bilan o`tadi. O`yin maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiyfaoliyati bo`lib hisoblanadi. O`yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'yekti sifatida shakllana boshlaydi. O`yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar,sotsiologlar,etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o`ziga qaratib kelgan dolzarb mavzudagi muammolardan biridir. Jahon psixologiyasi fanida to`plangan ma'lumotlarga ko`ra,eng sodda psixik jarayondan eng murakkab jarayonlar hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o`yinlar katta rol o`ynaydi. Ayniqsa,bugungi kunda globallashuv davrida xorijdan kirib kelayotgan har xil qo`g`irchoqlar tashqi ko`rinishining bizning mentalitetimizga to`g`ri kelmasligi va yoshlarimizni ularga nisbatan munosabati to`g`risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha yosh davri,o`yin faoliyati, ikki rolli o`yinlar,predmetli o`yinlar, kichik maktabgacha yosh davri, o`rta maktabgacha yosh davri, katta maktabgacha yosh davri,qo`rquv, hissiyot,xotira, tasavvur, idrok, tasviriy faoliyat.

Maktabgacha yosh davri yetakchi faoliyati bo`lgan o`yin faoliyati bu yosh davrida qudratli tarbiya quroli hamdir. Chunki bolalar o`yinlari orqali ularning insoniy hislatlarini tarbiyalash mumkin. O`yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelik taqlid,rol orqali

ijro etishga harakat qiladi va shu yo`sinda atrof-muhit to`g`risidagi,ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o`zlashtirib boradi.

Maktabgacha yosh davrini tahlil qilish uchun shartli ravishda 3ta davrga bo`lamiz;

- Kichik maktabgacha yosh davri 3-4 yosh,
- O`rta maktabgacha yosh davri 4-5 yosh,
- Katta maktabgacha yosh davri 5-6 yosh,

Kichik maktab yoshidagilar asosan yolg`iz o`ynashadi. O`zlarining o`yin faoliyat-lari orqali idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va harakat faoliyatlari takomillashib boradi. Bu davrda bolalarni kuzatsak, ularning rolli o`yinlarida kattalarning harakatlariga nisbatan bo`lgan taqlid yaqqol ko`zga tashlanib turadi. O`yinlar orqali bolalarda ilk marotaba liderlik va tashkilotchilik ko`nikma va malakalari ri vojlanadi.

O`rta va katta maktabgacha yosh davrida ham sujetli-rolli o`yinlar rivojlanadi lekin, kichik maktab yosh davridagiga nisbatan turli-tumanligi bilan farqlanadi.

Katta maktabgacha yosh davrida bolalar tasviriy faoliyat ya’ni rasm chizishni yaxshi ko`radilar. Ular o`zlari ko`rib bilgan predmet va obrazlar bilan bir qatorda xayolot olamidagi o`zi o`ylab topgan tasvirlarini ham chiza boshlashadi. Bolaning rasmlarida tushirilgan tasvirlar orqali biz atrofdagi voqelikni qay yo`sinda idrok qilayotganini bilishimiz mumkin. Xususan,tadqiqotlarga ko`ra ular o`z rasmlarida foydalanayotgan ranglaridanoq ularning jismoniy va psixologik holatlarini bilishimiz mumkin.

Rus pedagogi A.S.Makarenko “Bola o`yinda qanday bo`lsa o`sib ulg`aygach ishda ham ko`pincha ko`p jihatdan shunday bo`ladi”, - deb to`g`ri aytgan. Ayniqsa,bola xulq-atvoriga o`yinchoqlarning ta’siri katta. Xususan,o`tgan asrning 90-yillarida bizning mentalitetimizga mutlaqo zid bo`lgan g`arbcha tashqi ko`rinishga ega bo`lgan qo`g`irchoqlar bola tarbiyasiga mutlaqo ziddir.Bular ta’sirida bola xulqida salbiy og`ishlar paydo bo`ladi.O`gil bolalarda jangavorlik, to`polonchilik,qahr-g`azab kabi hissiyotlarni uyg`otsa,qizlarimizda g`arb kiyinishigabo`lgan taqlidni shakllantiradi.

G.L.Lendret ham o`z asarida “O`yinchoq bola intellektini har tomonlama rivojlantiradi ayniqsa,otaoanalar o`z qo`llari bilan yasab, tikib bergan o`yinchoqlari bolaga yanada yaqin va qimmatlidir”, - deb ta’kidlaydi.Shuning uchun ham bolada u tomonidan hissiy idrok qila oladigan, tafakkuri, dunyoqarashini kengaytiradigan,kattalar va ertak qahramonlariga taqlid qila oladigan o`yinchoqlar to`plami bo`lishi zarur. Rus pedagogi M.Manaseinovaning fikricha onaning bolasi bilan o`ynaydigan ilk o`yinchog`i matolar qirqimi,yorqin rangdagi predmetlar bo`lishi kerakligini aytadi. Har bir bolada shunday o`yinchoq bo`lishi kerakki, u bolaning do`stiga aylanib unga rahmdillik qilishi va asrab-avaylashi lozim.Aynan shu o`yinchoqlar boladagi qo`rquv hissini yengib o`tishi mumkin.

Qoronģu xonada shu òyinchoqlar bilan ovunishi bu boladagi qòrquv hissini yengishiga sababchi bòladi. Bu albatta qator tadqiqotlarda òz isbotini topgandir. Shuni unitmaslik kerakki, yangi òsayotgan bola bu navniholdir uni har tomonlama yetuk shaxs qilib kamol toptirish uchun esa har tamonlama e'tiborli bòlishimiz darkor.

Ma'lumki, uzoq vaqt davomida o'ynash - bu bolaning asosiy faoliyati. Ota-onalarning asosiy vazifasi yoshiga mos o'yinchoqlar tanlash va uning rivojlanishiga ko'maklashishdir. Ushbu savolga yosh psixologiyasiga murojaat qilish kerak:

- 10 kundan boshlab bolaning oldida turgan ob'ektni tuzatishga kirishadi va oyga borib u tovushlarni eshitib, oldida silliq harakatlanadigan hamma narsaga qaraydi. Ushbu asrning birinchi o'yinchoqlari turli xil nayzalar va musiqiy ob'ektlar bo'lib, ular ko'zdan 50 sm balandlikda o'rnatilishi kerak;
- 4 oydan keyin bola unga qiziqqan har bir narsaga qo'l urishni boshlaydi. Bu davrda bolaning qo'lida ushlab turadigan uzun tutqichli ajoyib chayqalaklar va o'yinchoqni bir qo'ldan boshqa joyga siljitadi;
- bolaning 6 oyligidan faqatgina o'yinchoqlarning yorqin ranglariga emas, balki ular "lazzatlanishiga" ham qiziqish bildirmoqda. Bolaga qiziqqan har qanday ob'ekt darhol og'ziga keladi. Shuning uchun oziq-ovqat plastmassasidan, silliq yuzasi bilan shov-shuvlardan foydalanish juda muhim;
- 8 oydan boshlab bola ob'ektlardan tovushlarni faol ravishda chiqarib oladi va fizika qonunlariga rioya qila boshlaydi - tiqish, ochish, tortib olish, o'rash, tushirish. Bu maqsadlar uchun chaqaloq turli xil qutilarga, cho'chqalar, bolg'alar va boshqalarga juda mos keladi.
- 1 yilda bola ob'ektlar bilan mazmunli ishlarni boshlaydi. Misol uchun, qoshiqni og'zingga tortib olish uchun, mashinkani chop eting, to'pni siljiting, yuzning alohida qismlarida ko'rsatish va ularning qanday chaqirilishini bilish. Ushbu asrning yorqin suratlari, to'plari va zarlari yaxshi bo'lgan kitoblar yaxshi;
- Bola bilan 2 yil ichida ob'ektlarning tushunchalari va ranglarini, shakllarini va xususiyatlarini mustahkamlash muhimdir. Buning uchun kuplar, ko'p rangli iplardagi to'plar va bolalar uchun yog'ochli konstruktorning turli detallari bajariladi;
- 2.5 yoshda bola o'z-o'zidan mustaqil ravishda 4 ta asosiy rangdan mavzularni tanlashi mumkin. Ushbu asrga mos keladigan qo'g'irchoqlar uchun idishlarga juda mos keladi. Bundan tashqari, bu yoshda bolakayni kiyish va tugmachalarni bosib olishni o'rganish uchun o'yinchoqni sotib olish mumkin;
- 3 yoshida bolalar o'yin o'ynashni afzal ko'rishadi. Bu askar, shifokor, sartarosh va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday o'yinlar uchun maxsus bolalar to'plamlari sotiladi;
- olti yoshga yaqin bolalar o'yin-kulgilardan o'yinlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan qo'g'irchoqlar, transportlar, ko'plab itlar, quyonlar, kichkintoylar va boshqa jonzotlar bilan qiziqadi. Shuningdek, sog'lig'ingizni unutmang, to'plarga e'tibor bering, halqalar, arqonlarni silkitmang va hokazo. Tanlashingizdagi asosiy omil - rasm va juda ko'p yorqin ranglar bo'lishi kerak, o'yinchoq o'yinining chaqaloq yoshiga va bolaning ruhiga daxlsizligi bo'lishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. S.X Jalilova, N.A G`ayibova. "Umumiy diagnostika". Toshkent 2018
2. Jalilova S.X. "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi". Toshkent 2017
3.Z.T.Nishanova, N.G Kamilova, D.U Abdullayeva, M.X.Xolnazarov. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya". Toshkent-2018.

# МУЛОҚОТ ВА МУНОСАБАТ

*Жабборова Фотима Тошпўлатовна*
*Мирзо Улуғбек тумани 142-ИДУМ психологи*

Муносабат – шахслараро биргаликдаги ҳаракат, яъни одамларнинг биргаликдаги фаолияти жараёнида таркиб топадиган алоқалари ва ўзаро бир-бирларига таъсирининг йиғиндиси сифатида юзага келадиган жараён.

Муносабат ва мулоқот биргаликдаги фаолият кўрсатувчилар ўртасида ахборот айирбошланишини ўз ичига олади.

Мулоқот – кишиларнинг ҳамкорликдаги фаолияти эҳтиёжлари асосида туғиладиган улар ўртасидаги алоқа ривожланишининг кўп қиррали жараёнидир.

Мулоқот – шахснинг доимо инсонлар даврасида, улар билан ўзаро таъсир доирасида бўлишининг энг етакчи ва нуфузли фаолиятларидан биридир.

Мулоқот шахслараро муносабатларнинг шундай кўринишидирки, унинг ёрдамида одамлар бир-бирлари билан ўзаро руҳий жиҳатдан алоқага киришадилар, ўзаро ахборот алмашадилар, бир-бирларига таъсир ўтказадилар, бир-бирларини ҳис қиладилар, бир-бирларини тушунадилар.

Ўзаро муносабатларга киришаётган томонлар муносабатдан кўзлайдиган асосий мақсадлари - ўзаро тил топишиш, бир-бирини тушунишдир. Бу жараённинг мураккаблиги, керак бўлса, «жозибаси», бетакрорлиги шундаки, ўзаро бир хил тил топишиш ёки томонларнинг айнан бир хил ўйлашлари ва гапиришлари мумкин эмас. Агар ана шундай вазиятни тасаввур қиладиган бўлсак, бундай мулоқот энг самарасиз, энг бетаъсир бўлган бўлар эди. Мулоқот фаолиятида ҳар бир шахснинг индивидуаллиги, бетакрорлиги, билимлар ва тасаввурларнинг хилма-хиллиги намоён бўлади ва шуниси билан у инсониятни асрлар давомида ўзига жалб этади.

Муомала ёрдамида одамлар ўзаро психик жиҳатдан алоқага киришадилар, ўзаро ахборот алмашадилар, таъсир ўтказадилар, таъсирланадилар, идрок этадилар, тушуниш ва баҳолаш жараёнларини кечирадилар. Шунинг учун муомала ижтимоий психологик ходиса, ижтимоий категория сифатида ижтимоий турмушнинг барча соҳаларида бевосита иштирок этиб, ҳамкорлик фаолиятининг моддий, маънавий, эмоционал, когнитив, мотивацион, регулятив қирраларини акс эттирувчи объектив ва субъектив эҳтиёж сифатида вужудга келади, ижтимоийлашувнинг асосий омили, негизи вазифасини бажаради. Шахснинг мулоқотга бўлган эҳтиёжининг тўла қондирилиши унинг иш фаолиятига ҳам таъсир кўрсатади. Одамлар, уларнинг борлиги, шу муҳитда ўзаро гаплашиш имкониятининг мавжудлиги факти кўпинча одамни ишлаш қобилиятини ҳам оширади. Айникса, гаплашиб ўтириб қилинадиган ишларда, биргаликда ёнма-ён туриб бажариладиган операцияларда одамлар ўз олдида турган ҳамкасбига қараб кўпроқ, тезроқ ишлашга куч ва қўшимча ирода топади.

Шахснинг мулоқотга бўлган эҳтиёжининг тўла қондирилиши унинг иш фаолиятига ҳам таъсир кўрсатади. Одамлар, уларнинг борлиги, шу муҳитда ўзаро гаплашиш имкониятининг мавжудлиги факти кўпинча одамни ишлаш

қобилиятини ҳам оширади. Айниқса, гаплашиб ўтириб қилинадиган ишларда, биргаликда ёнма-ён туриб бажариладиган операцияларда одамлар ўз олдида турган ҳамкасбига қараб кўпроқ, тезроқ ишлашга куч ва қўшимча ирода топади.

- ҳамкорлик фаолиятида, мулоқотлар тизими орқали мулоқот жараёнининг барча аъзолари ўртасида инсонпарварлик муносабатларини ташкил қилиш, эмоционал муҳитни таққослаш имкониятини юзага келтириш.

- шахслараро муносабатлар ва мулоқот усулларига мўлжалланган ишбилармонлик ўйинлари, психодрама, тренинг тизимини яратиш.

Инсонлар мулоқотга киришаркан, унинг энг муҳим жиҳатларини кўриб чиқамиз:

Коммуникатив - инсониятнинг муомала қуроли тил бўлиб, одамлар бир-бирлари билан бўладиган барча муносабат ва мулоқотларини сўзлашиш ёрдамида амалга оширадилар.

Интерактив - муносабатга киришувчиларнинг ўзаро биргаликдаги ҳаракати - нутқ жараёнида фақат сўзлар билан эмас, балки, ҳатти-ҳаракатлар билан ҳам айирбошлашдан иборатдир.

Перцептив - муносабатга киришувчиларнинг бир-бирларини идрок эта олиши. Суҳбатдошининг ҳолатига, ранги-рўйига, овозига қараб муомала қилиш.

Инсониятнинг муомала қуроли тил бўлиб, одамлар бир-бирлари билан бўладиган барча муносабат ва мулоқотни сўзлашиш ёрдамида амалга оширадилар.

Бу борада сўзлашишнинг саккизта қоидасини келтирамиз:

- бемаврид гапирмаслик;
- лутф ила юмшоқлик билан сўзлашиш;
- очиқ чеҳра билан гапириб, юзда самимийликни сақлай олиш;
- эшитувчига малол келмайдиган тарзда гапириш;
- фақат фойдали гапларни гапириш.
- ўйлаб, андиша билан сўзлаш, ўйламай айтилган гап пушаймонлик келтиришини ёдда тутиш;
- кишилар гапираётганда орага гап қўшмаслик, сўзини бўлмаслик;
- кўп гапирмаслик, зеро, бу яхшилик аломати эмас.

Ҳар бир инсон кишиларга зарар келтирадиган сўзлардан ўзини сақлаши лозим. Зеро, муқаддас Ҳадиси шарифда айтилганидек, “Ўзингга раво кўрмаган ёмон нарсани бировга ҳам раво кўрма”. Бунинг учун тилга эҳтиёт бўлиш, киши дилини оғритадиган, кўнгилни қолдирадиган, иззат нафсига тегадиган, ор-номуси, шаънини оёқ-ости қиладиган сўзни ҳеч сўзламаслик даркор. Ҳамма вақт ширин сўз бўлиш, доимо яхши, маънили сўзлаш керак, чунки, тилдан етган озор найза озоридан ёмон.

Одамлар бир - бирлари билан муомалага киришар эканлар, уларнинг асосий кўзлаган мақсадларидан бири - ўзаро бир-бирларига таъсир кўрсатиш, яъни фикр-ғояларига кўндириш, ҳаракатга чорлаш, установкаларни ўзгартириш ва яхши таассурот қолдиришдир.

Турли воситалар ёрдамида инсонларнинг фикрлари, ҳиссиётлари ва ҳатти-ҳаракатларига таъсир кўрсата олиш, яъни психологик таъсир.

Ижтимоий психологияда психологик таъсирнинг асосан уч воситаси фарқланади.

Вербал таъсир - бу сўз ва нутқимиз орқали кўрсатадиган таъсиримиздир. Бундаги асосий воситалар сўзлардир. Маълумки, нутқ - бу сўзлашув, ўзаро муомала жараёни бўлиб, унинг воситаси - сўзлар ҳисобланади. Монологик нутқда ҳам, диалогик нутқда ҳам одам ўзидаги барча сўзлар захирасидан фойдаланиб, энг таъсирчан сўзларни топиб, шеригига таъсир кўрсатишни хоҳлайди.

Новербал таъсирнинг маъноси «нутқсиз» дир. Бунга суҳбатдошларнинг фазода бир-бирларига нисбатан тутган ўринлари, ҳолатлари (яқин, узоқ), қилиқлари, мимика, пантомимика, қарашлар, бир-бирини бевосита ҳис қилишлар, ташқи қиёфа ва ундаги сигналлар киради. Уларнинг барчаси мулоқот жараёнини янада кучайтириб, суҳбатдошларнинг бир-бирларини яхшироқ билиб олишларига ёрдам беради.

Паралингвистик таъсир - бу нутқнинг атрофидаги нутқни безовчи, уни кучайтирувчи ёки сусайтирувчи омиллар. Бунга нутқнинг баланд ёки паст товушда ифодаланаётганлиги, артикуляция, товушлар, тўхташлар, дудуқланиш, йўтал, тил билан амалга ошириладиган ҳаракатлар, нидолар киради. Мулоқот жараёнидаги характерли нарса шундаки, суҳбатдошлар бир - бирларига таъсир кўрсатмоқчи бўлишганда, аввал нима дейишни ўйлар эканлар. Аслида эса, улар атрофидаги ҳаракатлар муҳим ҳисобланади. Масалан, машҳур америкалик олим Меграбян формуласига кўра, биринчи марта кўришиб турган суҳбатдошлардаги таассуротларнинг ижобий бўлишига гапирган гаплари 7%, паралингвистик омиллар 38%, ва новербал ҳаракатлар 58% гача таъсир қиларкан. Кейинчалик бу муносабат ўзгариши мумкин албатта, лекин халқ ичида юрган бир мақол тўғри: «Уст-бошга қараб кутиб олишади, ақлга қараб кузатишади».

Нутқнинг атрофидаги нутқни безовчи, уни Инсониятнинг энг юксак маънавий эҳтиёжларидан бири — бу мулоқотга бўлган эҳтиёждир. Мулоқотга бўлган эҳтиёжимиз қондирилмаса, онгимиз ҳам ривожланмайди.

Ҳар қандай фаолиятдан зерикиш, чарчаш мумкин, инсон фақат мулоқотдан, айниқса, унинг норасмий самимий, бевосита шаклидан чарчамайди, яхши суҳбатдошлар доимо маънавий жиҳатдан рағбатлантириладилар.

кучайтирувчи ёки сусайтирувчи омиллар.

Ижтимоий психологияда одамларни самарали мулоқотга атайлаб ўргатишга жуда катта эътибор берилади. Ижтимоий психологик тренинг ёки муомала тренинги, яъни муомаланинг машқ қилиниши бу вазифани ҳал қилиш йўлларидан бири сифатида намоён бўлади.

Маълумки, мулоқот давомида гаплашаётган одамлар бири гапиради, иккинчиси тинглайди, эшитади. Мулоқотнинг самарадорлиги ана шу икки қирранинг қанчалик ўзаро мослигига ва бир-бирини тўлдиришига боғлиқ. Инсонни муомала ёки мулоқотга ўргатганда, уни мантиқан асосланган сўзлардан фойдаланиб, таъсирчан гапиришга ўргатишади. Унинг иккинчи томони - тинглаш қобилиятига деярли эътибор берилмайди.

Мутахассисларнинг аниқлашларича, ишлаётган одамлар вақтининг 45%и тинглаш жараёнига кетар экан, одамлар билан доимий мулоқотда бўладиганлар,

35-40 % ойлик маошларини одамларни «тинглаганлари» учун оларканлар. Бундан шундай хулоса келиб чиқадики, коммуникациянинг энг қийин соҳаларидан ҳисобланган тинглаш қобилияти одамга кўпроқ фойда келтираркан.

«Одамларни ўзингиз тўғрингизда яхши фикрга эга бўлишларини хоҳласангиз, уларни тингланг» А. Шопенгауэр.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Каримова В. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт.Тошкент 2010
2. Нишонова З.Т. Психологик маслахат.Т.2010
3. www.psixologiya.uz

# XULQ – ATVOR VA ODATLARNI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

*Mamajonova Ra`no Abdusamatovna*
*Olmazor tuman 298-maktab psixologi*

Shaxsga taaluqli bo‘lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob’ekt, ham sub’ekt bo‘lishlikdir. Shaxsga taalluqli bo‘lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta’sirlarni o‘z ongi va idroki bilan qabul qilib, so‘ngra shu ta’sirlarning sub’ekti sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o‘sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an’analar, udumlar, turli xil tillar olami bo‘lib, undagi ko‘plab qoidalarga ko‘pchilik mutloq qo`shiladi, ba’zilar qisman qo`shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo‘ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta’kidlanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi sub’ekt bo‘lsa, jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko‘rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta’sir qiladi : siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta’surotlar mohiyatan aslida jamiyat a’zolari bo‘lmish shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ayrim alohida yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta’sirida bo‘ladi va ko‘plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o‘quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san’at, madaniyat va boshqalar.) bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, shaxsdagi turli g‘oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta’sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog`cha, maktab va boshqa o‘quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta’sir uning e’tiqodi darajasida ko`tarilsa, va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g‘oyalarning paydo bo‘lishi va o‘sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o‘z qobiliyatlari, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo

o‘qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo‘lib, elu - yurtiga xizmat qiladi. Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlariga o‘tayotgan O‘zbekiston sharoitini oladigan bo‘lsak, yangicha iqtisodiy o‘zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya va shunga o‘xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo‘lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o‘z a’zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o‘zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo‘lishidan qat’iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o‘quvchining o‘qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o‘rniga qo`yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o‘rin bo‘shatishi - norma va hakozo. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo‘lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muxrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo‘lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo‘lishini nazorat qiluvchi jazo va rag‘batlantirish mehanizmlari bo‘lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob’ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta mo`ysafid kishiga o‘rin bo‘shatishni norma deb qabul qilmagan o‘smirga nisbatan ko‘pchilikning ayblov ko‘zi bilan qarashi, yoki og‘zaki tanbex berishi, juda kam hollarda o‘zini bebosh tutayotgan o‘smirning qo`lidan tutib, nima qilish kerakligini o‘rgatib, «ko‘zini moshday qilib ochib qo‘yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko‘rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo‘lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o‘quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a’zo bo‘lish, stipendiya olib, ma’muriyatning ijtimoiy himoyasida bo‘lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o‘sha oliygoh ichki tartib - intizomi normalariga so‘zsiz bo‘ysunish, darslarga o‘z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o‘zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo‘lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya’ni, konkret shaxsning o‘ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli - tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi.

Shunga ko‘ra, kimdir «tartibli, ba’mani, fozil, axloqli va odobli» deyilsa, kimdir - be’mani, bebosh, o‘zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya’ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo‘lib qoladi. Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko‘pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo‘lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o‘zi uchun o‘ta ahamiyatli bo‘lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o‘sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko‘pligi ba’zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirtdan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi - bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish. Hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o‘zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniksa, yoshlar o‘zgaruvchan sharoitlarga tezrok moslashish uchun ba’zan bir - biriga zid hislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo‘lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig`i, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo‘lmaslik uchun, bir vaqtning o‘zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o‘z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. N.Ismoilova, D.Andullayeva-“Ijtimoiy psixologiya”.Toshkaent-2013.
2. V.Karimov, O.Xayitov-“Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi”.Toshkent-2007.
3. Library.tersu.uz.
4. Science.i-edu.uz.

# ZAMONAVIY PEDAGOG-ZAMON TALABI

*Mo‘xsinova Mahmuda Sultonmurod qizi*
*Namangan viloyati Namangan tumani 26-maktab o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** Being a pedagogue in accordance with the requirements of the rapidly developing world, the organization of teaching processes on the basis of modern innovative technologies is the primary task of today's pedagogue. This thesis addresses the challenges of becoming a modern educator and the quality and effectiveness of the teaching process

**Kalit so’zlar:** Modern pedagogue, innovative approach, pedagogical technology, modern method.

Bugungi kun o‘qituvchisi tez o‘zgarib borayotgan dunyoda o‘z imkoniyatlarini ko‘rsata olmasa, zamon bilan hamohang bo‘lmasa, o‘z ustida ishlashni doimiy kundalik

tartibiga aylantirmasa kompetentli o‘qituvchi darajasiga ko‘tarila olmaydi. Bugungi kun o‘qituvchilari oldida o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalangan holda darslarni tashkil etish o‘zining dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi paytda, aksariyat metodist va pedagog olimlar pedagogik texnologiyalar o’quvchi yoki talabalarga ta’lim-tarbiya berishda ko‘zlangan maqsadga erishishni to’la kafolatlaydi, deb qarashmoqda. Lekin bunday fikrlarni obyektiv haqiqat o'rnida qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda obyekt shaxs bo’lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha, uni inkor qilishi ham mumkin. Shuning uchun, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchigina ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo‘ladi. Agar shu nuqtai nazardan kelib chiqib qaraydigan bo‘lsak, yangi pedagogik texnologiyalar va uning asosiy negizi bo'lgan axborot-kommunikatsiya (AKT) texnologiyasini ta’lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo‘lmish o‘qituvchining tayyorgarlik darajasini birinchi o‘ringa qo‘yish lozim.

Shu sababli pedagogik jarayonlaming kun tartibidagi aksariyat dolzarb muammolarining ijobiy yoki maqsadga muvofiq tarzda hal qilinishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga bog'liqdir, Xo’sh kasbiy salohiyatni va pedogogik mahoratni oshirish uchun o’qituvchi nima qilishi kerak? Birinchi navbatda pedogog AKT sohasida yetarli bilimga ega bo’lishi lozim. Dars jarayoni uchun zarur bo’lgan bir qancha dasturlarda masalan, Power Point dasturida, Photoshop dasturida, Word, Excel dasturlarida ishlay olishi kerak. Internet manbalaridan ham o’zi mustaqil ravishda foydalana olish bo’yicha taassurotga ega bo’lishi ham bu AKT sohasiga borib taqaladi. Internet manbalaridan foydalanish nafaqat dars jarayonining qiziqarli va mazmunli o’tishiga ko’mak beradi, balki pedagog o’z mutaxassisligi bo’yicha yangiliklardan xabardor bo’lishi va ulardan foydalanishi uchun ham katta yordamchi hisoblanadi.
Ikkinchi navbatda pedagog dars mavzusiga va o’quvchilarning yoshiga mos bo’lgan pedogogik texnologiyalardan to’g’ri foydalanishni bilishi lozim. «Pedagogik texnologiya» atamasining mohiyati nimada? «Texnologiya» - yunoncha so‘z bo‘lib, «techne»-mahorat, san’at, «logos»-tushuncha, o'rganish. demakdir.

Nega bugungi kunga kelib, pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug‘ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud.

Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo‘ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo‘l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma’lum sabablar mavjud, ya’ni:

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o ‘rin olish uchun, aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;

2. Fan-texnika taraqqiyotining o‘ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko‘payib borayotganligi;

3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish, ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi (AT) va texnik vositalar (TV)dan foydalanish kerakligi;

4. Talabava o'qituvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchi ta’lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta’lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi egallagan bo'lishi, talabaning qiziqish va intiluvchanligini to'g'ri yo'lga yo'naltira olishi lozimligi;

5. O'qituvchi ta’lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta’lim natijasini oldindan qayd etishi, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta’lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi kerakligi;

6. O'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo'lishligi;

7. Ta’lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va obyektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;

8. O'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa majmuiy yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

Pedagogik jarayonda o'zining yangi g'oyalami ishlab chiqish qobiliyatini doimo rivojlantiradigan va takomillashtiradigan o'qituvchi iqtidorli hisoblanadi. Pedagogik ijodiyot-o'z mohiyatiga ko'ra odamning yangi bilimlarni hosil qilish va takomillashtirish bo'yicha ijodiy ishining kasbiy, maxsus ifodasidir. Pedagogik izlanish o'qitishda doimo ma’lum yo'nalishdagi subyektga nisbatan aniqlashtirilgan bo'ladi.

Pedagogik izlanish natijasida yangilikning asosiy namoyon bo'lish shakllari kundalik o'quv-tarbiyaviy muammolarning nostandart yechimlari, pedagogik ta’sir usullarining metodik va nazariy jihatdan mukammal ishlab chiqilishi, ixtiro etilishi va takomillashuvi hamda ulardan samarali foydalanishda ko'rinadi.

Zamonaviy pedagog qiyofasi deganda uning tashqi va ichki ko‘rinishi nazarda tutiladi. O‘qituvchining tashqi ko‘rinishi “pedagogning imiji”ga albatta mos bo‘lishi lozim. Shuningdek, o‘qituvchining qiyofasi uning chehrasida va kiyinishida namoyon boladi. O‘qituvchi har qanday kiyimda yurishi mumkin emas. U toza va ozoda, bejirim va latofatli kiyinishi kerak.

Bolalar o‘qituvchisini, birinchi navbatda, chiroyli kiyingani, nafis pardoziga qarab ham yaxshi ko‘radi. Undan keyin, uning chehrasiga, ko‘zlaridagi mehrga qaraydilar. Agar o‘qituvchining ko‘zlarida bolalarga nisbatan mehr bo‘lmasa, u qanchalik chiroyli va qimmatbaho kiyingan bo‘lmasin, bolalar uni yaxshi ko‘rmaydi. Shu sababli o‘qituvchi-ning istarasi issiq bo‘lishi ham zarur.

O‘qituvchi hamisha darsga ochiq chehra bilan kirishi kerak. Nutq madaniyatiga rioya qilishi, shevadan qochib, adabiy tilda, chiroyli muo-malada so‘zlashi lozim. O‘qituvchi chiroyli gapira olishi, ya’ni notiqlik san’atini ham egallagan bo‘lishi lozim. Aslida, har qanday insonga ham kiyinishiga, ko‘rinishiga va gapirishiga qarab baho beramiz. Shuning uchun shu uchta belgi insonlar to‘g‘risida xulosa chiqarishning birlamchi belgilari hisoblanadi. To‘rtinchidan, o‘qituvchi o‘z kasbini sevishi, mutaxassisligi bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishi kerak. Beshinchidan, darsni o‘quvchilarga oson, qulay va qiziqarli qilib tu-shuntira olishi kerak. Oltinchidan, dars

o‘tishning innovatsion metodlari va metodikalarini yaxshi bilishi hamda ularni darsda mohirlik bilan qo‘llay olishi lozim.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, pedagogdan juda ko‘p kasbiy va insoniylik xislatlari talab etiladi. Shu sababli o‘qituvchi o‘z ustida tinimsiz va muttasil ishlashi, o‘zini isloh etib borishi, bilimi va xulqini doimiy takomillashtirib borishi zarur. Buning uchun esa mamlakatimizda o‘qituvchilarga yetarlicha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Zero, Prezidentimizning “O‘zbekistonda bugundan boshlab, eng hurmatli, eng e’zozli inson — bu muallim!” yoki “O‘qituv-chini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman!”, deb ta’kidlab turganligining o‘zi biz pedagoglarga katta kuch-quvvat bag‘ishlashi kerak, deb o‘ylayman.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalaming tadbiqiy asoslari. - T.: 2005.
3. Avliyakulov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.

## BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING O’RNI

*Tajibayeva Ma’mura Tojiddinovna*
*Namangan viloyat HTXQTMOX markazi pedagogika, psixologiya va ta`lim texnologiyalari kafedrasi o’qituvchisi,*
*Asqarova Lolaxon Ziyotaliyevna*
*Namangan viloyat Mingbuloq tumani 46-maktab psixologi*

Bugungi zamonaviy ta`lim «Ta`lim to’g’risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida amalga oshirilmoqda. Bunga ko’ra ta`lim sohasini mazmunan yuqori darajaga ko’tarish, yuqori malakali, raqobatbardosh yoshlarni tayyorlash asosiy maqsad qilib olingan. Shu bois ham pedagogika va psixologiya fanlari oldiga ta`lim tizimining dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish kabi vazifalar qo’yildi.

Ta`limda integratsiyani amalga oshirish ham iqtisodiy, ham pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o’qituvchining vaqti, kuchi tejaladi, ortiqcha zo’riqishning oldi olinadi. O’quv-biluv jarayonining samaradorligi ortadi. Lekin yuqoridagilarni amalga oshirish uchun esa, o’qituvchi har tomonlama tayyor bo’lishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan o’qituvchi bolani qanday rivojlanishida mas`ul shaxslardan biri hisoblanadi. Boshlang’ich ta`lim O’zbekiston Respublikasida ta`limning boshlang’ich bo’g’ini hisoblanib, bola shaxsini sog’lom va yetuk qilib tarbiyalash maqsadini ko’zlaydi. Bola maktabga kelishi bilan uning hayotida muhim bosqich boshlanishi, u shaxsning yangi ijtimoiy mavqeiga-o’quvchiga aylanishi unga yangi talablar qo’yilishi, an`analar ruhida mehnatga munosabati o’qituvchi e`tiboridan chetda qolmasligi kerak. Bolani o’z vaqtida yetarli darajada bilimini shakllantirmaslik

hunuk oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunki u maktabda butunlay yangi dunyoga o'zi uchun begona bo'lgan muhitga tushib qoladi. Aslida bolaning maktabda fanlarni yomon o'zlashtirishi aql zakovatining yetarli rivojlanmaganligi bilan emas, balki maktabda yetarli bilim olmasligidan ham kelib chiqadi. Hozirgi vaqtda boshlang'ich sinf o'quvchilarini yetarli bilim olishlari uchun quyidagi jihatlarni hisobga olish zarur:

1. Jismoniy jihat.
2. Tabaqalashtirish (farqlash) qobiliyatining ma`lum darajasini, shuningdek, xotiraning rivojlanish darajasini inobatga oluvchi intellektual jihat.
3. Diqqatni, sabr-toqatni boshqarish, topshiriqlarni bajarish tayyorgarligi ifodalangan ishga munosabat.
4. O'qituvchidan holi bo'lish, guruh bilan aloqa o'rnatish qobiliyatini ko'rsatuvchi ijtimoiy jihat.

Darsga integratsion yondashish asosan, atrof-borliq va ularning o'zaro uyg'unlashuvida namoyon bo'ladi.

Integratsiya so'zi turlicha talqin qilinib, integratsiya (lotincha integratsio – jamlash, umumlashtirish, integer – yaxlit) tushunchasi, birinchidan, alohida differension bo'limlarning o'zaro muvofiqligi, organizm funksiyalari tizimining yaxlitligi va bu holatga olib boruvchi jarayon; ikkinchidan, fanlarning o'zaro bog'liqligi va yaqinlashuv jarayoni, ularning differensiallashish uchun kechadigan qator omillarda namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich maktablarda integratsiyani qo'llash uchun eng avvalo maktab fanlarining mavzulari yuzasidan bir-biriga bog'lanishiga, o'quvchilar ijodkorligiga, imkoniyati va amalga oshirish shakli, shartlariga e`tibor berish kerak. Integratsion texnologiyadan faoliyatimizda foydalanish uchun fanlarning o'zaro o'xshashliklaridan, ularning o'zaro ichki mohiyatlarini bir-biriga bog'liqligidan (masalan, o'qish, tabiat, tasviriy san`at, musiqa, mehnat) va ularning ijodiy shakllaridan, bir-birini hisobidan emas, balki o'zaro manfaati uchun, o'shanda ham har birining o'ziga xosligini buzmagan holatda foydalanish mumkin.

**"Sehrli sonlar"**

Ushbu didaktik o`yin o`quvchilarni bilish jarayonlari, og'zaki nutqi va tafakkurini yanada yaxshi rivojlanishiga yordam beradi. Didaktik o'yindan dars mavzusiga bog'lab misol uchun ona tili darslarida so`z turkumlarini o`tishda matematika fanidagi yuzliklar mavzusini bog`lab olib borish mumkin. Didaktik o`yin tashkil etishdan oldin o'qituvchi yozuv taxtasiga quyidagi jadval asosida harf kassasini joylashtirib qo'yadi. Tanlangan o'quvchi (introvert ya'ni og'zaki nutqi yaxshi rivojlanmagan o'quvchi bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi) harf kassasidagi sonlarni o'sish tartibida joylashtirish topshirig'i beriladi. O'quvchi faqat sonlarga e'tibor berishi aytib o'tiladi, chunki harflarga qarab joylashtiradigan bo'lsa xatoga yo'l qo'yishi mumkin.

Masalan:

Sonlarni o'sish tartibida joylashtirib chiqish vazifasi beriladi.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 500 | 900 | 600 | 100 | 300 |
| L | M | I | B | I |

O'quvchi bajargan topshiriqni o'quvchilar bilan birgalikda tekshirib ko'ramiz.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 100 | 600 | 500 | 300 | 900 |
| B | I | L | I | M |

Bu yerda bir hil ikkita "I" harfi bo`lganligi uchun o`rni almashtirib qo`yilgan. O'quvchi harflarga e'tibor berganligi sababli xatoga yo'l qo'ygan va natijada xato, sonlar to'g'ri joylashtirilmagan.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 100 | 300 | 500 | 600 | 900 |
| B | I | L | I | M |

Jadvalni tekshirib ko'rilgandan so'ng, qanday so'z hosil bo'lganligi va bu so'z haqida fikrlari so'raladi.

Quyidagi topshiriqni ya'ni sonlarni kamayish tartibida joylashtiring.

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 100 | 700 | 600 | 800 | 400 | 300 | 500 |
| Ya | O | M | K | D | I | E |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 800 | 700 | 600 | 500 | 400 | 300 | 100 |
| K | O | M | E | D | I | Ya |

Integratsion darslar orqali o'quvchining o'qish anglashga bo'lgan qiziqishlari ortadi, bilimlari chuqurlashadi va kengayadi. Ularda ijodiy xissiyotlarini uyg'otib, yangi shakldagi ishlarni bajarishga, xotirjam ish olib borishga yetaklaydi. Natijada maktab o'quvchilarida maqsad yo'nalishini rivojlantirib, o'z oldilariga alohida maqsadlar qo'yishdan qo'rqmaslikka da`vat etadi. Shu bois ham boshlang'ich ta`lim jarayoniga integratsion usullarni olib kirish samarali natija beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Karimova V.M.Psixologiya.T.: 2002.
2. Qosimova K va boshqalar.Ona tili o'qitish metodikasi.T.:Noshir, 2009.
3. Sharipov M, Fayzixo'jayev D.Mantiq.T.: 2004.

## SHAXSNI IJTIMOIY PSIXOLOGIK HIMOYA QILISH MUAMMOLARI

*Tajibayeva Ma'mura Tojidinovna*
*Namangan viloyat HTXQTMOX markazi pedagogika va psixologiya, ta`lim texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi,*
*Mirzaxalilova Dilfuza Xolmatovna*
*Uychi tuman 38-maktab ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktar o'rinbosari*

**Annotasiya:** Farzandlarimizning umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hozirgi murakkab va tahlili zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada xushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir.

**Kalit so'zlar:** Milliy o'zlik, qadriyatlar, globallashuv.

Ma’lumki, farzandni tarbiyalash, unga ilm berish, kasb o’rgatish qadimdan eng mas’uliyatli vazifa sanalgan. Odob-axloq, yoshi ulug’larga hurmat, mehr-oqibat, oilaga, kindik qoni to’kilgan zaminga sadoqat fazilatlarini kamol toptirish bola tarbiyasida eng muhim jihatlardan hisoblanadi.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida bunyod etilayotgan zamonaviy o’quv maskanlarida yoshlarning chuqur bilim olish, kasb egallashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Ta’lim jarayoni tubdan o’zgarmoqda. Har bir o’quvchining qiziqishi, qobiliyati, bilim olish salohiyati inobatga olingan holda, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik usullar joriy etilmoqda. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad – yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish, ongini o’stirish, dunyoqarashini boyitishdir. Zero, yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, ularda e’tiqod, Vatan tuyg’usini kamol toptirish tarbiyaning ustuvor yo’nalishlaridandir.

Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat’i va mas’uliyatimizni yo’qotsak, bu o’ta muhim ishni o’z holiga, o’zi bo’larchilikka tashlab qo’yadigan bo’lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo’g’rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o’zimiz intilgan umumbashariy tarqqiyot yo’lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

Demak, mana shunday mas’uliyatli zamonda milliy manfaatlarimizni talab darajasida anglash va uni uzluksiz amalga oshirib borishni ta’minlash, bu borada barcha imkoniyatlarni safarbar eta olish qobiliyatini yuksaltirib borish jamiyatimizning eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalari sirasiga kiradi. Mazkur hayotiy muhim muammolarni hal qilinishida xalqimizning ma’naviy salohiyati asosiy kuch manbai sifatida xizmat qilishini mustaqil taraqqiyotimizning shu paytga qadar erishilgan natijalari tasdiqlamoqda.

Endilikda ma’naviy manbalarimizni yuksaltirish va jamiyat taraqqiyotining ustuvor vazifalariga to’liqroq safarbar qilish hamda yoshlarimiz tafakkurida, dunyoqarashida davrimizning turli salbiy tendentsiyalariga qarshi barqaror ijtimoiy immunitetni zamon bilan hamnafas bo’lgan holda shakllantirish eng ustuvor vazifamizga aylandi.

Ma’lumki, yangi jamiyatni qurish jarayonida uning barcha tashkil qiluvchi tomonlarini birdek yagona maqsad sari harakat qilishiga erishish, ijtimoiy munosabatlardagi barqarorlikni saqlab qolish uchun jamiyat a’zolarining yuksak mas’uliyati, oldindan turgan vazifalarga nisbatan yuqori saviyadagi madaniy munosabati suv bilan havodek zarur bo’ladi. Bunday samaraga erishish, albatta, yuksak ma’naviyatni shakllantirish vazifasi bilan bevosita bog’liqdir. Shu bois ham bizning mamlakatimizda yangi demokratik jamiyat qurish vazifalari jamiyatimizning ma’naviy tayanchlarini rivojlantirish bilan bog’liqlikda belgilanadi. Zeroki, mamlakatimizni taraqqiy ettirish muddaosining zaminida inson omili va uning egu manfaatlarini amalga oshirish yotadi.

Ta’lim va tarbiya, ilm-fan, intellektual salohiyatni yuksaltirish, hozirgi davrdagi zamonaviy taraqqiyotning yetakchi qonuniyatiga aylandi. Ushbu umumsotsiologik qonuniyat bizning jamiyatimiz uchun ham begona emasdir. Shu bois ham Davlatimiz 1-rahbari tomonidan “Barkamo avlod yili” davlat Dasturida mazkur masalalarga alohida chuqur e’tibor qaratilishi lozimligi ko’rsatib o’tildi.

Buni chuqur anglab olgan davlat, bunday xulosani chiqargan, xalqaro hamjamiyat va taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga ko'tarilish uchun harakat qilayotgan jamiyat, birinchi navbatda, bugun unib-o'sib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barkamol avlod bo'lib hayotga kirib borishini o'zi uchun eng ulug', kerak bo'lsa, eng muqaddas maqsad, deb biladi".[19]

Ma'lumki, bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda,ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlili zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada xushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir. Demak, jamiyatimiz ma'naviy manbalarini yoshlarimizning ongida, madaniyatida sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini chuqur qaror toptirishga yanad chuqurroq, kuchliroq safarbar qilish hamda yashab turgan davrimizning turli salbiyy tendentsiyalariga qarshi barqaror ijtimoiy immunitetni zamon bilan hamnafas bo'lgan holda shakllantirish, barkamol avlod tarbiyasining ajralmas uzviy bo'lganini tashkil qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hayotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ma'naviy-tarbiyaviy chora va tadbirlar o'zining ijobiy amaliy natijalarini bermoqda. Buni hayotda o'zining munosib o'rnini egallayotgan ayni chog'da jamiyatimiz taraqqiyotining turli sohalariga zalvorli xissa qo'shayotgan har tomonlama faol, vatanparvar yoshlarimiz misolida ko'rishimiz mumkin.

Jamiyatimizda amalga oishirilayotgan ta'lmi va tarbiya, yuksak ma'naviyatni shakllantirish jarayonlari yoshlarimizning o'z iste'dodlrini har tomonlama namoyon qilishlari uchun beqiyos ulkan imkoniyatlar va shart-sharoitlarni vujudga keltirmoqda.

Hozirgi paytda "Madaniyatlar to'qnashuvi ijtimoy deviantlik omili sifatida" mavzusida ilmiy izlanishlarini davom ettirmoqda.

Orzusi – kelajakda yetuk mutaxassis bo'lish va o'zi yaxshi ko'radigan she'riyat sohasida eng sara she'riy namunalarni yaratish. Shu bilan bir qatorda, har bir inson orzu qiladigan mukammal baxtga erishish".[20]

Shiori – o'ziga, "Sen kuchlisan, Barno!" deya ta'kidlagan holda doim olg'a intilish va yutuqqa erishish".

Hozirgi davrda jahon miqyosida globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda ayniqsa, jamiyatimiz yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini yanada takomillashtirish va samarali amaliy antijalarga erishish vazifalari nihoyatda dolzarb ahamiyat kasь etib borayotganligini ham zinhor xotiramizdan chiqarmasligimiz lozimdir. Zero, xalqaro globallashuv nihoyatda murakkab va serqirra jarayon hisoblanib, barcha xalqlar vadavlatlar taqdirriga bir xilda ta'sir etayotgani yo'q. Shu bois ham mamlakatimiz milliy mustaqilligini mustahkamlanishida, globallashuvning salbiy ta'sirlariga nisbatan mustahkam immunitetni shakllantirilishida jamiyatimiz yoshlarining vatanparvarlik xissining ahamiyati beqiyos kattadir.

---

[19] Қалқонов Э. Баркамол авлод ватан таянчи. // Жамият ва бошқарув.
[20] *Каранг*: Маърифат. 2010 йил, 10 апрель.

Inson va jamiyat hayotida ular manfaatiga xizmat qilish imkoniyatiga ega har qanday narsa, voqea-hodisa inson va jamiyat ehtiyojini qondirishga, ular faoliyatini davom ettirishga qodir bo'lganligi uchun "qadriyat" deb ataladi. Umuman olganda, qadriyatlar deganda inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan, uning kamolotiga ijobiy ta'sir etadigan, inson, jamiyat hayotida ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi barcha tabiiy va ijtimoiy narsa- hodisalar, moddiy hamda ma'naviy boyliklar, ne'matlar, fazilatlarni tushunamiz.

Qadriyatlarning mohiyatini bilish, ularni o'zlashtirish yoshlarda vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy iftixor, miliylik birlik va birdamlik tuyg'usini, insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, xalollik, poklik mehnatservarlik fazilatlarini shakllantirishda katta o'rin tutadi.

Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi eshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichiga ko'tarishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftihor bag'ishlaydi".

Yoshlarda vatanparvarlikning shakllanishi – ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini anglab yetish bilan bog'liq. Vatanparvarlikni shakllantirishda xalq milliy taraqqiyoti, tarixi, madaniyati, san'at va adabiyoti, turmush tarzi, axloqi, e'tiqodi, ijtimoiy ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, an'analar alohida e'tiborga molik qadriyatlar sanaladi. Shuningdek, "Yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishga kuchli ta'sir etadigan qadriyatlar jumlasiga – ona tili va adabiyot , milliy, diniy bayramlar, har xil milliy marosimlar, oilaparvarlik, bolajonlik, ota-ona, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug', mahalla-ko'y, keksalarga hurmat, mehr-muruvvat, rahm-shavqat, xalollik, poklik, imon-e'tiqod, vatanimizning go'zal tabiatidan ilhomlanish, uni asrash madaniyatiga ega bo'lish kabi fazilatlar kiradi.

Shu munosabat bilan alohida ta'kidlash joizki, vatanimiz yoshlarni xalqimiz milliy urf-odatlari, qadriyatlari va an'analariga sadoqat ruhida tarbiyalashda mamlakatimizning ommaviy axborot vositalarining roli beqiyos kattadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston. – 2017.
2. Ivanov P.I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 2008.
3. Klimov Ye.A. Oбщaя psixologiya – SPb.: Piter, 2001.

# O`QUVCHILARNI O`Z-O`ZINI ANGLASHGA O`RGATISHNING ICHKI OMILLARI HAMDA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

*Tajibayeva Ma'mura Tojiddinovna*
*Namangan viloyat HTXQTMOX markazi pedagogika, psixologiya va ta`lim texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi,*
*Asqarova Lolaxon Ziyotaliyevna*
*Namangan viloyat Mingbuloq tumani 46-maktab psixologi*

**Annotatsiya.** O`quvchi o`zini jamiyat a'zosi deb bilishni anglash, atrof-olam, jamiyat a'zolari bilan o`zaro munosabatlarini boshqarishga o`rgatish.

**Tayanch so`zlar:** jamiyat, o`zlikni anglash, jamiyat a'zosi, fikr, tuyg`u, axloq, shaxs, g`urur, vijdon, yolg`on.

O`zlikni anglash - o`zini jamiyat a'zosi deb bilish, atrof- olam, jamiyat a'zolari bilan o`zaro munosabatlari, kuchi, xatti-harakatlari, fikrlari va tuyg`ularini anglab yetishdir. Bu o`zini anglash va o`ziga bir butun ongli mavjudot sifatida munosabatda bo`lishdir.

O`z ustida muvaffaqiyatli ishlash, birinchi navbatda, o`zini, o`zining kuchli va zaif qirralarini tushunib yetish, jamoadagi mavqei, o`rni va ahamiyatini anglab yetish, kelajagini mustaqil belgilay olish, ya'ni o`zligini anglashning muayyan darajasini nazarda tutadi.

O`zlikni anglash shaxs va jamiyat hayotida turmush tarzi, jamiyat a'zolari bilan munosabatlarni to`g`ri tashkil qilish, muloqotning turli shakllarida o`z axloqini boshqarishda muhim o`rin tutadi. O`zlikni anglash darajasining yuqori bo`lishi ijtimoiy me'yorlarni bilish va jamiyat a'zolarining ijtimoiy fikrga hurmat bilan qarash atrofdagilarning axloqiy tubanlashuviga to`siq bo`lib xizmat qiladi. Bundan tashqari o`zlikni anglash darajasining yuqori bo`lishi g`ayri ijtimoiy individlarning salbiy ta'siridan saqlaydi. Vijdon azobidan qo`rqish, atrofdagilar nazarida o`ziga ishonch va g`ururining poymol qilinishini xohlamaslik, shaxsni noloyiq, axloqsiz xatti-harakatlardan tutib turadi. g`ururli, vijdonli inson yolg`onning kishilar va jamiyat uchun naqadar katta kulfat keltirishi mumkinligini yaxshi anglaydi va hech qachon haqiqatga xilof ish qilmaydi. Bunday shaxs jamiyat a'zolari o`z-o`zini hurmat qilishga qodir bo`ladi. Tuban hislar va mayllar quli bo`la olmaydigan insongina shaxs bo`la oladi, jamiyatning ma'naviyatli, ma'rifatli a'zosi bo`lib yetishadi.

O`zlikni anglash ham xuddi ong kabi tarbiya va insonning faol harakati jarayonida muntazam rivojlanib boradi. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha: «Inson shaxsining shakllanishi o`zida o`zining uzviy qismi sifatida shaxs ongi va uning o`zligini anglashning shakllanishini mujassamlashtiradi. Bu ongli shaxsning rivojlanish jarayonidir» [109-676]. O`zlikni anglashning shakllanishi shaxs ma'naviy rivojlanishining negizidir. Bu shaxs ongining ijtimoiy yo`nalganligiga bog`liqdir.

O`zlikni anglash bilish hosilasidir. Bilish jarayoni uchun esa shaxsning o`z kechinmalarini ijtimoiy borliq bilan bog`liq ekanligini anglash talab qilinadi. SHunday qilib, o`zlikni anglash ikki tarkibiy qismdan iborat: anglash («men yomonman») va bilish («nima uchun men yomonman va bu nimaga bog`liq»). O`z-o`zini bilish

birdaniga, to`satdan namoyon bo`lmaydi. Inson o`zini bilishga bilimlarni egallash, kishilar bilan muloqot, faoliyat jarayonida o`rganadi. U kishilar xarakteri, ularning axloq motivlarini qanchalik ko`p bilsa, turli hayotiy vaziyatlarda odamlarni qanchalik ko`p kuzatsa, atrofdagilar, tarixiy shaxslar hayoti, badiiy asarlar qahramonlarini qanchalik ko`p o`rgansa, o`zining mohiyatini ham shunchalik teranroq tushunadi.

Shakllanib, rivojlanib boradigan anglash-murakkab hodisadir. CHunki bu yerda bilishning o`ziga xos shakli namoyon bo`ladi: shaxs bilishning ham ob'ekti, ham sub'ekti sifatida namoyon bo`ladi. So`z shaxs xarakterining salbiy qirralarini bartaraf qilish to`g`risida ketganda, o`zlikni anglash kishidan o`ziga qat'iy va ayovsiz munosabatda bo`lishni talab qiladi. CHunonchi, kimlardir ishyoqmaslik odatini yengish uchun o`zini ikki-uch marta ko`proq hajmda ish bajarishga majbur qiladi, o`zini idora qila bilishni tarbiyalash uchun esa ko`ngil ochar tadbirlar, turli mayl, xoyu-havaslardan o`zini tiyishga, xafagarchilik hissini so`ndirishga harakat qiladi.

O`z axloqi mexanizmini tushunib yetish, o`zining har bir xatti-harakati, mayllari mohiyati va oqibatini chuqur anglashi uchun sezgi jismlariga ega bo`lishning o`zi yetarli emas. Jism yuzasidagi eng mayda zarralar, gullarning eng nafis jilolarini ilg`ab olishga qodir ko`rish qobiliyatiga ham ega bo`lish va ayni paytda o`zining harakatlaridagi qo`pollikni ko`ra olmaslik mumkin. Kishi eng mayin, nafis tovushlarni eshitishga qodir bo`lsa-da, o`zgalar iztirobi, ularning qalb nolalarini eshita olmasligi mumkin. Demak, sezgi jismlaridan tashqari or-nomus, vijdon, hozirjavoblik, adolat, burch, insoniylik kabi ma'naviy xislatlarni ham tarbiyalash, ya'ni o`zlikni anglashning muayyan darajasiga erishmoq lozimdir. Bunda shaxs shakllanishi jarayonining uzviy qismi bo`lgan o`zlikni anglash yuqoriroq darajaga ko`tariladi. Pedagogik nuqtai nazardan o`zlikni anglash ko`nikmasining rivojlanishi birinchi navbatda, kishi dunyoqarashi bilan bog`liq bo`lgan o`z-o`zini baholash va tahlil usullarini egallab olish demakdir.

O`zlikni anglashning rivojlanishi inson mohiyati qirralarining har tomonlama qamrab olinishi, ularning har birini teran tahlil etishi bilan rivojlanuvchi tarmoq bo`ylab harakat qiladi: bilmaslikdan bilishga, ya'ni shaxs rivojlana borgani, hayotiy tajribasi ortgani sari o`zlikni anglash ko`nikmasining takomillashuvi shiddatliroq va serqirraroq bo`la boradi. SHu sababli o`smirlik yoshi boshlanishi bilan o`z-o`zini bilish tugal holatda namoyon bo`lmaydi, balki bir necha bosqichlardan o`tadi.

O`smirlarda o`zligini anglash darajasini o`rganish, ular o`zligini anglashining o`ziga xos qirralari, zaif bo`g`inlarini aniqlash tarbiya yo`nalishlarini belgilab olish imkonini beradi. SHuningdek, bu shaxs tomonidan axloqiy me'yorlarning anglanish darajasini belgilash, mazkur bosqichda kam rivojlangan xislatlarni aniqlash va shu asosda o`quvchilarning o`z-o`zini tarbiyalash, ayniqsa, zarur ma'naviy xislatlarni shakllantirish bo`yicha muayyan maqsadga yo`naltirilgan pedagogik tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

O`smirlarning o`zligini anglash darajasini o`rganishning qator metodlari mavjud. Bular: anketa so`rovi, yozma ishlar.

Yozma ishlarni quyidagi mavzularda o`tkazish maqsadga muvofiqdir: «Sen kimga o`xshashni xohlarding va nima uchun?», «Sen o`zingda qanday xislatlarni tarbiyalashni

xohlaysan?», «Sen o`z do`stingda qanday xislatlarni ko`rishni istaysan?», «Sen nimaga intilayapsan?».

Anketa savollariga javoblar va yozma ishlar boshqa metodlar uyg`unligida shuni ko`rsatdiki, ilk o`smirlik yoshidagi o`quvchilarning o`z-o`zini tarbiyalash bo`yicha dastlabki qadamlari kattalar, tengdoshlari, aniq timsollarga taqlid qilishdan boshlanar ekan. Odatda, o`quvchilar bu yoshda maktab va uyda maqtov eshitish uchun o`zlarida mehnat va o`quv ko`nikmalarini hosil qilishga intilishadi. Bu ko`proq faoliyatning alohida turlari bilan bog`liq eng oddiy xislatlar va ko`nikmalari: o`z vaqtida o`rindan turish, uydagi eng oddiy foydali ishlarni bajarish, kun tartibiga rioya qilish, o`quv fanlarini o`zlashtirishni yaxshilash kabilar.

Ilk o`smirlik yoshidagi o`quvchilar dastavval o`zlariga ko`ngilsizlik keltiruvchi kamchiliklar(ishyoqmaslik, besaramjonlik, qat'iyatsizlilik, va besabrlik)ni tezroq anglab yetishadi. Bu kamchiliklarni his qilish ularning o`zlari ustida ishlashlarining dastlabki ko`rinishidir. U yoki bu xatti-harakatlar to`g`risida ular alohida xislatlarning tashqaridan namoyon bo`lishiga qarab, ularni chuqur idrok etmay hukm chiqarishadi. Shu sababli kichik yoshdagi o`smirlarda o`z-o`zini tanqid juda zaif rivojlangan, ular ko`proq ota-onalari, kattalar ko`rsatgan kamchiliklarni idrok qilishadi («Onam o`jarsan» deydi, shunaqa bo`lsam kerak).

Ilk o`smirlik yoshidagi o`quvchilarning javoblarida axloqiy sifatlarni chuqur anglashdan guvohlik beruvchi qirralar hali juda oz. Alohida xislatlarni tarbiyalash esa ularning natijalari tezda his qilinsa, intilishlar namoyon bo`lgandagina muvaffaqiyatli kechishi mumkin. Demak, bu yoshda o`z ustida ishlash yaqin maqsadlarga erishishga qaratilgan, shu bilan bir qatorda tarbiyachining muntazam undab turuvchi nazorati va yordami zarur. Agar ilk o`smirlik yoshidagi o`quvchilarning o`z ustida ishlash faoliyati yo`naltirilmasa, bu jarayon to`xtab qolishi mumkin. Bu hol amaliyotda yaqqol ko`rinadi.

O`smir yoshidagi o`quvchilarning rivojlanishida burilish davri birinchi navbatda o`zlikni anglashning shakllanishi bilan bog`liq. Bu davrda bolalikdan kattalar holatiga, g`o`rlikdan balog`atga kabi o`ziga xos o`tish jarayoni yuz beradi. O`smir o`zining axloqi, atrofidagilar bilan o`zaro munosabati ustida bosh qotira boshlaydigan davr boshlanadi. U o`zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Ma'naviy idealni izlash, o`z orzusini amalga oshirishga intilish uning asosiy maqsadiga aylanadi, ilk intim hislar uyg`onadi, shu sababli ular ulg`aygach ularning axloqiy sifatlar doirasi ilk o`smirlik yoshidagi o`quvchilarga nisbatan ancha kengayadi. O`smir yoshdagi o`quvchilar shaxsdagi mas'ullik, insoniylik, boshlagan ishni oxiriga yetkazish, bir so`zlilik kabi hislatlarni tushunishlarini namoyon qila boshlaydilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**


1. Karimova V.M.Psixologiya.T.: 2002..
2. Qosimova K va boshqalar.Ona tili o'qitish metodikasi.T.:Noshir, 2009.
3. Sharipov M, Fayzixo'jayev D.Mantiq.T.: 2004.

# ЗАМОНАВИЙ ПСИХОЛОГИЯНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

*Эргашов Зафаржон Ибрахимович*
*Наманган вилояти Норин тумани 44-мактаб психологи*

Мен кўплаб ўтказилаётган конференцияларингизда иштирок этишга бел боғлайман, психологиядаги баъзи муаммоларни ўз қаричим билан ўлчаб, ўртоқлашмоқчи бўламан, аммо етказа олмайман. Ҳар куни эрталаб $7^{00}$-$7^{30}$дан то $17^{00}$гача мактабда бўламиз. Ўз вазифамизни билиб бажарамиз. Ундан ташқари кўзда тутилмаган ишлар юқори ташкилотлардан турли сўров, топшириқ, жадваллар ва ҳакозо.

Вазирлар Махкамасининг 2019 йил 12 июлдаги 577-сонли қарори билан мактабларда амалиётчи – психологларни иши аниқ белгилаб берилган. Ўқувчилар билан ишлаш психодиагностика, психокоррексия, маслахат, касбга йўналтириш, ота-она билан ишлаш, педагоглар билан ишлаш ва хаказо ишлар. Бунча нарсани 250-300 та ўқувчи учун улгурса бўлар, аммо 500 дан ортиқ бола билан бу ишларни тўлиқ амалга оширишни хақиқатдан ҳам иложи йўқ. Ўрта мактаблар мутахасис психологлар билан таъминланди. Аммо кўплаб ёш психологлар ўз вазифасини яхши тушунмаслиги сабабли директор ва ўринбосарларнинг бошқа топшириқларини, давомат олиш, навбатчилик ва бошқа ишларни бажариб юраверишлари мактабда психологиянинг ўрнини йўқотиб қўймоқда. Бундай психо-логларга маош ҳам етарлидек. Аммо ўз вазифамизни бажариш учун вақт етарли бўлмай эрталаб $7^{30}$ дан кеч $17^{00}$ гача ишлаб етказа олмай уйда ҳам ишни давом эттиришимизда бу маош камлик қилаётгани хеч кимга сир эмас.

Психолог бола билан ишлаши учун аниқ режалар берилган аммо қайси вақтда ишлашини ҳеч ким ўйламайди. Кимнингдир дарси ҳисобига тренинг ўтказиш, сўровнома олиш.

Булар ўқитувчига ҳам баъзи ўқувчиларга ҳам малол келиши табиий. Шунинг учун натижалар ҳам кўнгилдагидек бўлмайди. Менимча хар бир синфга 0,5 соатдан дарс берилиши олдин ҳам айтилганди, шуни амалга ошириш зарур деб ўйлайман. Ҳар қандай сохага жиддий эътибор қаратилар экан, албатта 5-6 йилда ўз самарасини кўрсатмоқда. Психология соҳасига кўрсатилган ва кўрсатилаётган эътибор натижаси қачон мевасини беради деган савол барча психологларни ўйлашга ундаши керак менимча. Агар мактаб психологлари вазифасини умумий холда “жамиятда ўз ўрнига эга бўлган, қобилиятига мос касб эгаллаган, миллий қадриятларимизни, урф одат, анъаналаримизни қадрлайдиган, оилапарвар, ватанпарвар комил инсон тарбиялаш” бўлса, бунга қачондир эришиш мумкинми? Эришиш мумкин албатта тўлиқ бўлмаса ҳам. Бунинг учун **биринчидан** болалар онгига салбий таъсир этувчи кўрсатувлар “хафа бўлиш йўқ”, “оила мундарижаси” каби қатор кўрсатувларни айниқса турк сериалларини телевидение кўрсатувларидан чиқариб ташлайликда, хеч ким уларни қидирмайди ҳам. Яқин кунларда ҳам оиласи бузилиб кетаётган йигит хеч кимга дардини

достон қилмаган, ўзи ёки ота-онаси, қариндошлари билан ими-жимида ҳал этишган. Бегоналарнинг билишини ор-уят деб хисоблаган, бугунчи? Оиламни тиклаб беринг, аёлимга насихат қилинг, уйлаб қўйинг, турмушга чиқишга тайёрман каби миллий хамиятимизни оёқости қиладиган кўрсатувлар кимларгадир фойдалидек туюлсада, тарбияга салбий таъсир кўрсатиши нахотки катта ёшдагиларни ташвишга солмаяпти. Ўринсиз бўлса ҳам бир оқсоқол айтган воқеани эслаб ўтмоқчиман. “...90-йиллар боши эди, м.ф.й оқсоқоли эдим ўшанда. Ишсиз, фарзанд тарбиясидаги, қийналган аёлларга оилаларга ёрдам, кўмак бериладиган бўлди. Биз бундайларни аниқлаш мақсадида билган хонадонларимизга кириб, таклифни айтганимизда ғурур хамияти топталгандек бўлиб, турли ҳақоратомуз сўзлар билан хатто ўзингни ўғил-қизларингга бер, қариндошларингга бер бундай пулларингни каби дашномлар билан қувиб чиқаришганди. Ўшанда шеригим билан қандай ориятли халқимиз борлигидан фахрлангандик.

Кейинги йиллардан бошлаб эса бунинг акси бўла бошлади, режада фалончага бериш керак, таъминоти тузуккина бўлганлар ҳам андишани четга суриб талашайдиган бўлишди...”. Қиссадан хисса шуки инсон онгида бари-бир миллий ғурур, андиша, ҳаё-ибо каби фазилатлар шаклланган, аммо атрофдагилар бу фазилатларни четга суриб қўйса, иқтисодий томони осонгина яхшиланмоқда...

Бир кўрсатувга оиламни тиклаб берингалар деб, бир кўрсатувга қиз ўзини реклама қилиб чиқиб турса, бу уят ишларга бутун жамият томошабин бўлсак, комил инсон - бу эртак эканда.

Иккинчидан ҳамма ахборотлар салбий ходисалар таҳлили билан банд бўлиб қолди. Фалон жойда автохалокат, фалончи жонига қасд қилди, фалончи суиқасд қилди ва ҳакозо. Бу билан нимага эришяпмиз. Агар жамиятда бу холат ақалли биттага камайса ҳам майли эди. Аксинча стресс, аффект холатдаги инсонларга нотўғри йўлни кўрсатиб бермоқдамиз. Ўз жонига қасд қилишни оммавий ахборот воситаларида маълум маънода тарғиб қиламизда, бундай холат содир этилса, айбдорни қидрамиз. Умуман олганда телекўрсатувларни тарбия сохасидаги етук педагог ва психологлардан тузилган қандайдир масъуллар кўригидан ўтказиб сўнг намойиш этилса яхши бўларди.

Учинчидан оиланинг ролини, қадр-қимматини жамиятда ошириш, жамият аъзоларининг хуқуқ ва эркинликларидан ташқари бурч ва вазифалари борлигини тушунтириш, оилани бузиш ва тирик етим болалар тақдирига бефарқ ота-оналарга жиддий чоралар кўриш зарур. Чунки ажрашган оилаларда вояга етаётган болалар хулқида оғишлар, хуқуқбузарликлар содир этилаётгани ҳаммага маълум. Мен атрофимиздаги ажрашган оилаларни ўзимча таҳлил қилиб шундай натижага келдимки, бизларни қилган хатоларимизни қачонлардир қайсидир жамиятимиз давомчилари азиятини тортар экан. Чунки мак-таблар 9 йиллик таълимга айлантирилиб, академик литцей ва касб хунар коллежлари жорий этилди ва бу босқичда ўқувчиларни хаётга тайёрлаш, оила психологияси ўқитиладиган бўлди. Аммо мутасаддиларимизнинг оддий хақиқатга панжа орасидан қарашлари оқибатида кераксиз профессиялардан тузилган аксарият коллежларда минг мажбурлашимизга қарамай бола ўқишга бормади. Натижада аксарият шундай

коллеж битрувчилари оила хақида, бола тарбияси, эр-хотин муносабатлари хақидаги билимлардан мосуво бўлишди. Бугун анашу ёшлар қураётган айрим оилалар бузулиб кетмоқда. Тўғри академик литцей, тиббиёт, педагогика, юридика коллежларида ўқиган ёшларда керакли билим ва тушунчалар бор. Мен ўзим билган ажрашган ои-лаларни ўзимча тахлил қилиб юқоридаги хулосаларга келар эканман, қуйидаги хақли савол туғилади. “Мана 11 йиллик таълимни учунчи қалдирғочларини учириш арафасида турибмиз, аммо уларга мактабда юқоридаги билимни бермаяпмизку?” Тўртинчидан Психологияни ривожлантиришда энг асосий масала кадр масаласи. “Ўзбекистон психологлари” группасига аъзоман, баъзан 4 йил ўқиганлар қайта тайёрловда ўқиганлардан кўра ўзларини устунроқ қўйиб, психологларга хос бўлмаган характерда бехуда сўзлар билан бахслашадилар. Тўғри, диплом олган билан малакали ўқитувчи ёки психолог бўлиб қолмай-ди, 4-5 йиллик фаолият билан тажрибага эришамиз. Психологлар фақатгина болалар билан балки ўқитувчи ва ота-оналар билан ҳам иш олиб бориши лозим. Ҳар қандай инсонга қандай масалада маслахат берсангиз ҳам, айниқса фарзанд тарбияси борасида маслахат берилганда ёш тафовути муҳим рол ўйнайди. Базан оила қурмаган ёшлар ёки хали фарзанд кўрмаган ёш психологлар мактабда ота-оналарга тарбия тўғрисида маслахат беришлигига тўғри келади. Психологнинг маслахати тўғри бўлса ҳам, афсуски баъзи ота-оналар томонидан тўғри қабул қилинмайди. Шунинг учун келгусида бу муаммони олдини олиш мақсадида мактаб психолог ёрдамчиси штати киритилиб, шу ўринда камида уч йил ишлаган кадрни талабаликка қабул қилинса, ёш жиҳатидан ҳам, салохият жихатидан ҳам юқори малакали кадрларга эришамиз деб ўйлайман.

Бешинчидан мактаб психологлари икки ёки ундан ортганда барчаси аёл ёки барчаси эркаклардан иборат бўлиб қолмаслиги лозим. Шундай холатлар кузатилмоқда. Ахир юқори синф қизлари эркак психологга ёки ўғил бола ўз фикрини аёл кишига айтолмайдику.

Ватанимиз келажаги бўлган ёш авлодни турли бузғунчи, вайронкор ғаялар таъсирига тушиб қолишини олдини олиш учун мактабда психологик хизмат сохасида юқоридаги муаммоларни бартараф этиш лозим.

## ОИЛАВИЙ ТАРБИЯ – МУСТАҲКАМ ОИЛА НИШОНИ

*Ахмаджонова Шохидахон Иброхимовна*
*Андижон вилояти Хўжаобод тумани 9-мактаб психологи*

Мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёти даврида баркамол инсон ҳақида, унинг меҳнати, турмуши, маънавий ва иқтисодий тараққиёти ҳақида ғамхўрлик давлатимизнинг асосий мақсадларидан бирига айланган. Жамият мустаҳкам, маънавий ва аҳлоқий жиҳатдан соғлом оила бўлишини тарафдоридир. Шу сабабли мамлакатимиз оилаларни мустаҳкамлашни, болалар тарбияси, шунингдек, ижтимоий турмуш шароитларини яхшилашда ўз олдига бир қатор вазифалар қўйган.

Оила ҳар бир халқнинг, миллатнинг давомийлигини сақловчи, миллий қадриятларни ривожлантирувчи, баркамол авлодни тарбияловчи муқаддас макондир. Мамлакатимизда амалга оширилаётган туб ислоҳотлар мазмунида оила манфаатларини ҳуқуқий, ижтимоий, иқтисодий ва маънавий жиҳатдан ҳимоя қилишни таъминлаш масалаларига алоҳида эътибор берилмоқда.

Оила ва жамиятнинг баркамол авлодни тарбиялашдаги роли босқичма-босқич амалга оширилмоқда. Дарҳақиқат, оилага бўлган бугунги муносабатни баҳоламоқ учун юртбошимиз айтганидек, “ Бу ёруғ дунёда ҳаёт бор экан, оила бор. Оила бор экан, фарзанд деб аталмиш бебаҳо неъмат бор. Фарзанд бор экан, одамзод ҳамиша эзгу орзу ва интилишлар билан яшайди”[21]. Ҳа бугунги кунда мамлакатимизда амалга оширилаётган барча ишларни, ёш авлоднинг бахт-у саодати, уларнинг ёруғ келажаги учун амалга оширилмоқда.

Кейинги йилларда давлатимиз томонидан қабул қилинган бир қатор қарор ва қонунлар ҳалқимизнинг ижтимоий-маданий юксалишини, оилаларнинг ижтимоий-иқтисодий ва маънавий камолотида мухим роль ўйнамоқда. Чунки оилаларнинг хар томонлама юксалиши, бу жамиятимизнинг юксалиши демакдир. Худди шу маънода келажагимиз бўлмиш ёш авлод тарбияси ва унинг тараққиёти давлат аҳамиятига боғлиқ масала ҳамдир. Иккинчи томондан, жамиятнинг оила ва оилавий тарбияга бўлган талаби ортиб бормоқда. Зотан, ота-оналарнинг болалар тарбияси юзасидан масъулиятини кучайтириш, тарбиялашга оид лаёқатини ошириш, оилавий ва ижтимоий тарбия бирлигини таъминлаш ҳозирги куннинг долзарб масаласидир.

“Оилавий тарбия деганда ота-оналарнинг ўз ҳаётлари, турмуш тарзлари асосида бола шахсида дунёқараш асослари, сиёсий аҳлоқий эстетик ва бошқа ижтимоий омилларни шакиллантириш мақсадида мунтазам, изчил, ғоявий ва маънавий таъсир кўрсатиш жараёни тушунилади.” [22]

Қадим замонлардан ўзбек ҳалқи ёш авлодни тарбиялаш асосан оилада амалга оширилган. Келажагимизнинг қандай бўлиши ҳозирги кунда тарбияланаётган ёшларимизга боғлиқ. Бундай улкан вазифани амалга оширувчи, моддий ва маънавий бойликларни яратувчи асос оиладир. Оила жамиятнинг бошланғич ижтимоий бўғин сифатида мураккаб таркибга эга бўлиб, у ўз фаолиятида оила аъзоларининг эҳтиёжи ва қобилияти, турли фаолиятнинг мақсад ва вазифаларинигина эмас, балки тарбиявий фаолиятни ҳам акс эттиради. Унинг мураккаб ва кўпқиррали фаолиятининг ҳаётийлиги икки тамонламадир.

-биринчидан, жамиятнинг бир кичик қисми, ижтимоий ўзгаришларни ўта сезгирлик билан илғаб оладиган, ўзида акс эттирадиган белгидир. Шунга асосланиб оилавий тарбияни ижтимоий тарбиянинг асосий қисмларидан бири деб ҳисоблаш лозим.

-иккинчидан, оиланинг мураккаб ва кўп қиррали фаолияти унинг вазифалари ва тузилишига, ижтимоий турмиш тарзига, оила аъзоларининг ижтимоий фаолиятларига, уларнинг барча қизиқишлари, эҳтиёжлари ва муносабатларига боғлиқлигини назардан қочирмаслик керак.

---

[21]“Юксак маънавият-енгилмас куч” И.А.Каримов Тошкент “маънавият” 2008. 56-бет.

[22]Оила педагогикаси А.Қ.Мунавваров – Т.: Ўқитувчи, 1994 3-бет.

Оилавий тарбиянинг ўзига ҳослиги шундаки, у болаларга ота-оналарнинг ота-оналик, қон-қариндошлик хислатларини узатиб, шахснинг умумий ва ҳиссий ривожланишинигина таъминлаб қолмай, балки шахснинг мавжуд имкониятларини ва аҳлоқий камолотини ҳам ўстиради. Шу сабабли оилавий тарбия доимо мавжудлиги, кўрсатмалилиги ва сержилолиги билан ажралиб туради.

Оилавий тарбияда муҳим аҳамият акс этувчи объектив ва субъектив омилларни билмоқ лозим. Объектив омилларга оиланинг моддий фаровонлиги, даромадларнинг турлари, ўзига ҳослиги ва савияси, уй-жой билан таъминланиш даражаси, шунингдек, оила аъзоларининг сони, таркиби ва бошқаларни киритиш мумкин. Субъектив омилларга эса оиладага ўзаро муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари, маълумот, оила аъзоларининг маданий-манавий савиялари, ота-оналарнинг муомала маданиятлари ва бошқалар киради. Бинобарин, оилавий тарбияда ота-онанинг шахси муҳим ахамият касб этади. Улар маънавий жиҳатдан юксак, аҳлоқий пок, одобли ва маданиятли бўлиши билан бир қаторда ўзларининг шахслари билан фарзандларига намуна бўлмоғи ҳам зарурдир.

Ота-онанинг ҳамма болаларига бир хил бўлиши, тарбиянинг муҳим шартларидан бўлиб, опа-укаларнинг аҳил, бир-бирига меҳрибон, оқибатли бўлишига олиб келади, фарзандлар назарида
ота-онанинг обрўси ошади, одамлар билан ҳисоблашишга, уларнинг кўнглинии ранжитмасликка, одамларни қадрлашга ўргатади. Зеро, оиладаги тотувлик, ўзаро ҳурмат, меҳ-муҳаббат, келишувчилик каби ҳислатлар ота-оналар билан фарзандлар ўртасида мустаҳкам руҳий муҳитни қарор топдиради, уларнинг камолотига ижобий таъсир кўрсатади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ёшларимизни ҳар томонлама соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш, авлодлар давомийлигини таъминлайдиган маънавият қўрғони бўлмиш оилани мустаҳкамлаш бугунги кунда барчамизнинг асосий вазифамиз бўлмоғи зарур.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. “Оила педагогикаси” А.Қ.Мунавваров – Т.: Ўқитувчи, 1994 3-бет.
2. “Юксак маънавият-енгилмас куч” И.А.Каримов. Тошкент “Маънавият” 2008 56-бет

## МАКТАБДА ПЕДАГОГЛАРНИНГ ВАЗИФАСИ ТАЪЛИМ БЕРИШ ВА ТАРБИЯ

*To'yev Jobir O'tkir o'g'li*
*Buxoro viloyati Peshko' tumani 7 va 45-maktab psixologi*

Мактабнинг асосий вазифаси фақатгина таълим бериш. Фоизларда айтадиган бўлсам, мактаб фаолияти 85% таълим 15% тарбияни қамраб олиши лозим. Демак, мактаб болага тарбия беришда кўмакчи холос. Нима учун? Чунки, бола 6-7 соатини мактабда асосий вақтини эса уйида ўтказади. Бундан ташқари

бола 7 ёшдан бошлаб мактабга боради. 7 ёшгача бола тарбияси деярли шаклланиб бўлинган ҳисобланади.

Бола тарбияси 7 ёшгача деярли шаклланиб бўлинган ҳисобланади! Боламга тарбияни неча ёшдан берсам бўлади деган саволга Ибн Сино она қорнидалигидаёқ бериш керак деб жавоб қилган эканлар. Мактабларимизда ҳар бир синфда 35-40тагача ўқувчи дарсда ўтиради. Шунча ўқувчига битта ўқитувчи қандай қилиб ҳам таълим ҳам тарбия бера олади? Ўқитувчининг диққати, эътибори, сабри етмайди.

Ўқитувчи ҳам инсон. Унинг ҳам ўз ташвишлари, муаммолари ва фарзандлари бор. Замонавий педагогика талабларига кўра сифатли таълим бўлиши учун дарсда ўқувчилар сони 15тадан ошмаслиги лозим.

Тушуняпсизми? Шунча миқдор бўлса, таълим сифатли бўлади. Лекин 40 та ўқувчига ҳам таълим ҳам тарбия... Сўровномадан аён бўляптики, ота-оналар фарзандига тарбия бериш масъулиятини мактабга юклашган. Барака топгурлар, тушунинглар! Мактабнинг ўзининг масъулияти - таълим бериш масъулияти бор. Тарбия иккинчи масала. Ўқитувчилар Олий таълимда болага тарбия бериш илмини эмас балки, ўз мутаххасисликлари бўйича болага таълим бериш илмини ўрганадилар.

Таълим беришнинг ўзи мураккаб жараён. Унга қўшимча тарзда яна бир қийин жараён - тарбияни ҳам топшириш адолатсизлик эмасми? Нега ҳозирда тарбия борасида муаммоларимиз кўпайиб кетяпти? Сабаби оддий. Чунки, болалар ота-онасидан тарбия кўришмаяпти. Ота-оналар тарбия беришни мактабга юклашган.

Тарбия кўрмаганликнинг асосий белгиси - бу катталарни ҳурмат қилмаслик. Катталарни ҳурмат қилмаган бола ўқитувчисини ҳурмат қиладими? Ўқитувчисини ҳурмат қилмаган болага таълим бериб бўладими? Йўқ албатта! Тарбияли болага таълим бериш осон кечади. Лекин ўқитувчилар тарбия қилиш билан овора.

Таълим эса бир четда мунғайиб қачон мени галим келаркин деб кутиб турибди. Ўқитувчи билан репетиторни фарқи нимада? Аслида униси ҳам буниси ҳам ўқитувчику Чунки, репетитор таълим бериш мумкин бўлган тарбияли болаларга таълим беради. Аҳлоқи яхши бўлмаса ўқишига қабул қилмайди. Репетитордан ҳеч вақт тарбия талаб қилинмайди.

Тарбияни ота-она ўз бўйнига олади. Ўқитувчи гарданида эса ҳам тарбия ҳам таълим юкланган. Шунинг учун ўқитувчининг таълимида ҳам тарбиясида ҳам сифат йўқ. Шунинг учун ҳам репетиторларга талаб юқорилаб кетди. Бугунги кунда сир эмаски, тарбия борасида анча оқсоқлаб қолдик.

Мактаб ёшидаги болаларда агрессия, девиант хулқ-атворнинг ва ҳоказо салбий ва ижобий деб бўлмайдиган хусусиятларнинг намоён бўлиши кўп кўзга ташланмоқда.

Ҳаёт оқимининг тезлашуви ва ўсмирларда жадал кечаётган акселерация сабаб болалар ўз ҳиссиётларини бошқара олмай қолишмоқда. Бу ўз навбатида таълим ва тарбиянинг сифатига салбий таъсир кўрсатмоқда. Шу боис Халқ

таълими тизимини тубдан ислоҳ қилиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бирига аллақачон айланганлигини кўпчилик тушунмаяпти/ҳис қилмаяпти.

Мактаб ўқувчиларининг эмоционал интеллекти паст кўрсаткичларда. Айнан эмоционал интеллектнинг пастлиги барча муаммоларнинг асл сабаби. Мактабда берилаётган таълим болаларнинг билим салоҳиятини оширишга қаратилган. Бироқ, бу билимлар EQ кўрсаткичи паст бўлганда ўз аҳамиятини йўқотади. Аниқроқ тушунтирсам, эндиликда мактаб болаларни  тестлар, имтихонларга тайёрлашга ярамай қолди. Энди мактаб ўқувчиларни ҳаётга тайёрловчи маскан бўлиши лозим.

Нималар қилмоқ керак?  Қуйида ўзимнинг таклифларимни бериб ўтмоқчиман:

Л- Биринчи навбатда мактабда ҳар бир синфда 15-20 та ўқувчи бўлишини таъминлаш лозим.

Сон кўп бўлган жойда сифат паст бўлади. Бизнинг мактабларимизда эса ҳар бир синфда 35-40 ўқувчи ўтиради. Бу эса педагогик жараённинг сифати паст бўлишига олиб келмоқда.

- Мактабда таълим-тарбия жараёнида эркакларни жалб этиш.

Мактабларимизда ўқитувчиларнинг 80-90%и аёллардан иборат. Ўғил болалардаги қатъиятсизлик, мустақил қарорга келолмаслик, масъулиятдан қочишни шу билан изоҳласак бўлади. Бу ҳам эмоционал интеллект кўрсаткичи пастлигининг катта сабабларидан бири.

- Мактабларда янги фалсафа ва психология фан дастурлари жорий этилишини таъминлаш.

Фалсафа фани жорий этилиши бўйича алоҳида пост ёзилган бўлиб уни шу ерда ўқишингиз мумкин. Албатта, фалсафанинг мактаб дастури сифатида киритилишида баъзи муаммолар бор. Асосий муаммо ўқитувчи кадрларнинг йўқлиги ва дастур сифатида ниманинг ўтилиши. Бу борада жаҳон тажрибасидан андаза олиш керак бўлади. Чунки, ривожланган мамлакатларда бу фан қўйилган.
2016 йил сентябр ойидан бошлаб Ирландиядаги мактабларда фалсафа фани ўқитилмоқда. Мамлакат Президентининг янги авлод учун иложи борича автоматлаштирилган ва бир вақтнинг ўзида ўзларига парадоксал саволлар бериш қобилиятини талаб қиладиган ва уларга жавоб топа олишда бу фаннинг долзарблиги тўғрисида ишончли нутқ сўзлагандан сўнг 12-16 ёшли мактаб ўқувчилари учун ихтиёрий курслар пайдо бўлди.

Фалсафий мулоҳазаларнинг аҳамияти дунёқарашнинг пойдеворини шакллантиришда, шахсий координаталар тизимини қуришда муҳим аҳамиятга эгалигидан иборат. Албатта, бу тизим ҳеч қачон асло қотиб қолмайди, бироқ айнан доимий фикрлаш одати қарашларни қайта кўриб чиқиш ва ўзгартириш - мустақил фикрлаш гаровидир.

- Мактабда амалиётчи психологлар штатини кенгайтириш.

Мактаб психологи фаолиятини қайтадан кўриб чиқиб ташкил этиш(бу мавзу учун алоҳида пост ёзилади). Психолог фаолиятини бюрократиядан озод этиш(нафақат психолог, ўқитувчиларни ҳам). Унинг эркин фаолият юритишига имконият яратиш. Чунки, психолог шахси ярим ижодкор шахс.

- Хусусий мактабларга кенг имкониятлар яратиб бериш.

Хусусий мактабларнинг бўлиши иқтисодиётимиз учун ҳам фойдали. Мактаб ўқувчилари хусусий мактабларда ўқимагунча таълим тизимида муаммолар ечилмаслиги ҳақида иқтисодчи Беҳзод Ҳошимов ўз фикрларини билдириб ўтганди. Халқ таълим тизими тубдан ислоҳ қилиниши зарур! Йўқса, шу кетишда давом этаверса, яқин 10-15 йилликда ёшлар орасида жиноятчилик, одам ўлдириш, фохишабозлик ва ҳоказо каби ярамас иллатлар ортиб кетиш хавфи бор.

## ШАХСЛАРДАГИ НОВЕРБАЛ МУЛОҚОТ МАРКАЗЛАРИ

*Куватова Гулбону Муродуллаевна*
*Ўзбекистон Миллий университети Амалий психология йўналиши талабаси*

**Аннотация:** Ушбу мақола шахслараро мулоқотга киришишда энг аввало унинг тана тили, мимикаси, юз ифодаси, атрофдаги предмет ва субъектга бўлган муносабати орқали унинг характер хусусиятларини аниқлашда қўшимча изланишлар олиб борилаётганлиги тўғрисида. Бу бўйича кўплаб психолог, олимлар изланишлар олиб борган ва ҳозирги кунда ҳам турли хил лабараторияларда, жамоат жойларида, бекат, вокзад ва ҳ.к жойларда бир четда ўтириб кузатиш орқали инсонлар характерининг гаммасини (ранг-баранглигини) кузитиб боришади.

**Калит сўзлар:** Новербал, тана тили, мимика, характер, имо-ишора, кузатиш, юз харакатлари, шахснинг ҳудудий майдони, феъл-атвор.

Шахс характери ҳақидаги энг дастлабки таассуротлар уни кўргандаёқ вужудга келади. Яни шунчаки саломлашишнинг ўзидаёқ унинг шахарлик ёки қишлоқ жойда истиқомад қилишини аниқлаб олиш мумкин.

Аёлларда эркакларга нисбатан сезгирлик кучли ва бу **“Аёл интуицияси”** деб аталади. Аёлларда новербал сигналларни тушуниш ҳамда энг майда тавсилотларни ҳам талқин қилиш уларда туғма қобилят борлигидан далолат беради. Шунинг учун камдан-кам эркак аёлини алдай олади. Чунки аёлларнинг кўпчилиги эркак сирини унинг кўзидан билиб олади, эркак ҳатто буни сезмайди ҳам.

Ушбу бош бармоқ ишораси “Муаммо йўқ” деган маънони англатади. Лекин ҳар хил ҳудудларда турлича ифодаланади. Масалан: ушбу ҳаракат Англияда машинани тўхтатиш харакатини билдирса иккинчи маъноси “Ҳаммаси жойида” маъносини англатади. Бош бармоқ кескин юқорига кўтарилса бу ҳақоратловчи ишорага айланиб қолади. Гретцияда эса “Овозингни ўчир” деган маънони англатади. Энди тасаввур қилинг Американлик Гретцияга бориб машина хайдовчисига қарата шу ишорани кўрсатса нима вазият бўлиши.

Баъзи бир имо-ишораларнинг генетикми ёки ўзлаштирма, балки маданий шартланганми деган тортишувлар ҳам мавжуд. Масалан кўп эркаклар палтосининг ўнг енгидан, аёллар эса чап енгидан кияди. Эркак киши кўчада

гавжум жойда аёлни ўтказиб юбориш учун, одатда гавдасини унга қаратади. Аёл эса унга тескари тарзда ўтиб кетади. Аёл буни кўкрагини ҳимоялаб инстиктив тарзда қиладими, бу аёлнинг туғма имо-ишораларими ёки у бунга англамаган ҳолда бошқа аёлларни кузатиб ўрганганми буни билиш осон эмас.

Инсон вазиятни сўз орқали инкор қилса ҳам унинг танасидаги иссиқлик, кўз қорачиқларининг кенгайиб – торайиши ёки юз ифодаси уни ошкор қилиб қўяди. Шундай бўлса ҳам оммовий ахборот воситасида фаолият юритувчи бошловчилар, сиёсат соҳаси вакиллари, санъат соҳаси вакиллари эмотциясини яшириш бўйича профессионал бўлиб кетадилар.

“Охирги йилларда ҳукумат ва шахар қурувчилар кўп қаватли уйларнинг инсонни ўз шахсий майдонидан махрум қилиб, унга салбий таъсир кўрсатишига эътибор қила бошлади. Аҳоли зич жойларда яшашнинг салбий оқибатларини Мериленд штатидан унча узоқ бўлмаган Жеймс ороли (буғулар популяцияси) мисолида кўриш мумкин. Озуқа етарли бўлса ҳам буғуларнинг катта тўдалари ўла бошлади. Бу ерда ҳеч қандай йиртқич ҳайвон ҳам, ҳеч қандай касаллик тарқатувчи эпидемия ҳам йўқ эди. Шунга ўхшаш ҳодисалар каламуш ва қуёнларда ҳам бу машъум воқеага қадар кузатилган. Тадқиқодлар шуни кузатадики, буғуларнинг кўпайиши кучайиши натижасида ўз шахсий майдонларидан махрум бўлган ва стресс ҳолатига тушган. Бунинг оқибатида буйрак усти безлари ўта фаол ҳаракатда бўлиши оқибатида қирилиб кета бошлаганлар. Буйрак усти бези организмнинг ўсиши, кўпайиши ва касалликларга қарши курашишда муҳим рол ўйнайди. Шундай қилиб айнан мана шу ҳудудда яшовчиларнинг ўта зичлиги ҳайвонларда ўз худудларининг бузилиши ва стрессга чидай олмаслик оқибатида қирилишга олиб келган. Бу хисобга олинса, нима учун аҳоли зич вилоятларда жиноятчилик даражасининг юқорилигини тушуниш осон бўлади”.

Эркаклар ва аёлларни кузатиш жараёнида ёлғон айтиш вақтида уларда турли хил харакатлар бўлишини кўриш мумкин. Масалан эркаклар ёлғон айтаётганда қўлини бўйнига олиб бориши ёлғон айтишнинг классик усули ҳисобланса, аёллар эса қўли билан бурнига тегинади. Бу кичик ёшдаги болаларда қўли билан оғзини ёпиш, ўсмирларда эса оғзи атрофини бармоқлари билан айлантириш каби холатлар билан ифодаланади.

Инсон табиатан бир-бирини такрорламас жонзот хисобланади. Унинг характерлари, тип ва хусусиятлари ҳам фарқ қилади. Халқ тилида “олтинчи кўз” яни “Интуиция” деган тушунча ҳам йиллар давомида тажрибилар орқали орттириладими ёки туғма бўладими буни билиш қийин.

Ҳозирги кунда шахслардаги новербал мулоқот марказларининг жуда кўп қирралари эркин изланувчи, психолог ва олимлар томонидан ўрганилмоқда ва янгича қарашлар ва қонуниятлар вужудга келмоқда.

Умаман олганда мулоқотга киришишда аввало сиз ташриф буюрган худуднинг ижтимоий, маъданий ҳаётини яхшилаб ўрганиб, уларнинг турмуш тарзи ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлиб бориш тавсия этилади. Ўзбекистоннинг турли ҳудудларида ҳам турлича урф-одат ва маъданиятлар мавжуд. Масалан Қорақалпоқ элида меҳмон келганда “Овқатдан олинг” дейилмайди, Хоразмда

“Нон бўлаклаб синдирилмайди” аксинча ҳар ким ўзига керакли бўлакни бўлиб олаверади. Водийда бўлса нон синдирилиб, “Овқатдан олинг” сўзи меҳмонга жуда кўп бор айтилади. Бу ўша ҳудуддаги инсонларнинг турмуш тарзи, яшаш маъданияти ва қадимий анъаналари билан боғлиқ.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. Аллан Пиз “Тана тили”
2. П.С.Эргашев “Мулоқот психологияси”
3. Х.Ғ.Шарафутдинова “Мулоқот психологияси” маърузалар тўплами
4. http://psylist.net/praktikum/
5. http://www.psychology.ru/tests/
6. http://www.psycological.ru


# BOSHLANG`ICH TA’LIM TIZIMINI SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O`QITUVCHINING MAHORATI


*Raxmonova Zuxro Karimovna*
*Andijon viloyati Baliqchi tumani 2-maktab fransuz tili fani o’qituvchisi,*
*Abdulhaqova Zilola*
*boshlanģich sinf òqituvchisi*



**Annotasiya**. Ushbu maqola ta’lim tizimida o’qitish samaradorligini oshirishda o’qituvchi nimalarga e’tibor berishligi haqida ma’lumotlar berilgan,bu ma’lumotlar ta’lim beruvchilar uchun katta yordam beradi.



**Kalit so’zlar**: innovatsiya, kompetensiya, pedagogik texnologiya, bilim, malaka, ko’nikma.


Bugungi kunda boshlang`ich ta`lim tizimi oldiga O`zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan yuqori talablar qo`yilmoqda. Bu talablarni bajarish uchun boshlang`ich sinflarda yuqori darajada kasbiy salohiyatga ega bo`lgan, tom ma`nodagi ziyoli o`qituvchilar faoliyat ko`rsatishi kerak. Boshlang`ich sinf o`qituvchisi ta`lim jarayonida u, birinchi navbatda o`quvchilarni sevishi va hurmat qilishi lozim va o`quvchilarda yaxlit tarzdagi o`quv faoliyatini shakllantira olishi kerak.

Hozirgi zamon ta`lim nazariyasida o`qituvchining mavqei o`quv tarbiya jarayoning boshqaruvchisi sifatida tavsiflangan. Demak,o`qituvchi, shu jumladan, boshlang`ich sinf o`qituvchisi pedagogik jarayonni to`g`ri boshqara bilishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo`lishi lozim. O`qituvchi ko`p jihatdan o`quvchi uchun ko`rnakdir. Shuning uchun ham,u birinchi navbatda, ularni o`ziga jalb eta olishi kerak. Bunung uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta`lim jarayoniga joriy etish, ta`lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanishni talab etadi.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang`ich sinflarda o`qituvchining mahorati,uning zamonaviy texnologiyalarni ta`lim jarayoniga mohirona

tadbiq eta olishi,ta`limning yangi-yangi yo`l va usullarini izlashi, ilg`or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar birinchidan, o`quvchilarni bilim, ko`nikma va malakalarni oson va qiziqib o`rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o`qituvchining ham professional o`sishiga, ham ma`naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda har bir sohada innovatsiya yaratish talab etilmoqda. Zamon rivojlanar ekan, biz pedagoglar ham doimo izlanib, yangidan-yangi innovatsiyalar yaratmog'imiz, o'z ustimizda muntazam ishlamog'imiz darkor,zero biz kelajagimiz davomchilari tarbiyasi bilan shug'ullanmoqdamiz. Bunday ma'suliyatli ishda qotib qolmasligimiz lozim va ma'suliyatni his qilmoqligimiz kerak.

Ta`lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo`llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo`llash ta`lim samaradorligi va ta`sirchanligini oshiradi. Ta`lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur.

Boshlang`ich ta`limda turli hil metodlar jumladan; "Aqliy hujum", "tarmoqlar ya`ni klaster", "B B B" metodlaridan foydalanish ta`lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Boshlang`ich ta`limda didaktik o`yinlarni ham o`rni beqiyosdir.O`yinsiz tom ma`nodagi aqliy rivojlanish bo`lishi mumkin emas. O`yin o`quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg`otadigan uchqundir.

O`yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o`quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy hususiyatlar shakllanadi.

O`yin orqali bolalar borliqni o`rganadi va dunyoni o`zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o`yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi.O`yin o`quvchi faoliyatining asosiy shaklidir. O`yin- muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo`lib, unda o`quvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutq boyligi oshadi. Didaktik o`yinlar o`quvchining tuli-tuman qobiliyatlari, idroki nutqi va diqqatining rivojlanishiga samarali ta`sir ko`rsatadi.

Ish faoliyatimda "Zanjir", "Topag`on","U kim? Bu nima"?"Tez javob". "Sirli so`z" kabi o`yinlaridan unumli foydalanaman.

Men quyida "To'g'ri- noto'g'ri" o`yinini havola etmoqchiman. O'qituvchi savollarni an'anaviylikdan qochgan holda berishi mumkin. Berilgan savolga o'quvchi faqat to'g'ri yoki noto'ri deb javob beradi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi 1989-yil 21-oktabrda berilgan.

Mana shunday o'yinlar mavzuni yanada esda qolarli bo'lishligi uchun yordam beradi.

Jumladan "Zanjir" o`yinini qo`llanishini ko`rib o`tsak:

O`qituvchi boshlab bir so`z aytadi. O`quvchilar bu so`z qaysi harf bilan tugagan bo`lsa, shu harf bilan boshlanuvchi so`zni topib aytadilar.So`z o`yini shu tarzda davom etadi.Masalan: Tabiat, taom, maymun, non, nok, kitob, botir, rayhon…

Bu o`yinni barcha fan o`qituvchilari o`z faoliyatlarida o`z faniga moslab tashkil etsa bo`ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Boshlang`ich ta`lim jurnali. 8-son 2019- yil.
2. Boshlang`ich ta`limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. T.G`offorova. Toshkent 2011-yil.
3. "Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi".Toshkent. 2014-yil.

# JINOIY XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

*Sultonova Muqaddas Nurboyevna*
*Navoiy viloyati Karmana tumani 31-maktabi psixologi*

Jinoiy xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo'luvchi biologik (irsiy) va ijtimoiy-psixologik omillarni to'g'ri anglash hamda har tomonlama o'rganish jinoyatchi psixologiyasini, uni jinoyatga undagan ehtiyojlar, motivlar va boshqalarni anglashga yordam beradi. Mamlakatimizda o'tkazilgan tadqiqotlardan birining natijasiga ko'ra, jinoyat sodir etgan bolalarning oilalari o'rganilganda quyidagilar aniqlangan:

-Oilada tarbiyaviy ta'sir vositalarining noto'g'ri qo'llanilishi;

-Bolalarning ota-onalar, maktab, mahalla nazoratidan chetda qolganligi;

-Oilasidagi ma'naviy muhit nosog'lom va noto'liq oilalar.

Ko'p hollarda jinoyat sodir etgan shaxslar o'zi yashayotgan ijtimoiy muhitga moslasha olmagan bo'ladi, buning asosiy sababi esa o'z-o'zini boshqarishning buzilishi bilan bog'liqdir. O'z-o'zini boshqaruvning buzilishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Kayfiyatning tez-tez o'zgarib turishi, asab va psixologik tez, kuchli toliqish natijasida tashqi ta'sirlarga haddan ziyod e'tibor berish. Nerv-psixik jarayonlarning sustligi, kam harakatliligi (rigidlik)dan odamovilik, jamoaga qo'shilmaslik, o'zini odamlarga qarshi qo'yish. Haddan tashqari qo'zg'aluvchanlik, hayajon, impulsiv harakat, uzoq vaqt xafagarchilik, jahli tezlik, tez xafa bo'lish, shafqatsizlik, berahmlik, arzimagan narsaga janjal chiqarish, o'ziga yuqori baho berish yoki juda past baho berish, egoistlik. O'ta konformlik (asotsial kishilar ta'siriga tez tushib qoladi), xarakterning kuchsizligi, intellektning chegaralanganligi, o'z-o'zini tanqid qilishning yo'qligi, aqliy kam harakatlilik.

Shaxsning ijtimoiylashuvi qanchalik past darajada bo'lsa, unda shunchalik biologik omillar ta'siri yaqqolroq namoyon bo'ladi. Shaxsda psixik rivojlanishlar qanchalik chegaralangan bo'lsa, uning xulq-atvorida motivlar iyerarxiyasidagi "quyi" motivlar yetakchilik qiladi. Shaxsning irsiy sifatlari uning psixik mohiyatiga ta'sir etishini yuridik amaliyotda doimo e'tiborga olish zarur. Afsuski, ko'p hollarda jinoyatchi shaxsida psixik anomaliyalar bor yoki yo'qligiga e'tibor berilmaydi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, qonunbuzarlar orasida psixik anomaliyasi mavjud shaxslar 70% ga yaqin ekan. Psixik anomaliya-shaxsning irsiy kamchiliklari bilan bog'liq bo'lgan, ammo asab va ruhiyatning patologik bo'lmagan buzilishlaridir. Psixik anomaliyalar o'z-o'zidan jinoyatga sabab bo'lmaydi. Ammo, ma'lum bir salbiy muhitda yoki holatda jinoiy xatti-harakat sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Psixik anomaliya – psixikaning chegara holati, ya’ni nopatologik psixikaning buzilishi bo‘lib, shaxs psixoz holatiga yetmagan bo‘ladi. Psixik anomaliyalarga quyidagilar kiradi: psixopatiya, xarakterning aksentuatsiyasi, oligofreniya, nevroz va jinsiy buzuqlik.

Nopatologik psixik anomaliyalar (buzilishlar): psixopatlar, yengil shakldagi debillar (aqli zaiflar), xarakter aksentuatsiyasining deformatsiyasi – shaxsning ichki strukturalarini (hissiyot, iroda, psixik jarayonlari va boshqalarni), motivlar va qadriyatlarning buzilishiga (deformatsiyasiga) sabab bo‘ladi. SHu bilan birga ular bu kamchiliklarni sog’lom odamlar kabi fikr, muammolarni solishtirish bilan emas, balki salbiy emotsionallik, agressiya va boshqa yo‘llar bilan hal etadilar, ya’ni ularda “kompensatsiya” jarayoni o‘ziga xos bo‘ladi.

Psixopatiya – tug’ma yoki orttirilgan shaxs anomaliyasi bo‘lib, bu oliy asab faoliyatining buzilishidan kelib chiqadi va shaxsning psixik nomukammalligiga sabab bo‘ladi.

Psixopatiyaning kechish darajasiga ko‘ra turlicha: isterik, qo‘zg’aluvchan va psixoastenik, paranoyyal turlari bo‘ladi.

Psixopatiya asab tizimining biologik kamchiliklari va tashqi muhit (oila va boshqalar)ning o‘ta salbiy ta’sirini qo‘shilishidan kelib chiqadi. Asosiy nuqson hissiy iroda sohasidagi yetishmovchiliklar (disgarmoniya)dir, ammo intellekt saqlangan bo‘ladi. Psixopat shaxsning asosiy xususiyati shundaki, u ijtimoiy muhitga moslashishga (adaptatsiya) qiynaladi. Agar bunday shaxs janjalli, nizoli vaziyatlarga (asab va ruhiyatiga salbiy ta’sir etuvchi muhitga) tushsa, u o‘zini bosa olmaydi, qonunni buzuvchi xatti-harakat qilib qo‘yishi mumkin bo‘ladi. Bunday shaxslarning nuqsonlarini tuzalmas deb bo‘lmaydi. Agar ularni qurshab turgan ijtimoiy muhit tinch, xotirjam bo‘lsa, psixik anomaliya belgilari kamayib ketadi, biroq psixologik muammoli vaziyatlarda (stress, nizo, kelishmovchiliklar) u o‘zini nazorat qila olmaydi va jinoyat sodir etishi mumkin.

*Isterik psixopatlar*. Oilada bolani haddan ziyod erkalash, uning barcha istaklarini bajarish, uni oshirib maqtash, uni adekvat baholamaslik bu boladan isterik shaxs shakllanishiga sabab bo‘ladi. Bunday shaxslarda egoistik tendensiyalar yuqori bo‘lib, ular birovlardan doimo maqtov eshitishni yaxshi ko‘radilar. O‘zlarini ko‘rsatishni, xammaning ularga e’tibor berishlarini yoqtirishadi. Ko‘pincha yolg’on gapirishadi. Isterik kulgi (baland ovozda, e’tiborli, kuchli kulgi) va ovoz chiqarib yig’lash ularga xos. Hayotdan ko‘p noliydilar. Bunday shaxsda infantillik yuqori bo‘lib, o‘z-o‘zini tanqid qilish xususiyati shunchalik past darajada bo‘ladi.

*Psixoastenik psixopatlar*. Ularda xavotirlanish, qo‘rquv, o‘ziga ishonchsizlik yuqori. Har narsaga, hatto arzimas voqealarga ham o‘ta hayajonlanadilar. Ularning hayotiy rejalari real hayotga to‘g’ri kelmaydi, bo‘lmag’ur g’oyalarga yopishib oladilar. Motivlari bir narsada qotib qolgan. Ular o‘zlarini himoya qila olmaydi. Ularning asab tizimi kuchsiz, ular tez charchab qolishadi. Nerv hujayralari kuchsiz, tez toliqadi va bu asab tizimining ishdan chiqishiga, buzilishiga olib keladi. Psixoastenik psixopatlar hammaga, hamma narsalarga shubha bilan qaraydi, ba’zi bir fikrlar xech miyasidan ketmaydi.

*Qo'zg'aluvchan psixopatlar*. Ular o'ta hayajonlanuvchan, ta'sirchan, doimo psixik qo'zg'alishda, ba'zan ularda hissiy portlashlar yuz beradi va o'zlarini nazorat qila olmay qolishlari mumkin. Ular atrofdagilarga nisbatan o'ta talabchan, o'ta egoist va o'zini sevuvchi bo'lishadi. Odamlarga ishonmaydi va hammadan shubhalanadi. Tez-tez o'z-o'zidan disgarmoniya –kayfiyatning tushishi, norozilik holatiga tushib, sababsiz janjal paydo qiladilar.

*Paranoyyal psixopatlar*. Ularda "qimmatli g'oyalar" mavjud bo'lib, ular shu g'oyalarni amalga oshirishda to'sqinlik qiluvchilar bilan doimo kurashadilar. Aslida esa bu g'oyalar puch, qimmatga ega bo'lmagan fikrlardir. Ular o'zlarining "ixtiro" va "ijod" larini yuqori baholaydilar. Ularning intellektual qobiliyatlari tor bo'lib, real vaziyatni tushunmaydi. Fikrlash qobiliyati bir tomonlama bo'lib, o'zining "g'oyasini" tanqidiy tahlil eta olmaydi. Tashkilotlar, rahbarlar ustidan doimo shikoyat xatlar yozishdan charchamaydi.

Umuman olganda psixopatlarga xos xususiyatlar: janjalkashlik, kelishmovchilik, nizo, kuchli agressiya, impulsivlikdir. Psixopatlarning hissiy turg'un emasligi – ularning konfliktlarga va agressiv xulq-atvorga sabab bo'ladi. Ayniqsa, qo'zg'aluvchan psixopatlarda:

1) ijtimoiy identifikatsiyaning sustligi (o'zini boshqaning o'rniga qo'ya olmaslik);

2) refleksiya qobiliyati (o'z kamchilik va yutuqlarini ko'ra olish);

3) empatiya (birovning hissiy holatini sezish va unga hamdard bo'la olish) qobiliyatining yo'qligi og'ir jinoyatlarga olib keluvchi sabablardan hisoblanadi.

Psixopatlarda ruhiy zo'riqish va deprivatsiyaga nisbatan tolerantlik o'ta susaygan bo'ladi. Ular har qanday sharoitda ham o'z istak-xohishlarini qondirishga intilishlari ham jinoyatga sabab bo'lishi mumkin. Psixopatlarda oliy his-tuyg'ular rivojlanmaganligini barcha tadqiqotchilar qayd etadilar. Ularning shaxs xususiyatlarida fuqarolik burchi, ijtimoiy javobgarlik, mas'uliyat kabi sifatlar yetishmaydi. Ammo maqsad shakllanishida va maqsadga yetishda quyi his-tuyg'u, ehtiyojlar yetakchi rol o'ynaydi. Ozgina muvaffaqiyatsizlik ham ularda agressiv holatga olib boruvchi affektivlik paydo qiladi, o'z-o'zini boshqarish keskin pasayib ketadi. Kriminal xulq-atvorga sabab bo'luvchi biologik omillardan genetik anomaliyalardan biri - Klaynfelter sindromi hisoblanadi ("x" yoki "u" xromosomalardan birining ortiqcha bo'lishi). Bunda ortiqcha X- xromosoma yuqori darajadagi agressivlik bilan aloqador bo'lsa, ortiqcha U-xromosoma maqsadga erishish, xulq-atvorni irodaviy boshqarish sohasidagi anomaliyalar bilan bog'liq hisoblanadi. Biologik-genetik anomaliyalarning o'zi kriminal xulq-atvorga sabab bo'lmaydi, balki bu omil ijtimoiy salbiy omil bilan qo'shilib kelsa, kriminal xulq-atvorga sabab bo'lishi mumkin. Jumladan, agressiv shaxs shakllanishida genetik omillar ta'siri mavjud bo'lishi mumkin. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni qanchalik past darajada kechgan bo'lsa, unda *agressivlik* darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Xavotirlanish darajasi yuqori, impulsiv shaxslarda stressorlarga qarshi himoya kuchsiz shakllangan bo'ladi. Bu esa shaxsning nizoli vaziyatlarda, kelishmovchiliklar, salbiy psixologik muhit mavjud bo'lgan vaziyatda o'zini tuta olmasligi atrofdagilarni haqorat qilishi, urushishi, umuman qonunbuzarlik holatlarini sodir etishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jinoyatni o‘rganishda tizimli yondashuv darkor, bunda asosiy holatlarga:

Huquqbuzarning shaxsini o‘rganishda jinoiy hulq-atvor va uning shakllanishiga asosiy e’tibor;

Jinoyatchining ijtimoiy muhiti bilan birgalikda o‘rganish (u yashagan va ishlagan joyi, mehnat jamoasi va h.k);

Ayniqsa, shaxsni o‘rab turgan mikro muhitga asosiy e’tibor qaratilmog’i lozim bo‘ladi.

## UMUMTA'LIM MAKTABI O’QITUVCHILARI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHDA MUTAFAKKIRLAR MEROSIDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MASALALARI

*Qudratova Saodat Davlatovna, Qurbonova Ozoda Usmonovna*
*Buxoro viloyati Jondor tumani 41-maktab o’qituvchilari*

Jahon ta’lim muassasalarida raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashda ta’lim va tarbiyaning o’zaro bog’liqligi va uzviyligini ta’minlash, ma’naviy-axloqiy kompetentlikni takomillashtirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini kengaytirish mexanizmlari ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. AQSh, Angliya, Germaniya, Yaponiya, Frantsiya va Rossiya davlatlarida bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy kompetentligini ta’minlash bilan bir qatorda yuksak ma’naviy-axloqiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda. Shu nuqtai nazardan bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy-axloqiy tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirish, pedagogik kompetentligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon ta’lim muassasalarida kasbiy pedagogik faoliyatni takomillashtirish mazmunida bo’lajak o’qituvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish, uning diagnostik tizimini amalga oshirish bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda. O’qituvchi kadrlar tayyorlashning boy milliy madaniy va tarixiy an’analar, urf-odatlar, mutafakkirlar merosi hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, hamda ta’limni insonparvarlashtirishning ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Respublikamizda ta`lim va tarbiya borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati bilimdon, aqlan rivojlangan, ongli, zamonaviy dunyoqarashga ega, jismonan sog`lom, axloqan pok, erkin, ijodkor, komil insonni shakllantirishdan iborat. Mamlakatimizda sog`lom va barkamol avlodni tarbiyalsh, farzandlarimizni ijodiy va intellektual salohiyatini ro`yobga chiqarish, ularni XXI asr talablariga to`liq javob beradigan shaxslar qilib voyaga yetkazish ko’p jihatdan o’qituvchi – tarbiyachilarga bog’liq. Tadbiq etilayotgan yangi ta’lim tizimini to’laqonli amalga oshirish, o’quvchilarning xilma –xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odob-axloqli, mehnatkash, talabchan va umuman komil inson bo’lib yetishishlarida, hozirgi zamon talabidagi bilimlarni berish mohir tarbiyachi - o’qituvchilarning zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyat tomonidan zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda G'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zidagi bilimlarni yoshlarga be'minnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi: bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish; berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish; ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish; talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi; fanga qiziqtira olishi; berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi; bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish; har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish[4].

Mashhur Naqshband tariqatida shunday hikmat bor "...Adab bu xulqni chiroyli qilish, so'zni va fe'lni soz qilishdir. Xizmat odobi ulug' baxtdan yaxshiroq, uning belgisi amalning qabuli, tug'yon esa amalning buzuqligidir. Adabni saqlash – muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxti, yana muhabbat urug'i hamdir".

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, «mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir»[3]. Shuningdek, alloma o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab: «Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima etsin.

Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati sozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila» [3].

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchining bola ruyiyatini, uning dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o'qituvchilik «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, pedagog o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarning namoyon bo'lishi maqsadga

muvofiqligiga urg’u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o’z ishini sevuvchi, o’quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg’otuvchi, o’quvchilarni o’z ortida ergashtiruvchi va diniy e’tiqodli bo’lishi lozim.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy esa o’qituvchi ma’naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho berib, ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish g’oyasini ilgari suradi. Mazkur g’oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o’qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

O’qituvchilik kasbining pedagogik-psixologik qirralarini tadqiq qilgan F.N.Gonobolin o’zining “O’qituvchi haqida qissa” risolasida o’qituvchi Vera Aleksandrovna Raush nomidan fikr yuritib mahoratli o’qituvchini quyidagicha ta’riflaydi. “Menimcha yaxshi o’qituvchi bo’lib etishish uchun eng avval haqiqiy hayot kechirish, muayyan maqsadga yo’naltirilgan, to’la qonli hayotga intilish kerak. Tabiatni o’rganib, uning qonuniyatlarini kuzatib borish, kitob mutoala qilish, musiqa tinglash, teatrlarga borish, sayyohatga chiqish singari ishlar bilan shug’ullanish kerak. Keyinchalik boshqalarga ulashish uchun pedagogning qalbi juda ko’p narsani o’zida singdirishi zarur. Shuning uchun men uzluksiz ravishda kitobga murojaat qilaman, tabiatdan o’rganaman, doimo o’qiyman, astoydil o’qiyman” [2].

Demak, o’z kasbining mohir egasi bo’lish uchun o’qituvchi muntazam o’z ustida ishlashi, tabiatdan, san’atdan, hayotdan, fandan bahra olib, rivojlanib, mukammallashib borgandagina maqsadga erishadi. Inson psixologiyasining mohir ustasi F.N. Gonobolin ta’kidlaganidek, o’qituvchi o’zining butun kuch – quvvatini, irodasini, bilimini, o’zida bor hamma yaxshi narsalarini o’z shogirdlariga, xalqqa beradi. Ammo, u o’zida bor narsalarning hammasini bugun, ertaga, indinga bersa-yu, o’z bilimini, kuchini, quvvatini yana va yana to’ldirib bormasa, u holda o’zida hech narsa qolmaydi. O’qituvchi bir tomondan o’zida borini berishi, ikkinchi tomondan bulut singari, hayotdan, fandan, nimaiki yaxshi narsalar bo’lsa olishga odatlanmog’i, xalqning eng ilg’or kishilari bilan hamkorlikda ishlamog’i lozim. Ana shunday bo’lganda, u o’z talabalariga qancha ko’p narsa bermasin, agar xalqdan, hayotdan, fandan oziqlanib, eng yaxshi xislatlarni o’qiy olsa, u holda, unda o’z talabalari uchun bunday rizqli shiralar hamisha ortig’i bilan mavjud bo’ladi [2].

Binobarin, buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg yozganidek: “O’qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug’ullanmog’i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o’xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bu o’qituvchidan hech natija kutib bo’lmaydi”.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o’zlarining bir qator asarlarida yosh avlodning tarbiyasiga alohida to’xtalib, ularning kelajakda yetuk, barkamol shaxs bo’lib ulg’ayishiga alohida e’tibor qaratadilar: “Biz yoshlarga oid davlat siyosatini hech og’ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko’taramiz, yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” .T.: 2016-yil, 14-bet.

2.Gonobolin F.N. O’qituvchi haqida qissa. – T.: 1967, 66-67 bet.

3.Navoiy, Alisher. Mahbub ul-ulub. Asarlar. O’n besh tomlik. 13 tom. – Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966,189-190-betlar.

4.Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta’lim va tarbiya haqida. – Toshkent, O’qituvchi, 1967 yil, 75-bet.

## ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА БОЛА ХУЛҚ-АТВОРИНИНГ ЎЗГАРИШИГА САБАБЛАР

*Холматова Дилноза Абдуманноб қизи*
*Андижон вилояти Булоқбоши тумани 11-санатория мактаб-интернати психологи*

Ақлан баркамол, маънан соғлом ёшларни, ватанпарварларни тарбиялаш ота-оналар, махалла, педагог ҳамда тарбиячилар зиммасига тушмокда. Ўзбек халқи маънавий, маданий қадриятлар, урф одатлар, расм русмлар ва тарбия усуллари орқали фарзандларини тарбиялаб вояга етказишган. Миллий қадриятлар рухида тарбияланган фарзандлар одоб-ахлокда, ақл-заковатда, мехр-оқибат ва халқпарварликда жасурлик ва мардликда ном қозонган. Сўнги йилларда ижтимоий меъёрлардан четлашиб яни антиижтимоий девиант хулқ-атвор кўпайиб бормокда. Жамиятдаги мавжуд ижтимоий меъёрларнинг бузилишига девиант хулқ-атвор дейилади. Ижтимоий меъёрларнинг хар бир ўзгаришида жамият фикри кескин узгаради: янги қарашлар ва хулк-атвор шаклларининг тарафдорлари, унга қарши турувчилар пайдо бўлади, ўз таъсирини йўқатаётган меъёр ўрнига янги меъёр юзага келади. Ижтимоий меъёрларга ҳар ҳил қарашдан турлича хулк-атвор шаклланади.

Масалан: девиант хулк-атвор. Девиант хулқ-атворнинг аниқ турлари: жиноятчилик, ичкиликбозлик, ўз-ўзини ўлдириш, гиёхвандлик ва хаказолар. Девиант хулқ-атворли одамлар ёшлигидан яхши кўрилмаган, суйилмаган. Ҳеч бўлмаганда эътибор берилмаган. Кўп тақиқлар остида қолган болалардир. Ҳамиша сенга «мумкин эмас, йўк» сўзларини эшитиб улгайишган. Бунинг фожиали оқибати-рухий тузилмадаги танқислик булган. Бундай ахволга яна жарохатловчи ходисалар: болаларга нисбатан шавкатсиз муносабат (жисмоний жазо). Оилани олайлик бола онаси олдида кум ўйнамокчи бўлди, унда табиатан берилган билим олишга ўрганишга бўлган эҳтиёж бор эди. Она «йўқ, мумкин эмас» дейди. Ана кўрдингизми сиз уни хозиргина қўполлик билан синдирдингиз. Нима учун мумкин эмас уст-бошини кир килиб сизга кир ювдиргани учунми, ёки уйин фаолиятидаги эхтиёжларини кондиргани учунми? Бунақа хатолар оилада бисёр. Йиллар ўтиб хайрон бўласиз, нега фарзандимни хеч нимага кизикиши йўқ. Фарзандни қанча тақиқлаган сари ўша фаолиятга қизиқиши ортаверади.

Қизиқиши ортган сари тақиқлар кучаяверади. Натижада фарзандингизга нисбатан ғазабингизни сездира бошлайсиз. Сизнинг «йўқ»ларингиз «мен»ингизни мустахкамлар аммо болани заифлаштириб бораверади. Болага нисбатан ҳамма нарсага рухсат беринг демокчимасман аммо «йўқ, мумкин эмас» сўзлари ўрнига юмшокроқ охангда «ундай қилма» нега мумкин эмаслигини хотиржам тушунтиринг. Энг мухими сизнинг жавобингиз эмас, сизни болага жўнатаётган эмоциянгиздир. Бола гапга эмас кўпроқ эмоцияларга ишонади. Уни бирор ишдан тўхтатмокчи бўлсангиз, буни асабий эмас, балки хотиржамлик билан, ёшига мос килиб тушунтиринг. Бу уни неча ёшлигидан қатиий назар ўзига бўлган ишончини ошириб, уни хурмат қилишингизни кўрсатади.

-Боланинг хаётида танкид кўп бўлса-бола айблашни ўрганади;

-Боланинг атрофида масхара қилувчилар кўп бўлса-бола шубхаланишни ўрганади;

-Атрофида душманлик бўлса- бола жанг қилишни ўрганади

-Боланинг атрофидагилар тушунишмаса-эшитмасликни ўрганади;

-Боланинг атрофида алдов бўлса-ёлғон гапиришни ўрганади

Аксинча бўлсачи:

-Атрофидагилар томонидан қўллаб қувватланган бола-ҳимоя килишни ўрганади;

-Бола мактов билан ўралган бўлса ўзига ишонишни ўрганади;

-Боланинг атрофида тўғрилик бўлса-бола адолатли бўлишни ўрганади;

-Боланинг атрофида эркинлик бўлса-ўз қарорлари учун жавобгар бўлишни ўрганади;

Шундай экан боланинг 12-ёшгача бўлган тарбиясида ота-она ўзининг аксини кўради. Мени болам кайсар, инжиқ, айтганимни қилмайди деб шикоят қиласиз. Бу боланинг хулқи эмас бу сизнинг харакатларингиздир. Шунинг учун бола тарбиясида ота-оналарга сўз луғатидаги «йўқ, мумкин эмас» сўзларидан камроқ фойдаланишини тавсия этган бўлардим. Фарзандининг қувончли келажаги хар бир ота-она учун жуда мухим. Фақат фарзандимизни кўп тақиқлар остида тарбиялаб девиант хулқ-атворли бўлиб қолишидан эҳтиёт булайлик.

Фарзандингиз «Ўғлим ёки қизим, сен биз учун алоҳида аҳамиятга эгасан», деган фикрларингизни хис этишлари лозим. Улар ана шундагина хар бир ишнинг уддасидан чиқа оладилар. Фарзандингиз шўх бўлса хам тенгдошлари билан чиқиша олмаса ҳам сиз истагандек харакат қилмаса ҳам кундалигида баҳолари паст бўлса ҳам меҳмонга борганингизда тўғри харакат қилмаса ҳам бир нарсани билиши лозим; «Мен кандай бўлишимдан катиий назар ота-онам учун алохида ахамиятга эгаман. Уларнинг олдида хар доим ўз ўрним бор. Хато қилсам-да, бу хатоимни тузатишга имкон берадилар. Аммо қилган хатоим сабаб мени камситишмайди». Шундай фикрларни кучлироқ сингдирайлик. Шундагина фарзандимиз ўзимиз хохлагандек етук, мард, жасур, масъулиятли, ватан учун, ота-она учун жонини фидо қиладиган даражада фарзанд бўлиб етишади.

# MAKTAB PSIXOLOGI KIM…?

*Niyozova Nodira Usmonovna*
*Buxoro viloyati Shofirkon tumani 24-maktab psixologi*

Inson dunyoga kelar ekan, ko'z ochib ko'rgani uning oilasi ya'ni ota-onasi, aka-opasi, qarindosh urug'lari bo'ladi. Bola asta-sekin tarbiyani ana shu oiladan oladi. Ota-ona farzandining tarbiyasiga befarq bo'lsa, oilada xotirjamlik yetishmasa bola ruhiyatida, xulqida o'zgarishlar ya'ni salbiy og'ishlar kuzatiladi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishi, yoshlarda stress holatlarini ko'payishi, tushkunlik, depressiya kabi salbiy holatlarni kuzatilishi ham oilaviy muhitga borib taqaladi. Bunday vaziyatlarda xulqida og'ish kuzatilayotgan bolalarga tog'ri yo'nalish berish, ular ruhiyatini sog'lomlashtirish bo'yicha birgina shaxs yordamga kela oladi. Bu ham bo'lsa psixologdir.

Psixolog-oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lib, u sog'lom odamlarni ruhiyatini o'rganadigan va ularga psixologik yordam ko'rsatadigan mutaxassisdir. Psixolog bu vrach emas, uni dori yozishga, diagnoz qo'yishga va kasallikni davolashga haqqi yo'q. Psixolog qiyin vaziyatlardan chiqishga, maqsad qo'yishga, ularni amalga oshirishda resurslarni topishga yordam beradi. Yosh avlodni katta hayotga to'g'ri yo'naltirishda ota-ona va o'qituvchi bilan barobar ahamiyatga ega shaxs ham maktab psixologi hisoblanadi. Murakkab davr-o'smirlikka qadam qo'yayotgan bola, shaxs sifatida shakllanayotgan o'smirning o'z olamidagi muammolarga yechim topishi uchun yordam berishda ham maktab psixologining o'rni beqiyos.

Maktab psixologining asosiy maqsadi barcha bolalar uchun baxtli, sog'lom, xavfsiz, ijobiy va samarali o'quv muhitini yaratishdir. Ushbu sohadagi mutaxassislar o'quvchilarining ehtiyojlari va farovonligi har doim ustuvor bo'lishini ta'minlashga intiladilar.

Maktab psixologi o'quvchilarga ustoz emas, do'st bo'lishi kerak. O'quvchilar o'z sirlarini psixologga qo'rqmay ayta olishlari, unga ishonishlari lozim.

Bugun maktab psixologi zimmasiga juda ko'p vazifalar yuklatilgan. U vaqti-vaqti bilan o'quvchilarga turli xil mavzularda trening mashg'ulotlar o'tkazib borishi, test va metodikalar olishi, har qanday psixlogik mavzularda suhbatlar o'tkazish, davra suhbatlari, tadbirlar tashkil etishi, maktab jamoasi o'rtasida sog'lom psixologik iqlimni yarata olishi muhimdir.Fan o'qituvchilarining darslarning psixologik tahlilini olib borishi va shu orqali maktabda faoliyat olib borayotgan har bir o'qituvchining asab tizimidagi o'zgarishlarni tekshirish, ularning asab toliqishiga olib keluvchi sabablarni o'rganish va bartaraf etish, testlar asosida yolg'izlik, stress darajalarini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchi, ota-ona o'rtasidagi noxush holatlarni oldini olish choralarini ko'rish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 18-avgustdagi PQ-3907-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini

yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarorida ham maktab psixologlarining asosiy vazifalari belgilab qo'yilgan:

- ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish;

- o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to'g'ri kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish;

- turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim –tarbiyadagi psixologik nuqsonlarini aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

- o'quvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabiltatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

- pedagogik jamolarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatlar xatti-harakatlarini korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

- iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual, psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

- axborot- psixologik xurujlarning xavfi, internet, jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

- pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash.

Ilmiy manbalarda psixolog mavqei jihatdan maktab direktoriga teng bo'lishi, rahbariyat u bilan maslahatlashgan holda ish ko'rishi kerakligi ko'rsatilgan. O'quvchilar psixologga maktabdagi mayda-chuyda ishlarni qilib yuradigan keraksiz xodim sifatida qaramasliklari kerak. Buning uchun direktor, direktor o'rinbosarlari maktab faoliyati bilan bog'liq nimaiki mayda yumush bo'lsa, psixologga yuklamasligi, ikkinchidan maktab psixologlarining o'zi ham yaxshi malakali kadr deb aytishga arzigulik bo'lishi lozim. Mutaxassislarimiz yuqorida keltirib o'tilgan psixologik xizmat faoliyatini samarali tashkil etmas ekan, u hech qachon o'zining mavqeini saqlab qololmaydi. Shu bois ham unga keraksiz shaxs sifatida qaralayveradi. Suitsid, ijtimoiy hayotga moslashuvdagi to'siqlar, kattalar bilan muloqot, kasb tanlashda psixologning o'quvchi hayotidagi roli katta bo'lsada, bu amalda ko'rinmaydi ham.

Maktab psixologining vazifalaridan tashqari o'ziga yarasha huquqlari ham mavjud:

- Ta'lim muassasasini boshqarishda qatnashish;
- ta'lim muassasasi pedagog xodimlari uchun belgilangan barcha kafolatlar va imtiyozlardan foydalanish;

- o'quvchilar, ularning ota-onalari, shuningdek, ta'lim muassasasi pedagoglari bilan olib boriladigan ishlarning muayyan yo'nalishlarini mustaqil shakllantirish;
- ta'lim muassasasi rahbariyatidan o'zining faoliyat olib borishi uchun zarur sharoitlar yaratib berilishini talab qilish;
- dars mashg'ulotlari, ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlar va sport musobaqalarini kuzatish, tahlil qilish, o'quvchilarning shaxsiy hujjatlari bilan tanishish, zarur taklif va maslahatlar berish;
- ta'lim muassasasining pedagogik va metodik kengashlarida ishtirok etish, o'z yo'nalishi bo'yicha takliflar berish va h.z

Hayot shunchalik qiziqarli va ko'p qirraliki, u doimo oldimizga juda ko'p vazifalarni qo'yadi. Bu vazifalarni amalga oshirish bizdan ulkan sa'y-harakatlarni talab etadi. Qolaversa, bizning qobiliyatimiz bizning ishimizni tez amalga oshishi uchun muhim jihatimizdir. Qobiliyatimiz yetakchilikda, mantiqiy fikrlashimizda, ijod qilishimizda asqotadi. Xotira, diqqat, tasavvur, xayol, tafakkur kabi psixologik xususiyatlarimiz ham hayotimizni yaxshilashda juda muhim narsalar hisoblanadi. Psixolog ana shu xususiyatlarni qanday qo'llash bo'yicha texnologiyani tushunadigan ajoyib, mohir usta va u bu texnologiyani sizu biz bilan beminnat ulashadigan yagona kishidir.

## YOSHLAR XULQ-ATVORI VA DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY –PSIXOLOGIK TA'SIRLARNING TUTGAN O'RNI

*Qobilova Zarina*
*Samarqand viloyati Toyloq tuman 19-maktab psixologi*

Shaxs shakllanishida u yashayotgan muhit,kishilar,jamiyatning roli juda kattadir.Masalan biror mahallada inson shaxsining tarkib topishiga faol ta'sir ko'rsatuvchi besh yuzta ijtimoiy muhit bor degan ma'noni bildiradi. Xo'sh tashqi muhit shaxs shakllanishida qanday ta'sir ko'rsatadi. Bolalar oilada, ko'cha-kuyda katta yoshdagi odamlarning hatti-harakatlarini zimdan kuzatib boradilar. Oilada ham shunday bolalikdan ota-onalari, aka-uka, opa-singillarini kuzatib, ular qilgan ish faoliyatini qaytaradilar, tashqaridan esa oilaviy muhit qandayligini qisman bilish mumkin bo'ladi. Ijtimoiy – normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axloq ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Insonning o'z-o'zini anglashi,bilishi va ustida ishlashi avvolo uning diqqati, ongi uning avvolo bevosita o'ziga,o'z ichki imkoniyatlari,qobiliyatlari hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy-xulq shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar,ularning xulq-atvoriga e'tibor berishidan tashqari,o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muhtazam tarzda tahlil etib borish orqali rollarni muofiqlashtirishni ham taqazo etadi.

Shaxsning xulq-atvori xususiyatlari,jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilishidan, hosil bo'lgan obraz "Men" obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka

yaqinligi shaxsning jamiyatdagi mevqeini belgilaydi va uning barkamolligi mezonlaridan hisoblanadi.

"Men" obrazining ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiyaning shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini,o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi.

O'z-o'zini anglash, o'zida mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi ya'ne,inson tabiati, o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan noma'qul sifatlarni anglamaslikka, ularni "yashirishga" harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi. Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsning turli xil,yomon asoratlardan hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Men" obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan ijtimoiy muhit o'zgalar va ularning munosabatida katta rol o'ynaydi.

Jamiyatda insonlararo munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi omillardan yana biri ijtimoiy kutishlaridir. Kutishlarning ijobat bo'lishi bir insonning sherigiga nisbatan samimiy va iliq munosabatiga sabab bo'lsa,oqlanmaslik ayniqsa nizolarni keltirib chiqaradi.

Dunyoqarash-shaxsning shaxsligini, (individ emasligini) uning ma'naviyati, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardir. Pixologiyada o'zgarishlar sharoitlar va ideallar o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillarni quyidagi izohlash mumkin:

Ma'naviyat va ma'rifat - bu odamning tabiat jamiyat va insoniayt to'g'risidagi turli bilimlari va tushunchalari majmui bo'lib, uning mazmuni bevisita shaxs dunyoqarashining mazmun mohiyatini belgilaydi.

Yoshlarning ma'lumotlilik darajasi - ham yangilanish davrida ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Agar o'zsmir yoki o'spirinda ilk yoshlikdan kitobga,bilimga,mehr tarbiyalanmagan bo'lsa, uni bilim tushunchalari tor bo'lsa,so'glom g'oyani nosog'lomdan,dunyoviylikni dahriylikdan,ziyoni jaholatdan farqlay olmaydi. Shuning uchun ham prezidentimiz yoshlarning bilim olishlari uchun, iqtidorini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berdilar,bunga javoban yoshlar tinimsiz izlanishlari, tinmay o'qishlari har sohada o'zlarini ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

Oila - shaxs ma'naviyati uning dunyoqarshi barcha tasavvur va e'tiqodiga aloqador bo'limlar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda oila haqiqiy jamiyat o'chog'i mafkuraviy tarbiyaning omili va shart-sharoitidir.

Ota-onaning savodxonligi - ham bu o'rinda katta rol o'ynaydi. Eng avvolo ularda sog'lom tafakkur, milliy g'oyalarni shakllantirish kerakligini alohida ta'kidlash mumkin,bunday savodxonlik oat-onalik roli mohiyati va funksiyalarini mohiyatini to'g'ri tushunish ya'ne farzand dunyoga kelib kamol topib rivojlanishiga oid qonuniyatlarni bilish,ommaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odatlarimiz bola ongiga singdirish kerak bo'ladi.

Yoshlar kamolga yetar ekan, uni har tomonlama yetuk inson bo'lishiga biz bir qancha qadamlarni bosib o'tishimiz kerak. Yuqoridagi shaxs o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillarni ko'rib chiqdik. Ijtimoiy ta'sirlardan yoshlarni asrash uchun har birimiz juda kichkina deb hisoblagan jihatlarga ham e'tibor berishimiz lozim, chunki biz ko'zga ilmagan kichkina ta'sir yoki nuqson shaxsning shakllanishida salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yoshlar bizning kelajagimiz bizning ertangi kunimiz,ko'z nurimiz shuning uchun unga uning kamolotiga e'tiborsiz bo'lmaylik ertaga u yurtga kerakli farzand bo'lsa bu bizning mehnatimizning hosilasi bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi O'zbekiston 1997-yil
2.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari 1994-yil
3.Abilov O' Milliy g'oya ma'naviy omillar Manaviyat 1997-yil
4. Karimova V.M. Psixologiya.O'quv qo'llanma 2002-yil
5.Hayitov.O.E., Lutfilloyeva.E.X., Psidiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni.2005-yil.

## YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA XOTIRANI RIVOJLANTIRISH

*Istamov Nurali Navro'z o'g'li*
*Buxoro viloyati Peshko' tumani 7-maktab psixologi*

Miyamizni doim ishlashga majburlasak, xotiramiz mustahkamlanadi! Ko'pincha inson eshitgan narsasining 30 foizini 20 daqiqadan so'ng, 50 foizini esa yarim soat ichida unutar ekan. Bu holat esa barcha uchun noqulaylik tug'dirishi tabiiy. Agar siz ham xotirangiz susaya boshlaganini sezsangiz, quyidagi tavsiyalar yordamida uni mustahkamlashingiz mumkin.

1.Turli mashqlar. Krossvordlarni yechish, aqliy hisoblash, mantiqiy misollarning javobini topish, she'r yodlash, chet tillarin o'rganish – bularning barchasi miyani ishlatishning eng samarali usullari hisoblanadi. Bu mashqlarni muntazam bajarib tursak, xotiramiz anchagina yaxshilanadi.

2. Uzum sharbati. Agar ovqatlanish rasionimizga uzum sharbatini qo'shsak, xotiramiz faoliyati 20 foizga yaxshilanadi. Faqatgina bu qora uzum bo'lishi kerak. Bu sharbat tarkibida miya hujayralarini yoshartiruvchi juda ko'p antioksidantlar bor.

3. Jismoniy faollik. Piyoda yurish, mayda qadamlar bilan yugurish, raqsga tushish - bu harakatlar tanani chiniqtirib, xotirani mustahkamlaydi. Bunday faol harakatlar miyamizga kislorod ko'proq miqdorda borishini, yodda saqlash kuchayishini ta'minlaydi, yangi kletchatkalar ochiladi.

4. Suhbatlashish, muloqot. Kimningdir telefon raqami, manzili, ismini ovoz chiqarib takrorlasak, miyamiz bu ma'lumotlarni yozib olishdan ko'ra tezroq qabul qiladi.

5. Uyqu Yaxshi uyqu – salomatligimiz garovi. Miriqib, xotirjam uxlaydigan odamlar uzoq umr ko‘rishadi. Uyqu vaqtida organizmimiz bo‘shashadi, erkin bo‘ladi. Bundan tashqari, uyqu vaqtida tanada yoshartiruvchi gormonlar ishlab chiqarilishi kuchayadi. Tiniqib uxlaydiganlar uyqusizlikdan qiynaladiganlarga qaraganda ma’lumotlarni 2 marta ko‘proq yodda saqlab qoladi.

6. Hordiq Miriqib hordiq chiqarish, uqalash va shunga o‘xshash mashg‘ulotlar diqqatni jamlashga yordam beradi. Va natijada xotira ham yaxshilanadi.

7. Ko‘zlar uchun mashq. Agar har kuni ertalab ko‘zlarimizni u yoqdan bu yoqqa 30 soniya davomida harakatlantirsak, xotiramiz 10 foizga yaxshilanadi. Bu tan olingan fakt. Bu usul miyamizning ikkala yarim shari bir-biri bilan uyg‘unlikda ishlashiga imkoniyat yaratadi.

8. Ovqatlanish. Sog‘lom va to‘g‘ri ovqatlanish kuchli xotiraga ega bo‘lishga imkon beradi. Buning uchun antioksidantlarga boy bo‘lgan brokkoli karami, ismaloq, turli yong‘oqlar, sitrus mevalar, lavlagi, uzum, qora olxo‘ri kabi mahsulotlarni doimiy ravishda iste’mol qilish lozim.

9. Vitaminlar. Bu borada V vitamini eng zaruri. Vitamin V12 yetishmasligi natijasida xotira susayishi yoki yo‘qolishi ham mumkin ekan. Tarkibida yuqoridagi vitaminlar bo‘lgan baliq, go‘sht, tovuq go‘shti kabilarni iste’mol qilish miyaning yaxshi ishlashiga yordam beradi. S va Ye vitaminlari ham xotira uchun zarur. Aterosklerozga chalinmaslik uchun turli yog‘lar, margarin, sariyog‘ni kamroq iste’mol qilishimiz kerak. Bir sutkalik iste’mol qilinadigan yog‘ miqdori 90 g.dan oshmasligi lozim. Aqlli bo‘lishning oddiy usullari Noodatiy o‘qish Qo‘lingizga qalam va o‘zingizga yoqqan matnni oling. Matnni o‘qiy boshlang va ravon o‘qib borgan joyingizgacha qalamni ham yurgizing. Keyingi gal yanayam tezroq o‘qishga harakat qiling, tezda ko‘zlaringiz bu vazifaga ko‘nikadi, o‘zingiz esa yanayam ko‘proq ma’lumotni o‘zlashtirasiz va bu miyangiz uchun ham foydali mashq. Oldindan bilib oling. Keyingi gal, biror qiziqarli maqola o‘qimoqchi bo‘lganingizda avvalo avtor nima haqda yozganligini o‘ylab ko‘ring, keyin informatsiyani mutolaa qilishni boshlang. Neyrofiziologlar fikricha, bu holatda miyamiz ma’lumotlarni taqqoslash barobarida kuchli quvvat bilan ishlay boshlaydi.

Fikriy masalalarni yechishda tasavvurning roli.

1. Kitob javoniga ikki tomlik asarlar tuplami qo’yilgan. Birinchi tom 300 saxifalik, ikkinchisi esa 200 saxifalik. Javonda kitob qurti paydo bo’lib kitoblarni birinchi tomining birinchi saxifasidan ikkinchi tomining oxirgi saxifasigacha kemirib taladi. Kitob qurti kitoblarning necha saxifasini kemirgan?

Savolga 500 saxifa deb berilgan javob to’g’ri emas. Savolga to’g’ri javob berish uchun kitobni javonga qanday terilganini (tartibini) aniq bilib olish lozim. Kitob qurti birorta saxifani ham kemirgan emas. CHunki birinchi tomoning birinchi saxifasi, ikkinchi tomning oxirgi saxifasi bilan yonma-yon turibdi.

2. A shahardan B shahargacha 12 km. A shahardan chiqqan poezd soatiga 30 kg tezlik bilan B shahari tomon yura boshladi. SHu vaqtda B shahardan chiqqan kapalak soatiga 60 kg tezlik bialn A shahri tomon uchib kela boshladi. Kapalak B shahardan chikib A shahri tomon uchar ekan, A shaharidan chiqqan poezd bilan uchrashib B

shahri tomon uchib ketar va yana B shaharidan chikib poezdgacha uchib kelar va B shahari tomon uchib qaydar edi.

Shu prosess A shaharidan chiqqan poezd b shahariga etib kelgunga kadar davom etdi. Aytingchi, kapalak necha km yo'l bosdi?

Agar ishni kapalakning uchishini va uning B shahari tomon kelayotgan poezd bilan necha uchrashganligini tasavvur qilishdan boshlasak masalani echolmaymiz.

Masala oddiy arifmetik hisoblash yo'li bilan echiladi. Poezd soatiga 30 km tezlik bilan yurar ekan, B shahariga 4 soatdan so'ng etib keladi. (120:30) kapalak soatiga 60 km tezlikda uchar ekan, 4 soat davomida fazoda bo'lganligi uchun uchun u 240 km masofani uchib utdi.

Ikkala masala echilgach, talabalarga masalani echish yo'llarining taxlili zaminida har bir masalani xal qilishda tasavvur qanday rolь uynaganligini aniqlash topshiriladi.

Fakriy masalalarni xal qilishda tasavvur ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini uqtirish bilan talabalarga mustaqil ravishda har ikki masalaga anologik misollar uynlab topish va echish vazifasi topshiriladi.

## МУЛОҚОТДА ЮЗАГА КЕЛАДИГАН НИЗОЛИ ҲОЛАТЛАР ВА ШАХС ТОИФАЛАРИ

*Ниёзов Назиржон*
*Қашқадарё вилояти Касби туман 3-мактаб психологи*

Ўз вақтида Н.Банопарт шундай ёзган экан: "Қилич билан ҳар нарса қилиш мумкин, фақат унинг устига ўтириб бўлмайди". Бу фикрида у кўпинча инсонлар ўртасида бўлиб турадиган низоларни, зиддиятларни назарда тутган экан. Чунки тоталитар ёки диктаторлик бошқаруви шароитида зиддиятларнинг бўлиши табиий бўлиб, унинг ягона ечими - узил-кесил уни ҳал қилиш чораларини излаш бўлган. Лекин демократик муносабатлар шароитидаги раҳбар ҳамда унинг қўл остидагилар ўртасида ёки ходимлар ўртасида келиб чиқадиган низолар ёки зиддиятларнинг табиати ва моҳияти бироз бошқача бўлади.

Аввало шуни эътироф этиш лозимки, инсоний муносабатларнинг ҳар қандай тизимида ҳам фикрларнинг ранг-баранг бўлиши ва улар ўртасида фарқ бўлиши муқаррар холдир. Лекин ана шундай фикрлардаги фарқни салбий ҳолат деб ҳисоблаб бўлмайди.

Нима сабабдан меҳнат жамоаларида турли хил низолар келиб чиқади. Бунинг бир неча сабаблари бор: алоҳида шахс ва жамоатчилик манфаатларининг мос келмаслиги; айрим алоҳида жамоа аъзолари хатти-ҳаракатларининг ижтимоий, группавий нормаларга зид келиши (тартибсизлик, интизомнинг бузилиши, маҳсулотдаги брак, ишнинг самарасизлиги ва б.қ.); жамоа аъзолари қарашларидаги номувофиқликлар; ишни ташкил этиш ва меҳнатга муносабатдаги фарқлар; ишчи-ходимлар ўртасидаги вазифаларнинг тўғри тақсимланмаганлиги ва ҳакозо.

Демак, юқоридаги ҳолатларкўп ҳолларда қуйидаги турдаги низоли вазиятларни келтириб чиқаради: таъсирнинг йўналишигакўра: вертикал ва горизонтал; низони ҳал қилиш усулига кўра: антогонистик ва келишувга олиб келадиган низолар - компромисс; намоён бўлиш даражасигакўра: очиқ, яшириш, потенциал, асосли; иштирокчилар сонига кўра: шахсий, шахслараро, гуруҳлараро;келиб чиқиш табиатига кўра: миллий, этник, миллатлараро, ишлаб чиқариш, ҳиссий-эмоционал. Агар юқоридагиларни таҳлил қиладиган бўлсак, “горизонтал низолар” ҳаётда энг кўп учрайди. Бундай номуросозликлар аксарият ҳолларда ходимлар ўртасида айрим аъзоларнинг ишни яхшилаш, янги иш методларини жорий этиш, ахлоқ нормаларини ҳимоя қилиш, адолат учун кураш, илғор жамоа аъзоларининг шу ердаги маънавий муҳитни соғломлаштириш борасидаги фикрларини айримлар томонидан эътирозлар билан қабул қилиши натижасида рўй беради.

“Вертикал низолар” эса кўпинча раҳбар билан ходим ўртасида содир бўлиб, у бир қарашда лидерликка даъвогарлик, юқоридан тазъйиқ, пастдан туриб бошқа ходимлар ёки кучлар атрофида бирлашиш, сараланишлар оқибатида келиб чиқади. Бунда низонинг ташаббускори ва бош айбдори кимлигига боғлиқ тарзда уни хал қилиш усули танланади. Масалан, агар бошлиқ ходимнинг ишга масъулиятсизлигидан норозилиги туфайли пайдо бўлган низо билан унинг профессионализм борасида хадеб “ўзини кўрсатаётганлигидан” норозилиги туфайли келиб чиқадиган низонинг ҳам фарқи бор.

Ҳар қандай низонинг асл туб моҳияти шундаки, унинг пайдо бўлиши айрим ўзгаришларга олиб келади. Бу ўзгариш ижобий ўзгаришларни келтириб чиқарса, уни конструктив, салбий оқибатлар ёки ходимлар қўнимсизлигини келтириб чиқарса, деструктив характерли деб атаймиз.

Низолар юзга келишида икки хил шарт-шароит мавжуд. Объектив шарт-шароитларга:

Меҳнат қилиш учун шароитнинг ёмонлиги;

Ходимлар орасида мажбурият ва вазифаларнинг нотўғри тақсимланганлиги;

Бошқарув тизимидаги номутаносибликлар;

Ишчи ўринларининг етишмаслиги туфайли, ишларнинг тақсимланишидаги адолатсизлик;

Меҳнатни ташкил этиш ва меҳнатга ҳақ тўлашда адолатсизлик холатларини кузатилиши.

Низолар юзага келишида субъектив шарт-шароитларга:

Ишбилармонлик муносабатларида негатив йўлларни кўриниши;

Шахслараро муносабатларда шахсга оид хусусиятларнинг намоён бўлиши. Муомалани ташкил этишда нўноқлик ва саводсизликнинг кузатилиши.

Ҳар бир низо алоҳида ҳодиса сифатида таҳлил қилинади, лекин уларнинг барчасига хос бўлган айрим қонуниятлар борки, уларга аввало унинг босқичлари ёки фазалари киради:

- низо олди босқич – конфронтация
- низонинг ўзи - компромисс ёки жанжал

Низодан чиқиш - мулоқот ёки диссонанс.

Демак, биринчи босқичда конкрет масала юзасидан фикрлар ёки қарашларда тафовут ёки қарама-қаршилик учун шарт-шароит пайдо бўлади. Томонлар ўртасига совуқчилик тушади, улар ўзаро келишолмай қоладилар, агар бунда ташқаридан қараганда, кўзга ташланадиган низо бўлмаса-да, ўша шахсларнинг ўзи бир-бирларига нисбатан муносабатларида буни ҳис қила бошлайдилар. Агар раҳбар айнан шу босқичда ҳодисага аралашиб, ўз вақтида оқилона қарорлар қабул қилолмаса, низо иккинчи босқичга ўтади.

Иккинчи босқичда ҳар иккала томон ўз қарашларини қарши томонникидан афзал билиб, очиқчасига бир-бирларини айблай бошлайдилар. Шу пайтда бошлиқ уларни келиштиришга уринади, агар бу “уриниш” алоҳида - алоҳида тарзда томонларни кабинетга чақириб рўй берса, вазият янада таранглашиб, зиддият чуқурлашиши, томонлар ўз холича бошлиқни ҳам ўзининг тарафдори қилиб, у ҳам низонинг иштирокчисига айланиб қолиши муқаррар бўлиб қолади. Шунинг учун ҳам психология ҳар қандай низони томонларни бирга чақирган ҳолда ҳал қилиш ва компромисс қарорлар чиқаришга тайёр туришни тавсия этади. Бунинг учун раҳбарда низонинг тахминий образи ва уни ҳал қилишга бир нечта альтернатив ечимлар бўлиши керак. Бошлиқ бирор томонга кўпроқ ён боса бошласа ҳам, низонинг иштирокчисига айланади. Шунинг учун у холис тарзда низонинг келиб чиқиш сабаблари, кимларнинг манфаатига зид ишлар қилинаётганлиги, низо иштирокчиларининг шахсий ва профессионал хусусиятлари, кучли ва кучсиз томонларини таҳлил қилиб, низонинг “портрети” ни ўзи учун тасаввур қила олиши керак. Шундан кейингина, томонларни чақириб, масалага янада ойдинликлар киритиб, томонларни келишувга чақиради. “мен нима бўлганини, муаммо нимада эканлигини билиш учун сизларни чақирдим” деб гап бошлаши ва ҳар бир томоннинг фикри муҳимлигини таъкидлаб, айни пайтда вазиятни қаттиқ назорат қилиши, унинг кечишини бошқариши лозим.

Низоли холатларда шахснинг қандай хулқ-атвор хусусиятларини намоён этишига қараб турли тоифаларини кузатилади. Ф.М.Бородкин ва Н.М.Коряклар низоли вазиятларда олти хил шахс типлари-тоифаларини кўрсатиб берганлар. Бу низоли шахс тоифалари ўзаро муносабатларда намоён бўлар экан, қайси тоифа билан қандай ишбилармонлик муносабатларини ўрнатишга, музокаралар олиб боришга бевосита таъсир этади. Шунинг учун хамкорликка киришишда албатта кузатувчан бўлиш, ҳар бир ҳаракат мақсадини англаш малакаларини таркиб топтириш муҳимдир.

# YOSHLAR XULQ-ATVORI VA DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA’SIRLARNING TUTGAN O’RNI

*Karomatova Marhabo Salomovna*
*Buxoro viloyati Vobkent tumani 7- maktab psixologi*

Zamonaviy dunyo juda faol va tez o’zgarib turadi. O’zgarishlar odamlar, ayniqsa, yoshlar o’rtasida sodir bo’ladi. Yoshlarning dolzarb muammolari butun jamiyatning

kamchiliklari va yoshlarning ijtimoiy kamchiliklarini aks ettiradi. Shuning uchun bu qiyinchiliklarnihal qilish butun jamiyatning farovonligiga ta’sir qiladi.

Yoshlarning dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy muhit,biologik ta’sir, psixologik - ruhiy holat muhim o’rin tutadi. Yoshlarning ayniqsa o’smir davrida bolalarning xulq-atvori shakllanishida turli xildagi tashqi va ichki ta’sirlar o’zaro hamkorlikda ta’sirlashib, dunyoqarashning shakllanishiga sabab bo’ladi.
Shaxsning shakllanishida biologik muhit ta’siri muhim omillardan biri bo’lib hisoblanadi. Ota-onasi va avlodi genida uchraydigan xulq-atvor,xarakter xususiyatlar shaxsning xarakter xulq-atvor,dunyoqarashida o’z aksini topishi mumkin. Shaxsning xulq-atvori va dunyoqarashinig shakllanishida ijtimoi-biologik ta’sirlar sabab bo’ladi.

Yoshlar dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllanishidagi ijtimoiy-psixologik muammolar, sabab va yechimlarini o’rganib chiqamiz.

Yoshlarning muammolarini o’rganish va yechimini toppish,tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash,bandligni ta’minlash, kerakli joyda yordam qo’lini cho’zish hamda iqtidorli yoshlarimizning orzu-istklarni ro’yobga chiqarishga xizmat qiluvchi yoshlar bilan samarali haftaliklar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, ochiq muloqotlar va individual-guruhiy suhbatlar uyushtirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Yoshlar ya’ni o’smirlik 17-21-yosh davrini o’z ichiga oladi. Bu davrda maktab bitiruvchisi yoki oily o’quv yurti talabasi yoki bandligi ta’minlanmagan, vaqtincha ishsizlik holatidagi o’smir yoshini tushunishimiz mumkin.

Ta’lim jarayonida o’smir bilan o’qituvchi munosabatida ularning samarali hamkorligini vujudga keltirish uchun qulay vaziyat yaratish lozim.

Hamkorlikdagi mahsuldor faoliyatni psixologik jihatdan o’rganishni V.Ya.Lyaudis boshchiligidagipsixologlar guruhi amalga ishirdi. Ushbu nazariyaga binoan, o’quv faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o’zlashtirishning negizi emas, balki shaxsninh itimoiy-madaniy qadriyatlarini egallash jarayonidir. Hamkorlikdagi o’quv faoliyatining maqsadi o’zlashtiriladigan faoliayt va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning maxsuli – talabalar mustaqil holatda ilgari surgan yangi g’oyalar va o’zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog’liq maqsadlarlarni boshqarish istaklarining namoyon bo’lishidir.

Yoshlarning dunyoqarash va xulq-atvori shakllanishida turli xil ichki va tashqi ta’sirlar omillardsan bo’lishi mumkin.

Yoshlarning psixologik muammolari, asosan aniq hayot yo’riqnomasi yo’qligi bilan bog’liq. Ota-onalar, maktablar va kitoblar nafaqat o’g’il-qizlar hayotining, balki, ko’cha, ommaviy madaniyat vositalari, yoshlarning befarqligi yoki yoshlarning tajovuzkorligini rivojlanisiga olib kelishi mumkin yoki yoshlarning norasmiy guruhlarga qo’shilib qolish holati kuzatilishi mumkin.

Yoshlar-insonning bir qancha muhim vazifalarni hal qilishi kerak bo’lgan muhim vaqt: kasb tanlash, ikkinchi yarmi, do’stlar, hayot yo’lini belgilash, o’z dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini tanlash loxzim bo’ladi.

Yoshlarni axloqiy dunyoqarashini shakllanishida oilaning ijtimoiy xavfsizligi,pul izlashni zarurati, yoshlarning madaniyati va ta’limga ta’sir qiladi.Shu qatorda yoshlarning bo’sh vaqtlarini samarali tashkil etish, ularda kuzatiladigan ijtimioy-

psixologik-axloqiy-madaniy xulq-atvorning shakllanishini to'g'ri yo'lga qo'yish lozim. Yoshlarning ijtimoiy muammolari, ularning ijtimoiylashuv jarayonidagi to'siqlar atrof-muhitga moslashuvlarini yo'lga qo'yish maqsadida muloqot jarayonini yo'lga qo'yish bilan boshlanadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning psixologik muammolaridan biri avvalo bir-birlarini tushunmaslik, ruhiy holatining buzulishi, depressiya va tushkunlik holatlari sabab bo'lishi mumkin. Kuzatilgan ijtimoiy-psixologik kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida turli xildagi psixologik treninglar,guruhiy suhbatlar,autotreninglar va davra suhbatlari tashkil qilib yoshlardagi mavjud muammolarni atroflicha o'rganib, koreksion usullar va ijtimoiy-psixologik og'ishishlarni bartaraf etish lozim. Axloqiy va madaniy xulq-atvoridagi og'ishishlarni tahlil qilib, turli avtotreninglar,psixologik maslahatlar va korreksion mashg'ulotlar olib borilib,yoshlardagi xulq-atvor va dunyoqarashning shakllanishidagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T. 1997.
2.G'oziyev.E. Psixologiya. T. 1994.
3.G'oziyev.E. Oliy maktab psixologiyasi. T. 1997
4.G'oziyev.E. Umumiy psixologiya kursining"Shaxs" bo'limi (Ma'ruzlar matni). T. 1999. 28-37 betlar.

## YOSHLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI, SABAB VA YECHIMLARI

*Qo'shaqova Shahnoza Abdubannonovna*
*Farg'ona viloyati Beshariq tumani 30-maktab psixologi*

Inson doimo ijtimoiy muhit bilan munosabatga kirishadi, jamiyat bilan hamohang faoliyat yuritadi va bu jarayonda uning xulqi namoyon bo'ladi. Xulq deganda, tashqi faollik ko'rinishiga ega bo'lgan, shaxsning ichki faolligi va individual xususiyatlari orqali tevarak-atrof bilan o'zaro munosabat qilish jarayoni tushuniladi.

Xulqni namoyon etuvchi shaxsning psixologik taraqqiyoti borasida ko'plab nazariyalar mavjud bo'lib, bu borda asosiy urg'u shaxs shakillanishida ijtimoiy va tabiiy omillarning ta'siri masalasiga qaratilgan. Masalan, psixoanalitik nazariyada shaxs taraqqiyotini indiv biologik xususiyatining jamiyat hayotiga moslashishi, belgilangan himoya mexanizmlarini qo'llash hamda inson ehtiyojlarini amalga oshirish usul va vositalarini yaratish, deb tushunadi. Xususiyatlar nazariyasi individ taraqqiyoti borasidagi o'z qarashlarini inson xususiyatlari hayoti davomida shakllanadi, degan tushunchaga asoslaydi. Ijtimoiy ta'limot nazariyasi shaxs taraqqiyoti jarayonini insonlarda shaxslararo munosabatlarni belgilangan usullari shakllanishi sifatida qaraydi. Gumanistik va boshqa nazariyalarda taraqqiyotni "Men"ning shakllanish jarayoni sifatida talqin etiladi.

Psixoanaliz asoschisi Freyd xulq muammosini o’rganib, o’z davrida insonga nisbatan berilgan, ya’ni inson ongli va o’z xulqini anglaydi, degan qarashga teskari ravishda inson anglanmaydigan mayllar tufayli yuzaga keluvchi doimiy nizolar holatida bo’ladi, degan g’oyani ilgari surdi. U birinchi bo’lib psixikani instinkt, aql va ong o’rtasidagi murosasiz jang maydoni sifatida ta’rifladi. Psixoanalitik nazariyada instinkt, motiv va mayllarning o’zaro ta’siriga asosiy o’rin berilib, ular inson xulqini boshqarishda kurashadi va ustunlikka intiladi. Freyd insonning psixik faoliyatini belgilovchi ikki ehtiyojni ajratadi: libido va agressiya. U shaxs psixikasida quyidagi uch tuzilmani ko’rsatadi: id, ego va super-ego.

Id (lot.-U) shaxsning sodda, instinktiv va tug’ma  jihatlarini anglatadi. Id xulqimizni energiya bilan to’ldiruvchi instinktiv biologik mayllar bilan bog’liq bo’lib, ongsiz ravishda faoliyat yuritadi. Freyd talqinicha, id tartib-qoidaga bo’ysunmaydi va biologik mayllar asosida yuzaga kelgan psixik energiyani tezda tarqatishni talab etadi. Id insonni to’liq hayoti davomida o’zining markaziy o’rnini saqlab qoladi.

Ego (lot.”Men”)-psixikaning qaror qabul qilish uchun ma’sul qismi hisoblanadi. Ego tashqi olam tomonidan o’rnatilgan tartib- qoida  va cheklovlarni inobatga olgan holda idning istagini ifoda etish va amalga oshirishga harakat qiladi. Shu asnoda ego organizmning xavfsizligi va bir butunligini saqlashga yordam beradi.

Superego (lot."Yuqori men"). Inson jamiyatda samarali faoliyat yuritishi uchun o’zi yashayotgan ijtimoiy muhitda qabul qilingan qadriyatlar tizimi hamda tartib qoidalarga ega bo’lishi lozim. Freyd talqinicha organizm superego bilan tug’ilmaydi. Bolalar unga ota-onasi bilan o’zaro munosabati natijasida ega bo’lishadi. Bu jarayon bola” to’g’ri” va “noto’g’ri”, “yaxshi” va ”yomon” o’rtasidagi farqni anglay boshlagan davrda yuzaga keladi (taxminan uch yoshdan besh yoshgacha).Bola nizo va jazolanishdan qochish uchun o’zining har bitta harakatini ushbu cheklovga  muvofiq tarzda  olib borishga o’rganadi.

Ma’lumki, bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ijtimoiy-psixologik omillar ta’sir ko’rsatadi. Bu omillarga to’xtalishdan avval shaxs tushunchasiga urg’u bermoqchiman. Shaxs tushunchasi psixologiyada eng ko’p qo’llanadigan tushunchalardan biridir. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va jamiyat bilan bo’lgan aloqasi masalasini chetlab o’tolmagan. Darvin ta’biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko’proq biologik omillardan ko’ra, ijtimoiy- sosial omillar ta’sirida ro’y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individ yoki shaxsni o’rganish maslasi bevosita uning ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o’rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko’rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan va tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo’ladi. Buyuk mutafakkirlarimiz Abu Nasr Farobiy, A. Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab sharq allomalari shaxs taraqqiyotiga, kamolotiga bag’ishlab durdona asarlar yozganlar. Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta’sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma’naviy, ahloqiy va boshqalar. Bu ta’surotlar mohiyatan aslida jamiyat a’zolari bo’lmish shaxslar o’rtasidagi

o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi. Shuning uchunyoshlar masalasi turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshqa)lar bilan bo'gliq bo'ladi. Masalan: shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura, mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa va unda yana yangidan yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi,o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobilyatlari malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, el-u yurtiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy normalar,sanksiyalar, roller ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin,insonning komilligi, uning axloq ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z-o'zini anglashi, bilish va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobilyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy hulq-shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali rollarni muvofiqlashtishni ham taqozo etadi.Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqyeni tasavvur qilishdan hosil bo'lgan obraz "Men" obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mexanizmlaridan hisoblanadi. "Men" - obrazinig ijtimoiy-psixik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayoni deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qililsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining bosh vazifasi kelajak egalari bo'lmish yoshlar yoshlar tarbiyasiga alohidaahamiyat, e'tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotidafaol ishtrok etishlarini ta'minlashdan iborat. Har bir insonning ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular oldiga qo'yilgan maqsqdlrga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat shijoatiga, to'la-to'kkis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bo'liq eknligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir. Texnika taraqqiyoti yoshlarning hayotida ham salbiy,ham ijobiy ahamiyatini ko'rsatmoqda. Bu taraqqiyotning ta'sir doirasi esa yoshlarning bilimlik darajasi, ma'naviyati, mafkurasi, oilaviy muhitiga bevosita bog'liqdir. Kitob mutoalasi bilan shugullanmaslik, maqsadlarning aniq emasligi, asosiysi o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi, o'z ustida ishlamaslik, oilada to'laqonli mehr, dostona munosabatning yetarli darajada emasligi yoshlarimizda turli salbiy ahloqiy fazilatlarni o'zlarida namoyon qilishga olib kelmoqda. Ayrim yoshlarimizda kundalik rejaning yoqligi, vaqtni be'samar sarflashga olib kelmoqda. Natijada kompyuter o'yinlari va

telefon bilan band bo'lib, butun faoliyat, vaqtlarini o'tkazmoqda. Buning oqibatda ularda qaramlik holati yuz bermoqda. Salbiy ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan yoshlarda qo'pollik, yolg'onchilik, bezorilik, xudbinlik, qaysarlik, o'jarlik, intizomsizlik qoidalariga rioya qilmaslik, o'zbilarmonlik kuzatiladi va bunday yoshlarni tarbiyalashda ularga yakkama-yakka yondashish lozim bo'ladi. Chunki, ular jamoa va ko'pchilik ichida o'zlarining ayblarini oshkor bo'lishini, yoki tarbiya tanbeh berayotgan kishining nasihat yoki ko'rsatmalariga bo'ysunishni yoqtirmaydilar, ular bilan muomalada nihoyatda ehtiyotkorlik, samimiylik, do'stona munosabatda bo'lishgina talab etiladi.Ular bilan ishlashda uning xarakter, qiziqishlariga xos xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Ko'p nasihat qilmaslik,urishmaslik, ovozini baland ko'tarmaslik, ko'p gapirmaslik maqsadga muvofiq. O'zaro samimiy munosabat, shaxsiy namuna (mehnat, o'qish jarayonida) oila va maktab o'qituvchilarining unga ijobiy munosabatigina o'quvchi xulqining o'zgarishiga yordam berishi mumkin. Bunday yoshlarda ijobiy ahloqiy fazilatlarni hosil qilishda ularga ma'suliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularning yoshi, kuchi, qobilyati va qiziqishlrini hisobga olish va shunga muvofiq topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ular bilan duch kelgan joyda emas, balki qulay sharoit kelib qolganda ish olib borilsa, ya'ni tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilsa, u ko'proq natija beradi. Qur'oni karimda aytilganidek, "O'z qo'lingiz bilan o'zingizni halokatga tashlamang", degan hikmatli so'zlardan hammamiz xulosa chiqarishimiz lozim.Bizning beparvoligimiz, loqaydligimiz faqat fojiya keltiradi. Bolalarimiz, oilamiz, butun yurtimiz boshiga falokat keltiradi. Aytinglar, o'zini inson deb biladigan, vijdoni, imoni bor odam buni istaydimi? Yo'q albatta." Bola ota-ona qo'lida bir omonatdir" deydi buyuk allomalarimiz. Bolalarimiz ularning taqdiri, kelajagi haqiqattan ham omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to'gri tarbiya bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas. O'smirlik davri o'zining murakkablik tomonlari bilan boshqa yosh davrlaridan ajralib turadi. Bu davrda berilayotgan e'tibor albatt, ertaga o'zining samarasini beradi. Inson bolasi yomon bo'lib tug'ilmaydi. Balki, ijtimoiy muhitning ta'siri ostida shakllanadi. Boladagi salbiy sifatlar, muammolarni yuzaga kelishida oiladagi ota-onaning ta'siri juda katta. Ularning aybi shundaki, ular farzandlarini moddiy ta'minlash orqali goyoki, yelkalariga yuklangan vazifalarni ado etmoqdalar. Moddiylikni o'zi o'smirning porloq kelajagini ta'minlab bera olmaydi. Farzand uchun ma'naviy ozuqa zarur. U orqali o'smir atrof-muhit, yaxshi insonlar davrasi, ijobiy fazilatlar, e'zgu tilaklar qila olishni o'rganadi. Bu esa ota-onadan kitobxonlik mutaolasi bilan ko'proq shug'ullanishni talab etadi. Blalarimiz eshitgan narsalardan ko'ra ko'proq ko'rgan narsalarni takrorlashga harakat qiladilar. Kitobni o'zlariga oshno qilganlarida yolg'iz emasliklarini his qiladi. Manbalarda yozilishicha, afsonaviy shoir Homerning ko'zlari ojiz bo'lgan. U o'z asarlarini og'zaki aytgan. Umuman, Homer dostonlarini yozma holga keltirilguncha Yunonistonda aidlar, ya'ni xalq baxshilari og'zaki qo'shiq qilib aytib yurishgan. Dunyo kitobxonlari qalbiga asrlar osha hay'rat urug'larini sochib kelayotgan mazkur epik doston qadimgi yunon afsonalari va rivoyatlari asosida dunyoga kelgan. To'rt mijozi sog'lom bo'la turib, ijtimoiy hayotidan qoniqmaslik, bu ko'rnamaklikdir. Yurti, yaqinlari davrasida ekanligi uni chinakkam baxtli ekanligini ifodalaydi. Yoshlar onasi yoki otasini sevimli mashg'ulotlarini o'zlarida sinab koradi.

O’zbek xalqi ko’ngli ochiq mehmondo’st xalq. Uning to’yu tomoshalri ko’p. Oddiygina tigulgan kunlarda kattalar farzandlariga sovg’a o’rnida kitob berishsa ham buning nihoyatda psixologik ta’siri katta. Chunki, kitob qorongu yo’lni yorutguvshi ma’shaldir. Kimki uni o’ziga oshno, do’st tutar ekan , hayotda kamroq qoqiladi. Har qanday savol va muammolarga yechim topa oladi. Bu o’rinda muhtaram yurtboshimiz Sh Mirziyoyev tomonidan o’quvchi yoshlarni kitobga mehr uyg’otishga qaratilgan sayi harakatlari be’jizdan emas. “Bugungi yoshlarimiz qanchalik bilimli, aqlli, zukko bo’lsa, ertaga bizning kelajagimiz porloq bo’ladi”, - deya be’malol ayta olamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Karimova V.M Akramova F.A. “Psixologiya”(21-27b)

2.“Maktab va hayot” jurnali ( 2015 . 23-b).

3.“Maktab va hayot” jurnali(2015.29-b).

4. Sh. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’tarilamiz”(480-b).

## YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH VA YOSH OILALARNING BUZILISHINI OLDINI OLISH

*Navbahorova Hurshida*
*Farg’ona viloyati Farg’ona tumani 55-maktab psixologi*

Oila xayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini taminlaydigan, muqqadas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo’lib yetishishiga bevosita ta’sir ko’rsatadigan tarbiya o’chog’idir.

Ba’zi insonlar Islom dini qizlarni barvaqt uzatishga chaqiradi, degan noto’g’ri tushuncha yuritadilar. Bu-asossiz gap. Islomda hali balog’atga yetmagan, turmushga tayyor bo’lmagan o’smir qizlarni uzatish yoki nikohlash lozim, degan gap yo’q hattoki balog’atga yetgan, jismoniy tarafdan turmushga tayyor yigit, agar oilani boqa olmasa, uning uylanishi shart emasligi aytilgan.

Oila ijtimoiy institut sifatida eng avvalo tug’ilish orqali aholining ma’lum miqdorda muttasil o’sib borishini taminlaydi. Har qanday davrda ham jamiyat va davlat aholi sonining bir maromda o’sib borishi, muayyan an’analar va muqaddas udumlarning saqlanib, avloddanavlodga etkazilib turilishidan manfaatdor bo’lgan. Buyuk rus psixologi A.N.Leontev avlodlararo muloqotning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatini o’rganib, ilk asarlaridan birida agar shunday muloqot bo’lmaganida, taraqqiyotning o’zi ham mutloq bo’lmas edi, deb ta’kidlagan. Bu vazifani bajarishda jamiyatning muhim bo’lagi bo’lmish oilaning roli kattadir.

Ma`lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o`zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo`ladigan o`zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo`lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o`ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Shu sbabli ham oilaviy munosabatlarda turli xil kelishmovchiliklar bo’lmoqda.

Yoshlarimizda bu masala bo`yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun bundan 90-100 yillar oldingi ularning tengdoshlari, ya`ni o`tib borayotgan asrimiz boshidagi va bugungi kunlarimizdagi 15-16 yoshli yigit-qizlar o`rtasidagi tafovutlarni solishtirib o`tamiz.

Maxsus adabiyotlarda yozilishicha va o`tkazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so`nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayonida ularning jinsiy, fiziologik balog`atga yetishishi 2-3 yilga ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog`atga yetish davri 15-16 yoshga to`g`ri kelgan, hozir esa bu holat o`rtacha 12-13 yoshlarga to`g`ri keladi. Endi ushbu yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlik jihatlarini ko`rib chiqamiz.

Ilgarigi tengdoshlaringiz 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo`lmish jinsiy yetuklikka, balog`atga yetar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o`sha davrlar uchun xos va lozim bo`lgan, unchalik murakkab bo`lmagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo`lganlar (chunki u vaqtlarda bolalarni odatda, 13-14 yoshidan shogirdlikka berishgan), o`sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayonlar ulardan maxsus yoki oliy ma`lumot talab qilmagan, 3-4 yil ustoz ko`rgan shogird 16-17 yoshida o`zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o`z ishini amallab keta oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigan bo`lsa, o`z hunari orqali mehnat qilib, o`zini va oila a`zolarini iqtisodiy jihatdan ta`minlay olishi mumkin bo`lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigit mahalla-ko`yda, jamoatchilik orasida ma`lum darajada ijtimoiy yetuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbir va marosimlarda haqli ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo`lgan, ya`ni uning ijtimoiy jihatdan balog`atga yetganligi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Bu jarayon shaxsning oldiga oila va jamiyat qarshisida o`ziga xos mas`uliyat yuklagan, mas`uliyatni his qilish esa uning psixologik yetukligi alomatlaridan biri bo`lib xizmat qilgan.

Endi shu xususiyatlarni bugungi kun yoshlari misolida ko`rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarda jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar biroq ular biror bir kasb-hunar egasi bo`lib, mustaqil ishlab, o`zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta`minlay oladigan bo`lishi uchun, avvalo maktabni bitirishi, so`ng u yoki bu kasb-hunar kolleji yoki akademik litseyda o`qib, biror-bir kasbni egallashi kerak. Buning uchun 9 yil maktabda, 3 yil kollej yoki litseyda o`qishi zarur bo`ladi. 12 yillik barcha uchun majburiy ta`limdan so`ng yoshlarimizning ma`lum bir qismi o`qishni oliy o`quv yurtlarida davom ettiradi. Bundan ko`rinib turibdiki, yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma`lum qismi uchun 20-21, boshqalari uchun 23-25 yoshga to`g`ri keladi. Bundan tashqari, odamlarning turmush tarzi rivojlanishi bilan oilalarining kundalik hayoti o`zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga, moddiy farovonlik darajasiga bo`lgan ehtiyoji ham ortib boradi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi shaxsning madaniy takomillashuviga, u esa shaxslarning bir-birlariga qo`yadigan talablari oshishiga va shaxslararo munosabatning noziklashuviga olib keladi. Fikrimizning dalili sifatida bir faktni keltirishimiz mumkin. Ajralish foizi oliy ma`lumotlilar ichida umumiy o`rta ma`lumotlilarga nisbatan yuqoriroqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuqori saviyada bo`lmagan jamiyatdagi oila a`zolari o`z oilaviy yumushlarining aksariyatini qo`lda bajaradilar. Bunga oilaning barcha a`zolari va birinchi navbatda farzandlar mumkin qadar ko`p jalb qilinadi. Oila ishlarini bajarishdagi umumiy faoliyat yoshlarda ma`lum malakalarni, shu jumladan, oiladagi tegishli vazifalarni bajarishni, oilada bir-birlari bilan muloqotda bo`lish malakalarini, har bir shaxsning ierarxik mavqeiga ko`ra o`z huquq va burchlarini aniqlab olishiga imkon beradi. Moddiy ta`minot, yuqori madaniy saviya esa oilada shaxsning shaxsga qo`ygan talabini yanada kuchaytiradi, oila a`zolarining o`zaro muloqotda bo`lish vaqti miqdorini qisqartiradi. Bu esa otaonaning farzandlar uchun o z oilasida namuna vazifasini bajara olmasligiga olib keladi.

Shulardan ko`rinib turibdiki, bundan 100 yillar oldingi yoshlar 16-18 yoshida oila qurishsalar ham, shu vaqtga kelib oilaviy hayot uchun, muvaffaqiyatli turmush kechirib ketishlari uchun zarur bo`lgan yetuklik darajalarining barchasiga erishganlar, bu esa ularning oilaviy hayotlarida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolarning bartaraf etilishiga asos bo`lib xizmat qilgan.

Bugungi yoshlarimiz esa yuqorida bayon etilganidek, 12-13 yoshlarida jinsiy balog`atga yetadilar va aksariyat hollarda oradan 7-8 yil o`tgandan so`ng, ya`ni qizlar 19-20 yoshda, yigitlar esa 21-22 yoshda oila quradilar. Bu vaqtda ular na iqtisodiy jihatdan, na ijtimoiy jihatdan va na psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyor bo`ladilar. Bunday holatlar shubhasiz, ularning oilaviy hayotlarida oldingi tengdoshlari hayotida kuzatilmagan muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o`ziga xos yangi ijtimoiy funksiyalarni ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash masalasining eng dolzarb masalalardan biri bo`lishini taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham so`nggi 15-20 yil davomida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida va bizning respublikamizda (mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillaridanoq) oila masalalariga, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilalarda komil shaxsni shakllantirish masalalariga alohida e`tibor berib kelinmoqda.

## O'SMIRLIK DAVRNING O'ZIGA XOSLIKLARI VA UNDA O'QITUVCHI-O'QUVCHI MUNOSABATLARI

*Egamova Sarvinoz Halimovna*
*Buxoro viloyati Buxoro tumani 3-maktab psixologi*

Bugungi yoshlar vatanimiz kelajagi, ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchidir. Istiqlolning dastlabki yillaridan har tomonlama bilimli, yuqori ko'nikma va malakaga ega yoshlarni tarbiyalashga qaratilayotgan ulkan e'tibor ana shunday ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Kechagina dunyoga kelib borliqqa hayrat ko'zi bilan qaragan farzandlarimiz bugun ulg'ayib kattalarga elka tutmoqdalar, o'zlari tanlagan soha bo'yicha dadil qadam tashlashlari uchun suyanch bo'la oladigan jamiyat, ota-onalari va ustozlardan ta'lim va tarbiya olmoqdalar. Bugun dunyo tamaddunida faol

o'zgarishlar bo'layotgan bir davrda yoshlar ong'u-shu'urida ilm olishga intilish, yurt ravnaqiga hissa qo'shish kabi oliy tuyg'lar shakllanmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'smir yoshlarda ruhiy o'zgarishlar ham sodir bo'ladi albatta, bu davrda o'zining ichki fikrlari va sirlarini o'rtoqlasha oladigan do'stga ehtiyoj sezadi. Bola kattalardan-ota-onalardan, o'qituvchilardan unga hozir teng munosabatda bo'lishini, uni shaxs sifatida ko'rishini, o'z pozitsiyasi bilan hisoblashishini istaydi. U kattalar tomonidan nazorat va vasiylikni qabul qilmaydi. Uning uchun jamoaning o'zi va uning xatti-harakatlari haqidagi fikri ustuvor vazifaga aylanadi. Bola uning xizmatini boshqalar tomonidan tan olishga intiladi. U juda sezgir va himoyasiz, hissiy jihatdan beqaror. Nevrozga o'xshash tajovuzkorlik ko'pincha namoyon bo'ladi. Barcha sohalardagi bunday o'zgarishlar o'spirinni butunlay o'ziga singdiradi. Bu davrda bolaga hayotdagi ushbu qiyin davr yaqin orada o'tishini anglashiga yordam berish juda muhim, faqat balog'at yo'lida keyingi qadamni yengib o'tish kerak.

"O'smirlik" tushunchasi bilan bir qatorda "o'tish davri" tushunchasi qo'llaniladi. Bu davrda o'smir o'z rivojlanishida juda katta yo'lni bosib o'tadi: o'zi va boshqalar bilan bo'lgan ichki ziddiyatlar, tashqi tanazzullar va ko'tarilishlar orqali u o'ziga xoslik tuyg'usiga ega bo'ladi. Ushbu yosh davrida bola ongli xatti-harakatlarning asoslarini yaratadi va axloqiy g'oyalar va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda umumiy yo'nalish paydo bo'ladi.

O'smir o'z o'qituvchilaridan, ota-onalaridan tartibsiz yoki nostandart shakllar va nutq buzilishlarini osongina o'zlashtirib oladi, kitoblarda, gazetalarda, radio va televideniye ko'rsatuvlarida nutqning shubhali qoidalarini buzishini topadi. O'smir, kattalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, suhbat uslubini va suhbatdoshning o'ziga xos xususiyatlariga qarab nutqini o'zgartirishni xoxlaydi. O'smirning shaxsiyatini tavsiflovchi eng muhim xususiyatlardan yana biri bu o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va "Men" imidji paydo bo'ladi. Shu davrda o'g'il bolalarda ham qiz bolalarda ham yurish-turishi, kiyinishi, tashqi ko'rinishiga astoydil e'tibor berishni xoxlaydi.O'smir tengdoshlari bilan aloqa qilish uchun kuchli ehtiyojga ega bo'ladi. O'smir xatti-harakatlarining etakchi sababi bu o'z tengdoshlari orasida o'z o'rnini topish istagi. Agar uning tengdoshlari orasida mashhurligi xavf ostida qolsa, u juda xavotirga tushadi. Ba'zida tengdoshlar o'rtasida tez-tez nizolar kelib chiqadi. O'g'il bolalar uchun bu etakchilik uchun raqobat tufayli ro'y beradi, kim kuchli, aqlli, jismonan rivojlangan va hokazo. Xo'sh, bunday vaziyatlarda o'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak va qanday metod va treninglardan foydalanishi va o'qituvchi qanday shaxsiy xislatlarga ega bo'lishi kerak.

Bu davrda bolaga hayotdagi ushbu qiyin davr yaqin orada o'tishini anglashiga yordam berish juda ham muhim. O'quvchini sevish va tushunish bilan o'rab olishi, suhbat metodidan foydalanish, o'quvchiga qaror qabul qilishda mustaqil bo'lishga imkon berish, uning tanlagan pozitsiyasini hurmat qilish uni maroq bilan tinglash va ma'qullab turib "lekin" degan so'zni ishlatib uning ortidan turli-xil misollar bilan qilayotgan ishi, hatti-harakati noto'g'ri bo'lsa noto'g'ri ekanligi tushuntirish. Unga do'st va maslahatchi bo'lishga harakat qilish judayam zarur. Buning uchun o'qituvchi ekstrimal kompetensiyaga ega bo'lishi kerak.

Agar bola o'tish davriga kirsa, ko'pincha u beqaror bo'lib qoladi. U bilan nima yuz berayotganini tushunish uchun, o'smirlar uchun testlardan foydalanishingiz mumkin, bu sizga psixologik muammolarni vaqtida aniqlashga yordam beradi.Bugungi kunda juda ko'p so'rovnomalar mavjud bo'lib bu nafaqat o'qituvchilar balki ota-onalar uchun ham juda yaxshi yordam beradi.

O'smirlar uchun eng qiziqarli agressiya shkalasi bo'yicha test.

O'rta maktab o'quvchisidan o'zi haqidagi quyidagi gaplar to'g'ri deb hisoblaydimi yoki yo'qmi, samimiy javob berishga taklif qiling

1.Agar biron narsa mening noroziligimni keltirib chiqarsa,men jim turolmayman.
2.Men uchun baxslashish juda qiyin.
3.Agar kimdir meni masxara qilayotgan bo'lsa,men g'azablanaman.
4.Men osongina janjalni boshlayman,hatto jinoyatchini kuch ishlatib qaytarishim mumkin
5.Ishonchim komilki, har qanday vazifani o'z tengdoshlarimdan ko'ra yaxshiroq bajara olaman.
6.Ba'zan boshqalarni hayratga qoldiradigan yomon ish qilishni xohlayman.
7.Men hayvonlarga tegishni yaxshi ko'raman.
8.Men hech qanday sababsiz qasam ichishni istamayman.
9.Agar kattalar menga nima qilishni aytsalar,men buning aksini qilishga intilaman.
10.Men o'zimni mustaqil deb bilaman.

Endi siz o'smirlar uchun ushbu tajovuzkorlik testining natijalarini baholashingiz kerak. Har bir ijodiy javob bitta nuqta. 1-4 ball bolaning tajovuzkorligidan dalolat beradi, 4-8 ball o'rtacha tajovuzkorlikni, 8-10 ball esa ota-onalar va o'qituvchilaar uchun signalni yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Bu test bolaning qay darajada tajovuzkorligini ko'rsatib bergach sinf rahbar, psixolog va ota-ona birgalikda bo'layotgan muammolarga yechim topadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash bu biz ustozlarni oldiga qo'yilgan vazifadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. SH. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demoktatik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 yil.

2. S. Jalilov, Haydarov F., Xalilova N. Kasb psixologiyasi: O'quv qo'llanma. Nizomiy nomidagi TDPU, 2010y.

3. U.Jumayev. O'smirlarda kasb tanlashga munosabat tizimi shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Toshkent: 2004 y.

4. G'.Shoumarov. 1001 savolga psixologning 1001 javobi.

# ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МОДЕЛИ САМОРЕАЛИЗАЦИИ УЧАЩЕГОСЯ СТАРШЕГО КЛАССА

*Г.Ж.Оразбаева, старший преподаватель*
*Каракалпакского государственного университета*

Современные тенденции развития высшего и среднего образования ставят на первое место задачу воспитания активной, творчески развитой личности, стремящейся к выявлению и наиболее полному проявлению своих способностей и внутренних ресурсов. Основной акцент модернизации среднего образования направлен на необходимость создания условий для наиболее полной самореализации личности. Это предъявляет повышенные требования к уровню личностно-профессионального развития каждого учащегося общеобразовательной школы как будущего специалиста, в связи с чем, очень актуальна задача содействия становлению выпускника школы.

Каждый преподаватель, работающий с учащимися школ должен стимулировать у них интерес к собственному внутреннему миру, желание, совершенствовать себя как личность, вооружить воспитанников методикой и системой знаний по вопросам самосовершенствования и самореализации, при необходимости помочь в разработке индивидуальной программы по самосовершенствованию.

Если учитель прохладно относится к своей профессиональной деятельности, то это непременно приведёт либо к открытому, либо к скрытому конфликту, когда учащиеся испытывают страх и угнетение перед преподавателем, дискомфорт и душевный дисбаланс, негативное отношение к жизни и будущей профессии, повышает тревожность и подавленность, снижает активность учащихся в процессе их целенаправленного становления. Для устранения обозначенных негативных тенденций учителя должны осуществлять следующие профессиональные действия (Схема 1.1).

**Схема 1.1**

**Профессиональные действия учителя школы**



Взаимодействие педагога с родителями учащегося также направлено на создание единого воспитательного поля, единой социальной сферы, где наивысшие ценности являлись бы основой жизни, достойной человека.

Партнёрство семьи и школы должно работать в интересах учащегося, разделяя ответственность за его образование и развитие. В ранний школьный периоды родители и семейная атмосфера является наиболее важным фактором в развитии детей. Некоторым родителям могут понадобиться соответствующая подготовка и одобрение педагога в их стремлении помочь детям. В свою очередь, учитель должен осознать, что его работа в группе не принесёт больших результатов без активного участия родителей.

Работа педагога с семьей, семейная политика признаются одним из приоритетных направлений социальной политики учреждения образования.

Образование само по себе не формирует гражданина. Именно семья с раннего детства призвана формировать у ребёнка нравственные ценности, ориентиры на построение разумного образа жизни. Однако практика показывает, что некоторые родители, не имея специальных знаний в области воспитания, испытывают трудности в установлении контактов с детьми. Поэтому взрастить новое поколение можно только общими усилиями педагогов, родителей и самих детей.

На каких основах должны строиться отношения учителя и семьи, чтобы воспитание учащихся было успешным и помогало совершенствованию личности во всей её полноте? Можно с уверенностью сказать, что самореализация и успешность в профессиональной деятельности учащихся зависит от целого ряда условий (Схема 1.2).

**Схема 1.2.**

**Социально-педагогические условия,**
**необходимые в профессиональной самореализации учащихся школы**



К сожалению, гармонии отношений добиться не всегда удаётся. Бытует мнение ***«школа должна»*** и ***«семья обязана».*** Разумеется, семья – это первый коллектив учащегося, естественная среда его развития. Именно в семье закладываются основы будущей личности.

Вместе с тем в условиях, когда большинство семей озабочено решением проблем экономического, а порой и физического выживания, усилилась социальная тенденция самоустранения многих родителей от решения вопросов воспитания и личностного развития своего чада. Родители, не владея в достаточной мере знаниями о возрастных и индивидуальных особенностях развития учащихся, порой осуществляют воспитание вслепую, интуитивно.

Все это, как правило, не приносит позитивных результатов. В таких семьях нет прочных межличностных отношений, связей между родителями и учащимися и, как следствие, «авторитетом» становится внешнее, зачастую негативное окружение, что приводит к «выходу» учащегося из-под влияния семьи. Создавшееся положение, наряду с другими объективными и субъективными причинами, способствует росту преступности, наркомании и других негативных явлений в подростковой и молодежной среде.

Образовательное учреждение, будь то школа или учреждение дополнительного образования учащихся, есть один из важнейших социальных институтов, обеспечивающих воспитательный процесс и реальное взаимодействие обучаемых, родителей и социума.

# ЁШЛАРНИНГ ДУНЁҚАРАШИ ВА ХУЛҚ-АТВОРИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР

*Муҳаммадиева Нафиса Исматиллаевна*
*Қашқадарё вилояти Китоб туманидаги 3-мактаб психологи*

Ҳар бир жамиятнинг, унда яшайдиган инсонларнинг тақдири ва келажаги, албатта, давлатларнинг етакчи кучлари ҳисобланмиш ёшлар тарбияси билан чамбарчас боғлиқдир. Буюк ўзбек халқи қадим-қадимдан фарзанд, ёшлар таълим-тарбиясига алоҳида эътибор қаратиб келган. Бугунги кунда юртимизда амалга оширилаётган ёшларга оид давлат сиёсати эса қадимдан ота-боболаримиз томонидан шаклланиб келган асл миллий ва диний қадриятларимизнинг аҳамияти нечоғлик муҳим эканлигини кўрсатиб бермоқда. Зеро, ҳаётимизни мукаммал аҳлоқ тамойиллари асосида барпо қилиш, албатта, таълим-тарбия бериб келаётган эртамиз ишончи бўлмиш ёш авлодларимизга боғлиқдир. Зотан, мустақил давлатимиз истиқболи учун маънавияти юксак, баркамол инсонлар зарур.

Юртбошимиз Шавкат Мирзиёев ёшлар тарбияси бутун миллат олдидаги улкан масъулиятли вазифа эканлигини таъкидлаб: “Агар фарзандимизга тўғри тарбия бермасак, ҳар куни, ҳар дақиқада унинг юриш-туриши, кайфиятидан огоҳ бўлиб турмасак, уларни илму ҳунарга ўргатмасак, муносиб иш топиб бермасак, бу омонатни бой бериб қўйишимиз ҳеч гап эмас”**,** дея айтиб ўтган эди.

Бу борада президентимиз ёшлар дунёқарашини шакллантиришда мафкура масалаларига алоҳида эътибор қаратиб келмоқда. Зотан, ёшларни баркамол инсонлар этиб вояга етказиш, ёт мафкуралар, ҳуружлардан асраш, уларда турли ғоявий таҳдидларга қарши кўникмаларни шакллантириш давлатимиз сиёсатининг муҳим йўналишларидан саналади.

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, ҳозирги глобаллашув асрида ёшларнинг дунёқараши, фикри кун сайин ўзгариб бормоқда. Бугунги кунда ёшларни ҳайратлантириш, уларнинг кўнглидан чуқур жой оладиган лойиҳаларни ишлаб чиқиш ҳам қийинлашиб бормоқда. Бунинг асосий сабабларидан бири уларнинг замонавий ахборот коммуникацияларидан фаол фойдаланиши, дунёда рўй бераётган янгиликлар, воқеа-ҳодисалардан тез хабардор бўлиши билан ҳам изоҳланади.

Ҳозирги кунда бутун дунёда глобаллашув, маданиятлар аралашуви жараёни кечмоқда. Бу мураккаб жараён нафақат ёшларга, балки катталар дунёқарашига ҳам таъсир этяпти. Бир томондан, ахборот технологиялари кундалик ҳаётимизга шу қадар шиддат билан кириб келяптики, буни ҳар қандай рақамларсиз ҳам кузатишимиз мумкин. Айни пайтда мамлакатимизда 1500 дан зиёд оммавий ахборот воситалари фаолият юритмоқда. Ушбу оммавий ахборот воситалари навқирон авлод вакилларининг ахборот маданияти ва мафкуравий иммунитетини шакллантиришга ҳисса қўшмоқда.

Мамлакатимизда таълим олиш жараёнларига ҳам ахборот коммуникация тизимларини жорий қилиш бўйича бир қатор ижобий ишлар амалга оширилди. Хусусан, таълим муассасаларини компьютер техникалари билан таъминлаш баробарида таълим беришнинг замонавий усулларидан фойдаланиш, барча таълим муассасаларида ахборот-ресурс марказлари ташкил этилиб, уларда Интернет тизимидан фойдаланиш имкониятлари яратиб берилган. Бироқ масаланинг яна бошқа бир тарафи борки, яратилаётган имкониятлардан ёшлар қай йўсинда фойдаланаяпти? Бу каби имкониятлар уларнинг камол топишига қандай таъсир кўрсатяпти? – деган оғриқли саволлар вужудга келмоқда. Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, ҳозирги кунда ёшларнинг 90 фоизи асосий ахборот манбаи сифатида Интернетга мурожаат қилмоқда. Фойдаланилаётган ахборот воситаларининг катта қисми асосан “Twitter”, “Instagramm”, “Facebook”, “Одноклассники” каби ижтимоий тармоқлар ва видео, аудио порталларга тўғри келса, маълум бир қисмигина зарарли таъсир этмайдиган, илмий, маданий ва маърифий сайтлардан иборатлигини кузатишимиз мумкин. Маълумотларга қараганда, бугунги кунда Интернет тармоғида ўз жонига қасд қилишнинг осон йўлларини тарғиб қилувчи 9 минг, шаҳвоний мазмундаги 4 мингдан зиёд сайтлар мавжуд бўлса, 49 фоиз компьютер ўйинлари зўравонлик ва ёвузликни тарғиб қилади. Айни вақтда 42 фоиз болалар ва ўсмирлар онлайн тарзида тарқатиладиган порнография таъсирига бутунлай тобе бўлиб қолган. Халқаро экспертлар дунё миқёсида 38 фоиз бола зўравонлик руҳидаги сайтларга, 26 фоизи миллатчилик характеридаги веб-саҳифаларга мунтазам киришини тасдиқлашмоқда. Қайд этиб ўтилган масалалар бевосита ҳар бир ёшнинг мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётида ўз ўрнини эгаллаши, дунёқарашини шакллантириш йўлидаги муаммолар қаторида

турибди. Ёшларнинг дунёқарашини шакллантиришда, энг катта муаммолардан бири бу — тарбия жараёни ва бунда ота-она томонидан йўл қўйилаётган масъулиятсизлик. Афсуски, бугун айрим оилаларда ота ўз боласи учун идеал шахс сифатида гавдаланмай қўйган. Бу эса бола хулқ-атворининг ўзгаришидан даракдир. Боланинг хулқи оға бошлайди ва натижада, хулқ-атвори бузилади, шунингдек, дунёқарашининг шаклланишида ҳам муаммолар юзага келади. Айниқса, бу жараёнлар вояга етмаган болалар орасида кўп учрайди.

Бунинг олдини олиш, муаммоларни бартараф этиш учун дастлаб ёшларнинг дунёқараши ва хулқ-атворининг шаклланишига салбий таъсир этаётган омилларни аниқлаш ва шунга қараб чора-тадбирлар ишлаб чиқиш лозим. Масалан, улар қуйидагилардан иборат бўлиши мумкин:

Вояга етмаганлар ўртасидаги хулқ оғишининг келиб чиқиши асосий сабаблари сифатида “болалар ва ўсмирлар фаолиятини назорат қилмаслик”, “оилада бола тарбиясига эътиборнинг сусайиши” кабилар намоён бўлганлигидан келиб чиқиб, оилада ва оиладан ташқарида болалар ва ўсмирлар фаолиятини, бўш вақтларида нима билан шуғулланаётганлигини назорат қилиш ва оилада болалар тарбиясига эътиборни кучайтириш мақсадга мувофиқдир.

Болалар ва ўсмирларнинг мактабдан кейинги бўш вақтларини назорат қилиш ва улардан унумли фойдаланишни ташкил этиш.

Ота-оналар, катта ёшдаги кишилар ва ўқитувчилар томонидан болалар ва ўсмирларга нисбатан қўлланилаётган қаттиққул, қўпол ва адолатсиз муносабатларга барҳам бериш.

Вояга етмаганлардаги хулқ оғишининг олдини олишда болалар ва ўсмирларнинг ёш ва индивидуал-психологик хусусиятларини ҳисобга олиш.

Агар юқоридаги жараёнларни амалга оширишда ижобий натижага эришилса, демак, ёшларнинг дунёқараши ва хулқ-атворининг ўзгаришига катта ёрдам берилган бўлади.

Ўз навбатида давлатимиз раҳбари томонидан яратиб берилаётган имкониятлар ҳам, эртанги кунимизни ўз қўлларимиз билан қурамиз деган мустақил фикрга эга бўлган баркамол ёшларни шакллантиришга туртки бўлмоқда. Албатта, эртанги кунимиз, порлоқ келажагимиз ана шундай ёшлар қўлида. Зеро, ёшлар таълим-тарбиясига тикилган сармоя келажакка тикилган сармоядир. Янги давлатни барпо қилиш осон бўлмагани сингари, унинг порлоқ келажагини шакиллантириш ҳам енгил бўлмайди. Бунинг учун куч, ғайрат, шижоатимизни аямаган ҳолда илм ва маърифатли ёшларни тарбияламоғимиз лозим.

Бугун Ўзбекистон ёшлари билим заковатлари, интилишлари, меҳнат шижоатлари билан бутун дунёни ҳайратга сола бошладилар. Бунинг замирида давлатимиз раҳнамолигида ёшларга оила, таълим муассасалари, маҳалла ва кенг жамоатчилик томонидан бериладиган таълим-тарбия ётади. “Нимани эксанг шуни ўрасан”, – дейди доно халқимиз. Шундай экан бугунги кунда ёшларимизга яратилаётган имкониятлар, эртанги кунимиз порлоқ келажаги учун қўйилаётган тамал тошидир. Ёшлар тарбиясига эътибор, ўзимизнинг келажагимизга бўлган эътибор эканлигини ҳеч қачон ёдимиздан чиқармаслигимиз ва бу йўлда барчамиз

бирдай ҳаракат қилмоғимиз лозим. Зеро, эртанги порлоқ келажагимизни барпо этишда салоҳиятли ёшларни тарбиялаш долзарб аҳамият касб этувчи доимий масалага айланмоғи даркор.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Шавкат Мирзиёев. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. – [Т.: Ўзбекистон, 2017- 21-б].
2. Р. Кушербаев. Ёшларда фуқаролик позициясини шакллантиришнинг долзарб масалалари. [Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар. Республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами. 2019 йил 20 ноябрь, 15-16-б].
3. Ғ. Шоумаров, Б. Умаров, Ф. Акрамова. Ёшларда хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг олдини олиш бўйича психологик маслаҳатлар. [Тошкент-2015, 48-б].

## YOSHLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI , SABAB VA YECHIMLAR

*Abduraxmonova Nargiza Normurotovna*
*Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani 35- maktab psixologi*

Yoshlar hayotining kechirshida ba'zan ko'z ilg'amas o'zgarishlar, ba'zan esa favquloddagi "yangiliklar", "yorqinliklar" umumiy ta'sirida uning taqdirini o'zgartiruvchi ma'naviy tushkunliklar ham ro'y beradi. Bunday paytlarda maktab amaliyotchi psixologi har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini avvalo o'rganib, bolaning oilaviy ahvoli bilan tanishib, ota-onalari va fan o'qituvchilari aloqani mustahkamlashi, darslarini kuzatish, tanaffus paytida, ko'cha-kuyda ularni o'zlarini tutishlariga e'tiborli bo'lib, ularning har biri bilan individual psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ular bilan individual va guruhiy suhbat, trening mashg'ulotlari tashkil etilsa, ijtimoiy-psixologik muammosi bo'lgan o'quvchilar soni anchaga kamayadi. Hech kimga sir emaski, buguni kun yoshlari o'zlarining yigirma yil oldingi tendoshlaridan farq qilishadi. Ayrim yoshlar tez ta'sirlanuvchan, mustaqillikga moyilligi yuqoriligi va shu bilan birga nisbatan befarq, o'z vaqtlarni mazmunli ijtimoyi foydali faoliyiatga sarflagilari kelmaydi. Vaholanki, inson tabiatan o'ziga xos oson va ko'ngilochar mashg'ulotlarga moyil bo'ladi. Inson xulq atvori tabiiy instinktlar tazyiqi ostida bo'lishi inobatga olinishi kerak. Ushbu tazyiqlarni tog'ri muvofirqlashtirish insonlardan irodaviylikni talab qiladi. Bu holatni zamonaviy texnikaning rivolanganligi ta'siri deb ham izohlash mumkindir.Ko'pchilik hollarda bolalardagi bu o'zgarishlarga e'tiborsizlik va befarqlik ularning xulq-atvoridagi salbiy og'ishlarni boshlang'ich sababi va asosi bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy psixologik muammolari mavjud bo'lgan o'smirlar bilan profilaktik ishlarni olib borishda ularning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini unutmaslik kerak. Shuning uchun ham har bir o'smir va o'spiringa

o'ziga xos usullar orqali yondashish xulq og'ishining oldini olishda muhim hisoblanadi. Bu orqali o'smirlarda muayyan va mustahkam e'tiqodning shakllanishiga kishilarga nisbatan bo'lgan ishonch hissini ortishiga erishish mumkin. Xulqning ijtimoiy qabul qilinmagan formalarining paydo bo'lishi ijtimoiy moslashmaganlik holatidir. Bu formalar qanchalik har xil bo'lmasin ular deyarli har doim boshqa bolalar bilan yomon munosabat, urush, janjal, agressevlik, namoyishkorona itoatsizlik yoki yolg'onchilik bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy psixologik muammolari mavjud bo'lgan bolalar, ijtimoiy moslashmagan, pedagogik jihatdan qarovsiz, xulqi og'ishgan yoki jinoiy axloqli bolalar deb ataladi. Ijtimoiy psixologik muammolari mavjud bo'lgan bolalar bilan profilaktika ishlarini yuqori darajada samaradorligini oshirish uchun bir qator tamoyillarni hisobga olish tavsiya etiladi:

– psixologik-pedagogik axloq qoidalariga qat'iy rioya qilish, ijtimoiy-psixologik-pedagogik madaniyat har bir tarbiyachi, o'qituvchi, psixolog, ijtimoiy pedagog va boshqalarning kundalik ishiga qo'yiladigan talablar;

– o'smirlarning ijtimoiy psixologik muammolari doirasida yoshga oid psixologiyadan kam bilimga ega bo'lish, shuningdek, individual psixokorrektsion ishlarda davolovchi pedagogika va psixoterapiyaga muvofiq usul;

–xavf guruhidagi bolalar miqdorining ijtimoiy-psixodiagnostik muolajalar va tadqiqotlar asosida dastlab namoyon bo'lishi, shuningdek, uning tavsifnomasini bilish, o'z vaqtida psixologik-pedagogik yaxshilash ishlarini nazorat qilish;

– oilaviy faol patronaj – bunda xavf guruhidagi bolalar yashayotgan oilalarga oilaviy psixoterapiya qabul qilishi, ota-onalarga maslahat va bolalarga psixologik-pedagogik yordamlar ko'rsatish;

– bolalar jamoasida suitsidal voqealar omillarini oshkor qilmaslik;

– o'z joniga qasd qilish xavfini yuqori darajadagi suitsidal xavf sifatida ko'rib chiqish;

– ota-onalar va tartibni saqlash muassasalari xodimlarining dori vositalarini saqlash, shuningdek, suitsidogen psixologik omillarga diqqatini kuchaytirish;

– zarur bo'lganda o'smir psixolog, psixoterapevt, psixiatrdan kerakli maslahatlarni olishi;

– o'smirda "inson hayoti qadri", "yashashdan maqsad", shuningdek, hayotiy qiyin vaziyatlarda individual psixologik himoyani qabul qilishni shakllantirish;

– o'smirning psixik zarbalarga chidamliligini oshirish, qiyin vaziyatlar va hozirgi zamon voqeliklariga psixologik jihatdan tayyorlash, hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etishni shakllantirish;

–oilaga va o'smirga ogohlantirish yoki harakat omillarini susaytirish maqsadida psixologik yordam berish;

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan jihatlarni amalga oshirish uchun:

–o'qituvchilar, tarbiyachilar, ijtimoiy pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning psixologik tayyorgarlik darajasini oshirish;

– muassasalarda yoshga oid psixologiya, inqiroz psixologiyasi va psixoterapiya bilimlariga ega psixologlar sonini ko'paytirish;

– maktabdan tashqari psixologik yordamning turli shakllarini tashkil qilish, o'z tizimiga psixiatr, psixoterapevt, yurist va boshqa mutaxassislar, inqiroz holatida anonim psixologik yordam uchun "ishonch telefoni" va boshqalarni o'z ichiga olgan hududiy psixologik maslahatlar.

O'smir yoshlardagi psixologik xususiyatlar rivojlanishida o'ziga xos tomonlar ular o'rtasida salbiy odatlarni oldini olish va boshqa masalalar doirasida umumta'lim maktab amaliyotchi psixologlari tomonidan qator tadbirlar, ya'ni psixotrening va psixokorreksion ishlar olib boriladi. Ijtimoiy psixologik muammolari mavjud bo'lgan bolalar bilan ishlashda sinf rahbarlari, ma'naviy va ma'rifiy ishlar direktor o'rinbosarlari, ota-onalat qumitasi, mahalla fuqarolar yig'ini, hududiy voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspektori, "Yoshlar ittifoqi" markazi hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etishlari lozim.

Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolarini bartaraf etishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Aniqlangan mavjud muammolarning muhit va sharoitdan kelib chiqib eng oson va optimal psixologik yo'llarini ishlab chiqish.
2. Yoshlarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda maslahat va tavsiyalar berish.
3. Yoshlarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samimiy va do'stona muloqotga kirishish.
4. Maqsadga erishishda yoshlar bilan psixologning hamkorlikda va birgalikda harakat qilishi.
5. Zo'riqishlarni bartaraf etish, yutuq va muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchidagi mavjud potensial imkoniyatlarni qo'zg'ata olish va unga stimul ko'rsatish.
6. Muammoli oila farzandlarini aniqlash va ular bilan individual psixologik ishlarni olib borish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G.Q.To'laganova "Tarbiyasi qiyin o'smirlar". Toshkent. "Universitet" 2005.
2. Kamilova N.G'. "Muammoli o'smir: tashxis, tadqiqot metodlari". Toshkent Nizomiy nomidagi TDPU. 2004.
3. Ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud deviant xulqli o'quvchilarni aniqlash va ularning muammolarini o'rganish. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashhis markazi. T. 2019.
4. Maktab va hayot. 2017. 8-son.

## РУҲИЙ ФАОЛ МОДДАЛАРНИ ЎҚУВЧИ ЁШЛАР ОРГАНИЗМИГА САЛБИЙ ТАСИРИ

*Абдусаид Исманов*
*Жалакудук тумани 42-мактаб психологи*

Ҳар бир одам соғлом, чиройли ва кучли бўлишни хоҳлайди. Организм бафувват бўлишни истайди. Бироф организмнинг душманлари бор. Бу турли

касалликлардир. Улар усталик билан организмимизни бузади. Шуниси қизиқки, бази касалликларга одамнинг ўзи сабабчи бўлади. Бундай касалликлар зарарли одатлар, масалан, чекишнинг зарарли оқибати натижасида келиб чифади. Шундай экан баъзи бир ўқувчилар шу касалликка учраб қолганлари ёлғон эмас. Балки уларнинг отаси ёки акаси чекишар, лекин улардан чекиш яхшими, деб сўраганда улар "йўқ"деб жавоб бергандир. Аммо биз уларнинг гапларига қулоқ солмай шу касалликка учраб қолганмиз. Бундай ўқувчилар руҳий фаол моддаларни асосан ўз муоммоларини ечишга кучи етмайдиган ва хавфсиз йўл билан лаззатлана олмайдиган ўқувчиларни ўзига тортади.

Гиёҳвандлик моддаларни истеъмол қилган ўқувчилар касалманд, ёлғиз ва ўқишга яроқсиз бўлиб қолиши хафи бор. Гиёҳвандлик моддаларига қарам бўлиб қолишига, авваламбор, ўқувчининг ўзи айбдордир, чунки биринчи бор рухий фаол моддаларни татиб кўришдан олдин - "йук " дейиш учун унинг имконияти бўлган. Кўпчилик ўқувчилар ҳаётида ўсмирлик даври қийинчиликлари сабабли ушбу хатолар мавжуд бўлиши мумкун. Шунинг билан бир вақитда, ўқувчида ўзини каттарок ва мустақил хис этиш, янғи таассуротлар олиш, тенгдошларининг қандайдир гуруҳга мансуб бўлиш заруруияти пайдо бўлади. Бази бир касалликка учраган ўқувчилар чекиш ва спиртли ичимликлар ичишни катта ёшдагиларга ўхшашлик белгиси, деб ҳисоблашади. Улар шундай моддалар мавжудлигига ишонишади ва "гиёҳлар"ни истеъмол қилиш зарар етказмайди, деб ўйлайдилар. Баьзилар гиёҳвандлик моддаларни истеъмол қилиш бу "кучли"ларга хос хусусият дейишади. Руҳий фаол моддаларни биринчи бор татиб кўраётганлар, ундан қандай самарани кутар эканлар? Ҳар бирлари улар ёрдамида ўз эхтиёжларини қониқтирмоқчи бўладилар. Ҳақиқатдан ҳам кўпчилик гиёҳвандлик моддаларни одам мияси фаолиятига таъсир қилиб, қисқа муддатда "муоммоларини эсдан чиқаришга" ёрдам беради. Ҳақиқатдан ҳам улар бир неча соатга "бўшаштиришлари" ёки кайфиятни кўтаришлари мумкин. Лекин бола бўшашиш вақтида муаммолар хеч қаерга йўқолмаслиги ҳам ҳақиқатдир. Кўпчилик ҳолатларда улар янада мураккаблашади ёки янги қийинчиликларни олиб келади. Масалан, компьютер олиб бермаганликлари учун ота-онаси билан жанжаллашган ўсмир кўчадаги болалар даврасига қўшилади. Бу даврада унга "дардини енгиллаштириш" учун гиёҳвандлик моддаларни таклиф этадилар.

Қачондир, сизнинг олдингизда мустақил қарор қабул қилиш вазифаси кўндаланг бўлиши мумкин: кимлардир таклиф этганда чекиш ёки рад этиш керак бўлиб қолади. Тўғри қарор қабул қилишингизга нима ёрдам берди? Биринчидан, бизнинг сезги аъзоларимиз. Табиат инсонни жуда тўғри яратган: кўзлар, қулоқлар, бурун, тери, тил каби аъзоларимиз бизга нимадан воз кечиш кераклигини "айтиб туради". Сезги органлари бизнинг ёрдамчилардир. Улар "Эхтиёт бўл" деб огоҳлантиради. Агар овқатдан ёмон хид келса, демак айниган. Ёқилмаган сигарет ҳам, кулдонга ташланган сигарет ва папирос қолдиқлари ҳам жуда бадбўй ҳид тарқатишига эътибор беринг! Уларни сув билан намласангиз нима бўлади? Кулдонга қарашнинг ўзи-нақадар ёқимсиз? Ҳамма буни ифлослигини тушунади. Тамакининг мазаси аччиқ бўлади. Биринчидан, чекиш йўталтиради. Бу организмга тамаки соғлиқ учун зарар эканлиги тўғрисида

хабардир. Агар кимдир фаол моддалар зарарлигини билса-ю, лекин чека бошласа, бу заиф, иродаси бўш одамдир. У ўзи ҳақида, соғлиги ҳақида ғамхўрлик қила олмайди. Ўз муаммоларини муваффаққиятли ҳал эта олмайди. У аниқ фикр юритишига қодир эмас, ўз ҳаракатлари оқибатларини кўз олдига келтира олмайди. Балки у яхши яшашни истамас? Яхши овқатланишни, кийиниш ўрнига пулларини сигаретага сарф қилмоқчидир.

Мен сизларга бир сирни очаман. Ҳамма чекувчилар чекишни ташлашни хоҳлайдилар. Унда нега чекишни бошланган? Кейин уни ташлаш тўғрисида орзу қилиш учунми?

Доно булинг! Бошқалар хатосини қайтарманг. Ўз аъзойи баданингизга, ўз организмига ҳалол ва эхтиёткорлик билан муносабатда бўлинг. Йўқотилган соғлиқни қайтариб бўлмайди, уни ёшликдан сақлаш керак. Саломатлик - инсон кучи ва гўзаллигидир.

Хулоса қилиб айтганда, ҳаётда ҳар бир ўқувчи ўз ўрнини топиб ўзини соғлигини, оиласини яхши таъминлаш, ривожлантириш учун кўп ўқиши, ота-онасининг, устозларининг насиҳатларига, бой ҳаётий тажрибасига, уларнинг ҳаётда, жамиятда тутган ўрнига ҳолис баҳо бериб, улардан ўрганиб яшаса, ҳаёт кечирса, умргузаронлик қилса, бу албатта ўз ижобий самарасини беради, яхшиликка етаклайди, хурмат-иззатда яшашга имконият яратади. Ҳаётдан умиди бор, эртанги кунинг пойдеворини барпо қилмокчи бўлган ҳар бир соғлом ўқувчи берилган бундай чексиз, бепоён имкониятлардан унумли фойдаланиши керак ва шарт.

Бу ёруғ дунёда яшашдан умиди бор инсон аввало касб танлашда узоқ ўйлаб, кўп мулоҳаза қилиб, қалбига, юрагига мос тушадиган касб даркор. Акс ҳолда, бир умр танлаган йўлингдан, касбингдан афсусланиб ҳаётдан қониқмаслик хиссиёти билан яшайди. Касбни танладингми, шу касб орқали Ватанга, Она юртига ҳалол, виждон билан хизмат қилмоққа аҳд қилдингми юрагингдан, қалбингдан чиқариб танлаган касбингни бажариш керак. Ўртоқлари ва касбдошлари орасида энг олдинги қаторда бўлишга ҳаракат қилиш керак. Бу ўз виждони олдида, Ватанга, ота-она, эл-юрт, ўртоқлар ва бошқалар олдида ёруғ юз, покиза хулқ билан ҳаёт кечиришга катта йўл очади, имконият яратади.

Менинг назаримда, инсон ҳаёти давомида 3 та буюк ҳақиқатга хиёнат қилмаслиги керак.

1. Ватанга
2. Касбига
3. Ўзига

Аввало, ҳаммамизнинг шу ёруғ дунёда Ватан туйғуси, Ватанга бўлган чексиз мехр-мухаббат, шу ватанни инсонларига оқибати, ўзаро ҳурмат билан яшаш насиб этсин ва бизни ҳеч қачон юқоридаги туйғулар тарк этмасин.

Агар сиз танлаган касбингизга виждонан, борлигингиз билан ёндашмасангиз, билинки, сиз касбингизни том маънода тўлоқонли бажармаслик билан ўзингизни, оила-аъоларингизни ризки, моддий манфаатдорлиги, яшаш учун зарур имкониятлардан маҳрум этиб, даромадингизни камайишига, оилангиз манфаатини заифлашишини, инқирознинг юз беришига йул очган бўласиз.

Шунинг учун ҳам, яхши яшаш учун, яхши ишлаш керак деган энг олий шиор ҳамма вақт қалбингизда, юрагингизда мавжуд бўлмоғи даркор.

Ўзига хиёнат қилмаслик эса, вақтда ҳордиқ чиқариб, руҳий фаол моддалардан узоқроқ бўлишга, мунтазам равишда соғлигини эҳтиёт қилиб, ҳаётининг эртанги кунини вужудга келтирган ҳолда, яшаш учун, яхши яшаш учун хамма чора-тадбирларни кўрмоғи керак. Ана шунда жамият ривожланади, инсоннинг шахс сифатида шаклланиши амалга оширилади, ҳамма тинчлик-омонликда, ҳотиржамликда, бахтли, соғлом яшаш имконятига эга бўлади.

# O'SMIRLIK DAVRIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLAR SABAB VA ULARNING YECHIMLARI

*Tilavoldiyeva Valida Ma'murjon qizi*
*Farg'ona davlat universititeti Psixologiya yo'nalishi 1-kurs magistrantlari*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlik davri haqida malumotlar, o'smirlik davridagi psixologik yangiliklar, ijtimoiy xususiyatlar, muamolar sabab va ularning yechimlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** umir davrlari, o'smirlik, idrok, diqqat, taqlidchanlik, bilish jarayonlari, rivojlanish davri.

Mamlakatimizda yoshlarga ularning porloq kelajagiga bo'lgan e'tibor hamma vaqt asosiy va dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Shu sababli ham har jabhada olib borilayotgan say harakatlar aynan yoshlarga qaratilayotgani bejiz emas zero yosh avlod bizning ertangi kunimiz umidimiz sanaladi ularning farovon yashashlari jahon minbarlariga chiqib o'zlarini namoyon qilishlari uchun ham bu ishlar amalga oshirilmoqda chunki xalqimizning davlatimizning gullab yashnashi yoshlar qo'lidadir. Mamlakatimizning birinchi prezidendi I.A.Karimov "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" deb baralla shu yoshlarga ishonib gapirganlar.Hammaga malumki yoshlarimiz kelajagimizning eshiklarini ochadigan kalitlarimizdir. Shu sababli xam ularning rivojlanishning xar bir davrida katta e'tibor berishimiz kerak. Ayniqsa, o'smirlik davrida. Nega aynan o'smirlik davrida degan savol tug'ulishi mumkun. Sababi o'smirlik davrida o'smir oilasidan topa olmagan mehrni ko'chadan qidiradi. Ko'chada xar xil yomon illatlarga qiziqib chekish, ichish va boshqa salbiy illatlarni o'ziga odat qilib olishi mumkun. Chunki bu davrda o'g'il va qizlarimizda balog'at davr yani o'tish davri bo'ladi. Ulardagi o'zgarishlar esa keskin bo'lib bu jarayonlarni qabul qilish biroz qiyin bo'ladi. Shu o'rinda biz o'smirlik davriga qizqacha to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda O'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik — bolalikdan

kattalikka o‘tish davri bolib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘atga yetish davri bolib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Bo‘yga o'sish bir tekis bormaydi: qizbolalar 5-7 sm o'ssalar, o‘g‘il bolalar 5-10 sm o'sadilar. Bo‘yiga qarab o‘sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro‘y beradi.

O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yoli bilan ham osongina ko‘rish mumkin. O‘smirlik davri «o‘tish davri», «krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni «psixik rivojlanishdagi inqiroz» deb nomlagan. Kichik maktab davridan so‘ng bola alohida olingan shaxs sifatida o‘z-o‘ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o‘smirlik yoshini ikki xil davrga kichik o‘smirlik davri va katta o‘smirlik davrlariga to‘g‘ri keladi. Birinchi bosqichda o‘smir o‘zini «bola»lardan ajratib, endi o‘zini kattalar olamiga mansubligini ta’kidlamoqchidek boladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o‘smirlarning asosiy xarakteristikalari hisoblanadi.

O’smirlarning o’ziga xos xususiyatlari quydagicha; Ijobiy sifatlar, ehtiyojlar va intilishlar har bir yoshda, jumladan, ma’lum darajada yo'ldan ozgan o‘smirda ham boladi. O‘smirlar hamma narsani bilishga qiziqadilar. Ko‘pchilik o‘smirlar boshqalardan yomonroq bolishni xohlamaydilar va o‘z muhitida ko‘zga tashlanib turishga hamda boshqalardan nimalar bilandir farq qilishga intiladilar. O‘smirlarning hammasi g‘ayratli va faoldirlar, biroq, o‘zlarining kuch-quvvatlarini qayoqqa yo‘naltirishni hamma vaqt ham bilavermaydilar. Binobarin, ularni bevosita natijalari bilan xursand qiladigan xilma-xil foydali va qiziqarli ishlar bilan band qilish kerak. O‘smirlar, garchi hamma vaqt ham bunga tayyor emasliklariga qaramay, mustaqillikka intiladilar. Ammo ko‘pincha mustaqil ish-harakatlar uchun ularning imkoniyatlari bolmaydi. Demak, ularni mustaqil faoliyatga yaxshiroq tayyorlash va ularga mustaqil ishlarni ishonib topshirish hamda muvaffaqiyatli bajarilishini hamma vositalar bilan ta’minlash kerak. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, o‘smirlar psixikasida ijobiy tomonlar yetarli darajada mavjuddir. Bu ijobiy tomonlardan foydalanib va ularni rivojlantirish, salbiy ishtiyoq, mayl, ishlar va xatti-harakatlarni yo‘qotish kerak.

Endi o‘smirlar o‘yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan holda ko‘proq jiddiy ishlar bilan shug‘ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. Maktab ta’limi o‘smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o‘zgarishda asosiy omil bolib xizmat qiladi. o‘qish o‘smirlar hayotida katta o‘rinni egallaydi. Ular uchun mashg‘ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr

bolalariga nisbatan oʻsmirlarning fanlarni muvaffaqiyatli oʻzlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, oʻqituvchining oʻquv materialini tushuntira olish mahoratiga bog'liq. Oʻqish faoliyati asosida oʻsmirning oʻz-oʻzini anglash darajasi kengayadi, boshqa odamlar, atrof olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. Bilim olganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan oʻquv fanlariga nisbatan qat’iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda oʻqishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar oʻsmirning, hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bogliq bolgan holda bilish jarayonlari rivojlanish xarakteriga oʻz ta’sirini koʻrsatadi. Aynan oʻsmirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor boladi. Bilim oʻsmirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi.

Oʻsmirlik yoshi dunyoqarash, e’tiqod, prinsip, oʻzligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi. Oʻsmir ulgʻaygan sari unda «Ideal Men», «Axloqiy Men» va «Haqiqiy Men» singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e’tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi oʻzi toʻgʻrisidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror boʻlib qoladi. Oʻsmir oʻz faoliyatini muayyan prinsip, e’tiqod va shaxsiy nuqtayi nazari asosida tashkil qila boshlaydi. Oʻsmir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar oʻtkazgan tadqiqotlardan koʻrinadiki, oʻsmirlarning koʻpchiligi qat’iyatlilik, kamtarlik, magʻrurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma’naviy, axloqiy tushunchalarni toʻgʻri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e’tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. Ma’lumki, oʻsmirlik davrida oʻsmirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilari ayniqsa, oʻz-oʻziga boʻlgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yoʻnalishi keskin oʻzgaradi. Oʻsmir yoshdagi bolani birinchi galdagi intilishi, u oʻzini endi kichkina bola emas, balki katta boʻlib qolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan oʻsmir shunday qilishga haqqi borligiga oʻzini-oʻzi ishontiradi, chunki men endi «katta bolib qoldim» deb oʻylaydi. Shuning uchun ham psixologlar «katta bolib qolganlik tuygʻusi»ni shaxsning oʻsmirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar. Xususan L.S.Vigotskiy oʻsmirlik davrida qiziqishlarning oʻzgarishiga bogliq ravishda ikki fazani (salbiy va ijobiy) ajratib ko’rsatgan. Salbiy faza ilgarigi qiziqishlarning soʻnishi va yangi dastlabki jinsiy qiziqishlarning paydo bolishi bilan bogliq. Bunda quyidagi salbiy xulq-atvor korinishlari namoyon boladi: ish qobiliyatining, oʻzlashtirishning pasayishi, oʻsmirning qo'polligi va yuqori qoʻzgʻaluvchanligi, uning oʻzidan qoniqmasligi va xavotirlanish va boshqalar Ijobiy faza keng, chuqur yangi qiziqishlarning paydo bolishi bilan xarakterlanadi. Oʻsmirda boshqalarning va oʻzining psixologik kechinmalariga qiziqish paydo boladi.

O’smirlar salbiy fazaga o’tib qomasligi uchun uning bandligini oshirish va u bilan ota-onalar va pedagoglar do’stona munosabatda bo’lish maqsadga muvofiq bo’ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Rivojlantirish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Nishanova Z.T.Kamilova

2. Yosh davrlar psixologiyasi. Farg'ona 2013.
3. Rivojlanish psixologiyasi. E.G’oziyev. Toshkent-2015.
4. Ontogenez psixologiyasi. E.G'oziyev Toshkent -2013.

# MATEMATIKA DARSLARIDA O`QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O`RGATISH USULLARI

*Setimova Saida Samandarovna*
*Xorazm viloyati Xonqa tumani 35-maktab Boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarini matematika darslarida kreativ fikrlashga undaydigan tavsiyalar berilgan. Jumladan, ta`lim – tarbiya jarayonida qo`llanadigan samarali usullar soda, lo`nda ifoda etilgan.

**Kalit so`zlar**: Kreativ fikrlash, innovatsiya, usul, metod, vosita, intellektual salohiyat, tafakkur.

Inson borliqning bir bo`lagi sifatida undagi har bir voqelikka o`ziga xos mulohaza bilan yondoshsa,ko`rgan eshitgan voqealarini ziyraklik bilan mulohaza qilsa, o`qish qobiliyatiga ega bo`lsa, ijodiy fikrlasa, uning tafakkuri qarashlarida yangilik, samara bo`lishi muqarrar. Bunday jarayonda mustaqil ta`limdan foydalanish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Matematika darslarida va darsdan tashqari mashg`ulotlarda mustaqil ta`limdan foydalanish o`quvchilarda bilim, ko`nikma, malakalarni shakllantirishda juda katta ahamiyatga egadir. O`quvchilarning mustaqil fikr yuritishi, aqliy va ijodiy faollikka undash, erkin fikr, kasbiy mas`uliyat elementlarini his qilishga qaratilgan jarayondir.

Ijodkorlik, izlanuvchanlik va tashabbuskorlik o`qituvchi faoliyatining eng muhim xususiyatlaridan biri bo`lmog`i lozim. O`quvchilarning bilimdonligi va intellektual salohiyatini oshirishda har bir pedagog o`z o`quvchisining diliga yo`l topib ishlashi ta`limda samaradorlik omilidir. Dars davomida qo`llaniladigan turli og`zaki mashqlar o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqish va intilishlarini yanada kuchaytiradi. Xilma-xil qiziqarli didaktik materiallar ularning ruhiyatini yanada oshirib, darsda faol qatnashishlarini ta`minlaydi.

Geometrik shakllar, kubiklar, qog`ozdan yasalgan tangalar, kesma raqamlar, sanoq cho`plar, turli hayvonlarning rasmlari, meva va sabzavotlar, bular hammasi darsning qiziqarli va namunali o`tkazilishini ta`minlaydi. Magnit darstaxtada rasmlar va raqamlar orqali og`zaki misol va masalalar tuzib yechish jarayonida o`quvchilarning kreativ fikrlashi o`sadi, ularning og`zaki nutq madaniyati rivojlanadi.

Bu vositalar o`rinli foydalanilganda o`quvchilarning idroki oshadi, o`zlashtirishlari osonlashadi. Agar dars mashg`ulotlari qiziqarli savollar va harakatli o`yinlar bilan qo`shib olib borilsa,o`quvchilar o`quv ma`lumotlarini o`rganib olganliklarini o`zlari sezmay qoladilar.

O`yin jarayonida o`quv materiallarini puxta o`zlashtirib oladilar. Umuman o`yinlar, xususan didaktik o`yinlar, o`quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantiradi. Shu sababli ular o`yinga juda qiziqadilar. Har bir “o`ynaylik” degan buyruqning

berilishi bolalarni jonlantirib yuboradi va ular o`yinga kirishib ketadilar va o`qituvchining nima deyishini qiziqish bilan orziqib kutadilar.

O`yinni qobiliyati va intizomidan qat`iy nazar, barcha bola yaxshi ko`radi. O`yinda qo`llaniladigan usullar o`zlarining shakli va va mazmuni jihatidan bolalarga juda tushunarli bo`ladi. Bu esa ixtiyorsiz diqqatni tarkib toptiradi.

Bolalarda "Qanday o`ynaymiz", "Nimani topish kerak?", "Kim g`olib bo`lar ekan?" degan savollar va g`olib chiqish istagi paydo bo`ladi. Bu esa, tez fikr yuritish, o`yin qoidalarini to`g`ri tushunish, o`yinda beriladigan topshiriqlarni oldin tushunib, keyin bajarishga kirishish ko`nikmalarini shakllantiradi.

Didaktik o`yinlar bolalarda sezgirlik, kreativ fikrlashning o`sishgiga yordam beradi. Ularda eshitish, ko`rish, harakat qilish qobiliyatlari taraqqiy etadi, aniq va mustahkam malakalar hosil qilishga yordam beradi.

O`yin jarayonida bolalar hamjihat bo`lishga, hayotni bilishga, o`z-o`zlarini boshqarib tuta bilishga o`rganadilar. Ularda intizom, tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxiriga yetkazish singari irodaviy sifatlar tarbiyalanadi.

Ushbu fikrlarning dalili sifatida men o`zim qo`llagan ayrim kreativ usullardan namunalar keltirib o`tmoqchiman. "Og`zaki ko`paytirish".

Og`zaki ko`paytirish usullari juda ko`p. Masalan: Birinchi ko`paytuvchi bir xonali va ikkinchi ko`paytuvchi ikki xonali son bo`lsa, oldin o`nlik xonasiga va keyin birlik xonasiga ko`paytirib, keyin bir-biriga qo`shiladi.

43 x 8 = 40 x 8 + 3 x 8 = 320 + 24 = 344

28 x 4 = 20 x 4 + 8 x 4 = 80 + 32 = 112

Ko`paytmalarga ajratib, ularni ketma – ketiga ko`paytuvchiga ko`paytirish ham qulay bo`ladi. Masalan:

75 x 6 = 75 x 2 x 3 = 150 x 3 = 450

6 x 37 = 37 x 6 = 30 x6 +7 x 6 =180 + 42 = 222

Ikki xonali sonlarni bir – biriga ko`paytirish uchun, ko`paytiriluvchi sonlarning kichigini o`nlikka va birlikka ajratilib ko`paytirilib, natijalar qo`shiladi:

38 x 13 = 38 x 10 + 38 x 3 = 380 + 114 =494

31 x 14 = 30 x 14 + 1 x 14 = 420 + 14 = 434

Agar ko`paytuvchilarning birortasini, osongina ikkita bir xonali ko`paytmaga ajratish mumkin bo`lsa, ko`paytuvchini kamaytirib,ko`paytuvchini shuncha marta ko`paytiramiz:

35 x 16 = 35 x 2 x 8 = 70 x 8 = 560

43 x 14 = 43 x 2 x 7 =86 x 7 =602

4 va 8 sonlariga og`zaki ko`paytirish.

4 soniga oson ko`paytirish uchun ikki marta 2 soniga ko`paytirsangiz oson bo`ladi:

126 x 4 = 126 x 2 x 2 = 252 x 2 = 504

223 x 4 = 223 x 2 x 2 = 223 x 2 x 2 = 446 x 2 = 892

Sakkiz soniga oson ko`paytirish uchun, 2 soniga 3 marta ko`paytirish kerak:

118 x 2 x 2 x 2 = 236 x 2 x 2 = 472 x 2 = 944

245 x 2 x 2 = 490 x 2 x 2 = 980 x 2 = 1960

4 va 8 ga bo`lish .

Bu holatda, xuddi ikkiga ko`paytirishnig teskarisi amalga oshiriladi. Ya`ni 4 ga bo`lish uchun ikki marta bo`linadi:
96 : 2 : 2 = 48 : 2 = 24
116 : 2 : 2 = 58 : 2 = 29
Yuqoridagi masalaga mos ravishda 8 soniga bo`lish uchun, uch marta 2 ga bo`lish kerak.
192 : 2 : 2 : 2 = 96 : 2 : 2 = 48 : 2 = 24
256 : 2 : 2 : 2 = 128 : 2 : 2 = 64 : 2 = 32
Kreativ fikrlashga undaydian savol va topshiriqlar:
1. Nimaning uchini va oxirini topish mumkin emas? (Xalqaning, aylananing).
2.3 ta 5 va amal ishoralari yordamida 2 sonini hosil qiling( 5 + 5) : 5 = 10 : 5 = 2.
3. 3 ta 3 va amal ishoralari yordamida 30 sonini hosil qiling.(33 – 3) = 30.
4.5 ta 5 va amal ishoralari yordamida 100 sonini hosil qiling.( 5 x 5 x 5) – 5 x 5 = =100
5. 5 ta 2 raqami va arifmetik amal ishoralari yordamida 11 sonini qanday yozish mumkin? ( 22 x 2 ) – 22 = 11.
6. 5 ta uch raqamidan 37 sonini yozing. 37 = 33 + 3 + 3 : 3 .
7. 5 ta 9 raqami va arifmetik amal ishoralari yordamida 10 sonini yozing .
99 : 9 – 9 : 9 = 10.
8. Ovchi daraxtdagi 12 ta qushdan 3 tasini urib tushirsa, daraxtda nechta qush qoldi? (Daraxtda hech qanday qush qolmaydi.
9.Stolda yettita pashsha bor edi. Bir urib ikkita pashsha o`ldirilsa, stolda nechta pashsha qoladi? (Stolda ikkita o`lgan pashsha qoladi).
10.Xonadagi yettita shamdan 3 tasi o`chirib qo`yilsa,nechta sham qoladi?( 3 ta).
11.Savatdagi 5 ta olma 5 ta bolaga bo`lib berildi, lekin bitta olma savatda qoldi. Shunday bo`lishi mumkinmi? (Mumkin, agar bolaga olma savati bilan berilsa.)
9.Qafasdagi 4 ta qush 4 ta bolaga bittadan berilsa, 1 ta qush o`sha qafasda qolishi mumkinmi? (Mumkin agar bitta qush qafasi bilan berilsa).
10.Tovuq tarozida bir oyoqda turganida 1 kg bo`lsa, ikki oyoqda turganida qancha bo`ladi?
11.Sen aytgin-chi, Sevara, Kimlargasan nevara?( S, N harfi )
12.B * sh*k*d*n q*b r g*ch* * l m * z l * (Beshikdan qabrgacha ilm izla)
**“Nega javoblar bir xil?”**
Bir son o`ylang. O`ylagan soningizni 2 ga ko`paytiring. Ustiga 2 ni qo`shing.Hosil bo`lgan yig`indini 2 ga bo`ling. Hosil bo`lgan sondan dastlab o`ylagan soningizni ayiring. Javobi bir hosil bo`ladi. (X x 2 + 2 ) : 2 – X = 1

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1.Xalq ta`limi jurnali. 1-son, 2017 yil .
2.Boshlang`ich ta`lim jurnali. 10 – son, 2005 yil.
3.Boshlang`ich sinflar uchun didaktik materiallar, 2016 – yil.

# O'SMIRLAR XULQ ATVORI VA DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY PSIXOLOGIK TA'SIRLAR

*Bobojonova Muxlisa Qo'ziboyevna*
*Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 46-maktab psixologi*

O'smirlik davri xulq atvor va dunyoqarashning keskin o'zgarish va bolalikdan o'tish davri hamda bu jarayonda bolalarda nosog'lom odatlarni rivojlantirishi mumkin bo'lgan vaqt hamdir. Bu davrda o'spirinning xatti-harakatlari, muammolari ham o'sib boradi buning natijasida esa ota-onalarning, atrofdagilarning o'spirinlar bilan muloqot qilishini, bog'lanishini qiyinlashtirib boradi.

O'smirlik davrining qanday o'tishi har bir inson hayotining keyingi bosqichida muhim ahamiyatga egadir. Ushbu davrning o'ziga xos xususiyatlari va qiyinchiliklari rivojlanishning boshqa jihatlaridan ajratib turadi. Bolalik davridan o'smirlik davrigacha bo'lgan o'tish davrida o'smirlar uchun iliq muhabbat va atrofdagilarining yaxshi tushunishiga to'la muhitni ta'minlab berish lozim. Bugungi texnika va texnologiya yuqori darajada rivojlangan asrda ko'pgina o'spirinlar qanday qilib tarbiyalanganliklari va o'sish jarayonida nimalarga duch kelganliklari sababli bir qator muammolarga duch kelishmoqda. O'spirin uchun eng avvalo oila a'zolarining mehri, g'amxo'rligi va qo'llab-quvvatlashi uning to'g'ri rivojlanishiga katta hissa qo'shishi mumkin.

Har bir o'spirinning ma'nan yetuk va jismonan ham yaxshi rivojlanishi oiladan boshlanadi. Ijtimoiylashuvning birinchi agenti bo'lgan oila, uning a'zolari oldidagi majburiyatini bajarishi uchun tegishli tarbiyani talab qiladi. Ota-onalardan tomonida ularning tarbiyasida katta qiziqish bilan e'tibor berilsa, o'spirinlar bundan juda foyda ko'rishadi. Yoshlarni o'spirinlik davriga tarbiyalash har bir ota-ona uchun mas'uliyatli vazifadir. Tarbiya bilan bir qatorda, ota-onadan iliqlik va g'amxo'rlik etishmasligi o'spirinlarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

O'smirlarning xulq atvori va dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy psixologik holatlar:

- Hissiy o'zgarishlar va muammolar
- Xulq-atvorning o'zgarishi
- Psixologik muammolar
- Agressiya va zo'ravonlik
- Ijtimoiy muammolar - uchrashuv va munosabatla
- Kiber makonga qaramlik




*Hissiy o'zgarishlar va muammolar*. O'spirinlik davrida gormonlar nafaqat jismoniy, balki hissiy ham ta'sir qiladi. Bunday paytda o'spirinlar ko'pincha o'zlarining hayotdagi roli haqida bosh qotiradilar va o'sib ulg'ayish davridagi mas'uliyat bilan bolalikdagi orzu-istaklar o'rtasida ajralib qoladilar. Ular haddan tashqari hissiyotni his qilishadi (buning sababi gormonlarda) va har qanday narsa ularni baxtli, hayajonli, aqldan ozdirishi hattoki g'azablantirishi mumkin.Ushbu davrda o'spirin qizlar ko'proq yig'lashga moyil bo'ladi, o'spirin o'g'il va qiz bolalar orasida kayfiyat o'zgarishi beqaror bo'ladi, o'zini  boshqalardan kuchsizroq yoki ustunroq  his qilish ham shu vaqtda paydo bo'lishi mumkin. Balog'at yoshida ularning hislari xuddi roller-coaster (atraksion)ga o'xshash bo'lib qolishi ham mumkin ammo bu normal holat. Bunday vaqtda ota-onalar o'spirin bola yoki qizning hissiy muammolarini hal qilishga yordam berishi lozim. Buning uchun ular bilan ko'proq oila davrasida muloqot qilish; jismoniy faol bo'lishga chorlash (jismoniy faollik serotonin ya'ni yaxshi his tuyg'ular va baxt darajasini ushlab turadi) misol uchun har xil sport to'garaklariga qo'yish yoki ular bilan birga shug'ullanish; o'spirinni fikrlarini tinglash; o'zingizning balog'at yoshidagi tajribalaringiz bilan bo'lishish; ijodiy faoliyat qilishi va o'z qobiliyatlarini ko'rsatishi uchun sharoit yaratish ham ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

*Xulq-atvorning o'zgarishi*. Haddan tashqari his-tuyg'ularga berilish impulsiv xulq-atvorga olib kelishi mumkin, bu balog'at yoshidagi bolaga ham, atrofdagilariga ham zarar etkazishi mumkin. O'smirlik bolalarning nafaqat mustaqilligini rivojlantiradigan balki ota-onalar tomonidan belgilangan qoidalarning shubha ostiga qo'yishilishi va o'jarlik hislatlarinining ham rivojlanish davridir. Bu vaqtda miyaning rivojlanishidagi sezilarli o'zgarishlar ham o'spirinlar kayfiyatini o'zgartiradi va ular bilan moslashuvini qiyinlashtiradi. O'smir o'g'il bolalardagi g'azablantiruvchi gormonlar ularni hatto jismoniy to'qnashuvlarga undashi mumkin misol uchun bunday paytda ular baland ovozda musiqa tinglashni xohlashadi. Yangi paydo bo'lgan mustaqillikning bir qismi sifatida, o'spirinlar yangi narsalarni sinab ko'rishni va xavf-xatarni qabul qilishni xohlashi mumkin, natijada beparvolik xatti-harakatiga olib keladi. Ba'zan, tengdoshlarning tazyiqi va «uyg'unlashish» zarurati ularni o'zini qandaydir tutishiga yoki buzilishi qiyin bo'lgan ba'zi odatlarini rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Yolg'on gapirish - bu o'spirinning xulq-atvoridagi oddiy muammolardan biridir. O'smirlar ota-onalar bilan to'qnash kelmaslik yoki qo'rquv tufayli yolg'on gapirishlari mumkin.

O'smirlik davridagi xulq-atvor muammolari ota-onalarning hayotini qiyinlashtirishi mumkin ammo esda tutish kerakki, bu o'tish bosqichi va bu normal holat. Yuqorida keltirilgan salbiy holatlarni oldini olish uchun o'spirinning ishonchini qozonish, ular bilan suhbatlashish va ularni gaplarini tinglash, ularni xulq atvori yuzasidan hukm qilmaslik yoki tanqid qilmaslik ham ba'zida qo'l keladi chunki bu ularning xatti-harakatlarini yomonlashtirishi mumkin. Ularni xuddi ular kabi sevishingizni bildirish, ularni o'z shaxsiyatiga sodiq bo'lishga va boshqalarga yoqish uchun shaxsiyatni o'zgartirmaslikni maslahat berish lozim. Shuni ham unutmaslik kerakki o'spirin o'z hissiyotlari bilan muomala qilishda to'liq mustaqil emas va yaqinlarining qo'llab-quvvatlashingizga muhtoj.

*Psixologik muammolar.* Statistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kattalardagi ruhiy kasalliklarning taxminan 50% 14 yoshdan boshlanadi. Aslida o'spirinlar o'limining uchdan bir qismi depressiyadan kelib chiqqan o'z joniga qasd qilishdir O'smirlik davrida kuzatilgan eng keng tarqalgan ruhiy kasallik buzilishlar xavotir va kayfiyatning buzilishi hisoblanadi. Ushbu yosh guruhida ijtimoiy fobiya va vahima buzilishi keng tarqalgan. Qizlar depressiv kasalliklarni rivojlanishida o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq zaiflikka ega bo'lishadi. O'smirlarda o'zini o'zi qadrlash yoki o'ziga ishonish muammolari, kamchilik yoki ustunlik tuyg'ulari ko'pincha ularning tashqi ko'rinishidan va tanasini qabul qilishidan paydo bo'ladi - terining rangi, go'zalligi va qiyofasi shunga o'xshash holatlar. Ilmiy ko'rsatkichlarning pastligi va IQ darajasining pastligi ham ularning ruhiy holatini pasaytirishi mumkin va bu ularda hayotga nisbatan "men etarlicha emasman" munosabatini rivojlantiradilar. Depressiya - bu o'spirinlik bilan bog'liq keng tarqalgan psixologik muammolardan biridir.O'smirlik davridagi stress va bosim xavotir bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, kayfiyat o'zgarishi tartibsizliklarga yoki oppozitsiya defiant buzilishiga olib keladi.

O'smir qizlar va o'g'il bolalarda kayfiyat va g'azablanish odatiy holdir, lekin ular har doim ham ular ko'rinadigan darajada bo'lmasligi mumkin. O'smirlik davridagi psixologik muammolarning alomatlarini aniqlash oson emas va mutaxassisning ko'zi talab etiladi. Ko'pincha muammolar haqida gapirish va sog'lom turmush tarzini saqlash depressiya paydo bo'lishining oldini oladi. Agar o'spirin haddan tashqari g'azablangan bo'lsa, aralashish va kerak bo'lsa mutaxassislardan yordam so'rash lozim.

*Agressiya va zo'ravonlik.* Agressiya ayniqsa o'spirin o'g'il bolalarni tashvishga soladi. Bolalar uyda ko'rgan narsalarini taqlid qilishga moyil bo'ladi. O'spirinlarga mehribon va e'tiborli bo'lishga o'rgatish, ularga hayotiy ko'nikmalarni va rahm-shafqatning ahamiyatini o'rgatish, ularning namunasi bo'lish orqali ularni boshqarish lozim.  Yaxshi va yomonni ajrata olmaydigan yoshda, ularni zo'ravonlik hikoyalari, o'yinlar yoki filmlarga duchor qilishdan saqlash kerak. Ularga g'azabini chiqarish uchun yugurish, yoga bilan shug'ullanish yoki musht sumkasidan foydalanish kabi muqobil usullarni sinab ko'rish. Shunday qilib, ular g'azablanish yaxshi ekanini tushunishadi, ammo u bilan qanday munosabatda bo'lish hamma narsani o'zgartiradi.

*Ijtimoiy muammolar - uchrashuv va munosabatlar.* Qarama-qarshi jinsga jalb etish balog'at yoshidan boshlanadi. O'smirlik - bu ularning jinsiy yoki reproduktiv organlari rivojlana boshlagan payt. O'smirlar, shuningdek, "to'g'ri" va "noto'g'ri" narsalar haqida o'ylashni boshlaydilar va ba'zi narsalarga bo'lgan munosabatingizdan

shubhalanadilar. Qizlar va o'g'il bolalar boshqa jinsga nisbatan "g'alati" tuyg'ularni boshdan kechirishni boshlaydilar va bu haqda nima qilishni bilmasliklari mumkin. Raqobat - o'spirinning ijtimoiy hayotining yana bir muhim yo'nalishi. O'spirin har qanday holatda va hamma narsada tengdoshlari bilan raqobatlashishi mumkin.O'smirlarning ijtimoiy doiralari kengayib boradi, chunki ular ijtimoiy tarmoqlardagi do'stlari bilan o'zlarining telefonlari va tashqarisida muloqot qilishadi. Bunday holatda ularga internet va texnologiyalardan to'g'ri maqsadda foydalanishini nazorat qilish lozim hamda ular bilan ko'proq muloqot qilib maktabdagi tanishuv va ijtimoiy hayot tajribangizni baham ko'rish ham ba'zida ularni xotirjam qilishi mumkin.

*Kiber makonga qaramlik.* Ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi bizning o'zaro munosabatlarimizni o'zgartirdi. Albatta bu ham o'spirin turmush tarziga eng ko'p ta'sir qildi. Bugungi kunda internetga qaram bo'lgan o'spirinlar kamroq do'stlar va kam ijtimoiy hayotga ega bo'lishadi. Ular yolg'iz hayot kechiradilar va Internetni soatlab tomosha qilishdan mamnun. Kiber kosmosga qaramlik ularning jismoniy harakatlarini ham qisqartiradi, natijada nosog'lom va kamharakat turmush tarziga olib keladi va qolaversa bu holat o'quv natijalariga salbiy ta'sir qiladi.Albatta o'smir vaqtini kompyuter oldida o'tkazgani uchungina internetga qaram bo'lib qolgan deb o'ylash ham mutlaqo to'g'ri emas agar ular tizimdagi tarmoqdan bemaqsad foydalanmayotgan bo'lsa.Internetdan foydalanishni taqiqlamaslik kerak aksincha bunday holat ularning qiziqishini yanada orttiradi. Buning o'rniga to'g'ri foydalanish maqsadida ularni online kurslarga qiziqtirish lozim va to'g'ri tanlov qilishni o'zlariga qo'yib berish ham ba'zida qo'l keladi. O'smirni ota-ona sifatida boshqarish kerak  lekin hech qachon ular uchun qaror qilmaslik lozim. Bu holat ularni hayotda o'zi qaror qabul qila olish qobiliyatini susaytiradi.Ularni boshqalar bilan muloqot qilishni rag'batlantiradigan ishlarga jalb qilish va kompyuterda kamroq vaqt sarflashni xohlaydigan oilaviy tadbirlarni o'tkazish ham ijobiy ta'sir qiladi. Oilada hamma uchun kiber qoidalar va chegaralar mavjud qilib belgilanishi lozim. Uyali telefondan foydalanishni kuniga bir necha soat bilan cheklash va telefonni yotoqxonaga olib kirishdan saqlanish, chunki bu odamning uyqusiga ta'sir qiladi. Qolaversa ota-onalar va o'spirin bolalar o'rtasidagi aloqa liniyasi ochiq va samarali bo'lishi kerak,o'spirinlarni o'zlariga ishonishga va o'zlariga yuqori ishonchga undashlari kerak, ota-onalar bolalari qiziqadigan mashg'ulotlarga qiziqish bildirishlari kerak.

Yosh avlodning jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'nan barkamol bo'lib voyaga etishishi jamiyatda ular huquqlarining qay darajada muhofaza qilinishiga ham bog'liq. Zero, ular tarbiyasi, faoliyatiga beriladigan e'tibor yurtimizning yangidan-yangi yutuqlariga omil bo'ladi. Buning uchun eng avvalo oiladagi sog'lom muhit ta'sir qiladi. Ota-onalar yoki ularning vazifasini bajaruvchi shaxslarni pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish zarur. O'spirinlarning psixologik holatiga ta'sir qiluvchi omillarni oldini olish maqsadida quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- voyaga yetmaganlar tarbiyasidagi kamchiliklarni o`z vaqtida o`rganib, oldini olish;
- o`smirni noo`rin yoki bilib-bilmasdan jazolanishini oldini olish kerak;
- bolalarni ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishiga sharoit yaratib berish lozim;

- bolani ortiqcha erkalatib yuborish (aytgani aytgan va degani degan holga kelib qolishi) ni oldini olish zarur;
- bolani ortiqcha tergash, nasihatgo`ylik qilish, har xil og`ir jismoniy ishlarga jalb qilish oqibatida mehnatdan bezdirish, bolani yosh, jins va individual-ruhiy xususiyatlarini inobatga olish zarur;
- oilaviy muammolarning mavjudligi (oilaviy muhitning yaxshi emasligi, ishsizlik, ajralishlar, ko`chib yurish, yangi sharoitga o`smirni moslasha olmasligi, kasallik va iqtisodiy nochorlik kabilar) va bu muammolarni oqilona hal etish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1.Conger, R. D., & Chao, W. (1996). Adolescent depressed mood. In J. W. Santrock (Ed.), *Adolescence*. New York: McGraw Hill.

2.Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogika psixologiya». O`quv metodik qo`llanma TDPU. 2004.

3. Karimova V.M. Psixologiya. T. 2004 y.

## BOSHQARUVNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARIVA TAMOYILLARI

*Zaripova Nilufar Egamberdiyevna*
*O‘zMU huzuridagi Oliy ta’lim tizimi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi o‘qituvchisi*

Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullari – bu ishlab chiqaruvchi va ayrim shaxslarga ularning ijtimoiy ehtiyojlari va psixologik xususiyatlariga ta’sir etish bilan boshqarish vositasidir. Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullarini qo‘llash korxonada yuz berayotgan ijtimoiy hodisalarni chuqur o‘rganish xodimlar nerv sistemasi kayfiyatiga ta’sir etuvchi psixologik (ruhiy) omillarni bilishni talab etadi.

Boshqaruv boy tarixga ega bo‘lib, tarixan ancha asrlar davomida shakllangan bo‘lsa ham, fan va mustaqil faoliyat yo‘nalishi sifatida faqat yigirmanchi asrdagina tan olingan. Qadimgi Rimdan qadimgi Persiyagacha, Yuliy Sezardan Amir Temurgacha bo‘lgan davrlarda barcha tarixiy ishlarni amalga oshirgan shaxslar boshqaruv amaliyotiga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Aynan boshqaruv borasida Arximed, Al-Xorazmiy, G.Galiley, B.Paskal, Diafant, G.Leybnits, Sh.Lagranj, M.Lomonosov, D.Rikardo, V.Petti, U.Djuort, ulardan so‘ng F.Engels, K.Marks, A.Smit, D.Rikardo, Keyns, R.Ouenlar menejment g‘oyalarini yaratishda o‘z hissalarini qo‘shganlar. Ammo, boshqaruvning alohida faoliyat turi sifatida tan olina boshlanishi 1900 yillardan boshlanadi.

O‘rta Osiyoda menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy prinsiplari qadim zamonlarda ham u yoki bu ko‘rinishda mavjud bo‘lgan. Ammo ular Amir Temur hukumronligi davriga kelib ma’lum shaklni kasb etgan, bunga Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari yorqin misol bo‘la oladi.

"Temur tuzuklari" jahonga mashhur asardir. Uning qo‘lyozma nusxalari dunyoning deyarli barcha mamlakatlari (Hindiston, Eron, Angliya, Daniya, Fransiya,

Rossiya, Germaniya, Armaniston, O‘zbekiston va boshqalar) kutubxonalarida mavjud. Asar ikki qismdan iborat.

"Tuzuklar" muallifining fikricha, har bir sohibi toj davlat va jamiyatni ma’lum ijtimoiy-siyosiy guruhga tayangan holda boshqarishi lozim. Hazrat Amir Temur "Tuzuklar"da ma’lum qilishicha, o‘z faoliyatida quyidagi 12 ijtimoiy-siyosiy guruhga tayanib ish olib borgan[1]:

Davlatni idora qilishda vazirlar, amirlar va viloyatlarda o‘tirgan noiblarning roli benihoya katta bo‘lgan. Shuning uchun ham Amir Temur ularni tanlash va vazifalarga tayinlash ishiga alohida ahamiyat bergan. Ular Sohibqironning fikricha sadoqatli, axloqiy pok, adolatpesha, tinchliksevar va tashabbuskor odamlar bo‘lishi kerak. "Tuzuklar"da keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra Amir Temur o‘z davlatini, bir uchi Chinu Mochin va ikkinchi uchi Shom hududida bo‘lgan ulkan mamlakatni bor-yo‘g‘i yetti nafar vazir yordamida boshqargan. Ishlab chiqarish sharoitida sotsiologiya kishilar ijtimoiy aloqasi shakllanishining asosi bo‘lgan mehnat omillarini o‘rganadi, ijtimoiy tizimlar, shu jumladan, ishlab chiqarish tizimi rivojlanishi va amal qilish qonuniyatlari, kishilarning jamiyatning turli qatlamidagi xulq-atvori qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Ijtimoiy psixologiya guruh va omma psixologiyasining xususiyatlari, ularning shaxsning ongi va xulqiga ta’siri, kishilar faoliyatini rag‘batlantiruvchi omillar, kayfiyat, ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi omillarni o‘rganadi. Shaxs psixologiyasi oliy nerv faoliyati turlari va inson temperamenti, xarakteri, shaxsning irodasi, qobiliyati, hissiyoti, xotirasi, anglash va his etish qobiliyatini o‘rganadi, mehnat psixologiyasi mehnat faoliyatlari, shu jumladan, rahbar va mutaxassislar faoliyatini o‘rganadi. Kishilar fikrlash usulida o‘zgarish yuz berishi va ular madaniy hamda bilim darajasi ortib borishi bilan ijtimoiy-psixologik usullar ahamiyati ham ortib boradi. Bunday sharoitda shaxsning ehtiyoj va manfaatlari ma’naviy soha tomon o‘zgarib boradi. O‘z mehnatidan qoniqishning muhim omili bo‘lib, ishlab chiqaruvchilarning rahbar bilan o‘zaro yaxshi munosabati ishlab chiqarishdagi qulay ijtimoiy-psixologik vaziyatiga xizmat qiladi.

Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullari ishlab chiqarishda mavjud ijtimoiy mexanizmni (o‘zaro munosabat tizimi, ijtimoiy ehtiyojlar) qo‘llashga asoslanadi. Boshqaruvning ijtimoiy usullari ijtimoiy tartibga solish vositasida amalga oshiriladi. Ijtimoiy tartibga solish usullari turli guruhlar va shaxslar maqsadi va manfaatlarini aniqlash va rostlash yo‘li bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va uyg‘unlashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Ular jumlasiga ijtimoiy tashkilotlar nizomlari, shartnomalar, o‘zaro majburiyatlar, ishchilarni tanlash, taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish tizimi kiradi. Boshqaruvning psixologik usullari jamoada maqbul psixologik holat tashkil etish yo‘li bilan kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgandir. Psixologik usullarga kichik guruh va jamoalarni tashkil etish, mehnatni insoniylashtirish, malakali kadrlar tanlashva ularni o‘qitish va h.k.lar kiradi. Mehnat faoliyatini insoniylashtirish deganda ranglar, musiqaning ruhiy ta’siridan foydalanish, bir xil, o‘zgarmas mehnatni bartaraf etish, ijodiy yondashuvni kengaytirish tushuniladi.

Kasbiy tanlashning mohiyati – kishilarning ruhiy xususiyatlari ular bajaruvchi ishlariga eng mos bo‘ladigan qilib tanlashdan iborat. Shaxsning ruhiy xususiyatlari

jumlasiga uning qiziqish va mayllari, qobiliyati, temperament va xarakteri kiradi. Shu sababli, rahbar shaxsga rahbarlik qilganda o‘z oldiga inson ruhiy xususiyatlari shakllanishi va rivojlanishini o‘rganishi, uning qiziqish va qobiliyati, temperament va fe’lini bilish vazifasini qo‘yishi kerak.

Shaxsning ruhiy xususiyatlarini inson faoliyatida ajratib tushunib bo‘lmaydi, chunki kishi qobiliyati va fe’li xususiyatlari uning faoliyati va xulqida namoyon bo‘ladi. Inson hayoti va ommaviy faoliyati uning ruhiy holatini shakllantiradi. Insonning qanday hayot kechirishi, nima bilan shug‘ulanishini bilmay vujudga kelganligi, u yoki bu narsaga qobiliyat rivojlanganligi, fe’li shakllanganligini anglab bo‘lmaydi. Inson avvalo o‘zini ijodiy shaxs sifatida baholaydi. Rag‘batlantiruvchi omil – maqsad munosabati inson faoliyati o‘zagidir. Umumiy ma’noda rag‘batlantiruvchi omil – bu insonni faoliyat yuritish uchun undovchi omil bo‘lib, maqsad esa insonuni amalga oshirish natijasida erishishni xoxlagan narsadir. Rag‘batlantiruvchi omil kishi xulqining ichki kuchidir. Psixologiyada uzoq va qisqa rag‘batlantiruvchi omil ajratiladi. Agar inson faoliyatini rag‘batlantiruvchi omil va o‘z oldiga qo‘ygan maqsad yaqin kelajakka mo‘ljallangan bo‘lsa, u qisqa muddatli, agar ular uzoq istiqbolni qamrab olsa uzoq muddatli deyiladi. Rag‘batlantiruvchi omil darajasi bilan insonning mehnatga, yutuq va muvaffaqiyatsizlikka nisbatan bo‘lgan munosabati uzviy bog‘liqdir. Faqat uzoq muddatli rag‘batlantiruvchi omil mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lish manbaidir. Rahbarga xos bo‘lgan muhim xususiyat kishilar faoliyatini rag‘batlantiruvchi omillarni yaxshi bilish, har bir kishini u yoki bu vazifani bajarishga qiziqtira olishdir. Bu ayniqsa, u yoki bu korxonaga ishga kirib, ularni kelajakda nima kutishini bilish lozim bo‘lgan yoshlar bilan ishlashda muhimdir. Rahbar ishini kim va qachon qaysi skripkani chalishi, qaysi asbobda musiqa chalishini o‘rgangan, kim noto‘g‘ri chalishi mumkinligi, kimni qaysi yerga qo‘yish kerakligini bilishi lozim bo‘lgan dirijyor mehnati bilan solishtirish mumkin. Kishi ruhiy xususiyatlarning u bajaruvchiish talablariga mos kelmasligi o‘z kasbidan qoniqmaslik uni o‘zgartirishga harakat qilishga, xato qilish ehtimoli ortishiga va natijada mehnat unumdorligi pasayishiga olib keladi, aksincha, agar inson o‘zq obiliyatini to‘liq namoyon qila oluvchi ish bilan band bo‘lsa, u o‘z mehnatidan mamnun bo‘ladi, kasbni tez egallaydi va mehnat unumdorligi yuqori bo‘ladi. Inson uchun faqat moddiy rag‘bat muhim deb hisoblash noto‘g‘ri. Unga juda ko‘p narsa katta umumiy ishda o‘z hissasi borligini his etish, o‘zini mehnat orqali namoyon etish, o‘z malakasi bilan g‘ururlanishi, o‘rtoqlari hurmatiga sazovor bo‘lish va h.k.lar ham muhimdir. Izlanishlar mehnat, mehnatga nisbatan munosabatga ta’sir etuvchi rag‘batlantiruvchi omillar quyidagi tartibda taqsimlanishini ko‘rsatdi: mehnat mohiyati, ish haqi, yuqori lavozimga ega bo‘lish imkoniyati, ishning qiziqarliligi, mehnatni tashkil etish, ma’muriyatning ishchiga nisbatan munosabati.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. J.T Yo‘ldoshev, S.A. Usmonov Ta’lim menedjmenti, 2006. (Rahbar faol. Nuks. Bart etish ) - Xalq ta’limi 2000 №3)

2. Tillaboyev S. Rossiya imperiyasining Turkistonda ma’muriy-hududiy boshqaruv sohasidagi siyosatining ba’zi xususiyatlari. // O‘zbekiston tarixi, 2005. №3. 75 bet.

# SHAXSNING SHAKLLANISHIDA JAMIYAT VA OILA TARBIYASINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Halimova Husnigul Navro'zovna*
*«Jo'ybori Kalon» ayol-qizlar o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari*

O'zbeqiston Respublikasida davlat yoshlar siyosatining asoslari to'g'risida" 1991 yil 20 noyabrda qabul qilingan Qonun bilan yoshlarda demokratik va bozor islohotlari, ijtimoiyo'zgarishlarga hamda o'zini-o'zi rivojlantirishga, huquq va majburiyatlarning birligini, erkinliklar hamda fuqarolik mas'uliyatini tushinishga, ijtimoiy notavonlik va boqimandalik psixologiyasini bartaraf etishga faol munosabatda bo'lish talablariga javob beradigan yangi psixologik fazilatlarni rivojlantirishga ko'maklashadigan ilmiy metodologiyani ishlab chiqishga asossolindi. Bunday yo'nalish yoshlarning ijtimoiy-psixologik qiyofasi, uning ijtimoiy vazifasi to'g'risidagi tasavvurlarni tubdan o'zgartirib yubordi.

Inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlarning prinsipial qoidalarini o'zida mujassam etgan holda, konstitutsiyamiz inson huquq va manfaatlarini, uning erkinliklarini davlat manfaatlaridan ustunligini mustahkamladi. Odamlarimiz uchun munosib hayot sharoiti yaratishni o'zining tub maqsadi etib belgiladi. Ijtimoiy adolat tamoyillarini e'lon qildi. Ayniqsa, yillarga maqom berish munosabati bilan qabul qilinayotgan har yilgi davlat dasturlari aholi manfaatlarini amalda himoya qilishga qaratilgan say'i-harakatlar mamlakatimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning yaqqoldalilidir.

"Mustaqillik inson turmush tarzida ham, uning psixologiyasida ham chinakam global o'zgarishlar qildi. Yangicha fikrlashga, yoshlarning yangicha psixologik qiyofasini shakllantirishga yo'l ochdi. Bu hol umumiy taraqqiyotning hamda aholi farovonligini oshirishning juda muhim sharti bo'lgan yoshlarning umumiy malakasini oshirish masalasini hal qilishda ko'p jihatdan ko'maqlashadi".[23]Biroq bu jarayon o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Jamiyat yoshlar qay tarzda shakllanayotganiga hech qachon befarq bo'lmagan.

Respublikamiz olimlaridan M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, N.S.Safoyev, V.M.Karimova, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziyev, Sh.R.Barotov, R.I.Sunnatova, A.A.Fayzullayev, V.A.Tokareva singari psixologlar ma'lum tadqiqot ishini olib borganlar. Ulardan V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, M.G.Davletshin, N.A.Sog'inov, B.M.Umarovlar va boshqalar oila hamda undagi shaxslararo munosabatlar masalasiga e'tibor qaratgan bo'lsalar, E.G'.G'oziyev, Sh.R.Barotov, R.I.Sunnatova, N.S.Safoyev, A.A.Fayzullayevva boshqalar tomonidan psixologiyaning maxsus sohalari bo'lmish shaxs psixologiyasi, muomala psixologiyasi, o'z-o'zini anglash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish kabi bir qator mavzular maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganganlar.

Mamlaqatimiz siyosatida jamiyatning yuksaq ma'naviyatga ham ma'rifatli insonni shakllantirishga tayanishi alohida o'rin tutadi.

---

[23]Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-том. – Т.: "Ўзбекистон", 1999. 381-бет.

Shaxsning qaror topishida, uning hayotiy pozitsiyasining shakllanishida yoshlar kattalarning mustaqil hayotiga qay darajada va qay tarzda tayyorlanayotganiga, bu tayyorgarlik kattalar hayotiga samarali kirib borishga tayyormi yoki yo‘qligiga juda ko‘p narsa bog‘liq. Chunki “Mustaqillik har bir shaxsning intelektual, axloqiy, professional, umummadaniy hamda jismoniy kamol topishini ta’lim va tarbiyaning, shu jumladan, o‘zini-o‘zitarbiyalashning asosiy masalasi sifatida olg‘a suradi”[24] A.Erkayev ta’qidlaganidek, “mustaqillik sharoitida yangilanayotgan ta’lim va tarbiya tizimi har bir fuqaroda, eng avvalo, o‘sib kelayotgan avlodda dunyoga, jamiyatga, mehnatga, o‘ziga munosabatni o‘zgartirishga qaratilgan. Har bir kishi o‘ziga o‘zi: “Nima uchun yashamoqdaman, nimaga erishishim darkor, mening borligimning ma’nosi nima?”, degan savolni berishi va o‘zi uchun javob topishi darkor”[25].

Oilada bolani tarbiyalashdagi xatoliklar turli-tumandir. Ular orasida keng tarqalganlaridan biri ota-onalarning hukmronlikka intilishlaridir. Bolaning har bir qadami nazoratga olinsa, bu uning xulqidagi mustaqil harakat qilish kabi xislatni yo‘qqa chiqaradi. O‘z kuchiga va imkoniyatiga ishonch yo‘qoladi. Ichki istak va intilishlar shakllanmasdan itoat qilish talablari bilan bostirilib turiladi. Ayrim holatlarda o‘ta qattiqqo‘llik bilan idora etish bola shaxsining shakllanishiga va hayotda o‘zi mustaqil qaror qabul qilish kabi xislatlarning tarkib topishiga to‘sqinlikqiladi. Oiladagi ota-ona tomonidan qo‘yiladigan xatoliklar sirasiga bolaning erka bo‘lib o‘sishi, unga nisbatan biror talabning yo‘qligini ham kiritib o‘tish lozimdir. Bu holda ota-onalar ba’zan bolalarning imkoniyatlariga yetarli darajada baho berishmaydi va ularning ko‘pgina ishlarini o‘zlari bajaradilar. Natijada bolada mustaqillik, mehnat qilish ishtiyoqi, topshirilgan ishga mas’uliyat hissi rivojlanmay qoladi. Bola o‘ziga mos ishni tanlab olib, oxiriga yetkaza olmaydi va erksiz bo‘lib qoladi. Bola tarbiyasidagi katta xatoliklardan yana biri, ota-onalarning tarbiyada hamma narsa shartli va sababli ekanini, tarbiya uzoq jarayon bo‘lib, bu jarayonda bir qator o‘zaro bog‘liq bo‘g‘in, vosita va uslublar bo‘lib, ulardagi biror bo‘g‘ining tushib qolishi tarbiya jarayonining buzilishiga olib kelishini bilmasliklaridandir.

Xalqimizda “Suv bilan ekin o‘sar, tarbiya bilan odam”, “Daraxtdan meva olaman desang, niholligidan parvarish qil” degan purma’no naqllar ham bejiz paydo bo‘lmagan. Bunda tarbiya, farzand xulqining shakllanishini aynan oila muhitida boshlash lozimligiga e’tibor qaratiladi. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ta’biri bilan aytganda: “Bilim, ma’rifat, yaxshi axloq bilan bezanmog‘I lozim”[26]. Agar shaxs bo‘lib shakllanayotgan fuqaro bilimli bo‘lsa-yu, unda axloq, odob, o‘zaro hurmat ko‘nikmalari shakllanmagan bo‘lsa, bunday shaxsdan oilasi, vataniga muhabbat va hurmat tuyg‘usini kutish qiyin. Oilaviy tarbiyaning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, tartib-intizom muammolari uning huquqiy vazifalarini belgilaydi. Bunda, eng muhimi, oilaning har bir a’zosiga ichki intizom madaniyati, o‘z burchi va mas’uliyatini anglashi bilan birga, oilaviy munosabatlarni hurmat qila bilishi, oilaning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish yuritishi, oila manfaatdorligini ta’minlashga intilishi, oila sha’nini sharaflashi lozim bo‘ladi. Shu tariqa hukumat doirasida oilaning jamiyatda tutgan o‘rniga alohida

---

[24] Эркаев А. Духовность – энергия независимости. – Т.: “Маънавият”, 1998. – С. 168.

[25] Ўша жойда.

[26] И.А. Каримов. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Президент Ислом Каримовнинг Конституция кунига бағишланган тантанали мажлисда сўзлаган нутқидан. // Соғлом авлод – бизнинг келажагимиз. – Т.: Абу Али ибн сино, 2000, 125 б.

e'tibor berib kelinmoqda. Oila ma'naviyatini yuksaltirish institutlaridan biri – mahalladir.

Demak mahallaning oila bilan hamkorlikdagi samarali faoliyatining shakl va shamoyillarini izlash va shu orqali yoshlarda sog'lom ma'naviyatni shakllantirish mexanizmini tadqiq etish hozirgi zamon talabining dolzarb masalalaridandir.

Sharqona qadriyatlarga, axloqqa asoslangan o'zbek oilalarida o'z shaxsiy faravonligidan ko'ra oila sha'nining baland tutilishi, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlariga, qo'ni-qo'shnilariga g'amxo'rlik qilishning birinchi o'ringa qo'yilishi – oliy darajadagi qadriyat bo'lib, oilani tashqi muhit bilan bog'lash va mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xalqlari oilasida inson shaxsining kamoloti uchun ma'nan barkamollik negiz vazifasini o'taydi. Ota-bobolarimizdan meros qolgan saxiylik, mehmondo'stlik, rostgo'ylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik fazilatlari milliy mintalitetimizning muhim jihati hisoblanadi. Ushbu xislatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlod ongida shakllantirish, ular ruhiyatini xalq durdonalari bilan boyitish, milliy qadriyatlarga e'tiborni ko'proq qaratish maqsadga muvofiqdir.

## YOSHLARDA OILAVIY HAYOTGA DOIR KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH USLUBLARI

*Radjabova Sanobar Raximovna*
*O'zDK "Musiqa pedagogikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi*

Oila muqaddasligini ta'minlash jamiyat asoslarini mustahkamlash bilan barobardir. Su bois, O'zbekiston Respublikasida oila asoslarini mustahkamlash davlat ahamiyatiga molik vazifalardan hisoblanadi. "Biz o'z ma'naviy hayotimiz va kelajagimizni qurayotganda beqiyos milliy qadriyat bo'lmish oilani asosiy tayanch deb bilamiz. Chunki o'zligimizga qaytish, milliy urf-odatlarimizni e'zozlash, kattalarga hurmat va kichiklarga g'amxo'rlik, odamiylik, halollik, olijanoblik, mehr-oqibat singari asl insoniy fazilatlar oila muhitida shakllanadi"[27].

Har bir xalq va milliy an'analar tarkibida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ammo zamonaviy jamiyatlardagi keskin o'sish sur'atlari, turli ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy inqirozlarning avj olishi, inson zimmasiga yuklatilayotgan rang-barang ijtimoiy vazifalarning ortib borayotganligi oiladan juda katta faollik taqozo etadi hamda zamonaviy jamiyatlarda oila o'rni va uning vazifalari ko'lami masalasiga ma'lum o'zgarishlar kiritadi.

Oila milliy qadriyatlar maskani hisoblanadi. Yoshlarni oilaga tayyorlash jarayoni har bir millatning madaniy va ma'naviy-ruhiy qadriyatlaridan hisoblanib, xususan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash insoniyat tarixida xalq ma'naviy takomilining eng ulug' va oliy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Oilaviy madaniyat, oilaviy hayotga ongli kirib borish, oilaviy vazifalarni bajarishga tayyorlik, hayotda oila o'rnini yuksak

[27] Каримов И.А. Биз ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. –Т.: Ўзбекистон, 1999, 7-том, –Б.252-253.

qadrlash, oilaga mas'uliyat bilan qarash, xalq ma'naviy merosidagi oila qadriyatlarini o'z zamoni talablari bilan uyg'unlashtirib rivojlantirish har vaqt inson hayotiy mezoni va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida tan olingan.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasining pedagogik aspektlari mustaqillikning ilk yillaridanoq tadqiqotchilarning diqqatini tortib keldi. Yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash tafakkuri aynan mustaqillik yillarida keng rivoj topdi, aholi o'rtasida targ'ib va tashviq etila boshlandi, davlat dasturlarining bosh mohiyatini tashkil qildi.

Mamlakat aholisining yarmidan ko'proq qismini yoshlar tashkil qilishi, o'sib borayotgan yosh avlodni jamiyatda mustaqil yashashga tayyorlash vazifasining dolzarbligi yoshlarni jamiyat hayotiga va oilaviy turmushga tayyorlash ishlarini jadallashtirishni va yangicha mazmunda qayta qurishni talab etdi. Insonlarning o'zaro munosabatlarida keskinliklarning o'sib borayotganligi, zamonaviy ziddiyatlarning inson tafakkuri va ongiga ta'sir etishi orqali uning psixologik holatida salbiy va asabiy oqibatlarning vujudga kelishi, yosh oilalardagi ajrim holatlarning muntazam o'sib borayotganligi, bolalar va o'smirlardagi agressiya holatlarining vujudga kelayotganligi kabi muammolar yoshlarni oilaga tayyorlash vazifasini to'laqonli olib borish talabini kun tartibiga qo'yadi.

Oilaga nisbatan insoniyat tarixida asrlar davomida shakllanib, e'zozlangan ma'naviy ehtiyojlar tizimi, oilani shaxs ma'naviyatini asrab avaylaydigan, uning barkamolligi mezonlaridan biri deb tan oladigan qonun-qoidalar majmui sifatida anglash, oilani butun jamiyat va millat taqdiri va taraqqiyotiga bevosita oidligini chuqur idrok etish - shaxsning ma'naviy yetukligini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblangan. Chunki, oilani muqaddas deb bilmagan inson – ma'naviy qashshoq insondir. Oilani muqaddas deb anglash har bir jamiyat a'zosining o'z vijdoni, o'z oilasi va farzandlari oldidagi burchidir.

Global o'zgarishlar asosida so'nggi vaqtlarda o'zbek oilasida va oila a'zolari munosabatlarida ma'lum o'zgarishlar yuz bermoqda. Mazkur ta'sirning o'ziga xos ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud. Ijobiy tomoni shundaki, mavjud global shart-sharoitlar va talablar o'zbek oilasining funksionallik jihatdan o'sishi va o'z mas'uliyatidagi vazifalarga tayyorligini oshiradi, o'zbek oilasining dunyo hamjamiyati bilan bo'lgan turli aloqadorligini, uning jahon bozori va texnogen o'sishga nisbatan bo'lgan integratsiyasini ta'minlaydi, shu nuqtai nazardan o'zbek oilasining davr va zamonga hozirjavobligini oshiradi, oilaning ijtimoiy o'rni nuqtai nazaridan ma'lum ijobiy transformatsiyaga sabab bo'ladi. Salbiy ta'sir esa globallashuv oqibatida yuzaga kelgan ommaviy madaniyat, turli mafkuraviy tahdidlar, diniy va boshqa turdagi ekstremizm, rangli inqiloblarning avj olishi, ksenofobiya, mehnat resurslari migratsiyasi va boshqa o'nlab tayziqlarning oilalar tinchligi, ravnaqi, osudaligini buzishi, milliy oilaviy mentalitetning qo'porilishida namoyon bo'ladi. Shu bois, bugungi kunda milliy an'analarni oilaviy turmush borasidagi umumbashariy nazariy bilimlar bilan qo'shib olib borish talab etiladi. Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik, ruhiy, jismoniy, jinsiy tomondan to'liq tayyorlash masalalari kuyidagi yo'nalishlardagi ma'lum bilim va ko'nikmalarni shakllantirish taqozo etadi:

1. ***oila salomatligi:***oila a’zolari salomatligi bo‘yicha birlamchi bilimlarga ega bo‘lish, salomatlikni saqlash omillarini bilish, salomatlikni saqlash va umrni uzaytirish usullarini va milliy qadriyatlarni oila hayotiga singdira bilish, milliy tabobatdan xabardor bo‘lish, reproduktiv salomatlik mezonlariga amal qilish, to‘g‘ri ovqatlanish me’yorlariga rioya qilish, hayotga fiziologik-gigienik jihatdan tayyor bo‘lish, oilaning ijtimoiy ahvolini yaxshi va ravon saqlash, uni yaxshilash omillarini o‘rganish.

2. ***oiladagi jinslararo munosabatlar:***jinsiy tarbiya asoslari, jinslar psixologiyasi va salomatligi bo‘yicha bilimlarni egallash, nikohni ulug‘lash, nikohdagi halollik va sadoqat, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni an’anaga aylantirish, ona salomatligiga muqaddas munosabat, farzand tug‘ilishi va uning salomatligi, o‘zini va oila a’zolarini zararli ko‘nikmalardan asrash, ma’naviy barkamollik, sog‘lom turmush tarzi asosidagi axloq normalari, inson psixologiyasi bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lish; psixologik turlarni ajrata bilish, psixologik ta’sir o‘tkazish omillarini egallash, psixologik muvozanat sirlarini egallash.

3. ***oila axloqi va estetikasi:***oilada o‘zaro munosabatlar va muloqot madaniyati, tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik, tibbiy va ma’naviy sog‘lomlik, jismoniy va ruhiy barkamollik, yetakchilik va tadbirkorlik, o‘zaro muhabbat, adolat, insonparvarlik, insoniylik, to‘g‘rilik, kamtarlik, samimiylik, ota-onaga hurmat, sabr-toqat, o‘z va’dasi ustidan chiqish, ilmli bo‘lish, ayollarni qadrlash, iffat, rostgo‘ylik, pokizalik, shukr, hayo, tejamkorlik, halimlik, onalik mehri, ma’naviy barkamollik, inson erkini hurmatlash, har bir insonning takrorlanmasligini tan olish va e’zozlash.

4. ***oila a’zolari o‘rtasida oilaviy majburiyatlar taqsimoti va tomonlar huquqlari:*** oila va oilaviy majburiyatlar, zamonaviy oila va oila a’zolari majburiyatlari, oilada kim pul topishi kerakligi, oila mablag‘larini qanday taqsimlash zarur, oila va ovqatlanish talablari, oila a’zolarining huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri anglash, er va xotin huquqlari kafolatlarini bilish, oila huquqi bo‘yicha qonunchilik tizimi bergan imtiyozlardan to‘g‘ri foydalana olish.

5. ***oilaviy inqirozlar va ularning oldini ola bilish, oilaviy konfliktlar yechimiga tayyorlik:*** oila va konfliktlar, konfliktlar inson hayotining tabiiy xususiyati ekanligi, ularni yengish usullari, konfliktlarni boshqarish, g‘azab va jahlni yengish usullarini bilish, shaxs va oila, oilaning har bir a’zosiga hurmat va e’tibor me’yorlari, shaxs erkinligi, egoizm, oilada uning a’zolari munosabatlaridagi uyg‘unlik, shaxs va oila manfaatlari birligi, oila manfaatlarining ustunligi, shaxsning muloqot madaniyati va ichki dunyosi yetukligi omillari.

6. ***oiladagi sog‘lom muhit va oilaviy muloqot:***oila va oila osoyishtaligi, oiladagi sog‘lom muhitni muhofaza qilishda barcha tomonlarning mas’ul ekanligi, shaxsiy huquqlarni oila huquqi bilan mutanosib olib bora olish tartiblari, oila a’zolari o‘rtasidagi muloqot, oila boshlig‘i va uning mavqei, oilani ijtimoiy muhofaza qilish choralarini ko‘ra bilish, oiladagi sog‘lom psixologik va tibbiy muhitning shakllanishida oila a’zolari majburiyatlari va huquqlarini mutanosib belgilash va tashkil qilishga o‘rganish.

7. ***oila an’analari va ularga nisbatan yangicha qarash:*** oila an’analarining kelib chiqish sirlari, oila an’analariga hurmat, oila an’analarini yaratish va ularni ta’minlash, oilaviy an’analarni avlodlarga o‘tkazish, oilada

bayramlarni nishonlash tartibi, oilaviy an’analarni saqlashga farzandlarni o‘rgatish, oila va sayohat, milliy urf-odatlarini o‘rganish, oila ananalaridan farzand tarbiyasida unumli foydalanish.

# YOSHLARNI MA’NAVIY QADRIYATLARNI E’ZOZLASHGA O‘RGATISHNING ILMIY VA AMALIY USLUBLARI

*Kurbonova Gulchehra Abdullayevna*
*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Musiqa pedagogikasi” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi, Turon fanlar akademiyasining akademigi*

Davlatimiz rahbari Muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvaridagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki Palatasi deputatlari hamda jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvi dagi Murojaatnomasi tom ma’noda olamshumul voqea bo‘ldi. Ushbu Murojaatnoma tarixiy ahamiyat kasb etib, unda asosiy urg‘u kelajagimiz bo‘lgan yoshlarning buguni va ertasiga aloqador barcha masalalar yangi yechim va yo‘nalishlarda xalqchil tilda bayon etildi va har bir tinglovchini va ma’ruzani o‘quvchini shaxsan mushohada qilish va o‘z faoliyatini tahlil etishga undadi. Ushbu Murojaat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 1059-sonli qarori bandlarining bajarilishi uchun oldimizda turgan mo‘ljallarimizni ado etish uchun metodologik asos rolini o‘ynaydi.

Mamlakatimizdagi barcha ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan olimlar va mutaxassislarni yoshlarimiz tarbiyasiga yana bir karra yangicha texnologiyalar va raqamli texnologiyalar asosida o‘z tajribalarini qayta ko‘rib chiqish va bunda birinchi navbatda ta’lim olayotgan yoshlarda turli yot g‘oyalarga nisbatan immunitetni hosil qilish, ularda sog‘lom fikrlarga nisbatan sobitlik psixologiyasini shakllantirishdek murakkab ishni amalda yangicha g‘oyalar asosida ko‘rib chiqishga majburqildi, desak xato bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda oxirgi yillarda olib borilgan ko‘plab ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda yoshlarni har tomonlama barkamol, milliy qadriyatlarni nafaqat biladigan, balkiularga hurmat va ehtirom bilan qaraydigan, bu masalalarda avlodlararo vorislik xususiyatlarini ham qadrlaydigan, shu orqali farzandlarning jamiyatda o‘z munosib o‘rnini topgan shaxslar bo‘lib kamolga yetishishida muhim omillarni aniqlash masalasiga ustivor ahamiyat qaratilgan. Asosiy muammo esa ushbu jarayonda aynan bola shaxsida milliy va ma’naviy fazilatlarni milliy qadriyatlar ta’sirida shakllanishidagi rolini aniq belgilash, ijobiy xulq modeliga o‘rgatishdir. Biz olib borgan ko‘plab tadqiqotlarda bola shaxsidagi milliy hamda ma’naviy omillarning roli, o‘spirinlik davrida milliy qadriyatimiz bo‘lgan oila va tengqurlar davrasidan tashqari, talabalik yillarida kasb-hunar bilan bir qatorda milliy va ma’naviy qadriyatlarni e’zozlashga o‘rgatishning shakl va metodlariga o‘rnini aniqlashga katta e’tibor qaratilgan. Ya’ni, dunyoga keladigan va tarbiyalanayotgan har bir bolaning aqlli, farosatli, dunyoviy bilimlarga ega bo‘lgan, zamon bilan hamnafas, kelajakni oldindan ko‘ra biladigan,

o'ziga ishongan, qattiyatli va tadbirkor, jamiyatda ruy berayotgan har bir voqea va hodisalarga real baho bera oladigan, fahm va farosatli ijobiy shaxs sifatlariga ega bo'lishi bilan birga, unda milliy qadriyatlar borasida ham bilim, ko'nikma ham muhim rol o'ynashi ta'kidlangan. Zero, fikr yurituvchi inson zoti borki, u o'ylaydi, mushohada qiladi, baholaydi va atrof-olamda ro'y berayotgan narsa va hodisalarga tanlab munosabat bildiradi, shu bilan birga o'z xulq-atvorida muayyan amallarga o'rganganligini ham namoyon eta olishi kerak.

O'zbekiston psixologlari oldida turgan dolzarb va muhim vazifalardan biri aynan yoshlardagi mafkuraviy g'oyalarni sog'lomlashtirishga xizmat qiladigan amaliy ishlarni yanada jonlantirish, eng zamonaviy metod va uslublarni takomillashtirishdan iboratdir. Zero, bugun ziddiyatli, insonfikriva dunyoqarashi uchun kurash kuchaygan davrda bu masala nafaqat davlatlararo, balki ko'proq dinlararo, e'tiqodlararo murosasizliklarning namoyon bo'lishiga sabab bo'luvchi motiv ekanligini anglash qiyin emas. Bunday sharoitlarda yoshlarni to'g'ri yashashga o'rgatish, malakali kadrlar qilib tarbiyalash, vatanparvar va insonparvar bo'lishga ***o'rgatish*** masalasi dolzarblik kasb etmoqda. O'rgatish masalasining qiyinligi shundaki, bu ishni har biri jtimoiy toifa yoki shaxsning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olmay, shaxsni o'rab turgan ijtimoiy muhitni, undagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini o'rganmay turib amalga oshirib bo'lmaydi, bu muammoni hal etishda ijtimoiy psixologiyaning o'rni va salohiyati kattadir. Shaxs va jamiyat o'zaro munosabatlari, shaxsning turli guruhlardagi maqomidan kelib chiqib o'rganadigan fan sifatida ijtimoiy psixologiya eng avvalo amaliy fan sifatida o'z vazifalari borasida aynan insonning ijtimoiy xulqini jamiyat a'zosi sifatida to'g'ri yo'naltirish muammolarini o'rganadi va tavsiyalar ishlab chiqadi. Bu borada talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish muhim va ziflardan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda O'zbekistonda aynan ushbu masalaga e'tibor yana kuchaydi. Yosh olimlar bu masala borasida o'z fikrlarini bayon etib, dissertatsion tadqiqotlar ham olib bormoqdalar. Ushbu maqolada aynan oliy o'quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan murabbiylar, oliygoh psixologlari hamda pedagog-kadrlarga yoshlar mafkuraviy dunyoqarashini o'zgartirishga aloqador ayrim amaliy-psixologik yo'nalishlarni belgilashga qaror qildik. Avvalo shuni ta'kidlashni xohlar edikki, talabalarni yaxlit guruh deb oladigan bo'lsak, ularning barchasi bilan, birvaqtda, bir xil effekt bilan ishlashning o'zi mushkul. Ikkinchidan, bir guruh talaba uchun maqbul va samarali deb hisoblangan uslubni boshqasida ham aynan joriy etishga urinish bunday sharoitlarda teskari samara berishi turgan gap, ya'ni, "bumerang samarasi"ni berishi mumkin.Ijtimoiy psixologlar ko'proq gruppaviy qadriyatlarni kim, qachon va qayerda, qanday idrok qilishiga qiziqqanlar. Agar bizni qiziqtirayotgan masala, ya'ni, talaba-yoshlarning bizga yot bo'lgan qadriyatlarni qabul qilishi, diniy aqidaparstlikka moyilligi nuqtai nazaridan muammoga yondashadigan bo'lsak, ma'lum bo'ladiki, ekstremistik kayfiyatli yoshlarning bunday fikrlashi bilan e'tiqodi butun tengdoshidan farqi unchalik katta emas ekan. Ya'ni, agar sog'lom fikrli bola ko'pchilik e'tirof etgan qadriyatni jon-dili bilan qabul qilsa, moyilligi bor bola sekin-asta bosiqlik bilan qabul qilarkan, lekin amalda u qaysi xulq shakliga ergashishi atrofdagilarga ma'lum vaqtgacha sir bo'lib qolaveradi. Bir qarashda hamma qatori bo'lgan talabani ekstremistik kayfiyatini, undagi g'arazli, tajovuzkor niyatlar, noto'g'ri dunyoqarashni payqash qiyinroq ekan. Bu holat

murabbiydan, pedagogdan, psixologdan, rahbardan o‘ta ziyraklik va e’tiborni talab qiladi. Ayrim mafkuraviy tayziqlar ta’siriga berilib qolgan yigit yoki qizning ongini “tozalash”da qanday yo‘ltutayotganligimiz ma’lum ma’noda sirday tuyuladi. Demak, birinchi masala – adashganlar uchun psixoterapiya nimadan iborat bo‘lishi kerak, degan savolga javob qidirish lozim. Xulq-atvordagi xatoliklar eng avvalo fikrlash tarzidagi xatoliklarning oqibati bo‘lgani uchun bizningcha, avvalo ularning negativ ***fikrlash tarzi sxemasini o‘zgartirish lozim***. Bu bevosita talabaning ongiga ta’sir ko‘rsatishni taqazo etadi.

Ikkinchidan, fikrlash tarziga ta’sir ko‘rsatish uchun o‘zimizdagi *tushuntirish uslubimizni,* umuman ishlash uslubimizni keskin o‘zgartirishimiz kerak bo‘ladi. Ya’ni, ilgari, yuqori tonlarda, direktiv ohangda, “katta” rolida gaplashib yurgan bo‘lsak, endi kerak bo‘lsa, “tengma-teng”, demokratik ohangda, vazminlik bilan xatti-harakatlarni birgalikda tahlil etishga o‘tish lozim. Yoki kimlar bilandir ilgari yaxshi gapirib yurgan bo‘lsak, kerak bo‘lsa, endi avtoritar yo‘l tutishimiz kerak bo‘ladi.

Uchinchidan, talabaning o‘z-o‘zini idrok qilishini, o‘zini anglashini o‘zgartirish, ya’ni, unga murojaat shunday bo‘lsinki, talaba qilgan ishlari orqali o‘ziga o‘zi baho bersin. Bunda ko‘pincha, talaba nima bilan mashg‘ul bo‘layotganligi va uning oqibatlarini o‘zi anglashiga yordam berish kerak.

Nihoyat, shunday vaziyat yaratish lozimki, talaba ijobiy tajriba orttirsin, ya’ni, o‘ziga, oilasiga yoki kursdoshlariga, fakultetiga manfaatli ish qilib, olqish olsin.

Bundan tashqari professor-o‘qituvchilarning professional kompetentliligini oshirish, ular malakasini oshirish orqali yoshlar bilan ishlashning psixologik yo‘llarini bilishlari uchun imkoniyat yaratish. Ya’ni, professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish yoki qayta tayyorlash kurslarida talabalar mafkuraviy ongini o‘zgartirishga bag‘ishlangan maxsus kurslar tashkil etib, unda o‘zaro tajriba almashishdan tashqari, erkin debatlarda samarali ishlash tizimini psixokorrektsiya qilish lozim bo‘ladi. Avvalo pedagog hamda murabbiylar va muhimi – talabalarning ***mustaqi lfikrlashlari*** uchun sharoit yaratish, aks holda talaba ongit ayyor shablonlar, stereotiplarga shu qadar o‘rganadiki, ular oxir-oqibat har qanday bid’at yoki yot g‘oyalarga ergashib ketaveradigan bo‘lib qoladi. Ya’ni, darsni tashkil etishning noan’anaviy, interaktiv usullariga keng yo‘l ochish, darslarda talabalarning interaktiv muloqotini tashkil etish, ular miyasining yaxshiroq ishlashi, qiziqishlarining o‘sishi va mustaqil fikrlashiga yordam beradi;

Bugun oliy o‘quv yurtlarida yoshlarni yot g‘oyalardan asrashning qanday real, amaliy, pedagogik-psixologik mexanizmlari mavjud?

- ***Murabbiylar instituti.*** Aynan murabbiy o‘ziga yuklatilgan vazifalar doirasida talabalar guruhida darsdan tashqari muloqotda bo‘lish, uning oilasi, mashg‘ulotlari, muammolari bilan qiziqish imkoniyatiga ega.
- ***Ma’naviyat kunlari***. Aynan talaba-yoshlar qiziqadigan “Kitoblar yarmarkalari” o‘tkazib, kitobxonlik konkurslari o‘tkazish va ham maroqli, ham ta’sirchandir.
- ***Jamoa ttopshiriqlari*** . Menimcha, Oksford universiteti kabi yetakchi xorijiy oliy o‘quvyurtlari tajribasidan o‘rganib, universitetlarda amalda turli yo‘nalishli markazlar, klublar, havaskorlik to‘garaklari, fan laboratoriyalari kabilarni ko‘paytirib, ularga bevosita talabalarning ishtirokini ta’minlash, dastlabki paytlarda jamoatchilik asosida

ko'maklashayotgan talabalarga moddiy va ma'naviy rag'batlantirish imkoniyatlarini qidirish kerak. Eng yaxshisi, turli grantlar, ilmiy-amaliy loyihalarga, "IT-texnologiyalar markazlari"ga jalb etish lozim.

- ***Talabani mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlash***. Chunki talabalik yillari romantizm, sevgi va do'stlik yillari ekanligini unutmaslik kerak. Shu yo'l bilan talabaning oilasi bilan aloqa bog'lash, ota-onalari bilan hamkorlik qilish, nikoh yoshi to'g'risida aniq tasavvurlarga ega bo'lish, oilaviy qadriyatlarni ham dunyoviy, ham diniy tomondan o'rgatish bugungi kunda malakali mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omilidir.

Yuqorida ta'kidlangan Kontsepsiya vazifalariga binoan, biz bugungi zamon yoshlaridagi ma'naviy fazilat larning asoslarini, ustovorlarini ajratish lozim deb hisoblaymiz. Zero, shaxsga xos bo'lgan ijobiy hamda salbiy xususiyatlarning ko'pligiga qaramay, ularni birlashtiruvchi o'ta muhim fazilatlar borki, ular aslida tabiatan umumlashtiruvchi qadriyatlar hisoblanadi. Ularning ham biri maxsus tadqiqotlar doirasida o'rganilishi va ijtimoiy psixologik amaliyatda, tarbiya jarayonida ularga asosiy e'tibor qaratilishi lozim, deb o'ylaymiz.

## YOSHLAR XULQ-ATVORI VA DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA`SIRLARNING TUTGAN O`RNI

*Saidova Gulhayo Tolibovna*
*Navoiy viloyati Uchquduq tumani 20-maktab psixologi*

Bola bu dunyoga hayotda o`zini qanday tutish kerakligi, o`zini qanday to`g`ri baholash mumkinligi hamda qanday shaxs bo`lib yetishi mumkinligi haqida tasavvurlarsiz tug`iladi. U ulg`aygan sari atrofdagi kishilar tajribasiga tayanadi va ulardan o`rganadi. Ijtimoiy muhit unga ta`sir ko`rsata boshlaydi. Shunday ekan yoshlarni xulq-atvori hamda dunyoqarashini shakllantirishda o`z mustaqil fikrlarini shakllantirgan holda o`zlikni anglatuvchi yo`l sari boshlashimiz lozim. O`ylab ko`ring, bizlar qalban nimalarga ko`proq bog`langanmiz? Kuzating, qalbingiz nimadan ko`proq kuyib pishadi, nimalarni orzu qiladi, nimaga intiladi.

Tasavvur qiling, sizga orzu bilan maqsad orasidagi farq haqidagi savol bilan murojaat qilishsa qanday javob bergan bo'lar edingiz? Insonlarda oddiy istak va kuchsiz xohish o'zgaruvchan bo`ladi. U kerakli kuchga ega emasli tufayli, malum bir to'siqlarga uchraganda orzular maqsadga aylanmay qoladi. Chin istaklar harakatga undovchi turtki bo'lib, orzuni maqsadga aylantiradi. Bir kuni donishmandning shogirdi ustozidan so'radi: "Donishmandlikka erishish uchun nima qilish kerak? Donishmand esa shogirdini daryo bo'yiga etaklab borib, uning boshini suvga tiqadi. SHogirdning qarshiligiga qaramay bu ishini bir necha daqiqa davom ettiradi. Malum vaqtdan so'ng donishmand shogirdining boshini suvdan oladi va so'raydi: "Boshing suvdaligida hammasidan ham nimani xohlading" deb so'radi. SHogirdi javoban "Nafas olishni". "Donishmand bo`lishing uchun ham huddi shunday xohish va istak kerak" deb javob berdi donishmand. Eng kuchli haqiqatlardan biri shuki, hayotga muaffaqiyatlarga

erishgan ko‘pchilik insonlar jiddiy mag`lubiyat hamda fojeani boshdan kechiradi. Bunga sabab shuki o‘z maqsadida erishishda o‘z imkoniyatlarni to‘g`ri anglamaganlik, orzuni amalga oshirishga astoydil qadam tashlamaslikda. Hayotda o‘z orzu yo‘lida uchraydigan qiyinchilikga bardosh berib, shu orzusini maqsadga aylantira olgan odamgina muoffaqiyat kalitiga sazovor bo‘ladi, ijtimoiy muhitda o`z o`rnini topa oladi. O‘z kelajagini, orzu istaklarini, o‘z qo‘llari bilan yaratadi. Zero, orzularsiz dunyo, maqsadlarsiz esa hayot bo‘lmaydi. Shu o`rinda bola kelajakda barkamol shaxs sifatida shakllanishida uning tarbiyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Kelajakda u qanday inson bo`lishi oilada ota-onalar berayotgan tarbiyaga hamda ijtimoiy muhitga bog`liq. Tarbiya ishi qanchalik erta boshlansa, hosil ham shuncha erta ko`zga tashlanadi. Oilada farzand tarbiyasiga qo`yiladigan har bir xato va kamchilik inson kelajagiga o`z ta`sirini ko`rsatmay qo`ymaydi.Bolalarimizning ong-u tafakkurida bo`shliq paydo bo`lmasligi, turli salbiy holatlar kelib chiqmasligi, ijtimoiy-psixologik holatlar salbiy ta`sir ko`rsatmasligi uchun doimo ular bilan suhbatlashib, qiziqishlari bilan tanishib borish maqsadga muofiqdir.

Bola yoshi ulg`aygan sari uning ongi va tafakkuri o`sishi bilan bir qatorda o`z mustaqil fikriga ega bo`lib boradi. Oilada farzandga berilgan tarbiya esa o`z ta`sirini ko`rsatishni boshlaydi. Shu o`rinda oilada bola tarbiyasi va uni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash borasida psixologlar ota-onalarga quydagicha tavsiya beradi:

Bolani hech qachon noto`g`ri bajarding deb koyimang;

O`z sevimli mashg`uloti hamda o`yin turini mustaqil tanlashga imkon yarating;

O`z fikrini erkin bayon etishga imkon berish lozimligini hech qachon unutmang!;

Farzandingizning har bir savoliga imkon qadar rost hamda sabr bilan javob bering;

Farzandingizning qiziqishlari, orzu-istaklari haqida suhbatlashib turing;

Hech bo`lmaganda ba`zi-ba`zida bolangizning o`rniga o`zingizni qo`yib ko`ring. Siz ham bu yoshda qanday bo`lgansiz? Shu tog`risida suhbatlashib turing;

Farzand tarbiyasida ma`lum bir qonunlarni inson o`zi uchun, oilasi uchun o`zi yaratib olishi lozim. Buyuk bobokalonimiz Abdulla Avloniyning ta`kidlashicha: “Tarbiya - biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.” Oilada berilayotgan mehr, e`tibor hamda tarbiyangiz, ertaga farzandingizning kelajagini ta`minlab, uni jamiyatdagi o`rnini belgilab beradi. O‘zbek oilasida axloqiy qadriyatlar asosida rostgo‘ylik, halollik, to‘g‘riso‘zlik, insonparvarlik, do‘stona munosabat, saxiylik, g‘amxo‘rlik, mehribonlik, oliyjanoblik, odoblilik, xushmuomolalik, vijdonlilik, samimiylik, bosiqlik kabi fazilatlar ota-ona tomonidan bolaga shakllantiriladi. O‘zbek oilasining ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosliklari alohida e’tiborga molik, zero ular turmush tarzini, ma’naviy-axloqiy sharoitni, tarbiyaviy tamoyillarni, shaxslararo munosabat etikasini hamda muomala madaniyatini belgilab beradi. Ularga milliy qadriyatlarga sodiqlik, diniy marosimlarga hurmat, bolalarni ezgu, foydali ishlarga o‘rgatish, kattalarning oiladagi kichik yoshli a’zolarga o‘rnak bo‘lishi, o‘z so‘zida tura bilish, sabrlilik, yosh xususiyatlarini hisobga olish, munosabatlarda hamkorlik, mehribonlik, o‘zaro hurmat va o‘zaro tushunish kabi fazilatlar yoshligidan bolaga shakllantib boradi.

Bir qator tadqiqotlar asosida biz shunday xulosa chiqardikki, tarbiyaviy ta’sir natijasiga o‘zbek millati vakillarining o‘ziga xos xususiyatlari ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sirlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1) fe’l-atvorga oid – ochiqlik, ishonuvchanlik, hissiyotga beriluvchanlik, samimiylik, bosiqlik, sabr-bardoshlilik, qadr-qimmat tuyg‘usi, bolalarga muhabbat, o‘zini tuta bilish;

2) axloqiy tarbiyalanganlikka oid – rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, ezgulik, insoniylik, kamtarlik, vijdonlilik, g‘amxo‘rlik, saxiylik, vatanga, uning tarixi va madaniyatiga muhabbat. Agar oilada bolaga shu sifatlar shakllantirilsagina uning ongida bo`shliq paydo bolmaydi. Ijtimoiy salbiy hurujlar ta`siriga tushib qolishdan o`zini saqlay oladi.

“Bolalarni o‘ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o‘z qadr-qimmati, tarbiya qilmoqlikni o‘rgatmoq kerak. Bolalarni shunday tarbiya etish lozimki, baxtga bo‘lgan intilishlari hech qachon xazon bo‘lmasin. Ota-ona bolaga mamnunlik va xursandchilik qilishni man etmasliklari, balki ahloqqa zid bo‘lmagan ishlar bilan mamnun va xursand bo‘lishini qo‘llab quvvatlash kerak”. Bolaning kelajakda qanday inson bo‘lib etishishi onaning unga nima tarbiya bera olganiga bog‘liqdir. Fitrat yoqlab chiqqan bu fikr hozirgi kunda ham ardoqli bo‘lib hisoblanadi.

Shu o`rinda yosh avlodni dunyoqarashini shakllantirishda “MEN” ligi, o`zligini anglashga, mustaqil fikrli bo`lishga e`tibor qaratgan holda kelajakda jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalashimiz lozim. Zero, sog‘lom, ma’rifatli oila va bu oilada o‘sib ulg‘aygan rivojlangan shaxs, millat va mamlakatning qudratli, shuhratli bo‘lishi uchun yetuk kurashchi bo‘lib shakllanadi.

## ТАЛАБА ШАХСИНИНГ ТАЛАБГОРЛИК ДАРАЖАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ҚАРАШЛАР

*Тойирова Лайло Изатовна*
*ЎзХИА, “Дин психология ва педагогика” кафедраси ўқитувчиси,*
*Иброхимова Зухра Шамсиддин қизи*
*ЎзХИА, Психология йўналиши 2-босқич талабаси*

Шахснинг талабгорлик даражаси - бу инсон ўзини қобилиятли деб билган мураккабликдаги мақсадга интилиш ва етишишдир. Талабгорликнинг реалистик даражасига эга бўлган инсонлар ўз мақсадларида атъийлик ва юқори натижалари билан фарқланадилар. Талабгорлик ва инсоннинг реал имкониятларининг мос келмаслиги инсоннинг ўзини нотўғри бахолашига, хулқининг ноадекватлашувига, эмоционал бузилишлар юзага келиб зўриқишнинг ортишига олиб келади. Бундан кўриниб турибдики, талабгорлик даражаси шахснинг ўз-ўзини бахолаши ва фаолиятнинг турли кўринишларида муваффақиятга эришиши мотивацияси билан боғлиқдир.

Америкалик олимлар Д.Маккелонд ва Д. Аткинсон томонидан фаолиятнинг турли кўринишларида муваффақиятга эришиш назарияси ишлаб чиқилган. Бу

назарияга кўра, муваффақиятга мотивлашган инсонлар ўз олдиларига муваффақиятли натижаларга олиб келувчи мақсадларни қўяр эканлар. Улар қай йўл билан бўлса-да, мақсадларига эришишга интиладилар, улар қатъиятлилар, олдиларига қўйилган мақсадга эришишга йўналтирилган ҳаракатларнинг қўллаб-қувватланишини кутадилар ҳамда барча ўз ресурсларини мобиллаштириб олдинга қўйилган мақсадларга эришишга эътиборни жамлаш характерлидир. [28]

“Талабгорлик даражаси” тушунчаси у ёки бу фаолият самарадорлигини прогнозлаштириш билан боғлиқ ҳолатда кузатилади. Масалан, касбий машғулотлар, талабаларнинг ўзлаштириш даражаси, спорт натижалари. Ўз-ўзини англаш ва характернинг хусусиятлари Собиқ Совет психологиясида Б.С. Братусь, Л.А. Кириллов, А.Е. Личко, С.Н. Морозюк, В.И. Моросанова, С.Л Рубинштейн ва бошқалар томонидан, хориж психологиясида Г. Айзенк, К. Леонгардлар томонидан ҳар томонлама ўрганилган. Ўз-ўзини баҳолаш талабгорлик даражаси ва характер хусусиятларини ўрганиш ўз-ўзини англаш ва талаба шахсини янги жиҳатларини ўрганиш имкониятини беради. Инсон характерини билиш инсон хулқ-атвори уни бошқа инсонлар билан ўзаро таъсирга киришиш усуллари ва хатти-ҳаракатларини прогнозлаштириш имкониятини беради. Акцентуация типи ушбу характер типидаги “заиф звено”ни кўрсатади, дезадаптацияга олиб келувчи ноадекват психоген реакцияларни чақиришга қобилиятли бўлган омилларни олдиндан кўра билишга ёрдам бериб, шу орқали тарбия ва психопрофилактика учун йўл очиб беради.[29]

Талабгорлик даражаси тушунчаси кейинчалик Дж. Френкнинг ишларида ўз ифодасини топган бўлиб, у эътиборни ўзига қаратувчи шахсни кенг қамровчи мақсадлари сифатида илгари сурилган. У 1930-1940 йиллар оралиғидаги талабгорлик даражасини ўрганиш бўйича олиб борган тадқиқотларини умумлаштириб, талабгорликни таҳлил қилиш индивид ўзини қандай баҳолаши, унинг ўз-ўзини баҳолаши даражасини аниқлашга имкон беришига тўғридан-тўғри ишора қилади. М. Юкнат буни ўз-ўзини англашнинг натижаси деб билади. К.Левин мақсадга эришишда субъектнинг ўз имкониятларини тахмин қилиши ҳақида айтиб ўтади. Б.В. Зейгарникнинг фикрига кўра, барча ҳолатларда гап ўз-ўзини баҳолаш ҳақида кетмоқда.

Талабгорлик даражасига шунга ўхшаш фикрларни Дж. Гарднер, Р. Сирс, Д. Роттер, белиланган маънода - Р. Мейли ва Я. Рейковскийлар билдириб ўтганлар. Худди шундай мантиқни Х.Хекхаузен ва бошқа хорижий тадқиқотчилар ҳам тасдиқлаганлар. В. Гошекнинг фикрича, талабгорлик даражаси ўз фаолияти сифатига талаблар орқали тўғридан-тўғри акс этган ўз-ўзини баҳолашни намоён этади.

---

[28] Алтунина, И.Р. Мотивы и мотивация социального поведения: Учебное пособие / И.Р. Алтунина. - М.: Изд-во Московского психолого-педагогического института, 2006. - с. 144

[29] Смирнова, Т.Л. Самоактуалиация личности студентв в процессе подготовки / Т.Л. Смирнова // Фундаментальные исследования. - 2007. - №12 - С. 166-167.

Психологияда ушбу тушунча киритилганидан бошлаб адабиётларда талабгорлик даражасининг турли белгиланишлари пайдо бўлди. Ҳар бир муаллиф унинг алоҳида жиҳатларини келтириб ўтади ва термин кўпгина вариатив маъноларга эга бўлиб, кенг тарқалганлигига қарамасдан ўз ноаниқлигини сақлаб келмоқда. В.М. Мясишевнинг тасаввурларига кўра талабгорлик даражаси ўрганилаётган шахс нуқтаи назаридан натижалари қониқтириши лозим бўлган сифат ва миқдор кўрсаткичидир. Б.Г. Ананъевнинг фикрига кўра, талабгорлик даражаси баҳога интилиш сифатидаги баҳоловчи эҳтиёжлар билан боғлиқдир. В.С. Мерлиннинг фикрича, эса талабгорлик даражаси инсон қониқиш ҳис қилиши учун керакли бўлган баҳолаш даражасини акс эттиради.[30]

Талабгорлик даражаси динамикасини таҳлил эта туриб, В.С. Мерлин талабгорлик даражасини ўзгартириш йўли орқали шахсни фаолиятга мослашувининг қийин ёки осонлиги темпераментнинг мезонлари, шахслилик мехонлари, талабгорликнинг бошланғич даражаси, ўз-ўзини баҳолашнинг адекват ёки ноадекватлиги, унинг барқарорлиги ўз-ўзини тасдиқлаш мотивлари билан боғлиқлигини аниқлайди. Ўз ўрнида Л.В. Бороздинанинг фикрича, талабгорлик даражаси шахснинг муҳим тузилма юзага келтирувчи компоненти ҳисобланади. Бу инсоннинг етарлича барқарор индивидуал сифати бўлиб: биринчидан, берилган топшириқнинг мураккаблик даражаси, иккинчидан, олдинги ҳаракатларда муваффақиятга эришиш ва эришмаслик билан боғлиқ тарзда субъект томонидан кейинги ҳаракатнинг мақсади танланиши, учинчидан, шахснинг ўз-ўзини баҳолашининг хоҳланган даражасини характерлайди. Кўпгина муаллифларнинг фикрига кўра, талабгорлик даражаси субъект томонидан танланган мақсадларнинг қийинчилик даражаси билан белгиланади. Хориж психологиясида ушбу натижа тўлиқ тан олинган ҳисобланади. Бунда шуни кўришимиз мумкинки, бундай белгиланишда юқоридаги операционаллик бўёғи устун қўйилмайди ва талабгорлик даражаси шахснинг муҳим таркиби, субъектнинг мақсад танлаши усулининг индикатори эканлиги тўғрисидаги тасаввур юзага келади.

Шундай экан, “талабгорлик даражаси” тушунчаси жуда кенг ва ягона мураккаб маънога эга эмаслигини кўришимиз мумкин. Шундай қилиб, талабгорлик даражаси- бу илгариги тажриба асосида шаклланувчи субъект томонидан танланган мақсадлари даражаси ўртасидаги фарқ бўлиб, ушбу мақсадга эришишига йўналтирилган ўз қобилиятлари, имкониятлари ва ҳаракатлари натижасини баҳолашдир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Алтунина, И.Р. Мотивы и мотивация социального поведения: Учебное пособие / И.Р. Алтунина. - М.: Изд-во Московского психолого-педагогического института, 2006. - с. 144

[3] Э.Ғ.Ғозиев Онтогенез психологияси 2012 йил УзМУ нашриёти

2. Смирнова, Т.Л. Самоактулиация личности студентв в процессе подготовки / Т.Л. Смирнова // Фундаментальные исследования. - 2007. - №12 - С. 166-167.
3. Э.Ғ.Ғозиев Онтогенез психологияси 2012 йил УзМУ нашриёти.

## ОЛИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ БОШҚАРИШДА ҚАРОРЛАР ҚАБУЛ ҚИЛИШ ТАЖРИБАСИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

*Азамат Назаров,*
*Ўзбекистон халқаро ислом академияси, “Дин психологияси ва педагогика” кафедраси ўқитувичиси*

***Аннотация:*** Мазкур мақолада олий таълим жараёнини бошқаришда бошқарув қарорларини ишлаб чиқишнинг ташкилий ва ижтимоий-психологик жиҳатлари аниқланган. Бошқарув қарори концепциясининг моҳияти, унинг асосий хусусиятлари ва амалга ошириш босқичлари очиб берилади. Бошқарув қарорларини ишлаб чиқиш жараёнида менежернинг шахсий фазилатлари ва ишбилармонлик хатти-ҳаракатлари хусусиятларининг аҳамияти асослари берилган.

***Калит сўзлар:*** *шахс, персонал, менеджер, шахснинг идивидуал хусусиятлари, менежмент, қарор қабул қилиш, бошқарув қарорлари, онгли танлов, детерминизм, индетерминизм.*

Қарор қабул қилиш жарайнида жуда кўплаб омилларни, жумладан иқтисодий, сиёсий, табиий, ижтимоий омилларни ҳам инобатга олмоқ зарур.

Қарор қабул қилиш субъекти деганда қарор қабул қилувчи киши назарда тутилади. Бу умулаштирувчи тушунча. Чунки қарор қабул қилувчи деганда бир киши (раҳбар) ёки одамлар гуруҳи (маъмурият) тушунилиши мумкин. Қарор қабул қилувчи субъект қарор қабул қилишда эксперт-мутахассисларни ҳам жадб этиши мумкин.

Қарорлар вариантларидан бирини танлаш раҳбар шахсига ҳам боғлиқ. Қарор қабул қилувчи шахснинг типологик, иштимоий психологик хусусиятлари қарор қабул қилиш жараёнида ўз таъсирини кўрсатади. Масалан, шахснинг индивидуал-психологик хусиятларидан бири – темперамент ҳам ўз таъсирини ўтказади. Маълумки, сангвиник ва холерик раҳбарлар қарор қабул қилишда шошишади, флегматик ва меланхолик раҳбарлар эса шошилишмайди. Шу нуқтаи назардан қарорлар ҳам бир-биридан фарқланади:

1. Босиқлик билан чиқариладиган қарорлар – ўз хатти-ҳаракатларига эътибор ва танқидий назар қаратилади. Ғоя олдиндан шакллантирилади.

2. Импульсив қарорлар – жуда кўп ғоялар ишлаб чиқарилади. Уларни текшириб кўриш имконияти йўқ.

3. Инерт қарорлар – эҳтиёт чоралари кўрилган ҳолда чиқариладиган қарорлар. Ҳоялар кам. Барчаси текширилади. Ижодкорлик йўқ.

4.Таваккал чиқариладиган қарорлар – муаллифлар хавфдан қўрқишмайди.

5. Эҳтиёт бўлиб чиқариладиган қарорлар – барча вариантлар мукаммал ҳолда текшириб кўрилади. Ўта танқидий ёндошув. Янгиликлар қарайиб йўқ.

Қарор қабул қилиш бошқарув функцияларидан бири ҳисобланади. Қарор бир қанча функцияларни бажаради:

1. Қарорнинг йўналтирувчи функцияси. Бунда қарор бошқарувнинг умумий функцияларини, яъни режалаштириш, ташкил қилиш, назорат, мотивация ва ҳ.ларни ҳаётга татбиқ этиш учун асос бўлиб хизмат қилади.

2. Координация функцияси. Бунда қарорнинг ижросини таъминлашда ижрочиларнинг хатти-ҳаракатларини координация қилади.

3. Мотивация функцияси. Бунда қарор ташкилий (буйруқлар, кўрсатмалар ва ҳ.), иқтисодий стимуллар (мукофот, маошга устама ва ҳ.) ва ижтимоий баҳолар (ўзини ўзи тасдиқлаш, шахснинг ўзини намоён қилиши ва ҳ.) кўринишада амалга оширилади.

Бошқарувнинг самарадорлиги оптимал қарорлар қабул қилишга боғлиқ. Шу нуқтаи назардан бошқарув қарорлари ташкилотнинг ўз олдига қўйган мақсадларига эришиш йўлларидан биридир.

Амалдаги ҳолатнинг исталган ҳолатга мос келмаслиги муаммони келтириб чиқаради. Муаммони ҳал этиш режасининг ишлаб чиқилишлиги қарор қабул қилишнинг вазифаларини белгилаб беради. Муаммо қуйидаги ҳолларда пайдо бўлиши мумкин:

- мавжуд таълим тизими қўйилган мақсадларни амалга оширишни таъминлаб бермайди;
- мавжуд таълим тизими келажакда қўйилган мақсадларни амалга оширишни таъминлаб бермайди;
- фаолиятнинг ўз олдига қўйган мақсадларини ўзгартириш зарур.

Муаммо ҳамиша маълум шарт-шароитлар билан боғлиқ, яъни буни вазият деб аташади. Муаммо ва шарт-шароитларнинг тўплами муаммоли вазиятни ташкил қилади. Муаммоли вазиятнинг пайдо бўлиши қарор қабул қилиш учун заруратни келтириб чиқаради.

Қарор - ҳаракат учун қўлланма, фикрий фаолиятнинг тури ва инсон иродасининг юзага чиқишидир. У қатор белгиларга эга:

- имкониятлардан бирини танлашнинг мавжудлиги;
- танлов онгли ҳолда мақсадга эришишга йўналган;
- танлов қарорни тугаш қисмидир.

Қарор етарли даражадаги қарор бўлиши мумкин ёки оптимал бўлиши мумкин. Оптимал қарорда натижа айнан кўзланган мақсадларнинг эрилиши кўринишида бўлади.

Ҳар қандай қарор ижро этилиши билан ҳаётга татбиқ этилади. Ижро қарор қабул қилишнинг энг муҳми босқичларидан биридир. Қарорнинг ижроси маълум талабларни зарур қилиб қўяди. Бошқача айтганда, бошқарув қарорлари ижросини таъминлаш ва ташкил этиш алоҳида муҳим масала ҳисобланади. Бу – бошқарув жараёнининг таркибий қисми бўлиб, қарорни ишлаб чиқиб, қарор қабул қилингандан сўнг амалга оширилади.

Бошқарув қарорларининг ижросини ташкил этиш деганда бошқарув субъектининг фаолияти тушунилади. Бу фаолият ёрдамида чиқарилган қарор ҳаётга татбиқ этилади. Ижронинг мукаммаллиги қарорнинг самарадорлигини белгилаб

беради. Қарор тўғри чиқарилган бўлиши мумкин, бироқ унинг ижросидаги камчиликлар боис натижа кутилгандай бўлмаслиги мумкин. Демак, ижро интизоми, яъни қарорни амалиётга татбиқ этишда барча ижро талаблари мукаммал бажарилиши лозим. Бунда меъёрга амал қилиниши талаб этилади. Меъёр – ижро интизомида қарорнинг амалиётга татбиқ этилишида сақланиши лозим бўлган оптимал талаблардир. Ижродан кейин унинг баҳоланиши жараёни бўлади. Бунда кўзланган мақсадга ижро натижаси мос келиш-келмаслиги текшириб кўрилади ва баҳо берилади. Шундан сўнг қониққанлик даражаси аниқланади. Қониққанлик даражаси қарор ижросининг сифатини белгиловчи субъктив мезондир. Назорат бошқарув жараёнининг функцияларидан бири бўлиб, бошқарув қарорларида қабул қилинган ҳолатга баҳо беради, ташкилот ўз олдига қўйган мақсадларга эришилганлик даражасини белгилайди. Қарор ижроси бўйича ишончли назорат тизимининг йўқлиги (бу қайтар алоқани таъминлайди) ташкилотни таназзулга олиб келиши мумкин. Агар қабул қилинган қарор етарли даражада самара бермаса ёки хато қарор бўлса, яхши фаолият кўрсатаётган назорат тизими ўз вақтида унинг олдини олиши ёки қарорга ягни ўзгартиришлар киритиши мумкин бўлади. Назорат ҳам ўз ўрнида учга бўлинади: қарорни амалга оширишдан олдинги назорат, қарорни ҳаётга татбиқ этиш жараёнидаги назорат, якуний назорат.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


5. Анфилатов В.С. Системный анализ в управлении М.: Финансы и статистика, 2002.

6. Воробьев С. Н. Управленческие решения Текст. / С. Н. Воробьев, В. Б. Уткин, К. В. Балдин. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. — 317 с.

7. Назаров А. Принятие управленческих решений как психологическая проблема // Вестник интегративной психологии. – Международный научный журнал. г. Ярославль, 2019., №19.

8. Назаров А. Принятие управленческих решений как основная функция современного менеджера // Вопросы экономики и управления. - Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №2.

5. Nazarov A. Psychological analysis of levels of administration of management decisions. // Вопросы экономики и управления.-Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №3.

6. Nazarov A. Adoption of management decisions as the main function of the modern manager // Проблемы современной экономики: материалы IX Междунар. науч.конф. г. Казань, апрель, 2020 г.


## BOLALARDA JAHLI TEZLIK VA UNI BARTARAF ETISH YO`LLARI


*Islomova Bibigul Ziyodullayevna*

*Navoiy viloyati Karmana tumani 23-maktab psixologi*


Jahl boshqa emotsiyalar singari insonning atrof muhitga moslashish vazifasini bajaradi.Jahl –ma`lum vaziyat taqazosi bilan paydo boladigan harakat va shuning uchun o`sha vaziyatdan inson chiqmas ekan,unda jahl saqlanib qolaveradi.Agar jahl ma`lum

vaziyatda emas,doimiy saqlanib qolsa,bu ma`lum ma`noda o`z-o`zini boshqarish mexanizmining buzilganligidan dalolat beradi.Darhaqiqat, bugungi kunda kishilar orasida stress, depressiya, siqilish, jahli tezlik kabi holatlar nafaqat yoshi kattalar, o‘smir yoshlar balki yosh bolalar orasida ham uchramoqda.Bu holat biz kattalarni albatta tashvishga soladi.Psixologiyada boladagi jahli tezlikni bartaraf etishda uni keltirib chiqargan sabablarni topish eng qo‘l keladigan usul hisoblanadi.

Bolalarda uchraydigan jahli tezlikni kelib chiqish sabablari:

1.Irsiy-asli ota- onadan o'tgan

2.Fiziologik-nerv sistemasining tipi, temperament

3.Psixologik-ota-onalar bilan bola o‘rtasidagi muomala

4.Ijtimoiy-jamiyatda o‘z o‘rnini topolmaslik ko'rinishlaridan biri bo‘lishi mumkin.

Shuningdek bolalar kattalarga taqlid qilishni yoqtiradilar. Oiladagi ota-onalarning doimiy janjalli hatti-harakatlari va bunday xulqqa bolalarning taqlid qilishi natijasida ular beixtiyor o‘sha jahlni o‘zlariga yuqtiradilar. Bolaga ota-ona muhabbatining berilmasligi ham bolada himoyasizlik tuyg‘usini shakllantiradi, atrofdagilarga nisbatan shafqatsizlikni paydo qiladi. Ota-ona tomonidan bolaning haqorat qilinishi va kamsitilishi boladagi jahli tezlikni keltirib chiqaruvchi omil bo'lib,bola shaxsi rivojlanishida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar tomonidan bolada ikki yo'ldan birini tanlash holatini tez-tez paydo qilinishi va bolaning qay tomonni tanlashda qiynalishi, agarda noto'g'ri qo‘yilgan qadam uchun jazo oladigan bo'lsa bunday holatlar bolada jahli tezlikni saqlanib qolishi hamda jahl kasallikka aylanib ketishi ehtimolini yuzaga keltirishi mumkin.Bunday holatda jahli tez bolaning ota-onasi bilan ishlash judayam muhim vazifadir. Bunday ota-onalar bilan ishlash juda murakkab,chunki jahldor bolasi bor ota-ona odatda unga nisbatan o‘zlariga adovat tuyg‘usini his qiladi va ular psixologga yordam uchun emas,balki uni tinchlantirib qo‘yish uchun murojaat qilishadi.Ularga qolsa bolani tinchlantiruvchi bitta dori bersalarda,bola birdaniga jahlidan tushib qolsa.Ular bilmaydilarki, boladagi jahlning ildizlari ularning turmush tarzlariga borib taqaladi. Aksariyat hollarda o'sha ota-onalarning o‘zlari yoshligida serjahl bo'lgan bo'lishadi.Ular o‘zlaridagi psixologik va emotsional holatlarini o'z farzandlariga uzatishadi. Shuning uchun ham ishni jahli tez bolaning ota-onasidan boshlamoq lozim. Bunday ota-onalar bilan ishlaganda ularning o'z-o'zini baholashiga salbiy ta'sir ko‘rsatib qo‘yishdan ehtiyot bo'lish kerak.

Birinchidan ular bilan ishlaganda ularning o`z-o`zini baholashiga salbiy ta`sir ko`rsatib qo`yishdan ehtiyot bo`lish kerak.(Siz o`z bolangizni yaxshi bilmaysiz, men sizga o`rgatib qo`yaman qabilidagi gaplar ularning shaxsiyatiga tegishi mumkin). Aksincha ularni o`z farzandlarini yanada bilishga chorlash lozim.

Ikkinchidan, ota-onaning bolaga bo`lgan munosabatini o`zgartirish zarur.Iloji boricha ota-onalarga o`z bolalariga nisbatan rahm-shafqat tuyg`usini uyg`otish kerak.Serjahl bola – bu avvalom bor baxtsiz bola ekanligini ularga uqtirish kerak.Ota-onalarga jahlning paydo bo`lish mexanizmini haqida tushunchalar berish zarur.

Uchinchidan, ota-onalarning o‘z bolaliklari haqidagi xotiralarini tinglash kerak. O‘zlarining ham qilgan jahlli xulq-atvorining sabablarini birgalikda muhokama qilish zarur. Ehtimol bu narsa bola bilan ota-onalar o‘rtasidagi muomalaning shaxsiy sabablarini ochishga yordam berar.

To`rtinchidan, ota-onaning bolaga tug`ilguncha va tug`ilgandan keyingi birinchi oylardagi munosabatini aniqlab olish zarur. Bunday holda ota-onalarning shaxsiyatiga tegmasdan bola ularning xatti-harakatlariga mos javob qaytarayotganligini tushuntirish zarur.

Serjahl xatti-harakatni yomon deb bo‘lmaydi.Kutilmagan vaziyatlarda u himoya vazifasini bajaradi, ba'zida ma'lum vaziyatdan chiqishga xizmat qiladi.Jahli tezlik bolalarda aksariyat hollarda kuzatiladi. Jahli tezlikni tahlil qilganda amerikalik psixolog E.Erikson tomonidan farqlangan 8 ta krizisni hisobga olish lozim. Bular quyidagilar: Birinchi krizis-bu bolaning birinchi yilida bo`lib, bola fiziologik ehtiyojlarining qondirilishi bilan bog`liq. Ikkinchi krizis bolani tozalikka o`rgatish paytiga to`g`ri keladi.Agar bolaga qat`iy tashqi nazorat o`rnatilsa,unda uyat va shubha paydo bo`ladi. Uchinchi krizis ikkinchi bolalik davriga to`gri keladi. Bunda bola mustaqil faoliyat ko`rsata boshlaydi. Agar uning omadsizligini hadeb ro`kach qilinsa,unda aybdorlik tuyg`usi shakllanadi. To`rtinchi krizis maktab yoshida sodir bo`ladi. Maktabdagi muhitga moslasha olmagan o`quvchida o`ziga ishonchsizlik paydo bo`ladi. Beshinchi krizis o`smirlarda kuzatiladi. Undagi biologik yetilish bilan sotsial jihatdan yetilmaganlik o`rtasidagi ziddiyat buni keltirib chiqaradi. Oltinchi krizis yosh yigit-qizlarda kuzatiladi. Bunda ayrim yoshlarda izolyatsiya ya`ni o`z-o`zini bo`lish kuzatiladi. Yettinchi krizis 40 yoshda kuzatiladi. Unda ham oilaviy munosabatlarda turg`unlik kuzatiladi.Sakkizinchi krizis qarilikda sodir bo`ladi. U o`limdan qo`rqish va yangidan hayot boshlay olmasligidan nadomat tuyg`usi bilan xarakterlanadi. Shu 8 ta krizisning har biridagi salbiy holatlar odamda jahlni chiqaradi va uning hulq-atvoriga ta`sir qiladi.

Bolalarda kuzatiladigan jahli tezlikni bartaraf etishda quyidagilarga ahamiyat berish lozim: Jahli tezlikni inkor qilish va atrofdagilarga unga e'tibor qilmasliklarini ta'kidlash; Jahldor harakatlarni o'yin ko‘rinishiga ko‘chirish va unga yangi ijtimoiy emotsional ma`no singdirish. Unda bolaning atrofdagilarga bilan bo‘ladigan muomalasiga zarar yetkazmasdan maqsadga erishish muvofiqdir. Jahl bilan qilinayotgan harakatlarni ta'qiqlash kerak (bolani jahl qilmaslikka o‘rgatish).

Tarbiyachi yoki psixolog o`yin ko`rinishida qo`rquv zamirida yotadigan jahlni bolaning o`ziga anglatish zarur. Bolaga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondoshish lozim.Uning ruhiyatiga zarar yetkazib qo‘yishdan saqlanish zarur.Zero, farzandlarimiz umrimizning davomchilari hisoblanadilar. Ularning ko‘zlari baxtdan porlasin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1.YE.I Rogov.Nastolnaya kniga prakticheskogo v obrazovanii. M.”Vlados”1996.
2.J.Golfura. Chto takoe psixologiya. Tom 2 M.”Mir” 1992.
3.E.G`oziyev. Umumiy psixologiya. Toshkent ”Universitet” 2006.

# O'QUVCHI-YOSHLARNI KASBGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Bozorova Moxigul Nizomiddinovna*
*Denov tumani 78-maktab psixologi*

Mustaqillikimiz sharofati bilan xalq ta`limi tizimida, chunonchi estetik ta`lim va tarbiyaga alohida e`tibor berila boshladi. Negaki ta`lim muassasalarida ta`lim olayotgan har bir yosh avlod dunyoqarashida estetik ruh, estetik didni shakllantirish, yoshlarni go`zallik, nafosat olamida tarbiyalash ertangi kunimizning, milliy boqiy an`analarimizning ustuvor vazifalaridan biri bo`lib qoldi. Yurtimiz tabiatini yanada yaxshilash uchun, vatanimiz qiyofasini go`zalligini ta`minlashda, kelajak avlodning estetik madaniyati, estetik didi yuqori o`rinni egallaydi. Estetik tarbiyani shakllantirish kunning dolzarb masalasiga aylangan, negaki estetik tarbiya shakllanmasdan turib inson go`zallikni anglay olmasligi yoki bo`lmasa go`zallikni qadriga yetmasligi mumkin. Xalqimiz orasida qadimda ma`lum bo`lgan estetik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o`rganishimiz, boy tariximizning go`zalligini anglashimiz, avaylab – asrab qadriga yetmog`imiz lozim. Kasb-hunar kolleji talabalarini o‘qitish jarayonida estetik tarbiyasini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Estetik tarbiyaning bosh maqsadini O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Jamiyatimiz hayotida hal etuvchi masalalar ichida ma‘lumot olishda tarbiya tizimini kardinal tarzida qayta qurish bo‘yicha qonun loyixalari yangi davr talabi darajasiga ko‘tarish imkoniyatlarini berish bilan birga garmonik rivojlanayotgan kelgusi avlodni tarbiyalashdan iboratdir» – deb bejiz ta‘kidlamagan. Bu o‘rinda shuni ta‘kidlash zarurki, kadrlar tayyorlash bo‘yicha Milliy Dasturimiz inson omiliga katta urg‘u beradi. Bundan maqsad va vazifalarni strategiyasidan boshlab, to yangi dasturni aniq va ravshan har tomonlama ta‘lim – tarbiya jarayoniga qaratilgan. Estetik idrok ham badiiy idrok singari nazariy va amaliy ahamiyatga molik tushunchadir. Negaki, estetik idrokni tadqiq etmay turib, badiiy ijod nazariyasining to‘laqonli tarzda anglab yetish hamda san‘atning ijtimoiy tabiatini ochib berish mumkin emas.

Estetik idrok masalasi to‘g‘ridan to‘g‘ri inson estetik tarbiyasiga dahldorligi bois inson va jamiyat, inson va davlat, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar rivojida sezilarli ta‘sirga ega.

Chunki, estetik idrokning o‘ziga xos xususiyati avallo, badiiy ijodning tabiatiga hamda san‘atning ijtimoiylik mohiyatiga ta‘sir ko‘rsatishi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, estetik idrok qonuniyatlarini tadqiq qilish san‘at va badiiy ijod mazmuni va mohiyatini to‘laqonli tarzda namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratadi. Bir so‘z bilan aytganda, estetik idrok mohiyatan insonni voqelikni badiiy obrazlar orqali o‘zlashtirilishi bilan namoyon bo‘la boradi.

Estetik idrokning shakllanishi jarayoni tadrijiylik asosida rivojlanib, ma‘lum bir kuzatuvlardan so‘ng yuzaga keladi. Holbuki, u hech bir davrda o‘z-o‘zidan tayyor holda shakllanib qolgan emas. Inson san‘at asarini estetik idrok etishi bilan bir paytda o‘zining ma‘naviy ehtiyojini ham qondirib boradi. Ana shu ehtiyoj pirovardida uning turmush tashvishlarini biroz bo‘lsa-da yengillashtirishga, hayotning murakkab

so'qmoqlaridan matonat bilan o'tib borishiga ko'mak beradi, yangiliklar yaratishga undaydi. Zero, estetik idroki tarbiyalangan inson Navoiyning
Xamsasidan bunyodkorlik tuyg'ularini, Qodiriyning O'tagan kunlaridan vafodorlikni, Cho'lpon she'riyatidan Vatanga bo'lgan muhabbatni, Abdulla Qahhor hikoyalaridan tubanlik, pastkashlik, tilyog'lamachilikka qarshi nafrat tuyg'ularini, Chustiy she'riyatidan bahoriy kayfiyatni his etib boradi.

Estetik idrok xususiyatlari to'g'risida gapirar ekanimiz, avvalo, badiiy asarni estetik idrok etishdagi bilish jarayonlarining o'ziga xosligiga e'tiborni qaratmog'imiz lozim bo'ladi. Bu esa o'z navbatida badiiy asarni idrok etish bilan ilmiy asarni idrok etish orasidagi farqni belgilab beradi. San'at asarini idrok etishning o'ziga xosligi shundaki, san'atkor o'z ijodiy faoliyatini amalga oshirish rejasini oldindan beldilab oladi, badiiy to'qimalar yordamida nomoddiy narsalarni moddiylashtiradi, ya'ni kitobxonni kutilmagan hodisalar bilan uchrashtiradi. Shunga ko'ra, san'at asarlarining vazifasi mohiyatan insonning estetik ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'ladi. Ana shu jihat bilan san'at asarini hissiy-aqliy idrok etish, ilmiy-nazariy asarni idrok qilishdan farq qiladi.

Zero, ilmiy asarni tushunish uchun o'quvchi avvalo, mazkur sohada doir bilimlardan xabardor bo'lmog'i lozim. Yo'qsa, bu asar uning uchun qiziqarsiz hamda tushunarsiz bo'lib qolaveradi. Badiiy asarning mohiyatining bilish yoki uning mazmunini o'zlashtirish uchun mazkur jarayonni maxsus o'rganishga ehtiyoj sezilmaydi. Negaki, insonning estetik idrok tabiatan ijodiy jarayonga yaqin bo'lib, bu holat inson kamolotining barcha pog'onalarida ishtirok qiladi. Kasb-hunar kolleji o`quvchilarida estetik tarbiyasini yani ularning dunyoqarashini shakllantirishda G`arb estetik talimotlarning o`rni juda muhim sanaladi. Masalan aytishimiz mumkin Hindiston xalq estetikasi xususan Mahobharot, Ramayana, Xorivanshu, Iliada va Odisseya kabi asarlarda insonning estetik dunyoqarashiga ta`sir ko`rsatadigan boy tarixiy obraz va hodisalarni ko`rish mumkin.

Estetik tarbiyaning hayotiy omillari faqat estetika, madaniyat, san'at, adabiyotdangina iborat emas. Ijtimoiy ong ko'rinishlari va estetik qarashlar bilan bir qatorda, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar, turmush va texnika, sport va milliy urf – odatlar ham nafosat tarbiyasining nihoyatda muhim omillaridandir. Estetik tarbiyada estetik idrokni to'la amalga oshirmay turib axloqiy, g'oyaviy – siyosiy tarbiya asosida rivojlangan barkamol shaxsni voyaga yetkazib bo'lmaydi. Estetik tarbiyaning asosiy ma'nosi va vazifasi kishilardan dunyo go'zalligi to'g'risida his- tuyg'ular, tassavur va idrokini tarbiyalash va takomillashtirish orqali inson shaxsning har tomonlama va uyg'un rivojlanishiga ko'maklashishidan iborat.

Hozirgi davrda jamiyatimizda milliy qadriyatlarimiz, inson huquqi va erki tiklangan, mamlakatimizning iqtisodiy kuch-quvvati namoyon bo'layotgan, ma’naviy-ahloqiy muhit sog`lomlashayotgan bir sharoitda har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo`lib qolmoqda. Barkamol shaxs deganda esa biz barcha ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy hislatlar majmuini o'zida mujassamlashtirgan, jamiyatda o'zligini va o‘z qobiliyatlarini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma’rifatli, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini his eta oladigan erkin

ijodkor shaxsni tushunamiz. Ana shunday shaxsni tarbiyalash uchun amalga oshirilayotgan bugungi kun uchun eng dolzarb vazifalardan biri – yoshlarimizni kasbga yo‘naltirish va ularga kasb tanlash asoslarini o'rgatishdan iboratdir. Ma’lumki, mustaqil hayot bo‘sag‘asidagi akademik litsey va maktablarning yuqori sinf o‘quvchilari ham o'zlarining kelgusi hayoti, jamiyatdagi o‘rni va egallamoqchi bo'lgan kasbi haqida tez-tez o'ylana boshlaydilar. Garchi kasb tanlash istagi bolalarda ancha ilgariroq tug'ilsada, aslida maktabning yuqori sinfida yoki akademik litseyda o'qiyotganlaridagina bu istak birmuncha barqarorlik va aniqlik kasb eta boshlaydi.

Hozirgi akademik litsey va maktablar bolalarni aniq bir kasb bo‘yicha mutaxassis qilib chiqarmasada, ammo ularda biror-bir kasbga nisbatan mehr uyg‘otishi, yigit-qizlarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishi, ularga o‘z kelgusi faoliyatlarini to‘g‘ri va aniqroq belgilashlarida yaqindan yordam berishi zarurdir. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan boshlab to hozirgi kungacha o'spirin yoshidagi o'quvchilarning kasbga yaroqliligini aniqlash va ularni mustaqil hayotga yaxshiroq tayyorlash masalasiga e’tibor borgan sayin kuchaytirilmoqda.

Ma’lumki, kasb tanlash - ancha murakkab, uzoq kelajakka qaratilgan, bolaning butun hayot mazmunini belgilashga yo`naltirilgan g'oyat mas’uliyatli ishdir. Bunda, kasb tanlash arafasidagi yigit va qizlar romantikasi va sharoit taqazosi tufayli, boshqacha qilib aytganda, ulardagi ichki va tashqi omillar tufayli keskin kurashlar sodir bo'ladi.

O`quvchilarning aksariyati yosh ekanligi va hayot tajribasining kamligi sababli ba’zan ikkilanadilar, kimningdir maslahatiga, o`gitiga ehtiyoj sezadilar. Shuning uchun ota-onalar, o‘qituvchilar, o‘quv muassasasi psixologlari bu davrda ularga yordam berishlari, bolalarning kelajakdagi ijtimoiy hayot yo'lini to`g`ri tanlashlariga ko'maklashishlari lozim. Bu borada o‘quv muassasasida faoliyat yuritayotgan psixolog va mas’ullarga olib borishlari lozim bo‘lgan ishlari yuzasidan quyidagi psixologik takliflarni berish maqsadga muvofiqdir:

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. N.Sa'dullayev «Go‘zallikning sirli olami» Toshkent 1993 yil 254 b.
2. E.Umarov «Estetika» darsligi Toshkent 1995 yil 306 b.

## O’QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO’NALTIRISH PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

*Xidirova Aziza Xalili qizi*
*Qarshi shahar 27-maktab psixologi*

Bugungi kunda o’quvchi - yoshlarni kasb-hunarga yo’naltirish masalalarining dolzarbligi ularning erkin, ongli kasb-hunar tanlashlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjudligi bilan izohlanadi. Bu shaxsning umumiy rivojlanish jarayonining muhim tomoni hisoblangan, “ongli kasb

tanlashga tayyorlik”, yoki “kasb-hunarga yo’nalganlik” tushunchalarini yanada mukammalroq tadqiq qilish kerakligini ko’rsatmoqda.

O’quvchi yoshlarni kasb hunarga yo’naltirish – ularni shaxsiy moyillik, layoqat, qiziqishlari asosida jamiyat talablariga mos holda ongli kasb tanlashga tayyorlash bo’yicha maqsadga yo’naltirilgan, integral xususiyatga ega ilmiy – amaliy faoliyatdir. Shu jihatdan o’quvchi yoshlarni kasb hunarga yo’naltirish jarayoni mazmunan psixologik mohiyatga ega bo’lib o’quvchining kasbiy o’zligini anglashi va ongli kasb tanlashi uchun xizmat qiladi. O’quvchining kasbiy o’zligini anglash jarayoni esa psixologik qonuniyatlar asosida kechadi.[2, 31 ,]

Kasbiy o’zlikni anglash, kasb – hunarga yo’naltirish jarayonining tarkibiga singib ketgan komponent sifatida, maqsadga yo’naltiruvchi, kuchaytiruvchi, korreksiya qiluvchi, ya’ni uning xususiyatini belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

O’quvchining ongli kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillar – uning individual – tipologik xususiyatlari yoki ichki imkoniyat va ehtiyojlari hisoblanadi. Bundan tashqari, uquvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishda kasbiy o’zlikni anglashning namoyonligi – ichki pozitsiyaning shakllanish qonuniyatiga ham asoslanish lozim. Ichki pozitsiya o’z-o’zidan emas, balki shaxsning tashqi muhit bilan uzluksiz aloqada bo’lishi va tashqi muhitning unga ta’sir etish jarayonida shakllanadi. Mana shu ikki tomonlama ta’sir hamda ijtimoiy munosabatlar jarayonida inson o’zligini izlaydi va shu “izlanish” oqibatida o’zligini anglaydi.[2, 32 ,]

Bilish psixik jarayonlari, psixik holatlar va individual-tipologik xususiyatlar ham o’quvchi ichki pozitsiyasining shakllanishiga ta’sir qiluvchi psixologik omillar hisoblanadi. Kasb hunarga yo’naltirish jarayonida bu omillarning hisobga olinishi, o’quvchilarda ijobiy kasbiy motivatsiyani shakllantirish imkonini beradi. Shu o’rinda ta’kidlash kerakki, maqsadga yo’naltirilmagan kasbiy motivatsiya shaxsiy kasbiy rejani belgilash va mustaqil qarorga kelishda o’quvchi uchun qiyinchilik tug’diradi.

Bugungi kunda o’quvchilar kasb tanlash jarayonida quyidagi motivlarga tayanadi.

- o’zi uchun hurmatli bo’lgan yoki idealidagi kishining kasbini tanlash;
- ota-onasining xohishi bilan;
- tanlagan kasbidan moddiy manfaat kutib;
- kasbning nufuzliligi uchun;
- hayotiy vaziyatlar sabab qiziqish uyg’onishi;
- ota-onasining kasbini davom ettrimoqchi;
- aka-opasining izidan bormoqchi;
- do’stlariga ergashmoqchi;
- shu kasbga keyinchalik o’zi qiziqib qolgan.

Kasb tanlash motivlari ichida eng ko’p uchraydigani ota-onasining xohishi bilan kasb tanlash motividir. Kasb tanlayotgan o’quvchi yoshlar tanlayotgan sohani qiziqishlari va tabiiy layoqatiga qarab tanlashlari lozim. Agar ota-onanning xohish istaklari farzandning qiziqishi va tabiiy layoqatiga mos bo’lsa egallanishi lozim bo’lgan kasb sifat darajasida o’zlashtiriladi. Shu bois ota-onalar farzandning qiziqish va tabiiy layoqatini hisobga olmasdan o’zlarining xohishiga ko’ra kasb tanlashga yo’naltirishga urinmasligi lozim. Bu xuddi olma daraxtining ko’chatini yerga qadagan bog’bonning

keyinchalik undan shaftoli hosilini olishga urinayotganiga o'xshaydi. Bunday tanlov aks natijani keltirib chiqaradi.[1, 5-7 b]

Shu bois kasb hunarga yo'naltirish ishlarining asosiy maqsadi – o'quvchilarning kasb-hunar tanlashlarini ilmiy asoslarda, pedagogik-psixologik talablarga muvofiq ravishda tashkil qilish va bu jarayonning uzluksizligini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak.

O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish sohasidagi asosiy amaliy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- o'quvchilarni kasb-hunarlar bilan tanishtirib borish;
- o'quvchilarning kasblar bo'yicha moyilliklarini o'rganib, aniqlab, tegishli tahlillarni amalga oshirib borish;
- har bir o'quvchining qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyati, jismoniy imkoniyatlariga muvofiq kasb-hunar tanlashiga pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish;
- kasbga yo'naltirish va kasb tanlash masalalari bo'yicha o'quvchilarga va ota-onalarga zarur maslahatlar berib borish;
- yuqori sinf o'quvchilariga o'zlarining kelajakdagi kasblarini ongli ravishda tanlashlariga yordam berish;
- o'quvchilarning kelgusidagi o'z kasblarini ongli tanlashlari uchun psixologik tayyorliklarini shakllantirish va shu kabilar. [4, 6-8 b]

Kasbga yo'naltirish ishlarining asosiy mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'quvchilarning o'z kelajaklari to'g'risidagi xohish va umkoniyatlarini anglashlari; o'z qobiliyatlari, qiziqishlari, intellektual va shaxsiy xususiyatlarini tadqiq qilishlari; kasb tanlashning asosiy tamoyillari bilan tanishishlari; zamonaviy mehnat bozori xususiyatlari bilan tanishishlari; o'z imkoniyatlarini tanlayotgan kasb talablari bilan taqqoslashlariga yordam berish; kasbiy maqsadlarga erishishdagi qiyinchiliklarni anglash va ularni yengish yo'llarini topishda yordam berish; diagnostik ma'lumotlar asosida individual ta'lim olish rejasi yoki o'z-o'zini rivojlantirish dasturini tuzish va boshqalar.

Kasbga yo'naltirish ishlari maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari, amaliyotchi psixolog, kasb-hunarga yo'naltiruvchi texnologiya fani o'qituvchisi hamda fanlar o'qituvchilari tomonidan ota-onalar, mahallalar va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.Jo'raboyev K. "O'quvchi – yoshlarni kasb – hunarga yo'naltirish bo'yicha psixologik – pedagogik o'yinlar, mashqlar va metodikalar" Uslubiy qo'llanma. "KOMRON PRESS" Toshkent 2017 yil 5-7 betlar.

2. Soatov.A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2020 yil 31-32 betlar.

3. Soatov.A.J. Pedagogika-psixologiya ixtisosligi talabalarida psixologik maslahat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. UzACADEMIYA ilmiy-uslubiy jurnal 2 jild. Avgust 2020. 489-496 betlar.

4. "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda qo'llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari" Uslubiy qo'llanma Toshkent 2006 yil 6-8 betlar.

# ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA SOXALARI VA ULARNING O'ZIGA XOSLIGI

*Tilovoldiyev Rasuljon Raxmonali o'g'li*
*Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar 28-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi zamon psixologiyasi sohalari, psixologiya fani sohalarining yutuqlari va psixologiya fani sohalarining yutuqlari to'liq yoritilgan.
**Kalit so'zlar:** psixologiya, satsialogiya, sezgi, idrok, bilish jarayonlari.

Hozirgi davrda psixologiyaning nazariy va amaliy yutuqlari atrof-muhitga hamda jamiyatning juda keng sohalarida tatbiq qilinmoqda. Psixologiya fanini muayyan sohalarga bo'lishda aniq, yaqqol faoliyatning psixologik tomoni, insonning jamiyatga nisbatan psixologik munosabati va taraqqiyotining psixologik jabhasi asos qilib olingan. Psixologiyaning 300 dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda uning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi. Quyida psixologiya sohalarining tavsifiga biroz to'xtalib o'tamiz. Umumiy psixologiya — bu umumiy psixologik qonuniyatlarni mexanizmlar, murakkab ichki bog'lanishlar, nazariy va metodologik prinsiplar, ilmiy-tadqiqot metod- lari, psixikaning filo va ontogenetik o'zgarishlari, ilmiy tushuncha va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiq qiladigan soha. Umumiy psixologiya degan nom ham boshqa sohalarda bo'lgani kabi shartli ravishda qabul qilingan. Psixologiya fanining ilmiy tushunchalari, kategoriyalari(shaxs, motivatsiya, faoliyat, muomala, ong)ni, tadqiqot metodlarini umumiy psixologiyada umumlashtirish uchun uning boshqa sohalardagi tekshirish natijalarini mavhumlashtirish lozim. Aytish joizki, umumiy psixologiyaning tadqiqot natijalari psixologiyaning boshqa sohalari uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy psixologiya fani asosiy kategoriyalar, tushunchalar, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, individual-tipologik xususiyatlarni: 1. Psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va boshqalarni. 2. Irodaviy jarayonlar: motiv, motivatsiya, ehtiyojlar, intilishlar, qaror qabul qilish kabilarni. 3. Hissiy jarayonlar: his-tuyg'ular, emotsiya, kayfiyat, emotsional ton, stress (zo'riqish), affekt (jazava) singarilarni o'z ichiga oladi.

Psixologiya fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish asosiy rol o'ynagan. XIX asrning o'rtalarida psixologik hodisalar yuzasidan ilk bor amaliy eksperimental psixologik tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu fiziologik laboratoriyalarda elementar funksiyalarni o'rganish ilk bor sezgi va idrokni o'rganish bilan boshlangan. Bu tadqiqotlar eksperimental psixologiyaning falsafa va fiziologiyadan ayrim holda mustaqil, alohida fan sifatida vujudga kelishiga muhim asos va obyektiv shart-sharoit yaratib bergan. Eksperimental psixologiya fan sifatida ajralib chiqishiga V.Vundt o'zining katta hissasini qo'shgan. 0'zini o'zi kuzatish metodi yordami bilan ilk eksperimental tadqiqotlar insonning ichki funksiyalarini o'rganishga

qaratilgan edi. Keyinchalik eksperimentlar turli hayvonlarda oʻtkazila boshlangan. Tadqiqotlarning koʻpchiligi T.L.Morgan, E.L.Torndayklar tomonidan olib borilgan edi. Eksperimental tadqiqotlar orqali faqat psixik funksiyalargina emas, balki hissiyotlarning individual variantlari ham tekshirilgan. Demak, eksperimental psixologiyaning tadqiqotlari psixologiya sohalarining nazariyasiga ham asos boʻlib xizmat qiladi.

Mehnat psixologiyasi — insonning mehnatga munosabati, mehnat faoliyatining qonuniyatlari va rivojlanishini tadqiq qiladi.

Aviatsiya psixologiyasi — aviasanoat va aviaxizmatchilarning mehnat faoliyatida kechuvchi psixologik jarayonlarni oʻrganadi.

Muhandislik psixologiyasi — inson va mashina oʻrtasidagi munosabatni, insonga mashinaning psixologik ta’sirini oʻrganuvchi psixologiya sohasidir. Kosmik psixologiya — vaznsizlik va boʻshliqda aniq moʻljal ololmaslik sharoitida, organizmga juda koʻp ortiqcha taassurotlar ta’sir oʻtkazgan paytda roʻy beradigan nerv-psixologik zoʻriqish bilan bogʻliq boʻlgan alohida holatlar tugʻilganda, kishi faoliyatining psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasidir  Ekstremal psixologiya — bu insonning muhit oʻzgar- gan shart-sharoitlarda psixik faoliyatining kechishi qonuniyatlarini oʻrganadi.

Pedagogik psixologiya — ta’lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasidir. Pedagogik psixologiya shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy, ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini oʻrganadi.

Pedagogik psixologiyaning maqsadi — oʻqitishning oqilona rivojlantiruvchi ta’sirini, shartsharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda kuchaytirishdir. Pedagogik psixologiya XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy taraqqiyotning ta’sirida vujudga kelgan.

Tibbiyot psixologiyasi — kasallarning davolanishi, gigiyena, profilaktika, diagnostika jabhalarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohalaridan iborat. Tibbiyot psixologiyasida tadqiqotlar tizimiga kasallikning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta’siri qonuniyatlari, insonning kasaldan sogʻayishiga mikrosotsial guruhning ta’siri oʻrganiladi.

Yuridik psixologiya — huquq doirasidagi munosabatlar, odamlarning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini oʻrganuvchi sohadir. U quyidagi sohalarga bo’linadi:

* sud psixologiyasi
* kriminal psixologiya
* penitensiar

Harbiy psixologiya – kishining harbiy harakatlar sharoitidagi xulq-atvorini, boshliqlar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning psixologik jihatlarini o’rganadi.

Sport psixologiyasi — sport musobaqalari va mashq qilish faoliyatida inson psixikasining rivojlanishi, guruhiy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

Ijod psixologiyasi — badiiy qadriyatlarni oʻzlashtirishda, ularning yangi koʻrinishlarini ijod qilishda va shu qadriyatlarni inson tomonidan idrok qilishda

kechadigan psixologik holatlar hamda bu holatlarning shaxs hayoti, faoliyatiga ta’sirini o’rganuvchi psixologiya sohasidir.

Yosh psixologiyasi — shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug’ilganidan to umrining oxirigacha bo‘lgan davrni, ya’ni ontogenezni o’rganadigan psixologiya sohasidir. Psixologiya va yana quydagi sohalardan iboratdir. Odam psixologiyani o‘rganar ekan, avvalo o‘z aql- idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e’tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o‘z aql-idrokining ko‘proq o'sishiga yordam beradi.

Psixik hayot hodisalari haqidagi ilmiy bilimlarni egallash shaxs dunyoqarashining shakllanishida katta ahamiyatga egadir. Psixologiyani bilish, psixikani chinakamiga ilmiy asosda tushunish kishilar ongidagi har xil diniy taassub va xurofotlarga qarshi kurashda juda kuchli qurol bo‘lib xizmat qiladi. Odam psixologiyani o‘rganar ekan, o'zidagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini bila oladigan bo‘lib qoladi. Bu bilim esa boshqa kishilarni va o‘zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Psixologiyaning bilish, ma’lumot olish ahamiyati shulardan iboratdir. Shu bilan birga psixologiya fani kishilar amaliy faoliyatining har xil turlarida — ta’lim-tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, tibbiyot, sud-huquqshunoslik, harbiy-mudofaa, san’at va boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga egadir. Pedagogik faoliyatga, ya’ni yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashda psixologiyaning ahamiyati, ayniqsa, katta. Pedagog o‘quvchilarga biron materialni tushuntirar ekan, shu materialni bolalar qanday o'zlashtirayotganini — ko‘ruvchilar qanday idrok etayotganini, eslab qolayotganini, fikrlayotganini, ularda diqqat-e’tibor, hissiyot qanday namoyon bo‘layotganini, bolalarning yosh xususiyatlariga qarab bu jarayonlar qanday ro‘y berayotganini bilish lozim. Shu sababli, biz kabi yosh pedagoglar psixologiya fanini chuqur o’rganishimiz zarur. Umuman, psixologiyaning har bir sohasi insonlar hayotida katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, psixologiya fani bir qancha fanlar bilan yaqin aloqada, jumladan falsafa, pedagogika, tabiatshunoslik, shuningdek barcha tabiiy-ijtimoiy fanlar bilan ham bog'liq. Psixologiya, bir tomondan, falsafa, ikkinchi tomondan, tabiiy fanlar, uchinchi tomondan esa ijtimoiy fanlar o'rtasida joylashgan oraliq mavqega ega bo'lgan fandir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**


1. Umumiy Psixologiya Xaydarova, Xalilova
2. Ijtimoiy pedagogika (Nodira Egamberdiyeva)
3. Rivojlantirish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Nishanova Z.T.Kamilova


## O’QUVCHILAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGLARNING O’RNI


*Mahmudov Sobirjon Zokirjon o’g’li*
*Namangan viloyati Chust tumani 25-maktab psixologi*


Tafakkur faol maqsadga yo`naltirilgan faoliyat bo`lib, unda mavjud va yangi (kelayotgan) ma’lumotlarini qayta ishlab, undagi asosiy va ikkinchi darajali

elementlarini aniqlab, ular orasidagi aloqadorlikni, qonuniyatlarni aniqlovchi bilish jarayonidir.

Tafakkur voqyelikni umumlashgan holda aks ettirish jarayoni bo`lsada, uning fikrlash jarayonida mahsuldorligi har xil bo`ladi.

Tafakkur nazariyasini S.L.Rubinshteyn (1889-1960) yaratib muammoga faoliyatli yondashuvni taklif qildi.

Ma’lumki, tafakkur jarayoni ta’limni o‘zlashtirishning asosini tashkil etadi. Bog‘cha yoshi bolalarida tafakkur, nutq taraqqiyoti va bolaning bilim boyligi, tajribasining oshishi juda ko‘p erkin, mustaqil va faol harakat qilib borishi natijasida takomillashib boradi. Bola tafakkuri faoliyat asosida atrofdagi narsa va hodisalarga qiziqish jarayonida, savollarning ko‘plab paydo bo‘lishi asosida, avval idrok qilingan narsalarga tayanish orqali takomillashadi. Bu esa bolada faqat harakatli va yaqqol – obrazli tafakkurni emas, balki mavxum tafakkurni shakllanishi uchun imkoniyat hisoblanadi. Bolalarda narsa va hodisalarning eng asosiy xususiyatlarini ajrata olish, ular orasidagi bog‘lanish va munosabatlarni ajratish, ularni fikran analiz- sintez qilish, solishtirib o‘xshash va farq tomonlarini ajratish; umumlashtirish; xukm va xulosalar chiqarish kabi aqliy jarayonlari shakllanib boradi.

Sof psixologik ma’noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o‘zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob’ektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma’lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o‘rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o‘zgartirishga aloqador kategoriyadir. O’quvchilarning bilish faolligini oshirish uchun taqqoslash katta ahamiyatga ega. Bu umumlashtiruvchi tafakkur uchun katta samaraga ega. Shu sabbabli “farqni top” tipidagi topshiriqlar keng qo’llanilishi lozim.

Muammoli ta’limining mohiyati quyidagichadir. O’quvchi oldiga bilishga oid muammo qo’yiladi, so’ngra o’quvchilar muammoni hal qilish yo’llari (usullari) tadqiq qiladilar. Ular gepoteza tuzadilar, uning haqiqiyligin tekshirish usullarini belgilab chiqadilar va muhokama qiladilar, dalil-isbotlar keltiradilar, tajribalar, kuzatishlar o’tkazadilar, ularning natijalarini tahlil qiladilar, mulohaza yuritadilar va isbotlaydilar. Bunda o’qituvchi dirijyorlik rolini bajarishi lozim. O’quvchilarning biror bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etilishi,o’zlari harakat qilib topishi lozim,negaki o’quvchi qanchalik ko’p izlansa shuncha unga yangi fikrlar,yangi goyalar kela boshlaydi.Bunda albatta o’quvchining tafakkuri rivojlanadi.

Muammoning yangiligi esa uning yechimida ijodiy fikrlashlar, muammo yechimida mantiqiy tahlilni talab qiladi. Bu jarayonda umumlashgan mantiiqiy fikrlash bilan birga ichki (intuitiv) fikr yuritish juda muhimdir. Bu jarayonlar aniq va mavhum vazifalarda, konkret vazifa, predmet va modellarni tahlil qilganda, narsa-hodisalarning noaniq tomonlarini izlashda intuitiv tarzda yuzaga keladi.

Faol, mahsuldor tafakkur natijasida psixologik yangiliklar paydo bo`ladi–yangi aloqa tizimi, o`z-o`zini boshqarishning yangi shakllari, shaxs xususiyatlari va boshqalar insonning aqliy rivojlanishiga olib keladi. O`quvchining maxsuldor faol tafakkuri, unga yangi muammolarni mustaqil yechish, bilmlarni chuqur va tez egallashiga olib keladi.

Tafakkur uchun esda qolganlarini qayta tiklash o`quvchining o`quv faoliyatida muhim rol o`ynaydi. Bu o`quvchiga yangi materialni yaxshi o`zlashtirishga hamda bilim va ko`nikmalarni amaliyotga tadbiq etishga yordam beradi.

Insonning faol, mahsuldir (produktiv) tafakkuri hamda qayta yodga olish, xotirani tiklash (repduktiv-tafakkurni qayta tiklash) orqali ob'ektiv borliqni bilishida muhim rol o`ynaydi. Chunki inson borliqni bilish, anglash, idrok etish jarayonida o`zidagi mavjud bilimlarga suyanadi, yangi muammolarni yechishda esa eski mavjud bilimlar kamlik qiladi, natijada u o`z tafakkurini faollashtirib, yangiliklarni ochadi, uning yangi aloqalarini o`rnatadi va bu yo`l kelajakda ham o`xshash muammolar yechimida unga asqotadi.

Muammoning qo`yilishi o`quvchilarning mavjud bilimlari, qo`yilayotgan vazifaning qay darajada tez bajarilishi hamda o`quvchilarning mustaqil bajarish yo`llari bilan tanishtirilganliklariga bog`liq. Shuni esda saqlash kerakki, mavjud bilim-ko`nikmalar muammo yechimiga asos bo`lishi mumkin, lekin o`quvchilarni muammo yechimiga yo`naltirish, unga aytib berish, ko`rsatib berish mutlaqo mumkin emas.

Muammoli vaziyatlarni tashkillashtirishda mavjud bilimlar bilan yangi muammo o`rtasidagi hamda qaramaqarshiliklar, konfliktli vaziyatlar muhim rol o`ynaydi.

Yangi muammo-vazifalar o`quvchini noaniqlika olib keladi, bunda xatolarga yo`l qo`yilishi mumkin. Bu xato-kamchiliklarni o`qituvchi o`quvchiga o`z vaqtida sabablari, chiqib ketish yo`llarini ko`rsatib bersa, xech qanday xavf tug`dirmaydi.

O`qituvchi muammoni shunday qo`yishi kerakki, o`quvchilar mavjud bilim-ko`nikmalari yetishmayotganini sezsin va mustaqil uning yechimini topishga harakat qilsin, o`z bilimidagi kamchiliklarni bilib olsin.

O'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularga ko'proq ozlari muammo yoki masalalarni yechishiga imkoniyat yaratib berishimiz lozim.Bu o'quvchi ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur — bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Hozirgi kunda maktablarimizda ananaviy talimdan ko'ra interfaol usullardan foydalanish ancha rivojlandi malumki interfaol metodlardan dars jarayonida foydalanish dars jarayonida o'quvchini rolini o'shiradi.Bu albatta bolaning tafakkurini rivojlanishiga ijobiy tasirini ko'rsatmay qo'ymaydi.

# ПЛЮСЫ И МИНУСЫ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОЦИАЛИЗАЦИИ МОЛОДЕЖИ

*Ашуров Нодирбек Алишер ўғли*
*Ташкентский Государственный Педагогический университет имени Низами, 2 курс*

Для начало уточним, что такое вообще социализация?

Социализация – процесс интеграции личности в социальную систему, вхождение в социальную среду через овладение ее социальными нормами, правилами и ценностями, знаниями, навыками, позволяющими ей успешно функционировать в обществе. Процесс социализации личности протекает на протяжении всей жизни человека, поскольку окружающий мир, пребывая в постоянном движении, изменяется, и нам тоже необходимо меняться для более комфортного пребывания в новых условиях. Первичная социализация, начинающаяся от рождения ребенка до формирования зрелой личности, очень важна для ребенка, так как она является основой для всего остального процесса социализации. Наибольшее значение в первичной социализации имеет семья, формирующая у ребенка представления об обществе, о его ценностях и нормах. Далее основой социализации становится школа, где дети учатся действовать в соответствии с новыми правилами и в новой обстановке. Подростковый возраст – также важный социальный этап в общем цикле жизни каждого отдельного индивида, поскольку на протяжении этого этапа происходит наибольшее число физиологических изменений и становление личности. Возраст молодых 16-летних людей считается наиболее опасным и напряженным – теперь каждый индивид самостоятельно и сознательно решает для себя, в какое общество ему вступить, и избрать для себя наиболее подходящее социальное общество, в котором он будет достаточно длительное время пребывать. Что же оказывает наибольшее влияние на выбор молодого человека сегодня? Процесс социализации поколений развивается по-разному под воздействием новых политических, экономических и социокультурных условий.

Наш XXI век – век информации. Почти в каждой семье есть компьютер, IT-технологии развиваются стремительно. Это обстоятельство также самым существенным образом влияет на социализацию современной молодежи. Сегодня семья отходит на второй план, подростки предпочитают общаться с себе подобными. И не в социуме, школе, улице – а в виртуальном мире. Интернет занимает ведущую позицию в современном информационно-коммуникационном пространстве, обеспечивая доступ человека к медиа и информационным ресурсам различного типа и вида. Да, глобальная сеть – это огромный плюс: – здесь легко окунуться в мир, в который, возможно, ты никогда не попадешь реально – побывать в Диснейленде, у кратера вулкана или знаменитого небоскреба; – найти за доли секунд информацию (книгу, статью, изображение, мелодию), поиск которой без Интернета раньше занял бы месяцы; – пройти дистанционное обучение в режиме онлайн-курсов и во время, удобное пользователю; – Интернет

позволяет не быть привязанным к офису – можно работать удаленно в любом месте Земли, кроме того, мы обязаны Интернету появлением новых профессий (IT-специалисты, логисты, руководители IT-проектов, инженеры и специалисты по нанотехнологиям и т. д.); – многочисленные социальные сети ждут своих подписчиков для общения, а тысячи форумов, блогов, чатов, интернет-магазинов, сайтов с фото, музыкой и видео готовы провести с тобой неограниченное время. Можно сделать вывод, что информационные технологии делают молодежь более мобильной и коммуникабельной, быстро реагирующей на изменения, происходящие в окружающей среде.

Однако виртуальный мир отодвигает на второй план классические институты социализации – семью, школу, реальных друзей и сверстников. Укажем минусы информационных технологий: – найденный с помощью поисковых систем некий информационный ресурс часто используется школьником как готовый проект, реферат, доклад, решение. То есть обработка информации, и формирование аналитических навыков отсутствуют, что не способствует повышению эффективности обучения; – непосредственное живое общение учителя и школьников, учащихся между собой заменяется на «диалог с компьютером». Это приводит к тому, что обучаемый, активно пользующийся живой речью, надолго замолкает при работе со средствами ИКТ. Орган объективизации мышления человека – речь оказывается выключенным, обездвиженным в течение многих лет обучения. Подросток не получает достаточной практики диалогического общения, формирования и формулирования мысли на ясном литературном языке. – общение в соцсетях для молодых является самым важным, и именно на это они тратят все свое свободное время. О чем оно? Думаете, о чем-то важном? Переписка содержит бытовые проблемы, пустую болтовню или сплетни. В сети легко найти новые знакомства, но какими они будут – полезными или опасными? Часто виртуальные друзья знают о подростке больше, чем родители. У человека, коммуницирующего преимущественно в социальных сетях, затрудняется установление и воспроизведение реальных взаимодействий, понимание социального устройства и нюансов взаимоотношений; – самая большая зависимость человека сегодня – это Интернет-зависимость (кибермания, игромания, киномания, интернетмания, мания социальных сетей), считающаяся психологами психическим заболеванием, не менее опасным, чем алкоголизм и наркомания. Также дети и подростки, проводящие много времени за компьютером, чрезмерно возбудимы, у них развивается агрессия, фобии, выйдя из компьютерного зазеркалья, они с трудом ориентируются в реальном мире – на деструктивную трансформацию семейных ценностей большое влияние оказывают нравственные установки, поведенческая и художественная модели молодежных субкультур, пространство интернет-среды, СМИ, реклама, массовая художественная культура, насаждающие в обществе культ насилия, жестокости, искажающие моральные устои и порождающие ситуацию вседозволенности. Итак, сегодня молодежь перебывает в одновременно сложной и в то же время выгодной ситуации относительно своего процесса социализации. Новейшие IT-технологии дают возможность освоить новые

области знаний, которые, например, были закрыты или недоступны в прошлом. Вместе с тем не следует забывать о негативном влиянии интернета и компьютерных технологий. Социальные сети, будучи прогрессом для общества в целом, стали регрессом для межличностного общения между людьми. Таким образом, прогресс и технологии должны быть лишь инструментом для достижения цели становления духовной личности, формирования системы ценностных ориентаций молодого человека.

Подведя итог можно сказать, IT технологии в настоящее время в среди 1-мест среди сфер на данный момент. И прогнозируется, что она станет самой требуемой сферой и профессий в ближайшее 10 лет. Информационные технологии пойдут на плюс тогда, когда им будет пользовано правильно. Думаю в нашей стране по этой работе всё видеться правильные работы. Примером может служить, строительства IT парков, IT-academy не только в столице, но и в других городах нашей стране. И в ближайшее время, будут результаты этих работ конечно в пользу.!

## ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA SOXASIDA PSIXODRAMMA TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI

*Tilavoldiyeva Gulnoza Raxmonali qizi*
*O’sh DU psixologiya yo’nalishi 1-kurs talabasi*

Bugunmi kunda insonlar psixologiyasini o'rganish ularni taxli qilish va amaliy hizmat ko'rsatish keng yo'lga qo'yilmoqda buni esa zamonning o'zi talab etmoqda. Shundan kelib chiqib bugun chet el mamlakatlarida psixodrammani (guruhiy terapevtik davolash) qo'llash yaxshi samarabormoqda. Bizning mamlakatimizda bu soxaga unchaki katta axamiyat qaratilmagan. Shuning uchun ham biz birmuncha yangi bolgan psixodramma haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Klassik psixodramma –bu guruhiy terapevtik jarayon bo`lib unda mijozni ichki dunyosini o`rganish maqsadida dramatic improvizatsiya usuli qo`llaniladi. Psixodramma aslida dramatic san`atning shunday bir turiki,unda hayotiy soxa obrazlari yaratilmaydi mijozning haqiqiy muammolari aks ettiriladi.Psixodramma ananaviy teatrning yaxlit harakterga undash ishtirokchilarni bexos o`z-o`zidan yuz beradigan xulqi bilan almashtiriladi.Shuni takidlash lozimki, aynan psixodramma shaxs muammolari ,orzu,qo`rquv va hayollarini o`rganish uchun ishlab chiqilgan guruhiy psixoterapevtik ilk metoddir.

Ushbu metod quydagi taxminga asoslanadi:vertamizatsiyani qo`llashdan ko`ra xissiyot yani muhabbat yoki xulq ko`rinishlarini o`rnatganda ularni tadbiq etish uchun real hayotga yaqin bo`lgan harakatlar qo`llanilsa maqsadga muofiqdir.Bu borada psixodramma tana terapiyani metodlarini eslatadi.extimol so`z yordamida 5 daqiqali fikr almashinuvi yarim soatli faol tatqiqot traniformatsiya qilish uchun psixodramma guruxda olib borish imkoniyatini beradi.Xissiyot va emotsiyani ifodasini yengillashtiruvchi turli psixodramatik usullardan foydalanilsa kechinmalarning

modellashishi ortadi.Psixodramma yaratilishi va rivojlanishida sotsiometriya asoschisi Yakov Levi Moreno(1892-1974) tatqiqotlari bilan bog`liq.Ayrim psixologlar uni guruhiy terapiyani harakatini asoschisi ham deb xisoblaydilar. Moreno Buxarestda tug`ilib keyin oilasi bilan Avetrilga ko`chib borib,u yerda falsafa va tibbiyotni o`rganadi.O`qish davrida u tomonidan Vena shaxrining yolg`iz foxishalari uchun o`z-o`ziga yordam ko`rsatish guruhlarini tashkil etish bo`yicha loyixa yaratildi.Shu paytdan Moreno fikricha guruxiy psixoterapiya harakati boshlandi.Moreno o`z diqqatini guruh ichi dinamik omillariga qaratdi. Ushbu omillar ayollarga o`z shaxsiy maqsadlarini aniqlashga yordam beruvchi vosita bo`ldi. Moreno takidlashicha ushbu guruxiy mashqlar guruhiy psixoterapiyani 4ta ustuni sanalgan asosiy elementlarni yoritib berdi ,guruhning avtonomligi ,malum guruh tuzum mavjudligi,jamoaviylik,muammosi va anonimlik.

1916-yili Moreno o`zining ikkinchi loyixasi ustida shug`illana boshladi,unda o`z yashash joylarini majbur qilingan italiyan dexqonlarini yangi sharoitga moslashishlariga yordam ko`rsatish maqsad qilib qo`yilgan edi.Ushbu loyixalar natijasida olingan malumotlar asosida psixodramma va guruhiy psixoterapiyani asosini solgan guruxiy sotsiametriya metodikasi Moreno tomonidan ishlab chiqarilgan. Moreno fikricha psixodramma davolovchi metod sifarida qo`llanmasi unga bir aktirisa bilan uchrashuvdan so`ng keldi bu ayol Morenoga o`z kiyovi bilan kelib chiqqan nizolarni gapirib berdi.Teatr truppasi yordamida Moreno aktrisa hikoyasini saxnada ko`rsatib bergan.Ushbu tajriba ushbu juftlik uchun hamda truppaning hamma a`zolari uchun axamiyatli va foydali bo`ldi.Keyin Moreno shu kabi guruhiy tasavvurlarni yanada rasmiylashgan eksperimentlarga o`tdi.U ishlab chiqqan usullar keyinchalik psixodramatik yondashuvni muhim qismiga aylandi.

1925-yili Moreno AQShga ko`chib o`tib Nyu-york shaxridagi Tlemus institutida bolalar bilan ishlab psixodramatik yondashuvni rivojlantirish ishini davom ettirdi.Shu bilan bir paytda u Nyu-york davlat qamoqxona maxbuslari bilan xuquqbuzar bolalarni o`rganib turib sotsiometrik taxlilni metodikalar ustida ishladi. Guruh hamkorlik yo`li bilan olib borilgan terapiya tatqiqot natijalarida sotsiogramma tuzildi. 1929-yili Moreno Karnegi havaskor truppasida psixodramma yirik ochiq dasturini amalga oshirishga harakat qildi.

Psixodramma odamlarda o`yinga bo`lgan tabiiy qobiliyatni tan olib shunday sharoit yaratadiki,unda individual rol bajarib o`z shaxsiy muammo va nizolarini ijodiy ochib beradilar va o`zlari hal etadilar. Moreno psixodrammani passiv psixoanalizga qarama –qarshi qo`ygan. U psixodramma ham real,ham noreal hayotiy rollar bilan faol eksperiment qo`yish imkoniyatini yaratilishiga to`liq ishongan. Gumanist Moreno fikricha “Xuda “rolini ijro etgan odam o`z hissiyotlarini to`liq o`rganib o`z-o`zini aktuallizatsiyalashga yordam beradi. Moreno takidlashicha ,ko`plab insonlar real hayotda aktiyorlar kabi rol o`ynaydilar. Ularda tabiiylik yo`q,ular manashu marosimlarni bajarishga intiladi va atrofdagilar taklif etgan rollar bilan chegaralanadilar. Masalan ayrim insonlar xursandchilikda ham, qayg`uda ham bir hilda jilmayib yuradilar,ularning haqiqiy emotsional kechinmalarini boshqalar muxokama etishidan qochadilar. Psixodramma senariy bilan belgilangan barqaror xulq modellarini yengib o`tish imkoniyatini beradi.

Senariy - bu qadimdan rivojlanish dasturi,bu dastur ilk bolalikda ota-ona dasturida ishlab chiqib individuallikni muhim hayotiy xulqini belgilaydi. Ananaviy teatrdan farqli o`laroq psixodramma ishtirokchilar uchun real va muhim sanalgan rollarni bajarilishini talab qiladi. Senariy va ijro muallif yoki rejissor senariyni emas balki ishtorokchini o`zini tutishidir. Ananaviy nomoyishlardan ko`proq psixodramma nomoyishlari aktiyor va auditoriyani ko`proq zavqlantiradi. Moreno Vena hiyobonida o`ynayotgan bolalar ichki erkinlikni namoyish etishlari orqali psixoterapevtik o`zgarish ro`y berishiniga etiborini qaratadi.Ular xuddi xulq stereotiplari tasiriga tushmay o`z oretkirofkalari olamida yurgandek harakatlanadilar.

“Ixtiyoriy teatr” Moreno tomonidan uning ananaviy teatrdan ko`chgan holatiga javoban yaratildi..U ananaviy teatrni eng kata kamchiligini senariyda berilgan ijtimoiy rolli xulqni rigidligida ko`rgan.Moreno odamlar robotlarga o`xshab , mashina kabi individullik va ijodkorlikdan maxrumligini ko`rsatib o`tdi.Ayni shu sababli psixodrammada maxsus yozilgan rol va senariy yo`q aktiyorlar tanish ruxiy kechinmalarga asoslanib ularga notanish bo`lgan yo`ldan yurishlari mumkin. Ushbu metod ananaviy teatrdan ancha farq qiladi.Ananaviy teatrda optimal ijroga erishish uchun pyesa qayta-qayta o`ynaladi. Ixtiyoriy xulqni Moreno ijtimoiy rolli xulqni o`sib borayotgan psixodrammadagi rigidligini “zaxrini” kesuvchi sifatida ko`rgan psixodramatik guruh azolari rolli repertuallarini kengaytirib individual xususiyatlarini tadbiq qilishgan va namoyishini ko`rsatgan sari shaxsiy muammolarini yechimini topganlar. Moreno fikricha psixodramma ishtirokchilari o`zlarining odatiy xulq sterotiplarini o`zgartirishga havotirlanishdan ozod bo`lishgan o`z imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam berib hayotiy mavqelarini ko`taradi. Shunday fikr paydo bo`ladiki, Moreno takidlashicha taraqqiyot jarayonda faqat ijodkor insonlar tirik qoladi.Ixtiyoriylikga urg`u berilishi psixodrammada faqat noodatiy harakatlar qo`laniladi degani emas.Moreno ixtiyoriylik tushunchasiga ikki manoda qaraydi: adekvat javob va yangilik .Shunday qilib xulq mazkur vaziyatda ham yangi ham adekvat bo`lishi mumkin.

Agar guruh azolari madaniy va ijtimoiy cheklovlar bilan tanish bo`lmasalar rol bajarayotganda ixtiyoriy xulqni nomoyon qilishi mumkin va bu xulq patalogik xulq deb sanaladi. Psixodrammadagi terapevtik maqsadlar ko`pincha o`z ichiga madaniy va ijtimoiy cheklovlar bilan tanishishni oladi.Shu bilan bir paytda ijoriy ixtiyoriylik rivojlanish jarayoni osonlashtiriladi. Moreno fikriga muofiq hozirgi zamon odamlari ibtidoiy davr odamlari olovni o`zlari topmaguncha undan qo`rqqanlari kabi bevosita va emotsional muloqotdan qo`rqadilar. Moreno ixtiyoriylikni tadbiq etish maqsadida labaratoriya sifatida teatrdan foydalangan Uning aniqlashicha, ixtiyoriylikni o`rgatsa bo`ladi va bu harakatlarni mashq qildirish uchun u maxsus psixodramatik usullarni ishlab chiqdi.Ixtiyoriylik psixodrammani boshqa guruhiy yondashuvlariga yaqinlashtiriladi (hozir va shu yerda prinspiga asosan).

Muammo va munosabatlar so`z bilan ifada etilib ayni paytda real harakat orqali kechadi.Psixodramatik harakatda o`tmish va kelajak yo`q faqat hozirgi zamon mavjud.Vaqt va fazo tabiiy to`siqlari o`chiriladi.Psixodramatik nizolarda o`tmishdagi muammolar va kelajakdagi qo`rquvlar “xozir va shu yerda”prinspi asosida

o`ynaladi.Psixodramma yordamida ishtirokchi xotirasida saqlangan o`tmish voqealari obektiblashritilishiga imkon beriladi.

Sotsiogrammada – guruh o`zi tatqiqot majmuasi bo`ladi, shu sababli ishtirokchilar o`z shaxsiy muammolarini o`rganadilar. Guruh azolari o`zlarining shaxsiy kechinmalarini o`rganish maqsadida ro`llarni ijro etishadi, bu kechinmalar sababi mos ijtimoiy madaniy muammolardan kelib chiqishi mumkin,jumladan irqiylik (rotsizm) avlodlararo munosabatlar, huquq organlari bilan kelishmovchiliklar bo`lishi mumkin. Ijodkorlik va beixtiyor harakatlar yordamida ishtirokchilar idrok javob reaksiyalari hissiyotlar xulq namunalarini o`rganib guruhlardagi munosabatlarni yaxshilashga va guruhda o`zaro tushunishni rivojlantirishga harakat qiladilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.М.И.Чистякова. Психогимнастика. Москва. "Просвешение". 1990
2.E.G`oziyev Tafakkur psixologiyasi Toshkent 1999-yil.
3.M.Asadov, G.Burxonova Psixologik taxlil metodikalari.

# YOSHLAR XULQ-ATVORI VA DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA`SIRLARNING TUTGAN O`RNI

*Rizoqulov Mirjalol*
*O`zbekiston Milliy Universiteti Amaliy psixologiya yo`nalilishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida oiladagi va jamiyatdagi muhitning psixologik ta`siri . Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida sabab bo`ladigan salbiy omillar va ularni oldini olishda islomiy tarbiyaning tutgan o`rni.

**Abstract:** The article examines the psychological influence of the environment in the family and society on the formation of behavior and worldview of young people. Negative factors contributing to the formation of behavior and worldview of young people and the role of Islamic education in their prevention.

**Аннотация:** В статье рассматривается психологическое влияние среды в семье и обществе на формирование поведения и мировоззрения молодежи. Негативные факторы, способствующие формированию поведения и мировоззрения молодежи и роль исламского образования в их предотвращении.

**Kalit so`zlar:** Oilaviy muhit,aqliy tarbiya, islomiy tarbiya,xulq-odob ,salbiy xatti-harakat,sog`lom aql.

**Key words:** family environment, mental education, islamic education, behavior, negative behavior, common sense.

**Ключевые слова:** семейная среда, психическое образование, исламское образование, поведение, негативное поведение, здравый смысл.

Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida ma`lum bir bosqichlar mavjud.Har bir yosh avlod bu bosqichlardan o`tib o`zining xulq-atvori va dunyoqarashini shakllantirib boradi.Ushbu bosqichlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Ilk bolalik davridagi (oiladagi) bosqich.
- Bolalik va maktab davridagi bosqich.
- O`smirlik davridagi bosqich.
- Ijtimoiy-dunyoviy bosqich.

Bolani hayotining birinchi oylaridan boshlab tarbiyalash zarur, faqat uning tashqi ko'rinishlari , ya`ni natijasi maktabgacha yosh davrining boshida namoyon boladi. Ilk bolalik davrida berilgan tarbiya butun bolalik davrida namoyon boladi.Bu bosqichda bola ongsiz ravishda tarbiya olishi ham mumkin.Ya`ni bola otasi,onasi,akasi xullas, oilada kimda biror bir harakat-holatni ko`rsa o`sha ko`rgan narsasini qayta takrorlashga urinib ko`radi.Bunga misol qilib, masalan, bolaning akasi ertalab turib har kuni jismoniy mashqlarni bajarsa ,bola ham imkoniyati yetgancha buni amalga oshirib ko`rishga urinadi.Vaholanki, uni bu qilayotgan amali jismoniy quvvatli bo`lish uchun yoki bo`lmasa sog`ligi uchun foydali ekanligidan xabardor emas. Bunga misol qilib yana aytishimiz mumkinki,bola deraza yonida otasi qo`liga gugurtni olib sigaret chekayotganini ko`rdi. Yolg`iz qolganda, albatta, bola shu narsani,ya`ni og`ziga solib, ko`rgan narsasini takrorlab ko`radi.Shubhasiz bu oiladagi muhitning ta`siridir. Bolaga biror narsani o`rgatish deganda ota-ona "Buni bunday qilasan,buni esa bunday qilasan", - deb o`rgatib tushuntirish bilan bola tushunadi deb, bir tomonlama o`ylashadi.Ko`rinib turibdiki, yuqoridagi misolda buni bola o`zining ota-onasidan ,oilaviy muhitning ta`sirida ixtiyorsiz ravishda o`rgangan.

G`arb mamlakatlarining birida bo`lgan voqea. Bir nasroniy yigit faxsh ,uyatsiz,qo`shtirnoq ichidagi videoroliklarni tayyorlash va ularni sotish bilan shug`ullanar ekan .Shuni o`ziga kasb qilib olgan ekan. Vaholanki, bu kasbi bilan o`z uyida, kompyuterida shunaqa faxsh video tayyorlash bilan ko`p vaqti o`tar edi.Uning hali go`dak bo`lgan ikkita farzandi bo`lib, ular ana shu muhitda katta bo`layotgan edi. Kunlardan bir kuni otasi farzandlarini bir-biri bilan aynan o`sha faxsh harakatlarni qilishayotganini ko`radi.Vaholanki bu 4-5 yoshdagi bolalar bu harakatlari bilan o`zlarini shaxvatlarini qondirish uchun qilishayotgani yo`q edi.Bu yoshdagi bolalarda ma`lumki shaxvat tushunchasi,ham shaxvat ham,bo`lmaydi. Yuqorida misol keltirganimizdek , har kuni ertalab ko`radigan akasining jismoniy mashqlarini u "sog`ligim uchun foydali ekan", degan tushuncha bilan takrorlamaydi. Aytganimizdek,ongsiz ravishda tarbiya olib boradi. Har bir bola o`z oilasining muhitida ilk tarbiyani oladi. Bunda ota va onani roli juda muhim. Bolani tarbiyalashda ta'sir etuvchi salbiy omillar qatoriga: oila ichidagi munosabatlar odobining ota-onalar tomonidan doimiy buzilishi, o'zaro ishonch, e'tibor, g'amxo'rlik, hurmat, psixologik qo'llab-quvvatlash va qo`llab-quvvatlashning mavjud emasligini ko'rsatish mumkin. Ko'pincha bunday salbiy anomaliyalarga er,xotin, beka, oila boshlig'i kabi oilaviy rollarning bir xil tushunilmasligi, ota-onalarning bir-biriga yuqori talablar qo'yishi sabab bo'Iishi mumkin. Bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni amalda bartaraf etish uchun ota-onalar orasidagi o'zaro munosabatlar quyidagi asosiy tamoyillar asosida qurilishi lozim: 1. Turmush o'rtog'ingizni o'zingizga yoqadigan qilib qayta o'zgartirish vazifasini qo'ymang. Uni shaxs sifatida tushunishga,

voqelikka uning ko‘zi bilan qarashga, odatiy bo‘lmagan, o‘rganilmagan, lekin bola tarbiyasida muhim bo‘lmagan jihatlar bo'yicha aqlli kelishuvni amalga oshiring. 2. Fikrlarda, qarashlarda, ayniqsa tarbiya masalalari bo‘yicha umumiylikni barcha iloji bor usullar bilan mustahkamlashga harakat qiling. 3. Oila qurgan insonlar shaxs sifatida shakllanib bo‘lganligi uchun qarashlarda farqlar yuzaga kelganda nizolashishgacha olib bormaslik lozim. 4. O‘z xatolaringizni ochiq tan olishga, haqligingizdan shubhalanishga uyalmang. 5. Turmush o‘rtog‘ingizga tanqidiy munosabatda bo‘lishdan oldin, o‘zingizga ham tanqidiy munosabatda bo`ling. Buning uchun har doim ko‘p asoslar topilishi mumkin. 6. Turmush o‘rtog‘ingizda ayrim kamchiliklar, masalan, salbiy xarakter xislatlari paydo bo‘lsa, normal holat deb qabul qilish lozim. Barchada kamchilik bor, beayb parvardigor. Oilada tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun ota-onalar turli tarbiya vositalaridan fodalanishadi: bolani rag‘batlantiri shadi, jazolashadi, uning uchun namuna bo‘lishga harakat qilishadi. Do‘stona munosabatda bildirilgan maqtov, befarq va sovuq ota-onalardan olingan maqtovga qaraganda ta’sirliroqdir. Jazolash va taqiqlashga nisbatan maqtovdan aql bilan foydalanish hisobiga bolani shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir qilish mumkin. Bolani boshqa yo‘l bilan amalda o‘zgartirib bo`lmaganida jazolashdan ham foydalanish mumkin. Agar jazolash uchun ehtiyoj tug‘ilsa, uning tarbiyaviy ta’sirini oshirish uchun iloji boricha qilgan xatti-harakati uchun jazolashga intilish kerak. Jazolash adolatli, lekin juda shafqatsiz bo‘lmasligi lozim. Juda qattiq jazolash bolada qo‘rquv paydo qilishi mumkin. Bolaning qilgan xatosi unga yaxshilab tushuntirilsa, jazolash samarali bo‘ladi. Ko‘proq jazolanadigan, baqiriladigan bolalar, ota-onadan uzoq lashadi, emotsional befarq bo‘lib qoladi hamda yuqori agressivlik ni namoyon etadi[1].

Bugungi kunda tarbiya masalasida “islomiy tarbiya”ni ko`pchilik ota-ona unutib qo`ygan. Odatda ko`p insonlar ongida  farzand tarbiyasi – bola tug`ilib, oyoqqa turib ulg`aygandan, 5-6 yoshlarga kirgandan keyin boshlanadi. Ungacha o`z xoliga qo`yish kerak, uni tarbiyalab o`tirishning foydasi yo`q, baribir hali ko`p narsani tushunmaydi, deb o`ylashadi. Yana ba`zilar esa, to bolalari qaysarlik qilaverganini, nojo`ya, odob-axloq chegarasidan chiquvchi  xatti-harakatlar, to`s-to`polon, sho`xlik qilaverganini ko`rganda  “ana endi tarbiya qilishni vaqti keldi” deb o`ylashadi. Bolani aqliy tarbiyalash lozim.Aqliy tarbiyadan maqsad bola ongida shariat ilmlarini ham, zamonaviy ilmlarni ham shakllantirishdir. Shundagina u teran fikrli, o‘tkir fahmli bo‘lib yetishadi. Iymon-e’tiqod sabog‘i bola tarbiyasida eng asosiy o‘rinda turadi. Iymonli bola hayoli bo‘ladi, birovga zulm qilmaydi. Haromdan, nopok narsalardan tiyiladi. Mehr-u oqibatli, sabrli bo‘ladi.Bu borada murabbiylar zimmasida bir qancha mas’uliyatli ishlar bor. Albatta, bolalarimiz birdaniga iymonli bo‘lib qolishmaydi. Buning uchun ma’lum darajada aqliy rivojlanish jarayonini bosib o‘tishlari kerak. Bu sohadagi vazifalarni uchta bosqichda o‘rganamiz:

– Majburuy ta’lim.

– Fikrni rivojlantirish.

– Sog‘lom aql.

Xalqimizda beshikdan qabrgacha ilm izla, degan purma’no naql bor. Iymon tarbiyasi ta’lim, savod bilan ham bog‘liq. Ma’lumki, Rasulullohga (sollallohu alayhi va sallam) nozil bo‘lgan birinchi oyatlar ham ilm haqida edi. Unda shunday keladi:

«Oʻqing (ey Muhammad! Butun borliqni) yaratgan zot boʻlmish Rabbingiz ismi bilan. (U) insonni laxta qondan yaratdi. Oʻqing! Rabbingiz esa Karamlidir. U insonga qalam bilan (yozishni ham) oʻrgatdi. U insonga bilmagan narsalarini bildirdi» (Alaq, 1–5).Musulmonlar Qur’oni karim oyatlariga va Paygʻambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) koʻrsatmalariga amal qilib, risolat asrida va undan keyin ham barcha ilmlarni egallashga kirishdilar. Barcha foydali ilmlarni egallashni farz va vojib deb bildilar. Natijada, butun olam ulugʻ olimlar qoldirgan merosdan bahramand boʻlib kelmoqda.Bugungi Gʻarb va Sharq tamadduni yuksak darajaga koʻtarilishida Islom madaniyati va ilmining ta’siri kattadir.

Buni gʻarblik olimlarning oʻzlari ham qayta-qayta ta’kidlashadi: Sharistik Islom ilm-fani haqida bunday deydi: “Ovrupa ming yillardan beri islomiy fanlarga nazar solib keladi. Ular juda ham ajoyibdir”. Sharqshunos Duziy shunday deydi: “Ovrupada oʻqish-yozishni ruhoniylarning yuqori tabaqasigina bilar edi. Islom kelgach, Andalusning biror yerida savodsiz kishi qolmadi”.Libn Bul oʻzining “Arab va Ispaniya” kitobida Duziyning fikrini qoʻllab-quvvatlab, bunday yozadi: “Ispaniya (Andalus) ilmda, madaniyatda va taraqqiyotda birinchilikni qoʻlga kiritganida, Ovrupa omi va jaholatga toʻla edi”. Byerfult oʻzining “Insoniyatning oʻsishi” nomli kitobida bunday e’tirof etadi: “Arab madaniyati olamga taqdim qilgan narsalarining eng kattasi – ilm boʻldi.Islomning boqiy din ekani haqida ingliz faylasufi Bernard Shou bunday deydi: “Haqiqatan, nihoyatda keng qamrovlilik jihatidan Muhammad (alayhissalom) olib kelgan din buyuk dindir. Hayotning barcha bosqichlarini oʻzlashtirish mumkin boʻlgan yagona dindir. Muhammadni (alayhissalom) baralla “insoniyat xaloskori” desa boʻladi. Agar uningdek odam hozir boʻlganida, albatta, barcha mushkulotlar yechimiga yoʻl topa olgan boʻlardi”[2].

Bugungi hayotizimda biz ham ta`limdan, ham tarbiyadan islomni olib qo`ydik.Islom axloq-odob qoidalari cheklanib qolgandek bo`ldi.Dorulmulla gapirsa, “domla masjidda domlaligini qilsin ” deb chegaralab qo`ydik.Bola chin islomiy tarbiya bilan ilk bolaligidanoq va undan keyin ham shu yo`lda tarbiyalab borsak, jamiyatda o`zining ma`naviyati bilan tanilgan aqlan yetuk yoshlarni tarbiyalash me`zonini yo`lga qo`ysak,farzandlarimiz biz o`ylaganday komil yosh avlod bo`lib voyaga yetadi. Voyaga yetgan yosh avlod keyinchalik ma`lum kasbni egasi bo`lgandan keyin o`z kasbida noqonuniy (harom) ishlar ham qilmaydi.Masalan uni yoniga pora berib ishini tezro bitkazishini noma`lum bir shaxs so`radi .Uni javobi albatta “yo`q” chunki unda shariat ilmi (Qur`on)da harom ekanligi va dunyoviy ilmi(Konstitutsiya)da noqonuniyligi haqida birdek xabardor bo`ladi.

Yosh avlod islomiy tarbiya bilan har qanaqa stressga tushishdan oldingi vaziyatlarda ham bardoshli bo`ladi,har qanaqa musibatga ,mushkulotlarga sabrli bo`la oladi va bir kun kelib albatta yaxshi bo`lib ketishiga ishonadi.Bunday tarbiyadan yiroq bo`lsa og`ir mushkulotlarni ,musibatlarni stress ,og`ir ruhiy kasallik bilan boshdan kechiradi yoki bo`lmasa o`z joniga suiqast qilish darajasiga ham borishi mumkin.Aynan mana shu islomiy tarbiyaning yo`qligi natijasida yiliga 7ming,8ming odam ruhiy zo`riqish,musibat va qiyinchiliklarni yengolmay o`z joniga qasd qilyapti.Masalan bir yosh islomiy tarbiya ko`rgan tadbirkor yigit,uning ikki milliard so`mlik tovar-mahsuloti yonib ketti .U yigit : “haaa bundayam bir hikmat bordir,shunday bo`libdi-da ” deb

aytadi va shu musibatga rozi bo`lsa savob olishi aksincha bo`lsa gunohkor bo`lishini biladi va xotirjam bo`ladi. To`g`ri yo`l ham shu aslida.Agar aksincha bo`lsa ko`p miqdordagi asabbuzarlik,depressiya,stress va yana bir qancha kasalliklar.U oy`lamaydiki bo`lgan ish bo`lib bo`ldi. Taqqoslab aql yuritib ko`rishimiz mumkinki undan faqat o`zimizga salbiy ko`plab psixologik kasalliklar orttiramiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**:

1. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.

# AHOLI ORASIDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIKNI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

*Shavkatova Shaxnoza*
*BDU talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyat va aholi o‘rtasida psixologik savodxonlikni oshirish va takomillashtirish hamda bugungi kunda psixologiyaning inson hayotida qay darajada muhimligi haqida so‘z yuritiladi. Mamlakatimizda psixologiya sohasiga oid korporativ boshqaruv markazlarining olib borayotgan targ’ibot-tashviqot ishlarini keng k o‘lamda yoritib berish.

**Kalit so‘zlar:** Axborot texnologiyalari, amaliy bilim, nazariy bilim, xarakter, insonshunoslik, kategoriya, kadr, pedagog, tajriba, mutaxassis, moddiy, ma’naviy , psixologiya, jamiyat, tafakkur.

**Объявление.** В статье обсуждается рост и повышение психологической грамотности общества и населения, а также значение психологии в жизни человека сегодня. Дается широкое освещение пропаганды и пропагандистской работы, проводимой соответствующими центрами корпоративного управления в области психологии в нашей стране.

**Ключевые слова**: информационные технологии, практические знания, теоретические знания, характер, антропология, категория, кадры, педагог, опыт, специалист, материальный, духовный, психология, общество, мышление.

**ANNOUNCEMENT**

This article discusses the increase improvement of psychological literacy among society and the population, and the importance of psychology in human life today. The aim is to widely cover the propaganda of corporate centers in the field of psychology in our country.

**Keywords:** Information technology, practical knowledge, theoretical knowledge, character, anthropology, category, personnel, pedagogue, experience, specialist, material, spiritual, psychology, society, thinking.

*Barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimga ega bo'lishi, yaxshi bir kasb-korning sirlarini egallashi ko'p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg'unligiga bog'liqdir.* (Abdulla Avloniy)

Bugungi axborot texnologiyalar rivojlangan davrda inson murakkab davrni boshdan kechirmoqda.Insoniyat tug'ilibdiki, hayoti davomida juda ko'p jarayonlarni boshidan kechiradi. Shuning uchun inson psixologiyasini bilish shaxs ta'lim-tarbiyasi hamda kamolga yetishini samarali yo'lga qo'yilishiga olib keladi. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarni inson bilan bo'gliq faoliyatlarini nazarda tutadigan bo'lsak ham nazariy va amaliy bilimlarni egallashni taqazo etadi.

Bebaho ahamiyatga ega bo'lgan insoniyatning buyuk yutug'i - bu tafakkurning mavjudligidir. Hozirgi kunda jahon psixologiyasi fani o'zini - o'zi boshqarish va takomillashtirish, o'zini-o'zi qo'lga olish, o'ziga-o'zi buyruq berish, o'zini-o'zi tarbiyalash bo'yicha boy materiallar to'plagan, bu esa o'z navbatida inson munosabati, maqsadi, holati, kechinmalari o'zgarishi va yangidan yaralishi haqida ilmiy- tatbiqiy ma'lumotlar beradi, kundalik turmush psixologiyasi rang-barangligini ta'minlab turadi. Psixologiya inson psixikasini aniqlash, shakllatirish, yangi sharoitga ko'chirish, takomillashtirish, rivojlanish dinamikasini ta'minlash, yangi sifat bosqichiga o'tishini qayd qilish imkoniyati borligi bilan o'ta amaliy tatbiqiy fanga aylagandir. Inson o'zining kimligini anglashga intilishidan, o'z ruhiy dunyosini va o'zgalar ruhiyatini bilish istagi paydo bo'lishidan, tabiat va jamiyat hodisalarini tushunishga ehtiyoj sezishdan, o'tmish, hozirgi zamon, kelajak haqida mulohaza yuritishdan e'tiboran psixologiya fan sifatida rivojlana boshladi. Psixologik bilimlar juda uzoq o'tmish tarixiga ega lekin u fan sifatida XIX asrning 2-yarmida fan sifatida shakllangan. Psixologiya fanining alohida fan sifatida rivojlanishi insonlar hayotidagi katta o'zgarishlarga olib keldi.

Hozirda mamlakatimizda iqtidorli yoshlar salohiyatlarini namoyon etishlariga ko'maklashish, ularning bilish faoliyati va qiziqishlarini boyitish, dunyoni idrok etishning universal usullarini shakllantirish uchun psixologik yordam tizimini yaratish asosida ularni psixologik qo'llab-quvvatlashga doir masalalar ko'rib chiqilmoqda va tegishli qaror va nizomlar ishlab chiqilmoqda. Aholiga psixologik xizmatning talab qilinadigan darajasi va sifatini ta'minlovchi me'yoriy, moddiy – texnika va axborot bazasini yaratish, jumladan, onlayn psixologik xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish amalga oshirilmoqda. Shular jumlasidan hayot faoliyati og'ir psixologik holatlarga tushib qolgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan trening – reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqildi va joriy etildi.

"Kishini har jihatdan tarbiyalamoq , uchun uni har jihatdan o'rganish kerak". (K.D.Ushinskiy)

Haqiqatdan ham insonni o'rganish juda qiyin. Chunki inson har bir vaziyatda har xil xarakter xususiyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari jamiki olamdagi insonlarning barchasi har xil xarakterga ega bo'ladi. Odamzod muammosi azaliy dolzarbligi bilan boshqa insonshunoslik kategoriyalarida keskin ajralib turgan va bundan keyingi insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida ham xuddi shunday yuksak nufuzga ega bo'lib qolaveradi. Jamiyat mavjud ekan, uning qudrati, harakatlantiruvchi kuchi, moddiy va ma'naviy mahsulot yaratuvchisi bo'lib insonning axloqi, aql-idroki, yuksak tuyg'usi,

irodaviy fazilati, qobiliyati va salohiyati yuzasidan yangi-yangi ma'lumotlarga ega bo'lish masalasi o'z mavqeini aslo yo'qotmaydi.

Inson psixikasini o'rganish muhimligini hisobga olgan holda mamalakatimizda 2019-yil 7-iyundagi 472-son qaroriga binoan Mamlakatda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab - quvvatlashga oid qator ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 10 ta oliy ta'lim "Psixologiya " va 19 ta oliy ta'lim muassasasida "Pedagogika va psixologiya " ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha 5717 nafar talaba tahsil olmoqda. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyoti davrida ta'lim-tarbiya va ilm- fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'grisidagi" PF-6180 – son Farmoniga oid chora tadbirlar k o'rildi. Aholi o'rtasida mahorat darslarini ko'paytirish psixologiya sohasida yanada kattaroq yutuqlarga ega bo'lish imkonini beradi. Ushbu mahorat dasrlarida jamoadagi psixologik holatlar, munosabalar, ommaviy harakatlar shaxsga ta'ssir o'tkazish bo'yicha o'zini, guruh va jamoani boshqarish, unda psixologik iliq muhitni ta'minlash, hamkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, shaxslararo munosabatning yuksak darajasini vujudga keltirish, nizoli va ziddiyatli vaziyatli vazifalarni oldini olish masalalari haqida aholiga treninglar o'tkazish mumkin.

Bu xalqimizning hayoti va turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi. Mamlakatimizda psixologik xizmat ko'rsatish yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida jamiytda ijimoiy-psixologik, jumladan, oilaviy muammolar ajrimlar, oiladagi nizomlar, ota- ona va farzand munosabatlari, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq, ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlariga tobelik, o'z joniga qasd qilish holatlari davom etmoqda. Shu kabi muammolarni to'g'ri va samarali hal qilishda psixologik mahorat darslarini keng ko'lamli yo'lga qo'yish o'ta dolzarb masaladir. Psixologiya jamiyatimiz va har bir shaxs uchun uning kelajaldagi rejalarini sof amalga oshirishida asosiy rol o'ynaydi. Bolani yoshligidan ham ruhan ham jismonan sog'lom qilib tarbiyalash, mamlakat kelajagi porloq bo'lishidan dalolat beradi.

*"Bolaning ruhi toza taxtaga o'xshaydi, keyinchlik unga tajriba yozuvlari bitiladi".* (Jon Lokk)

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, davlatimiz Prezidentining bizga bergan ishonchlarini oqlab, "Psixologiya" fani sohasida yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, o'z sohamizda ilg'or kommunikativ faoliyatni yo'lga qo'yish hamda psixologiya fani mavqeini oshirishda biz faol yoshlar o'z kuchlarimizni birlashtirib, bir maqsad sari olg'a intilishimiz lozim. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda psixologik xizmatlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqishimiz va joriy etishimiz lozim. Shundagina biz ham Vatanimiz taraqqiyoti yanada rivoj topishiga ko'mak bergan hisoblanamiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2017- 2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha harakatlar strategiyasi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi PF -4947 -sonli Farmoniga 1- ilova.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz – T.: O`zbekiston, 2017, - 322b
3. E.G'Goziyev – "Umumiy psixologiya".– Toshkent: 2002 yil.
4. 2.13.E.G'.G'oziyev – "Ijtimoiy psixologiya" – Toshkent: 2016 yil.
5. 2.14.E.Karimova – "Tolerantlik va hozirgi zamon" – Toshkent: 2008 yil.
6. 2.15.F.Saifnazarova – "Kelajak to'g'risida g'amxo'rlik" – Toshkent: 2007 yil.
7. http://www.Psixologiya.uz
8. http://www.Ziyonet.uz
9. http://www.wikipedia.org

## YOSHLARNING DUNYOQARASHI VA XULQ-ATVORIGA TA'SIR QILUVCHI IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLAR

*Djo'rayeva Dildora Abdurashitovna*
*Namangan Prezident maktabi psixologi*

Insoniyat paydo bo'libdiki, eng dolzarb, eng mashaqqatli va eng qiyin vazifa- yoshlar masalasi bo'lib kelgan. Ayniqsa hozirgi fan va texnikaning jadal rivojlanishi yoshlarning dunyoqarashiga ta'sir qilmasdan qo'ymaydi albatta. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga yot va zararli g'oyalar ta'siridan asrash,xalqimizning ezgu urf-odatlarining munosib davomchilari etib kamolga yetishtirish dolzarb vazifalardan bittasi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Bolalarning ma'naviy-ruhiy tarbiyasi ularning jismoniy va aqliy tarbiyasiga qaraganda ancha qiyin ish. Ma'naviy tarbiyasiz hech qanday ta'lim foyda keltira olmasligiga va hatto zarar keltirishi mumkin. Yoshlarimizning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillar borki bu narsalarni o'rganmay bu yo'ldagi xato-kamchiliklarni yo'qotmay komil insonni tarbiyalash haqida gap so'z bo'lishi mumkin emas. Barchamizga yaxshi ma'lumki,shaxsni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar biologik va ijtimoiy omillar hisoblanadi. Demak har ikkala omilning inson dunyoqrashi,xulq-atvoriga ta'siri juda katta hisoblanadi. Buni birgina misol bilan tushuntirib berishga harakat qilaman. Agar matematikadan qobiliyati bo'lmagan bolani aqliy mehnatga yo'llash ijobiy samara bermasligi mumkin. Yoki tug'ma qobiliyatli bola ham agar unga yetarli sharoit yaratilmasa qobiliyatlari mudroq qolib ketishi mumkin. Zero Alisher Navoiy-shoir, Mirzo Ulug'bek-astronom, Abu Ali ibn Sino-tabib bo'lib tug'ilmagan albatta. Demak tug'ma qobiliyatlarni rivojlanishi uchun ham munosib ijtimoiy muhit,ta'lim-tarbiya kerak. Ijtimoiy muhit insonni dunyoqarashiga bevosita ta'sir qiladigan muhim omil sifatida qaraladi. Chunki inson tug'ilishi bilan ijtomiy muhit a'zosiga aylanadi va umrini oxirigacha shu muhit ta'siri ostida bo'ladi. Muhit – bu o'ziga xos munosabat va qoidalar tizimiga ega bo'lgan turli xil insonlar birligi. Shuning uchun, bir tomondan inson unga (muhitga) nimadir shaxsan o'zinikini olib kiradi ma'lum bir darajada unga tasir qiladi, uni o'zgartiradi, lekin shu bilan birga muhit ham insonga ta'sir ko'rsatadi, unga o'z talablarini qo'yadi.

Hozirgi kunda yoshlarimizning dunyoqarashiga, xulq-atvoriga ta’sir qilayotgan eng muhim narsa bu ijtimoiy tarmoqlar va internit. To’g’ri internit tarmog’idan foydalanish davr talabi deyishimiz mumkin chunki bu tarmoqda ma’lumot olish qulay,xohlagan joyimizda foydalanishimiz mumkin va hokazo. Lekin yoshlarimizning internit tarmog’idan samarali va to’g’ri foydalanmasliklari oqibatida ularning ruhiyatida psixologik muammolar kelib chiqayotgani hech birimizga sir emas. Zero internit yoshlarimizning muloqot jarayonini cheklaydi, ularning ruhiy qashshoq bo’lishlariga zamin yaratadi, hayotga yengil qarashlariga sabab bo’libgina qolmay, buzg’unchilikni, shavqatsizlikni, agressiyani rivojlantiradi, yoshlarda egoizmni kuchaytiradi (masalan Blur kompyuter o’yini). Bunaqa misollarni juda ko’p keltirishimiz mumkin. Yoshlarimizni buzg’unchi g’oyalardan, ma’naviy tahdidlardan asrashning birdan-bir yo’li bu ularning dunyoqarashini rivojlantirish, tanqidiy nuqtayi nazarni shakllantirish, har bir bo’layotgan hodisalarga, o’zgarishlarga munosabat bildira olish ko’nikmasini rivojlantirishdan iborat. Shu o’rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi gaplari naqadar chuqur ma’no anglatishini bilish qiyin emas: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin”.

Yoshlar dunyoqarashiga poydevor sifatida yuqori ma’naviy va axloqiy madaniyatni rivojlantirish zarur. Chunki buni e’tiborsiz qoldirish nafaqat shaxsning balki butun jamiyatning tanazzuliga olib keladi. Yoshlarimiz o’z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg’un holda ko’rib fikr yuritadigan yosh avlodni voyaga yetkazishda juda qo’pol kamchiliklarga yo’l qo’yilishiga sabab bo’lmoqda. Demak barcha narsa yana ta’lim-tarbiya jarayoniga borib taqalyabdi. Inson ilk tarbiyani avvalo oilasidan oladi va bu tarbiya uning jamiyatdagi o’rnini u yoki bu ko’rinishda belgilab beradi desak also mubolag’a bo’lmaydi. Farzandlarimizni jamiyat talablariga uyg’un o’z fikrini erkin ifodalab bera oladigan,yaxshi yomonni, to’g’ri va noto’g’rini ajrata oladigan, mard-jasur, bilimga chanqoq bo’lishi uchun avvalo ota-onaning o’zida ham shu jihatlar bo’lmog’i kerak.

-tarbiya ta’sirida muhit bera olmagan bilim, ma’lumot egallanadi:

-tarbiya tufayli tug’ma kamchiliklar ham o’zgartirilib shaxs kamolga yetadi;

-tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Bundan ko’rinib turibdiki yoshlarni dunyoqarashiga tarbiyani ta’siri nihoyatda katta.

Tarbiya bilan ta’limni bir biridan also ayro tasavvur qilib bo’lmaydi. Tarbiya asosida insoniy fazilatlar rivojlantirilsa, ta’lim jarayonida esa bilim,ko’nikma va malakalar egallandi. Qaysi davlatda mana shu ikkita narsa to’g’ri yo’lga qo’yilgan ularning uzviy bog’liqligi ta’minlangan bo’lsa bunday davlatda kamol topayotgan har bir yosh dunyoqarashi keng bo’lib ulg’ayadi.

Bizlarga yaxshi ma’lumki,mamlakatimizda amalga oshiriladigan barcha islohatlar va o’zgarishlar, keng ko’lamli dasturlar yagona va ulug’ bir maqsadga qaratilgan. Bu

ham bo'lsa, xalqimiz hayotini yanada obod va faravon qilish, farzandlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashdan iborat.

Zero prezidentimiz aytganlaridek "Bizni havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan bebaho boyliklarimiz bor va ishonamanki,havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo'ladi". Buning uchun esa barchamiz birdek mas'ulmiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.Sh.Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug',hayoti yorug' va kelajagi faravon bo'ladi". T., "O'zbekiston" 2019-yil. [233]-bet

2.Sh.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz". T., "O'zbekiston"[415]-bet.2020-yil

3.Masaru Ibuka "Uchdan keyin kech" 2019-yil

4. Р.Римская,С.Римская "Практическая психология в тестах" Москва. "Арт-Пресс" 2001. [61]

## МОТИВАЦИЯ ДЛЯ ДОСТИЖЕНИЯ ЖЕЛАЕМОГО УСПЕХА

*Саидмурадова Парвина, г.Самарканд*
*Саидмурадов Акбар юрист ООО "East OIL"*

Это книжка для достижения успеха во благо себе, своим близким, окружающему кругу судьбы.

Для начала надо взять карандаш зеленого цвета и дневник в линейку, чтобы выделять, то что, тебе понравилась для достижения именно своей цели или мечты.

Как ты думаешь:

Что такое успех ?

Что такое мотивация?

Что такое семья ?

Что такое счастье, здоровье, успех, богатство ?

ТЫ (Я)

Бизнес по продажам и услуге начал с нуля, уже возрасте 26 лет. Я был успешным бизнесменом в сфере торговли, приобрел первую машину женился, был счастлив, имел возможность помочь родителям и всем кто тебя окружает, вдохновение придавали родные и то что, был честен с партнерами, любил свою работу и бытие на этом свете.

Желал только семейного счастья себе и тем, кто меня окружает, довольствовался, тем, чем есть, много не хотел.

Но паласа жизни изменилась, Я приболел, лечился два года, пришлось оперировать желудок, после чего была длительная реабилитация, из-за чего не мог работать, одновременно возникли финансовые затруднения моих коллег по бизнесу. В течении этого времени потерял все свои сбережения на лечения и

реабилитацию, коллеги по бизнесу отвернулись от меня, тогда Я понял что привлекал их мой успех, позитивное настроение и счастье жизни.

В этот не простой промежуток времени поддержка была только от семьи - папа, мама, супруга, дети, которым нужен был Я больной или здоровый, без разницы, только что бы был рядом с семьей.

Пришлось, опустить руки думал, все пропала, весь мир отвернулся от меня, не смогу вылечиться и встать на ноги, на этом жизнь кончена, нет продолжения линии счастья в жизни.

Параллельно не могу удержаться от мысли : ну почему это случилось со мной ? Однако мне пришлось взять на себя ответственность за то, чтобы вернуть свою жизнь в нужное русло, думал только о своей семье, о родителях.

После чего, решил попробовать все заново с чистого листа, взять самое лучшее из прошлого и усовершенствовать его для достижения светлого и яркого будущего, без черных и мрачных оттенков.

Чтобы все, с чем мне приходится бороться (страх перед плохой полосой жизни, о не излечимой болезни, о черном свете жизни) сейчас, в настоящем и будущем стало лишь неприятным воспоминанием.

Вместо того чтобы жалеть себя и рассуждать о том, как все должно было быть, Я принял то, что есть, и прекратил тратить энергию на бессмысленные желания, полностью сосредоточившись на том, чтобы с наибольшей возможной эффективностью использовать все, что имел.

Изменить прошлое нельзя, поэтому нужно лишь настроится на движение в перед.

Автомобильная катастрофа (болезнь – все что угодно) так назовем паласу жизни коричневого цвета, в которую попал, в конечном счете, стало одним из лучших событий жизни. Вот я и не страдал. А еще понял, что сфокусировавшись на том, что мы узнаем в результате страданий и трудностей, и на этом, как использовать эти знания, чтобы повысить ценность жизни других людей, можно превратить любые невзгоды в преимущества. Так я и поступил.

Основываясь на убеждении, что все, что снами случается, происходит не без причины – при этом мы сами несем ответственность за выбор наиболее вдохновляющих и повышающих самооценку вызовов, событий и обстоятельств в нашей жизни, - воспользуйся произошедшим как топливом для триумфа.

Кстати, тут очень важно понимать, что ответственность и вина, совсем не одно и то же. Вина указывает на то, кто виноват в чем-то, ответственность кто будет изменять ситуацию к лучшему благодаря соответствующему настрою.

Возьмем, например, все ту же злосчастную автомобильную катастрофу (болезнь). Кто виноват в болезни (автомобильной катастрофе), никто она не выбирает она приходит, остается или уходит. Но я взял на себя ответственность за улучшение своей жизни. На самом деле совершенно

не важно, кто виноват – важно решительно оставить прошлое в прошлом и, начиная прямо сегодня, строить свою жизнь именно такой, какой вы мечтайте.

Болезнь - это не означает что все кончено, она излечима, если у тебя будет позитивный настрой - настрой только на хорошее, светлое будущее о котором ты всегда мечтаешь, думаешь, представляешь, как оно наступит.

## ТВОЕ ВРЕМЯ И ТВОЯ ИСТОРИЯ

Знайте, что настоящий, временный этап вашей жизни и есть именно то положение, в котором вы сейчас должны находиться. Вы пришли к этому моменту, чтобы научиться тому, чему должны научиться, чтобы стать тем человеком, которым должны быть для того, чтобы создать жизнь, которой действительно хотите. Даже когда жизнь трудна и неприятна – особенно когда она трудна и неприятна, - настоящее всегда предоставляет нам возможность учиться, расти и становиться лучше, чем мы есть сейчас.

Вы пишите историю своей жизни, а, как известно, ни одна хорошая история не обходится без героя или героини, сумевших преодолеть немало бед и невзгод, выпавших на их долю. По сути, чем больше у них проблем, тем интереснее история судьбы.

*«Если хотите по вечерам ложиться спать с чувством удовлетворения, просыпайтесь каждое утро с чувством решимости»* – Джордж Лоример, американский писатель и журналист.

Вот одна из моих любимых высказываний Орпа Уинфри: *«Лучшее приключение, которое может случиться с человеком, - это жить жизнью своей мечты».* Я согласен с ним на все сто.

Вы действительно можете иметь и заслуживайте: Счастье. Здоровье. Благополучия. Любови…..

## ТРИ ВАЖНЕЙШИХ АРГУМЕНТА

Вы так же достойны, заслуживайте и способны достичь и поддерживать экстраординарный уровень здоровья, благополучия, счастья, любви и успеха в своей жизни, как и любой другой человек на свете. Невероятно важно, чтобы вы начали жить соответствии с этой истиной – не только для повышения качества своей жизни, но и для того, чтобы позитивно влиять на родных, друзей, клиентов, сотрудников, детей, вашего окружения с чьей жизнью соприкасаетесь.

Чтобы перестать довольствоваться меньшим, чем вы заслуживайте, в любой области жизни и начать достигать желаемых уровней личного, профессионального и финансового успеха, надо начать каждый день специально и целенаправленно выделять время на то, чтобы стать достаточно квалифицированным человеком, способным целенаправленно выделять время на то, чтобы стать достаточно квалифицированным человеком, способным последовательно привлекать, создавать и поддерживать такой успех, о каком вы мечтайте.

Ежедневное пробуждение и утренний распорядок (или его отсутствие) очень сильно влияют на успех во всех сферах жизни. Целенаправленное, продуктивное и успешное утро генерирует целенаправленный, продуктивный и

успешный день, что неизбежно ведет успешной жизни. Просто изменив время утреннего подъема, можно существенно улучшить любую сторону свое жизни, причем быстрее, чем вы, вероятно, думайте.

*«Чтобы серьезно изменить свою жизнь, необходимо испытать либо вдохновение, либо отчаяние»* - Энтони Роббинс.

Одной мысли о том, что моя смерть уничтожит, моих маму и папу, (супругу и детей) для меня было достаточно, чтобы отбросить идею о самоубийстве и из последних сил жить дальше. В глубине души я знал, что, какой бы ужасной ни стала твоя жизнь, *всегда найдется способ все изменить.*

Я услышал аудио Джима Рона, посвящённое личностному росту и развитию, и услышал нечто, что без сомнения, слышал раньше, но прежде истинный смысл сказанного до меня явно не доходил. Ну, вы знаете, как иногда бывает: слышишь что-то снова и снова, но по сути, не делаешь из этого никаких выводов, однако в один прекрасный день до тебя наконец доходит. Просто, судя по всему, чтобы полностью и верно понять некоторые мысли и идеи, разум должен находиться в правильном состоянии.

Так вот, тем утром мой разум явно прибывал в нужном состоянии в состоянии полного отчаяния, и до меня дошло. Услышав уверенные слова Джима.

*«Ваш успех крайне редко превышает уровень вашего личностного развития, ибо вы привлекайте успех, только став человеком, способным его привлекать».*

Ясностью осознал, что до сих пор совершенно ничего целенаправленно не делал, чтобы стать тем, кем должен был быть, чтобы привлекать, создавать и поддерживать такой успех.

Теперь я знал, что решение всех моих проблем зависело от того, сумею ли я целенаправленно сделать саморазвитие главным приоритетом своего обычного повседневного обычного, повседневного существования.

Мне очень нравится, что написал в своей книге The Rhythmof Life («Ритм жизни») автор бестселлеров Мэттью Келли: *«С одной стороны, мы все хотим быть счастливыми. С другой – все мы знаем, что именно делает нас счастливыми. Но этого не делаем. Почему ? Очень просто. Мы для этого слишком заняты. Слишком заняты для чего ? Слишком заняты для того, чтобы».*

В мой список вошли медитация, аффирмация, визуализация, письмо, а также чтение и физическое упражнения (значение ищите, самостоятельно это поможет саморазвитию)

Каждый день, когда болеешь и грустно на душе, непреодолимая хантра во всем что делаешь, просыпаясь утром, лицом к лицу сталкиваемся с одним и тем же универсальным вызовом – преодолеть серость и посредственность, и начать жить, используя свой потенциал на полную мощность. Эта самая важная трудная задача в истории человечества – отбросить оправдания и отговорки и делать то, что правильно, а не что легко; делать все возможное,

чтобы создать жизнь такого уровня (уровня высшего балла это - 10), которой действительно хотим жить, здоровыми и благополучными в кругу семьи.

ПРИЧИНЯ ЗАУРЯДНОСТИ (и как от них избавиться).

Синдром зеркала заднего вида

Одна из самых сильно действующих причин, по которым люди соглашаются вести заурядную жизнь, - это синдромам заднего вида. Наше подсознание изначально оснащено чем-то вроде ограничивающих нас зеркало заднего вида, с помощью которого мы постоянно переживаем и воссоздаем свое прошлое. При этом мы ошибочно считаем, что каким были тогда, такими остались и сейчас, и ограничиваем таким образом свой истинный нынешний потенциал исходя из прошлого опыта.

Нужно изменить её, то есть мысль о будущем хорошем, счастливом и благополучно успешным.

Но если вы хотите выйти за рамки своего прошлого и преодолеть ограничения, необходимо перестать смотреть в зеркало заднего вида и начать рисовать в своем воображении жизнь безграничных возможностей. Переключитесь на новую модель: мое прошлое не то же, что мое будущее. Внушайте в себе уверенность в том, в мире не только не существует ничего невозможного, но и что именно вы способны и полны решимости добиться, всего чего хотите.

Чтобы избавиться от этой причины заурядности, вам необходима в жизни четкая цель – любая, по вашему выбору.

Просто запомните, что вам надо как можно быстрее сделать выбор и что ваша первая цель, может быть простой и совсем не амбициозной (Например «Я буду чаще улыбаться, чтобы привести чуть больше радости в свою жизнь и жизнь окружающих меня людей» или «Я начну спрашивать каждого, с кем общаюсь, что я могу сделать для того, чтобы повысить ценность его жизни»). Это станет вашим первым шагом, к более важной и масштабной жизненной целью.

Надо стать улучшенной моделью самого себя.

Экер Т.Х. *«Думай как миллионер» 17 уроков состоятельности для тех, кто готов разбогатеть. «как вы делайте что-то, так вы делайте все».*

Каждый раз, выбирая простое решение вместо правильного, Вы формируйте свою личность и все больше становитесь человеком, который предпочитает то что, легко и просто, а не то, что правильно.

Тем не менее, если вы решаете поступить правильно и неуклонно держитесь выбранного курса – особенно если вам этого очень не хочется, - вы развивайте способность дисциплинированным и организованным (которая кстати, так и остается неразвитой у большинства людей), а это непременное условие для достижения в жизни экстраординарных результатов. Как учит своих клиентов Питер Вугд: *«Дисциплина формирует образ жизни».*

Всегда помните, что то, кем вы становитесь, гораздо важнее, чем то, что вы делайте, однако же, именно ваши поступки определяют, каким человеком становитесь.

Завидите партнера для отчетности. ( с раннего утра только в перед)

*Старайтесь общаться с позитивными, и успешными и их настрой и удача, взгляды и привычки неизбежно отразятся на вас. Вы будите становиться все более и более похожим на них.*

Не позволяйте чужим страхам, неуверенности и ограничивающим установкам снижать ваши возможности.

Наш успех крайне редко превышает уровень нашего личностного развития, потому что мы привлекаем успех, становясь тем, кем становимся. Иными словами, ваш уровень успеха в любой сфере жизни, как правило, зависит от вашего личностного развития – то есть ваших знаний, навыков, убеждений, привычек и прочего.

Всё не спроста в этой жизни, в каждой милости есть Благодать от Всевышнего, в Благодате есть причина того за что, последует настоящем и будущем Балогодать.

Задумавшись о семье, о родителях, о судьбе:

- судьба по жизни как ты, вырос, пошел в садик, в школу, в институт, работа, семья, отдых и блаженство внутреннего мира самого себя;

- твои братья и сестренки, твои близкие родственники, родственники;

- друзья, друзья во дворе, где ты вырос, одноклассники, однокурсники, друзья по работе.

После чего, стал улыбаться и прывык улыбаться лудям. Оглянись и подумай что, изменилось и в какую сторону в твой жизни и ты поймещь, что лучьшее в переди которую ты постпроеш сам, оно будит таким каким ты его пасадиш, будеш ухаживать и вырастишь, будишь брать плады дальше будешь сажать и не забывать про ранее псаженное тобой. Оно будет таким каким ты представляещь в своем воображении.

Отказаться от Амбиций - мысль быть кем то, или быть тем или иным могут свести с ума, быть самим самой. Просто быть, ни кем тогда и проблем нет.

В канечном итоге ты преобритаещь покой, счатье, благополучие, успех и любовь ближнего.

**Рекомендуемая литература:**


1. «Магия Утра» автор Хэл Элрод.
2. «Подсознание может все» автор Джон Кехо.
3. «Думай и Богатей» автор Наполеон Хилл


## YOSHLARNING DUNYO QARASHI VA XULQ-ATVORIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLAR


*Naimaxon Umirzaqova*

*Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani 39-maktab psixologi*


Darhaqiqat, XXI asrda dunyo rivojlanishi yangi bosqichga qadam qo'ydi. Endilikda respublikamizda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar

mohiyatida ma’daniy-ma’naviy yuksalish extiyojining ortib borayotgani ayniqsa, birlamchi ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday, keng miqyosli o’zgarishlar davrida yoshlarning dunyoqarashi va hulq-atvoriga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, tahdidlar ham ortib bormoqda. Ushbu maqolamda men maktabning amaliyotchi psixologi sifatida, yoshlarning dunyoqarashi va hulq-atvoriga ta’sir etuvchi dastlabki omillardan biri, televizor va uning oila munosabatlariga ta’siri haqida to’xtalib o’tmoqchiman.

Uyingizda televizorning pulti kimda? Uyda pult kimning qo’lida bo’lsa, oilada boshliq, ya’ni rahbar ham o’sha bo’ladi. Shu kunlarda oilada kimning gapi o’tishini televizor pulti kimning qo’lida ekanligiga qarab bilib olish mumkin. Uyda farzandlaringiz bilan suhbatlashib o’tiribsiz. To’satdan chiroq o’chib qoli. Darhol sham olib yoqdingiz. Barchangizda sal avvalgi, jonlilik va harakatchanlik yo’qoldi. Bolalarga ba’zi so’zlarni aytingiz. Ko’p o’tmay aytadigan gapingiz tugadi. Uyga chuqur sukunat cho’kdi. Go’yo uydagi eng asosiy narsa yo’qolib qolganday. Rozi bo’ling, televizorsiz hayot to’xtab qoladi, to’g’rimi. Unga shu qadar o’rganib qolganmizki, televizor hayotimizning ajralmas bo’lagiga aylangan. Ertalab uyg’onishingiz bilan yoki ishdan qaytishingiz bilan kelib, televizorni yoqasiz. Televizor ovozi sizga hamroh bo’ladi. Biroq qachongacha? Televizor bizga nimadir berish bilan birga bizdan nimalarnidir olib, ketmayotganmikan? Siz nima deb o’ylaysiz?

Insonlar uyda ekanliklarida ko’p vaqtlarini televizor qarshisida o’tkazadilar. Inson sigaret, sipirtli ichimlik va narkotika singari moddalar bilan o’ziga zarar berayotganini bilgani uchun ularga qarshi kurashadi. Eng katta vaqt o’g’risi sanalgan, oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir ko’rsatadigan so’zlar orqali emas, xatti-harakatlar orqali gapirishga majbur qiladigan, televizor haqida ham xuddi, shu so’zlarini be’malol aytish mumkin.

Qurbaqa va chelak haqida hikoya bor.

Harakatchan bir qurbaqani bir chelak issiq suvga tashlasangiz, qurbaqa nima qiladi? Tashqariga chiqishga intiladi. U: “Bu yer zerikarli ekan, men ketaman”, deydi. Shu qurbaqani bir chelak sovuq suvga solib,suvni sekin-asta isitsangiz, nima bo’ladi? Qurbaqa bo’shashadi… Bir necha daqiqadan so’ng o’zicha: “Bu yer iliqqa o’xshaydi’’, deydi. Ko’p o’tmay qurbaqa pishib qoladi. Xayot pillapoyalardan iborat. Qurbaqa singari bizni ham aldashlari va so’nggi daqiqada kech bo’lishi mumkun. Shu sababli atrofimizda nimalar bo’layotganini anglab olish lozim. Muntazam ravishda televizor ko’rishning badali juda og’ir bo’ladi. Qanday deysizmi? Televizor ko’rilgan har bir soat yangi kashfiyotlarning yaratilishiga, birgalikda o’ynab-kulishga to’sqinchilik qiladi. Ba’zida o’quvchilardan so’raymiz: “Oila azolaringiz bilan vaqt o’tkazasizlarmi? Nimalar qilasizlar?” Beriladigan javoblar esa juda qiziq: “Biz kechqurunlari popko’rn olib, birgalikda o’tirib, televizor ko’ramiz”. Demak, insonlarning oila sifatida to’yishlari bo’lgan eng katta baxt televizo’rga aylangan. Avallari bola amakiga, tog’aga, ammaga, xolaga o’xshar edi. Chunki, bolalar ular bilan muntazam ravishda mustaxkam munosabat ichida edilar. Endi esa bolalar “televizor xola”siga yoki “amaki”siga o’xshamoqda. Sochlarini televizorda ko’rganidek kestirib, kiyim va so’zlarni ham shunga qarab tanlashmoqda.

Yurtimizning har javhasida bir xil madaniyat yoyildi. Qanday madaniyat deysizmi? Televizor madaniyati. Bu madaniyatning zudlik bilan yoyilishi hududlarora madaniy farqlanishlarning yuqolishiga sabab bo'lmoqda.

Bugun o'rta yoshda va undan katta yoshda bo'lgan kishilar televizor bilan ulg'aymadilar. U paytlar televizor yoki telefon yo'q edi, oq qora televizorlar bor edi. Yangi avlod tug'iliishi bilan unung hayotiga televizor kirib kelmoqda. Masalan, bola ovqatini yemasa televizor yoqilib, unga ovqatini berishga harakat qilinadi. Ya'ni, bola televizor bilan ulg'ayishni boshlaydi. Televizor bilan ulg'ayishning salbiy ta'sirlarini biz hali to'liq anglab yetganimiz yo'q. Uch yoshgacha televizor ko'rgan bolalarda otistik xususiyatlar ko'p uchraydi. Ba'zi ota-onalar "Bizning farzandimiz juda aqlli. Reklama boshlanishi bilan uning musiqasidan qaysi reklama ekanini bilib oladi", deyishadi.

Yustin Hoffmanning "Yomg'irli odam" filmini ko'rgan bo'lsangiz kerak. Bu film otistik bir bola haqida. Bolada turli hususiyatlar bor. Yerga tushgan bir talay gurgut cho'plarini bir lahzada sanay oladi. Mashinalarni nomerlarini eslab qoladi. Mana shu shingari, bir qator hususiyatlarga ega.Biroq bu hususiyatlar bolaning juda aqlli va zehnli ekanini ko'rsatmaydi.

Agar farzandingiz 25 yoshga kelganida mast holatda avtohalokatga uchrashini, uylanib bola chaqali bo'lganida ko'p ichgani sababli davolash stoliga o'tirishini istamasangiz, marhamat qilib bolaligida u ko'rayotgan televizor dasturlarini kuzating. Ota-onalar farzandlarining bir soniyasi ham bo'sh o'tishini istamaydi. Maktabdan kelishi bilan "Otir, ovqatingni ye, televizor ko'r, istasang kompyuter o'yna, darslaringni qil'', singari mashg'ulotlar yuklashadi. Buning o'rniga o'tirib farzandingiz bilan biroz suhbatlashing. Ba'zi ota-onalar bolalari bilan suhbatlshishni, ularga kitob o'qib berishni, vaqtni bekorga o'tkazish deb hisoblashadi. Vaholanki, farzandlarimiz o'z qobilyatlarini ishlatib yangilik yaratadigan payt bu-ularning ilm va sokin holatda o'tirib, fikr yuritadigan paytlari sanaladi. Kichik bolalardagi eng muhim hususiyatlardan biri, ularning hayolat dunyosining kengligidir. Farzandingiz biror narsadan zavq tuyushini istasangiz, ularning hayol kuchini rivojlantirishga yordamlashing. Ba'zi, bir bolalar televizor sababli odamovi bo'lib qolishadi, ko'chada o'rtoqlari bilan o'ynash o'rniga televizor va kompyuter qarshisida o'tirishni ma'qul ko'rishadi. Bu holat ko'pincha ota-onaga yoqadi. Lekin televizor bolani zehniy jihatdan passiv holatga keladi. Amerikada bolalarga uchta tanlov berilgan. Ota-ona va televizor. Uydan qaysi biri ketsin? Qizig'i bolalarning ota-onasi bilan televizordan birini tanlashga qiynalishlari va bir guruh bolalarning ota-onalari ketishini istashlari. Bu aslida, fojea edi.

Bir necha yil ilgari Arnold Shvarsnegr o'ynagan bir filmda Arnold mashinasini olib qochgan qizining ortidan baqiradi, so'ng o'ziga-o'zi: Buning onasi juda yaxshi ayol, men ham yaxshi insonman, ammo bu qiz kimga tortdi. Madonna holasiga yoki Maykl Jekson amakisiga totrgandirda. Farzandingizni xatti-harakatlarida siz izohlab bera olmaydigan, sababini topa olmagan salbiy holatlar bo'lsa va ularning kimligining ta'sirida bu harakatni amalga oshirayotganini bilmasangiz, ular bilan birga televizor ko'ring. Shunda uning kimdan ta'sirlanayotganini bilib olasiz. Televizorda baxtning birdaniga boyib ketish, loteriyadan pul yutib olish singari, sabablarga bog'lanishni ko'rgan bola oddiy hayotda mayda narsalardan saodat topish tuyg'usini yuqotadi.

Baxtni televizordan qidiradi. Televizorning bolalar va yoshlarga eng katta salbiy ta'siri, ularni faol ishtirok etishlari lozim bo'lgan va zehniy tajriba talab etadigan xatt-harakatlardan uzoqda tutib, passiv holatga tushurib qo'yishidir. Chunki, televizor ko'rish ortiqcha harakatlanishni talab etmaydi. Shu sababli ertaning egalari bo'lgan bolalar tashabbuskorlik va g'ayrat husisiyatlarini yo'qotadi.

Televizor bolalarda zo'ravonlik kayfiyatining ortishiga sabab bo'lmoqda. Hatto multfilmlarda zo'ravonlik sahnalari mavjud. Multfilm qahramonlari yerga uriladi, ammo hech narsa bo'lmaganidek yana o'rnidan turadi. "O'rgimchak odam" multfilmini ko'rgan bola o'zini 7-qavatdan tashlagan edi. Nima sababdan? Chunki, u ko'rgan film qahromonlari yuqori qavatlardan sakrasalar-da, ularga jin ham urmas edi. Bunday filmlarni ko'rgan bola zo'ravonlik qilinsa hech narsa bo'lmaydi degan qarorga keladi. Masalan, qo'shni bola yoki qarindoshi bilan o'ynayotganda zo'ravonlik qilishga urinib ko'radi. Barcha aybni televizorga ag'darish to'g'ri bo'lmas, balki oila muhitidagi zo'ravonlik bolani o'rab olgan muhit ham bunga sabab bo'lishi mumkin.

Televizordan foydalanish yo'li: Televizorni butunlay inkor etmoqchi emasmiz. Ammo, uni foyda-zararini taqqoslash o'zingizga havola. Masalan, dinamit yaxshimi yoki yomonmi? Agar biror uyning tagiga qo'yib, uni yer bilan yakson qilinsa, dinamit yomonlikka hizmat qiladi. Biroq, yo'l sozlikda, qoyalarni yo'ldan olib tashlashga dinamitning foydasi katta. Siz ham televizorga mana shu tarzda yondashing. Bola ma'lum yoshga to'lsa balki, zarar bo'lmas. Ammo, shaxsiyati endigina rivojlanayotgan, tafakkur dunyosi endigina shakllana boshlagan kichik yoshdagi bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq. Televizor foydalimi yoki zararmi? Bunga o'zingiz qaror qiling. Maslahatimiz, biror kunni belgilang va oilaviy biror ish bilan mashg'ul bo'ling. Agar farzandingizni kamroq televizor ko'rishini istasangiz, o'zingiz ham televizor ko'rishni kamaytiring. Bola uchun tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi mashg'ulot bilan band bo'lishga harakat qiling. Chunki, farzandlarimiz bizni o'zlari uchun ideal darajasidagi insonlar deb bilishad.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Maktab olidan boshlanadi", Oilda sog'lom munosabot sirlari "Yangi asr avlodi" Toshkent 2016
2. "Qiziqarli psixologiya" M.E Zufarova.
3. "Ta'lim-tarbiya" Ishoqjon Muhammadjon o'g'li.

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA-HISSIY QIYINCHILIKLARNI BARTARAF ETISHDA O'YIN FAOLIYATINING ROLI

*Tuychiyeva Shaxlo Shavkatovna*
*Toshkent shahar Shayhontohur tumani 497-DMTT psixologi*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kuzatishlarimiz shuni isbotlaydiki, bolalar o'z hissiyotlarini namoyon qilishda- o'yin voqealari tajribalari va o'yinning yuqori motivlari qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Tuyg'ular o'yinni kuchaytiradi, uni

qiziqarli qiladi, munosabatlar uchun qulay iqlim yaratadi, har bir bolaning ruhiy farovonligi uchun zarur bo'lgan ohangni oshiradi va bu, o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolaning tarbiyaviy ta'sirga moyilligi va tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyatining shartiga aylanadi. Bundan tashqari, yaxshi o'yin disfunktsional oilalarda tarbiyalangan bolalarda hissiy kasalliklarni tuzatishning samarali vositasidir. O'yinlarida bolalar odatda o'zlarining e'tiborlari va qiziqishlariga sabab bo'lgan voqealar, hodisalar va vaziyatlarni namoyish etadilar. Hayotni aks ettirib, bola taniqli naqshlarga tayanadi: atrofdagi odamlarning harakatlari, ishlari va munosabatlari kabilardir.

Bola uchun o'yin o'zini anglash va o'zini namoyon qilish vositasidir. Bu unga "Maktabgacha Ta’lim Tashkilotlari" ning cheklangan dunyosidan chiqib, o'z dunyosini qurishga imkon beradi. Bolaning atrofdagi dunyoga munosabati kattalarning baholari va voqealar va hodisalarga ularning emotsional ekspressiv munosabati bilan shakllanadi. Voyaga etgan kishining munosabati va uning namunasi asosan bolaning ehtiyojlari, uning qadriyat yo'nalishlari, intilishlari va istaklari, shuningdek, atrofdagi odamlarning ahvoliga javob berish, ular bilan hamfikr qilish qobiliyatini rivojlantirishni belgilaydi. Bu ichki dunyoning mazmuni va o'yin faoliyati tarkibini belgilaydi.

O'yinda, boshqa hech qanday faoliyatda bo'lmaganidek, ma'lum bir yoshdagi bolaning kattalar hayotiga qo'shilish istagi amalga oshiriladi. Bu uning dadasiga, shifokorga o'xshab, haydovchiga o'xshash bo'lish istagini amalga oshiradi.

Bolalarning hissiyotlariga o'yinning ta'siri katta. U sehrlash, hayajonlantirish, hayajonlanish va zavqlanish uchun jozibali qobiliyatga ega. O'yin, uning mazmuni o'tkir hissiy shaklda berilgan taqdirdagina, haqiqatan ham amalga oshiriladi.

Bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun didaktik o'yinlar katta muvaffaqiyat bilan, jismoniy mukammallikni shakllantirish uchun - mobil o'yinlar, va insonning ijtimoiy hissiyotlari va ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirish uchun qoidalar, syujetli - rol o'ynash o'yinlari qo'llaniladi. Ba’zan bolalarning o'ynashga qodir emasligi bolaning ijtimoiy fazilatlari, uning ijtimoiy ongi rivojlanishining sustlashishini anglatishi mumkin.

Hissiy qiyinchiliklarni tuzatishning turli usullari orasida o'yin muhim o'rin tutadi. U yosh bolalarning alohida sevgisidan mamnun, u kattalar tomonidan majburlanmasdan paydo bo'ladi, u psixologlar aytganidek, faoliyat olib boradi. Bu shuni anglatadiki, bola psixikasidagi, uning ijtimoiy hissiyotlari rivojidagi, xulq-atvoridagi eng muhim o'zgarishlar. o'yinda sodir bo'ladi.

Hissiy jihatdan noqulay bo'lgan bolalar o'ynashda turli xil qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular, masalan, xafa bo'lgan, qiynoqqa solingan yoki jazolangan qo'g'irchoqlarga nisbatan shafqatsiz munosabatni namoyish etadi. Bunday bolalarning o'yinlari monoton takrorlanadigan jarayonlar xarakteriga ega bo'lishi mumkin. Boshqa hollarda, ma'lum bir toifadagi o'yinchoqlarga va ba'zi bir harakatlarga, maktabgacha yoshdagi bolalarning normal aqliy rivojlanishiga qaramay, tushunarsiz birikma mavjud. Hissiy sohaning noto'g'ri rivojlanishining sanab o'tilgan xususiyatlari, maxsus tarbiyaviy yondashuvni, maxsus pedagogik tuzatishni talab qiladi. Aks holda, bu buzilishlar ruhiy nuqsonlarga, ijtimoiy fazilatlar va umuman bolaning shaxsiyati shakllanishining kechikishiga olib kelishi mumkin. Bolalarning emotsional rivojlanishi bilan o'yinni rivojlantirish o'rtasidagi bu yaqin bog'liqlik, o'yin jarayonida olib boriladigan psixologik

va pedagogik metodikalar hissiy sohani normallashtirishi, hissiy to'siqlarni olib tashlashi va hissiy xulq-atvorning ancha rivojlangan, progressiv shakllari paydo bo'lishiga olib kelishi kerakligini ko'rsatmoqda.

Hissiy xulq-atvorning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turli xil o'yin turlaridan foydalanish kerak: rol o'ynash, dramatizatsiya o'yinlari, qoidalar bilan o'ynash va o'yinni bola shaxsining nomaqbul fazilatlari yoki salbiy his-tuyg'ulari muvaffaqiyatli engib o'tadigan tarzda boshqarish kerak.

Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalarning ba'zilari qanday o'ynashni bilishmaydi. Buning sabablaridan biri shundaki, oilada hech kim bolalar bilan o'ynamaydi. Yana bir sabab shundaki, bolalar erta yoshda, turli sabablarga ko'ra o'z tengdoshlari bilan aloqadan mahrum bo'lib, ular bilan munosabatlarni o'rnatishni o'rganmaganlar. Bunday bolalarning o'yini individualdir va odamlar o'rtasidagi munosabatlar kamdan-kam hollarda o'yinlarning mazmuniga aylanadi. O'yinning past darajasida bolalar faqat ob'ektlarni boshqaradilar. Ushbu ob'ektiv harakatlar bolalarning ijobiy hissiy munosabatining ob'ekti hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ba'zi bolalar bir xil tanish o'yinlarni tanlaydilar ( "qizlari-onalar" va boshqalar) o'ynashadi. Har bir qo'g'irchoq - bu bola turli xil his-tuyg'ularga ega bo'lgan o'yindagi belgi. Va biz bola nafaqat ba'zi majburiyatlarni bajarishi, balki o'z rolini chuqur his qilishi uchun ham g'amxo'rlik qilishimiz kerak.

Shuningdek, bolaning umuman o'yin tarkibiga bo'lgan hissiy munosabatini rivojlantirish kerak. Bolalar nafaqat o'yin mazmunini bilishlari, balki ular ushbu tarkib bilan muayyan tarzda aloqador bo'lishlari, shu bilan ularga tegishli rolni egallashga bo'lgan ehtiyojlari bo'lishi kerak.

O'yinda bir xil ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar - bu hissiy va axloqiy rivojlanish uchun asos bo'lgan vazifalar. Ushbu vazifalar bolaning e'tiborini xarakterning pozitsiyasiga, uning holatiga yo'naltiradi, unga xushyoqishni bildirishga va yordam berishga o'rgatadi. O'yin vazifalarini belgilash orqali kattalar maktabgacha yoshdagi bolaning boshqa bolalar bilan hamkorligini qo'llab-quvvatlaydi. Voyaga etgan kishining rol o'ynash xatti-harakatlari bolaning tengdoshlari bilan ishbilarmonlik aloqalari asosi hisoblanadi.

Bola muvaffaqiyatli o'yinlardan katta zavq oladi. U o'zini rolida ta'kidlaydi, chinakam mag'rurlikni his qiladi. O'yindagi ijodiy imkoniyatlarni amalga oshirish, improvizatsiya, g'oyalarni amalga oshirish bolalarning hissiy ilhomlanishiga, ularning bo'ronli quvonchiga, o'yinni takrorlash talablariga sabab bo'ladi. O'yinning hissiy ko'tarilishi maktabgacha yoshdagi bolaga boshqa bolalarga nisbatan negativizmni engishga, ularni sherik sifatida qabul qilishga yordam beradi. Rollarni o'ynash o'yinlari rollarni taqsimlash holatlarida bolalarning hissiy namoyon bo'lishiga ta'sir qiladi, ammo xarakter sheriklarining fazilatlari nomlanmaydi. Bunday hollarda, bola o'zining hayotiy tajribasiga qarab, inson munosabatlarining me'yorlari va qoidalarini sharhlaydi. Bir tomonlama ijtimoiy tajribaga ega bo'lgan bolalar aksariyat hollarda rol o'ynash o'yinida yordamsiz bo'lib qolishadi, chunki ular muayyan sharoitlarda qanday harakat qilish kerakligi, ma'lum bir belgi qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerakligi haqida kam tasavvurga ega. Shunday qilib, bolaga quyon rolini o'ynaydigan tengdoshiga ishora qilib: "Mana, quyon, qara, uning qanchadan qancha quloqlari bor, oppoq teri", va ilgari

o'z tengdoshiga e'tibor bermagan bola, unga mehr bilan, silay boshladi quloqlar "," mo'yna ". Ko'pincha, bu holda, bolada hamdardlikning doimiy hissiy namoyon bo'lishi rivojlanadi, bu nafaqat rol munosabatlarida, balki ularning tashqarisida ham saqlanib qoladi.

Bolaning o'ziga xos fazilatlarini o'zgartirish uchun ushbu roldan ham foydalanish mumkin. Masalan, agar tajovuzkor bolaga: "Siz katta, kuchli g'ozsiz, tez ucha olasiz, siz bo'ridan qo'rqmaysiz, kichik go'daklarni xavfdan himoya qila olasiz!" uni quchog'ida emasmi uni bo'ridan uzoqlashtirdi. U endi bu bolani xafa qilmaydi, avvalgidek, o'yindan tashqarida ham uning vositachisiga aylanadi. Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, bu rol bolaga o'zini tutishini va chaqaloqqa bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yordam berdi.

Shunday turli xil tasniflarni, o'yin turlari va ularning asosiy vazifalarini ko'rib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy qiyinchiliklarini engish uchun o'yinning ahamiyatini aniqlab, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

O'yin - bu bolaning aqliy rivojlanishidagi ko'plab yutuqlarni o'zida mujassam etgan, o'z yo'nalishidagi asosiy rivojlanish, ijodiy va bilim faoliyati. O'yin jarayonida bolalar o'zlarini, atrofdagi dunyoni bilishadi, ular inson munosabatlarining asosiy tushunchalarini shakllantiradi.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Bolalarda rivojlanish sohalarini o'yinlar orqali shakllantirishda - bunda maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolaning asosiy faoliyati ko’z o’ngimizga kelishi muqarrar. O'yin bola uchun doimo jozibali bo'lib, uning intilishlarini amalga oshirishga imkon beradi. Ko'pincha, o'yinda bola o'zida o'zi yoki atrofidagilar uchun ilgari sezilmaydigan xususiyatlarni kashf etadi, o'zida yangi imkoniyatlar ochadi. O'yin - muayyan ko'nikmalarni o'rgatishning eng yaxshi usuli. O'yin davomida bolada rivojlanishi mumkin bo'lmagan bunday ijobiy fazilatlar yo'q. O'yin bu fazilatlarni rivojlantirishning asosiy usuli hisoblanadi, chunki bu bolalar uchun yanada jozibali bo'lib, bolalar buni, masalan, shunchaki maktabda o'qishdan ko'ra ko'proq zavq bilan bajaradilar. O'yin orqali siz bolaning kognitiv xususiyatlarini rivojlantirishingiz, uni zamonaviy jamiyatda hayotga tayyorlashingiz, uning kuchi va imkoniyatlariga ishonishingiz mumkin. O'yin, keyinchalik, bola maktabni tugatgandan so'ng, o'zini kattalar hayotida biznes va "kattalar" rol o'ynash o'yinlari sifatida anglaydi. Zamonaviy inson uchun jamiyatda o'zini o'yinsiz amalga oshirish juda qiyin. Demak, o'yin bola rivojlanishidagi eng muhim omil bo'lib, nafaqat ushbu rivojlanishni amalga oshirish, balki kattalarning mahorat va ko'nikmalarini oshirishga ham yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy rivojlanishi bu ta'lim va tarbiya jarayoni samaradorligini, uning turli jihatlarini ta'minlaydigan muhim shartlardan biridir. Voyaga etgan kattalarni xarakterlaydigan va uni buyuk ishlarga va ezgu ishlarga undashga qodir bo'lgan yuksak axloqiy, estetik va intellektual tuyg'ular bolaga tug'ilishidan tayyor holda berilmaydi. Ular bolalik davrida hayot va tarbiyaning ijtimoiy sharoitlari ta'siri ostida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

O'yin bola yashaydigan ob'ektiv munosabatlarni aniqlash uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi: sheriklari bilan haqiqiy munosabatlarda o'yinga kirish orqali u o'ziga xos shaxsiy fazilatlarini namoyon qiladi va hissiy tajribalarni ochib beradi. Shu bilan birga, o'yinga yangi hissiy tajribani kiritish (tengdoshlari bilan muloqot qilishdan

yoki rolda reenkarnatsiyadan quvonch tajribasi va boshqalar) bolalarda salbiy hissiy namoyonlarni zararsizlantirishga yordam beradi, ularda yangi ijobiy fazilatlar va intilishlar, yangi motivlar va ehtiyojlar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha “Harakatlar strategiyasi”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son,70-modda.

2. Aksarina NM Erta yoshdagi bolalarni tarbiyalash.- M.: "Tibbiyot" nashriyoti, 1

3.O'yinda bolalarni tarbiyalash: bolalar tarbiyachisi uchun qo'llanma. bog '/ Komp. A.K.Bondarenko, A.I.Matusik. - 2-nashr 969 yil.

4. Boguslavskaya ZM, Smirnova EO Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'quv o'yinlari: Kitob. tarbiyachi bolalar uchun. bog '. - M.: Ta'lim, 1991 yil.

# ЁШЛАР ХУЛҚ АТВОРИ ВА ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИЖТИМОИЙ ПСХОЛОГИК ТАЪСИРЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

*Эрисова Маъсуда Рашидовна*
*Самарқанд давлат чет тиллар институти 2 бўлим муҳандиси*

Бугунги кунда ёшларимиз хулқ атворини шакллантиришда ота- оналардан ёки мактаб ўқтувчиларидан эмас балки ижтимоий тармоклардан ва видё роликлардан интернит оламидан олишмоқда. Баъзан бу тарбия усули яхши фойда беради лекин акси хам булиши мумкун. Шунинг учун бугун дивянт хулқ атворли болалар купаймаслиги учун авволо биз таълим жараёни ва оила мухитига алохида этибор каратамиз.

Бизга маълумки, ҳар қандай тарбия таълим билан чамбарчас боғлиқ ҳолдагина мавжуд бўлади. Чунки, таълим ва маълумот олиш жараёнида шахснинг факат билими кўпайибгина қолмай, балки маънавий-ахлоқий сифатлари қарор топиши ҳам тезлашади. Ана шу сабабдан ҳам ота-боболаримиз қадимдан бебаҳо бойлик бўлмиш илму маърифат, таълим ва тарбияни инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий шарти ва гарови деб билганлар.

Ёшларни ҳам жисмоний, ҳам маънавий жиҳатдан тўғри тарбиялашда замонавий педагогика, психология фанлари тавсияларини ҳар қайси оилада жорий қилиш айниқса зарур. Ҳар бир оила, ота-она, энг аввало, бола тимсолида шахсни кўриши, унинг учун шахсга тегишли барча ҳуқуқ ва эркинликлар таъминлаши борасида ўзининг масъул эканлигини доимо ҳис этиб туриши ниҳоятда муҳим.

Шахс шаклланишида уни ўраб турган муҳит ва у интиладиган маданий-ижтимоий идеаллар ҳамда бажарилиши лозим бўлган вазифаларнинг ҳам аҳамияти каттадир. Бундай ҳодисани фанда инсоннинг ижтимоийлашуви (социализация) йўли билан шахсга ўтиши, деб аташ қабул қилинган. Буни изоҳлайдиган кўпгина қарашлар мавжуд.

Ижтимоийлашув умумий маънода инсоннинг био ва руҳий эҳтиёжларига мақсадга мувофиқ, оқилона таъсир ўтказишдир. Бунинг оқибатида инсон шахси қарор топишининг иккинчи томони – унинг субъектив «МЕН»и ҳам шаклланади. Шахснинг «МЕН»и ота-оналари, қариндош-уруғлар, таниш-билишлар, маҳалла-кўй ва бошқалардан ўзлаштирадиган сифатлардир. Бу сифатлар аниқ олинган жойи ва вақтига кўра ижобий ёки салбий шахсий хусусиятлар тарзида шаклланиши мумкин. Ижобий ҳолатда шахсда ўзи тўғрисида одиллик, эпчиллик, қобилиятлилик, уддабуронлик каби тасаввурлар туғилса, салбий ҳолатда унинг лаёқастизлиги, ношудлиги, заифлиги каби хусусиятлари қарор топиши мумкин. Албатта, бу хусусиятлар инсон субъектининг ўз «МЕН»и тўғрисидаги фикрларидир. Уларнинг воқеликка мувофиқ келиши, яъни ҳақиқийми ёки йўқлиги масаласини ҳам назардан қочирмаслик лозим.

Фанда шахс ижтимоийлашувнинг 2 фазаси мавжуд:

1. Социал адаптация (мослашиш). Бунда индивиднинг социал шароитларга, функцияларга, социал меьёрларга, социал гуруҳларга, ташкилот ва институтларга, яъни муҳитга мослашишдир. Социал адаптация жараёни, асосан оилада бошланади ва шаклланади. Оиладаги хар қандай муносабатлар шахснинг ижтимоийлашувида ўз аксини топади. Шу боисдан индивиднинг шахс сифатида шаклланишида оила асосий рол ўйнайди.

2. Социал интериоризация, яъни социал меьёр ва қадриятларнинг индивид ички дунёсига киришиш жараёнидир. Шахс социал муҳитга қоришиб кетмайди, балки унга мустақил бирлик сифатида киради. Кўпгина назарияларда шахснинг ижтимоийлашуви, ташқи таъсир объекти сифатидагина қаралади. Бу назарияларда асос қилиб фақатгина ижтимоийлашув ёрдамида социал ўзгарадиган инсоннинг табиий моҳияти олинади; шахснинг фаоллиги ва унга бериладиган биологик хусусиятлар ҳисобга олинмайди.

Ижтимоийлашув шунга асосланадики, одам ижтимоий фаолият юратувчи сифатида ўзи ва ижтимоий ҳаётининг шароит ва вазиятларини белгиловчи омилдир. Шахс социал таъсирланишнинг объекти ва субъектидир. Ижтимоийлашув жараёнида белгилар тизими муҳим аҳамиятга эга. Белгилар ёрдамида жамият индивидлар фаолиятини бошқаради. Индивид социал фаолият курсатиш учун социал жамоада қабул қилинган белгилар ва уларни ишлатиш усулларини ўзлаштирган бўлиши керак.

Умуман, ижтимоий психологик муҳит таъсири остида шахснинг шаклланиш жараёнини тасвирлаш учун «ижтимоийлашув» тушунчаси XX аср охирида пайдо бўлди. Ижтимоийлашув деганда шахснинг ўз ҳаёт мобайнида ўзи мансуб бўлган жамиятнинг ижтимоий меъёрлари ва маданий қадриятларини ўзлаштириш жараёни тушунилади. «Ижтимоийлашув» тушунчаси «шахсни тарбиялаш», «шахсни шакллантириш» тушунчалари билан чамбас боғлиқ, бироқ у кенгеоқ тушунча бўлиб, инсонга барча мумкин бўлган таъсирларни қамраб олишга имкон беради.

Умумий қилиб оладиган булсак хар бир ёшларни жамиятдаги ўрни ва ролига алохида этибор қаратишимиз ва ижтимоий психологик мухитини яхшилашимиз лозим. Ижтимоий психологик мухит бугунги янгича дунёқараш ва янгича

фикирларни илгари суриш барча ёшларга кенг имкониятлар ва хар бир ёшларга алохида этибор каратиш лозимлигини талаб қилади.

Таклиф:

1. Хар бир боланинг ота онаси билан алохида ишлаш яни ота-оналарга ижтимоий психологик билимлар бериш.
2. Ёшларни оиладаги урни ва оилавий мухитларини тахлил қилиб уларга ижтимоий кумаклашиш зарур.
3. Мактабда болаларни ижтимоий псхологик мухитни яхшилаш.
4. Ёшларга дунёкарашни кенгайтиришга оид психологик билмлар бериш. (китоблар совга килиш, совга килинган китобдан КИТТОБХОНЛИК утказиш)
5. Психологик билимларни кенгайтириш учун хар бир махалларда ота оналар билан давра сухбатлари утказиш.
6. Махалла оилалар билан ишлаш ходимларини айнан педогог-психологик билимга эга кадирлар булиши зарур.

Базан шуни унутмаслигимиз лозимки оилаларда психогга мурожат қилиш учун хам оилавий имкониятлари йуқлиги хамда моддий қийинчиликка учраган оилалар фарзандлари девиант хулқ атворли булишади. Шу муносабат билан ҳар бир ижтимоий химояга мухтож оилаларга алохида дарсларни ташкил килиш лозим.

Ҳар бир махалла кесимида урганиб чикиб ижтимоий ва маънавий психолгик билимларни барча аҳолига тулиқ йтказиш лозим.

# SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF YOUNG PEOPLE IN THE PROCESS OF ADAPTING TO HIGHER EDUCATION

*Yangiboyeva Dildora Rahmon qizi*
*Student, International islamic academy of Uzbekistan*

**Annotation:** A country that does not take care of children and youth has no future, and unless there are significant changes in the near future, we are doomed to extinction. Youth is a socio-demographic group experiencing social maturity, adaptation to the adult world, and future changes. Young people have fluid boundaries of their age, they depend on socio-economic development of society, the level of culture, living conditions. To consider the problems of youth, it is necessary to imagine what youth is, how it differs from other social groups.

**Key words:** youth, psychological factors, adaptation, education.

Youth is only a relatively independent unity. It is divided into different groups with their own characteristics, difficulties, problems, which differ from each other position in the system of social production, the real contribution to the development of society, as well as the level of consciousness, the nature of interests, needs, lifestyle and place of residence. Youth, when everyone must determine their own destiny, find the only true, leading to success way of life, which will allow maximum realization of their abilities and talents. This is a period associated with an excruciatingly difficult process

of self-discovery, finding your own "I". A person needs to define the boundaries of his real abilities, to understand what he is capable of, to assert himself in society. On the other hand, at the same time he needs to form the most accurate idea of the world around him, to systematize value orientations, political, moral, aesthetic views. Life puts the young person before the need to make a number of critical decisions in the context of the lack of life experience. The choice of profession, the choice of a life partner, the choice of friends - this is not a complete list of problems, one or another decision which to a large extent forms the image of the subsequent life [3].

The ability to adapt to the requirements of the emerging information society is largely determined by the peculiarities of the psychology and social position of young people.

Problems of adaptation to various conditions of social existence directly concern the young generation of our country. It is known that a significant period of adolescence passes in the process of peculiar types of learning activities. Humanitarization of education, aimed at the development, mastering and use of humanitarian knowledge for the awareness of the attitude to the surrounding world and himself, his independent activity in this world, creates the necessary basis for the optimization of the process of adaptation of young people to various forms of learning [1].

The peculiarity of the modern system of higher professional education is the presence of a number of contradictions:

- between the readiness of first-year students of higher education institutions for learning in the new system and the requirements of this system for first-year students, which determine the need for rapid adaptation of students to the educational process of the university;
- between the need for rapid and effective adaptation of first-year students and the undeveloped system of activities providing pedagogical support during the adaptation to the educational process of the university;

The analysis of literary sources allows us to state that the problem of first-year students' adaptation to the educational process of the university remains insufficient. Most of the publications related to the adaptation in the conditions of higher education refer to the social or professional aspects of adaptation [4]. Such aspects of the problem as a comprehensive approach to the process of first-year students' adaptation to the conditions of studying at the university, formation of pedagogical measures, determination of their content, forms, methods and means that contribute to the efficiency of the adaptation process need to be solved. Thus, obviously, there is a theoretical and practical problem, which is formulated as follows: what are the features and optimal pedagogical conditions of students' adaptation to study at the university? Higher education institutions are that micro environment in which a young person without irreversible negative processes, personal deformation can pass from childhood non-self to adult independent life[2].

Pedagogical teams of universities are always concerned about the problems of adaptation of freshmen, developing whole systems to help yesterday's schoolboy to overcome contradictions between his available "capital" and qualitatively new requirements in an educational institution. The yesterday's schoolboy gets into a

different environment when he crosses the threshold of the university: lectures, lectures, lectures. When the seminars begin, it turns out that you can not always prepare for them. In general, it is not necessary to learn, solve, memorize something every day.

As a result there often appears an opinion about the seeming ease of studying at the university in the first semester, there is a certainty of catching up and mastering everything before the session, there is a careless attitude towards learning. The payback comes in the session. And then, not passing all the exams, not getting credit, the student who does not have a high capacity for work, self-organization and high motivation just loses faith in himself and interest in learning[6].

In studies of the process of adaptation of first-year students to university, the following main difficulties are usually highlighted: negative experiences associated with the departure of yesterday's students from the school team with its mutual help and moral support; uncertainty of motivation to choose a profession, insufficient psychological preparation for it; inability to exercise psychological self-regulation of behavior and activity, exacerbated by the lack of the habit of daily control of teachers; the search for the optimal mode of work and rest in the new conditions; the adjustment of everyday life and self-care, especially during the transition from home to the dormitory; lack of skills of independent work, the inability to take notes, work with primary sources, dictionaries, reference books, pointers.

Personal development of the student in high school is not only the development of intelligence, but also the readiness for autonomy, independence, the formation of a positive attitude to the world and acceptance of others, the formation of self-confidence, motivation for self-actualization, and self-improvement. These problems are especially acute in the first years of training in the period of adaptation to the conditions of the university [7].

In order to work out tactics and strategies to ensure optimal adaptation of a student to the university, it is important to know the life plans and interests of a first-year student, the system of dominant motives, the level of pretensions, self-esteem, the ability to consciously regulate behavior, etc. The successful solution of this problem is connected with the development of the psychological service of the university.

## References

1. Danilicheva N. A., Balakireva L. A. Psychology of professional choice. SPb., 1998. p 105 .
2. Zimnyaya I. A. Pedagogical psychology. Rostov-on-Don: Phoenix, 1997. p 480 .
3. Meerson F.Z. Adaptation, stress and prevention. M., 1981. p 278 .
4. Orlov, M. M. Ascent to individuality. M., 1991. p 287 .
5. Repkin V. V., Repkin G. V., Zaika E. V. About a system of psychological and pedagogical monitoring in the construction of learning activity // Voprosy psychologii. 1995. № 1. P. 13-24.
6. G. Sellier. Stress without distress. Moscow: "RENAR" and Central Committee of Russian Red Cross Society. 1992. P. 15.
7. Solomatina T.B. Social adaptation of students in the process of professional education. M., 2001. P. 3-18.

# ЁШЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАРИ, САБАБ ВА ЕЧИМЛАРИ

*Юлдашева Зулхумор Зиёдуллаевна*
*Навоий вилояти Учқудуқ туман МТБга қарашли 1-сон ДМТТ психологи,*
*Ҳамраева Жамила Ахмадовна*
*Навоий вилояти Учқудуқ туман МТБга қарашли 11-сонли ДМТТ психологи*

Мактабга бориш болаларнинг хаѐтида жуда катта воқеадир. Мактаб ҳаѐти болаларга янги бир дунѐни очиб беради. Мактаб даврида болаларнинг асосий фаолиятлари ўзгаради. Энди болаларнинг асосий фаолиятлари, асосий вазифаси ва ижтимоий бурчи ўқиш бўлиб қолади. 6-7 ѐшли болалар учун янги фаолият бўлган ўқиш улардан янги сифат, янги хусусиятларга эга бўлишларини талаб этади. Ўқиш фаолияти учун болаларда барқарор диққат, ўткир зеҳн, мустақиллик, ишчанлик ва батартиблик хислатлари бўлиши керак. Боғчадан мактабга ўтишлари натижасида катталар билан бўлган муносабатларида ҳам бирмунча ўзгариш юз беради. Болаларнинг мактабга ўтишлари, уларнинг яслидан боғчага ўтишларига қараганда мураккаб босқичдир. Шуни ҳам назарда тутиш керакки, бола мактабга ўтиши билан унинг ижтимоий ҳолатида ҳам ўзгариш рўй беради. Чунончи мактаб ѐшига яқинлашган болалар боғчада ― катта  деб ҳисобланар эдилар. Мактабга ўтгач, улар яна ― энг кичкиналар‖ қаторига тушиб қоладилар. Болаларнинг мактабга ўтишлари билан юзага келадиган ана шундай жиддий ўзгаришларни назарда тутиб, уларни мактабдаги янги ҳаѐтга ҳар томонлама тайѐрлаш керак. Болаларни мактабдаги ўқиш жараѐнига тайѐрлашда уларнинг нутқини ўстириш жуда зарур шартлардан биридир. Шунинг учун катта гуруҳ болаларини мактабдаги ўқишга тайѐрлашда ўз она тилларини яхши ўпганишларига, яъни сўз бойлигини орттиришга, тўғри талаффуз ва тўла 45 ҳамда тўғри жумла туза олишларига аҳамият бериш керак. Болаларнинг ташқи олам ҳақида тасаввурларини кенгайтириш, бойитиш ишлари улар нуткини ўстириш асосида олиб борилиши керак. Шу нарса диққатга сазоворки, ҳамма боғчалардаги мактаб ѐшига тўлган болалар мактабдаги ўқишга баб-баравар тайѐр бўлавермайдилар. Айрим болалар мактабга келгач, янги шароитга тез киришиб кета олмайдилар. Уларда ўқиш учун қандайдир бир хусусият етишмаѐтгандек кўпинади. Бу ўпинда шундай бир савол тугилади. Болаларни қай пайтда психологик жиҳатдан мактабдаги ўқишга тайѐр деб ҳисоблаш мумкин. Айрим психологларнинг фикрича, бола мактабда ўқиши учун атрофдаги нарса ва ҳодисаларга доир анчагина тасаввурларга эга бўлиши ҳамда маълум даражада ақлий жиҳатдан ўсран бўлиши лозим. Бирок у ҳаѐтда шйндай воқеалар учрайдики, анчагина тасаввур бойлигига эга бўлган ва ҳаттоки ѐзиш ҳамда ўқишни биладиган болалар ҳам мактабдаги ўқишга тайѐр бўлмайдилар. Улар мактаб ва ўқитувчининг талабларини бажара олмайдилар. Аксинча, айрим болалар етарли тасаввур бойлигига эга бўлмасалар ҳам, мактабда ўқиб кета оладилар. Лекин, бундан мактабдаги ўқиш жараѐни учун маълум даражада ақлий жиҳатдан ўсган бўлиш,

мактабда дастлаб ўқиб кетиш учун энг зарур шартлардан биридир. Лекин бу боланинг ўқишга тайѐр эканлигини аниқлашдаги хал килувчи омил эмас, чунки бу ерда ѐш масаласи ҳам бор. Бошқа бир олимлар, боланинг ўқишга тайѐр эканини аниқлашдаги асосий нарса ирода сифатларининг етилганлигидир, дейдилар. Бу фикр бир ѐқламаликка йўл қўйишдан бошқа нарса эмас. Етти ѐшга тўлиш даври гўдакликнинг тугаши даврига тўғри келади. Худди ана шу даврдан бошлаб болаларда ўз-ўзини англаш таркиб топа бошлайди. Шунинг учун болаларнинг етти ѐшга тўлган давридан бошлаб тизимли суратда ўқитишга ўтиш мақсадга мувофиқдир. К.Д.Ушинскийнинг фикрича боланинг мактабдаги ўқиш фаолиятига тайѐрлиги айрим психик жараѐнларнинг тараққиѐт даражаси билан эмас балки бола шахсининг умумий тараққиѐт даражаси билан аниқланади.

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH

*To'rayeva Charos Uyg'un qizi*
*Qarshi muhandislik iqtisodiyot inistituti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri yoritilgan. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash. Ularda o'z vataniga, millatga bo'lgan hurmatni uyg'otish. Ommaviy madaniyat va uning niqobi ostidagi turli xil hurujlarga qarshi turish. Har bir davlat yoshlarni tarbiya qilishda milliylikni, o'tmish ajdodlardan qolgan ma'naviy merosdan foydalanishi kerakligini va yoshlarda milliy mentalitetni shakllantirish kerakligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv, milliy qadriyatlar, ommaviy madaniyat, milliy mentalitet, tarbiya, yoshlar ruhiyati, diniy qadriyatlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar.

Bugungi kunda dunyo turli sohalarda o'zgarib shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Kishilik jamiyati jadallik bilan taraqqiy etib rivojlanib borar ekan albatta unda istiqomat qiluvchi insonlarning ayniqsa endigina o'sib ulg'ayib kelayotgan yoshlarning yashash tarziga, ularning dunyoqarashlariga, ma'naviyatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Har bir davlatning va jamiyatning ertangi kunini, uning jahon hamjamiyatidagi o'rnini har tomonlama mukammal, intelektual salohiyatli yoshlar tashkil etadi. Globallashuv sharoitida mamlakatimiz milliy manfaatlarini himoya qilish, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda yoshlarni turli xil yod g'oya va hurujlardan himoya qilish uchun biz ularni davlatning ma'naviy- axloqiy negizlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashimiz lozimdir.

Shu o'rinda globallashuv atamasiga to'xtalsak Globallashuv (lot.globus-shar, yer sayyorasi)-XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi,

axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushunchadir.[1] Shuningdek, bu tushuncha jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy,siyosiy va madaniy sohada o’zaro yaqinlashuvi, birlashuvi, voqea-hodisalarning bir mamlakat doirasida chiqib, umuminsoniy miqyosga ega bo’lishi, butun yer sharini qamrab olishi bilan xarakterlanadi.[2]

Milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan yoshlar turli xil yod g’oya va hurujlarga qarshi tura oladi. Bugun dunyoda g’arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun yoshlar ongni egallash va ulardan foydalanish kuzatilmoqda. Ommaviy madaniyat niqobi ostida turli xil yod g’oya va madaniyatlarni yoshlar orasida targ’ib etish va ommalashtirish hodisalari yuz bermoqda. Ommaviy madaniyat deb berilgan madaniyatning boshqa oqimiga kiruvchi g’oya, nuqtayi nazar,ko’rsatma,imij va boshqa ijtimoiy fenomenlar to’plamiga aytiladi.[3]

Aynan ommaviy madaniyatning ko’pincha keng aholi qatlamiga xush kelishi uchun soddalashtirilgan va ahamiyatsiz mavzularga qaratiladi. Bugun biz yoshlar ham zamon bilan ham nafas rivojlanmoqdamiz. Bugun biz yoshlar o’zimiz bilmagan anglamagan holda turli xil ommaviy madaniyatning ta’siriga tushmoqdamiz. Ommaviy madaniyat deb bizga turli xil faxsh va behayo g’oyalarni singdirish orqali o’zlarining maqsadlarini amalga oshirishni ko’zlaganlar. Bu maqsadlarning domiga esa ko’pincha biz yoshlar tushamiz. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yanada rivoji biz yoshlarni ommaviy madaniyat va boshqa yod g’oyalarning ta’siriga tushishimizga yanada keng imkoniyat yaratmoqda.Asossiz va maqsadsiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish oqibatida endigina katta hayotga qadam qo’yayotgan yoshlar o’zlari bilmagan holda turli xil g’oya va qarashlar ta’siriga tushib qolmoqda. Bugun biz yoshlar turli zararli ta’sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo’lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo’lib qolishimiz qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashasak turli madaniyatlar ta’siriga tushmaymiz.

Yoshlar ruhiyati juda nozik va takrorlanmasdir. Endigina o’sib kelayotgan yoshlarni turli xil rang barang nasalar bilan jalb etish juda oson. Shu sababli yoshlarni asrlar dovomida shakllangan milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash juda zarur. Masalan, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan yoshlarda oilaning muqaddasligi, kattalarga bo’lgan hurmat, vatanga muhabbat, shuningdek sof islom aqidasida tarbiyalanganlik, ajdodlari qoldirgan me’rosni asrab-avaylash, uni yanada rivojlantish maqsadi bo’ladi. Marhum birinchi prizedentimiz I.A.Karimov aytganidek “Inson ongida bo’shlik paydo bo’ldimi, uni kimdir egallashga to’dirishga harakat qiladi ”.[4] Yoshlar ongini egallash ulardan foydalanish shu orqali davlatning kelajagiga bolta urish, bir davlatni ma’naviyatsiz holga keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak shiddat bilan o’zgarib borayotgan zamonda milliy ma’naviyat, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalanmagan yoshlar o’zligini, tarixini yo’qotadi. Bunday yoshlar esa millat va davlatning kelajagini yoq qiladi. Shuning uchun ham ota-bobolarimizdan qolgan qadriyatni yanada rivojlantirish, ularga nisbatan biz yoshlarda hurmat va ehtiromni shallantirish zarurdir. Milliy qadriyatlar va milliy mentalitet asosida tarbiya topgan yoshlar har doim yurt manfaatini, millat sha’nini,davlat kelajagini birinchi o’ringa qo’yadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Ma'naviyat Asoslari" darslik. V.Qo'chqorov, O.Mahmudov. Z.Zamonov.T:2018.
2. Milliy istiqlol g'oyasi:asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.O'FMJ 2004.
3. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'at.-T.G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uy,2009.
4. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"-I.A.Karimov.

# ЎСМИРЛИК ДАВРИДА ДЕВИАНТ ХУЛҚНИНГ ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР

*Баирбекова Зарина*
*Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети 2-курс магистранти*

Девиант хулқ-атвор — жамиятда ўрнатилган ахлоқ меъёрларига мос келмайдиган инсоний фаолият ёки хатти-ҳаракат, ижтимоий ҳодиса бўлиб, ёлғончилик, дангасалик, ўғрилик, ичкиликбозлик, гиёҳвандлик, ўз жонига қасд қилиш ва бошқа кўплаб шу каби ҳолатлар ушбу хулқ-атвор хусусиятлари ҳисобланади. Қуйидагилар девиант хулқ-атворнинг нисбатан кенгроқ тарқалган кўринишларидан саналади:

а) жиноятчилик. Муайян давлатда ўрнатилган қонун ва меъёрларга нисбатан айрим шахсларнинг салбий муносабати жиноий фаолият, мазкур шахс эса жиноятчи ҳисобланади.

b) ичкиликбозлик. Бу борада илмий адабиётларда бир неча таснифлар мавжуд:

1) Алкоголни ҳар-ҳар замонда истеъмол килиш.

2) Алкоголни кўп истеъмол қилиш — спиртли ичимликларни мумтазам, яъни ҳафтада бир мартадан бир неча мартагача ёки, бирваракайига ўртада танаффус билан кўп микдорда (200 мл.дан ошиқ). Бу кўпинча алкоголизмга олиб келади.

3) Алкоголизм — спиртли ичимликларга патологик(муттасил) ўрганиб қолиш билан тавсифланувчи касаллик.

в) Гиёҳвандлик. Гиёҳванд ёки унга тенглаштирилган воситаларга мунтазам ружу қўйиш ва тиббий кўрсатмаларсиз истеъмол қилиш.

г) Фохишабозлик. Фанда расмий никоҳсиз жинсий алоқа, икки турга бўлиб ўрганилади:

1. Конкубинат — никоҳсиз бирга яшаш.

2. Фоҳишабозлик — пул учун ўз танасини сотиш.

Ижтимоий меъёр ва қадриятлар қанчалик кўп бўлса, қоидаларни бузиш типлари ҳам шунчалик кўп бўлади. Бундан ташқари, турли маданиятлар, шунингдек, субмаданиятларнинг меъёрлари битта жамият ичида ҳам анча фарқ қилади. Шунинг учун бир жамият учун оддий ҳол ҳисобланган нарса бошқасида меъёрдан оғиш сифатида баҳоланиши мумкин. Масалан, марихуана чекиш –

Британия маданиятида «оғиш» ҳисобланади, алкаголли ичимлик ичиш эса «оғиш» ҳисобланмайди.

Девиант хулқ-атворнинг вужудга келиши ҳақида икки хил қарашлар мавжуд бўлиб, биринчиси табиий-биологик, иккинчиси ижтимоий-редуктсион фикрлардир.Табиий биологик қарашларга кўра, девиант хулқ-атворнинг келиб чиқишида биологик омилларнинг роли алоҳида ўрин тутади. Генетик тузилишнинг ўзига хослиги, биохимик бошқаришнинг бузилиши, асаб тизими механизмлари иш фаолиятининг бузилиши ва бошқалар шундай омиллардандир. Ижтимоий-редуктсион назариялар ҳар қандай ички, шу жумладан психологик (шахс диспозитсиялари) ролини инкор этгани ҳолда оғишган хулқ-атворни ижтимоий-иқтисодий ҳолатлар билан тушунтиришга ҳаракат қилади.

Девиант хулқ-атворнинг шаклланишига ҳам ташқи (жумладан ижтимоий-иқтисодий), ҳам ички (психологик) омиллар таъсир кўрсатади. Биринчи омилларга ишсизлик, ҳаёт тарзининг пастлиги, жамиятда у ёки бу қатламнинг яшаш даражасини киритиш мумкин.

Ўзлигини англаш билан боғлиқ эҳтиёжларнинг қондирилмаслиги болада тажовузкорликни вужудга келтириди. Ўзи йўқотган нарсасининг ўрнига бошқаникини ўзлаштириб олишга интилади. Мустақилликка, эркинликка бўлган эҳтиёжнинг қондирилмаслиги ҳаммага нисбатан тажовузкорлик, протест, намойишкорона бўйсунмаслик, уйдан қочиб кетиш каби ҳолатларни вужудга келтиради. Оилада ва тенгдошлари даврасида ўзининг ҳақиқий ўрнини топа олмаслик ўз-ўзини тасдиқлашнинг негатив (салбий) шаклларидан фойдаланишга олиб келиши мумкин.

Нотўғри тарбия болада ижтимоий ҳаётдаги норма ва қоидаларга нисбатан менсимаслик ёки салбий муносабатни вужудга келтиради. Секин-аста асотсиал оғишган хулқ, катта жиноятчилик мотивлари шакллана бошлайди.

Ижтимоий хулқ-атвор нормалари турли тарихий даврларда, турли халқ ва элатларда мос келмаслиги мукин. Баъзи жамиятларда одамларни қурбон қилиш, қонга-қон орқали қасос олиш, наркотик моддалар истеъмол қилиш мажбурий ва ижтимоий норма ҳисобланган .Масалан, (тсиган) лўлиларда ўғирлик ўзининг расмийлаштирилмаган мулкига эга бўлиш, алкоголизм миллат фахри, ўз жонига қасд қилиш қаҳрамонлик деб қаралган.

Шахснинг биологик ўсишидаги нуқсонлар, ўқишга салбий таъсир этувчи олий нерв фаолияти ва темпераментидаги қусурлар, ақл-идрокнинг заиф ривожланганлиги, ироданинг бўшлиги, ҳиссиётнинг кучсизлиги, зарур эҳтиёж ва қизиқишларнинг мавжуд эмаслиги, ўсмирнинг интилиши билан мавжуд имконият ўртасидаги номутаносиблик ва ҳакозолар ҳатти ҳаракатни издан чиқаради.

Шахснинг фазилатлари таркиб топишидаги нуқсонлар: ахлоқий ҳисларнинг йетишмаслиги, ўқитувчи, синф жамоаси, оила аъзолари билан нотўғри мулоқот, ишёқмаслик, бўш вақтни тўғри тақсимлай олмаслик ва бошқалар ҳам салбий қилиқларни вужудга келтиради.

Инжиқ табиатли ўсмирлар тўртинчи гуруҳга мансуб бўлиб, улар синф жамоасида ўз ўрнини топа олмаганидан қайғурадилар. Улар гиначи, аразчи бўладилар, шунинг учун синф жамоасида камситилаётгандай кечинмалар билан

яшайдилар. Бундай ҳолатни вужудга келишига асосий сабаб шахсий имкониятлардан кўра интилиш, майил ва обрў кетидан қувишнинг устунлигидир.

Тарбияси қийин ўсмирларни хатта-ҳаракатларини ижобий йўналишга буриб юбориш учун уларда масъулият, ғурур, жавобгарлик, ишонч каби юксак ҳисларни таркиб топтириш лозим.

Бунинг учун уларга ёши, кучли қобилияти ва қизиқишларини ҳисобга олиб топшириқлар бериш мақсадга мувофиқ бўлади.

Уларга кичик жамоани, спорт сектциясини, тирик бурчакни бошқариш вазифасини ишониб топшириш натижасида салбий феъл-атворларини камайтириш мумкин. Уларни фаолиятга жалб қилиш орқали ўқишга салбий муносабатлари аста- секин йўқотиб борилади. Ўсмирлик даврида пайдо бўладиган девиант хулқ турларидан энг кўп учрайдигани бу аддиктив хулқ атвордир. Ўсмирларда аддиктив хулқ-атворни вужудга келтирувчи сабаблар - қизиқиш, ҳавас, тақлид, ўртоқларини даврасидаги ўз ўрнини эгаллаш ва бошқалар бўлиши мумкин.

Ўсмирлар орасида тамаки маҳсулотларини чекиш ва спиртли ичимликларни истеъмол қилиш аддиктсияси жуда кўп учрайди. Чунки тенгдошлари ўртасида обрў қозонишга интилиш, қизиқиш ва бошқалар томонидан тан олинишни хохлаш ўсмир томонидан турли қонунга зид ҳаракатларни бажаришга ундайди.

Бугунги кунда компютер технологияси ривожланиб кетганлиги сабабли-компютер ўйинлари аддиктсияси ҳам кўпайиб бормоқда.

Ўсмирлик давридаги оғишган хулқ-атворга бошқа кишиларга нисбатан тажовузкорлик, ўғирлик, жиноятчилик, дайдилик ва бошқаларни ҳам киритиш мумкин. Турли психодиагностик методлардан фойдаланиб ўсмирлардаги оғишган хулқ-атвор шаклларини аниқлаш ва коррексия қилиш мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. “Девиант психологияси” М.Хакимова Т-2014й. [2.40. 1-6-бет]
2. Давлетшин М.Г. Ёш психологияси ва педагогик психология. Т.2002 й.


## АХБОРОТЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ЖАМИЯТ ХАМДА ШАХС ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Унгбоева Умида*
*Қарши шаҳар 4-мактаб психологи*

Инсон ўзининг хаёти давомида кишилар орасида яшар экан, фаол харакатда бўлишга, бутун қобилият, имкониятлардан фойдаланишга интилади.

Дархақиқат, ривожланиш, юксалиш шиддат билан рўй бераётган бир пайтда, ёш авлодни маънан баркамол инсонлар этиб тарбиялаш, уларни зарарли ахборотлар ва ахборот хуружи таъсирларидан химоялаш энг мухим вазифалардан биридир. Лекин, жамиятда шуниси маълумки, киши доимо ўйлагандай, истагандай, хохлагандай бўлавермайди, яъни хаётда у кўпгина қийинчилик ва

қарама-қаршиликларга дуч келади. Уларни бартараф этишга харакат қилади, баъзида эса уни ўраб олган жамоа шундай холатларга олиб бориши мумкин, лекин ўз истакларидан, мақсаддан воз кечиб, салбий эмоционал холатларга тушиши мумкин. У холат кишининг хатти-харакатларида, муносабатларида намоён бўлади, баъзида эса уни ўраб олган жамоа шундай холатларга олиб келиши мумкин. Таълим-тарбия жараёнида шахсни шакллантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятларига алохида эътибор қаратилади.

Хар бир инсон ўз фаолияти давомида турли воқеа ва ходисаларнинг гувохи бўлади. Қайси мамлакатда комил инсонни вояга етказиш, у хақида ғамхўрлик қилиш давлат сиёсати даражасига кўтарилган бўлса,ўша мамлакатда тинчлик, барқарорлик вужудга келади. Илм-фан, маданият ва маърифат ривожланади. Ота-оналарнинг хаётий тажрибаси, бир-бирига хурмати, садоқати, инсофлилиги, оилапарварлиги камолот мактаби бўлган. Баркамол шахс деганда биз маънавий, рухий. жисмоний соғлом хар томонлама бошқаларга ибрат бўладиган билимли, маърифатли кишиларни тушунамиз. Баркамол шахсни тарбиялаш оиладан бошланади. Оилада баркамол шахсни шаклланишининг мухим сабабларидан бири оилада соғлом турмуш тарзи қоидаларига амал қилиш, ота-онанинг фарзанд тарбиясига маъсулияти, оиладаги психологик иқлим, оилавий ахиллик, одоб-ахлоқ қоидаларига амал қилиниши зарурдир. Бола қалбида инсонийлик хусусиятлари. маънавий ахлоқий меъёрларнинг шаклланишига ота-она ва оила мухитининг таъсири катта. Демак, бола ота-онасидан ўзини қандай тутишни ва ахлоқий меъёрларни ўзлаштирар экан, кўп нарсаларни улардан ўрганади, яқин кишилар билан бўлган муносабатда ва оиладан ташқари ўзини шунга мувофиқ тарзда тутишга харакат қилади.

Бугунги куннинг улкан ижтимоий ходисаси глобаллашувдир. Глобаллашув инсоният тараққиёти йўлидаги улкан имкониятларни эътироф этиб. у туфайли пайдо бўлган инсоният хавфсизлигини. давлатларнинг миллий манфаатларини таъминлашга хатар солувчи маънавий тахдидларни инкор этиб бўлмайди. Глобал ахборот алмашув даври шиддат билан ривожланаётган бир даврда ёшларимизнинг маънавий оламида бўшлиқ вужудга келмаслиги учун уларнинг қалби ва онгида соғлом хаёт тарзи, миллий ва умуммиллий қадриятларга эхтиром туйғусини болаликдан шакллантириш лозим. Боланинг характерини. табиати ва дунёқарашини белгилайдиган маънавий мезон ва қарашлар яхшилик ва эзгулик, олижаноблик, мехр-оқибат, андиша каби муқаддас тушунчаларнинг пойдевори оила шароитида қарор топади. Хар бир ота-она ўз фарзанди камолини кўриш учун уни вояга етказади.

Ёшларимиз интернет оркали ўз билимлари, дунёқарашларини кенгайтириш мақсадида фойдаланадилар. Интернет ёшларнинг интеллектуал салохиятини ошириш баробарида, онгни захарловчи манба сифатида хам таъсир ўтказётгани хаммага маълум. Интернетнинг ижобий томони шундаки, ёшларимиз интернет орқали ўз билимлари, дунёқарашларини кенгайтириш мақсадида фойдаланадилар. Бир неча тилларни ўрганиш ва ўзини қизиқтирган саволларига тезлик билан жавоб топиш, ўз тенгдошлари билан мулоқот қилиш хамда интеллектуал салохияти ривожланишига хизмат қилувчи билимларни ўзлаштириш

имкониятининг мавжудлиги туфайли болаларнинг билимини оширишга хизмат қилади. Турли хил ёт ғоялар, ахборот хуружлари, шавқатсизлик, зўравонлик каби ёшлар онгига зиён етказишга сабаб бўлувчи омиллар хам бир қанча. Болалар ва ўсмирларнинг компьютерда узок вақт ишлаши узоқни яхши кўра олмаслик хавфини оширади. Бу холат нафақат ёшларда, балки ёши катталарга хам боғлиқ. Ёшларнинг янгиликларга интилувчанлиги янги инновацион технологиялар, хорижий тилларни ўрганишга интилувчанлиги ва бу борадаги ёшлар иқтидори. ижтимоий мухитни соғломлаштириш, фаолликни ошириш борасида хар қандай вазият ёки омил доирасида этнопсихологик ёки худудий ўзига хосликларни хисобга олиб машғулотларни ташкил этилиши анча яхшидир. Вояга етмаганлар ва ёшларни ахборот хуружлари, маънавий тахдидлар ва турли хил ёт ғоялардан химоя қилишга қаратилган тренинглар дастурида интерфаол усуллар (мини маърузалар, ақлий хужум, бумеранг,чархпалак, ролли ўйинлар, машқлардан) фойдаланилса янада  мақсадга мувофиқ бўлади. Бугунги кунда боланикни мухофазалашда ахборот хавфсизлигини таъминлаш мухим ахамият касб этмоқда. Боланинг ахборот хавфсизлиги-бу боланинг хавфдан химояланиши яъни, психологик, жисмоний ва маънавий саломатлигига тўғридан-тўғри  зарар етказиши билан боғлиқ холатдир. Болаларни замонавий тажовузкор медиа-мухитдан химоя қилиш интернетдан фойдаланувчилар орасида вояга етмаганларнинг сони кескин ошиб бораётганлиги, уларнинг яқин катталарига катта маъсулият юклайди.Компьютер ва интернет тармоқларига тобе бўлиш болаларда агрессивлик, беэътиборлилик, тушкунлик, ёлғизлик ва яқин инсонлар билан муносабатларнинг ёмонлашуви, рухий зўриқиш ва турли хаётий муоммоларни келтириб чиқариши мумкин. Болаларнинг бу холатга тушмаслиги учун соғлом мухит катта ахамиятга эгадир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. В.Каримова «Ижтимоий психология» Тошкент 2016 й

2.Л.Бекназарова, М.Махмудова, Б.Шодиев «Ижтимоий-психологик тренинг» Тошкент -2016 й

3.С.Назарова «Болангизни тушунасизми» Тошкент 2017 й


# ЁШЛАРНИНГ ДУНЁҚАРАШИ ВА ХУЛҚ-АТВОРИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ


*Зокирова Муниса Зокировна*

*Самарақан вилоят ПастДарғом туман 11- мактаб психологи*


Ҳар қандай одам ҳам ўсмирлик чоғида, эндигина вояга етиб келаётган даврида жамиятдан муносиб ўрнини топиши керак. Акс ҳолда бу нарса нохуш оқибатларга ҳам сабаб бўлади. Ёш йигит – қизларимизнинг ишда, турмушда, оила ва жамоа орасида ўз ўрнини тополмаслик холатлари уларнинг жамиятда ўз қадрини йўқотишига олиб келади. Ўз қадрига, ўз шанига эга бўлмаган инсон

хаётда кўп – кўп тўсиқларга дучор бўлади, унинг шахс сифатидаги емирилиши ҳам тез кечади.

Дин ниқобидаги мафкуравий тахдидларнинг намоён бўлиш шакиллари. Ёшларнинг фаол ижтимоий кучга айланиб бораётгани бугунги кунда уларнинг турли мафкуравий таъсир ва тазийқларнинг бош объектига айланишига олиб келди. Бунда уларнинг жамиятнинг ҳали етарли тажрибага эга бўлмаган, ташқи таъсирларга тез берилувчан ва айни пайтда, энг ҳаракатчан қатлами экани инобатга олинмоқда. Ёшларнинг турли оқимларга кириб қолишлари сабаблари қаторида уларнинг билимлари, шу жумладан, диний илимларни эгаллашга бўлган қизиқиш ва интилиши ҳамда ишонувчанлиги , бирданига ва ҳамма нарсага ( бойлик, шон-шуҳрат, мартаба ва ҳ.к ) эга бўлишга ҳаракат қилиши, илмий тилда айтганда максимализм каби маънавий – руҳий омилларни алоҳида ажратиб кўрсатиш лозим. “Сен бу ташкилотга кириш ёки мана бу вазифани бажариш билан алоҳида, ҳар кимга ҳам насиб қилавермайдиган шарафли ишга қўл урган бўласан, керак бўлса, сен миллат, дин, инсониятнинг халоскорига айланасан!” , - деган қарашларни сингдириш жараёни айнан мана шу каби хусусиятларга алоҳида эътибор берилаётганини кўрсатади. “Ёшларнинг онгида қандай кайфият устунлигини айтсанг, мен сенга кейинги авлоднинг табиати қандай бўлишини айтиб бераман”, - деб ёзган эди сиёсий арбоблардан бири. Шу нуқтаи назардан қараганда, диний экстремистик оқимлар ҳам жамиятнинг эртанги кунини белгилаб берадиган авлод онгини эгаллаш, назорат қилишни кўзлаб иш юритмоқда дейиш мумкин. Айниқса, ғоялар кураши авж олган бугунги кунимизда ёшлар маънавиятига тажовуз солаётган таҳдидлар қаторида, динни ниқоб қилиб, диний қадриятларимизни оёқости қилишга уринаётган экстремистик ва миссионерлик ҳаракатларининг фаоляти жиддий ташвиш уйғотмоқда. Шунинг билан бирга, диндан сиёсий мақсадларда фойдаланишга уриниш баъан мудҳиш ҳолатларнинг юз беришига олиб келмоқда.

Замонавий ижтимоий тармоқлар. Бугунги кунда дунё турли соҳаларда ўзгариб, шиддат билан ривожланиб бормоқда. Илм олиш, касб-кор билан шуғилланиш, инсонларнинг ўзаро мулоқат ва фикр алмашинувида ҳам янгидан янги ўзгаришлар бўлаётгани хеч кимга сир эмас. Интернет, уяли телефон, ижтимоий тармоқ орқали мулоқат ва ахборот алмашинувига хизмат килувчи фейсбук, твиттер, вайбер, телеграм,инстаграм каби дастурлар шулар жумласидандир. Илм-фаннинг ютуғи бўлмиш бу янгиликлар инсонларнинг узоғини яқин, мушкулини осон қилаётгани, олис масофадан туриб илм олиш, дунё янгиликларидан бир зумда воқиф бўлиши ва маълумотларни осон тарқатиш имконини бераётгани шубҳасиз. Бироқ, кейинги йилларда мазкур тармоқларнинг ёшлар тарбиясига салбий таъсир кўрсатаётган жиҳатлари ҳам кўзга ташланаётгани кўпчиликни ташвишга солиши табиий. Чунки келажагимиз пойдевори бўлган ёшларнинг соатлаб бу тармоқларда мақсадсиз ўтиришлари илм олиш, касб-хунар эгаллаш ва бошқа хайрли ишларга сарфланиши керак бўлган гулдек умрининг беҳуда ва бесамар кетишига сабаб бўлмоқда. Қолаверса, бугунги кунда ижтимоий тармоқларда тарқалаётган маълумотларнинг катта қисмини ёшлар маънавиятининг тубанлашувига туртки бўлувчи, миллий ва диний

қадриятларимизга зид бўлган хабарлар, урф-одатлар ташкил этади. Интернет ва ижтимоий тармоқлардан фойдаланувчи ўзига-ўзи назоратчи бўлмоғи лозим. Чунки Интернет шундай мулоқат муҳитики, унда ижтимоий назорат ҳам, ён-атрофдагиларнинг назорати ҳам йўқ. Бунинг устига ҳозирда Интернет тармоғидаги кўплаб саҳифаларга фойдаланувчини асл мақсадидан чалғитишга мўлжалланган спам шаклидаги турли беҳаё суратлар,реклама видеороликларнинг жойлаштирилиши одатий ҳолга айланиб қолди. Бундай шароитда ўзини-ўзи назорат қила олмайдиган, иродаси суст ёшларнинг виртуал тармоқдаги беҳуда ва бешарм саҳифаларга чалғиб кетиш эҳтимоли катта. Шунингдек, Интернет орқали нотаниш суҳбатдош билан мулоқатда бўлаётган ёшлар учун тақиқланган мавзулардан гап очиш, ҳиссий, эҳтиросли суҳбатга берилиб кетиш хавфи бор. Бу эса, беҳаёлик, бузуқчилик каби турли кўнгилсиз ҳолатларга сабаб бўлиши мумкин.

Оммавий маданият. Ғарб дунёсида ўтган асрнинг иккинчи ярмида шаклланди. Мазкур тушунча турли ғоя,дунёқараш,мен, имиж ва бошқа ижтимоий феноменлар тўпламига нисбатан қўлланилади. Бу масалани тадқи этган мутахассислар фикрига кўра, “Оммавий маданият” феномени вужудга келишида реклама, мода, масс – медия муҳандислиги, дизайн, хуллас онгга таъсир этувчи воситаларнинг аҳамияти катта. “Оммавий маданият” иллатининг мамлакатга кириб келиш оқибатида унинг қуйидаги кўринишларини алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин:

- аҳлоқий бузуқлик ва зўравонлик;
- индивидуализм;
- эгоцентризм ғояларини тарқатиш, керак бўлса, шунинг ҳисобидан бойлик орттириш;
- бошқа халқларнинг неча минг йиллик анъана ва қадриятлари, турмуш таързининг маънавий негизларига беписандлик, уларни қупоришга қаратилган ҳаракат.

Юқоридаги сингари вазиятларни ҳисобга олган ҳолда, халқимиз, айниқса, ёш авлодни маънавий таҳдидлардан сақлаш, уларда соғлом дунёқарашни шакллантириш ва шу асосда оламда содир бўлаётган воқеа- ҳодисаларга тўғри муносабатни билдира олиш куникмасини ривожлантириш бугунги кундаги асосий вазифамиздир.

Ўзбекистон Республикаси биринчи призиденти Ислом Каримовнинг “Юксак маънавият – енгилмас куч” асарида муаллиф буюк тарих, маданият ва маънавият эгаси бўлган халқнинг фарзанди, бугунги дунёда кечаётган глобал жараёнларининг маъно – мазмунини теран англайдиган, унинг мафкуравий, геосиёсий манзарасини аниқ тасаввур этадиган улкан тафаккур соҳиби, атоқли давлат ва сиёсат арбоби сифатида кўпчиликни ўйлантираётган мураккаб муаммоларни холис ва ҳаққоний таҳлил қилиб берди. Ҳозирги шиддатли ва шавқатсиз замоннинг ҳар қайси миллат, жумладан, бизнинг халқимиз олдига қўяётган талабларини очиқ баён қилади: “Биз халқимизнинг дунёда ҳеч кимдан кам бўлмаслиги, фарзандларимизнинг биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлиб яшаши учун бор куч ва имкониятларимизни сафарбар этаётган эканмиз, бу борада маънавий тарбия масаласи, ҳеч шубҳасиз, бекиёс

аҳамият касб этади. Агар биз бу масалада ҳушёрлик ва сезгирлигимизни,қатъият ва масъулятимизни йўқотсак, бу ўта муҳим ишни ўз ҳолига, ўзибўларчиликка ташлаб қўядиган бўлсак, муқаддас қадриятларимизга йўғрилган ва улардан озиқланган маънавиятимиздан, тарихий хотирамиздан айрилиб, охир- оқибатда ўзимиз интилган умумбашарий тараққиёт йўлидан четга чиқиб қолишимиз мумкин".

Албатта, бугунги дунё бошдан кечираётган глобаллашув жараёни инсоният учун катта- катта имкониятлар эшигини очиб беради. Лекин, афсуски, дунёдаги айрим кучлар шундай ҳам мураккаб бу жараённи янада мураккаблаштириш, образли қилиб айтганда, сувни янада лойқалатиб, истаганча балиқ тутушга зўр бермоқда, Хусусан, доимо зўровонлик ва гегомонлик ҳисобидан бойлик орттириб келган кучлар мана шундай талотўплардан фойдаланиб, "Оммавий маданият" ғоясини кенг тарғиб этмоқда.

Маданият – аслида нисбий тушунча. Бу тушунчанинг шакилланишида кишини ўраб турган муҳит, яшаш шароити, муносабатлар тизими алоҳида ўрин тутади, десак, хато бўлмайди. Эътибор берганмисиз,сўнгги тўрт-беш йил ичида миллий турмуш тарзимизга мутлақо ёт ва бегона бўлган зарарли одатлардан бири "Тўғилган кун" ни жуда ҳам бачкана тарзда нишонлаш баъзи ёшлар орасида қандайдир "мода" тусини олмоқда. Бу ўз навбатида юқорида зикр этилган,глобаллашувни сунъий тезлаштиришга ҳаракат қилаётган ва шундан манфаат топаётган кучлар учун айни муддао. "Оммавий маданият" ниқобидаги хуружларга қарши курашишда халқимизда асрлар синовидан ўтиб келаётган иммунитет мавжуд. Аммо бу таскин, олдимизда турган таҳдидларга бепарво қараш ёхуд бемалол ва хотиржам яшашга асос бўлолмайди. Хозирги кунда эса иқтисодий танглик ва муаммони рўкач қилиб нафақат оталар балки оналар ҳам узоқ муддатга четга чиқиб кетмоқда. Фарзандлар тарбияси аксарият холларда ўзлари парвариш ва эътиборга мухтож бўлган бобо ва бувилар зиммасига, айрим холларда умуман бегоналарга ишонилмоқда. Оқибатда болалар нафақат мехр-мухаббат, ўзлари ҳар сонияда эхтиёж сезадиган ҳимоя, балки назоратдан ҳам четда қолмоқда. Зўровонликлар, нохақликлар гирдобида қолган айрим мурғак қалблар, ўзлари ҳам жиноятчи,номусидан айрилган, ҳуқуқлари паймол бўлган бахтиқароларга айланмоқда. Бу эса болаларнинг, балки ота-оналарнинг ҳам малакали психологик хизматларга эхтиёжини орттирмоқда. Абдулла Авлонийнинг "Тарбия биз учун ё ҳаёт – ё мамот, ё нажот - ё ҳалокат, ё саодат - ё фалокат масаласидир" деган хикматлари нечоғлик аҳамиятли.

Болада муомала маданиятини шакллантириш, тарбия бериш,тўғри йул кўрсатишга ота-она масъул ва бурчлидир.Бу бизнинг миллий ва диний қарашларимизда ўз аксини топган. Ислом дини таълимотида инсонлар ўзаро ҳамиша ширинсуханлик ва самимийлик асосида муомала қилишлари лозимлиги таъкидланади. Бу борада асосий вазифа ота-онанинг зиммасига юкланиб, улар ўз фарзандларини ақлли-ҳушли, жисмоний соғлом, эътиқоди мустаҳкам, жамият ва Ватанга фойдаси тегадиган инсонлар қилиб тарбиялаш ҳақида қайғуришлари кераклиги уқтирилади. Бунда ислом динида белгилаб қўйилган муҳим қоидалардан бири болани ёшлигидан жамият орасида ўзини чиройли тутиш,

тенглик, самимийлик, камтарлик каби фазилатларни қамраб олган ҳамда жамиятда инсонни ҳурматга сазовор қиладиган ижтимоий одобларга (овқатланиш, саломлашиш, рухсат сўраш, касал кўриш,таъзия билдириш, акса уруш ва эснаш, меҳмондорчилик ва шу сингари) хатти-ҳаракат қоидаларига ўргатиш ҳисобланади. Фарзандга ижтимоий одоблардан таълим беришда муомала маданиятини шакллантиришга катта эътибор қаратиш зарур. Чунки муомала маданияти инсонларнинг ўзаро тенглик асосида муносабатларини шакллантирганликларини ифодалайди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. Ислом Каримов “Юксак маънавият –енгилмас куч” Т “Маънавият” 2008 й
2. Ислом Каримов: “Ёшлар бугунги ва эртанги ҳаётимизнинг ҳал қилувчи кучидир" Тошкент “Маънавият” 2015й
3. Олим Тошбоев: Маънавий юксалиш йўлида Тошкент “Маънавият” 2008 й
4. Ш.Одилхонова : “Оммавий маданият” таҳдиди. Т. “Муҳаррир” 2010 й
5. Ш.Мирзиёев. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик,-Т.: Ўзбекистон, 2017 й


# O’QUVCHILARNI TO’G’RI KASB-HUNARGA YO’NALTIRISHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING O’RNI


*Suyunova Shodiya Sayfullayevna*

*Qashqadaryo viloyati Koson tumani 90-maktab psixologi*


Bugungi kunda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohatlarning asosida o’sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxslar etib tarbiyalash masalasi turadi. Bu jarayonda yondoshishimiz kerak bo’lgan asosiy masala bu ularga to’g’ri kasb-hunar tanlashga ko’maklashishdir.Kasb-hunarga yo’naltirishda maktabgacha tarbiya va maktab davrida o’quvchilarga zarur va kerakli tushuntirish ishlari olib borilishi bilan ahamiyatlidir.Bu vazifalarni bajarishda oila va jamoatchilikning ham hamkorligi kerak bo’ladi.Chunki ayrim yoshlarimiz ma’lum bir bosim asosida kasb tanlaydi,o’zlarinig mustaqil qaroriga ega bo’lmaydilar. O’quvchilarni kasbga yo’naltirar ekanmiz,kasb tanlashning ongliligi,tanlanayotgan kasbga insonni qiziqishlari,layoqat,qobiliyati va jamiyatning ehtiyojlariga mosligi,kasbning inson tomonidan faol tanlanilishi,kasbning inson rivojlanishi uchun imkon berishi kabi jihatlarni inobatga olish talab etiladi.

Kasbni to’g’ri tanlash uchun 3ta jihatga e’tibor qartish kerak:

“Xohlayman”-kasbiy qiziqish,layoqat.

“Uddalayman”-salomatlik,kasbiy yaroqlilik,lmkoniyatlarga ega bo’lish.

“Kerak”-kasbiy sohani bilish,o’zining yutuq kamchiliklarini baholashga asoslangan maqsadga erishish yo’llari.

Kasb-hunarga yo’naltirish ishlari davomiy bo’lib, tizimli ravishda amalga oshiriladi. Dastlab bola o’z qiziqish va kasbiy moyilligini o’yin faoliyati orqali amalga

oshiradi. Keyinchalik bu qiziqishni maktabda kasbiy o'yinlar,treninglar, suhbatlar tarzida mustahkamlab borilib, maqsadga aylantiriladi. O'tkazilgan kasbiy so'rovnomalar, test va suhbatlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar kasb tanlashda deyarli bir xil kasblar: o'qituvchi, shifokor, yurist, muhandis, jurnalist, aktyor, tarjimon kabi kasblar nomini keltirishadi. Bu esa ular kasblar haqida to'liq ma'lumotga ega emasligini ko'rsatadi. Yer yuzida 5000 dan ziyod kasblar mavjud. Ayrimlari juda mashhur kasblar. Ayrimlari kamyob va noyob kasblardir. Yana bir yoshlarimiz duch keladigan muammolardan biri bu oddiy ishqibozlikni kasb bilan adashtirib qo'yadilar. Kasb tanlashdagi bu kabi masalalarni hal etib,o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashiga yordamlashishda amaliyotchi psixologlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borish jarayonida metodikalarni tanlashda o'quvchilarni yoshi,harakter xususiyati inobatga olinishi lozim. Boshlang'ich sinflarda enerjayzirlar ko'rinishidagi treninglardan foydalanish samaraliroq natija beradi. O'quvchilarning yoshi ulg'ayganlari sari ularning xarakter sifatlari ham o'zgaririb borishi hisobiga, ularning voqelikka bo'lgan munosabatlai ham o'zgaradi. Kasb tanlash jaryonida turli xil ikkilanishlarga duch keladilar. Amaliyotchi psixologlar o'z ish jarayonida guruhiy va individual suhbatlar,kasbiy maslahatlar,ota-onalar bilan alohida tushintirish ishlarini olib borishi bilan birga, o'quvchilar uchun alohida mavzulashtirilgan treninglar dasturini ham shakllantirishi lozim. Kasb-hunarga yo'naltirish treninglari tizimli va davomli bo'lib bir-birini to'ldirib borishi lozim. Kasblar haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish,temperamentiga ko'ra kasb tanlash,o'zi uchun ma'qul bo'ladigan kasblarni tanlash,kasbning insonga qo'yadigan talablari bilan tanishish,kasbiy faoliyatda yutuqlarga erishish va to'siqlarni yengib o'tish,shaxsiy kasbiy reja tuza olish,komunikativ ko'nikmalarni shakllantirish,kasbiy yangiliklardan xabardor bo'lish kabi tushunchalar navbatma-navbat o'rgatilib boriladi.

Kasbga yo'naltirish metodikalari turli-tuman bo'lib, kasbga yo'naltirishda faqat so'rovnomalardan emas,ularning barchasidan foydalanish lozim. Mazkur usullar yordamida o'quvchining qiziqish va qobiliyat yo'nalishi aniqlangandan so'ng, kasbiy maslahatning shakli, mazmuni va uni o'tkazish tartibi belgilanadi. Kasbiy maslahatning asosisini kasb tanlashda ikkilanayotgan maktabning 10-11 sinf o'quvchilari tashkil etadi.Kasbning nufuzliligi albatda inobatga olinishi, lekin qiziqish,qobiliyat,sog'lik holati, mehnat bozorida kasbga bo'lgan talab ham inobatga olinishi haqidagi tushunchalar kasbiy maslahatning asosini tashkil etadi. Bundan tashqari ko'pgina o'quvchilar o'zlarinig zaif tomonlarini bilishdan cho'chiydilar, natijada mustaqil qarorga ega bo'lmasdan kimgadir ergashib kasb tanlaydilar. Bu tanlov juda kam hollarda samarali bo'lishi mumkin, lekin, aksincha bu tarzda kasb tanlagan insonlar munosib turmush sharoitiga erisha olmaydilar.Kasbiy maslahatning asosini samarali kasb tanlashga yo'naltirish tashkil etadi.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etib boorish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida psixologik-pedagogik xizmat ko'rsatishtish faoliyatini uzluksizligini ta'minlash lozim. Bu yo'nalishda psixolog bolan bir qatorda sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari ham reja asosida tegishli ishlarni olib boradilar.

# YOSHLARNING JAMIYATDA O`Z O`RNINI TOPISHIDA OILA-MAKTAB-MAHALLA HAMKORLIGI

*Mohidil Hasanova Nasirullayevna*
*Namangan viloyati  Chust tuman 26-maktabi psixologi*

Oila-tarbiya maskani. Oila–jamiyatning muhim,ajralmas bo`lagi. Unda o`sib, kamol topayotgan har bir yosh avlod ana shu tarbiya o`chog`ida tarbiyalanadi. Farzand tarbiyasida uning ichki dunyosining shakllanishida albatta oiladagi muhit ota-onalarning yetarlicha o`z farzandiga e`tibori, shuningdek oila a`zolarining o`zaro munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy munosabatlar esa yosh avlodning xulq-atvoriga, uning dunyo-qarashi hamda xarakter-hususiyatlarini shakllanishiga xizmat qiladi. Bugungi kundagi yoshlar o`rtasidagi aksariyat muammolarning ildizlari oiladagi noso`g`lom muhit oila a`zolari o`rtasidagi murosasiz munosabatlar ta`sirida yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda ham maktab amaliyotchi psixologlar oldida mana  shunday oila farzandlari o`rtasidagi muammoli o`quvchilar ko`payib bormoqda. Maktab amaliyotchi psixologlari bunday o`quvchilar oilasini o`rganish  barobarida bu muammolar yillar davomida yig`ilib, avjlanib borishi natijasida o`quvchilar ruhiyatiga salbiy ta`sir ko`rsatib, natijada farzandining oilaviy  muammolarning hal etishdagi  chorasizligi tufayli  turli  jinoyatlar  huquqbuzarliklar yoki suitsidal holatlar sodir etilayotganligi ham ayni haqiqat.

Aksariyat oilalar psixologlar tomonidan o`rganilganda esa, ana shu oila a`zo oilalarida huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy va eng asosiysi psixologik tarbiya yetishmayotganini tushunib yetamiz. Oila qurishdagi huquq, burch, majburiyat-larimiz haqida yetarlicha bilimga ega ekanligimiz haqida anglaganday bo`lamiz. Har bir xonadonda o`g`ilmi qizmi tarbiya topar  ekan, ularni bilimli, ma`naviyatli tarbiyali etib kamol topishida nafaqat oila, balki u ta`lim olayotgan ta`lim maskani hamda mahallaning ham o`rni muhimdir. Chunki maktabning tugallayotgan bugungi kun yoshlari to`liq oila qurishga tayyor deya olmaymiz. O`quvchi yuqori sinflarda ta`lim olish bilan birgalikda psixologlar tomonidan kasb-hunarga yo`naltiriladi, albatta.Biroq o`quvchilarning  barchasini ham to`laligicha OTMga kirgizish yoki biror kasb yoki hunar bilan bandligini ta`minlab bo`lmaydi. Bandligi ta`minlanmagan o`quvchilar oila qurib, so`ng ayrim muammolarga duch kelayotgani ham ayni haqiqat.

Xususan, maktabning yuqori sinf o`quvchilariga oila etikasi va psixologiyasi, oilaga tayyorgarlik ko`rish haqidagi bilim-malakalarini yetishmasligi tufayli ham turli arzimagan sabablar bilan yuzaga kelayotgan ajrimlar esa jamiyatdagi eng og`riqli nuqtamizdir. Bunday holatlarda yoshlar o`zlaridagi mavjud muammolarni hal etishga o`zicha yondashmoqchi bo`lishadi.

Ana shunday vaqtda mazkur masalalarda oila-maktab-mahalla hamkorligiga muhtojlik seziladi. Yuqori sinf o`quvchilariga ta`lim-tarbiya berish barbarida oila etikasi, oila psixologiyasi haqida yetarlicha bilimlar berib borilsa, mahalla bilan hamkorlikda turli ma`naviy-ma`rifiy mavzularda davra suhbatlari, trening

mashg`ulotlari tez-tez o`tkazilib turilsa, yoshlar o`zlaridagi mavjud muammolar va savollarga munosib javob olishadi. Aksincha, ularga shu sharoitni yaratib bermasak, baribir o`zlari to`g`rimi, noto`g`rimi mavjud savollariga javob qidirishadi. Bunda eng katta xato yo`l internet tarmoqlarida berilayotgan, asossiz bo`lgan ma`lumotlarga ega bo`lishadi. Bugungi globallashuv jarayonlarida esa axborot xavfsizligi juda ham muhimdir. Negaki, biz internet orqali berilayotgan tezkor axborotlarni hech qachon cheklay olmaymiz. Qo`yilayotgan cheklovlar hamma vaqt ham o`zini oqlamagan. Eng to`g`ri yo`l esa ana shu yuzaga kelgan savollarga batafsil ma`lumotlarni mutaxasssislar rasmiy internet saytlari orqali berilsa, ayni muddaodir. Tashkil etilgan mazkur saytlarni manzilli tarqatish,ularni ommalashtirish muhim profilaktik ishlarimizga aylanishi kerak.

Albatta maktab darsliklari bilan bir qatorda kutubxonalarimizda yuqoridagi muammolarimizga oid ilmiy adabiyotlarimizni boyitishimiz, kitob va qo`llanmalar taqdimoti va targ`ibotini tez-tez va maqsadli tashkil etishimiz bugun maktab psixologi oldida turgan mas`uliyali vazifadir.

Bugungi kunda mazkur muammolarni hal etishda barcha birdek mas`uliyatni o`z zimmasiga olgan holda “Oila”markazlari bilan hamkorlikda maktab o`quvchilari uchun yetarlicha ilmiy-ommabop qo`llanma va dasturlar ishlab chiqib, ijrosini ta`minlash chora-tadbirlarini yo`lga qo`ysakgina oldimizda turgan muammolar yechimiga javob topganday bo`lamiz.

Shuningdek, maktabdagi bu turdagi ma`naviy-ma`rifiy, psixologik tadbirlarda mahalla jamoatchilikni hamda ota-onalar ishtirokini ta`minlash, bevosita ishtiroki etib, mavjud masalalarga atroflicha yechim topish masalasini ham ko`rib chiqilishi ham kerak. Chunki bugun maktablarda tashkil etilayotgan bu kabi yig`ilishlarda ota-onalarning ishtiroki u qadar qoniqarli emas. Yillar davomida yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish, vaqt talab etadi albatta, biroq hamkorlikda ish olib borish, chora-tadbirlar ijrosini kuchaytirish uni amalda ko`rsatish fidoiy pedagog va psixologlar zimmasida ekanligini unutmasak, bas.

Bugungi kundagi olib borilayotgan Xalq ta`limi tizimidagi islohatlar va ularning ijrosini ta`minlash eng oliy maqsadimiz ekanligi, uning ijrosini ta`minlashda o`z hissamizni qo`shishdek baxt barcha pedagog va psixologlarning dasturul amali bo`lmog`i lozim. Bu yo`lda barcha:oila-maktab-mahalla hamkorlikda maqsadli ishlar olib borilsa ana o`sha biz kutgan natijalar, jinoyatchilikka va huqubuzarlikka qarshi kurash, oilada, maktabda sog`lom psixologik muhitni yaratish, eng asosiysi yosh avlodni jamiyatda o`z o`rnini topishlarida amaliy ishlarni amalga oshirgan bo`lardik.

## ЎСМИРЛИК ДАВРИГА ХОС АДДИКТИВ ХУЛҚ-АТВОР ПРОФИЛАКТИКАСИ

*Акбарова Динара*
*Фарғона вилояти Бешариқ тумани 2-мактаб психологи*

Аддиктив хулқ муаммоси назарий таҳлилининг кўрсатишича, хулқ бузилишларининг асосини ижтимоий ва психологик дезадаптацияга олиб келувчи

«оғиш»лар ташкил этади. Ҳозирда турли ёш даврларига хос хулқ оғишларининг психопрофилактикаси ва коррекцияси хусусидаги масалага ойдинлик киритишга эътибор ҳаддан зиёд ортган. Бу эса мазкур шахс структурасини ташкил этувчи барча компонентлар жумладан, марказий негиз тарзидаги шахснинг мотивацион-эҳтиёж жабҳаси, шунингдек, хулқ оғишларининг ўзаро узвий, органик, интеграл боғлиқликдаги ўзгаришларини ўрганишдек вазифани юклайди.

Аксарият ҳолларда компьютер аддикциясига учраган инсонларни худди гиёҳвандларни даволагандек клиникаларда турли методлар билан даволанади. Бу муаммонинг бошқа усулдаги ечимлари бор лекин, ҳаммаси ҳам самара беравермайди. Айрим методларнинг етарлича самара бермаслиги компьютердан фойдаланувчиларнинг ўзи ёки яқинлари масалан, ота-онаси, оила аъзолари, дўстлари касалликнинг бошланиш хавфи белгиларига аҳамият бермай, касаллик авжига чиққандагина мутахассисларга мурожаат қиладилар. Бундан ташқари фойдаланувчилар ва уларнинг ота-оналари, ўқитувчилари биринчи тобелик аломатлари ва уни бартараф этиш профилактик методлари ҳақида етарлича маълумотларга эга эмаслар.

Шу сабабли айнан мутахассилар, ота-оналар учун қуйидаги стратегик ва профилактик усулларни таклиф этамиз:

- ота-она ўзи фарзанди учун намуна бўлиши керак. Қуруқ сўз эмас, амалда кўрсатиши керак. Агар ота ўғли учун бир кунда 1 соат компьютерга рухсат берган бўлса, ўзи ҳам шунга амал қилиши лозим;
- компьютер билан ўтадиган вақт ота-она томонидан назорат қилиниши ва чегараланиши керак. Тўсатдан чеклаб қўйиш мумкин эмас. Агар болада компьютерга мойиллик бўлса, у оддий кунларда 2 соат, дам олиш кунларида 3 соат (танаффуслар билан) вақт ўтказиши мумкин;
- вақтни мазмунли ўтказишнинг бошқа вариантларини таклиф қилиш. Бўш вақтда ўтказиладиган машғулотлар жадвалини тузиб қўйиш мумкин. Бу жадвалга ҳамкорликда қилинадиган ишлар яъни кино ва театрга бориш, табиат қўйнига саёҳат, шахмат-шашка ўйнаш ва ҳ.з. киритилиши мумкин;
- компьютердан болани тарбиялашнинг самарали воситаси, мукофотлаш сифатида масалан, ўз вақтида яхши бажарилган иш, уй вазифалари учун, ўқишдаги ютуқлари учун фойдаланиш мумкин;
- бола компьютерда нима қиляпти? Қайси ўйинни ўйнаяпти ёки интернетда нима билан қизиқаяпти? Қайси сайтларга кираяпти? Ҳаммасини назорат қилиш керак. Чунки баъзи ўйинлар бола руҳиятига салбий таъсир этиши мумкин. Уйқусизлик, тажанглик, агрессивлик ва қўрқув ҳолатлари кузатилиши мумкин;
- ўйинларни бола билан муҳокама қилиш. Болани ривожлантирувчи, ақлини ўстирувчи, диққатини жамловчи ўйинларга қизиқтириш. Шу билан бирга компьютер ўйинларига танқидий назар билан қарашга ўргатиш, ҳаётда бундан ҳам қизиқ нарсалар борлигини тушунтириш, компьютер ўйинлари бошқа муносабатларнинг ўрнини боса олмаслигини айтиб, тарбиялаб бориш;
- агар ота-она болани бу йўлдан қайтара олмаса, кучи етмаса, психологларга мурожаат қилиши, махсус марказларга олиб бориши керак.

Аддиктив хулқ-атвор профилактикаси айниқса, ўсмирлик даврида катта аҳамиятга эга. Лекин фойдаланувчи қайси ёшда бўлмасин, аддиктивлик энди шаклланаётган даврга кўпроқ эътибор бериш керак. Биз таклиф этаётган компьютерга тобелик профилактик технология ўсмирларнинг руҳий мослашувига, шахслараро муносабатларини яхшилашга, уларнинг компьютер тобелигининг ривожланиш белгилари ва унинг салбий таъсири ҳақидаги маълумотлар билан танишувига йўналтирилган.

***Компьютерга тобелик профилактикасининг технологияси***

| **Технологиялар** | **Характеристика** |
|---|---|
| Ахборот | -нашриётлар (адабиётлар, газета, журналлар);<br>-ишонч телефонлари;<br>-психологик хизмат;<br>-ижтимоий ёрдам. |
| Таълимий | -маърифий дастурлар;<br>-ота-оналар учун ўқув дастурлари;<br>-педагоглар учун ўқув дастурлари (психологлар ва ижтимоий хизматчилар учун);<br>-компьютер клублари ишчилари учун ўқув дастурлари;<br>-ўқувчилар, лицей ва коллеж ўқувчилари учун ўқув дастурлари. |
| Бандлик | -тўгарак иши;<br>-қўшимча (ўқитиш) таълим;<br>-вақтинчалик иш билан таъминлаш. |
| Оилавий муносабатлар коррекцияси | -боланинг тўлақонли тарбиясига таъсир этувчи оилавий муносабатларни шакллантириш;<br>-оила аъзоларининг умумий қизиқишлари, эмоционал қўллаб-қувватлаш, психологик ҳимоя. |
| Диний | -диний қарашлар маданияти, олий маънавий ва аҳлоқий кучни англаш. |

*Информацион чора-тадбирларнинг мақсади*-информацион бўшлиқни турли хил нашрлар ёрдамида тўлдириш (компьютер аддикцияси профилактикасига оид) ишонч телефонлари, мутахассис-психологлар билан ишлаш, тармоқда “психологик ёрдам” хизматини очиш. *Бу босқичнинг вазифаси*- ўсмирларнинг шахслараро муносабатлар маданияти, мулоқот технологиялари, стресс вазиятларидан чиқиш йўллари, конфиликтология ва аддиктивлик хулқ-атвор муаммолари ҳақидаги билимларини оширишдир.

*Таълимий технология* структурасида эса бутун жамият учун интернетдан ҳаддан ташқари кўп фойдаланиш муаммолари бўйича ўқув дастурлари бор. Умумтаълим мактаблари ўқувчилари, лицей, коллеж ўқувчиларининг ота-оналари учун дастурлар мавжуд. Асосий мақсад-ота-она ва фарзанд ўртасидаги муносабатларни яхшилаш, аддиктив стереотиплардан қочиб, эмоционал қўллаб-қувватлашга урғу бериш. Яъни каттиққўллик билан эмас, балки дўстона муносабатлар ўрнатиб, мулойимлик билан, ота-онанинг

ўзи намуна кўрсатиб тушунтириш ишлари олиб бориш кераклиги ҳақида ота-оналар учун насиҳатлар. Бундан ташқари педагоглар, психологлар ва ижтимоий ходимлар учун ўқув дастурлари, компьютер клублари ходимлари учун дастурда компьютердан фойдаланувчилар учун қонун-қоидалар (бир кунлик юклама, ёшга доир нашрлар) ишлаб чиқишдан иборат.

Мактаб ўқувчилари, лицей ва коллеж ўқувчилари учун ўқув дастурларининг мазмуни (аддиктив хулқ-атвор тобора кўпайиб ва чуқурлашиб бораётгани, унинг оқибатлари ҳақида ёзилган) шахсга йўналтирилган таълимга асосланиб, унда персонал компьютерлардан фойдаланиш ўргатилади.

*Бандлик технологияси*нинг аҳамияти беқиёс бўлиб, айниқса, ўсмирлик даврида ҳаётда ўз ўрнини топиш жуда муҳим ҳисобланади. Тўгарак ишлари - спорт секциялари, тўгараклар эса бўш вақт захирасини тўлдиради ва вазифалар сонини кўпайтиради. Булар нафақат вақтни, балки диққатни жамлайди. Вақтинчалик ёки қисман ишга жойлашишлар ёшларнинг қизиқишларини, истеъдодини аниқлаб беради.

*Оилавий технология*лар ҳам муҳим рол ўйнайди. Оиладаги гармонал муносабатларнинг шаклланиши, ота-она ўртасидаги ишонч ва ўзаро ҳурмат, ота-она ва бола ўртасидаги илиқ муносабатлар, оила аъзоларининг умумий қизиқишлари боланинг тўлақонли ижобий тарбияланишининг ажратиб бўлмас бўлагидир. Ўсмир ота-она назоратига муҳтожлик сезади. Унинг мустақиллиги ва ўз шахсий ҳаётида муҳим қарорлар қабул қилишида ота-онанинг ўрни муҳим аҳамият касб этади.

*Диний технология*нинг мазмун-мохияти шундан иборатки, агар ўсмир кучли эътиқод эгаси қилиб тарбияланса, унда илоҳий кучлилик, маънавий бойлик каби ҳислатлар тарбияланса, у аддиктивликка қарши тура олади. Маънавий ривожланиш ўсмирнинг ўзини ҳурмат қилишга, ҳаётининг қадрига етишига, катталарга иззатда бўлишга , қадриятларни қадрлашга ўргатади. Бу фазилатлар эса келажакдаги шахслараро муносабатларнинг ривожланишига мустаҳкам фундамент яратади.

Аддиктивликка қарши курашнинг асосий методларидан бири ҳам бу профилактик ҳисобланади. Аддиктивлик профилактикаси қуйидаги йўналишларда ташкил этилади:




Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ҳозирги кунда ўсмирларнинг интернетга тобелигини батараф қилиш учун нафақат таълим тарбия жараёнида, балки барча

ижтимоий муҳит шароитида фаолият олиб бориш мақсадга мувофиқдир. Зеро, интернетга тобе бўлиб қолишини коррекциялашдан кўра, психопрофилактика қилиш, яьни олдини олиш ижобий натижанинг асосий омилидир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:**

1. Г.Қ.Тўлаганова, Д.Ш. Ваҳобова Аддиктив хулқ психологияси. Тошкент, “Ворис- нашриёт”, 2015
2. Л.Н. Юрьева, Т.Ю. Больбот. Компьютерная зависимость: формирование, диагностика, лечение и профилактика. Монография. Днепропетровск "Пороги", 2006.
3. Выготский С.И. Обратная сторона Интернета. Психология работы с компьютером и сетью. — М.: Феникс, 2010. — 320 с. — (Все обо всем). — 3000 экз. — ISBN 978-5-222-16956-8.
4. Интернет-зависимость: психологическая природа и динамика развития / Сост. и ред. А. Е. Войскунский М.: Акрополь, 2009.

## AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SHAXSNING ROLI

*To’rayeva Maxfuza Mirzayarovna*
*Yakkabog’ tumani 6-maktab psixologi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborotlashuv jarayonida jamiyat hamda shaxs taraqqiyotining o’ziga xos xususiyatlari, axborotlashuv jarayoning ijobiy va salbiy holatlari, axborot iste’moli to’g’risida so’z yuritilgan.

Jamiyat - kishilarning tarixan tarkib topgan hamkorlik faoliyatlari majmui bo’lib, uni madaniy munosabatlarga kirisha oladigan va buni uzviyligini ta’minlovchi kishilar tarkibi tashkil etadi. Insonlar faoliyati va ular o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga mos keluvchi munosabatlardir. Jamiyatning yuksalishi esa uni tashkil etayotgan ma’nan yetuk, ijtimoiy talablarga mos, tarbiyalangan shaxslarga va ular olib borayotgan samarali faoliyatlariga, natijalariga bog’liq. Shaxs – alohida individ, ijtimoiy axloqiy olam. U o’zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiylashgan ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo’lgan, ijtimoiy, tarixiy an’ana, turmush tarzi va tajribasiga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxsning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor bo’lib, u hayot ne’matlaridan to’la faydalanib yashash uchun harakat qiladi. Bu jarayon esa insonlarni bir biri bilan muloqatda bo’lishini, axborot almashishini taqazo etadi. Axborot (lotincha “information”- tushuntirmoq, bayon etmoq) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri, dastlab kishilar tomonidan og’zaki keyinroq yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan ma’lumotlardir. Axborot – kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar, va shu kabilar haqidagi ma’lumotlar majmuini anglatadi. Axborotlar tizimi - informatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi, tartibga solingan hujjatlar hamda axborot texnologiyalari majmiudir.

Axborotlar insonlar o'rtasidagi aloqalar, siyosiy, ijtimoiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirishda tobora muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Inson uchun axborot eng ta'sirchan vositadir, chunki uning ongi bor. Berilayotgan har bir axborot ma'lum bir kishilarning g'oyalariga, bo'lib o'tgan yoki bo'lishi kutilayotgan voqiylikka asoslanadi. Negizida inson ongining mahsuli yotadi.

Har bir odam ma'lumotni ko'radi, eshitadi, o'qiydi va uni qabul qiladi. Shu asosda fikrlaydi, mulohaza yuritadi va eng muhimi doimo uzliksiz ravishda, kechayu - kunduz shu axborotlar ta'sirida yashaydi. Axborot yetkazishning eng oddiy usullari ham shu qadar katta kuchga egaki, unga hech kim hech narsani qarshi qo'yolmaydi. Shuning uchun axborot yordamida kimgadir ruhiy ta'sir qilmoqchi bo'lganlarga, o'sha odamning psixologiyasi ko'maklashadi. Axborotni olayotgan insonnig ongida bo'shliq bo'lib, etarlicha bilim mavjud bo'lmasa, bu inson kelayotgan axborotni saralash imkoniga ega bo'lmaydi va kelgan har qanday ma'lumot uning ongini to'ldirishi mumkin. Qabul qilingan axborot kerakli va foydali bo'lsa, bu ijobiy holat, biroq kelayotgan axborotlar yot g'oyalarga, noto'g'ri ma'lumotlarga asoslangan bo'lsa, bu salbiy holatlarni kelib chiqishiga zamin yaratadi. Har bir axborot mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan "shaxs – jamiyat – davlat" mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Insoniyat axborot oqimi tabora tezlashgan , yer shari aholisi kayfiyatini, ruhiyatini, maqsad va intilishlarini, qolaversa, butun tafakkur tarzini o'zgartirishga qodir bo'lgan axborot texnologiyasi vujudga kelgan bir davrda yashamoqda. Ma'lum bir axborotni tarqatish, boshqalarni boxabar qilish uchun oldingi zamonda kunlab, oylab va hattoki yillab vaqt kerak bo'lsa, hozirda esa bu masala qisqa fursatda amalga oshirilmoqda. Insonlarning ongi va ruhiyatiga ta'sir o'tkazishning zamonaviy usullari axborot orqali amalga oshirimoqda. Axborot orqali ta'sir radio, televidenie, matbuot, internet kabi vositalar yordamida uzatilishi mumkin. Bular orasida televediniye eng ta'sirchan vositalardan hisoblanadi. Internetning ta'sirchanligi esa uning adadi cheksizligi, butun dunyo bo'yicha tarqalganligi matbuot, radio, televidenie xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgani, o'ta tezkorligi bilan izohlanadi. Hozirda kundan kunga rivojlanish jadallashib borayotgan davrda internet, televidenie, radio, matbuot hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib qolganligi hammamizga ma'lum. Shuning uchun ham axborotlashtirish jarayoning ijobiy va salbiy xususiyatlari, oqibatlari haqida chuqurroq o'ylashimiz lozim. Axborotlashtirish - axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqorolqar, davlat hokimiyati va o'z-o'zini boshqarish organlari, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy texnik jarayonlar majmiudir. Axborotlashtirish, bu umumjahon jarayoni bo'lib, taraqqiy etgan mamlakatning jahon bozoridagi peshqadamligi, iqtisodiy o'sishi va milliy havsizligini ta'min etadi. Ma'lumki, axborot almashinuvi jarayoni o'ziga xos bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. Bu jarayon birinchi galda davlatlatga xalqaro maydonga erkin chiqishga, boshqalar bilan yaqindan hamkorlik oli borishga hamda o'z milliy manfaatlarini turli xil xalqaro va nodavlat tashkilotlar doirasida ta'minlashga keng keng imkoniyatlar beradi. Axborotlashgan

jamiyatda insonga berilayotgan imkoniyatlar ham talaygina. Masalan; ma'lumotlarning ko'pligi, asoslab berilganligi, vedio tasvirlar, ovozli xabarlar orqali berilayotganligi, ma'lumot izlash uchun ko'p vaqt sarflamaslik, bir vaqtning o'zida bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lish, chet tillardan oson va qulay tarjima qilish imkoniyati borligi, uzoq masofadan turib ishlash, o'qish imkoniyati, zamon, makonning to'sqinlik qila olmaslig kabilardir. Bu kabi qulay imkoniyatlar insoniyatning mushkulini oson qiladi, biroq tanganing ikkinchi tomoni, salbiy muammoli vaziyatlar ham uchrab turadi. Vaziyatning faqat psixologik salbiy halatlatiga nazar tashlasak masalan; ma'lumotlarning oson topilishi ichki imkoniyatlarni ishga solinmasligi, tezkorlik bilan qabul qilish ma'lumotni to'liq o'zlashtirilmaslik holatlari, bir vaqtning o'zida bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lish uchun diqqatni bir ma'lumotga to'liq qarata olmaslik, oqibatda diqqat ko'chuvchanligining oshib ketishi va ushbu ma'lumotni to'liqligicha eslab qola olmaslik, xotirada uzoq muddat saqlay olomaslik, kunning istalgan vaqtida, istalgan va istalmagan ma'lumotni uzluksiz ravishda qabul qilish va bu ma'lumotlar ta'siri ostida harakat qilish insonlardagi psixologik emotsional holatlarni buzilishiga, strees, affect, depressiya paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayni paytda axborotlashtirish jarayoni bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Demak, kerakli axborotalrni tezlikda ommalashtirish imkonini bergan axborotlashtirish jarayoni bir vaqtning o'zida keraksiz ma'lumotlarni tarqalmaslik imkonini bermaydi. Agar biror bir g'oyani , u yolg'on bo'lsa ham axborot uzatuv vositalari ( matbuot, radio, televidenie, internet) orqali haddan tashqari ko'p va turli shakllarda takrorlayversa, auditoriya ( garchi u ushbu g'oyaga dastlabki bosqichda ishonmagan bo'lsada) borib – borib keyinchalik ishonadigan bo'ladi. Har xil uslublarda, ko'rinishlarda, turli axborot uzatuv vositalarida mo'lum bir fikrni takrorlash odamnin ostiki ongiga ta'sir etadi va u ushbu fikrga ishonadigan bo'lib qoladi. Buning oldini olish uchun kishilarda axborot iste'moli madaniyatini yuksak darajada shakllantirishga erishish zarur. Shundagin ma'lumotlarga ko'r – ko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin etishning oldi olinadi. Eng muhimi esa, axborot iste'moli madaniyatiga ega inson, jamiyat, xalq va millat g'arazli manfaatlar doirasidagi yot axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi. Albatta, axborot iste'moli madaniyatining shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tizimli ravishda sa'y – harakatlarni olib borishni taqazo etadi. Kishilarda axborot iste'moli madaniyati shakllangan bo'lsa, milliy qadryatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarni baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o'z qarashlari, qadryatlari tizimi muhim rol o'ynaydi. Lekin, aksariyat hollarda bunday paytda, ayniqsa, baholanayotgan hodisa o'zga madaniyatga tegishli bo'lsa, o'zimiz mansub bo'lgan madaniyat ruhimizga singdirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo'ladi va butun bo'y – basti bilan o'zligini namoyon qiladi. Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari, jamoatchilik fikri va mamlakat yuksalishiga axborotlar o'z tahdidini soladi. Axborot tahdidi shunday bir universal xarakterga agaki, uning barcha sohalarga jiddiy ta'sir qilish imkoniyati bor: shaxs dunyoqarashiga, jamiyat barqarorligiga, davlat tinchligiga, jamoatchilik fikrini chalg'itishga va ohir oqibatda har bir mamlakatning ma'naviy, siyosiy iqtisodiy, madaniy yuksalishiga ham. Chunki axborotning jamiyat, tashkilot, oila, shaxs ongiga kirib kelishi uncha ham ko'zga tashlanmaydi. Ijobiy va salbiy salbiy

axborotni farqlash, yaxshi ma’lumotni o’zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o’zi esa mustahkam irodali bo’lishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1.Abdulhay Valiyev O’zME. Birinchi jild. Toshkent 2000 yil referat.

2.Bahriddin Umarov, Umarali Qodirov, Xolmuro Karimov “Ochiq axborot tizimlarida axborot - psixologik xavsizlik” Toshkent 2012

3.O’zbekiston Respublikasining: “Ommaviy axborot vositalari to’g’risida”gi qonuni.

4.O’zbekistonning milliy mafkurasi. O’zbekiston 1993 yil. Shermuhammedov S, Ochildiyev A “Madaniyat va sivilizatsiya” Farg’ona 2000 yil

## YOSHLARNING DUNYOQARASHI VA XULQ – ATVORIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLAR

*Sharipova Rushana Abduvohidovna*
*Buxoro viloyat Vobkent tuman 7-maktab psixologi*

Milliy istiqlol tufayli taraqqiyotning barcha sohalarida jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodni jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, tadbirkor, ma‘naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar aholining taxminan 45 foizini tashkil etadi.Shuni alohida ta‘kidlash joizki, bu yoshda insonning ongi, axloqi, ma‘naviy qiyofasi shakllanadi. Shu bois mamlakatimizda bunday yoshlarga e‘tibor kuchaytirilgan.

Yoshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo‘lib, bu davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir.

Yoshlaning dunyoqarashi, xulq- atvori va komil inson sifatida shakllanishuda ta’sir etuvchi muhim ijtimoiy psixologik omillardan ijtimoiy muhit va bu jamiyatda axborot kommunikatsion texnologiyalarga bo’lgan talab va ehtiyojning kuchayishidir. Kun sayin jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika vositalaridan fiydalanmaslikning yoki ularga murojaat etmasliknig hech bir iloji yo’q.Chunki dunyoqarashning shakllanishida, ma’naviy olamining yanada kengayishida ayniqsa kompyuter texnologiyasi asosiy vosita rolini bajarmoqda.Bu bir tomondan quvonarli holat. Bugungi kunda biz yoshlar mana shunday katta imkoniyatlardan xohlagancha foydalanib , O’qish yoki ish davomida vaqtimizdan ancha unumli foydalanmoqdamiz. Ammo… Shiddat bilan yuksalib borayotgan fan texnika asrida, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda uning yoshlar ma’naviyatiga, yangiliklarga chanqoq ongiga, dunyoqarashiga salbiy ta’sirning ham guvohi

bo'lyapmiz. Zimdan e'tibor bersak , inetnet kafelariga serqatnov yoshlar u yerga borishib, har xil buzg'unchi g'oyalar ruhidagi o'yinlarni tomosha qilayotganliini, vaqtlarini besamar o'tkazayotganligini guvohi bo'lyapmiz. Eng achinarlisi, befarq ota-onalar farzandim internetda o'tirib,bilim olyapti, deb o'ylashadi. Shu ma'noda turli ma'naviy tahdidlardan hayotimizni asrash,ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, yoshlarimizni dunyoqarashiga, xulq-atvoriga ta'sir salbiy etuvchi omillardan asrash uchun , avvalambor, sog'lom g'oyalar orqali jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz lozim.Bunday bellashuvga kirishadigan shaxsning nafaqat bilimi, balki uning axloqiy qarashlari yuqori darajada shakllangan bo'lishi lozim.

Buyuk mutaffakir Voiz Koshifiyning " Insonning qadr-qimmati uning mol-mulki yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki ma'naviy qiyofasi , axloqiy sifatlari bilan o'lchanadi deb , aytgan edi.

Ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta'sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi. Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshk.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab, boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi, o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki shifokor, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, elu - yurtiga xizmat qiladi. Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi.

Psixologlarnig ma'lumot ko'rsatishicha, xulq-atvorning muhim motivlaridan biri e'tiqod hisoblanadi. Ba'zi manbalarda unga mana bunday ta'rif berilgan: e'tiqod shaxsni o'z qarashlariga, prinsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda qarorga kelishga undaydigan muhim motivlar tizimidir. Boshqa so'z bilan aytganda, e'tiqod shaklida namoyon bo'ladigan ehtiyojlarning mazmuni- bu tabiat, tevarak atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar va ularning muayyan tarzdagi tushunilish demakdir. Bu bilimlar falsafiy, estetik, tabiiy-ilmiy nuqtai-nazardan tartibga solinsa va ichki uyushgan tizimi tashkil etilsa, u taqdirga shaxsning dunyoqarashi sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

*Dunyoqarash* - tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim,tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi.

Yoshlarni ma'naviy shakllanishida ijtimoiylashuv maskanlarining roli katta. Bular orasida bizning sharoitimizda *oila va mahallaning* roli o'ziga xosdir. Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba vaijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, *oilaviy munosabatlar*

tizimidas hakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganiniqiladi”degan maqol bor. Ya’ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta’sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Bizning o‘zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda *mahalla* ham muhim tarbiyalovchi - ijtimoiylashtiruvchi rol o‘ynaydi. Yoshlik davrida yigit-qizlar kamolotiga uchta muhim psixologik mexanizm, ya‘ni atrof – muhit, mehnat jamoasi, oila mikromuhiti va norasmiy ulfatlar ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, mehnat jamoasidagi psixologik iqlim, ma‘naviyat olami, barqarormaslik, ijtimoiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, muayyan an‘analar va odatlar yangi a‘zoning xarakterida ijobiy yoki salbiy o‘zgarishni vujudga keltirishi mumkin. Mazkur ta‘sir natijasida asta-sekin umuminsoniy fazilatlar tarkib topishi yoki muayyan shaxsiy nuqtai nazar yo‘qolishi mumkin. Yoshlarni mexnatsevarlik ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun:

1-dan, ularni yoshligidan boshlab yosh xususiyatlarniga xos mehnat turlarini bajarishga o’rgatish;

2-dan, yoshlarni mexnatini sirtdan nazorat qilish;

3-dan, mexnat anjomlaridan foydalanish malakasini xosil qilish

4-dan, ularni asrab-avaylab saklashga va undan foydalangandan keyin uni joyjoyiga qo`yishga odatlantirish;

5-dan, o’z mexnatini maxsuli va undan foydalanishga o’rgatish;

6-dan, kattalar mexnatiga taqlid qilish va uni xurmatlash;

7-dan, o’z va jamiyat mulkini avaylashga o’rgatib borish muximdir.

Yoshlarni mexnatsevarlik ruhida tarbiyalash va uni jahon andozalari darajasiga etkazish hozirgi zamon talabidir.

Yoshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo‘lib, bu davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir. Yoshlarning mehnat faoliyati quyidagi uchta muhim belgisi bilan boshqa yosh davrlaridan farqlanadi:

1) mutaxassislikning mohiyatiga, ishlab chiqarish shart-sharoitiga va mehnat jamoasi aozolarining xususiyatiga moslashish - mehnat faoliyatining dastlabki yillari yoki jamoada o‘z o‘rnini topish va qadr-qimmatga erishish;

2) mutaxassis sifatida o‘zini takomillashtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish yoki kasbkorlik mahoratini egallash;

3) mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko‘rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijtimoiy etuklikni namoyish qilish yoki mehnat faoliyatidagi barqaror ijod bosqichida bir tekis 10 yillab ishlab sifatli mahsulot yaratish namunasini ko‘rsatish.

Yoshlarimizni“Yangicha O’zbekiston – Yangicha dunyoqrash” ruhida tarbiyalash uchun , yuqorida keltirilgan, yoshlarning dunyoqarashi va xulq – atvoriga ta’sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillardan asrash va ularni yetuk, komil, madaniyatli, hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida kamol toptirishda oila, mahalla ,maktab doimiy hamkorlikda ish olib borsa maqsadga muvofiq bo’lar edi!

# ЁШЛАРНИНГ ХУЛҚ-АТВОРИДА СОДИР БЎЛИШИ МУМКИН БЎЛГАН ЖИНОЯТ МОТИВЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

*Қодиров Обид Сафарович*
*СамДУ Психология назарияси ва амалиёти кафедраси ўқитувчиси*
*Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

Жаҳонда инсон ҳаётида юзага келадиган муаммоларни шаклланиш қонуниятларини психологик таҳлил қилиш, унга нисбатан зарур психологик чора-тадбирларни белгилаб уларга оқилона ечим топиш ва натижаларни тўғри баҳолаш ҳамда илмий асосда қарорлар қабул қилиш муаммоларини ўрганишга йўналтирилган тадқиқотларга алоҳида аҳамият берилмоқда. Женевада Миллатлар Лигасининг Бешинчи Ассамблеясида қабул қилинган “Болалар ҳуқуқи тўғрисидаги Декларация”да болаларга жисмоний ва маънавий ривожланиши учун барча шароитлар яратиб берилиши”, “гуноҳ қилган бола тўғри йўлга солиниши”, “оғир дамларда бола меҳр кўриб вояга етиши ва ҳимоя қилиниши” таъкидланади. БМТнинг Таълим, Фан ва маданият масалалари бўйича ташкилоти – ЮНЕСКО маълумотларига қараганда, бугунки кунда жаҳонда ўн миллионлаб болалар таълим олишдан маҳрумлигича қолмоқда, 85 миллионга яқин бола мутлақо ўқиш ва ёзишни билмас экан. Саводсизлик, ўз навбатида, ўсмирларнинг келажагига салбий таъсир кўрсатиб, уларнинг билиб-билмай жиноят кўчасига кириб қолишига сабаб бўлмоқда. Шундай экан, ўсмирлар хулқ-атворида жиноят мотивлари шаклланишининг сабаблари ва психологик омилларини аниқлашга қаратилган тадқиқотлар жиддий аҳамият касб этади.

Болалар бўйича АҚШ Миллий комиссияси тарқатган маълумотларга қараганда, - “Кўп ҳолатларда болалар арзимаган нарсалар учун ва зарурат бўлмаса ҳам оилалардан тортиб олиниб, уларни жиноятчи қилиб тарбияланаётганлиги, Германияда юз бераётган жиноятларнинг тенг ярми вояга етмаганлар томонидан содир этилаётганлиги айтилади. Болаларнинг гиёҳванд моддалар савдоси билан шуғулланувчи уюшган жиноий гуруҳлар сафига кириб қолаётгани, ёки одам органлари билан савдо қилаётганлар қўлига тушиб қолаётгани ҳам аянчлидир. Бир қатор мамлакатларда балоғатга етмаган болалар жангарилар сафида қўлига қурол олиб жанг қилаётганидан ҳам кўз юмиб бўлмайди”[31]. Ўсмирларда жиноят мотивларининг шаклланишига таъсир кўрсатувчи омилларни психологик жиҳатдан таҳлил қилиш ҳамда зарурий психопрофилактик чора-тадбирлар белгилаш механизмларини аниқлашга ҳамда хулқ-атвор масалаларини тадқиқ этишга мазкур тадқиқот назарий асос сифатида хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқида“ ...бугунги кунда маҳалладаги, айниқса, уюшмаган ёшларнинг тақдири билан ким қизиқаяпти? Болалар кимлар

[31]WWW: UZA.UZ>society>1-iyun-khol-aro-b...

билан ҳамсуҳбат бўлаётгани, ўқишга қачон бориб, қачон келаётганини ким назорат қилаяпти? Ёшлар, хусусан, ўсмирлар орасида безорилик, жиноятлар сони ортишига қандай омиллар сабаб бўлаяпти? Баъзи ёшларимиз учун меҳр-оқибат, ахлоқ-одоб тушунчалари бутунлай бегона бўлиб бораётгани, уларда бефарқлик, масъулиятсизлик, меҳнат қилмасдан кун кўришга интилиш каби иллатлар пайдо бўлаётгани – аччиқ бўлса-да, ҳақиқат”[32] деган эдилар.

Шунингдек, жамиятда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш чора-тадбирларида “профилактика инспекторлари, вояга етмаганлар ишлари бўйича ишловчи масъул ходимлар ва жамоатчилик вакиллари учун ёшлар, ўқувчилар ва уларнинг ота-оналари ёки уларнинг ўрнини босувчи шахслар билан ишлаш бўйича ахборотномалар ва методик қўлланмалар ишлаб чиқиш”[33] каби вазифалар белгиланиб, бу борада ўсмирларда ҳуқуқбузарлик ва жиноат мотивлари шаклланишининг психодиагностикаси ва психокоррекциясининг самарали методикаларини аниқлаш, ташкилий чора-тадбирлар мазмуни, ҳамда баркамол ёшларни тарбиялашга йўналтирилган ва жиноят мотивларининг олдини олишга қаратилган илмий-психологик тавсиялар ишлаб чиқишга оид илмий тадқиқотларни самарали амалга оширишни талаб этади.

Жиноий ҳатти-ҳаракатлар механизмининг энг муҳим қисмини жиноят мотивининг шаклланиш жараёни ва муайян ҳаракатни таъминловчи куч сифатида намоён бўлиши ташкил этади. Баъзи тадқиқотчиларнинг ишларида мотив жиноятни ҳосил қилувчи бевосита сабаб сифатида қаралади. Агар мотивни илмий нуқтаи назардан чуқурроқ ўрганадиган бўлсак, айнан шу одам нима мақсадда шу ҳаракатларни амалга оширганлиги аниқланади. Унга кўра, жиноят мотиви - инсонни айнан шу жиноятни содир этишга ундаган ва жиноий хатти-ҳаракатларни амалга оширишида жисмоний ва ақлий йўналганликнинг уйғун ифодасини бошқариб турадиган куч манбаи сифатида намоён бўлади.

Мотивация – инсоннинг қониқиш манбаига интилиши сифатида унинг атроф-муҳитга бўлган муносабатини белгилайди. Мотив асосида шаклланган мақсадга кўра, одам ҳар доим ўз эҳтиёжларини қондириш учун бирор-бир объектга ёки манбага йўналган бўлади. (Бу ўринда мотив восита ролини ўйнайди)

Жиноий хатти-ҳаракатларни шаклланишида асосий ролни мотивга хос эҳтиёжлар бажаради. Инсон эҳтиёжлари бирор-бир нарсага (моддий ёки маънавий) бўлган эҳтиёжни акс эттириши билан ташқи дунёга қарамлигини (тобелигини) намоён қилади.

Замонавий психология фанининг асослашига кўра, ҳозирги одамларнинг эҳтиёжлари хилма-хилдир. Ана шу эҳтиёжларни тавсифлашда учта асосий гуруҳни ажратиб кўрсатиш мумкин.

1. Ижтимоийлашган органик (физиологик) эҳтиёжлар (ўзини сақлаб қолиш, такрор ишлаб чиқариш ва ҳ.к);
2. Моддий эҳтиёжлар;

[32] “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 16 июнь, 119 сон, 2-бет.

[33] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги “Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисидаги”ги 472-сонли Қарори.

3. Ижтимоий эҳтиёжлар - ижтимоий муносабатларга киришиш орқали билим ва тажриба эгаллаш, ижтимоий мавқега эришиш, тан олиниш, ўзини-ўзи тасдиқлаш, ижодкорлик, ҳаётнинг мазмуни ва бошқалар.

Эҳтиёжларни қондириш жараёни давомийликни ёки узоқ вақтни талаб қилмайди. Агар узоқ вақт талаб этилса, у йўқ бўлиб кетади. Чунки психофизологик қонуниятларга кўра, тўсиб қўйилган эҳтиёж инсонда аста-секин ўжарлик ва агрессивликни ҳосил қилади, натижада, одамда тажовузкорлик ёки агрессивлик хулқ-атвор шаклланади. Агар ушбу эҳтиёжни қондиришнинг табиий ёки қонуний кафолоти бирон-бир сабабга кўра имконсиз (етарли шароит бўлмаганда) бўлса, уни қондириш хаёлий (ёмон, бузуқ) ёки интационал шаклларга эга бўлиши мумкин. Оқибатда, бундай одамлар жамиятда қабул қилинган қонун-қоидалар, ўзаро муносабатлардаги меъёрлар, умум эътироф этган миллий ва умуминсоний қадриятларни билмаслиги, англаб етмаслиги ёки эътиборсизлиги билан бузиши оқибатида жиноят ҳосил қиладилар.

Бирор бир шахснинг ёки одамларнинг турли-туман ҳаракатларини кузатганимизда, хусусан жиноий хатти-ҳаракатларини ўрганиб таҳлил қилганимизда, жиноий хатти-ҳаракатлар асосан бир эмас, балки, бир-бири билан мураккаб ва иерархик (тарзда бирикишган) муносабатларга эга бўлган бир нечта мотивларга асосланади. Мазкур мотивлар бирикмасида субъект хатти-ҳаракатларини рағбатлантирувчи, уни ҳаёти ва шахсига мазмун бағишловчи етакчи мотивлар мавжудлигини кўрамиз. Жумладан ўғриликка йўналган жиноий хатти-ҳаракатларнинг асосида нафақат зарур эҳтиёжларни қондириш (оғир вазият ва муносабатдан сақланиш) балки “нуфузли” ўғрилар гуруҳи олдида ўз шахсини намоён қилиш (уддабуронлигини кўрсатиш, қадр топиш ва бошқ.) каби мотивлар ётганлигини асослашга интилади.

Бундан ташқари, айнан шу соҳада олиб борилган тадқиқотларнинг тасдиқлашича, (Бихивиористлар, фрейдизм ва неофрейдизм вакиллари) инсоннинг етакчи мотивлари, айнан табиий (физиологик) мотивлари онг иштирокисиз намоён бўлади. Шу нуқтаи назардан (сабабли) қараганимизда жиноятчилар кўп ҳолатларда бу жиноятни нима учун қилганликларини тушунтириб бера олмайдилар (тушунмайдилар). Жиноятнинг моҳияти тўлиқ англанилмаган ва жиноий хатти-ҳаракатда мазмунли йўналганлик йўқ.

Кейинги йилларда шу соҳани ўрганишга йўналтирилган илмий изланишлар натижаларини таҳлил қиладиган бўлсак, жиноий хатти-ҳаракатларни ҳосил қилувчи антисоциал ҳаракатларнинг қуйидаги мотивларини (сабабларини) фарқлаш мумкин:

1. Ўзини-ўзи тасдиқлаш ёки ўзини-ўзи намоён қилиш (ижтимоий мақомга эришиш) мотивлари.
2. Мудофаа (ўзини ҳимоялаш) мотивлари.
3. Алмашинувчи ёки ўзгарувчи мотивлар.
4. Ўйин мотивлари.
5. Ўзини-ўзи оқлашга йўналтирилган (онгли ва онгсиз тарзда юзага келувчи) мотивлар

Ўзини-ўзи тасдиқлаш (ижтимоий мақомга эришиш) зарурати инсон хатти-ҳаракатларининг кенг доирасини рағбатлантирадиган энг муҳим мотивлардир. Одамлар кўпинча, ўз шахсининг ижтимоий, ижтимоий-психологик ва индивидуал даражаларда эътибор қозониш ва ўрин топиш истагида ўзини намоён қиладилар.

Ижтимоий даражада шахснинг ўзини намоён қилиши (бошқаларни ҳурмат-эътиборига эришиш) ижтимоий мавқега эга бўлишга интилиш яъни профессионал ёки ижтимоий фаолият соҳасида шахсни тан олиш билан боғлиқ аниқ ижтимоий ролни бажаришга эришиш демакдир. Ижтимоий-психологик даражадаги тан олиниш (ҳурмат-эътибор қозониш), шахсий мақомга эга бўлиш мотиви (орзу), яъни у аъзо бўлган гуруҳлар: оилада, бир хил маълумотлилар ўртасида, касбий ёки фаолият билан боғлиқ гуруҳ ҳамда жамоаларда (дўстлар, ҳамкасблар ва бошқалар) даражасида шахсни муҳим ички доирадан тан олинишга эришиш мотиви (истаги) билан боғлиқ. Баъзида, бу гуруҳга қўшилишни орзу қилган бироқ, улар билан алоқа қила олмайдиган кишилар ҳам бўлиши мумкин. Бундай ҳолатларда жиноят шу каби гуруҳга кириш усулини эътироф этишга эришиш воситаси сифатида намоён бўлади. Бу усулдан фойдаланишга интилиш ёшлар учун энг хос хусусиятдир.

Инсоннинг индивидуал даражада ўзини-ўзи тан олиши (ўзини-ўзи ҳимоя қилиши), юксак эътирофга эга деб баҳолаши, ўзини-ўзи ҳурмат қилиши ва ўзини-ўзи қадрлашни кучайтириш (истаги) мотиви билан боғлиқ. Бунда ҳар қандай психик камчиликларни, заифликларни енгишга ёрдам берадиган ва айни пайтда шахсни кучли томонларини намоён қиладиган бундай ҳаракатларни амалга ошириш орқали эришилади. Кўпинча, бундай ўзини-ўзи тасдиқлашга хос тасаввурлар шахсда бефарқлик билан амалга оширилганлиги учун уларда бефарқликни, ўзини тобора мустақил ҳис қилишга олиб келади. Бундай шахсларда гўёки ўзини намоён қилишни йўқотиш улар учун ҳаёт фожиасини англатади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, шахснинг психологик тараққиёти, унинг тарихий кечиши ва онтогенизда ривожланиши билан боғлиқ концептуал масалаларни чуқур ўрганишда мотивацион соҳани татқиқ этиш таянч ҳисобланади. Мотивация одамни муайян хатти-ҳаракатларни бажаришга ундаш жараёни, кўпинча муқобил усулларни таҳлил қилиш ва баҳолашни, танлаш ва қарорлар қабул қилишни талаб қилувчи жисмоний-психологик жиҳатдан уйғунлашган моҳиятли мураккаб ҳаракат жараёни бўлиб, бу жараён мураккаблашиб боради ва ўз моҳиятига кўра субъектнинг юзага келган таянч эҳтиёжларини қондиришга йўналган фаолиятни танлаш ва уни амалга ошириш жараёнини белгилайди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - 80 б.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни, 2016 йил 14 сентябрь. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 37-сон, 426-модда.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни, 2008 йил.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017. - 6 (766)-сон.
5. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. 1994 йил 22 сентябрдаги 2012-XII-сон Қонун билан тасдиқланган, 01.04.1995 йилдан кучга кирган.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги “Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисидаги”ги 472-сонли Қарори.
7. Абульханова-Славская К.А. Проблема личности в психологии / Психологическая наука в России XX столетия: проблемы теории и истории. - Москва: ИП РАН, 1997. -373 с.
8. Авдеева Н.Н. и др. Развитие личности на разных этапах онтогенеза // Психология личности в трудах отечественных психологов. - Санкт - Петербург: Питер 2000.-180 с.
9. Асеев В.Г. Мотивация поведения и формирования личности. М.Изд-во “Мысль”, 1976, -158 с.
10. Ванян К.Э. Процессуальные теории мотивации: теоретические основы и практические рекомендации // Молодежный научный форум: Гуманитарные науки: электр. сб. ст. по мат. XX междунар. студ. науч.-практ. конф. № 1(19), 13.03.2019
11. Варга А.Л. Системная семейная психотерапия. Краткий лекционный курс. СПб.: Речь, 2001. - 144 с.
12. “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 16 июнь, 119 сон, 2-бет.

# YOSHLAR XULQ-ATVORI VA DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA BADIIY ADABIYOTNING AHAMIYATI

*Madumarova Nodira*
*Namangan viloyati Uychi tumani 1- sonli kasb-hunar maktabi ona-tili va adabiyot fani o’qituvchisi*

Biz o’z haq-huquqlarini taniydigan, o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo’layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, shaxsiy manfaatlari bilan millat manfaatlarini uyg’un holda olib boradigan, har jihatdan yetuk, barkamol insonlarni tarbiyalashimiz lozim. Tabiat va jamiyatda bo’shliq bo’lmagani kabi inson qalbi va ongida ham bo’shliq bo’lmasligi lozim. Insonlar jamiyatida komil va sog’lom g’oya ustuvor bo’lib turmasa, insonlar qalbi va ongini turli-tuman begona g’oyalar, maqsadlar egallab xalq turmush tarzini izdan chiqaradi.

Dunyo hamisha bir-biriga zid kuchlar o'rtasida talash bo'lib kelganidek, insonlarni qalbi va ongini egallab, ularni o'z qo'lidagi qurolga aylantirish maqsadi ham jahonda har xil tajovuzkor oqimlar va ta'limotlarni o'zaro kurashga undashi, ayniqsa, bugun yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ta'bir joiz bo'lsa aytish mumkinki, bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Chunki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni ko'rish, sezish, oldini olish mumkin, ammo, mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish qiyin. Shuning uchun yoshlar dunyoqarashini bunyodkor g'oyalar bilan yanada boyitish, takomillashtirish va tushuntirish, targ'ib etish, nihoyat, undagi bilim va qarashlar asosida yangicha dunyoqarash asoslarini shakllantirish nihoyatda muhimdir. Ijtimoiylashuv jarayonida muomala va muloqotning o'rni kattadir. Odamlar bir-biri bilan muloqotga kirishir ekan, ularninng ko'zlagan maqsadi o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr va g'oyalariga ko'ndirish bo'ladi. Psixalogik ta'sir bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir. Psixalogik ta'sirning uchta hususiyati bo'lib, shulardan biri verbal ta'sirdir. Bunda asosiy vositalar so'z hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanadi. Ijtimoiy normal shaxs xulq-atvorini malum ma'noda boshqarib muvofiqlashtirib tura oladi. Verbal muloqot o'z navbatida shaxsni o'z–o'zini anglashi, avvalo uning diqqati, ongi, hissiy kechinmalariga qaratilishi lozim. Bugun hayotidan ko'ngli to'lmagan yoki, ko'pincha nolib yuradigan insonlarga nisbatan quyidagicha motivatsiya ham yaxshi natija berishi mumkin.

To'xtang! Keling, ikki daqiqa tafakkur qilamiz va siz baxtlisiz.

- Biror yoqimsiz so'zni aytishdan avval umuman gapira olmaydiganlarni yodingizga oling.
- Taomdan shikoyat qilishdan oldin, yeyishga bir tishlam noni yo'qlarni esga oling.
- O'z turmush o'rtog'ingizni birovga yomonlashdan oldin Allohga o'zining yolg'izligidan nola qilayotganlarni ko'z oldingizga keltiring.
- Hayotingizdan shikoyat qilishdan avval umri ayni gullagan payt tugaganlarni esga oling.
- Farzandlaringizdan shikoyat qilishdan avvval, tirnoqqa zor minglab odamlar borligini esga oling.
- Uyni tozalash va pol yuvish haqida janjallashishdan avval, millionlab uysiz odamlar borligini bilib qo'ying.
- Birovni gunohkor banda sanab, uning gunohlarini barmog'ingiz bilan sanashdan oldin, o'zingizni ham gunohkor banda ekaningiz va bir kun Alloh oldida javob berishingiz ko'z oldingizda tursin.
- Dilingizni g'am-anduh qamrab olsa, hali tirik ekaningiz uchun Allohga shukrona ayting. Tafakkur qiling, siz baxtlisiz.

Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim. Zero insonning qalbi, ongi, ruhi va shuuri ko'pdan ko'p savollarga javob bo'ladigan, doimiy faoliyatga undab

turadigan hayotbaxsh g'oyaga hamisha ehtiyoj sezib yashaydi. Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashini shakllanishida buyuk namoyondalarimiz tomonidan yaratilgan bebaho asarlarning, aforizmlarning o'rni beqiyosdir. Biz bugun yosh avlodga kitob o'qishni o'rgataylik, qolgan barcha narsani kitobni o'zi o'rgatadi. Qariyb uch ming yil burun bashariyat hayotiga yaxshilikdan darak bo'lib kelgan va ayni bizning ajdodlarimiz tafakkuri mahsuli bo'lmish jahonshumul "Avesto" kitobining bosh g'oyasi -ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal edi. Ayni mana shu go'zal uchlik hali insoniyat tongotaridayoq hayotning asosiy qonuniyatlari bo'lgani malum. Butunligicha yaxshilik g'oyalari bilan sug'orilgan "Avesto" kitobi va shunga o'xshash nodir asarlarimiz bunyodkor, ezgu g'oyalar hayotda nechog'lik muhim rol o'ynashini yana bir bor tasdiq etadi. Mangulikka daxldor bunday tarixiy meroslarning siri ham ana shunda. Malumki, san'at turlari orasida badiiy adabiyot alohida o'rin tutadi. Oddiygina bo'lib tuyulgan hayotiy bir fakt poeziyaga ko'chganda kishi tuyg'ularini qo'zg'otmay, hissiy dunyosini bezovta qilmay qo'ymaydi. Chunki shoirning o'zi tuyg'ular girdobida. U o'z qalb tug'yonlarini ifodalabgina qolmay, kitobxon qalbiga ham ana shu hissiyotni yuqtira oladi. Biror bir asarni o'qir ekanmiz, beixtiyor, salbiy qaxramonlarga nafrat, ijobiy qaxramonlarga esa muhabbat tuyg'ulari shakllana boradi. Adabiyotning asosiy quroli so'z ekan yozuvchi bu ta'sirchan quroli bilan butun dunyoni egallashi mumkin. Fikrimizning isboti sifatida Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi satrlarini keltirish mumkin.

Olibmen, taxti farmonimg'a oson,
Cherik chekmay Xitoydin to Huroson.

Abdulla Oripovning quyidagi satrlari esa fikrimizning isboti sifatida yangraydi.

Besh asrkim nazmiy saroyni,
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig'i yetmagan joyni,
Qalam bilan oldi Alisher.

Ha, ustoz Abdulla Qahhor aytganidek adabiyot - atomdan kuchli, faqat uning kuchini o'tin yorishga sarf qilmaslik kerak.

## ЁШЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ

*Жарилкапова Гулзар Полатбаевна*
*Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти Академик лицейи психологи*

Инсоният пайдо бўлибдики, энг долзарб, энг машаққатли ва энг қийин вазифа – ёшлар масаласи бўлиб келган. Бугунги глобалашиш даврида ёшларнинг ҳар хил саълбий оқимлар таъсирига тушиб қолишининг олдини олиш ҳамда уларни бартараф қилиш мақсадида психологлар зиммасига бир қанча мақсад ва вазифаларни юклайди. Шуни алоҳида айтиш керакки психологик хизмат кўрсатиш, етарлича йўлга қўйилмаганли оқибатида жамиятда ижтимоий

психологик муаммалар жумладан оилавий муаммалар (ажримлар, оиладаги турли хил низолар, ота-она муносабатлари, оммавий маъданият) нинг салбий таъсирларига тобелик, ўз жонига қасд қилиш ҳолатлари кузатилмоқда. Яна шуни ҳам такидалаш мумкинки, аксарият ёш ўспиринлар ўзларининг маънавий қашшоқлиги сабали турли хил ижтимоий тармоқларга, компьютер ўйинларига муккасидан кетиб, вертуал оламга шўнғиб реал вақеаликларни унитиб қўймокда. Бунинг натижасида турли хил ижтимоий муаммолар ҳам кузатилмоқда. Ҳозирги кунда юртимизда ёшларнинг дунёвий ва диний билимларини ортириш ишлари кенг кўламда олиб борилаётган бир даврда, айрим ёшларимизнинг диний саводхонлиги камилиги учун муқаддас ислом динимизнинг мазмун моҳиятини яхши англамай, хижобга берилиб турли хил жангари гуруҳларга бориб қўйилаётганлари ҳам афсуски учрамоқда. Оиладаги нотинчликлар, оила аъзоларининг бири бирини тушуна олмаслиги, моддий қийинчиликлар ва оилавий муҳитнинг яхши эмаслиги ҳам болада руҳий зўриқишларга олиб келади. Бунинг оқибатида ёш ўспиринининг руҳий камолатида заифлик сезилади ва ўз тенгдошлари орасида орта қолиш ҳолатлари кузатилади.

Ёшларга ўз замонасининг тараққиёти даражасига кўтарилиши, мавжуд ижтимоий-тарихий тажрибани эгаллаши, жамиятда ўз ўрнини белгилиб олиши, тархий жараённинг фаол иштирокчисига айланиши, ўз эътиқодига, ўзлигига, ҳаётда ўз ўрнига, мавқеига ега бўлиши ва бунинг учун фаол таълим тарбия олиши керак бўлади. Бугунги кунда ёшларда кузатилаётган муаммалардан бири бу ўз олдига тўғри мақсад қўя олмаслигидир. Сабаби ота-она ҳамда жамоат эътиборидан четда қолиши, касбий қизиқишларнинг вақтида аниқланмаганлиги оқибатида, ўзига бўлган ишончнинг етарли эмаслиги, яккаланиш ва танглик вазиятларга тушиб қолиш ҳамда ўз қобилияти ва ихтидорини намоиш қила олмаслигидан руҳий тушкунлик ҳолатлари юзага келади.

Бундай салбий ҳолатларнинг олдини олиш учун, ёшларда ижтимоий фаоликни шакиллантириш, ёшларни тинглаш механизмини йўлга қўйиш керак. Яъни ёшларнинг фикри, орзу-интилишлари, мақсади, энг муҳими, муаммоларини тинглаб, уларни ўз ўрнида ҳал қилиш принципини ишлаб чиқиш лозим. Ёшларни шиддат билан тараққийлашиб бораётган, ноодатийликка тўла ҳаётга; таълим ва малака — ишли ва ишсиз бўлиш, қашшоқлик ва фаровонлик, ноумидлик ва умид ўртасидаги фарқни англаш мумкин бўлган ҳаётга таёрлаш катта авлоднинг ва жамоатнинг бурчидир. Ёшларда яъни ўспиринлик даврида ақлий фаолияти кучайиб, мустақил ва ижодий характер касб эта бошлайди. Уларда бирор ишга диққатини тўплай билиш имкони ортади, мантиқий фикрлашнинг турли кўринишларидан фойдаланиш малакаси шакллана боради. Ёшларда бу тоифасининг интеллектуал фаолияти чуқурлашиб, умумлаштириш ва абстрактлашга, ҳодисаларнинг сабабини изоҳлашга, асосли хулосалар чиқаришга, ўзгаларнинг қарашларига танқидий ёндашишга мойиллик ортади. Шунинг учун ҳам ўспиринлик шахснинг кейинги ҳаёт йўлини белгилашда ҳал қилувчи босқич ҳисобланади. Шу боисдан ёшларнинг бўш вақтларини мазмунли ташкиллаштириш, интернетдаги зарарли хуружлардан асраш, уларни ахборот технологияларидан унумли фойдаланишга ўргатиш, ўзига бўлган ишончни

ортириш, ёшлар енг юқори даражада қадрлайдиган малакалар ва билимлар, булар қаторига чет тилларини билиш, бизнес саводхонлиги, тадбиркорлик, етакчилик ва мослашувчанлик каби "ижтимой" кўникмаларни шакиллантиришда психологлардан жуда катта билим ва маҳорат талаб қилинади.

Ота-оналар орасида оиланинг моддий ҳолатини яхшилаш мақсадида кўп ишлаб, фарзандига кам вақт ажратиб унда кечаётган ички кечилмалари, ўй фикрлари, қизиқишлари ва тарбиясига эътибор қоратмаётганлари ҳам учрайди. Тўғри фарзандини моддий тарафдан таъминлаш ота онанинг вазифаси, лекин бола тарбияси, уни жамиятга керакли ҳар томонлама етук инсон қилиб тарбиялаш ота-онанинг бурчидир. Бугунги шиддат билан ривожланаётган замонда ота-оналар ўзларининг кўп ишлашларини бахона қилиб, бола тарбиясидаги салбий ўзгаришларга педагог жамоани айбдор қилишга ўрганиб қолишган.

Бугунги кунда юртимизда президентимиз томонидан амалга оширилаётган ислоҳатлар, чиқарилаётган фармон ва қарорлардан кўришимиз мумкинки буларнинг барчаси ёшларни қўллаб қувватлашга уларнинг ҳар томонлама етук инсон бўлиб етишишига замин ёратади. Бунга мусал тариқасида, ҳукумат қарори билан (472-сон, 2019 йил 7 июнь) Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши ҳузуридаги Ёшларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш маркази Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш республика маркази этиб қайта ташкил этилиги, Қарор билан шунингдек, Ўзбекистон Республикасида психологик хизмат кўрсатишни янада такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар режаси тасдиқланди ҳамда тегишли ташкилот ва идораларга:

-2019/2020 ўқув йилидан бошлаб психология таълим йўналиши бўйича талабаларни давлат гранти асосида мақсадли қабул қилиш;

-магистратура босқичида психология бўйича мутахассисликлар квоталарини кескин ошириш чораларини кўриш каби вазифалар юклатилганлигини такидлаш мумкин.

## YOSHLAR XULQ-ATVORI VA DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRLARNING TUTGAN O'RNI

*Yorboboyeva Iroda Baxriddinovna*
*Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi 18-maktabpsixologi*

Mustaqillikka erishilgandan so'ng pedagogikada fikrlashga to'liq imkoniyatlar yuzaga kela boshladi. Natijada pedagogikada sog'lom aql, ijodiy muhit, milliy ruhiyat, fuqarolik madaniyati va an'analar, marosimlar, urfodatlarga mos tarzda ta'lim-tarbiya olib borish itnko-niyati yaratildi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy maf-kura fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan inson-parvarlik, dernokratik davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaro-ning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, fuqarolik madaniyatini qaror toptirish - fuqarolik jamiyatlning asosiy talabi sanaladi.Ushbu talab mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi huku-mati

tomonidan qabul qilingan qator qonun va qarorlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari mazmuni-da o'zining yorqin ifodasini topdi. ljtimoiy tarbiyaning samarali, izchil tizimini yaratish, jamiyatda fuqarolik madaniyatini shakllanti-rish muammolarining ijobiy hal etilishi jamiyat ijtimoiy hayoti uchun rnuhim ahamiyatga egadir. Bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy tarbiyasini keng ko'lamda fuqarolik tarbiyasi bilan uyg'un holda tashkil etish bugungi kunning da'vati va talabi boiib qolmoqda. Mazkur talabni ijobiy hal etish «Davlat-ta'lim muassasalari jamiyat jamoatchilik» uyg'unligini yaratish asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari:

1.Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga ongli ravishda rioya etishga o'rgatib borish;

2.Talaba-yoshlarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida maiumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish;

3.Vatanni himoya qilish borasida harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish;

4. Talaba-yoshlarda davlat ramzlariga hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorgarlik hissini shakllantirish;

5.Talaba-yoshlarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularda g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini, shuningdek, adolatli, diyonatli, mehr-muruvvatli, ezgulikni hirnoya qiluvchi, va'daga vafoli shaxslarni shakllantirishga erishish;

6.Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish;

7.Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi va yurt mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga qodir fidoyi fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish;

8.Umumxalq ma'qullagan Konstitutsiyani va shu kabi muhim davlat hujjatlarini hurmat qilish hissini shakllantirish;

Yoshlarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsning Konstitutsiyada ko'rsatilgan huquqlaridan foydalanish hamda burchlarini bajarilishi xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarini bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyot shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual saloxiyat, aql-idrok, fikr ilg‘or texnologiyalar ham xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Amir Temur bobomizning “Kuch adolatda” degan mashxur ta‘birini bugungi kunga nisbatan qo‘llab aytadigan bo‘lsak, men unga qo‘shimcha qilib “Kuch bilim va tafakkurda‖ degan bo‘lar edim”.

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir.

Inson faolligi harakat, faoliyat, xulq tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o‘zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo‘lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya‘ni,

faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir. Bu - yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o‘z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o‘yin faoliyati, bu - moddiy ne‘matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu - yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy -tadqiqotchilik faoliyati, bu - rekordlarni ko‘paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o‘xshash. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg‘ul bo‘lib turadi. Ijtimoiy faollik kishilarning ijtimoiy voqelikning biror bir sohasidagi fikrlari, his-tuyg‘ulari va hatti-harakatlarini jamlashga jamiyat hayotiga baho berishga va shu asosda ijtimoiy voqelikning tegishli tomonlarini o‘zgartirishga ta‘sir ko‘rsatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib «ijtimoiy faollik»-shaxsning har sohadan xabardorlik, komillik darajasini ko‘rsatuvchi mezon, deyish mumkin. Ijtimoiy faolikka intilib yashashning o‘zi g‘oya hisoblanadi. Uning mazmunini esa jamiyat ma‘naviy yuksalishini ta‘minlaydigan bilim, odob axloq, iste‘dod, qobiliyat, ijobiy ko‘nikma va malakalar, bular asosida shakllangan dunyoqarashlar majmui tashkil etadi. Yoki aniqroq aytsak, ijtimoiy faollik shaxs ma‘naviyatini kamolot sari etaklovchi, barcha ijobiy mazmunga ega sifatlarni o‘zida mujassam etgan, ijtimoiy taraqqiyotni ta‘minlashga xizmat qiladigan g‘oyalar majmuidan iborat. Bo‘lajak o‘qituvchi talabaning ijtimoiy faolligi shaxs sifati bo‘lib, jamiyat ravnaqi yo‘lidagi g‘oyaviy, siyosiy, kasbiy-madaniy va fuqarolik mas‘uliyatining qonuniy ifodasidir. har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘z faniga oid ilmiy bilimlarni egallash bilan bir qatorda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini, mamlakatda yuz berayotgan o‘zgarishlarni anglab etishi, g‘oyaviy jihatdan qurollangan bo‘lishi ham talab etiladi.

Talaba-yoshlarni O‘zbekiston prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon qilingan ijtimoiy faol va raqobatbardosh, kadrlar tayyorlashga oid nazariy g‘oyalar, sharq mutafakkirlarining barkamol inson tarbiyasiga oid qarashlari, shuningdek, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ma‘naviy jihatdan shakllantirish ularga kasbiy bilimlar berish o‘qituvchi kasbiga tegishli malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish jarayoni bilan uzviylikda olib boriladi.

Bu uzviylik pedagogika fanlari hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazmunidagi o‘zaro aloqador xususiyatlarga bog‘liq. Demak, talaba-yoshlarni tarbiyalashda pedagogika oliy o‘quv yurtlari oldida turgan muhim vazifa hozirgi davr talabiga javob bera oladigan, erkin fikrlaydigan, o‘z fanini chuqur biladigan, kasbiy mahorati kuchli, tashabbuskor, dunyoqarashi keng, ijtimoiy faol, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat. Buning uchun Kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida ijtimoiy faol o‘qituvchi shaxsini shakllantirish mexanizmini quyidagi jadval ko‘rinishida belgilashni maqsadga
muvofiq deb topdik.

Xarakatli-operatsion komponenti o‘quv faoliyatidagi xatti-xarakat va operatsiyalarni uzida mujassamlashtiradi. Bunday xatti-xarakat davomida ilgari tuzib chikilgan dastur amalga oshiriladi.

O‘quv faoliyati strukturasida pertseptiv, mnemonik, predmetli, nutkli va aqliy faoliyat xarakatlarini ajratib kursatish mumkin. O‘quv faoliyatining tarkibi, avvalo,

o‘quv materialining mazmuni, o‘quv faoliyatining maksadi, yoshlar tomonidan o‘quv ishlari usullarining egallab olish darajasi muayyan pedagogik vaziyatda yoshning munosabati bilan belgilanadi. Operatsiyalar o‘quv faoliyatini amalga oshirish usuli xisoblanadi. N.F.Talizina ta‘kidlab utganidek, operatsiyalarni izchil bajara borish faoliyat jarayonini tashkil etadi. O‘quv faoliyatini amalga oshirish usullari karab chikilar ekan, bu erda E.N.Kabanova – Meller fanga kiritgan o‘quv ishining usuli degan tushuncha bilan tanishib chikish maksadga muvofikdir. O‘quv ishining usuli – bu bir kator o‘quv xarakatlarining yigindisi bulib, ular muayyan bir tizimga birlashadi. Mazkur tizimning ishga solinishi qo‘yilgan o‘quv maksadiga erishishni ta‘min etadi.

Bilimni egallash murakkab ziddiyatli jarayon bo’lib, u insondan eng avvalo fiziologik jihatdan barkamollikni, Ya’ni 5 asosiy sezgi organlarini but-butun bo’lishini, hamda bilim olish uchun tinimsiz mashq qilishni, kunt bilan mehnat qilishni talab qiladi.

Dunyoning va butun borliqning ko’rki insondir. Inson o’z go’zalligi va murakkabligi bilan er yuzidagi barcha mavjudotlardan afzaldir. Insonning tafakkuri, aqli bor. U shu aql yordamida ilm egallaydi. Ilm tufayli dunyoni biladi va uni boshqaradi. Hayvonlar tabiatga u qanday bo’lsa, Shundayligicha moslashib yashayveradilar. Inson esa tabiatni o’ziga moslashtiradi, o’zgartiradi.

Ilmiy dunyoqarashni hamma vaqt bir zaylda, o’zgarmay turaveradigan bilimlar deb qaramay, bilimlar tula bo’lmagan bilimlardan tula bilimlarga qarab borishligini unutmaslik zarur. Masalan, qayta qurish munosabati bilan dunyo o’zgardi, oldingi tushunchalar ham o’zgardi. Yangi tarkib topayotgan jamiyatdagi hamma yangiliklar ham, qabul qilinayotgan qaror va farmonlar ham o’zgarmas emas. Shu bois ilmiy dunyoqarash bu hodisa va voqealarning hammasiga kishilar oddiy tomoshabin bo’lib turaverishi kerak emasligini, bu o’zgarishlarning faol ishtirokchilari bo’lishlik, tahlil yo’li bilan umumlashtira bilishni talab qiladi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.**


1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: «O’zbekiston» 2000
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: «O’zbekiston» 2000
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent,-1999.-96 b.


## YUQORI SINFLARDA INGLIZ TILI FANI O`QITISHNING O`ZIGA XOSLIGI


*Saydullayeva Zilola Saidaliyevna*

*Наманган вилояти Мингбулоқ тумани 17-мактаб инглиз тили ўқтувчиси*


O'zbekistonda uzluksiz ta'lim yosh avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy hayotga mustaqil moslashish ko'nikmalari hamda istiqbol rejalarini belgilash va hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda hozirgi davr talabida bo'lish ahamiyatlidir.

Shuning uchun ham jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy taraqqiyotini o'stirishda chet tillarini yaxshi biladigan yosh avlodni tarbiyalashda chet tili, xususan ingliz tilining o'rni juda katta. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida ingliz tilini o'qitishning maqsadlari jamiyat, davlat manfaatlari hamda talablaridan kelib chiqishi, unga muvofiq kelishi kerak.

Chet til o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi quyidagilarni ko'zda tutadi:

a) nutqiy qobiliyatning tarkibiy qismlari tinglash, idrok etish, payqab olish, til hodisalarini farqlash, fikrni mantiqli ifoda etish va boshqalar;

b) nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lgan psixik jarayonlar: tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur, tahlil va sintez, umumlashtirish;

c) muloqot qilish qobiliyati: his-hayajon, gapirishga chechanlik, kirishimlilik, xushmuomalali bo'lish, suhbat chog'ida tashabbuskorlik ko'rsatish, imo-ishora vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish va boshqalar;

d) xorijiy tilni va tili o'rganilayotgan mamlakat, uning xalqi, madaniyati, urf-odatlari kabilarni o'rganishga bo'lgan ichki va tashki motivatsiya, qiziqish hamda ishtiyoqlar;

e) ta'lim chog'ida mustaqil ishlash va bilim olishini tugatgandan so'ng o'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga tayyorlash.

Zamonaviy metodika talablaridan kelib chiqib, grammatik xodisalarni o'rgatishga integrativ yondashishni tanladik. Ayrim grammatik xodisalar esa o'zining ma'no yoki yasalish usullariga ko'ra ona tili grammatik hodisalari bilan o'xshashligi tufayli ular o'zlashtirish uchun katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu haqda tilshunos T.Sattorov tadqiqotlarida batafsil ma'lumot berilgan, grammatik hodisalarga tabaqali yondashuv g'oyasi ilgari surilgan.

Chet til ta'limida informatsion texnologiyalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Binobarin o'quvchilarga grammatik xodisalarni o'rgatish jarayonida quyidagi informatsion texnologiyalardan foydalanishni lozim topdik: kompyuter texnologiyasi (internet tarmogi), interaktiv metodlar, ochiq munozara (disput), ekskursiya, auksion, matbuot konferensiyasi, konkurs, dumaloq stol, orzu-niyat,
she'riyat turlari, chet til o'rgatish proyekt metodi va boshqalar. Interaktiv metodlar qo'llanganda, o'quvchining o'zi mustaqil holda erkin fikr yuritadi, o'qituvchi bilan hamkor sifatida ishlaydi. Ingliz tili darslarida o'quvchilarining grammatik ko'nikmalarini takomillashtirishda internet texnologiyalari axborot olish va muloqot kilishning eng zamonaviy shakllaridan biridir. O'quvchilar internetdan foydalanib, ma'ruza va referatlar yozishadi.

Multimedia o'quv materialini ovozli tarzda taqdim etish imkonini yaratadi, ya'ni virtual o'qituvchi vazifasini o'taydi. O'quvchi sof inglizcha talaffuzni tinglaydi, o'z nutqini unga moslashtirishga harakat
qiladi.

Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilariga so'z boyligini orttirish uchun eletron lug'atlarning roli beqiyosdir. Elektron lug'atda so'zlar grafik timsoli orqali emas, balki bevosita tovushlar majmui sifatida talaffuz qilinadi. Bunday lug'atlar bilan ishlashda so'zlarni eslab qolish oson kechadi va ular uzoq muddatli
xotirada saqlanadi.

O'quvchilar bilimini tekshirish va mustahkamlash maqsadida test olinadi. Test jarayonida o'quvchilarda mustaqil ishlash va o'zini-o'zi baholash imkoniyati paydo bo'ladi.

Ma'lumki, mustaqil holda olingan ilim xotirada uzoq saqlanadi va qayta esga olish oson kechadi. Zamonaviy texnologiyalardan bo'lgan strategiya va o'yin-topshiriqlari o'quvchilarni zerikishdan saqlaydi va ularni mustaqil tarzda aqliy faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlaydi.

Shuningdek ingliz tili grammatikasini umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'rgatishda klasterli yondashuv yoki usul ham samarali yordam beradi. Bu usul nafaqat samarali balki o'quvchilar uchun bilim berishda judayam qulay usul hisoblanadi. Maxsus kuzatishlarimiz va o'tkazilgan tajribamiz asosida quyidagi xulosalarga keldik: o'yin-topshiriqlardan foydalanish chet til o'qitishning amaliy, tarbiyaviy, umumta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi; o'quvchilarning xorijiy tilda fikr bayon etish(gapirish)ga nisbatan psixologik salbiy kechinmalarini bartaraf etishga imkon beradi, o'quvchilarga mustaqil fikrlashni o'rgatadi, nutq malakalarini egallashni o'zlashtiradi, maqsadga erishish, g'alaba qozonishga undaydi, tilni kommunikativ metodika asosida o'rganishga imkon beradi, barcha o'quvchilarni darsga jalb qilishga, qiziqishlarini yanada orttirishga, dars samaradorligini ko'tarishga salmoqli hissa qo'shadi.

Bilim, ko'nikma va malaka chet til o'rganishda o'ziga xos munosabat kasb etadi va bu o'quv predmetining xususiyatini aks ettiradi. Nutqda fikrni ifodalash yoki ifodalangan fikrni tushunib olish uchun til materialini qo'llay bilish talab etiladi. Bunga erishish uchun til vositalari bilan nutq mazmuni orasida mustahkam va moslashuvchan aloqa, S.Setlin ta'biri bilan, assotsiatsiya o'rnatilishi kerak bo'ladi.

Nutqiy malaka tarkibida til ko'nikma shakllantiriladi. Grammatik ko'nikmani hosil qilish uch bosqichli metodik dbir hisoblanadi:

1) taqsimot bosqichi yangi grammatik birlikni tushuntirish (nutq namunasida taqdim etish), tushuntirish va dastlabki grammatik amallarni bajarishdan iborat.

2) grammatika mashqlarini bajarish. Bu bosqich asosan ko'nikma hosil qilishga qaratiladi.

3) grammatik hodisani nutq faoliyati turlarida qo'llanilish bosqichi.

Aytilganlardan a'yon bo'ladiki, grammatika bilimlarni singdirish uchun emas, balki ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarida ingliz tili grammatik ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-metodik tavsifini tadqiq qilishdan ko'zlanadigan yagona maqsad ingliz tili grammatikasini o'rgatish modelini kiritishdir. Nazariy model o'quvchilarning inglizcha grammatik ko'nikmalarini takomillashtirish hozirgi kunda ingliz juda o'ziga xos mavqega ega va lingua franca - butun insoniyatning millatlararo muloqot tiliga aylanib bormoqda. Ammo yarim asr oldin ingliz tili xalqaro tillardan biri edi.

Bugungi kunda ingliz tili nafaqat Evropada, balki butun dunyoda millatlararo muloqot tili mavqeini mustahkamladi. Afrikaning bir qator mamlakatlaridagi fransuzlar, sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlaridagi ruslar kabi boshqa tillar o'z mavqeini saqlab turadigan mintaqalar hanuzgacha mavjud. Shu bilan birga, xalqaro aloqalarda ingliz

tilidan kengroq foydalanish tendentsiyasi mavjud. Hozirgi kunda ingliz tili O'rta asrlarda Evropada Lotin tili o'ynagan rolni o'ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Jamol Jalilov "Chet tilini o`qitish metikdikasi"
2. M.Irisqulov "Tilshunoslikkka kirish "
3. Hasanboy Rasulov "O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma kitoblari"
4. Kun. Uz
5. Lex.uz


## INGLIZ TILINING DUNYO HAMJAMIYATIDA TUTGAN O`RNI


Умурзоқова Феруза Исоқжоновна

Наманган вилояти Мингбулоқ тумани 17-мактаб инглиз тили ўқтувчиси


Hozirgi kunda ingliz tili o'ziga xos mavqega ega va lingua franca - butun insoniyatning millatlararo muloqot tiliga aylanib bormoqda. Ammo yarim asr oldin ingliz tili xalqaro tillardan biri edi.

Bugungi kunda ingliz tili nafaqat Evropada, balki butun dunyoda millatlararo muloqot tili mavqeini mustahkamladi. Afrikaning bir qator mamlakatlaridagi fransuzlar, sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlaridagi ruslar kabi boshqa tillar o'z mavqeini saqlab turadigan mintaqalar hanuzgacha mavjud. Shu bilan birga, xalqaro aloqalarda ingliz tilidan kengroq foydalanish tendentsiyasi mavjud. Hozirgi kunda ingliz tili O'rta asrlarda Evropada Lotin tili o'ynagan rolni o'ynaydi.

Zamonaviy dunyoda ingliz tilining rolini o'rganar ekanmiz, zamonaviy ingliz tilining bir nechta variantlari mavjudligini ta'kidlash joiz, ammo ularning orasida ikkitasi alohida mavqega ega, bular: Britaniya va Amerika variantlaridir.

Amerika va Britaniya versiyalari har xil til emas, bular zamonavit ingliz tilning ikki variant hisoblanadi, nutq jarayonida ularning rivojlanishining umumiy qonuniyatlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash muhimdir. Britaniya versiyasining ahamiyati va zamonaviyligi, an'anaviy ravishda dunyoning aksariyat mamlakatlarining ta'lim tizimida o'quv predmeti sifatida ishlatilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, hududiy jihatdan ingliz tilining rivojlanishi va qo`llanilishi bir xil bo'lolmaydi. Fonetik va leksik xususiyatlarning butun qatori Angliya, Kanada, Avstraliya va boshqalarning rezidentlari nutqi bilan ajralib turadi, ammo bu xususiyatlar deyarli og'zaki nutqda bir-birini tushunishga xalaqit bermaydi va yozma nutqda umuman aralashmaydi. Adabiy ingliz deb ataladigan tushuncha ham shunday. Ingliz tili asosida shakllangan so`zlarning eng muhimi: pidgin-inglizcha (pidgin english) - 18-asr boshlarida paydo bo'lgan, Xitoy, Yaponiya va Kaliforniyada keng qo'llanilgan; bichlamar (beach-la mar) - Tinch okeanining orollarida ishlatiladi; Cru English (kru-inglizcha) - Liberiya va Gvineyada ishlatiladi.

Filipp Derkin, Oksford inglizcha lug'atini yaratuvchisi, ingliz tilini shakllantirgan beshta hodisani tanlab oldi.

Anglo-Sakson aholi punkti.

Aniq bir til qachon paydo bo'lganini aniqlash har doim ham qiyin, lekin ingliz tilida biz hech bo'lmaganda bu alohida hodisa sifatida paydo bo`lgani xususida mulohalar yuritishimiz va bu haqda gapirishning mantiqiy ekanligini aytishimiz mumkin. Bu davr haqida aniq bir narsa deyish juda qiyin, ammo biz aniq bilamizki, nemis bosqinchilari Buyuk Britaniyaga beshinchi va oltinchi asrlarda Evropaning shimoliy-g'arbiy sohilida Buyuk Britaniyada joylashdilar va joylashdilar. Ular nemis tillarida gaplashdilar (keyingi golland, friz, nemis va skandinaviya tillariga), ammo biz ularning nutqi qo'shnilarining nutqidan qanchalik farq qilganini hech qachon bilmaymiz. Shunisi e'tiborga loyiqki, ko'chmanchilar bir xil tilda gaplashishlari mumkin. Ushbu davrning lingvistik holati to'g'risida juda kam ma'lumotga ega bo'lishning sababi, oldingi davrlarning german tillariga bag'ishlangan yozma arxivlar yoki hujjatlar yo'qligi. Turli lahjalar paydo bo'lishi, unchalik ahamiyatli bo'lmasa-da, VII-IX asrlarga oid hujjatlarni ko'rish mumkin. Ularning barchasi IX asrda Buyuk Alfred ingliz deb nomlagan tilga tegishli edi.

Keltlar Angliya-Saksonlar paydo bo'lganda allaqachon Britaniyada o'rnashib olishgan. Ularning tili zamonaviy ingliz lug'atida katta iz qoldirdi. Ba'zi olimlar Keltlar uning grammatik rivojlanishiga, ayniqsa mamlakatning ayrim qismlariga ta'sir ko'rsatgan deb taxmin qilishadi. Qadimgi ingliz tilidan olingan so'zlar soni juda oz. Masalan, brok (bo'rsiq) - bo'rsiq.

Skandinaviyadagi aholi punktlari.

Keyingi bosqinchilar skandinaviyaliklar edi. IX asrning o'rtalaridan boshlab, norveg bosqinchilari Britaniyada, asosan shimoliy va sharqiy mintaqalarda joylashdilar va XI asrda Daniya qiroli Canute ingliz taxtiga o'tirdi. Skandinaviyaliklarning nutqi ingliz tiliga katta ta'sir ko'rsatdi, buni ularning tillaridan olingan so'zlardan ko'rish mumkin. Ularning orasidagi o'xshashliklar qadimgi ingliz va bosqinchilarning tili o'rtasida umumiylik bo'lgan degan ma'noni anglatadi. Ba'zi so'zlar, masalan, berish, ingliz va skandinaviya tillarining grammatik tuzilishlarining o'ziga xos "kesishishi" ni ko'rsatadi. Va ularning orasidagi o'xshashliklar juda katta bo'lsa-da, aksariyat hollarda so'zning kelib chiqishini aniq aniqlash mumkin emas. Biroq, bu ta'sir keyingi yirik tarixiy va madaniy inqilob - Norman istilosi oxirigacha yozma tilda aks etmaydi.

Maxsus kuzatishlarimiz va o'tkazilgan tajribamiz asosida quyidagi xulosalarga keldik: o'yin-topshiriqlardan foydalanish chet til o'qitishning amaliy, tarbiyaviy, umumta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi; o'quvchilarning xorijiy tilda fikr bayon etish(gapirish)ga nisbatan psixologik salbiy kechinmalarini bartaraf etishga imkon beradi, o'quvchilarga mustaqil fikrlashni o'rgatadi, nutq malakalarini egallashni o'zlashtiradi, maqsadga erishish, g'alaba qozonishga undaydi, tilni kommunikativ metodika asosida o'rganishga imkon beradi, barcha o'quvchilarni darsga jalb qilishga, qiziqishlarini yanada orttirishga, dars samaradorligini ko'tarishga salmoqli hissa qo'shadi.

Bilim, ko'nikma va malaka chet til o'rganishda o'ziga xos munosabat kasb etadi va bu o'quv predmetining xususiyatini aks ettiradi. Nutqda fikrni ifodalash yoki ifodalangan fikrni tushunib olish uchun til materialini qo'llay bilish talab etiladi. Bunga

erishish uchun til vositalari bilan nutq mazmuni orasida mustahkam va moslashuvchan aloqa, S.Setlin ta'biri bilan, assotsiatsiya o'rnatilishi kerak bo'ladi.

Nutqiy malaka tarkibida til ko'nikma shakllantiriladi. Grammatik ko'nikmani hosil qilish uch bosqichli metodik davr hisoblanadi: 1) taqsimot bosqichi yangi grammatik birlikni tushuntirish (nutq namunasida taqdim etish), tushuntirish va dastlabki grammatik amallarni bajarishdan iborat. 2) grammatikamashqlarini bajarish. Bu bosqich asosan ko'nikma hosil qilishga qaratiladi. 3) grammatik hodisani nutq faoliyati turlarida qo'llanilish bosqichi. Aytilganlardan a'yon bo'ladiki, grammatika bilimlarni singdirish uchun emas, balki ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarida ingliz tili grammatik ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-metodik tavsifini tadqiq qilishdan ko'zlanadigan yagona maqsad ingliz tili grammatikasini o'rgatish modelini kiritishdir. Nazariy model o'quvchilarning inglizcha grammatik ko'nikmalarini takomillashtirish O'zbekistonda uzluksiz ta'lim yosh avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy hayotga mustaqil moslashish ko'nikmalari hamda istiqbol rejalarini belgilash va hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda hozirgi davr talabida bo'lish ahamiyatlidir. Shuning uchun ham jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy taraqqiyotini o'stirishda chet tillarini yaxshi biladigan yosh avlodni tarbiyalashda chet tili, xususan ingliz tilining o'rni juda katta. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida ingliz tilini o'qitishning maqsadlari jamiyat, davlat manfaatlari hamda talablaridan kelib chiqishi, unga muvofiq kelishi kerak.

Chet til o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi quyidagilarni ko'zda tutadi:

a) nutqiy qobiliyatning tarkibiy qismlari tinglash, idrok etish, payqab olish, til hodisalarini farqlash, fikrni mantiqli ifoda etish va boshqalar;

b) nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lgan psixik jarayonlar: tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur, tahlil va sintez.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Hasanboy Rasulov “O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma kitoblari”
2. M.Irisqulov “Tilshunoslikkka kirish “
3. Lex.uz

## USTANOVKA VA IRODAVIY AKTLAR PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

*Toyirova Laylo*
*O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi*
*“Din psixologiyasi va peadagogika” kafedrasi o’qituvchisi,*
*Ergasheva Muxlisa*
*O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Bizga ma’lumki, ustanovka tushunchasi inson hayotining barcha amaliy sohalarini qamrab olganligi sababli psixologiyada juda muhim o’rinni egallaydi. Psixologiyada unga doir alohida yo’nalish mavjud bo’lib, unda ustanovka muammosini

katta mashtablarda tadqiq qilingan. Bu yo'nalish gruzin maktabi asoschisi psixolog Dmitriy Nikolayevich Uznadze (1886-1950) tomonidan yaratilgan bo'lib, uzoq yillar davomida o'quvchilari bilan ustanovka muammosini o'rgangan va takomillashtirgan.

D.N.Uznadze o'zining tajribalari asosida ustanovkaning almashinish qonun qoidasini o'rgandi, psixotexnika, pedologiya, ontogenez va pedogogik psixologiya, zoopsixologiya muammaolarini tahlil qildi. Uning asosiy nazariy jihatdan izlanish natijalari va amaliy ishlari "Ustanovkaning asosiy ko'rinishlari nazariyasi" (1961), "Ustanovka psixologiyasining amaliy asoslari" (1966) asarlarida aks etgan. D.N.Uznadze diqqatni to'g'ridan to'g'ri  ustanovkaga bog'langan deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, ustanovka diqqatning ichki holatini aks ettiradi. Ustanovkaning ta'siri ostida qabul qilingan tashqi muhitdagi aniq bir obraz yoki taassurot ajralishi kuzatiladi. Bu obraz yoki taassurot diqqatning obyektiga aylanadi va bu jarayonning o'zi obyektivatsiya (obyektivlashish) deb nomlanadi.

D.N.Uznadzening fikricha ustanovka- bu organizmning yoki subyektning ma'lum bir ishni amalga oshirish uchun yoki ma'lum bir yo'nalishda munosabat bildirishga tayyorgarligidir. Bu faoliyatni amalga oshirishga yoki javob qaytarishga shay bo'lishlikni ta'minlaydi. Insonning ma'lum faoliyatni bajarishda ta'sirga javob berishdagi tezlik va aniqligi insonning malakasiga bog'liq, shuning uchun ustanovka va malaka bir xil degan taxmin qilish mumkin. Lekin shuni e'tiborga olish zarurki, malaka va ustanovka butunlay bir xil tushuncha deb qarab bo'lmaydi. Agar malaka faoliyatni amalga oshirish davomida egallansa, tayyorgarlik faoliyatni amalga oshirishdan oldingi vaqt oralig'iga ishora qiladi. Ustanovkaning turli xil ko'rinishlari mavjud:

1. Motor ustanovka- konkret faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarligi;
2. Aqliy ustanovka- intellektual masalalarni o'ziga ma'lum yo'l va usullardan foydalangan holda yechishga tayyorgarlik;
3. Perseptiv ustanovka- kutilyotgan holatni qabul qilishga tayyorgarlik.[34]

Ustanovka oldindan rejalashtirilgan faoliyatni kutilmagan zaruriy holatda bajarishni ta'minlagani uchun ham inson uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik hatto boshqasiga ta'sir etayotganda ham kutilmagan ta'sir oldindan kutilayotgan harakatni amalga oshirishga sabab bo'lishi mumkin va ko'pincha bu yanglishishga olib keladi. Ustanovka-shaxsning muayyan faoliyatni (idrok, tafakkur, maqsadga muvofiq harakatlar va h.z) bajarishga qaratilgan, avvalgi tajribasi bilan belgilangan tayyorgarligi bo'lib kishining uni muayyan tarzda harakatga undovchi tayyorgarlik formasi bo'lib, tayyorgarlikda idrok yoki harakatning ustunligiga qarab ustanovka sensor yoki motor ustanovkalarga bo'linadi.

Iroda muammosida "Irodaviy aktlar" tushunchasi muhim o'rinni egallaydi. Har bir irodaviy akt ma'lum bir tarkibga ega, ulardan eng muhim komponentlardan bu qaror chiqarish va uning ijrosidir. Bu irodaviy akt elementlari stress holatining xarakteridan kelib chiqqan holda ancha psixik zo'riqishlarni keltirib chiqaradi.

Irodaviy akt keyingi strukturasi quyidagi ko'rinishda kechadi:

– Irodaviy harakatni amalga oshirishda u yoki bu ehtiyojlarni  yo'naltirish. Bunda ehtiyojlarni anglash turlicha kechishi mumkin. Bunda noaniq istakdan  to to'liq anglangan maqsadga ega ehtiyojlar farqlanadi;

[34] Маклаков  А.Г. Общая психология. -Москва, 2001.

– Bir yoki bir necha motivlarning borligi va ularni amalga oshirish tartibini o'rnatish;

– " Motivlar kurashi" qarama-qarshi istaklarning tanlash jarayoni;

– U yoki bu hatti-harakatlarni tanlash jarayonida qaror qabul qilish. Bu bosqichda ruhan yengillik yoki aksincha bezovtalik holati kelib chiqishi mumkin. Bunga shaxsda qarorning to'g'riligiga shubhalanishi sabab bo'ladi;

– Qabul qilingan qarorni tanlangan hatti-harakatlarni amalga oshirish orqali realizatsiya qilish.

Irodaviy aktning har bir bosqichida shaxs irodasini namoyon qilib, o'zining hatti-harakatlarini nazorat qiladi, to'g'rilaydi. Har bir daqiqada u olingan natijalarni oldindan yaratilgan ideal obrazdagi maqsadiga solishtiradi.[35]

Irodaviy harakatlarda inson shaxsi va uning asosiy jihatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Iroda quyidagi shaxsning xususiyatlari sifatida nomoyon bo'ladi:

– Intiluvchanlik;
– Matonatlilik;
– Mustaqillik;
– Qat'iyatlilik;
– Tirishqoqlik;
– O'z-o'zini nazorat qilish.

Bu xususiyatlarning har biriga teskari bo'lgan shaxs xarakterining jihatlari mavjud bo'lib, ularda irodasizlikdan boshqalarning irodasiga to'be bo'lishi kuzatiladi.

– Shaxs irodasining muhim xususiyatlardan biri bo'lgan insonning hayotiy maqsadini belgilab beruvchi sifati bu maqsadga yo'nalganligi, intiluvchanligidir.

– Shaxsning mustaqillik sifatiga egaligi uning qaror chiqarishida o'zining ichki motivatsiyasi va bilimlariga, aqli va malakasiga tayanishida ko'rishimiz mumkin. Qat'iyatlilik o'z vaqtida ikkilanmasdan o'ylangan qarorni qabul qilish va uni hayotga tatbiq etishdir. Qat'iyatli insonning faoliyati oldindan o'ylab chiqilib tezlikda ikkilanmasdan o'zini ishini amalga oshirish bilan xarakterlanadi. Qat'iyatlilikning aks ko'rinishi bu qa'tiyatsizlikdir. Inson, qat'iyatsizlikdan farqli ravishda doimo ikkilanadi, o'zgarib turadi. Qat'iyatsiz kishi hatto qaror chiqargandan so'ng ham qayta ikkilanishni boshlaydi va boshqalarning harakatini kutib turadi. Matonatlilik va o'zini tuta bilish harakatlarini va emotsiyalarini har qanday qiyin vaziyatda ham nazorat qila olishidir. Uning aksi ko'rinishi o'zini tuta bilmaslik bilan xarakterlanadi. Bu maxsus tarbiya va o'zini-o'zi tarbiya qilishning yetishmasligidan kelib chiqadi. Qat'iyatlilik shaxsning oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olganligi bilan izohlanadi. Qat'iyatli inson chiqargan qaroridan kechmaydi, muvafaqiyatsizlikka uchraganda esa harakatlarini ikki barobar ko'paytiradi. Qat'iyatsiz inson birinchi muvaffaqiyatsizlikdanoq qaroridan voz kechadi.

– Tartiblilik, intizomlilik ongli ravishda o'zini xulq-atvorini ma'lum tartib qoidalarga bo'ysundirishidir. Intizomlilik turli xil ko'rinishlarda: xulq-atvor, fikrlashda, intizomsizlilikni aksi sifatida namoyon bo'ladi.

– Mardlik, dadillik har doim sha'y holatida bo'lishi, kurasha olishida, maqsad yo'lidagi qiyinchiliklar va xavf-xatarni bartaraf etishida, o'zining hayotiy pozitsiyasini

[35] Иванников В.А. Введение в психологию: курс лекций. 2-е изд.-М,: АСОУ,2006.-421с.

qo'ya olishida namoyon bo'ladi. Mardlik odatiy qo'rquvga berilish, qo'rqoqlikning aksi hisoblanadi. Shaxsda quyida keltirgan irodaviy xususiyatlarni shakllantirishda birinchi bo'lib irodani tarbiya qilishga yo'nalgan bo'lishi zarur. Shu bilan bilan birgalikda hissiyotni tarbiya qilishni ham chetda qoldirmaslik zarur.

Irodaviy akt- psixik funksiyalarining oliy ko'rinishi bo'lib, maqsadga yo'nalgan faoliyatni amalga oshirishda to'siqlarni yenga olish qobilyatidir. Irodaviy akt manbai subyektiv omillar sifatida har doim biror bir aktual ehtiyojlarga va obyektiv ravishda xohishlarning bevosita vaziyatiga bog'langan. Irodaviy aktning uch xil jihati mavjud: Faoliyatni amalga oshirishga xohishni kuchaytirish; ikki xil mazmundagi faoliyatni bo'lishi; (ahamiyatsiz yoki ahamiyati kam bo'lgan faoliyatni o'ta ahamiyatli ishga aylantirish; bu faoliyatni shaxsning ma'naviy sferasiga ulash); ikki ixtiyoriy faoliyatning bo'lishi (motivatsiya yo'li bilan va faoliyatni amalga oshirish yo'li bilan).

Irodaviy aktning belgilari ongli ravishda ahamiyati ko'proq bo'lgan maqsadga kuchli ishtiyoq bildirish; quyidagi holatda istak va maylning impulsiv vujudga kelishini bosishi; faoliyatni bajarish jarayonida emotsional qoniqishni bo'lmasligi. Irodaviy aktni mantiqiy o'ylangan faoliyat dasturi sifatida, qachon, qayerda, qanday qilib bajarishi aniqlashtirilgan algoritm tizimida tavsiflashimiz mumkin.[36]

O'zining determinatsiyasiga binoan ichki rejasida irodaviy akt ish yakunidagi hissiyot, idrok, aks ettirish, tafakkur, tasavvurdir. Shuning uchun iroda barcha psixik funksiyalarga bog'langan holda psixikaning butun bir xarakterini namoyish etadi. Irodaviy aktni namoyish etish orqali inson o'z qobilyatini his qiladi, zaruriy belgilangan narsalarni realizatsiya qilish uchun o'zining hayotiy tajribasiga asoslanadi.

Xulosa o'rnida, irodaviy akt zaruriy faoliyatning mohiyatini anglashga, uni bajarishga va nimanidir o'rganishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun u epistomologik muhim shartni va bilish jarayonini dastlabki shart-sharoiti hisoblanadi. Qisman, irodaviy akt shaxsiy bilimlarni shaklllantirishga, diqqatni yechim izlashda qa'tiyatli bo'lishga yo'naltirishda, erkin fikrlashni realizatsiya qilishda izchillikni ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. Irodaviy aktning asosiy mohiyati subyektning ongli ravishda innovatsion, tavakkal, kognitiv operatsiyalarni shakllantirish, ularni amalga oshirishga va uni realizatsiya qilishga qaror qilishdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. Маклаков А.Г. Общая психология. -Москва, 2001.
2. Иванников В.А. Введение в психологию: курс лекций. 2-е изд.-М,: АСОУ,2006.
3. Ғозиев Э.Ғ Умумий психология Т- 2010 й


[36] Ғозиев Э.Ғ Умумий психология Т- 2010 й

# РАҲБАР ФАОЛИЯТИДА БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШНИНГ АСОСИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

*Азамат Назаров,*
*Ўзбекистон халқаро ислом академияси, “Дин психологияси ва педагогика”кафедраси ўқитувчиси*

*Баходир Бахтиёров, Нодирбек Иброҳимов, Ойшахон Холматова,*
*Ўзбекистон халқаро ислом академияси,*
*Психология (Дин социопсихологияси) йўналиши 2 курс талабалари*

Азалдан инсон жамоавий ҳаёт кечирган ва самовий бошқарув таъсири натижасида унинг ижтимоий фаолиятида ҳам бошқарувга талаби тобора кучайган, раҳбарликка интилиш ривожлана борган. Бошқарувга талаб инсониятнинг ижтимоий фаолияти билан бирга пайдо бўлган. Қаерда икки инсон умумий мақсад сари фаолият бошлар экан, бу ерда биргаликдаги ҳаракатларни мувофиқлаштиришга эҳтиёж туғилди. Бу шароитда бир инсон раҳбар, бошқарув фаолиятини олиб боради, иккинчиси эса фаолиятни бажарувчисига айланади.

Давлатимиз раҳбари кадр танлашга эътиборни кучайтириш, уларнинг раҳбарликка доир қиёфасини ўрганиш, уларни мақсадли тарбиялаш, ўргатиш, бу мақсадга етиш учун хорижий тажрибадан фойдаланиш зарурлигини кўрсатиб ўтган. “Ўзининг тарихий, маданий ва интеллектуал меросини асраб-авайлашга, бойитиш ва кўпайтиришга, шунингдек, униб-ўсиб келаётган ёш авлодни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялашга етарлича эътибор қаратмайдиган, ҳар томонлама уйғун ривожланган, мустақил фикрлайдиган, ўз қараш ва ёндашувига, гражданлик позициясига эга бўлган шахсни камол топтиришни ўз олдига мақсад қилиб қўймайдиган ҳар қандай давлат ва жамият тарих ва тараққиёт йўлидан четда қолиб кетишга маҳкум эканини биз ўзимизга яхши тасаввур қилиб келганмиз ва яхши тасаввур этамиз.”

Ҳар қандай ижтимоий меҳнат жараёни у ҳоҳ кичик доирада, ҳоҳ катта доирада бўлсин, бошқарувни талаб қилади. Кимдир ходимлар олдига мақсад қўйиши, вазифаларни тақсимлаши, унинг бажарилишини назорат қилиши, кишиларни меҳнат қилишига ундаши, уларнинг ҳаракатини мувофиқлаштириши лозим.

Бошқариш жараёнида доимо бирон-бир масалани ҳал қилишга тўғри келади. Чунки турли сабаблар туфайли белгиланган параметрлардан оғиш содир бўлади, янги жараёнларга зарурият туғилади, натижада ишлаб чиқариш олдида пайдо бўлган

Қарор қабул қилиш жараёнида бир қатор тамойилларга таянилади. Қуйида улардан айримларига қисқача тўхталиб ўтамиз.

1. Холислик тамойили. Ҳар қандай қарор қабул қилинганда қарор қабул қилувчи маълумотларни холислик билан таҳлил қилмаса, унинг чиқарган қарорида бир ёқламалик, қарорни маълум томонларга буриш ҳодисаси

кузатилади. Холислик билан чиқарилган қарорда ҳеч бир томоннинг манфаатлари алоҳида қаралмайди ва қарор ҳис-туйҳуларга берилмасдан чиқарилади.

2. Ўз вақтидалилик тамойили. Мазкур тамойилда қарор қабул қилувчи биринчи навбатда вақт омилига алоҳида эътиборини қаратади. Чунки қарорнинг ўз вақтида чиқарилиши унинг ижросини ҳам оптимал ҳолга келтиради. Қарор уч хил кўринишда қабул қилиниши мумкин: шошилиб қарор қабул қилиш, ўз вақтида қарор қабул қилиш ва вақтидан ўтказиб қарор қабул қилиш. Ўз вақтида чиқарилмаган қарор натижаси кутилгандай бўлмайди.

3. Далилларга асосланганлик тамойили. Маълумки, қарор қабул қилишдан олдин муаммоли вазиятга тааллуқли бўлган маълумотлар йиғилади. Мазкур маълумотлар турли хил манбалардан, турли хил ишончлилик даражасига эга бўлган ҳолда тўпланади. Маълумотларни саралаш босқичида ҳар бир маълумотнинг далилига эътиборни қаратиш лозим бўлади. Далилланган маълуотлар асосида чиқарилган қарорлар оптималроқ бўлишлиги тажрибада исботланган.

Қарорларни ҳаётга татбиқ этиш жараёнида ҳам бир қанча талаблар ҳам борки, қуйида уларга қисқача тўхталиб ўтамиз.

Қарорларни бажариш - бу оқибат натижасида юқори бўғинда қабул қилинган режаларни, шунингдек шу режалар асосида қуйи бўғинлар (цех, участка, бригада, смена, ҳар бир ходим) учун тузилган режа ёки топшириқларни бажариш демакдир. Қарор энг аввало буйруқ ёки фармойиш тарзида расмийлаштирилади, сўнгра у маъмурий хужжат тусини олади. Унда аниқ ижрочилар, бажариш муддатлари, назорат қилиш усуллари ва ҳоказолар кўрсатилган бўлади.

Қарорнинг бажарилишига раҳбарлик қилиш - бу ташкилот, корхона, цех, участка, бригаданинг бошқариш аппарати томонидан ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш жараёнида раҳбарлик қилиш бўйича аниқ масалаларни ҳал этиш демакдир.

Бунда ҳар бир бўлинма ўзининг функционал вазифасини бажариш билан банд бўлади. Бинобарин, бошқаришнинг ягона тизими амал қилади. Шу тариқа барча бошқарув бўлинмалари бир-бирига ўзаро таъсир кўрсатиб, бош режаларнинг бажарилишини таъминлайди.

Раҳбарнинг асосий вазифаси бошқарув тизимини мақсадга мувофиқ уюштиришдан ва ўзи учун ишлаб чиқаришнинг туб масалалари билан шуғулланиш мкониятини яратишдан иборатдир.

Қарорларни бажарилишига раҳбарлик қилиш жараёнида раҳбарнинг вазифаси ходимларнинг шахсий манфаатларини умумманфаатлари билан мувофиқлаштиришга эришишдан иборатдир. Жамоага мувффақиятли раҳбарлик қилиш фармойиш бериш ва назорат қилиш усуллари, шакллари ва техникасини билишгина эмас, балки топшириқларни бажаришга ходимларни сафарбар эта олиш қобилиятини ҳам талаб қилади.

Эришилган ютуқларни раҳбар фақат ўзининг хизматлари этиб кўрсатмаслиги лозим. Қарор ижро этилмай қолганда айбдорни жазолашдан олдин бунинг сабабларини диққат билан ўрганиш зарур.

Кўпчилик раҳбарлар яхши қарор қабул қилишни билмасликлари туфайли эмас, балки уларни амалга оширишни ташкил қила билмасликлари сабабли ўз лавозимларига мос келмай қоладилар. Баъзида бир масала юзасидан икки-уч марталаб қарор қабул қиладилар. Қарорларнинг бажарилмай қолиш сабаблари ҳам мана шундадир.

Қарорларни бажарилишига раҳбарлик қилиш муайян меъёрий хужжатга таянади. Корхона, Ташкилот тўғрисидаги қонун ёки Низом ана шундай меъёрий хужжатлардан хисобланади. Бу хужжатда мазкур корхона (бўлинма)нинг асосий вазифалари, ҳуқуқ ва мажбуриятларидан ташқари унинг штат жадвали ва маъмурий раҳбар (бошлиқ, мудир) кўрсатилган бўлади. Низомда кўпинча ушбу бўлинманинг бошқа хизматлар билан функционал алоқалари тартибга солинади.

Низомга биноан одатдаги шароитларда раҳбар фақат бевосита бўйсинувчиларгагина фармойиш беради. Бошқа бўйсинувчиларга фармойиш фақат уларнинг бевосита раҳбарлари орқали берилади. Масалан, цех бошлиғи формал жиҳатдан хизмат бўйича ўзидан паст турган барча ходимларга буйруқ бериш ҳуқуқига эга. Бироқ, у бевосита раҳбарларни четлаб буйруқ берганда бу ҳол:

-ташкилий парокандаликка олиб келади;

-интизомга салбий таъсир кўрсатади;

-кўнгилсиз ижтимоий оқибатларни келтириб чиқаради.

Баъзан раҳбарлар ўртасида бир-бирининг ишига аралашиш холлари рўй беради. Бундай ҳаракат ҳам раҳбарлар орасида маълум норозиликни келтириб чиқаради.

Бошқариш жараёнидаги охирги босқич - бу қабул қилинган қарор ижросини назорат қилишдир.

Назорат функцияси - раҳбарнинг энг муҳим вазифасидир. Раҳбар қабул қилинадиган қарорларнинг ташаббускори бўлганлиги сабабли у шу қарорларнинг бажарилиши устидан назоратни ташкил қилишнинг ҳам ташаббускори бўлиши керак. Қарорларнинг ижро этилишини назорат қилмайдиган раҳбар ўзи ишлаётган ишлаб чиқаришга мас, балки бошқа корхоналарга ҳам зарар етказиши, яъни уларнинг ишида кечикишлар, узилишлар пайдо бўлишига сабабачи бўлиши мумкин.

Қарорни бажарилишини назорат қилиш хулосалар чиқаришни ҳам ўз ичига олади. Бундан мақсад қарорнинг ҳақиқий натижаси ва самарасини аниқлаш, шунингдек, қарор қабул қилиш воситаларидан фойдаланиш тажрибасини умумлаштиришдир.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Анфилатов В. С. Системный анализ в управлении М.: Финансы и статистика, 2002.

2. Воробьев С. Н. Управленческие решения Текст. / С. Н. Воробьев, В. Б. Уткин, К. В. Балдин. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. — 317 с.

3. Назаров А. Принятие управленческих решений как психологическая проблема // Вестник интегративной психологии. – Международный научный журнал. г. Ярославль, 2019., №19.

4. Назаров А. Принятие управленческих решений как основная функция современного менеджера // Вопросы экономики и управления. - Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №2.

5. Nazarov A. Psychological analysis of levels of administration of management decisions. // Вопросы экономики и управления.-Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №3.

6. Nazarov A. Adoption of management decisions as the main function of the modern manager // Проблемы современной экономики: материалы IX Междунар. науч.конф. г. Казань, апрель, 2020 г.

# ЁШЛАРДА МАСЪУЛИЯТ ҲИССИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОСИ

*Ғайибова Наргиза Анорбаевна*
*Психология фанлари бўйича PhD,*
*Ўзбекистон халқаро ислом академияси*

*Рахмонова Моҳинур Ёқуб қизи*
*Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 1 курс талабаси*

Ёш авлодни масъулиятли, ўз ишига виждонан ёндашадиган қилиб тарбиялаш ҳозирги куннинг долзарб масалаларидан биридир. Зеро Ватанимиз келажаги ёшларнинг қандай таълим-тарбия олганлигига боғлиқ равишда, улардаги билим, масъулиятлилик, сабрлилик, меҳнаткашлик каби хусусиятларнинг шаклланганлигига бевосита боғлиқ.

Шахснинг камолга етиши жараёнида, кундалик бажарадиган фаолиятларида масъулиятлилик ҳисси талаб қилинади. Масъулиятни ҳис қилган инсон ўз ишини доимо пухта режалаштириб, унинг оқибатларини олдиндан тасаввур қила олади ва зарур натижага эришиш учун бутун кучи ва салоҳиятини сафарбар этишга қодир бўлади.

Масъулият – ўзининг маънавий бурчи ва ҳуқуқий қоидаларини бажариш билан ифодаланадиган шахснинг жамиятга алоҳида ижтимоий ва маънавий ҳуқуқий муносабатини акс эттирувчи этика ва ҳуқуқ категориясидир. Ушбу таъриф фалсафа луғатларида келтирилган бўлиб, масъулият тушунчаси фақатгина маънавий балки ҳуқуқий ва бошқа ижтимоий муносабатлардан келтириб чиқарилади.

Психология фанида эса масъулиятлилик тушунчаси турлича ёндашувлар асосида ўрганилган ва у турлича талқин қилинади.

Психологияда масъулиятлилик дастлаб боланинг ривожланиш босқичида етакчилик қилган аниқ фаолият мисолида ўрганилган. Кейинчалик у ўзаро фаолият жараёнида тадқиқ қилинган. Масъулият ҳисси анъанага кўра, гоҳ “қонун ташувчи”, гоҳ алоҳида топшириқни бажарувчи сифатида, гоҳ масъулиятни бировга ёрдам бериш, қўллаб-қувватлаш мотиви сифатида, гоҳ эса оддий ҳаётий

кундалик қоидаларни бажарувчиси сифатида субъектнинг ролини ўзгартириш орқали тадқиқ этилган. Шу сабабли реал масъулиятлилик хулқнинг ташқи кўрсаткичи бўлиб, у ёки бу юклатилган вазифанинг амалга ошириш меъёри бўлиб хизмат қилган. Асосан, масъулият муаммоси икки йўналишда, яъни ахлоқий ва сабабий жиҳатдан ўрганилади. Жумладан, масъулиятлилик – тан олинган норма ва қоидаларни бажаришни назарда тутувчи субъект фаолиятининг назорат қилиш шакли ҳамда масъулият – шахс маънавий фаолиятининг имкониятлари нуқтаи назаридан қараладиган бурчга мослиги сифатида талқин қлинади.

Психологик адабиётлар таҳлилига кўра, масъулиятнинг вужудга келиши ва ривожланиш қонунияти илк бор Жан Пиаже томонидан ўрганилган. Унинг “Боланинг ахлоқий фикрлаши” деб номланган илмий иши кўпгина тадқиқот ишларига туртки бўлган. Жан Пиаженинг фикрича, ўйин шундай қоидалар тизимики, уни хурмат қилиш ва унга риоя қилиш зарур. Лекин боланинг онгига бу қоидаларни тўғридан-тўғри сингдириб бўлмайди. Аввал болалар ҳар хил ўйинларнинг қоидаларини билишлари керак, яъни шу ўйинда ўзларига ажратилган ролнинг моҳиятини англаб етадиган даражада ўзлаштириши керак.

Масъулиятлиликнинг объектив ва субъектив жиҳатлари борасида К.Анисимов изланишлар олиб борди. Унинг фикрича, маънавий масъулият таҳлили кенг социологик жиҳатларга эга, масъулият ижтимоий заруратни ифода этувчи, маънавий тамойиллар, қоидалар кўринишида жамият томонидан ўзининг алоҳида аъзолари, жамоаларига қўйиладиган объектив талаблар тўплами сифатида юзага келади. Масъулият онгнинг ўзига хос ҳолатини намоён қилса, у ҳолда субъектив психологик мазмунда ҳам тақдим этилиши мумкин.

Психолог олим С.Л.Рубинштейн масъулиятни умумфалсафий негизи асосда ўрганган. Унинг таъкидлашича инсон хатти-ҳаракатлари нафақат ташқи муҳитга боғлиқ, балки ички детерминацияга ҳам асосланади. Бунда улар қуйидаги позицияларда акс этади: “барча каби” ва “мен ўзим”. Инсон ҳамма каби иш кўриб, ўз хатти-ҳаракатлари учун масъулиятдан қутулади. “Мен ўзим” позицияси эса инсонни оламга бефарқ эмаслигини намоён этиб, шахс масъулиятини ривожланишига таъсир қилади.

Масъулиятни ҳис қилган инсон ўз ишини доимо пухта режалаштириб, унинг оқибатларини олдиндан тасаввур қила олади ва зарур натижага эришиш учун бутун кучи ва салоҳиятини сафарбар этишга қодир бўлади. Ёшларда масъулиятни ўстиришнинг энг қулай йўли, бу аввало ота-оналарнинг билимларини ошириш, уларда соғлом тафаккур ва илмий дунёқарашни шакллантиришдир. Чунки, оилада ўрнатилган муҳит, ота-оналарнинг тарбияланганлик даражаси, ўз вазифаларига нисбатан ёндашуви боланинг дунёни идрок этиши ва юксак ҳислари ривожланишига бевосита таъсир қилади. Шундай экан, ота-оналардан фарзанд олдидаги, эл-юрт олдидаги маънавий бурчини тўғри англаш, оилавий муносабатлар доирасида ҳаётга, инсонга, Ватанга ва миллатга ижобий муносабатни шакллантиришлари лозим. Бу орқали болаларда инсоний муносабатлар тизимида ўз ўрнига эга бўлиш, ўз ишига масъулият билан ёндашиш, тартиб ва қоидаларга онгли муносабат ҳамда болаларни мустақил фикрлайдиган кишилар қилиб тарбиялаш тақозо этилади.

Оила қанчалик иноқ, уюшган ва мустаҳкам бўлса, унинг норматив таъсири ҳам шунчалик ижобий самарали бўлади. Бундай оилада ўзининг қадриятларидан ташқари, жамиятнинг қадриятлари, қонун-қоидалар ва нормалар ҳурмат қилинади, бола бошидан жамиятда яшашга ўргатилган бўлади. Унинг аҳамияти шундаки, фарзанд мактабгача тарбия муассасасида ҳам, кейинчалик мактаб, олий таълимда ўқиганда ҳам тартибли, интизомли, айтилган вазифа, берилган топшириқларни масъулият билан виждонан бажарадиган бўлиб, болалар жамиятида ҳамиша ўзининг ўрнига эга бўла олади. Бундай фарзандга турли бидъатлар, бемаза чақириқлар, даъватлар таъсир этмайди, мустқил фикрли, пок виждонли инсон бўлиб етишади.

Ёшларда масъулият ҳиссини шакллантиришнинг яна бир муҳим омили улар таълим олаётган масканлардир. Мазкур таълим масканларидаги педагог ходимлар муносабатлари ва хулқ–атвори, уларнинг таълим олувчиларга бўлган талаб ва бурчларини қай даражада бажараётганликлари билан боғлиқдир. Ўқувчиларнинг ўзига хос ижтимоий психологик, индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган тарзда фаолиятни ташкил этиш ҳам ёшларда масъулият ва бошқа ижобий хислатларни шакллантирувчи омиллар қаторига киради. Айниқса масъулиятлиликни шакллантиришнинг оптимал даври бу боланинг жамият ҳаётига фаол қўшилган - кичик мактаб ёш даври ҳисобланади. Бу даврда, ўқитувчи томонидан тўғри ташкил этилган дарс машғулотлари ва вазифаларни бажаришга қўйилган талаб билан боғлиқ ҳолатлар ўқувчи психикасини қайта қуради. Ўқув фаолияти давомида ўқитувчи томонидан “тартиб ва озодалик дақиқалари”ни ташкил этилганлиги, берилган топшириқни мустақил бажарилганлиги назорати ва ўзаро ёрдам, навбатчилик тариқасидаги ишларни бажарилиши бўйича рағбатлаш кабилар ўқувчиларда масъулият ҳиссининг шахс хусусияти сифатида шаклланишига асос бўлади.

Шунингдек, таълим муассасаларида психологик хизматнинг тўғри йўлга қўйилганлиги, мақсадли равишда ўтказилган учрашув ва тадбирлар, жумладан, социал-психологик тренинглар ҳам ёшларда масъулиятлиликни шакллантиришга катта ҳисса қўшади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, масъулиятлилик шахс сифатларидан бири бўлиб, унинг шаклланиши бир қатор объектив ва субъектив омилларга боғлиқ. Яъни, ёшларда масъулиятлилик ҳиссининг қай даражада шаклланганлиги унинг индивидуал-психологик хусусиятлари, ижтимоий муҳити, жумладан оиладаги шахслараро муносабатлар характери, таълим ва тарбия жараёнининг тўғри ташкил этилганлиги билан белгиланади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Берг Р. Развитие навыков межличностных отношений// Психологическая энциклопедия. Изд. 2-е / Под ред. Р. Корсини, А. Ауэрбаха. – СПб.: 2003.

2. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2008. – 512 с.

3. Крейг Г. Психология развития.– СПб.: Питер, 2000.– 992с.: ил.–/Серия “Мастера психологии”/ .С. 539

4. Суслова, Т. Ф., Шаповаленко И. В. Психология семьи с основами семейного консультирования : учебник и практикум для академического бакалавриата. - М.: Юрайт, 2016. — 343 с.

## ЁШЛАР ПСИХОЛОГИЯСИДА ДЕСТРУКТИВ ҒОЯЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ИНТЕРНЕТ ОМИЛИ

*Ҳабибуллаев Баҳодир, мустақил тадқиқотчи*

Бугунги кунда мамлакатимизда ёшларни ижтимоий-психологик ҳолатини яхшилаш ва уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ишлари кенг кўламда амалга оширилмоқда. Шу сабабли, ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш миллий таълим-тарбия асосида ташкил этилиб, давлат сиёсати даражасидаги асосий масалалардан бири сифатида алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Ёшларни ижтимоий-психологик томондан қўллаб-қувватлаш йўналишида бир қатор ишлар амалга ошириб келинаётганлигига қарамасдан, ҳозирда ёшлар тарбиясига бир қанча салбий таъсир кўрсатувчи омилларнинг кучайиб бораётганлиги, мазкур йўналишда дастлаб вазиятга таъсир этувчи омилларни ўрганишни талаб қилмоқда. Мамлакатимизда соҳа мутахассислари томонидан ўтказилаётган ижтимоий тадқиқотлар ҳамда ОАВ орқали эълон қилинаётган маълумотларга қараганда, Интернет – хозирги кунда ёшлар психологиясида деструктив ғоялар шаклланишининг энг асосий омилларидан бири экан.

Ўз навбатида, Интернет ахборот узатишда ва хордиқ чиқаришда юқори имкониятларга эга эканлиги ёшларни жалб этишда асосий омил бўлмоқда. Интернет мафкуравий тарғибот ва ёшлар онгини эгаллашда ташқи кучларнинг муҳим воситаси ҳисобланиб айниқса, ижтимоий тармоқлар бу борада асосий ўринни эгалламоқда. Жумладан, Ўзбекистонда бугунги кунда ижтимоий тармоқлардан фойдаланувчилар сони кундан кунга ортиб бормоқда. Бундай ижтимоий тармоқлар қаторига Одноклассники, Facebook, ВКонтакте, Twitter кабиларни киритиш мумкин. Маълумотларга кўра, мамлакатда ижтимоий тармоқдан фойдаланувчилар 10 млн.дан ортиқ бўлиб, уларнинг кунлик аудиторияси 3,5 млн.ни ташкил этади (уларнинг асосий қисми ёшлардир). 2017 йилда тармоқлардан фойдаланувчиларнинг кунлик аудиторияси 30 фоизга ошган.

Биргина Одноклассники тармоғининг кунлик аудиторияси Ўзбекистонни жаҳон бўйича аудиторияси 1,5 млн. бўлиб, рўйхатдан ўтганлар 2 млн.дан ортиқ, Facebookдан фойдаланувчилар эса 2017 йил октябрь ойининг бошида 280 минг.дан ошган. Уларнинг 64 фоизи эркаклар, 36 фоизи аёллардан иборат. Салбий томони шундаки, ижтимоий тармоқлардан турли хил танишув ва сўзлашувлардан ташқари, ёлғон ва бир ёқлама фикрлар, турли ҳаёсиз видеороликларни ҳам кузатиш мумкин.

Мутахассисларнинг фикрига кўра, биргина Facebook тармоғида 30 дан ортиқ Ўзбекистонни обрўсизлантиришга қаратилган веб-саҳифалар мавжуд. Бугунги

кунда "оммавий маданият" таъсири ортиб, Интернет ёрдамида маънавиятимизга ёт ғояларни ёшлар онгига сингдиришга қаратилган турли ҳаракатларни кузатиш мумкин. Бундай ҳаракатлар сирасига флеш-мобларни ҳам кўрсатиш мумкин. Бу технология янги эмас, бироқ унда замонавий электрон алоқа коммуникацияларни қўллаш орқали янада такомиллаштириб борилмоқда. Ўзбекистонда ҳам мактаб ва кўчаларда флеш-моблар ўтказилган ҳолатлар кузатилган. Агар флешмоблар миллатнинг урф-одатларини акс эттирса бу ижобий ҳолат. Бироқ аксарият ҳолларда у Ғарб маданиятига эргашиш эканлигини кўрсатмоқда.

Маълумотларга кўра, Интернет тармоғида шахс психологиясига таъсир қилиб суицидга ундовчи 9 мингга яқин сайтлар мавжуд бўлиб бир ойда 100 млн.дан ортиф ташриф бўлади. Шунингдек, жами веб сайтларнинг 12 фоизи порнографик характер касб этади. Бугунги кундаги филтровчи дастурларнинг энг юқори самарадорлик кўрсаткичи 90 фоизни ташкил қилади. Бу ҳолат "ўлим ўйинлари" ("кўк кит", "китлар денгизи", "тинч уй", "мени 4:20 да уйғот", "туз ва муз", "f57", "бойватча ўзбек қизи" ва бошқалар) деб номланувчи ўйинларнинг Интернет орқали тарқалишига шароит яратиб беради. 2016 йилда дунё бўйича 720 та бола бу ўйинларни ўйнаши оқибатида ўз жонига қасд қилган бўлса, 2017 йилда бу кўрсаткич 815 тани ташкил қилган.

2017 йилнинг биринчи ярмида Тошкент шаҳридаги 26 та мактаб, 18 та лицей ва коллежда ўтказилган профилактик тадбирлар натижасида 217 та мактаб ва 333 коллеж, лицей ўқувчилари ушбу ўйинларнинг турли босқичларида эканлиги аниқланган. Тошкент шаҳридаги компьютер клубларининг 25 тасида ўтказилган рейдлар натижасида 23 та ўқувчи дарсга бормай компьютер ўйинларини ўйнаётганлиги, 22:00 дан кейин эса 4 та вояга етмаган болалар онлайн ўйинларини ўйнаётганлиги аниқланган. Мактаб ўқувчиларининг мобил телефон қурилмаси текширилганда 36 та ўқувчи "кўк кит" ўйининг турли босқичларида эканлиги аниқланган.

Республика Маънавият ва маърифат маркази маълумотларига кўра, Республика бўйича 13 фоиз хонадонлар компьютер орқали Интернетга уланган бўлиб, шу сабабли ёшларнинг 15 фоизи оммавий маданият таъсирига тушган. Шунингдек, оилавий китобхонлик даражаси паст бўлиб, умумий аҳолимизнинг ¼ қисмигина газета ва журналлар ўқийди холос.

Деструктив ғояларни ёшлар онгига тарғиб қилиш усуллари хилма-хил бўлиб, уларда доим ҳам мавжуд тузумга қарши очиқдан-очиқ ҳаракат қилиш унсурлари ифодаланмаслиги мумкин. Хусусан, терроризмнинг охирги йилларда турли кўринишлари вужудга келди ва Интернетда эълон қилинаётган ушбу мазмундаги материаллар одатланилган, шаклий мезонларга жавоб бермаслиги эҳтимоли мавжуд. Масалан, аҳоли онгига таъсир кўрсатиш учун жамиятда мавжуд турли муаммоларга ирқий, диний, миллий тус берилади ва уларни бартараф этишда радикал хаттиҳаракатларга эътибор қаратиш лозимлигига урғу берилади. Ёки деструктив ғояларни тарғиб қилишнинг нисбатан пайқаш мумкин бўлган шакли мазкур ҳаракатларни оқлаш, уларни легитимлаштиришга уриниш ҳисобланади. Деструктив тарғибот-ташвиқотнинг ўзгача кўринишларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

-муайян ирқ, дин, миллат вакилларига, ижтимоий гуруҳга нисбатан салбий қарашларни, адоват туйғусини шакллантириш;

-муайян деструктив хатти-ҳаракатларга нисбатан хайрихоҳликни таркиб топтириш (уларга масалан, суицидни тарғиб қилувчи ёки экстремистик ҳаракатларни қўллаб-қувватловчи сайтлар фаолияти мисол бўла олади).

# ОИЛАДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ПСИХОЛОГИЯСИ

*Юсупов Умиджон Салим ўғли*
*Самарканд Давлат университети психалогия 1 курс магистри*

Мустақиллигимизнинг дастлабки йилларидан бошлаб, аҳоли саломатлигини, айниқса, оналик ва болаликни, ёшларни, оилани ижтимоий муҳофаза қилиш масалалари ҳукуматимиз сиёсатида марказий ўринни эгаллаб келмоқда. Бу бежиз эмас, албатта - ҳозир биз инсоният тарихида унутилмас бўлган бир даврда – илм-фан, техника, умуман цивилизация кучли тараққий этган XXI асрда яшамоқдамиз ва қолаверса, юртимизда ҳуқуқий демократик фуқаролик жамиятини барпо этиш жараёни кечмоқда. Умумжаҳон ҳамжамияти билан турли йўналишларда ҳамкорлик қилиш, олдимизда турган ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий ҳамда сиёсий масалалар ечимини халқимиз фаровонлигини таъминлаш нуктаи назаридан мўътадил равишда амалга ошириш вазифалари фуқароларимизнинг, оила ва келажак авлоднинг ҳар томонлама баркамол (ҳам жисмонан, ҳам маънавий жиҳатдан соғлом), доно, илғор фикрли ва заковатли бўлишини тақозо этади.

Бугунги кунда соғлом турмуш тарзининг негизи ҳисобланган психик саломатлик - қисқа муддат давомида йирик тадқиқотлар соҳасига айланиб улгургани айни ҳақиқатдир. Мазкур ҳолатни қуйидаги рақамлар исботлаб турганини қайд этишимиз лозим. Агар 1975 йили АҚШда психик саломатликни муҳофазасига оид 200 дастур татбиқ этилган бўлса, 1990 йилга келиб бундай дастурлар 5000 га ортган. Ҳозирги кунда улар салмоқли иқтисодий самарадорликни кўрсатмоқда [1]. Айни пайтда АҚШдаги психологларнинг ҳар ўн нафаридан биттаси психик саломатликнинг у ёки бу муаммоси билан шуғулланмоқда, шунингдек, инглиз забон психологик журналларда чоп этилаётган ҳар учта мақоладан биттаси ушбу соҳанинг турли жиҳатлари билан боғлиқлигини эътироф этиш жоиз [2].

Соғлом турмуш тарзи ҳақида сўз борар экан, унинг энг аввало инсон тани ва вужудининг бетоб бўлишига сабаб бўлувчи зарарли одатлардан фориғ бўлишни тасаввур қилишга ўрганиб қолганмиз. Бу атама, энг аввало, соғлиқни сақлаш ходимлари фаолияти билан боғлиқ тарзда тушунтирилади. Аммо, соғлом турмуш тарзини шакллантиришда - тан ва вужуд, ақл ҳамда идрок бевосита одамники, унга боғлиқ бўлгани учун ҳам инсон руҳияти қонуниятлари ва сирларини ўрганувчи фан бўлмиш психологиянинг унга алоқаси бор. Шунга кўра,

психология фанида соғлом турмуш тарзи психологияси тушунчаси мавжудки, у соғлом турмуш тарзига энг аввало, инсон онги ва тафаккурининг инъикоси сифатида қарайди. Демак, ҳар биримиз учун сув ва ҳаводек зарур бўлган соғлигимизни таъминлаш ва бунга эришиш учун соғлом турмуш тарзига одат қилиш нафақат тиббиёт ходимлари, балки психологларнинг, психология фанининг ҳам изланиш предмети сифатида намоён бўлади.

Шу маънода, психология соғлом турмуш тарзини шакллантиришда инсон феъли, хулқ-атвори ва турли психологик ҳолатлари нуқтаи назаридан ўрганганда: асосан, ҳар биримиз гуёки сирдек туюлган руҳиятимизнинг ўзимизни соғ-саломат, бешикаст ва тетик ҳис қилишимизга алоқадор қандай жиҳатлари борлигини, уни бошқариш орқали ўз бойлигимиз – саломатлигимизни сақлаш борасида қўлимизда қандай имкониятлар мавжудлигини, соғлом турмуш тарзи психологиясини шакллантириш ҳар биримизга ўз руҳий ҳолатимизни бошқариш, онгу-шууримизда рўй бераётган ўзгаришларни вақтида илғаш орқали уни мўтадил тутиш, ўзгарувчан шарт-шароитларга мослашиш йўлларини, бу борадаги профилактикани ўрганадиган фан ҳамда фойдали амалиёт сифатида тобора ҳаётимизга дадил кириб келмоқда.

Қолаверса, соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг психологик жиҳатларига - инсон феъл-атворини; соғлом турмуш тарзига нисбатан шахснинг муносабатини; соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг ижтимоий-психологик омилларини; шахснинг индивидуал-психологик хусусиятларини; шахс ўсиб-ўлғайган оила муҳитнинг таъсири, яъни ташқи омилларни киритиш мумкин.

Манбаларда таъкидланишича, тиббиёт ходимлари турли омилларни ҳисобга олган ҳолда соғлом турмуш тарзининг йўналишларини белгилаганлар ва унга риоя этиб яшашни тавсия этадилар [3]. Айтиш лозимки, инсон саломатлиги нафақат биологик омилларга, балки яшаётган ижтимоий муҳит, шахснинг ўзи, атрофидаги инсонлар билан ўзаро мулоқотига ҳам боғлиқ. Инсоний муносабатлар эса, аввало, оиладан, оила муҳитидан бошланади. Соғлом турмуш тарзига амал қилиб яшаш кўникмаси инсонда бирдан пайдо бўлиб қолмайди, у ўзига хос малака ҳам талаб этгани боис илк болалик чоғлариданоқ, унга оилада ўргатиб бориш лозим бўлади. Бу ота-она зиммасидаги энг муҳим, масъулиятли вазифалардан биридир. Барча ота-оналар фарзандларини тарбиялар эканлар, доимо огоҳ бўлишга, сергак туришга интиладилар. Бу эътибор боланинг барча нарсалари етарли бўлиши, сиҳат-саломатлиги жойидалиги, дарсларига мунтазам қатнашишини назорат қилиш каби меъёрлар билан чегараланиб қолиши мумкин эмас. Энг аввало, инсоннинг асосий ҳаёти ўтадиган маскан - оиланинг турмуш тарзи соғлом бўлмоғи даркор[4].

Маълумки, оила - бу ҳар бир жамиятнинг мини социумидир. Жамиятнинг ва ижтимоий ҳаётнинг бир бўлаги тариқасида оиланинг ўзига хос вазифалари бор, ўз навбатида бу вазифаларнинг ҳар бири маълум билимларга эга бўлишни ва энг муҳими масъулиятни ҳис қилиш талабини қўяди. Агарда тузилган оила жамиятнинг бир бўлаги сифатида такомиллашмаса ёки “ўсмаса”, айниқса маънан ва руҳан тараққий этиб бормаса, оиладаги томонларнинг ўзаро

вазифалари ва қизиқишлари аниқ белгиланмай қолса, бундай оиланинг келажаги фаровон бўлмайди. Шунинг учун муваффақиятли оила *меъёрлари*, яъни андозаларини ёки *алгоритмларини* белгилашдан аввал бир нарсага аҳамият беришимиз даркор.

Оила энг мураккаб гуруҳлардан ҳисобланади. У нафақат жиддий ёндошувни, оила қураётганлар бир бирларини синчковлик билан ўрганиб чиқишини, балки кейинчалик ҳам бутун ҳаёт давомида деярли ҳар куни, керак бўлса ҳар соатда умр йўлдошлар бир-бирларига бўлган муносабатлари хусусида чуқур фикр юритишларини талаб қилади. Шундагина оила бахтли, соғлом ва узоқ давом этади. Шунга кўра, муваффақиятли оила моделини (модулини) яратиш учун соғлом турмуш тарзини белгиловчи барча жиҳатларнинг андозаларини аниқлаб чиқиш керак. Аввалига бўлажак турмуш ўртоқларнинг ҳар бири учун алоҳида, сўнг ушбу андозаларни амалий бажарилишига кўмаклашувчи механизмларни топиш даркор, яъни фаровон оилани яратиш йўлларини аниқлаш зарур, бошқача қилиб айтганда, алгоритмларни ишлаб чиқиш лозим. Бунда маънавий; психологик;жисмоний; тиббий жиҳатлар инобатга олиниши лозим.

Маънавий жиҳатлар меъёрлари - эркаклар учун ҳам , аёллар учун ҳам бир хил, яъни оила фаровонлигини таъминловчи ижобий фазилатларга асосланган бўлиши зарур: билим даражаси, ўқимишлилик даражаси, масъулият, дунёқарашнинг бир бирига мослиги, маданияти, такомиллашишга интилиш туйғуси.

Психологик жиҳатлар меъёрлари - қуйидаги фазилатларда намоён бўлиши мумкин; толерантлик, яъни ҳамжиҳатликда, жон куярликда, оқилаликда, одоб-ахлоқда ва хушмуомалаликда. Аёллар эса бокиралик, мулойимликни шакллантиришлари лозим, ҳамиша ўзиникини уқтиришга интилишдан қочишлари керак. Руҳий меъёрларни шакллантирувчи алгоритм бевосита маънавий алгоритм билан боғлиқ ва кўп жиҳатдан ёшларнинг таълим-тарбиясига бориб тақалади.

Жисмоний жиҳатлар меъёрлари - жисмонан комилликка интилиш, тренажёр заллар, фитнес клубларга бориб туришга ундовчи ҳаракатларда ўз аксини топади, яъни жисмоний соғломлашиш нуқтаи назаридан ҳаёт тарзи фалсафасини тараққий эттириш омилларини ҳисобга олиш зарур.

Тиббий жиҳатлар меъёрлари - авваламбор турли касалликларни аниқлаш, айниқса наслдан наслга ўтувчи ёки ижтимоий хасталиклар (туберкулёз, ОИВ/ОИТС, жинсий йўл билан юқадиган касалликлар)ни аниқлашга йўналтирилган бўлиши лозим. Лекин бошқа томондан ёндошадиган бўлсак, ижобий меъёрлар бўлажак турмуш ўртоқларнинг ўз саломатлигига масъулиятли бўлишларига даъват этиши шарт. Хўш, муваффақиятли оила қуриш меъёрлар белгиланган натижаларга қандай қилиб эришиш мумкин? Соғлом турмуш тарзи психологиясини шикллантириш йўллари ҳамда механизмлари ёки алгоритмлари бир тизимга асосланган, бир мақсадга йўналтирилган ва ўсиб бораётган авлод тарбиясидаги босқичма-босқичлик асосида белгиланади. Жараёнга давлат, нодавлат ҳамда жамоат ташкилотларини, энг муҳими таълим муассасаларини

жалб қилган ҳолда ижобий натижага эришиш мумкин. Боғчалардан бошлаб, мактаб, лицейлар, коллеж ҳамда Олий ўқув юртларида ҳам жамоат ташкилоти тариқасидаги аҳамияти муҳимлиги сезилиши лозим, чунки айнан маҳалла оилада фаровонликни шакллантиришга таъсир ўтказади. Шу билан бир қаторда ёшлар ўртасида ижобий меъёрларни шакллантиришда халқимизнинг анъаналари, менталитетимиз, урф-одатларимиз ва ҳар бир оиланинг авлоддан авлодга ўтиб келаётган анъаналарига асосланиш керак. Аждодларга бўлган эҳтиром ёш авлод тарбиясида катта малҳамдир.

Ёшлар орасида маънавиятни шакллантириш - мураккаб ва кўп қиррали, у ёки бу оиланинг ўзига хосликлари, атроф-муҳит ҳамда шароитларидан келиб чиққан ҳолда, ёндошувни талаб қиладиган жараён. Мамлакатимизда ёш авлод тарбиясида маънавият масаласига жуда катта аҳамият берилади. “Маънавият-маърифат” марказлари, “Оила илмий-амалий тадқиқот” марказлари ва маҳаллалар самарали фаолият юритибгина қолмай, ёш авлод тарбиясидаги маънавият масаласи давлат миқёсидаги мавқега эга ва барча таълим муассасаларида ёшларнинг маънан комил бўлиб вояга етишлари учун жавобгар бўлиши зарур.

Шунингдек, муваффақиятли оилани қуришда ҳам бўлажак умр йўлдошларнинг руҳияти бир бирига мослиги жуда аҳамиятли эканлигини таъкидлаш жоиз. Психологик амалиётда таъкидланича, бу борада тушунтириш ишларини олиб бориш лозимлиги кўрсатилади, у ҳам бўлса ёшлар (бўлажак турмуш ўртоқлар) маълум вақт мобайнида бир бирларини яхшироқ ўрганишлари ва бир бирларининг индивидуал фазилатларини аниқлаб олишлари учун учрашишлари лозимлиги хусусида тушунтириш ишлари олиб борилиши шарт.

Барчамизга маълумки, ўзбек оиласида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, кўпроқ оила (аёллар)га боғлиқ: оила аъзоларининг жисмоний тарбияга муносабати, тоза-озодалиги, орасталиги, болалар режими, тарбияси (овқатланиш тартиби, кийиниш маданияти, ҳордиқ чиқариш, дарс қилиш) ва ҳакозолар.

Шу боисдан ҳам, бугунги кунда мамлакатимизда долзарб ва аҳоли саломатлигининг манбаи ҳисобланадиган жисмоний тарбияга аҳамиятни кучайтириш, унинг барча оилаларга кириб боришига эришиш учун жойларда аёлларни бу ишга кенг жалб этиш – оилавий спортни тарғиб этиш давр талабидан келиб чиқмоқда.

Оилавий спорт билан шуғулланиш, энг аввало, ўша оила мустаҳкамлигини, саранжом-саришталиги ва фаровонлигини таъминлайди. Бундай оилада барча ёшдаги оила аъзолари саломатликлари мустаҳкам, маънавий муҳит мўътадил, ўзаро муносабат яхши, ҳар бир оила аъзосининг ўқишга, ишга иштиёқи баланд, кайфияти ҳамиша кўтаринки бўлади. Ана шу оилада меҳр-оқибатлилик, меҳрибонлилик, масъулиятлилик, эътиборлилик одатдаги ҳол ҳисобланади.

Жисмоний тарбия ва спорт фақат аҳолини соғломлаштириш воситаси эмас, балки ҳордиқ чиқаришни оқилона ташкил этиш, инсоннинг умумий маданиятини, бошқа инсонлар билан муомала маданиятини, ёш авлоднинг маънавий юксалишини шакллантирадиган омил ҳам ҳисобланади. Жисмоний тарбия ва

спорт фақат соғломлаштиришда ва ижтимоий муаммоларни ҳал этишда эмас, балки аҳоли (айниқса ёшлар) ўртасида учраб турадиган маънавий ва жисмоний носоғлом муҳит ўчоғини сўндирадиган воситадир. Жисмоний тарбия (спорт)ни ўзига одат қилиб олган ёшларда “бўш (бекорчи) вақт”га ўрин қолмайди.

Қайд этиб ўтилган ижобий самараларга эришиш учун эса, мазкур йўналишда юртимизда олиб борилаётган ишларни янада кучайтириш, барча турдаги оммавий ахборот воситаларидан ва кенг жамоатчилик кучидан мақсадли фойдаланган ҳолда, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини мунтазам равишда кенг тарғибот қилиш, оилаларга мўъжаз спорт жиҳозларини олиб кириш, маҳаллаларда, таълим масканларининг барча бўғинларида спорт залларини, майдончаларини замон талабларига хос ва мос равишда барпо этиш ва тегишли жиҳозлар билан тўлиқ таъминлаш, спорт тўгараклари, секциялари турларини кўпайтириш, ушбу даргоҳларда фаолият олиб бориши учун маҳаллий кадрларни тайёрлаш, оилавий спорт билан шуғулланадиган, ва уни тарғибот этадиган фаол жамиятимиз аъзоларини рағбатлантириб бориш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Юқоридагилардан хулоса қилиб таъкидлаш мумкинки, соғлом турмуш тарзи, бир томондан, инсоннинг жисмоний саломатлиги ва камолотини назарда тутса, иккинчи томондан, инсон маънавий ва мафкуравий саломатлиги, унинг шахс сифатидаги тўла камол топишининг асосини ташкил қилади. Нафақат жисмоний, балки ижтимоий, руҳий жиҳатдан ўзини соғлом ҳис қилган одамгина жамиятнинг фаол аъзоси бўлиб, ўзига ва атрофидагиларга наф келтириши мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Bennet, G. (1987) The Wound and the Doctor: Healing Technology and Power in Modern Medicine. London: Seeker & Warburg.

2. Borril, C. S., Wall, M. A., West, G. E., et al (1996) Mental Health of the Workforce in NHS Trusts. Leeds: Institute of Work Psychology, University of Sheffield & Department of Psychology, University of Leeds.

3. Обидов А О., Новиков Ю.В. Соғлигимиз ўз қўлимизда. Тошкент. “Медицина” 1989.

4. В.М.Шапиро Л.Н.Башмакова. Здоровый образ жизни. Пособие для учителей. Алмата. 2003.

## МУНДАРИЖА


| | | |
|---|---|---|
| *Кубаев Маъруф Қосим ўғли* | Ижтимоий меъёрлар ва хулқдан оғиш муаммосини ўрганилиши тарихи ва замонавий ёндашувлар | 4 |
| *Юсупова Гулбаҳор* | Креатив тафаккурли ўспиринларнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари | 8 |
| *Nazarov Azamat Sottarovich* | Psychological and organizational features of management decision-making | 11 |
| *Soliyev Abdulhamid, М.Ё.Мирвалиева* | Ўсмирлик давридаги девиант хулқ-атворни психологик ташхис қилиш | 13 |
| *Л.И. Тойирова, Д.А. Абдуганиева* | Копинг-поведение студентов | 16 |
| *Mahmudova Sevara Ismoilovna* | Oilada-suitsidal harakatlarni bartaraf etish | 20 |
| *Камолиддинова Жасмина* | Страхи у детей и пути их преодоление | 22 |
| *Собитов Отабекхўжа Йўлдош Ўғли* | Ёшларнинг дунёқараши ва хулқ-атворига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар | 24 |
| *Usmonova Dilnoza* | O`smirda shaxsiyatning shakllanishi | 27 |
| *Ergasheva Zebiniso Xasanxonova* | Globallashuv jarayonida kitob mutolasining yoshlar ruhiyatiga ta’siri | 29 |
| *Imomova Nigora Paziljonovna* | Ta’lim tizimida nizolar va ularni samarali hal etishning pedagogik-psixologik yo’llari | 31 |
| *Аллаберганова Зебо, Атаджанова Кувонж* | Хулқи оғишган болалар психологиясининг ўзига хос хусусиятлари | 34 |
| *Қаххоров Сарвар* | Диний мутаассибликни тавсифловчи омиллар | 37 |
| *Nodirova Zulfira Hakimovna* | Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishda dastlabki pedagogik xususiyatlari | 40 |
| *Yuldasheva Xosiyat* | O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish | 43 |
| *Oqilova Kamola Sa’dulloyevna* | O‘quvchilarda individual xususiyatlarni rivojlantirish usullari | 45 |
| *Azimova Nafisa Sunnatovna* | Barkamol shaxsni shakllantirishda psixologik mezonlar | 49 |
| *Жураев Хайдаржон Одилбойивич* | Ёшлик даврида шахс шаклланишига таъсир этувчи омиллар, психологик шарт-шароитлар | 52 |
| *Shoyqulov Shohijahon Shomilovich* | O`quvchi yoshlarni ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari | 54 |
| *Жўраева Наргиза Ҳасановна* | Болаларда жаҳли тезлик ва уни йўқотиш йўлл | 56 |
| *Муратова Кумуш Юнус қизи* | Ҳуқуқбузарликка мойиллиги бор вояга етмаган ўсмирларнинг келиб чиқиш сабаблари ва чоралари | 60 |

| | | |
|---|---|---|
| ***Xumora Mamadaliyeva*** | Ta`limni o`rta boshqichidan boshlab psixologiya fani o'tilishi qanchalar zarur? Hayotiy muammolarni anglashda psixologik bilimlarning o'rni | 63 |
| ***Muxlisa Ergashova*** | Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari sabab va yechimlar | 65 |
| ***Ismoilova Dilnoza Shaxobiddinovna*** | Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ommaviy madaniyatning salbiy ta`siri | 67 |
| ***Расулова Муқаддам*** | Таълим жараёнида ўкувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишнинг педагогик ва психолгик асосларини яратиш | 70 |
| ***Arifjonova Nodira*** | Oiladagi sog`lom ruhiy muhit va uning farzandlar tarbiyasiga ta`siri | 73 |
| ***Oyshaxon Ma'rufjanova*** | O'quvchilarni kasb tanlashlariga psixologik ko'maklashish | 75 |
| ***Abdusamatova Xurshida, Nosirova Barchinoy*** | Maktab psixologining o'quvchilar bilan o'tkazadigan individual suhbat usullari | 78 |
| ***Yo'ldoshev Tojiddin Abdukarimovich*** | Bolalar tarbiyasida oila va oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlari | 80 |
| ***Tojiddin Yo'ldoshev, Kodirova Muyassar*** | Maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari | 83 |
| ***Shaymardanova Nargiz*** | O'smirlarda salbiy xulq-atvor guruhlari | 86 |
| ***Dildora Rahimova*** | Kasbiy yo`naltiruv | 89 |
| ***Umarova Saodat*** | Tarbiyasi qiyin bolalar va ularning kelib chiqish sabablari | 92 |
| ***Бибисора Алламбергенова*** | Психологияда арт-терапия оркали коррекцион ишларнинг ўзига хос хусусиятлари | 94 |
| ***Abdullaeva Dilnoza Azimovna*** | Psixologik xizmatni tashkil qilish dolzarb psixologik muammo sifatida | 96 |
| ***Даулетова Гўзал*** | Ўкувчилар ақлий фаолиятининг психологик хусусиятлари | 99 |
| ***Юлдашева Махлиё, Зарнигор Эргашова*** | Фрустрационная теория агрессии | 102 |
| ***Расулова Нилуфар*** | Maktabgacha yosh davrida bola psixologiyasida o`yin faoliyatining roli yohud "zamonaviy o`yinchoqlar" | 105 |
| ***Raximova Shaxnoza*** | Duduqlanish — sabablari, alomatlari, tashxislash, davolash, oldini olish, asoratlari | 109 |
| ***Абдуллаева Ирода*** | Ertak terapiya orqali bolaga ta'sir etish usullari | 113 |
| ***Жабборова Фотима*** | Мулоқот ва муносабат | 116 |
| ***Mamajonova Ra`no*** | Xulq-atvor va odatlarni shakllanishining | 119 |

| | | |
|---|---|---|
| | psixologik tavsifi | |
| ***Mo‘xsinova Mahmuda*** | Zamonaviy pedagog-zamon talabi | 121 |
| ***Tajibayeva Ma’mura, Asqarova Lolaxon*** | Boshlang’ich sinf o’quvchilarini bilish jarayonlarini rivojlantirishda integratsiyalashgan ta’limning o’rni | 124 |
| ***Tajibayeva Ma’mura, Mirzaxalilova Dilfuza*** | Shaxsni ijtimoiy psixologik himoya qilish muammolari | 126 |
| ***Tajibayeva Ma’mura, Asqarova Lolaxon*** | O`quvchilarni o`z-o`zini anglashga o`rgatishning ichki omillari hamda pedagogik shart-sharoitlari | 130 |
| ***Эргашов Зафаржон*** | Замонавий психологиянинг илмий-назарий ва амалий масалалари | 133 |
| ***Ахмаджонова Шохидахон*** | Оилавий тарбия – мустаҳкам оила нишони | 135 |
| ***To'yev Jobir O'tkir o'g'li*** | Мактабда педагогларнинг вазифаси таълим бериш ва тарбия | 137 |
| ***Куватова Гулбону*** | Шахслардаги новербал мулоқот марказлари | 140 |
| ***Raxmonova Zuxro, Abdulhaqova Zilola*** | Boshlang`ich ta’lim tizimini sifat samaradorligini oshirishda o`qituvchining mahorati | 142 |
| ***Sultonova Muqaddas*** | Jinoiy xulq-atvor shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va uni bartaraf etish yo’llari | 144 |
| ***Qudratova Saodat Davlatovna, Qurbonova Ozoda Usmonovna*** | Umumta'lim maktabi o’qituvchilari pedagogik-psixologik bilimlarini oshirishda mutafakkirlar merosidan foydalanishning dolzarb masalalari | 147 |
| ***Холматова Дилноза*** | Тарбия жараёнида бола хулқ-атворининг ўзгаришига сабаблар | 150 |
| ***Niyozova Nodira*** | Maktab psixologi kim…? | 152 |
| ***Qobilova Zarina*** | Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy-psixologik ta’sirlarning tutgan o’rni | 154 |
| ***Istamov Nurali Navro'z o'g'li*** | Yuqori sinf o’quvchilarida xotirani rivojlantirish | 156 |
| ***Ниёзов Назиржон*** | Мулоқотда юзага келадиган низоли ҳолатлар ва шахс тоифалари | 158 |
| ***Karomatova Marhabo*** | Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy-psixologik ta’sirlarning tutgan o’rni | 160 |
| ***Qo’shaqova Shahnoza*** | Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari | 162 |
| ***Navbahorova Hurshida*** | Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash va yosh oilalarning buzilishini oldini olish | 166 |
| ***Egamova Sarvinoz Halimovna*** | O’smirlik davrning o’ziga xosliklari va unda o’qituvchi-o’quvchi munosabatlari | 168 |

| | | |
|---|---|---|
| ***Г.Ж.Оразбаева*** | Педагогические условия совершенствования модели самореализации учащегося старшего класса | 171 |
| ***Муҳаммадиева Нафиса*** | Ёшларнинг дунёқараши ва хулқ-атворига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар | 173 |
| ***Abduraxmonova Nargiza*** | Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlar | 176 |
| ***Абдусаид Исманов*** | Руҳий фаол моддаларни ўқувчи ёшлар организмига салбий таъсири | 178 |
| ***Tilavoldiyeva Valida*** | O’smirlik davridagi ijtimoiy-psixologik muammolar sabab va ularning yechimlari | 181 |
| ***Setimova Saida*** | Matematika darslarida o`quvchilarni kreativ fikrlashga o`rgatish usullari | 184 |
| ***Bobojonova Muxlisa*** | O'smirlar xulq atvori va dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy psixologik ta'sirlar | 187 |
| ***Zaripova Nilufar*** | Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullar tamoyillari | 191 |
| ***Halimova Husnigul*** | Shaxsning shakllanishida jamiyat va oila tarbiyasining psixologik jihatlari | 194 |
| ***Radjabova Sanobar Raximovna*** | Yoshlarda oilaviy hayotga doir ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uslublari | 196 |
| ***Kurbonova Gulchehra*** | Yoshlarni ma’naviy qadriyatlarni e’zozlashga o‘rgatishning ilmiy va amaliy uslublari | 199 |
| ***Saidova Gulhayo Tolibovna*** | Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy-psixologik ta`sirlarning tutgan o`rni | 202 |
| ***Тойирова Лайло, Иброхимова Зухра*** | Талаба шахсининг талабгорлик даражасини ўрганишдаги қарашлар | 204 |
| ***Азамат Назаров*** | Олий таълим жараёнини бошқаришда қарорлар қабул қилиш тажрибаси ва технологиялари | 207 |
| ***Islomova Bibigul*** | Bolalarda jahli tezlik va uni bartaraf etish yo`llari | 209 |
| ***Bozorova Moxigul*** | O'quvchi-yoshlarni kasbga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari | 212 |
| ***Xidirova Aziza Xalili qizi*** | O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish psixologik aspektlari | 214 |
| ***Tilovoldiyev Rasuljon*** | Zamonaviy psixologiya sohalari va ularning o'ziga xosligi | 217 |
| ***Mahmudov Sobirjon*** | O’quvchilar tafakkurini rivojlantirishda pedagoglarning o’rni | 219 |
| ***Ашуров Нодирбек*** | Плюсы и минусы информационных | 222 |

| | | |
|---|---|---|
| | технологий в социализации молодежи | |
| ***Tilavoldiyeva Gulnoza*** | Zamonaviy psixologiya sohasida psixodramma tushunchasi va uning rivojlanish tarixi | 224 |
| ***Rizoqulov Mirjalol*** | Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy-psixologik ta`sirlarning tutgan o`rni | 227 |
| ***Shavkatova Shaxnoza*** | Aholi orasida psixologik savodxonlikni oshirish va takomillashtirishning ijtimoiy psixologik aspektlari | 231 |
| ***Djo'rayeva Dildora*** | Yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi ijtimoiy psixologik omillar | 234 |
| ***Саидмурадова Парвина, Саидмурадов Акбар*** | Мотивация для достижения желаемого успеха | 236 |
| ***Naimaxon Umirzaqova*** | Yoshlarning dunyo qarashi va xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar | 241 |
| ***Tuychiyeva Shaxlo*** | Maktabgacha yoshdagi bolada hissiy qiyinchiliklarni bartaraf etishda o'yin faoliyatining roli | 244 |
| ***Эрисова Маъсуда Рашидовна*** | Ёшлар хулқ атвори ва дунёқарашни шакллантиришда ижтимоий псхологик таъсирларнинг тутган ўрни | 248 |
| ***Yangiboyeva Dildora*** | Socio-psychological problems of young people in the process of adapting to higher education | 250 |
| ***Юлдашева Зулхумор, Ҳамраева Жамила*** | Ёшларнинг ижтимоий-психологик муаммолари, сабаб ва ечимлари | 253 |
| ***To'rayeva Charos Uyg'un qizi*** | Globallashuv jarayonida yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash | 254 |
| ***Баирбекова Зарина*** | Ўсмирлик даврида девиант хулқнинг шаклланишига таъсир этувчи омиллар | 256 |
| ***Унгбоева Умида*** | Ахборотлашув жараёнида жамият хамда шахс тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари | 258 |
| ***Зокирова Муниса Зокировна*** | Ёшларнинг дунёқараши ва хулқ-атворига таъсир этувчи ижтимоий психологик омиллари | 260 |
| ***Suyunova Shodiya*** | O'quvchilarni to'g'ri kasb-hunarga yo'naltirishda maktab amaliyotchi psixologining o'rni | 264 |
| ***Mohidil Hasanova*** | Yoshlarning jamiyatda o`z o`rnini topishida oila-maktab-mahalla hamkorligi | 266 |
| ***Акбарова Динара*** | Ўсмирлик даврига хос аддиктив хулқ-атвор профилактикаси | 267 |
| ***To'rayeva Maxfuza*** | Axborotlashgan jamiyatda shaxsning roli | 271 |
| ***Sharipova Rushana*** | Yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga | 274 |

| | | |
|---|---|---|
| | ta’sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar | |
| ***Қодиров Обид Сафарович*** | Ёшларнинг хулқ-атворида содир бўлиши мумкин бўлган жиноят мотивлари шаклланишини ижтимоий-психологик омиллари | 277 |
| ***Madumarova Nodira*** | Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida badiiy adabiyotning ahamiyati | 281 |
| ***Жарилкапова Гулзар*** | Ёшларни ижтимоий психологик қўллаб-қувватлаш | 283 |
| ***Yorboboyeva Iroda*** | Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy-psixologik ta'sirlarning tutgan o'rni | 285 |
| ***Saydullayeva Zilola*** | Yuqori sinflarda ingliz tili fani o`qitishning o`ziga xosligi | 288 |
| ***Умурзоқова Феруза*** | Ingliz tilining dunyo hamjamiyatida tutgan o`rni | 291 |
| ***Toyirova Laylo,<br>Ergasheva Muxlisa*** | Ustanovka va irodaviy aktlar psixologik fenomen sifatida | 293 |
| ***Азамат Назаров,<br>Баходир Бахтиёров,<br>Нодирбек Иброҳимов,<br>Ойшахон Холматова*** | Раҳбар фаолиятида бошқарув қарорларини қабул қилишнинг асосий тамойиллари ва психологик асослари | 297 |
| ***Ғайибова Наргиза,<br>Рахмонова Моҳинур*** | Ёшларда масъулият ҳиссини шакллантириш муаммоси | 300 |
| ***Ҳабибуллаев Баҳодир*** | Ёшлар психологиясида деструктив ғояларнинг шаклланишида интернет омили | 303 |
| ***Юсупов Умиджон*** | Оилада соғлом турмуш тарзи маданиятини шакллантириш психологияси | 305 |
| ***МУНДАРИЖА*** | | 310 |

